

Rus adabiyoti durdoqchisi

B.L. Vasilyev





**RO'YXATLARDA
YO'Q EDI NOMI**

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--





B2L
V25

Б.В.

Rus adabiyoti durdonalari

BORIS LVOVICH VAŞILYEV



UNICAD

RO'YXATLARDA YO'Q EDI NOMI

Qissa va roman

T 50

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-31

KBK 84(2Poc=Pyc)


V 25

Rus tilidan
Haydar Ibrohimov va Elbek Musayev
tarjimasi

Atoqli rus yozuvchisi Boris Vasilyev o'zining urush mavzusiga, xususan, II jahon urushiga bag'ishlangan asarlari bilan mashhurlikka erishgan. Chunonchi, uning «Hur qizlar» qissasi o'zining hissiyot va hayajonga boyligi bilan ajralib turadi. Asarda navnihol qizlarning urushda ko'rsatgan qahramonligi kitobxonni larzaga soladi.

Muallifning «Ro'yxatlarda yo'q edi nomi» romanida vatan uchun o'z jonini fido qilgan jasur, mard o'g'lonlar siymosi yorqin voqealar misolida ifodalanadi.

O'ylaymizki, ushbu asarlar barcha kitobxonlar uchun manzur bo'ladi.



ISBN 978-9943-6583-7-0

© Boris Lvovich Vasilyev, 2021

© H. Ibrohimov, E. Musayev (tarj.), 2021

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



Qissa



171-razyezdda o'n ikki xonadon-u o't o'chiruvchilar saroyi bilan asr boshida xarsanglardan qurilgan pastak, uzun ombor omon qoldi. So'nggi bombardimon paytida suv minorasi qulab tushib, poyezdlar bu yerda to'xtamay o'tadigan bo'ldi. Nemislar endi razyezdni bombardimon qilmas, lekin razyezd ustida dushman samolyotlari har kuni charx urardi. Shu sababdan, qo'mondonlik har ehtimolga qarshi bu yerda ikkita zenit to'rtligini¹ saqlab turardi.

1942-yilning may oyi edi. G'arbda (salqin tunlarda u tomondan artilleriyaning bo'g'iq gumburi eshitilardi) har ikki taraf ikki metrlik okop qazib pozitsion urush olib borishga majbur bo'lib qolgandi: sharqda nemislar kanal va Murmansk yo'lini kecha-yu kunduz bombardimon qilishardi: shimolda dengiz yo'llari uchun beomon janglar borar, janubda qamalda qolgan Leningrad jon-jahdi bilan kurashni davom ettirardi.

Bu yer esa oromgohni eslatardi. Osoyishtalik, bekorchilikdan askarlar hammomning issiqxonasida bo'lgan odamlardek bo'shshib yurishardi. O'n ikki xonadonda samogon pishirish bobida yo'qni yo'ndiradigan yosh juvonlar va bevalar turishardi. Yangi kelgan askarlar uch kungacha uxlashar, sharoitni kuzatishardi, ammo to'rtinchi kunga borib, kimlarningdir tug'ilgan kunini nishonlash boshlanar, butun razyezdni qo'lbola bodaning chuchmal hidi bosib ketardi.

Razyezd komendanti – badqovoq Vaskov, buyruq ustidan tinmay shikoyatnoma yozardi. Shikoyatnomalar soni o'ntaga yetgach, boshliqlar Vaskovga navbatdagi hayfsanni yopishtirishib, ichkilikdan shishib ketgan nimvzvodni almashtirishardi. Bu orada komendant bir haftagacha yolg'iz qolib, bir o'zi ishni amallab turardi. Keyin yana hammasi shu qadar aniq takrorlanardiki, starshina oldingi shikoyatnomalardagi familiya hamda chislolarni o'zgartirib, ularni ko'chirib qo'ya qolardi.

¹ To'rttasi birlashtirilgan zenit o'qsochari.

– Bekorchi ishlar bilan shug‘ullanyapsiz! – deb baqirdi so‘nggi shikoyatnoma bo‘yicha kelgan mayor. – Yozuv-chizuvga mukkadani tushib ketgansiz! Komendant emas xuddi mirza!..

– Bizga ichmaydiganlardan yuboring! – turib oldi Vaskov: u baqiroq boshliqlardan hayiqardi, lekin qaysarlik qilib, o‘z bilganidan ham qolmasdi: – ichmaydiganlar va haligi... ayollar masalasiga...

– Bichilganlarni demoqchimisan?

– Bu yog‘ini o‘zingiz bilasiz, – dedi starshina ehtiyotkorona.

– Mayli, Vaskov! – dedi mayor o‘zining qattiqqo‘l ekanidan qizishib. – Senga ichmaydiganlarini yuboraman. Ayollar masalasi ham risoladagidek hal qilinadi. Lekin, ehtiyot bo‘l, starshina, ularni ham uddalay olmasang...

– Tushunarli! – to‘rslik bilan dedi komendant. Mayor quyushqondan chiqqan zenitchilarni olib ketarkan, Vaskovga xayrlashayotib, ayollarni hamda samogonni ko‘rganda undan – starshinadan burunroq teskari qaraydigan askarlardan yuboraman, deb yana bir karra va‘da berdi. Ammo bu va‘dani bajarish unchalik oson ish emasakan, uch kungacha birorta odam kelmadi.

– Bu ancha murakkab ish, – tushuntirdi starshina o‘zi turgan uyni bekasi Mariya Nikiforovnaga. – Ikki bo‘linma – bu ichmaydigan yigirmatacha odam degani. Butun frontni titkilasa hamki, hozir shuncha odamni topib berishlariga ko‘zim yetmayabdi...

Biroq uning bu gumoni asossiz bo‘lib chiqdi, chunki ertalab uy bekasi zenitchilar yetib kelishganini xabar qildi. Uning ovozi qandaydir g‘ayirlik ohangi bor edi, lekin starshina uyqusirab turgandan, buni sezmad, u o‘zini qiziqtirgan mavzuda gap ochdi:

– Komandirlari bilan kelishdimi?

– Komandiri ko‘rinmaydi, Fedot Yevgrafovich.

– Xudoga shukur! – Starshina o‘zining komendantlik lavozimini juda qadrlardi; amalni bo‘lashishdan yomon narsa yo‘q.

– Elburutdan bekorga quvonyapsiz, – sirli tabassum qildi uy bekasi.

– Quvonishlar urushdan keyin bo‘ladi, – Fedot Yevgrafich bekaning gapiga shunday o‘rinli javob berib, furajkasini kiygancha, uydan chiqdi.

Chiqdi-yu, dong qotdi: uy oldida horib-charchagan qizlar ikki qator bo‘lib saf tortib turishardi. Starshina hamon uyqusirayotgan bo‘lsam kerak, deb ko‘zlarini pikipirardi, ammo jangchilarning gimnastyorkalari

askar ustavida ko'zda tutilmaganda ba'zi yerda do'mpayib, pilotkalar ostida turlicha tartibga solingan kalta-uzun sochlar yoyilib turardi.

– O'rtoq starshina, alohida zenit-o'qsochar bataloni beshinchi rotasi uchinchi vzvodining birinchi va ikkinchi bo'linmalari obyektini qo'riqlash uchun sizning ixtiyoringizga keldi, – raport berdi ingichka tovushda ularning boshlig'i. – Doklad qilayotgan vzvod komandirining yordamchisi serjant Kiryanova.

– Xo'-o'sh? – dedi ustavga mos kelmagan tartibda kome-dant. – Demak, ichmaydiganlarni topishibdi-da...

Kuni bo'yi uning qo'lidan bolta tushmadi: zenitchi qizlar xona-donlarda turishga rozi bo'lishmagani sababli, o't o'chiruvchilar sa-royida so'ri yasadi. Qizlar taxta tashishar, unga ko'maklashishar, zag'izg'ondek tinmay sayrashardi. Starshina bularning oldida ob-ro'sizlanib qolishdan qo'rqib, qovog'ini uyib olgan edi.

– Mendan so'ramay razyezddan bir qadam ham chetga chiqilma-sin, – deb ko'rsatma berdi u, hamma narsa tayyor bo'lgach.

– Hatto meva terгани hammi? – dadil so'radi malla bir qiz. Ze-nitchilar kelgan zahotiy oq Vaskov bu qizning shaddodligini sezgandi.

– Hali meva pishgani yo'q, – dedi u.

– Shovul terish mumkinmi? – qiziqsinib so'radi Kirya-no-va, – bizga issiq taomsiz qiyin bo'ladi, o'rtoq starshina: ozib ketamiz.

Fedot Yevgrafich tarang tortib kiyilgan gimnastyorkalarga ikkilan-gan bir holatda nazar tashladi, ammo bunga ruxsat berdi:

– Faqat soydan nariga o'tilmasin. Soy bo'yida shovul to'lib yotipti.

Razyezdda osoyishtalik boshlandi: lekin bundan endi kome-dantning ahvoli yengillashmadi. Zenitchilar sho'x va hazilkash qiz-lar ekan, starshina har daqiqa o'zini cho'g' ustida yurgandek his etar, noo'rin gap aytishdan, noto'g'ri biron ish qilib qo'yishdan qo'rqardi. Qizlar yotoqxonasiga eshik taqillatmay kirish haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Mabodo eshik qoqishni unutib qo'ysa bor-mi, qizlar shunday chiyillashdiki, starshina tashqariga qanday chiqib ketganini o'ziyam bilmay qolardi, Fedot Yevgrafich qizlarning unga moyillik bildirishib qilgan ishoralari, hazillaridan hammadan ko'proq hayiqardi. Shu sababli xuddi bir narsasini yo'qotib qo'ygandek, yer suzib yurardi.

– Buncha tumtayib yurmasangiz, Fedot Yevgrafich – dedi uy be-kasi, uning qo'l ostidagilar bilan qanday muomala qilayotganini kuza-

tib. – Ular sizni o‘zaro chol deb atashyapti siz ham shunga yarasha ish tuting.

Fedot Yevgrafich bu yil bahorda o‘ttiz ikkiga kirdi, o‘zini qariyaga chiqarishlarini, albatta, hazm qilolmasdi. O‘ylab-o‘ylab, bunday gaplar uy bekasining o‘zidan chiqqan, mavqeyini mustahkamlash uchun gapiryapti degan xulosaga keldi: beka bahor tunlaridan birida komendant yuragidagi muzni eritishga erishgan, endi esa tabiiyki, egallagan marrasini mustahkamlashga intilardi.

Zenitchi qizlar tunlari uchib o‘tayotgan nemis samolyotlariga qarata sakkizta o‘qsochardan baravar o‘q uzishar, kunduzlari kir yuvishgani-yuvishgandi; o‘t o‘chiruvchilar saroyi atrofida doim ularning qandaydir kiyim-kechaklari yoyig‘lik turardi. Starshina qizlarning bunday kir yoyib qo‘yishlarini nojoiz hisoblab, bu to‘g‘rida serjant Kiryanovaga lo‘nda gap qildi:

- Sizlar maskirovkani buzyapsizlar.
- Biz buyruqqa asoslanamiz, – dedi Kiryanova o‘ylanib o‘tirmay.
- Qanaqa buyruq?
- Tegishli buyruq. Unda, harbiy xizmatdagi ayollarga barcha frontlarda kiyimlarini quritishlariga ruxsat beriladi, deyilgan.

Komendantning nafasi ichiga tushib ketdi: he, jin ursin bu qizlarni! Bularga gap topib berish qiyin; o‘rinsiz gap qilsang, qiyomatgacha hiringlab yurishadi...

Kunlar dim, qilt etgan shamol yo‘q; chivin shunaqayam ko‘payib ketgandiki, qo‘lda novda tutmasdan bir qadam ham yurib bo‘lmasdi. Harbiy kishining novda ko‘tarib yurishi g‘alatiroq tuyulsa hamki, bunga parvo qilmaslik mumkin edi. Ammo komendant so‘nggi paytlar har qadamda tomoq qirib, yo‘talib qo‘yishga odatlangan, bundan u rostakam cholga o‘xshab qolgandi; ana shuni biroz xijolatli edi.

Uning bunday yurishi jazirama may kunlaridan birida omborga kirganidan boshlandi. U o‘shanda bexos turgan joyida qotib qolgandi: qarshisida, shunaqa oppoq, shunaqayam dirkillagan, buning ustiga bir emas, sakkizta badanni ko‘rib, Vaskovni ter bosgandi: birinchi bo‘linma qizlari o‘z komandirlari kichik serjant Osyanina boshliq brezent ustida vujudlarini oftobga solib, xuddi onadan yangi tug‘ilgandek cho‘zilib yotishardi. Odob yuzasidan chinqirib ham qo‘yishmadi; brezentga yuzlarini bosishib, miq etmay yotishibdi; Fedot Yevgrafich kimningdir poliziga o‘g‘rincha kirgan boladek, sekingina orqasiga ti-

sarildi. O'sha kundan buyon u ko'kyo'tal bo'lgan odamdek, har qadamda o'h-ho'lab yuradigan bo'lib qoldi.

Vaskov qizlar ichida Osyaniyaning boshqacha ekanligiga oldindan e'tibor bergandi: bu juda jiddiy qiz edi. Hech qachon kulmasdi, faqat lablari salgina tabassumga kelar, ammo o'shanda ham ko'zlarida birdek jiddiyat aks etardi. Biroq Osyaniyaning yurish-turishi biroz g'alatiroq ekani ham Fedot Yevgrafichning diqqatini jalb qilgandi; uy bekasiga ayollar to'g'risida gap ochish uncha ma'qul ish bo'lmasa hamki, bu qizni orqavarotdan surishtirib ko'rishni buyurdi.

– U beva ekan, – bir kundan keyin ma'lum qildi Mariya Niki-forovna labini allanechuk burib. – Xullas, rasmana xotin, ko'nglini olishingiz mumkin.

Starshina indamadi: baribir xotin kishiga tushuntirib bo'lmaydi. Boltani olib, hovliga chiqdi: xayol surib olish uchun o'tin yorishdan qulayroq ish yo'q. O'ylaydigan gaplar esa to'planib qolgan, ularni sarak-puchakka ajratish kerak edi.

Xo'sh, eng avval – intizom masalasi. To'g'ri, bu jangchilar ichishmaydi, aholi bilan ko'ngilxushlik ham qilishmaydi, bular ishning yaxshi tomoni. Ammo tartib yo'q: «Lyuda, Vera, Katenka – soqchilikka! Katya, sen razvodyashiy» emish...

Shu ham buyruq berish bo'ldimi? Soqchilarni joy-joyiga, albatta, tartib bilan, ustavga muvofiq tayinlash kerak. Bu yerda esa masxarabozlikning o'zginasi, bunga barham berish lozim lekin qanday qilib? Bu haqda qizlarning boshlig'i Kiryanova bilan gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi, biroq uning javobi ma'lum:

– Bizga ruxsat berilgan, o'rtoq starshina. Qo'mondonning shaxsan o'zi ruxsat bergan.

Nuqul kulishadi, shaytonlar...

– Rosa joningni kuydirib ishlayapsanmi, deymen, Fedot Yevgrafich?

U qayrilib qarab, yoniga tashrif buyurgan qo'shni ayol Polinka Yegorovani ko'rdi. Razyezddagi ayollar orasida ashaddiysi mana shu. O'tgan oyda to'rt marta tug'ilgan kunini nishonladi.

– Sen o'zingni ko'p qiynayverma, Fedot Yevgrafich. Zot uchun qoldirilgandek, oramizda bir o'zingsan, birgina jonsan.

Shunday deb, xaxolab kuladi. Yoqasining tugmasi ham solinmagan; ko'ylagi ichida xuddi qo'sh olma qalqib turibdi.

– Endi sen podachiga o‘xshab hovlima-hovli aylanasan. Bir hafta bir hovlida, keyin yana boshqasida. Biz, xotinlar, sening xususingda, shunday kelishib qo‘ydik.

– Polina Yegorovna, sening vijdoning bormi o‘zi? Askarning ayolimisani yoki allaqanday xonimchamisan? O‘zingga yarashadigan gapni gapir.

– Urush, Yevgrafich, hamma narsani kechiradi. Askarlarni ham, askarlarning xotinlarini ham.

Mana qanaqa gaplar bor dunyoda! Bundaylarni aslida badarg‘a qilsa arziydi, lekin qanday yo‘sinda? Grajdan hokimiyati o‘z kuchini ko‘rsatsa-chi? Komendantga esa bular bo‘ysunishmaydi: shu to‘g‘rida u hatto baqiroq mayor bilan ham gaplashgandi.

Ha, qisqasi, o‘ylaydigan gaplar to‘lib-toshib, bitta sandiqqa sig‘maydigan bo‘lib qoldi. Buning ustiga, har bir jumboqni alohida tahlil qilish darkor. Alohida tahlil qilish...

Uning deyarli savodsiz ekani, har holda, ancha xalal yetkaz-yapti. O‘qish, yozish, asosan, qo‘lidan keladi; hisoblashni ham umuman to‘rt sinf hajmida o‘rgangan, ammo bundan nariga o‘tolmadi; xuddi shu to‘rtinchi sinfni tugatay deyayotganida, otasini ayiq ezg‘iladi. Qizlar ayiq voqeasini bilib qolishsami, undan rosa kulishar! Shunaqasi ham bo‘larkan-da; jahon urushida gazdan, grajdanlar urushida qilichdan, quloqlarning qirqma miltig‘idan omon qolgan odam nihoyat o‘z ajali bilan o‘lmay, naq ayiq panjasida jon bersa! Bu qizlar ayiqni, ehtimolki, faqat hayvonot bog‘ida ko‘rishgandir...

Fedot Vaskov, sen deyarli savodsiz bo‘lsang ham komendantlikka yetishgansan. Bular esa – oddiy askar bo‘lganlariga qaramay, bilimdon: oshirib mo‘ljal olish, kvadrant, snos burchagi nimaligidan xabardor. Gaplaridan sezilib turibdi, yettinchi sinfni, hatto ko‘pchilik to‘qqizinchini bitirishgan. To‘qqizdan beshni chiqarib tashlasa – to‘rt qoladi. Demak, bulardan ancha orqada qolgani aniq.

O‘ylar unchalik ko‘ngilli emasdi, shuning uchun.

Vaskov jon-jahdi bilan o‘tin yorishga tushgandi. Uning qolib ketgani uchun kimni ayblash kerak? Haligi shafqatsiz ayiqdan shikoyat qilishning hojati bormikan?..

Qiziq, shu vaqtgacha u o‘zini omadli deb bilardi. Hamisha birday ishi yurishavermasa ham, ortiqcha zorlanmasdi. Har holda, to‘liqsiz to‘rt sinf ma‘lumoti bilan polk maktabini o‘qib bitirdi va

o'n yil xizmat qilib, starshina darajasiga ko'tarildi. Bu jihatdan yomon bo'lgani yo'q, lekin boshqa tomondan taqdir uni biroz qisib qo'ydi; ikki marta unga qarata o'zining butun to'plaridan babbaravar o't ochdi, ammo Fedot Yevgrafich taqdir zarbalariga bari-bir bardosh berdi. Chidadi...

Fin urushidan sal oldin garnizon gospitalida xizmat qilgan sanitar qizga uylandi. Xotini juda ofatijon edi: unga dunyoda qo'shiq aytish, raqs tushish, vino ichish bo'lsa bas edi. Nima qilganda ham, unga bir o'g'il tug'ib berdi. Otini Igor qo'yishdi. Igor Fedotich Vaskov. O'shanda fin urushi boshlanib qoldi. Vaskov frontga ketdi; ikkita medal bilan qaytib kelganida taqdir birinchi marta unga zarba berdi: u frontda qor kechib yurganida, xotini polkdagi mol doktori bilan don olishib, janub tomonga ketib qolibdi. Fedot Yevgrafich darhol hisob-kitobni to'g'riladi, bolani sud orqali o'ziga olib, qishloqqa, oyisining bag'riga jo'natdi. Bir yildan keyin bola o'ldi, mana o'shandan buyon Vaskov bor-yo'g'i uch martagina jilmaydi: orden topshirgan generalga, yelkasidan snaryad parchasini olib tashlagan jarrohga-yu, sezgirligi uchun uy bekasi Mariya Nikiforovnaga.

Xullas, o'sha snaryad parchasi evaziga hozirgi lavozimni egalladi. Omborda ayrim ashyolar qolgan, bu yerga soqchi qo'yilmagandi, lekin komendantlik lavozimini joriy qilishib, unga o'sha omborni qo'riqlashni topshirishdi. Starshina obyektini har kuni uch marta aylanib chiqar, qulflarni tekshirar va o'zi tutgan daftarga bir xil qilib: «Obyekt tekshirib chiqildi, tartibsizlik ro'y bergani yo'q», deb yozib qo'yardi. Tekshirgan vaqtini ham belgilardi, albatta.

Starshina Vaskov xizmatni tinch o'tar edi. Deyarli shu kungacha umuman tinch edi. Endi esa...

Starshina xo'rsinib qo'ydi.

2

Rita Mushtakova urushgacha bo'lgan hamma voqealar ichida maktabda o'tkazilgan qahramon chegarachilar bilan uchrashuv kechasini yaxshi eslab qolgandi. O'sha kechaga mashhur chegarachi Karatsupa kelmagan, itining oti ham Indus emasdi, shunga qaramay, Rita bu uchrashuvni hozirgina bo'lib o'tganday yaxshi eslar, uyatchan leytenant Osyanin kichkina chegara shaharchasining yog'och yotqizilgan yo'lkasida u yonida borayotgandek bo'lardi. Leytenant qahramon ham

emas, delegatsiya sostaviga tasodifan kirib qolgan va bundan g'oyat uyalar edi.

Rita ham shaddod qizlardan emasdi: u na chegarachilarni tabriklashda ham, badiiy havaskorlikda ham qatnashmay, zalda o'tirar, yoshi o'ttizga yetmagan mehmonlardan birortasiga birinchi bo'lib gap qotishdan ko'ra, yer yorilib, yer qa'riga kirib ketishga rozi edi.

Rita leytenant Osyanin bilan tasodifan yonma-yon o'tirib qolgan, ikkalasi ham qimirlashga qo'rqib, oldinga tikilgancha qotib o'tirishardi. Keyin maktab kechasini boshqaruvchilar o'yin boshlashdi, ularning yana birga bo'lishiga to'g'ri keldi. Keyin umumiy o'yin – vals boshlandi, ular raqsga tushishdi. So'ng deraza oldida turishdi. Keyin... Ha, – keyin u kuzatib qo'ydi.

O'shanda Rita juda mug'ambirlik qildi; uni eng uzoq yo'ldan boshladi. U esa baribir jim borar va faqat chekar, har safar chekishga undan tortinibgina ruxsat so'rardi. Yigitning bu tortinchoqligidan Ritaning yuragi shuvillab ketardi.

Ular xayrlashayotib hatto, qo'l olishmadi, bir-biriga bosh irg'ab qo'ya qolishdi. Leytenant zastavaga jo'nab ketdi va har shanba qisqa-qisqa xat yozib turdi. Rita esa har yakshanba uzundan-uzoq javob xat yozardi. Yozgacha yozishmalar shu tarz davom etdi: iyunda u shahar-chaga uch kunga keldi va chegara notinch, boshqa otpusk berishmaydi, shuning uchun darhol ZAGSga boramiz, dedi. Rita ham bu taklifdan hech ajablanmadi, ammo ZAGSda byurokratlar o'tirishgan ekan, ular ro'yxatga olishdan bosh tortishdi, chunki Ritaning o'n sakkizga to'lishiga hali besh yarim oy bor edi. Lekin ular shahar komendanti huzuriga, u yerdan Ritaning ota-onasi huzuriga borishdi va o'z aytganlarini qilishdi. Rita sinfidagilar orasida birinchi bo'lib erga tegdi. Yana qanaqasiga deng – chiroyli komandirga, buning ustiga chegarachiga. Dunyoda undan baxtli qiz yo'q edi.

Zastavada uni darrov xotin-qizlar sovetiga saylashdi va hamma to'garaklarga a'zo qilib yozib qo'yishdi. Rita yaradorlarni bog'lashni, otishni, chavandozlikni, granata uloqtirish va gazdan qanday saqlanishni o'rgana boshladi. Bir yildan keyin o'g'il ko'rdi, otini Alik – Albert qo'yishdi, yana bir yildan keyin esa urush boshlandi.

Urushning o'sha birinchi kuni besh-olti kishi o'zini yo'qotib qo'yagan bo'lsa, ulardan biri Rita edi. U umuman bosiq, mulohazali edi, ammo o'sha kungi xotirjamligining sababi boshqa: Rita o'g'lini

maydayoq ota-onasinikiga jo'natgan, shu sababli begona bolalarni qutqarish bilan shug'ullana olardi.

Zastava dushman hamlasiga o'n yetti kun bardosh berdi. Rita kecha-yu kunduz uzoqdan otishmani eshitar, ko'nglida shu otishmada eri sog'-salomat yurganiga, chegarachilar armiya qismlari yetib kelguncha bardosh berishlariga va birgalikda zarbaga zarba bilan javob qilishlariga umid bog'lardi. Axir zastavada: «Tun kirdi; chegarani qopladi zulmat, lekin undan o'tolmas hech kim, sovet yeriga dushman suqolmas tumshuq...» deb kuylashni sevishardi. Ammo kunlar o'taverdi, yordam yetib kelmadi va o'n yettinchi kuni zastava jim bo'lib qoldi.

Ritani vatan ichkarisiga jo'natmoqchi bo'lishdi, u esa jangga yuborishlarini so'rardi. Uni haydashar, zo'rlab teplushka vagonga kiritib qo'yishar, lekin zastava boshlig'ining o'rinbosari katta leytenant Osyaninning qaysar xotini bir kundan keyin yana istehkomli rayon shtabida paydo bo'lardi. Nihoyat uni sanitarkalikka olishdi, yarim yildan keyin esa polk zenitchilar maktabiga o'qishga yuborishdi.

Katta leytenant Osyanin esa urushning ikkinchi kuni tongda boshlangan qarshi hujum vaqtida halok bo'lgandi. Rita buni iyulda, chegarachi serjant zabt etilgan zastavadan bir amallab o'tib kelgandan keyin bildi.

Boshliqlar qahramon chegarachining kulgi nimaligini bilmaydigan bevasini qadrlashardi: buyruqlarda qayd etishar, namuna qilib ko'rsatishar edi. Shu sababli maktabni tugatgandan keyin o'sha zastava turgan, eri shiddatli nayzabozlik jangida halok bo'lgan joyga yuborish haqidagi shaxsiy iltimosini inobatga olishdi. Bu yerda front jindekkina chekingan: ko'lga yopishib olib, o'rmonlarni pana qilib, sobiq zastava va bir vaqtlar leytenant Osyanin to'qqizinchi «B» o'quvchisi bilan tanishgan shaharcha o'rtasida yerga qapishib, qotib qolgan edi.

Endi Rita mamnun: u niyatiga yetdi. Hatto erining halokati uqubatlari ham yuragining bir burchagiga yashirildi; uning ishi, burchi va nafratini sochishi uchun butunlay aniq nishon bor edi. U jim va shafqatsiz nafratlanishni o'rganib oldi, hozircha uning raschyoti dushman samolyotini urib tushira olmagan bo'lsa-da, u har holda nemis aerostatini ilma-teshik qila oldi. Aerostat yonib, puchqayib qoldi; korrek-tirovka qilib turgan dushman o'zini savatdan tashlab, yerga toshdek quladi.

– Ot, Rita!.. Ot!.. – deb baqirishardi zenitchi qizlar.

Rita esa tushayotgan nuqtani kutib turardi. Nemis yerga yaqin qol-gach, parashyut bog'ichini tortib, o'zining nemis xudosiga shukrona aytayotganda u gashetkani ohista bosdi. To'rt stvoldan baravar otilgan o'q qora sharpani bo'lib tashladi, qizlar quvonib baqirib, uni o'pisha ketdi, u esa zo'rma-zo'raki tabassum bilan qarab turardi. Tuni bilan u titrab-qaqshab chiqdi, vzvod komandirining o'rinbosari Kiryanova unga choy ichirib, tasalli berardi:

– O'tib ketadi, Rituxa. Men birinchisini o'ldirganimda, o'li-shimga sal qolgan, Xudo haqi, rost. La'nati bir oygacha tushimga kirib yurdi...

Kiryanova ko'p janglarni ko'rgan qiz edi: fin urushidayoq sani-tar sumkasi bilan oldingi marrada ozmuncha kilometr yo'lni surgalib o'tmagan, ordeni ham bor edi. Rita uni xarakteri uchun hurmat qilar, lekin unchalik qalin emasdi.

Aytmoqchi, Rita umuman ko'pchilikka aralashmas edi: bo'linmasi nuqul komsomol qizlardan iborat edi. Yosh emas, yo'q, ammo g'o'r qizlar. Ular na muhabbatni, na onalikni, na g'amni, na quvonchni bi-lishar, topgan gaplari leytenantlar-u, bo'sa haqida edi, bu esa hozir Ritaning asabiga yomon ta'sir qilardi.

– Uxlanglar!. – deb qisqa buyruq qilardi u, muhabbat savdosi ha-qidagi navbatdagi gaplarni eshitib. – Yana bunaqa ahmoqona gaplar-ni eshitsam, soqchilikdan bo'shamaysan.

– Chakki qilyapsan, Rituxa. – Kiryanova erinchoqlik bilan e'ti-roz bildiradi, – vaysashaversin, zeriktirmay o'tirishibdi.

– Sevib qolishsa – hech narsa demayman. Ammo pana-pastqam-da yalashib-yulqashishlariga hech tushunmayman.

– O'zing namuna bo'l, – deb kuladi Kiryanova. Rita darrov jim bo'lib qoladi. Bunday bo'lishini tasavvur ham qilolmaydi: uning uchun dunyoda erkak zoti yo'q endi. Faqat bir erkak bor edi – urush-ning ikkinchi kuni tongida odami kam qolgan zastavani nayzabozlik jangiga boshlab borgan yigit. Endi Rita o'zini tutib, dadil bo'lishga harakat qilib yashardi.

May arafasida raschyot rosa qiynaldi: chaqqon «messer»lar bi-lan ikki soat jang qilishdi. Nemislar quyosh tomondan kelishar, zenitkalar ustiga sho'ng'ib, o'q yog'dirishardi. Hamma vaqt bi-rovga bildirmay nimanidir kavshab yuradigan puchuq, xunuk, o'q tashiydigan semiz qizni o'ldirishdi, yana ikkitasini yengil yara-dor qilishdi. Dafn etishga qism komissari keldi, qizlar uvvos solib

yig'lashardi. Qabr ustida salyut berishdi, keyin komissar Ritani bir chetga chaqirdi:

– Bo'linmani to'ldirish kerak. – Rita indamadi.

– Kollektivngiz sog'lom, Margarita Stepanovna. O'zingiz bilasiz, frontda xotin kishiga hamma gap otaveradi. Lekin o'zini tuta olmaydigan xotinlar ham bo'ladi.

Rita yana indamadi. Komissar og'irligini u oyog'idan-bu oyog'iga solib, maxorka tutatdi-da, bo'g'iq ovozda gapirdi:

– Shtab komandirlaridan biri – oilalik odam-u, haligi, ma'shuqa orttiribdi. Harbiy Sovet a'zosi buni bilib qolib, o'sha polkovnikni iskanjaga oldi, qizni biror ishga – sog'lom, yaxshi kollektivga joylash-tirib qo'yishni esa menga topshirdi.

– Yuboravering, – dedi Rita.

Ertalab uni ko'rib, ko'z uzolmay tikilib qoldi: qiz baland bo'yli, mallasoch, oppoq edi. Ko'zlari esa bolalarnikidek yashil va yum-yumaloq.

– Jangchi Yevgeniya Komelkova sizning ixtiyoringizga...

O'sha kuni hammomga tushiladigan kun edi. Ularning navbati kelgach, hammomning kiyim yechadigan xonasida qizlar yangi kelganga mo'jizaga qaragandek tikilib qolishdi.

– Jenka, suv parisining o'zginasidan...

– Jenka, badaning buncha tiniq bo'lmasa...

– Jenka, sening qomatingga qarab haykal yasasa bo'larkan!..

– Jenka, siynaband taqmay yursang ham bo'larkan!

– Voy, Jenka, seni muzeyga qo'yish kerak. Qora duxoba ustiga o'tqazib, oyna bilan berkitib qo'yish lozim...

– Baxtsiz ayol, – Kiryanova xo'rsindi. – Shunday kelishgan qaddi-qomatni harbiy kiyim ostiga yashirib yurish o'lim bilan baravar.

– Go'zal, – dedi Rita ohista. – Go'zallar kamdan-kam baxtli bo'lishadi.

– O'zingga ham shama qilyapsanmi? – Kiryanova jilmaydi.

Rita yana jim bo'lib qoldi, Ha, u vzvod komandirining o'rinbosari Kiryanova bilan do'stlasholmadi. Hech ham til topisholmayapti.

Jenka bilan esa do'stlashib ketdi. Bir kun o'z-o'zidan, Hech qanday tayyorgarliksiz, sinashta bo'lmay turiboa Rita unga o'z hayoti haqida so'zlab berdi. Ham nasihat qilmoqchi, ham o'z hayotini misol keltirib maqtanmoqchi bo'ldi. Jenka esa bunga javoban na achindi, na hamdard bo'ldi. Qisqagina qilib:

– Demak, dushmanda shaxsiy o‘ching bor ekan, – deb qo‘ya qoldi.

Bu gapni shunday aytdiki, Rita polkovnik bilan uning o‘rtasida bo‘lgan gaplarni ipidan-ignasigacha bilsa ham:

– Sening hammi? – deb so‘radi.

– Men – hozir yolg‘izman. Oyim, singlim, ukam – hammasini o‘qsochardan qirib tashlashdi.

– Otishmadami?

Ushlab, otib tashlashgan. Komsostav oilasi deb ushlab olib, otib tashlashgan. Meni esa ro‘paradagi uyga eston ayoli yashirib qo‘ygandi, hammasini ko‘rib turganman. Hammasini!.. Singlim eng keyin yiqildi: ataylab otishdi...

– Menga qara, Jenka, polkovnik-chi?.. – Rita shivirlab so‘radi. – Qanday botinding-a, Jenka?..

– Botindim-da!.. – Jenka jahl bilan malla sochlarini silkitib javob qildi. – Nasihatgo‘ylikni hozir boshlaysanmi yoki otboydan keyinmi?

Jenkaning taqdiri oldida Ritaniki unchalik bo‘lmay qoldi. Shunisi qiziqki, Rita go‘yo biror joyi lat yegandek, ancha bo‘shashib qoldi. U ba‘zan hatto kular, qizlarga qo‘shilib qo‘shiq aytar, lekin Jenka bilan yolg‘iz qolgandagina o‘zini erkin sezar edi.

Mallasoch Komelkova, boshiga tushgan fojialarga qaramay, g‘oyat odamshavanda, quvnoq va sho‘x edi. Goh bo‘linmadagi qizlarni kuldirish uchun biror leytenantni hazil bilan mot qilar, goh bo‘sh vaqtlarda qizlarning «la-la»lab jo‘r bo‘lishida «Siganochka»ga qoyil qilib raqs tushardi, goh birdan hammani o‘z og‘ziga qaratib birorta ishqiy sarguzashtni hikoya qilib berardi.

– Sen sahna uchun yaratilgansan, Jenka, – Kiryanova xo‘rsinib qo‘yadi. – Shunday ajoyib xotinning umri bekor o‘tyapti-ya!..

Ritaning avaylab-asrab kelayotgan yolg‘izligi shu tariqa tamom bo‘ldi. Jenka hammasini ostin-ustun qilib yubordi. Ularning bo‘linmasida Galka Chetvertak degan ko‘rimsizgina bir qiz bor edi. Ozg‘in, burni uzun, sochi poxoldan yasalgandek, ko‘kragi bolalarnikidek yassi. Hammomda Jenka uni yuvib-taradi, sochini yaxshilab turmakladi, gimnastyorkasini qaddiga moslab berdi – Galka guldek ochilib ketdi. Ko‘zlari birdan porlay boshladi, tabassum ham paydo bo‘ldi. O‘sha kundan boshlab Galka Jenkadan bir qadam ham uzoqlashmaydigan bo‘lib qolgani uchun endi ular – Rita, Jenka, Galka uchovlon birga yurishardi.

Zenitchi qizlar oldingi marradan obyektga o'tkazish haqidagi xabarni norozilik bilan kutib olishdi. Faqat Rita indamadi: shtabga borib, xaritaga qaradi-da:

– Mening bo'linmamni yuboringlar, – dedi. Qizlar hayron bo'lishdi. Jenka qarshilik qilib isyon ko'tardi, lekin ertasiga birdaniga o'zgarib qoldi. Qizlarni razyezdga borishga tashviqot qila boshladi. Nima uchun, nega bunday bo'lganini hech kim tushunmasdi, ammo jim bo'lib qolishdi: Jenka aytdimi – demak, zarur ekan. Gap-so'zlar darrov to'xtadi, yo'lga hozirlik boshlandi. Razyezdga kelishlari bilanoq Rita, Jenka va Galka birdan choyni qandsiz ichadigan bo'lib qolishdi.

Uch kundan so'ng Rita razyezddan g'oyib bo'ldi. O't o'chiruvchilar saroyidan sirg'alib chiqib, uyquga ketgan razyezdni sharpa kabi kesib o'tdi-yu, shudringdan nam tortgan zirkozorda g'oyib bo'ldi. O't bosgan o'rmon so'qmog'idan katta yo'lga chiqib, birinchi yuk mashinasini to'xtatdi.

– Yo'l bo'lsin, go'zal qiz? – so'radi mo'ylovdor starshina. Tunda mashinalar front orqasiga ovqat keltirish uchun jo'nar, ularni ustavni uncha yaxshi bilmaydigan kishilar kuzatib borishardi.

– Shahargacha eltib qo'yasizlarmi?

Mashina kuzovidan yordamlashgani qo'llar cho'zildi. Rita ruxsat kutib turmay g'ildirak ustiga oyoq qo'ydi-yu, bir sakrab yuqoriga chiqib oldi. Uni brezent ustiga o'tqazib, yelkasiga paxtalik tashlab qo'yishdi:

– Qizaloq, biror soat mizg'ib ol...

Ertalab esa u yana o'z o'rnida edi.

– Lida, Raya, naryadga!..

Hech kim ko'rmadi, Kiryanovaga esa kimdir aytib qo'ydi. Ammo u hech nima demadi, o'zicha kulib:

– Mag'rur qiz birortasini orttirganga o'xshaydi. Mayli, balki ko'ngli yumshar... – deb qo'ydi.

Bu haqda Vaskovga ham bir og'iz gapirmadi. Sirasini aytganda, qizlarning birortasi ham Vaskovdan qo'rqmasdi, Rita esa umuman tap tortmasdi. Axir Vaskov razyezdga po'panak bosgan to'nkadek kezib yuradi, biladigan so'zi yigirmata, ular ham ustavdan olingan. Kim uni odam qatoriga qo'shadi?

Ammo forma degan narsa bor, ayniqsa armiyada. Shu forma Ritaning tungi safarlari haqida Jenka bilan Galka Chetvertakdan boshqa hech kim bilmasligini talab qilardi.

Qand, qotirilgan non, bug‘doy yormasi, ba‘zan esa go‘sht konservasi shaharchaga «safar» qilardi. Omadi kelganidan es-hushini yo‘qotgan Rita haftada ikki-uch marta kechasi shaharga yugurardi, shuning uchun qorayib, ozib ketdi. Jenka uning qulog‘iga ta‘naomuz shivirlardi:

– Tinkang qurib qoldi, oyisi. Patrulga duch kelib qolsang yoki birorta komandir surishtirib qolsa – ishing pachava.

– Jim bo‘l, Jenka, men omadliman!..

O‘zining esa baxtdan ko‘zlari porlaydi: bunaqa ayol bilan jiddiy gaplashib bo‘larmidi? Jenkaninggina ko‘ngli notinch edi:

– Ehtiyot bo‘l, Ritka!..


O‘zining tungi safarlaridan Kiryanova xabardorligini Rita darrov sezib qoldi: qarashlaridan, kinoyalardan sezdi. Go‘yo Rita katta leytenantiga chindan ham xoinlik qilgandek, Kiryanovaning kinoyalari uni jig‘ibiyron qilardi. Jahli chiqib, siltab tashlamoqchi bo‘ldi-yu, Jenka yo‘l qo‘ymadi. Mahkam yopishib, chetga olib chiqdi:

– Mayli, Rita, nima deb o‘ylasa o‘ylayversin!.. – Rita o‘ziga keldi: Jenkaning gapi to‘g‘ri. Har qanaqa iflos gap to‘qisa ham mayli, ish-qilib jim yursa, xalaqit bermasa, Vaskovga chaqib qo‘ymasa bo‘lgani. Vaskov ming‘illab, shunday egovlaydiki, yorug‘ dunyo ko‘zingga qorong‘i ko‘rinib ketadi. Buni allaqachon bilib olishgan: birinchi bo‘linmadan ikki dugonani starshina daryo ortida ushlab oldi. To‘rt soat – tushlikdan kechki ovqatgacha nasihat qildi: ustav, instruksiya, qo‘llanmalardan sitatalarni yoddan o‘qib berdi. Qizlarni shunchalik yig‘lamoqdan beri qildiki, endi daryoning narigi tomoniga o‘tish u yoqda tursin, hovlidan tashqariga chiqmaslikka qasam ichishdi.

Lekin Kiryanova hozircha jim yurardi.

Oq tunlar boshlandi. Shamol esmasdi. Kechki shafaqdan tonggacha uzundan-uzoq nimqorong‘ilikda gullayotgan o‘tlar isi anqir, zenitchi qizlar esa xo‘roz ikkinchi marta qichqirgunga qadar o‘t o‘chiruvchilar saroyi oldida qo‘shiq aytishar edi. Endi – Rita shaharchaga qatnashini faqat Vaskovdan sir tutar, kechki ovqatdan keyin ko‘p o‘tmay g‘oyib bo‘lar, tongotarda qaytib kelardi. U ikki kun oralatib shaharchaga borardi.

Rita razyezdga qaytishni hamma narsadan ham yaxshi ko‘rardi. Patrulga duch kelib qolish xavfi endi orqada, etikni bir-biriga bog‘lab, yelkasiga tashlab olib, muzdek shudringda yalaganing yoxirjam yurish mumkin.



Shudring kechib, kelgusi uchrashuv to'g'risida, onasining shi-
koyatlari va kelgusi beso'roq ketish haqida o'ylash naqadar lazzatli.
Kelgusi uchrashuvni boshqalarning aralashuvisiz yoki unga qaram
bo'lmagan holda o'zi belgilay olishidan Rita baxtiyor edi.

Lekin urush davom etar, u inson hayotini o'z bilganicha ista-
gan ko'yiga solar, kishilar taqdiri bir-biri bilan chalkash va tushunib
bo'lmaydigan darajada tutashib ketgan edi. Kichik serjant Margarita
Osyantina sokin 171-razyezd komendantini aldab yurganda SD imperiya
xizmatining S 219/702 nomerli «FAQAT QO'MONDONLIK
UCHUN» deb belgi qo'yigan direktivasiga imzo chekilgani va amalga
oshirila boshlaganidan mutlaqo bexabar edi.

3

Bu yerda tonglar juda sokin edi.

Rita yalangoyoq yurib borar, yelkasida etigi tebranib turar-
di. Botqoqdan qalin tuman tarqalib, oyog'ini muzlatar, kiyimiga
o'tirardi. Rita esa razyezdga yaqinlashgach, tanish to'nkaga o'tirib,
quruq paypog'i va etigini kiyib olishini mamnunlik bilan o'ylardi.
Yo'lovchi mashina kelishini uzoq kutib qolganidan hozir shoshilib
borardi. Starshina Vaskov esa tong yorishmayoq o'rmdan turib, om-
bor qulfini tekshirgani jo'nar edi. Rita xuddi ombor oldidan chiqishi
kerak edi: uning tanish to'nkasi yog'och devordan ikki qadamcha
narida, buta orqasida edi.

Ikkita muyulishdan o'tib, olxazordan to'g'ri kesib chiqsa, to'nkaga
yetadi. Rita birinchi muyulishdan o'tdi-yu, qotib qoldi: yo'lda odam
turardi.

U teskari qarab turibdi: novcha, xoldor plashch-palatkada, yelka-
sida nimadir bukirga o'xshab do'ppayib chiqib turibdi. O'ng qo'lida
tasma bilan tortib bog'langan uzunchoq tugun, ko'kragida avtomat
osig'liq.

Rita o'zini buta orasiga oldi, buta silkinib, uning ustiga shudring
yog'ildi, lekin u hech narsa sezmedi. Nafasini ichiga yutib, siyrak
barglar orasidan xuddi, tushida ko'rayotgandek, yo'lda qimirlamay
turgan begona kishiga qaradi. O'rmondan ikkinchisi chiqdi: bo'yi sal
pastroq, ko'kragida avtomat, qo'lida xuddi haligidaqa tugun. Ular ba-
land poshnali, shnurli botinkalari bilan shudringli o'tlar ustidan shar-
pasiz to'g'ri Rita tomon yurishdi.

Rita mushtumini og'ziga tiqib, og'riydigan darajada tishladi. Ishqilib beixtiyor qimirlamasa, baqirib yubormasa, butalar oralab qochib qolmasa bo'lgani. Ular yonginasidan o'tib ketishdi: chetdagisi Rita yashiringan butaga tegib o'tdi. Indamay, ovoz chiqarmay, soya kabi o'tishdi-yu, g'oyib bo'lishdi.

Rita kutib turdi: boshqa hech kim ko'rinmadi, Ohista chiqib, yo'lni kesib o'tdi-da, butalar orasiga sho'ng'idi, yana quloq soldi. Sukunat. Hansirab, yo'lni kesib tikkasiga yugurdi: etigi orqasiga urilib borardi. Po-yolkada yashirinmay chopib ketdi, taqa-taq yopilgan eshikni taqillatdi:

– O'rtoq komendant!.. O'rtoq starshina!..

Nihoyat eshik ochildi, galife shimda, yalang oyog'iga shippak ilib olgan Vaskov bamaziy ichko'ylakda ostonada ko'rindi. Uyqu qochmagan ko'zlari pirpiradi.

– Nima?

– O'rmonda nemislar!..

– Xo'sh... – Fedot Yevgrafich maynavozchilik qilyapti shekilli deb o'ylab, ishonqiramay ko'zlarini qisdi. – Qayerdan bilding?

– O'zim ko'rdim. Ikki. Avtomati bor, maskirovka xalatida.

Yo'q, aldayotganga o'xshamaydi. Ko'zlarida qo'rquv bor..

– Shu yerda turatur.

Starshina o'zini uyga urdi. Yong'in chiqqandek shoshilib etigini, gymnastyorkasini kiydi. – Nima gap, Fedot Yevgrafich? – deb so'radi beka qo'rqib.

– Hech narsa. Sizga aloqasi yo'q.

To'pponcha osig'liq kamarini bog'layotib, ko'chaga yugurdi. O'syanina joyidan qimirlamay, etigini hamon yelkasidan olmay turardi. Starshina beixtiyor uning oyog'iga qaradi: ho'l, qizarib ketibdi, bosh barmog'iga xazon yopishib qolibdi. Demak, o'rmonda yalang-oyoq yuribdi, etigini yelkasiga osib olibdi. Hozir, demak, shunaqa jang qilisharkan-da.

– Buyruq ber – hamma qurolini olsin: jangovor trevoga. Kiryanova huzurimga kelsin. Tez!..

Ikki tomonga yugurib ketishdi: qiz – o't o'chiruvchilar saroyiga, u esa – temir yo'l budkasiga, telefonga. Ishqilib aloqa uzilmagan bo'lsin-da..

– «Qarag'ay», «Qarag'ay!..» Ha, onangni emgur... Yo uxlashyapti, yo buzilgan... «Qarag'ay!..», «Qarag'ay!..» Hu seni!..

Ta'sir qildi!..

– «Qaragʻay» eshitadi.

– Oʻn yettinchi gapiryapti. Uchinchini ula! Tez boʻl, ChP!

– Ulayapman, baqirma. ChP emish... – Trubkada nimadir uzoq shitirladi, xirilladi, keyin uzoqdan eshitilgan ovoz soʻradi:

– Vaskov, senmisan? Nima boʻldi?

– Xuddi shunday, oʻrtoq Uchinchi. Oʻrmonda, bizga yaqin joyda nemislar. Bugun paydo boʻlishdi, ikki kishi...

– Kim koʻrdi?

– Kichik serjant Osyanina...

Kiryanova kirdi: pilotkasi yoʻq. Ziyofatga kelgandek bosh irgʻab soʻrashdi.

– Men trevoga koʻtardim, oʻrtoq Uchinchi. Oʻrmonni titkilab chiqmoqchiman...

– Titkilashga shoshilma, Vaskov. Oʻylab koʻrish kerak: obyektни qarovsiz qoldirsak – boshimizni silashmaydi. Nemislaringni afti basharasi qanaqa oʻzi?

– Aytishlaricha, maskhalatda, avtomatlari bor. Razvedka...

– Razvedka deysanmi? Ular nimani razvedka qiladi? Beka bilan quchoqlashib yotishingnimi?

Shunaqa, hamisha Vaskov aybdor. Hamma zahrini Vaskovga sochadi.

– Nega indamaysan, Vaskov? Nimalarni oʻylayapsan?

– Ularni tutish kerak, oʻrtoq Uchinchi. Uzoqqa ketmay turib tutish kerak.

– Toʻgʻri oʻylabsan. Buyruqdan besh kishini olgin-da, hali izi oʻchmasidan orqasidan joʻna. Kiryanova oʻsha yerdami?

– Shu yerda, oʻrtoq...

– Trubkani unga ber.

Kiryanova gapni qisqa qildi: ikki marta «Eshitaman», dedi-yu, besh martacha bosh irgʻadi. Trubkani joyiga qoʻyib, gaplashib boʻldik, degandek, bosib qoʻydi.

– Sizning ixtiyoringizga besh kishi ajratish buyurildi.

– Menga anavi nemislarni koʻrganni ber.

– Osyanina boshliq boʻlib boradi.

– Juda soz, odamlar saf boʻlsin.

– Saf qilingan, oʻrtoq starshina.

Shu ham saf boʻldi-yu. Birining sochi xuddi yoldek beliga tushib turibdi, boshqasining boshida qanaqadir qogʻozlar. Jangchilar emish!..

Bunaqalar bilan o'rmonni titib, avtomatli nemislarni tutishning o'zi bo'ladimi!..

Ularning qo'llarida esa 1891–1930-yilgi namuna asosida tayyorlangan qadrdon miltiq.

– Volno.

– Jenya, Galya, Liza...

Starshinaning afti burishdi:

– Osyanina, to'xtang! Baliq tutgani emas, nemislarni ushlagani ketyapmiz. Jilla qursa otishni biladiganlarni...

– Bilishadi.

Vaskov, bilganingni qil, deb qo'l siltamoqchi bo'ldi-yu, o'zini tutib qoldi:

– Yana bir gap. Balki birortangiz nemischa bilarsiz?

– Men bilaman.

Safdan chiyillagan ovoz eshitildi. Fedot Yevgrafich juda xafa bo'lib ketdi:

– Meni nimasi? Men degani nimasi? Doklad qilish kerak.

– Jangchi Gurvich.

– Ox-xo-xo... Qo'lingni ko'tar degani, ularning tilida qanday bo'ladi?

– Xende xox.

– To'g'ri, – starshina nihoyat qo'l siltadi. – O't bu yoqqa, Gurvich...

Beshtasi saf bo'ldi. Bolalardek jiddiy, lekin hozircha chehralarida qo'rquv sezilmasdi.

– Ikki kunga ketyapmiz, mening mo'ljalim shunday. Quruq payok, besh oboymadan o'q olinsin. Tartibga solinglar o'zlaringni... Ya'ni to'yib ovqatlaning, poyafzalni odamlardek kiying, o'zlaringga qaranglar, tayyorlaninglar. Hammasiga qirq minut vaqt beraman. Tarqal!.. Kiryanova, Osyanina, men bilan yuringlar.

Jangchilar nonushta qilib, safarga tayyorlanishayotganda starshina serjantlarni uyiga kengashga olib ketdi. Xayriyatki, beka qayoqqadir chiqib ketibdi. Lekin o'rinni yig'ib qo'ymapti, ikkita yostiq yonmayon turibdi... Fedot Yevgrafich serjantlarni sho'rva bilan mehmon qildi va eski, bukilgan joylari titilib ketgan uch verstli xaritani ko'zdan kechirdi.

Demak, manavi yo'lda uchratibsan-da?

– Mana bu yerda, – Osyaninaning barmog'i xaritaga yengil tegdi. – Yonimdan katta yo'l tomonga o'tib ketishdi.

– Yo‘l tomonga?... Ertalab soat to‘rtda sen o‘rmonda nima qilib yurganding?

Osyana javob bermadi.

– Shunchaki, hojatga chiqqan, – dedi Kiryanova starshinaga qaramay.

– Hojatga? – Vaskovning jahli chiqdi: shunaqayam yolg‘on gapirishadimi! – Buning uchun shaxsan o‘zim hojatxona qurib berganman. Yoki unga sig‘mayapsizlarmi?

Ikkalasi xo‘mrayib turishardi.

– Bilasizmi, o‘rtoq starshina, shunaqa narsalar borki, xotin kishining ularga javob berishi shart emas, – dedi yana Kiryanova.

– Bu yerda xotin kishi yo‘q!.. – baqirdi komendant. Hatto kafti bilan stolni yengil shapatiladi. – Yo‘q! Bu yerda jangchilar va komandirlar bor, tushunarlimi? Urush ketyapti, urush tugamaguncha hamma-miz, erkak ham, xotin ham emas, o‘rta jins bo‘lib yuramiz.

– Shuning uchun o‘rningiz haligacha yig‘ishtirilmay turgan ekan-da, o‘rtoq o‘rta jins starshina...

Oh, bu Kiryanova, zaharning o‘zi. Bir so‘z bilan aytganda tikan, qadaladi qoladi.

– Katta yo‘lga ketishdi, dedingmi?

– Katta yo‘l tomonga...

– Yo‘lda nima qilishadi: u yerda fin urushidayoq ikki tomondagi o‘rmonni kesib tashlashgan, u yerda darrov qo‘lga tushirishadi. Yo‘q, kichik komandir o‘rtoqlar, ularni katta yo‘l qiziqitirmaydi... Sizlar sho‘rvani ichaveringlar, ichinglar.

– U yerda – butazor va tumanda menga shunday tuyulgan-dir, – dedi Osyanina.

– Tuyulgan bo‘lsa, cho‘qinish kerak edi, – deb to‘ng‘illadi komendant. – Tugunlari bor edi, deganmiding?

– Ha. Og‘ir bo‘lsa kerak, o‘ng qo‘llarida ko‘tarib ketishardi, yaxshilab, puxta bog‘langan.

Starshina maxorka o‘rab chekdi, u yoqdan-bu yoqqa yurdi. Unga birdan hammasi ravshan bo‘ldi, shunchalik ravshan bo‘ldiki, hatto o‘zi uyalib ketdi:

– Fikrimcha, ular tol olib ketishyapti. Agar qo‘llaridagi tol bo‘lsa marshrutlari katta yo‘l emas, balki temir yo‘l. Demak Kirov temir yo‘liga.

– Kirov temir yo‘li yaqin emas, – dedi Kiryanova ishonqiramay.

– Uzoq bo‘lgani bilan o‘rmon orqali boriladi. Bu yerdagi o‘rmonlar esa bepoyon: ikkita odam emas, butun armiya yashirinsa ham bo‘laveradi.

– Unday bo‘lsa.... – Osyanina hayajonlana boshladi. – Unday bo‘lsa, temir yo‘ldagi soqchilarga xabar qilish kerak.

– Kiryanova xabar qiladi, – dedi Vaskov. – Men har kuni soat yigirma uchda gaplashaman. Mening nomerim «17». Osyanina, sen ovqatingni ye, yeyaver. Kun bo‘yi yurishga to‘g‘ri keladi...

Qirq minutdan so‘ng qidiruv guruhi saf tortdi, lekin bir yarim soatdan keyin yo‘lga chiqdi, chunki starshina qattiqqo‘l va injiq edi:

– Hamma etigini yechsin!..

Xuddi o‘ylaganidek: yarmisi yupqa paypoqda, yarmisi paytavani sochiqdek o‘rab olgan. Bunaqa etikda ko‘p jang qilolmaysan, nega deganda, bu jangchilar uch kilometr yurishlari bilanoq oyoqlari shilini ketadi. Mayli, hech bo‘lmasa ularning komandiri serjant Osyanina paytavani to‘g‘ri o‘rabdi. Nega endi boshqalarga o‘rgatmaydi?..

Paytavani qanday o‘rashni o‘ttiz minut o‘rgatdi. Yana yarim soat multiqlarni tozalashga majbur qildi. Ko‘z yoshi qilishmadimi, shunisi-ga shukur, otishga to‘g‘ri kelganda nima bo‘larkin?..

So‘nggi yarim soatni starshina kichik leksiyaga bag‘ishladi. Uning fikricha, leksiya jangchilarga ishning mohiyatini tushuntirishi kerak edi:

– Dushmandan qo‘rqmanglar! U bizning ichkarimizda yuripti, demak o‘zi qo‘rqadi. Lekin yaqin kelishiga yo‘l qo‘ymang, chunki dushman baquvvat er kishi va yaqin masofada jang qilish uchun maxsus qurollangan. Agar u yaqin kelib qolsa, yaxshisi pusib oling. Faqat qochmang, Xudo saqlasin, qochib ketayotganni avtomatdan otish – rohatning o‘zi. Doim juft bo‘lib yuring. Yo‘lda orqada qolinmasin, gaplashilmasin! Agar yo‘lga duch kelsak, qanday harakat qilish kerak?

– Bilamiz, – dedi malla qiz. – Bittamiz chapdan, bittamiz o‘ngdan.

– Yashirin holda, – Fedot Yevgrafich aniqlik kiritdi. – Yo‘l yurish tartibi mana bunday: oldinda kichik serjant va bir jangchi bosh dozor bo‘lib boradi. Ulardan yuz metrcha orqada asosiy kuch: men... – u otryadga nazar soldi, – tarjimon bilan boraman. Bizning orqamizdan yuz metrcha narida so‘nggi juft yuradi. Yonma-yon emas, ko‘rinish masofasida yurish kerak. Dushmanga yoki biror tu-

shunib bo'lmaydigan narsaga duch kelinsa... Kim hayvon yoki qushga o'xshab tovush chiqara oladi?

Qizlar hirlingab kulishdi, tentaklar...

– Men jiddiy so'rayapman! O'rmonda ovoz chiqarib signal berib bo'lmaydi: nemisning ham qulog'i bor.

Jim bo'lib qolishdi.

– Men bilaman, – dedi Gurvich iymajibgina. – Eshakka o'xshab hangrashni: I-a! I-a!..

– Bu yerlarda eshak bo'lmaydi, – dedi starshina norozi bo'lib. – Mayli, o'rdakka o'xshab g'aqillashni o'rganinglar.

O'zi g'aqqillab ko'rsatdi, qizlar esa kulib yuborishdi. Nima uchun kulishayotganini Vaskov tushunmadi, ammo o'zi ham kulgisini tiyolmadi.

– Nar o'rdak modasini shunaqa chaqiradi, – tushuntirdi u. – Qani, g'aqqillab ko'ringlar-chi.

Mamnuniyat bilan g'aqqillashdi. Ayniqsa haligi mallasi, Yevgeniya (go'zal qiz, uni sevib qolishdan Xudoning o'zi asrasin, go'zal!) ko'proq urindi. Lekin, ravshanki, Osyanina yaxshiroq o'xshatdi: qobiliyatliga o'xshaydi. Yana biri, Lizamidi, u ham o'xshatdi. Gavadali, biqqi qiz, yelkasi kengmi yoki belidan pastrog'imi – bilib bo'lmaydi. O'rdakka juda o'xshatdi. Umuman, chakkimas, bunaqasi hamisha asqatadi: sog'lom, hatto yer haydasa ham bo'ladi. U shaharlik nozik-nihol Galya bilan tarjimon Sonya Gurvichga sira o'xshamaydi.

– Vop-ko'lga jo'naymiz. Bu yoqqa qaranglar, – xarita ustiga to'planishdi, bir-birining yelkasiga, qulog'iga nafasleri tegib turibdi; kulgili. – Nemislar temir yo'lga borishayotgan bo'lsa, ularning ko'l yonidan o'tmay iloji yo'q. Yaqin yo'lni esa bilishmaydi: demak, u yerga biz ulardan oldin yetib boramiz. U yergacha yigirma chaqirim – tushda yetib boramiz. Kutib olishga tayyorlanib ham ulguramiz, nega desangiz, nemislar aylanib, buning ustiga yashirinib ellik chaqirim yurishadi. Hammasi tushunarlimi, o'rtoq jangchilar?

Uning jangchilari jiddiylashishdi:

– Tushunarli...

Ular o'zlarini oftobga solib yotishsa-yu, samolyotlarga qarab otishsa – ana shu urush...

– Kichik serjant Osyanina, olingan ovqatlarni tekshiring, safarga tayyorlaning! O'n besh minutdan keyin yo'lga chiqamiz.

Jangchilarni yolg'iz qoldirdi: uyga kirib chiqishi kerak. Beka bundan oldin xaltani to'ldirishni topshirgan, yana ba'zi narsalarni olish zarur edi. Nemislar – badjahl, jangari, karikaturadagina ularni dastalab savalashayotgani tasvirlanadi. Shuning uchun puxta tayyorlanish lozim edi.

Mariya Nikiforovna aytgan narsasini tayyorlab, qo'ygan ekan, hatto aytmaganini ham bajaribdi: xaltaga yog', dudlangan baliq solib qo'yibdi. Buni ko'rib so'kmoqchi bo'ldi-yu, fikridan qaytdi: ozchilik emas ular, to'yga to'plangandek ko'pchilik: xaltaga miltiq va to'pponcha uchun ko'proq o'q soldi, ikkita granata ham qo'shib qo'ydi: nima bo'lishini Xudo biladi! Beka qo'rqib jim qarab turardi: ko'zlari jiqqa yosh. O'rnidan qimirlamasa ham, butun vujudi bilan unga intilardiki, Vaskov o'zini tutolmadi: qo'lini uning boshiga qo'ydi:

– Ertadan keyin qaytib kelaman. Juda ushlanib qolsak, chorshanba kuni qaytamiz.

Beka yig'lab yubordi. Eh, xotinlar, xotinlar, bebaxt xalqsizlar! Erkaklar uchun-ku, bu urush ortiqcha matoh, sizlarga esa...

Qishloq chetiga chiqqach gvardiyasiga nazar tashladi: miltiqlar qo'ndog'i yerga tegay-tegay deb kelyapti. Qizlar qo'lga miltiq olibdiki, demak fashist Rossiyaning chakana jahlini chiqarmabdi. Paradga chiqishga yoki yaradorlarni bog'lashga bo'lsa mayli edi-ya! Bu ko'kraklarni o'q parchalab tashlasa-chi, unda qanday bo'ladi?..

Vaskov xo'rsindi.

– Tayyormisizlar?

– Tayyormiz, – dedi Rita.

– Operatsiya tugaguncha kichik serjant Osyaninani o'zimga o'rinbosar qilib tayinlayman. Signallarni eslatib qo'yay: ikki marta g'aqqillash. – diqqat, dushmanni ko'ryapman, degani. Uch marta g'aqqillash hamma mening oldimga degani.

Qizlar kulib yuborishdi. U esa ataylab, ularni kuldirish uchun, ular dadilroq bo'lishlari uchun ikki marta g'aqqillash, uch marta g'aqqillash haqida gapirgan edi.

– Bosh dozor, boshla! Yo'lga chiqishdi.

Oldinda Osyanina semiz qiz bilan. Vaskov ular butalar orasida g'oyib bo'lguncha kutib turdi, ichida yuzgacha sanadi-da, ularning orqasidan yurdi. Miltiq, xalta, o'ralgan shinel va yo'l xalta ostida qamishdek egilgan tarjimon uning yonida borardi.

Vop-ko'lgacha boriladigan yo'ldan Vaskov xotirjam edi: nemislar u yoqqa yo'lni bilmasliklari turgan gap, chunki bu yo'lni fin urushida o'zi topgan Hamma xaritalarda bu yer botqoq sifatida tasvirlangan, demak nemislar bitta yo'lni bilishadi: o'rmon ichidan aylanib o'tib, keyin ko'lga, Sinyuxin qoyalari qaytib chiqishadi, ular bu qoyalarni chetlab o'tisholmaydi. Uning jangchilari qanday yurishmasin, qanchalik imillashmasin – nemislar ulardan ko'proq yo'l bosishlari kerak. Dushman faqat kechqurun yetib boradi, ungacha u hamma yo'llarni to'sib qo'yadi. Qizlarini toshlar orqasiga ishonchliroq yashirib, dadil bo'lish uchun o'q uzadi-da, nemislar bilan gaplashib qo'yadi. Hech bo'lmasa: bittasini o'ldirish mumkin, Vaskov nemis bilan yakka-yakka olishishdan qo'rqmasdi. Uning jangchilari dadil va sharoitga to'la muvofiq yo'l bosishardi: komendant o'zaro gaplarni va kulgini eshitmadi. Ular yo'lni qanchalik kuzatib borayotganliklarini bilmas, o'zi esa ayiq oviga chiqqandek oyog'i ostiga qarab borardi. Shuning uchun bilinar-bilinmas begona izni ko'rib qoldi. Bu iz qirq to'rtinchi razmerli botinka izi edi. Fedot Yevgrafich bu bo'yi ikki metr, og'irligi olti puddan ortiqroq barzangining izi, degan xulosaga keldi. Albatta qizlar qurollangan bo'lishiga qaramay, bunday barzangi bilan yuzma-yuz kelishiga hech yo'l qo'yib bo'lmaydi, lekin starshina ko'p o'tmay yana bir izni topdi. U har ikkala izga qarab, nemislar botqoqni aylanib o'tayotganliklarini fahmladi. Hammasi u o'ylaganicha bo'layotgan edi.

– Nemisvoylar rosa lo'killashadi, – dedi u sherigiga. – Rosa-yam lo'killashadi, qirq chaqirimcha.

Tarjimon hech narsa demadi, chunki juda charchagan, hatto miltiq qo'ndog'i yerda sudralib kelardi. Starshina unga bir necha marta qaradi. Uzunchoq, xunuk, lekin g'oyat jiddiy yuziga razm solarkan, hozirgi erkaklar kamchil vaqtda bu bechora oila nimaligini bilmay o'tadi, deb achinish bilan o'yladi va to'satdan so'radi:

– Ota-onang tirikmi? Yoki yetimmisan?

– Yetim?.. – u tabassum qildi. – Bilasizmi nima, yetim bo'lsam kerak.

– Nima, o'zing ishonmaysanmi?

– Hozir kim aniq ayta oladi, o'rtoq starshina?

– Rost aytasan...



– Ota-onam Minskda. – Oriq yelkasini silkitib, miltiqni to‘g‘rilab oldi. – Men Moskvada o‘qirdim, sessiyaga tayyorlanayotgan edim, birdan...

– Biror xabar bormi?

– Qayoqdan kelsin...

– Ha... – Fedot Yevgrafich yana razm soldi, xafa qilib qo‘y-masmikinman, deb o‘yladi. – Ota-onang yahudiyymi?

– Tabiiy.

– Tabiiy... – Komendant jahl bilan pishilladi, – tabiiy bo‘lganda edi, so‘ramagan bo‘lardim.

Tarjimon jim bo‘lib qoldi. Ho‘l o‘tlarni kerza etigi bilan bosib borrar, qovog‘i soliq edi. Ohista xo‘rsindi:

– Balki chiqib ketishga ulgurishgandir...

Bu xo‘rsinish Vaskov qalbini tilib yubordi. Eh, nimjongina mittivoy-ey, bu g‘amlarni nozik yelkalarining ko‘tara olarmikin? Qani endi hozir bir so‘kinsa, bu urushni boloxonador qilib boplab so‘ksa, biroz yengillasharmidi? Buning o‘rniga zo‘rma-zo‘raki, yasama kulish kerak:

– Qani, jangchi Gurvich, uch marta g‘aqqilla!

– Nimaga?

– Jangovar tayyorgarlikni tekshirish uchun. Xo‘sh? Qanday o‘rgatganim esingdan chiqdimi?

Darrov qizning yuziga tabassum yugurdi. Ko‘zlari charaqlab ketdi.

– Yo‘q, unutganim yo‘q!

G‘aqqilash sirayam o‘xshamadi, ermakning o‘zi. Xuddi teatrdagidek. Lekin bosh dozor orqadagi zveno nima gapligini tushunib, tezda yaqinlashdi.

Osyanina esa miltig‘ini qo‘liga olib yugurib keldi:

– Nima gap?

– Bir narsa yuz berganda, sizlarni hozir narigi dunyoda farishtalar kutib olishayotgan bo‘lardi. – Jahl bilan dedi serjant. – Buzoqdek dumlarini xoda qilib, shataloq otib kelishyapti-ya.

Osyanina ranjiganidan lavlagidek qizarib ketdi.

Nima qilsin – o‘rgatishi kerak-da.

– Charchadilaringmi?

– Qayoqda! – dedi malla qiz. Uning Osyanina uchun xafa bo‘lgani shundoq sezilib turibdi.

– Unda, juda yaxshi, – dedi Fedot Yevgrafich yumshab. – Yo‘lda nimani ko‘rdilaring? Navbati bilan gapiringlar: kichik serjant Osyanina, boshla.

– Aytarli hech narsa... – Rita tutilib qoldi. – Burilishda bitta shox sinibdi.

– Yashavor, to‘g‘ri. Qani, orqadagilar. Jangchi Komelkova.

– Hech narsa sezganim yo‘q, hammasi joyida.

– Butalardagi shudring to‘kilgan, – dedi birdan shoshilib Liza Brichkina. – O‘ng tomondagida to‘kilmagan, chap tomondagida to‘kilgan.

– Ko‘zing juda o‘tkir ekan! – mamnun bo‘lib dedi starshina. – Qizil askar Brichkina, qoyil. Yana yo‘lda ikkita iz bor. Nemis rezina botinkasining izi, ularning desantchilari shunaqa botinka kiyishadi. Iziga qaraganda, ular botqoqni aylanib o‘tishmoqchi. Mayli, aylanaverishsin, chunki biz botqoqni to‘g‘ri kesib o‘tamiz. Hozir o‘n besh minut chekib olishga, yozilishga...

U nojo‘ya gap aytganday qizlar qiqirlab kulishdi. Buyruq esa shunaqa, ustavda shunday yozib qo‘yilgan. Vaskovning qovog‘i solindi:

– Shaqillamanglar! Tarqalib ketmanglar. Bo‘ldi!..

Yuk xaltalarni qayerga, skatkalarni qayerga, multiqlarni qayerga qo‘yishni ko‘rsatdi va qo‘shinini o‘z holiga qo‘yib yubordi. Hammalari baravariga sichqondek butalar orasiga yugurishdi.

Starshina boltachasini olib, qurib qolgan daraxtlardan oltita uzun tayoq kesib oldi, shundan keyingina yuklar yoniga o‘tirib chekdi. Ko‘p o‘tmay hamma shu yerga to‘plandi: bir-biriga qarab shivirlashish boshlandi.

– Hozir hushyor bo‘lish kerak, – dedi komendant. – Men yo‘l boshlayman, sizlar esa orqamdan, faqat izma-iz yurasizlar. Bu yerda chapda ham, o‘ngda ham o‘ppon: dod deyishga ham ulgurmay-san – tortib ketadi. Har kim bittadan tayoq oladi, qadam qo‘yishdan oldin tubini aso bilan tekshirib ko‘radi. Savollar bormi?

Bu gal savol berishmadi: malla qiz boshini bir silkitdi-yu, keyin fikridan qaytdi. Starshina o‘rmdan turib, papiros qoldig‘ini mox ustiga tashlab, oyog‘i bilan ezdi.

– Xo‘sh, kim kuchli?

– Nimaydi? – ikkilanib so‘radi Liza Brichkina.

– Jangchi Brichkina tarjimonning safar xaltasini ko‘tarib oladi.

– Nimaga?.. – chiyilladi Gurvich.

- Nimagaki, bu haqda so‘ralmaydi!.. Komelkova!
- Men.
- Qizil askar Chetvertakning qopini oling.
- Chorakjon, bir yo‘la miltig‘ingni ham beraqol...
- Gaplar to‘xtatilsin! Aytganimni qilinglar: shaxsiy qurollarni har kim o‘zi ko‘taradi...

Unday qilma, bunday qilma, deb baqirib, keyin o‘zi xafa bo‘lardi. Baqirgan bilan ongli harakatga erishib bo‘ladimi? Xirillab qolsang ham ish bitmaydi. Ammo ko‘p gapiradigan bo‘lib qolishdi. Chug‘urlashishyapti. Valaqlash esa, harbiy kishi uchun biqinga nayza sanchilgandek gap. Xuddi shunaqa...

– Takrorlayman, demak, adashilmasin! To‘g‘ri mening orqamdan yuringlar! Qadamingizni oldinda borayotganlarning iziga qo‘yinglar! Asoni suqib ko‘ring...

– Savol bersam mumkinmi?

Voy Xudo, sabr qilisholmaydi-ya.

– Nima demoqchisiz, jangchi Komelkova?

– Aso deganingiz nima? Tayoqmi?

Malla qiz tentaklik qilyapti, ko‘zidan ko‘rinib turibdi. Xavfli ko‘zlar, o‘pqonning o‘zi.

– Qo‘lingizdagi nima?

– Qanaqadir yog‘och...

– O‘sha aso bo‘ladi, Tushunarlimi?

– Endi ravshan bo‘ldi. Dal.

– Yana qanaqa dal?

– Shunaqa lug‘at bor, o‘rtoq starshina.

– Yevgeniya, jim bo‘l! – baqirdi Osyanina.

– Xo‘sh, yo‘limiz xavfli. Bu yerda hazil ketmaydi. Yurish tartibi: men oldinda, mendan keyin – Gurvich, Brichkina, Komelkova, Chetvertak, kichik serjant Osyanina eng orqada boradi. Savollar bormi?

– Chuqur emasmi?

Chetvertak qiziqyapti. Bu tushunarli, bu pakana qizga ariq ham soy bo‘lib ko‘rinadi.

– Ba‘zi joylari... haligi, anavi yeringizgacha... sizning belingizgacha keladi. Miltiqni avaylang.

Birinchi qadam qo‘yishidayoq tizzasigacha suvga botdi. O‘pqon shalopladi. Prujinali matrats ustida yurgandek chayqalib keta boshla-

di. U orqasiga qaramay borar, xo'rsinish va qo'rqib shivirlashlardan otryadi qanday harakat qilayotganini bilib turardi.

Dimiqqan nam havo botqoq ustini qoplab olgandi. Terga botgan kishilar ustida qaysar bahor chivinlari bulutday uchardi. Bo'rsigan o't-o'lan, chiriyotgan suv o'tlari va botqoq hidi anqirdi.

Qizlar butun og'irliklari bilan tayoqqa tayanib, tortib ketayotgan sovuq botqoqdan oyoqlarini zo'rg'a sug'urib olishardi. Ho'l yubkalar sonlariga yopishib qolar, multiqlarining qo'ndog'i loyda sudralardi. Har bir qadam katta kuch talab qilardi, shuning uchun starshina nimjon Galya Chetvertakning qadamiga moslab sekin borardi.

U namlikdan qiyshayib o'sgan pastakkina ikkita qarag'ay ko'rinayotgan orolni mo'ljallab borardi. Komendant qarag'aylar oralig'idan ko'rinayotgan qurigan oq qayindan ko'zini uzmasdi, chunki chapda ham, o'ngda ham kechuv yo'q edi.

– O'rtoq starshina!..

Hu, jin ursin!.. Komendent tayoqni qattiqroq botirib, qiyinchilik bilan orqasiga o'girildi: xuddi o'ylaganidek, otryad cho'zilib, to'xtab qolibdi.

– Bir yerda turmanglar! Turmanglar, tortib ketadi!

– O'rtoq starshina, etigim oyog'imdan chiqib ketdi!.. – Chetvertak eng orqadan qichqirdi. Qoqqan qoziqdek qaqqayib turibdi: yubkasi ham ko'rinmaydi. Osyanina yaqinlashib, unga ko'maklashdi. Tayoqni o'pqonga tiqishyapti: etikni qidirishyapti shekilli?

– Topdingmi?

– Yo'q..

Komelkova tayoqni sug'urib, yoniga chayqalib ketdi. Yaxshiyamki u buni vaqtda ko'rib qoldi. Shunday baqirdiki, peshonasidagi tomirlari o'ynab ketdi.

– Qayoqqa?! Qimirlama!..

– Men yordamga...

– Joyingda tur!.. Orqaga yo'l yo'q!..

Voy Xudo, bular bilan hamma narsani chalkashtirib yuborasan: goh to'xtama deb baqirsang, goh qimirlama deb buyurasan. Qo'rqib ketib, vahimaga tushishmasa bo'lgani. Botqoqda vahimaga tushish – o'limning o'zi.

– Shoshilmanglar, faqat shoshilmanglar! Orolgacha arzimagan yo'l qoldi: u yerda dam olamiz. Etikni topdilaringmi?

– Yo'q!.. Pastga tortib ketyapti, o'rtoq starshina!

– Yurish kerak! Bu yer balchiq, uzoq turolmaymiz.
– Etik nima bo‘ladi?
– Endi uni topib bo‘larmidi? Olg‘a!.. Mening ketimdan olg‘a!.. –
O‘girildi-yu, orqasiga qaramay yurib ketdi. – Izma-iz yurilsin! Orqada qolinmasin!..

Qizlar o‘zlarini dadilroq sezishlari uchun u atayin baqirardi. Buyruqdan jangchilarda dadillik paydo bo‘ladi, buni u o‘z tajribasidan biladi. Xuddi shunday.

Nihoyat orolga yetib olishdi. U so‘nggi metrlarda judayam qo‘rqdi: u yer chuqurroq edi. Oyog‘ingni sug‘urib ololmaysan, bu la‘nati botqoq bo‘tqasini tanang bilan yorib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bu yerda kuch ham kerak, ephillik ham. Endi hammasi ortda qoldi.

Tik turish mumkin bo‘lgan orolchada Vaskov to‘xtadi. Butun komandasini oldinga o‘tkazib, qattiq yerga chiqishiga yordamlashdi.

– Faqat shoshilmanglar. Xotirjamlik bo‘lsin. Shu yerda dam olamiz.

Qizlar orolga chiqib, o‘tgan yilgi chirigan o‘tlar ustiga cho‘zilishdi. Ular shalabbo bo‘lishgan, loyga belanishgan, zo‘rg‘a nafas olishardi. Chetvertak etiginigina emas, paytavasini ham botqoqqa sovg‘a qilib, paypoqda chiqdi. Yirtig‘idan bosh barmog‘i chiqib turibdi, sovuqdan ko‘karib ketgan.

– Xo‘sh, o‘rtoq jangchilar, charchadilaringmi?

Jangchilar indashmadi. Faqat Liza bosh irg‘adi:

– Charchadik...

– Unday bo‘lsa, hozircha dam olinglar. Bu yog‘i osonroq bo‘ladi: qurigan oq qayinga yetib olsak – tamom.

– Biz yuvinib olsak bo‘lardi, – dedi Rita...

– Narigi tomonda shoxobcha toza, qirg‘oq ham qumloq. Cho‘milsanglar ham bo‘laveradi. Kiyimlarni esa yo‘l-yo‘lakay qurishga to‘g‘ri keladi.

Chetvertak xo‘rsinib, botinqiramay so‘radi:

– Men etiksiz nima qilaman?

– Senga shayton kavush to‘qib beramiz. – Fedot Yevgrafich tabassum qildi. – Faqat botqoqdan o‘tgandan keyin, bu yerda emas. Chidaysanmi? ..

– Chidayman.

– Lapashangsan, Galka! – jahl bilan dedi Komelkova. – Oyo-
g'ingni sug'urayotganingda barmoqlaringni tepaga qayirishing kerak
edi.

– Qayirdim, baribir yechilib qoldi...

– Sovuq, qizlar.

– Suyak-suyagimgacha muzlab ketganga o'xshaydi...

– Nima, mening kiyimlarim quruqmi? Qoqilib ketib, o'tirib qol-
sam bo'ladimi!..

Kulishyapti. Demak, unchalik charchashmagan, o'zlariga kelib
qolishdi. Ayol bo'lishsa-da hali yosh ular, juda baquvvat bo'lishmasa
ham har holda kuchlari bor. Suv sovuq, betob bo'lib qolishmasa edi.

Fedot Yevgrafich maxorkasini yana bir tortib, qoldig'ini botqoqqa
irg'itdi, o'rmdan turib, bardam gapirdi:

– Qani, o'rtoq jangchilar, tayoqlarni olinglar. Oldingi tartib-
da – mening orqamdan yurasizlar. Narigi qirg'oqda yuvinib, isinib
olamiz.

Shunday deb to'nkadan to'g'ri qo'ng'ir botqoqqa sakrab tushdi.
Bu so'nggi kechuv ham jahannamning o'zi edi, Xudo ko'rsatmasin.
Suyuq bo'tqa: oyoq qo'ysang ko'tarmaydi, suzib ham o'tolmaysan.
Oldinga yurish uchun yorib o'tguningcha terga pishib ketasan.

– Qanday, o'rtoqlar?

U qizlarning ruhini ko'tarish uchun orqasiga qaramay qichqirdi.

– Zuluk bormi bu yerda? – Gurvich nafasi tiqilib so'radi.

– Bu yerda hech narsa yo'q. Falokatli, xatarli joy.

Chapdan pufak bo'rtib chiqib, yorildi-yu, botqoq birdan bo'g'iq
nafas olgandek bo'ldi. Orqada kimdir qo'rqib «voy» deb yubordi, Vas-
kov tushuntirdi:

– Qo'rqmanglar, botqoq gazi chiqyapti. Biz qo'zg'atib
qo'ydik... – Biroz o'ylab turib, keyin ilova qildi: – Keksalarning
aytishicha, xuddi shunaqa joyda botqoq xo'jayini – jin yasharmish.
Bu ertak, albatta...

Gvardiyasi jim. Pishillashadi, «voy»lashadi, nafasлари tiqiladi, le-
kin oldinga yurishyapti. Qaysarlik bilan, jahl bilan olg'a yurishyapti.

Yo'l ancha yengillashdi: balchiq suyuqroq, tubi qattiqroq joyga
kelishdi, hatto har joy-har joyda do'nglik ko'rına boshladi. Starshina
ataylab yurishni tezlatmadi, otryad g'ujroq bo'lib qoldi, endi ular bir-
birining ketidan kelishardi. Oq qayin oldiga deyarli baravar chiqishdi:
bu yog'ida o'rmon boshlanar, do'ngliklar, moxzorlardan iborat edi.

Bu yerdan o'tish arzimagan ishdek edi, buning ustiga tuproq borgan sari ko'tarilib, asta-sekin quruq oq tuproqli qarag'ayzorga aylanardi. Bu yerda ular baravariga chug'urday ketishdi, sevinib, tayoqlarni otib yuborishdi. Ammo Fedot Yevgrafich tayoqlarni to'plab, birorta qarag'ayga suyab qo'yishni buyurdi.

– Biror kishiga asqatib qolar.

Bir minut ham dam oldirmadi. Hatto oyoqyalang Galya Chetvertakka ham rahmi kelmadi.

– O'rtoq qizil askarlar, yana jindek zo'r bersak bo'lgani. Soy bo'yida dam olamiz.

Tepalikka ko'tarilishgach, qarag'aylar orasidan soy ko'rindi. Suv ko'z yoshidek tiniq, oltin qumli qirg'oq.

– Ura!.. – baqirdi malla Jenka. – Cho'miladigan joy, qizlar!

Qizlar nimalardir deb sho'x qiyqirishib, yo'l-yo'lakay yuklarini, skatkalarini tashlab, yonbag'irlikdan soy tomon yugurishdi.

– To'xta!.. – buyurdi komendant. – Smirno!.. – Hammasi baravar qotib qolishdi. Ajablanib, hatto xafa bo'lib qarab turishardi.

– Qum! – jahl bilan davom etdi starshina. – Sizlar esa qum ustiga miltiqni tashlayapsizlar, askarlar. Miltiqlar daraxtga suyab qo'yilsin, tushunarlimi? Xaltalar, skatkalar bir joyga qo'yilsin! Yuvinib-taranishga qirq minut vaqt beraman. Men butalar orqasida, ovoz eshitiladigan masofada bo'laman. Siz, kichik serjant Osyantina, tartib-intizom uchun javobgarsiz.

– Xo'p bo'ladi, o'rtoq starshina!

– Gap tamom. Qirq minutdan keyin hamma tayyor bo'lsin. Yuvinib, kiyingan bo'lsin.

Pastroq tushib, tubi qumloq va chuqurroq, butalarga yaqinroq joyni tanladi. Yuklarini qo'yib, yechindi.

Qayerdadir qizlar chug'urlashar, nima deyayotganlarini aniqlab bo'lmas, Vaskovga ayrim so'zlar va kulgigina eshitilardi. Balki shuning uchunmi u hamisha quloq solib turardi.

Fedot Yevgrafich avval galifesini, paytavasi va ich kiyimlarini yuvib, qo'lidan kelgancha siqdi, quritish uchun buta ustiga yoyib qo'ydi. Keyin badaniga sovun surib, xo'rsinib, qirg'oqda o'zini shaylab, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi, so'ng qirg'oqdan chuqurga sakradi. Suv yuziga suzib chiqdi-yu, nafas ololmay qoldi: muzdek suv yuragini qisib qo'ygandi. Ovozining boricha baqirgisi keldi-yu, gvardiyasini cho'chitib yuborishdan qo'rqdi; deyarli shivirlab, o'rdakchasiga

g'acqilladi. Badanidagi sovunni yuvib, qirg'οqqa chiqdi. Dag'al sochiq bilan badanini qizarguncha artgandan keyingina yengil nafas oldi va yana quloq sola boshladi.

U yerda esa ayollar yig'inidagidek, hammasi baravariga o'z gapini ma'qullab shovqin ko'tarishardi. Faqat baravar kulishar, Chetvertak quvonch bilan qichqirardi:

– Voy Jenechka, voy Jenechka!..

– Faqat olg'a!.. – deb baqirdi birdan Komelkova va starshina butalar orqasida kimdir o'zini suvga shaloplatib tashlaganini eshitdi.

«Uni qara, cho'milishyapti...» – mehr bilan o'yladi u.

Shodon qiyqiriq birdan hamma ovozlarni bosib ketdi. Yaxshiyamki, nemislar uzoqda. Avval bu qiyqiriqdan hech narsa bilib bo'lmadi, keyin Osyanina qattiq qichqirdi:

– Yevgeniya, qirg'οqqa chiq!.. Darrov!..

Fedot Yevgrafich kulib, maxorkani yo'g'on qilib o'radi, «katyusha»ni chaqmoqtoshga urib, tutay boshlagan pilikdan yondirib, iliq may quyoshiga yalang'och yelkasini tutib, shoshilmay, rohat qilib cheka boshladi.

Ravshanki, qirq minut ichida hech narsa qurib ulgurmadi, lekin kiyimlarining qurishini kutib o'tirish mumkin emasdi. Vaskov junjikib, qo'l kalson va galifeni kiydi. Baxtiga quruq paytavasi bor edi, uni o'rab, etigini kiyib oldi. Gimnastyorkasini kiydi-da, kamarini taqdi, yuklarini oldi. Xirillab qichqirdi:

– O'rtoq jangchilar, tayyormisizlar?

– Sabr qiling.

Shunday bo'lishini bilgandi! Fedot Yevgrafich jilmaydi, boshini tebratdi va ularga baqirish uchun endi og'iz juftlagan ediki, Osyanina yana qichqirdi:

– Kelavering! Mumkin!..

Unvoni katta odamga jangchilar «mumkin» deb baqirishyapti-ya. O'ylab ko'rilsa, ustavni mazax qilishning o'zi. Bu tartibni buzish, axir.

Ammo bu haqda shunchaki o'yladi, chunki cho'milib, dam olgandan keyin komendantning kayfiyati Birinchi May bayramidagidek a'lo edi. Buning ustiga gvardiya uni batartib, toza bo'lib, tabassum bilan kutib turardi.

– Qalay, o'rtoq qizil askarlar, ishlar joyidami?

– Hammasi joyida, o‘rtoq starshina. Ana, Yevgeniya cho‘milib ham oldi.

– Qoyil, Komelkova. Sovqotmadingmi?

– Baribir isitib qo‘yadigan odam yo‘q...

– Tiling o‘tkir! O‘rtoq jangchilar, kelinglar, tamaddi qilamiz-u uzoq o‘tirmay, yo‘lga chiqamiz.

Nonni tuzlangan baliq bilan yeyishdi: starshina to‘yimli ovqatlar-ni saqlab qo‘ydi. Keyin lapashang Chetvertakka shippak tayyorlashdi. Oyog‘iga zapas paytavani o‘rab, ustidan ikkita jun paypoq kiydirishdi (uni beka to‘qib, sovg‘a qilgandi). Fedot Yevgrafich po‘stloqdan taglik qilib, bint bilan bog‘lab qo‘ydi.

– Yaxshimi?

– Judayam. Rahmat, o‘rtoq starshina.

– Qani, yo‘lga, o‘rtoq jangchilar. Biz yana bir yarim soat yuri-shimiz kerak. U yerda u yoq-bu yoqqa qarab, mehmonlarni qayerda, qanday kutib olishga tayyorlanishimiz kerak.

U qizlarni tez yurgizdi; yubkalari va boshqa buyumlari yo‘lda qu-rishi kerak edi. Lekin qizlar chakki emas, bo‘sh kelishmadi, faqat qi-zarib ketishdi.

– Qani, bir zo‘r beraylik, o‘rtoq jangchilar. Mening orqamdan yuguringlar!..

O‘zining nafasi tiqilib qolguncha yugurdi, keyin odimlashga o‘tdi, qizlarga dam berib yana:

– Mening orqamdan!.. Yuguringlar!.. – dedi. Vop-ko‘lga yetib kelishganda quyosh og‘ib qolgan edi. Ko‘l toshlarga urilib chayqa-lar, qirg‘oqda qarag‘aylar kechki shivirlashini boshlagan edi. Starshina ufqqa qancha tikilmasin, qayiq ko‘rinmadi: shivirlayotgan shabadani qancha hidlmasin, hech qaysi tomondan tutun hidi kelmadi. Urush-dan oldin ham bu yerlarda odam kam bo‘lardi, endi esa butunlay hu-villab qolgandi: daraxt kesuvchilar ham, ovchilar ham, baliqchilar ham, yelim yig‘uvchilar ham – hammasi frontga ketgan.

– Muncha jimjit... – shivirlab dedi ovozi jarangdor Yevge-niya. – Xuddi tushdagidek.

– Chapdagi tildan Sinyuxin tepaligi boshlanadi, – tushuntirdi Fe-dot Yevgrafich. – Narigi tomondan bu tepalikni ikkinchi ko‘l qisib tu-radi, Legont ko‘li deyishadi. Bir vaqtlar shu yerda Legont degan rohib yashagan. U ovloq joy qidirib kelgan.

– Bu yerda ovloq joy to‘lib yotibdi. – Gurvich xo‘rsindi.

– Nemislarga bitta yo‘l bor: shu ko‘llar o‘rtasidan, tepalik orqali o‘tishadi. Tepalik esa qo‘y tosh va uydek-uydek xarsanglardan iborat. Ustavda yozilganidek, asosiy va ehtiyot pozitsiyalarni shu toshlar orasidan tanlashimiz kerak. Tanlab bo‘lib, ovqatlanamiz, dam olamiz va kutamiz. Shundaymi, o‘rtoq qizil askarlar?

O‘rtoq qizil askarlar jim bo‘lib, o‘ylanib qolishdi...

5

Vaskov o‘zini, azaldan, haqiqiy yoshidan keksaroq sezardi. O‘n to‘rt yoshida ba‘zi bola-chaqali odamlardek mehnat qilmaganida uyidagilar tilanchilik qilgan bo‘lar edi. Buning ustiga o‘shanda ocharchilik, qiyinchilik davri edi. U esa oiladagi yagona erkak – boqadigan ham, yedirib-ichiradigan ham, topib keladigan ham o‘zi edi. Yozda dehqonchilik qildi, qishda ovchilik bilan shug‘ullandi va odamlarga dam olish kuni berilishini yigirmaga kirgandagina bildi. Keyin armiyada xizmat qildi, bu ham bolalar bog‘chasi emas. Armiyada vazmin kishilarni hurmat qilishadi, u esa armiyani hurmat qilardi. Shu tariqa bu davrda u yana yosharmadi, aksincha, starshina bo‘lib qoldi. Starshina – qariya degandek gap: u jangchilar uchun hamisha keksa. Tartib shunaqa.

Shunday qilib, Fedot Yevgrafich o‘z yoshini unutdi. Bir narsani bilardi: u oddiy askarlar va leytenantlardan katta, hamma mayorlarga teng va hamisha har qanday polkovnikdan yosh. Bu o‘rinda gap unvonning katta-kichikligida emas, hayotni bilishda, ko‘pni ko‘rganlikda.

Shu sababli o‘zi komandirlik qilayotgan qizlarga ham u go‘yo boshqa avlod deb qarardi. Go‘yo u grajdanlar urushi qatnashchisi, Lbishchensk shahrida shaxsan Vasiliy Ivanovich Chapaev bilan choy ichganday tutardi o‘zini. Bu uning fikr-xayoli shundayligi yoki qasam ichgani uchun emas, uning tabiati, uning starshinaligi boisidan edi.

O‘zining haqiqiy yoshidan kattaroqligi haqidagi fikr Vaskovning xayoliga hech kelmagandi, faqat shu tunda, sokin va yorug‘ tunda qandaydir shubhalar uyg‘ondi...

Ammo unda hali tungacha ancha vaqt bor edi, endi joy tanlashayotgan edi. Uning jangchilari echkidek toshdan-toshga sakrashardi, birdan u ham qo‘shilib sakray boshladi, shunday chaqqon chiqib qoldiki, hatto o‘zi ajablandi. Ajablandi-yu, shu zahoti qovog‘ini soldi va darrov vazmin yura boshladi, toshlarga endi sakrab emas, ohista chiqdi.

Biroq, eng muhimi bu emasdi. Eng muhimi, u juda soz joy tanlagani edi. Chuqur, yo'llardan yashirin, o'rmondan ko'lgacha kuza-tish mumkin. Bu joy ko'l bo'ylab qalashib yotgan qo'ytoshlar orqali cho'zilib, o'tish uchun naq qirg'oqda tor ochiq yo'lak qoldirgandi. Bi-ror voqea bo'lsa, nemislar shu yo'lkadan uch soatcha yurib, tepalikni aylanib o'tishlariga to'g'ri kelardi, u esa to'g'ri chekinib, dushman yetib kelmasdan ancha oldin zapas joyni egallashi mumkin. Bu joyni har ehtimolga qarshi tanladi, chunki ikki qo'poruvchini asosiy joyda turiboq gumdon qilishi aniq.

Fedot Yevgrafich joy tanlab bo'lib, qoidaga ko'ra vaqtincha chamaladi. Hisobga ko'ra, nemislarni yana to'rt soat kutishga to'g'ri ke-lardi, shu sababli komandasiga har ikki kishiga bir kotelokdan issiq ovqat tayyorlashga ruxsat berdi. Liza Brichkina o'zi ovqat qilmoqchi bo'ldi; komendant unga ikki yordamchi ajratdi va gulxandan tutun ko'tarilmasin, deb ko'rsatma berdi.

– Tutunni ko'rsam, o'sha zahoti ovqatni o't ustiga ag'darib tash-layman. Gapim tushunarlimi?

– Tushunarli, – dedi Liza bo'shashib.

– Yo'q, tushunarli emas, o'rtoq jangchi. Mendan bolta so'rab olib, yordamchilaringni quruq shoxlarni kesib kelishga yuborganingdan ke-yingina tushunarli bo'ladi. Ularga tayinlab qo'y, yo'sin bosmaganini kesishsin. Jaranglaydigan yog'och bo'lsa, o'shanda lovillab yonib, tu-tun chiqmaydi.

Buyruq o'z yo'liga-yu, lekin qizlarga ko'rsatish uchun o'zi quruq yog'ochlarni kesib keldi, o'zi gulxan yoqdi. Keyin, Osyanina bilan atrofni o'rganayotganda o'sha tomonga qarab-qarab qo'ydi, lekin tu-tun ko'rinmadi: toshlar ustida faqat havo jimirlardi, ammo buni o't yoqqanda shunday bo'lishini biladigan ko'zi pishgan odamgina se-zishi mumkin. Nemislarning esa bunga aqli yetmasligi aniq.

Uchovlon pishirayotganda Vaskov kichik serjant Osyanina va jangchi Komelkova bilan butun tepalikni kezib chiqishdi. Joylar-ni, otish sektorlarini, oriyentir, belgilarni aniqlashdi. Belgilargacha bo'lgan masofani Fedot Yevgrafichning o'zi shaxsan odimlab o'l-chab, ustav talabiga muvofiq o'qchi daftarchasiga yozib qo'ydi.

Shu payt tushlikka chaqirishdi. Yo'l yurishgandagidek juft-juft bo'lib o'tirishdi. Komendant bilan jangchi Gurvichga bir kotelok tegdi.

Gurvich kamtarlik qilib, qoshiqni tez-tez kotelokka urib, quyug'ini starshina tomonga surib qo'ya boshladi. Starshina unga tanbeh berdi.

– O‘rtoq tarjimon, bekorga qoshiqni taqillatyapsan. Bilasanmi nima, mehribonlik qilib, go‘shhini men tomonga surmay qo‘yaqol. Jangchidek ovqatlan, bo‘sh kelma.

– Bo‘sh kelmayapman, – u jilmaydi.

– Ko‘rib turibman! Bulturgi jo‘jadek oriqsan.

– Bichimim o‘zi shunaqa.

– Bichimim deysanmi?.. Ana u Brichkinaning bichimi ham hammamiznikidaqa-yu, lekin miqtigina. Qarasang qaragudek...

Tushlikdan keyin choy ichishdi: Fedot Yevgrafich yo‘ldayoq brusnika bargidan terib olgan ekan, o‘sha bargdan damlashdi. Yarim soatcha dam olishgandan keyin starshina saflanishni buyurdi.

– Jangovar buyruqni eshitinglar! – ko‘nglida bu buyruqni berib to‘g‘ri ish qilayotganiga shubhalansa ham, tantanavor boshladi. – Tish-tirnog‘igacha qurollangan ikki fritsdan iborat bo‘lgan dushman kuchlari Kirov temir yo‘liga va o‘rtoq Stalin nomidagi Belomor-Baltika kanaliga yashirin ravishda o‘tib olish uchun Vopko‘l tomon bormoqda. Bizning olti kishilik otryadimizga Sinyuxin tizmasida mudofaada turish, va shu yerda dushmanni asir olish topshirilgan. Chap tomondagi qo‘shnimiz – Vopko‘l, o‘ng tomondagi qo‘shnimiz – Legont ko‘li. – Starshina jim bo‘lib qoldi, yo‘taldi, buyruqni oldin qog‘ozga tushirib olsam bo‘larkan, deb o‘yladi. Ko‘ngli g‘ash bo‘lib davom etdi: – Men shunday qarorga keldim: dushmanni asosiy pozitsiyada turib kutib olamiz va o‘t ochmay turib unga taslim bo‘lishni taklif qilamiz. Qarshilik ko‘rsatadigan bo‘lsa, bittasini o‘ldirib, ikkinchisini tiriklayin qo‘lga tushiramiz. Hamma yuklar zapas pozitsiyada qoldirilsin, ularni jangchi Chetvertak qo‘riqlab tura-di. Jangovar harakatlar mening buyrug‘im bilan boshlansin. Kichik serjant Osyaninani o‘zimga o‘rinbosar qilib tayinlayman, agar u ham safdan chiqsa, o‘rniga Gurvich qoladi. Savollar bormi?

– Meni nega zapas pozitsiyada qoldiryapsiz? – xafa bo‘lib so‘radi Chetvertak.

– O‘rinsiz savol, o‘rtoq jangchi. Sizga buyurildimi, bajaravering.

– Sen, Galka, bizning rezervimizsan, – dedi Osyanina.

– Savollar yo‘q, hammasi ravshan, – dadil gapirdi Komelkova.

– Ravshan bo‘lsa, pozitsiyani egallashni so‘rayman.

U jangchilarni oldin Osyanina bilan birgalikda belgilab chiqqan joylarga qo‘ydi, har biriga oriyentirlarni ko‘rsatdi, miq etmay yotish kerak deb, yana bir marta shaxsan ogohlantirdi.

– Hech kim qimirlamasin. Ular bilan oldin men gaplashaman.
– Nemischalabmi? – Gurvich kinoya qildi.
– Ruschalab! – qat’iy dedi starshina. – Siz esa, agar tushunish-
masa, tarjima qilasis. Gapim tushunarlimi?

Hech kim indamadi.

– Jangda ham shunaqa boshingni chiqarib tursang, bilib qo’y,
yaqin orada sanbat yo’q. Oying ham yo’q.

Oyisi haqida behuda gapirdi, butunlay behuda. Shu sababli juda
ham jahli chiqib ketdi. Axir hamma ish juda jiddiy bo’ladi, bu yer
otishni mashq qiladigan maydon emas!

– Nemislar bilan uzoqdan jang qilgan yaxshiroq. Miltiqni
o’qlagunlaricha u sizlarni ilma-teshik qilib yuboradi. Shuning uchun
qimirlamay yotishni buyuraman. Shaxsan o’zim «O’t och!» – deb
buyurmaganimcha qimirlash yo’q. Aks holda ayol kishi ekanliklaring-
ga qarab o’tirmayman... – Shu yerga kelganda Fedot Yevgrafich tutu-
lib qolib, qo’l siltadi. – Gap tamom. Instruktaj tugadi.

Kuzatish sektorini belgilab, sergak bo’lib kuzatib turishlari uchun
ikki kishidan joylashtirdi. O’zi yuqoriroqqa ko’tarildi, o’rmon chetini
durbini orqali ko’zi tinib ketgunga qadar sinchiklab qarab chiqdi.

Quyosh tepalik ustiga qo’nay deb qoldi, lekin Vaskov yotgan tosh
hali sovimagan edi. Starshina durbinni yoniga qo’yib, dam berish
uchun ko’zlarini yumdi. Shu zahoti haligi iliq tosh ohista tebranib,
qanaqadir – sukunat va orom tomon suzib ketdi. Fedot Yevgrafich
mudray boshlaganini ham sezmay qoldi Shabadani ham sezib tur-
gandek, har bir shitirlashni ham eshitib turgandek, nazarida pechka
ustida yotibdi-yu, tagiga ko’rpacha solishni unutib qo’yibdi. Buni
oyimga aytish kerak, deb o’ylabdi. Oyisini ham ko’rdi: chaqqon kich-
kinagina ayol, u uyqu go’yo o’zining dehqoncha hayotini qisqarti-
rib qo’yadigandek ko’p yillardan beri juda kam uxlardi. Chillakdek
qo’llarini – namdan va mehnatdan allaqachon bukilmay qolgan bar-
moqlarini ko’rdi. Ajin bosgan, dimlab pishirilgan olmadek burishgan
yonoqlaridan oqayotgan ko’z yoshlarini ko’rdi va oyisi hali ham mar-
hum Igorni eslab yig’layotganini, hamon uning o’limida o’zini aybdor
hisoblayotganini tushundi. Oyisiga iliq gaplar aytmoqchi bo’lgan ham
yediki, kimdir oyog’iga turti va u nima uchundir, otam turtayotgan
bo’lsa kerak, deb o’takasi yorilayozdi. Ko’zini ochib qarasa, Osyanina
tosh ustiga tirmashib, oyog’ini turtayotgan ekan.

– Nemislarmi?

– Qayerda?.. – qoʻrqib soʻradi Osyanina.

– Uf, shayton... Menga shunday tuyuldi. – Rita unga uzoq tikilib, jilmaydi.

– Mizgʻib oling, Fedot Yevgrafich. Men sizga shinel olib kelib beraman.

– Qoʻysang-chi, Osyanina. Shunchaki, koʻzim ketgan ekan. Chekib olishim kerak.

Pastga tushdi, qoya ostida Komelkova sochini tarayotgan ekan. Sochini yozib yuboribdi – yelkasi toʻla soch. Tutamlamasa tarolmaydi. Sochi qalin, mayin, misdek tovlanadi. Qoʻllari ham shoshilmay, chaqqon harakat qiladi.

– Boʻyaganmisan? – soʻradi starshina va hozir zahrini sochadiyu, mana shu – oddiy munosabat tugaydi, deb qoʻrqib ketdi.

– Oʻzi shunaqa. Sochlarim toʻzgʻib ketibdimi?

Hechqisi yoʻq.

– Kuzatuv joyida odam qolmadi, deb oʻylamang.

U yerda Liza Brichkina turibdi. Uning koʻzi juda oʻtkir.

– Mayli, mayli. Oʻzingni tartibga solaver...

Eh, yana shu laʼnati soʻz ogʻzidan chiqib ketdi. Chunki bu soʻz ustavda yozib qoʻyilgan. Miyasiga singib ketgan. Eh, Vaskov, sen ayiqning oʻzisan, odam koʻrmagan ayiq!..

Starshinaning qovogʻi tushib ketdi, maxorka tutatib, tutun orasida qoldi.

– Oʻrtoq starshina, uylanganmisiz?

Qarasa, malla sochlar orasidan yashil koʻzlar tikilib turibdi. Bu koʻzlarning kuchi beqiyos, bir yuz ellik ikki millimetrligauibitisa – toʻp kuchi kabi beqiyos.

– Uylanganman, jangchi Komelkova.

Albatta yolgʻon gapirdi. Lekin bunaqalar bilan gaplashganda yolgʻonni ishlatgan yaxshiroq. Uning joyi qayerda ekanligini koʻrsatib qoʻyadi.

– Xotiningiz qayerda?

– Qayerda boʻlardi – uyda.

– Bolalaringiz bormi?

– Bolalarmi?.. – Fedot Yevgrafich xoʻrsindn. – Bola bor edi. Oʻldi. Naq urush boshlanishdan oldin.

– Oʻldimi?..

Sochlarini orqasiga tashlab shunday tikildiki, goʻyo starshinaning yuragidagi bor gapni bilib olgandek boʻldi. Boshqa hech narsa dema-

di. Yupatmadi ham, hazil ham qilmadi, bekorchi gaplarni ham gapirmadi. Shuning uchun ham Vaskov o'zini tutolmay xo'rsindi.

– Ha, oyim asrab qololmadi...

Shunday dedi-yu, o'zi pushaymon qildi. Shunday afsuslandiki, darhol sakrab turib, ko'rikka tayyorlanayotganday, gimnastyorkasini tortib to'g'riladi.

– Nima gap, Osyanina?

– Hech kim yo'q, o'rtoq starshina.

Shundan keyin bir jangchidan ikkinchisining yoniga o'ta boshladi.

Quyosh allaqachon botgan bo'lsa ham, tong paytidagidek yorug' edi, jangchi Gurvich o'z toshi orqasida kitob o'qirdi. Xuddi duo o'qiyotgandek ohang bilan o'qirdi, Fedot Yevgrafich uning yoniga borishdan oldin quloq solib turdi:

*Eslolmagay o'tgan yo'llarin
Og'ir palla tug'ilgan odam.
Biz, Rus elin qonli yillari
Bunyod bo'lgan qiz-o'g'illari
Unutmasmiz bir sadoni ham.
Ey siz, o'tli, olovli yillar
Sizga baxtmi yo telbalik yor?
Erkin kunlar urush kunlarin
Qirmiz aksi yuzimizda bor...*

– Kimga o'qib beryapsan? – so'radi u yaqin kelib. Tarjimon qizarib ketdi (axir kuzatish, hamisha kuzatib turish buyurilgan edi-da), kitobni chetga qo'yib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Starshina qo'l siltadi:

– Kimga o'qib beryapsan, deb so'rayapman?

– Hech kimga. O'zimga.

– Nega bo'lmasa ovoz chiqarib o'qiyapsan?

– Axir bu – she'r.

– Ha-a... – Vaskov hech narsa tushunmadi. Kitobni oldi – yupqa, granatomyot bo'yicha qo'llanmadek keladi. – Varaqlab ko'rди. – Ko'zingni ishdan chiqarasan.

– Yorug', o'rtoq starshina.

– Men shunchaki aytyapman. Undan keyin tosh ustida o'tirma. Tosh tez sovub, issig'ingni tortib ola boshlaydi. o'zing bilmay qolasan. Tagingga shinel solib ol.

– Yaxshi, o'rtoq starshina. Rahmat.

– Baribir ovoz chiqarib o‘qima. Bu yerda kechqurun havo nam, zich bo‘ladi, tong payti esa sokin, shu sababli besh chaqirim naridan eshitaladi. Qarab tur... Kuzatib, jangchi Gurvich.

Ko‘lga yaqinroqqa Brichkina joylashgan edi, Fedot Yevgrafich uzoqdanoq mamnun jilmaydi: ishbilarmon qiz! Archa shoxlaridan sindirib, ikki tosh oralig‘iga to‘shab, ustiga shineline solibdi: tajribali qiz. Buni ko‘rib, uning qayerlik ekanligiga qiziqib qoldi.

– Qayerliksan, Brichkina?

– Bryanskdan, o‘rtoq starshina.

– Kolxozda ishlaganmisan?

– Ishlaganman. Ko‘proq – otamga yordam berardim. U o‘rmonchi edi, biz chegarada yashardik.

– Shuning uchun yaxshi g‘aqqillar ekansan-da.

Kulib yuborishdi. Qizlar kulishni yaxshi ko‘rishadi, hali kulishni unutganlari yo‘q.

– Hech narsa sezmadimgmi?

– Hozircha jimlik.

– Sen hammasiga e‘tibor ber, Brichkina. Butalar qimirlamayaptimi, qushlar bezovta bo‘lmayaptimi – hammasiga e‘tibor qil. Sen o‘rmonda o‘sgan odamsan, hammasini tushunasan.

– Tushunaman.

– Ana shunaqa...

Starshina taraddudlanib qoldi; hamma gapni aytdi, ko‘rsatma berdi, endi ketadigan payt bo‘ldi, lekin negadir ketgisi kelmasdi. Chunki qiz unga g‘oyat yaqin, o‘rmon qizi edi, qulay joylashib olgan va bugun tushiga kirgan qadrdon rus pechkasi haroratidek bu qizdan ham iliq harorat kelib turardi.

– «Liza, Liza, Lizaveta, nega menga salom yo‘llamaysan, nega sevgiling uchun kuylamaysan, nahotki... xushtoring senga yoqmasa», – komendant dag‘al ovoz bilan kuyladi va tushuntirdi. – Biz tomonlarda shunaqa qo‘shiq bor.

– Bizda esa...

– Sen bilan keyin qo‘shiq aytishamiz, Lizaveta. Jangovar buyruqni bajarganimizdan keyin bir kuylashamiz.

– Chin so‘zingizmi? – Liza jilmaydi.

– Aytdim-ku.

Starshina birdan unga chapanichasiga ko‘z qisdi, o‘zi uyalib ketib, furajkasini to‘g‘rilab, jo‘nab qoldi.

Brichkina orqasidan qichqirdi:

– Esingizda bo‘lsin, o‘rtoq starshina! Va‘da berdingiz!..

Lizaga javob qilmadi, ammo qoyalar orqali zapas pozitsiyaga yetgunga qadar yuzidan tabassum arimadi. Bu yerda tabassumini yashirib, jangchi Chetvertak qayerda berkinganikin deb qidira boshladi.

Jangchi Chetvertak esa qoya ostida – qoplar ustida shinelga o‘ralib, bir yengini ikkinchi yengi ichiga tiqib qunishib o‘tirardi. Shinelning ko‘tarib qo‘yilgan yoqasi uning boshini pilotkasi bilan birga to‘sib turar, shinel yoqalari orasidan qizil, ingichka burni so‘rrayib ko‘rinib turardi.

– Nega o‘ralib olding, o‘rtoq jangchi?

– Sovuq...

Starshina qo‘lini cho‘zdi, u esa o‘zini orqaga tashladi: nodonligidan, starshina meni quchoqlamoqchi deb o‘yladi...

– Pitillama, voy Xudo-yey! Peshonangni tut. Qani? – Qiz bo‘ynini cho‘zdi. Starshina peshonasini ushlab ko‘rdi: yonyapti. Jin ursin, yonyapti!

– Isitmang bor, o‘rtoq jangchi. Sezyapsanmi? – Qiz indamadi. Ko‘zlari ham buzoqning ko‘zidek ma‘yus, har qanday odamning ham rahmi keladi. Mana senga botqoq, starshina Vaskov. Mana senga jangchi etigini yo‘qotib qo‘ygani, sening shoshqaloqliging va may oyining izg‘irini. Mana jangga qobiliyatsiz odam, butun otryadga va shaxsan senga ortiqcha yuk.

Fedot Yevgrafich yo‘lxaltasini olib, tasmalarini yechdi va ichiga qo‘lini tiqdi: bir burchagida uning eng muhim daxlsiz zapasi – yetti yuz ellik gramm spirt solinib, og‘zi po‘kak bilan berkitilgan flyaga bor edi. Undan krujkaga quydi:

– Shunday ichasanmi yoki suv qo‘shib beraymi?

– Nima o‘zi?

– Dori. Spirt, xo‘sh?

Galya qo‘llarini silkitib, orqaga tashlandi:

– Voy, nima deyapsiz, nima deyapsiz...

– Ichishni buyuraman! – starshina biroz o‘ylab, jindek suv aralashtirib berdi. – Ich. Orqasidan darrov suv ichib yubor.

– Yo‘q, qo‘ysangnz-chi...

– Ich, gap qaytarma!..

– Nima deyapsiz o‘zingiz! Mening oyim meditsina xodimi...

– Oying yo‘q. Bu yerda urush ketyapti, nemislar bor, men, starshina Vaskov borman. Oying esa yo‘q bu yerda. Kim urushda omon, o‘shaning oyisi bo‘ladi. Tushunarlimi?

Qiz qalqib, ko‘z yoshlari oqib, ichib yubordi. Yo‘taldi: Fedot Yevgrafich kafti bilan uning yelkasiga qoqdi. Yo‘tal o‘tib ketdi; Galya mushti bilan ko‘z yoshlarini artib, kuldi:

– Boshim... aylanib ketdi!..

– Ertaga to‘xtatvolasan.

Shoxlarni sudrab kelib, to‘shadi. Ustiga shinelini yopib qo‘ydi.

– Damingni ol, o‘rtoq jangchi.–

– O‘zingiz shinelsiz qanday qilasiz?

– Qo‘rqma, men sog‘man. Ertalabgacha tuzalsang bo‘lgani. Sendan o‘tinib so‘rayman, tuzal tezroq.

Atrofga sukunat qo‘ndi. O‘rmon ham, ko‘l ham, havo ham – hamma narsa jimib, orom olardi. Tun yarimlab, ertangi kun boshlandi, lekin hech qanaqa nemisdan darak yo‘q edi. Rita Vaskovga tez-tez qarab qo‘yardi, ikkalasi yolg‘iz qolishgach, so‘radi:

– Balki, bekorga o‘tirgandirmiz bu yerda?

– Balki bekordir, – starshina xo‘rsindi. – Lekin unday bo‘lmasa kerak. Agar sen to‘nkalarni frits deb o‘ylab vahima ko‘tarmagan bo‘lsang, albatta.

Bu vaqtga kelib komendant pozitsiyada sergak turishni bekor qildi. Jangchilarni zapas pozitsiyaga yuborib, qarag‘ay shoxlaridan sindirib to‘shab, to‘uyg‘otgunimcha uxlanglar, deb buyurdi. O‘zi esa asosiy pozitsiyada qoldi, Osyantina ham unga ergashdi.

Nemislar ko‘rinmayotgani Fedot Yevgrafichni qattiq tashvishlantirardi. Ular, axir, umuman bu yerga kelmasliklari, yo‘lni mo‘ljallab boshqa joydan o‘tishlari mumkin edi, u o‘ylagancha emas, boshqacha topshiriq olgan bo‘lishlari ham mumkin. Hozirgacha birmuncha falokat keltirgan, biror boshliqni otgan yoki biror muhim obyektни portlatgan bo‘lishlari mumkin. Ana unda tribunalda javob berishga to‘g‘ri keladi. Nega sen o‘rmonni titkilab, nemislarni gumdon qilish o‘rniga, Xudo biladi, qayoqqadir jo‘nab qolding, jangchilarni ayadingmi? Buyruq bajarilmagan ekan, bu sabab bo‘lolmaydi. Yo‘q, bu sabab emas.

– Biroz uxlab olsangiz bo‘lardi, o‘rtoq starshina. Saharda uyg‘otaman...

Bunaqa vaqtda uyquga balo bormi! Komendant gimnastyorkada bo‘lsa-da sovuqni sezmasdi...

– Uyquni qo'yatur, Osyanina. Agar fritslarni qo'ldan chiqarib yuborgan bo'lsam, meni abadiy uyquga mahkum etishadi.

– Balki ular hozir uxlashayotgandir, Fedot Yevgrafich?

– Qanaqasiga uxlaydi?

– Ular ham odam. O'zingiz aytdingiz-ku, Sinyuxin tepaligi temir yo'lga boradigan birdan-bir qulay yo'l deb. Temir yo'lgacha, ular...

– To'xta, Osyanina, sabr qil! Ellik chaqirimligi aniq, hatto undan ham ko'proq. Buning ustiga notanish joylardan, har bir butadan hadik-sirab... Shundaymi? Fikrim to'g'rimi?..

– To'g'ri, o'rtoq starshina.

– To'g'ri bo'lsa, turgan gapki, ular yotib dam olishlari mumkin. Daraxtlar qalinroq joyda. Kun chiqquncha uxlashadi. Kun chiqishi bilan... a, labbay?

Rita jilmaydi. Yana starshinaga xotinlar bolalariga qaraganday, uzoq tikildi.

– Unday bo'lsa, siz ham kun chiqquncha dam oling. Men uyg'otaman.

– Uyqum kelmayapti, o'rtoq Osyanina... Margarita, otangni ismi nima?

– Rita deb chaqiravering, Fedot Yevgrafich.

– Chekishamizmi, o'rtoq Rita?

– Men chekmayman.

– Ha, ularning ham odam ekanligi xususida, negadir xayolimga kelmapti. To'g'ri esga solding: dam olishlari kerak. Sen ham bor, Rita, bora qol.

– Uyqum kelmayapti.

– Unday bo'lsa, oyog'ingni cho'zib yot. Ko'p yurib o'rganmagansan, hozir zirqirayotgandir?

– O'rganibman, Fedot Yevgrafich. – Rita jilmaydi.

Lekin starshina uni dam olishga ko'ndirdi va Rita shu yerdayoq bo'lajak oldingi marrada Liza Brichkina o'zi uchun tayyorlagan shoxlar ustiga cho'zildi. Ustiga shinelni yopib, tong otguncha mudramoqchi bo'ldi-yu, uxlab qoldi. Tush ko'rmay, qotib uxlati. Starshina shinelidan tortganidan keyingina uyg'ondi.

– Nima?

– Jim! Eshityapsanmi?

Rita ustidagi shinelni chetga surib, yubkasini to'g'riladi va sakrab turdi. Quyosh ufqdan bosh ko'targan, qoyalar pushtirang bo'lib

ko'rinardi. Atrofga: ancha naridagi daraxtlar tepasida qushlar chirqillab uchishardi.

– Qushlar chirqillayпти...

– Zag'izg'onlar! – Fedot Yevgrafich ohista kuldi. – Biqini ola zag'izg'onlar chag'illashyapti, Rita. Demak, kimdir kelyapti, ularni bezovta qilyapti. «Mehmonlar» bo'lsa kerak. Yugur, Osyanina, jangchilarni uyg'ot. Darrov! Lekin ehtiyot bo'l, ovozlaringni chiqarmanglar, hech kim sezmasin!..

Rita yugurib ketdi. Starshina o'z joyiga cho'zildi, uning joyi boshqalarnikidan oldinroqda va balandroqda edi. To'pponchasini tekshirdi, miltiqni o'qladi. Endi ko'tarilayotgan quyosh yoritib turgan o'rmon chetini durbin orqali kuzatdi. Zag'izg'onlar butalar ustida charx urishar, tinimsiz chag'illashardi.

Jangchilar yetib kelishdi. Unsiz joy-joylariga borib, yotib olishdi. Gurvich starshina yoniga keldi:

– Salom, o'rtoq starshina.

– Salom. Haligi, Chetvertak qalay?

– Uxlayпти. Uni uyg'otmadik.

– To'g'ri qilibsizlar. Yonimda bo'l, aloqachilik qilasan. Faqat boshingni chiqarma.

– Chiqarmayman, – dedi Gurvich.

Zag'izg'onlar uchib, tobora yaqinlashib kelardi, ba'zi joylarda butalarning uchi qimirlardi, hatto Fedot Yevgrafichga oyoq ostida quruq shox singani eshutilgandek bo'ldi. Keyin hammayoq jim bo'lib qoldi, zag'izg'onlar ham tinchib qolgandek edi. Ammo starshina o'rmon chetginasida, butalar ostida odamlar o'tirganini bilardi. Ular ko'l qirg'oqlarini, narigi tomondagi o'rmonni, o'z yo'llari o'tadigan va hozir starshina hamda uning uyqudan yuzlari qizarib turgan jangchilari yashirinib olgan tepalikni kuzatib o'tirishibdi.

Shunday sirli daqiqa boshlandiki, bunday daqiqada bir voqea o'rniga ikkinchisi, so'ng tasodiflar boshlanadi. Tinchlik paytida inson bu daqiqani sezmaydi, urushda, asablar tarang tortilgan, hayotning shu parchasida yashashning ibtidoiy mohiyati – omon qolish yana birinchi o'ringa chiqqanda bu daqiqa real, jismonan seziladigan va poyonsiz darajada uzoq bo'lib ketadi.

– Qani, kelaveringlar, kelaveringlar... – Fedot Yevgrafich unsiz shivirlardi.

Uzoqdagi butalar qimirladi va yalanglikka ikki kishi ohista chiqdi. Ular xoldor kulrang yashil yopqichda edilar-u, ammo quyosh nuri to'g'ri ularning yuziga tushardi, shu sababli komendant ularning har bir harakatini aniq ko'rib turardi. Barmoqlarini avtomat tepkisiga qo'yganicha, engashib, mushukdek yengil odimlab ko'l tomon yurishdi... Lekin Vaskov endi ularga qaramasdi. Chunki ularning orqasida butalar hamon qimirlar va u yerdan avtomat ushlagan kulrang-yashil yopqichli odamlar ketma-ket chiqib kelardi.

– Uch... besh... sakkiz... o'n... – Gurvich shivirlab sanardi. – O'n ikki... o'n to'rt, o'n besh, o'n olti... O'n oltita, o'rtoq starshina...

Butalar qimirlamay qoldi. Zag'izg'onlar ham qichqirganicha uchib ketishdi. O'n olti nemis atrofga alanglab, qirg'oq bo'ylab, Sinyuxin tepaligi tomon sekin yurib kelishardi...

6

Fedot Yevgrafich umr bo'yi buyruqni bajarib keldi. Buyruqlarni u aytilganday qilib, tez va jon-dildan bajarardi, chunki boshqalar irodasini shu tariqa aniq ijro etishni o'z hayotining mazmuni deb bilardi. Boshliqlar uni yaxshi ijrochi sifatida qadrlashardi, undan boshqa narsa talab qilinmasdi. U yaxshilab sozlangan ulkan mexanizmning uzatuvchi tishli g'ildiragi edi: o'zi aylanar, boshqa g'ildiraklarni aylantirar, bu aylanish nimadan boshlangani, qayoqqa yo'naltirilgani va qanday tugashi bilan ishi yo'q edi.

Nemislar esa Vop-ko'l qirg'og'i bo'ylab sekin va og'ishmay to'ppa-to'g'ri starshina va uning jangchilari tomon kelishardi. Uning jangchilari esa toshlar orqasida, buyruqda aytilganicha, multiqlarning sovuq qo'ndoqlarini shirmon yuzlariga taqab, otishga tayyor, kutib yotishardi.

– O'n oltita, o'rtoq starshina, – Gurvich deyarli unsiz shivirladi.

– Ko'rib turibman, – dedi u qizga qaramay – Jangchilar oldiga bor, Gurvich. Osyaninaga ayt, jangchilarni darhol zapas pozitsiyaga olib o'tsin. Yashirin ravishda, yashirin!.. To'xta, qayoqqa ketyapsan? Brichkinani mening oldimga yubor. Emaklab yur, o'rtoq tarjimon. Hozircha emaklab yashaymiz.

Gurvich toshlar orasidan pildirab, emaklab ketdi. Komendant biror narsa o'ylab topgisi kelar, biror qarorga kelishni istar, lekin miyasi qovoqdek bo'm-bo'sh, faqat yillar davomida tarkib top-

gan bir istak – ma'lum qilish istagi miyasida o'ralashardi. Sharoit o'zgarganligini, endi o'z kuchlari bilan na Kirov temir yo'lini, na o'rtoq Stalin nomidagi kanalni to'sib qololmasligi haqida buyruqqa hozir, shu daqiqada ma'lum qilish istagi miyasida g'ujg'on o'ynardi.

Uning otryadi chekina boshladi; qayerdadir miltiq taqilladi, yana qayerdadir tosh dumaladi. Bu tovushlar unga nayzadek botar, nemislar hali uzoqda bo'lib, hech narsa eshita olmasalar ham, Fedot Yevgrafich chinakam qo'rquv iskanjasida edi. Qani endi hozir bir o'qsochar yoki hech bo'lmasa farosatli yordamchi bilan qo'l o'qsochari bo'lsa! Hatto qo'l o'qsochari emas, uchta avtomat-u, epchil yigitlar bo'lsa... Ammo uning otryadida na o'qsochar, na yigitlar bor, ularning o'rniga beshta kulong'ich qiz-u, har bir miltiqqa besh oboyma o'q. O'sha sershudring may tongida shuning uchun ham starshina terga botib ketgan edi...

– O'rtoq starshina... o'rtoq starshina...

Komendant yengi bilan terini yaxshilab artidi, shundan keyingina o'girildi. Yaqinginasidagi katta ochilgan ko'zlarga qaradi-da, ko'z qisdi:

– Dadilroq bo'l, Brichkina. Ularning o'n olti kishiligi qaytaga yaxshiroq, tushundingmi?

Nima uchun ikkita diversiyachi o'rniga ularning o'n oltita bo'lgani yaxshiroq ekanligini starshina tushuntirib o'tirmadi, lekin Liza uning fikriga qo'shilib, bosh irg'adi va ishonqiramay jilmaydi.

– Kelgan yo'limiz yaxshi esingdami?

– Ha, o'rtoq starshina.

– Bu yoqqa qara: fritslarning chap tomonida qarag'ayzor cho'zilib ketgan. Uni kesib o'tasan, ko'l bo'ylab, qarag'ayzor chetidan yur.

– Siz shox kesgan joydanmi?

– Yashavor, qizaloq! U yerdan to'g'ri soyga qarab yur: u yerda yo'ldan adashmaysan.

– Bilaman, o'rtoq...

– Sabr qil, Lizaveta, shoshilma, Eng muhimi botqoq, tushundingmi? So'qmoq tor, o'ng tomoni ham, chap tomoni ham o'pqqon. Mo'ljal – oq qarag'ay. Oq qarag'ayga yetgach, u yerdan oroldagi ikki tup qarag'ayni mo'ljallab yurasan.

– Xo'p.

– U yerda biroz dam ol, darrov yo'lga tushma. Oroidan men us-tiga chiqib sakragan kuygan to'nkani mo'ljallab yur. O'shani aniq mo'ljallab yur, yaxshi ko'rinib turadi.

– Xo‘p.

– Kiryanovaga sharoitni ma’lum qil. Bu yerda biz fritslarni biroz chalg‘itib turamiz, lekin uzoq bardosh berolmaymiz, o‘zing bilasan.

– Ha.

– Miltiq, xalta, shinel – hammasini tashlab ket. Yo‘lda yengilroq bo‘ladi.

– Demak, hozir jo‘naymi?

– Botqoqqa tushishdan oldin tayoq olishni unutma.

– Xo‘p. Men ketdim.

– Boraqol, Lizaveta, oppoq qiz.

Liza indamay bosh irg‘ab, chetga surildi. Miltiqni toshga suyab qo‘ydi, kamaridan o‘qdonni yecha boshladi, o‘zi esa nimanidir kutib, starshinaga qarab-qarab qo‘yardi. Ammo Vaskov nemislarni kuzatardi, shu sababli uning tashvishli ko‘zlarini ko‘rmadi. Liza ohista xo‘rsinib, kamarini tortibroq bog‘ladi, dunyodagi hamma ayollar singari oyog‘ini sal sudrab, qarag‘ayzor tomon yugurib ketdi.

Diversiyachilar bungacha yaqin kelib qolishgan – ularning yuzlarini bemalol ko‘rish mumkin edi, – Fedot Yevgrafich esa hamon tosh ustida yopishib yotardi. Nemislarga ko‘z qirini tashlab, qoyalardan boshlanib, o‘rmon chetigacha cho‘zilgan yosh qarag‘ayzorga qarab turardi. U yerda daraxt uchi ikki marta silkindi. Lekin yengil, qush qo‘ngandek sal tebrandi. Starshina Liza Brichkinani yuborib, to‘g‘ri qildim, deb o‘yladi.

Diversiyachilar aloqachini sezishmaganiga ishonch hosil qilgach, miltiqni predoxraniteliga qo‘yib, tosh orqasiga tushdi. Bu yerda Liza qoldirgan qurolni olib, gursillash eshitilmasligi uchun sharpa chiqarmay, orqaga yugurib ketdi.

– O‘rtoq starshina!..

Chumchuqlar donga tashlanganday, qizlar starshinaga tashlanishdi. Hatto Chetvertak ham shinel ostidan chiqdi. Shu ham intizom bo‘pti-yu, ularga baqirish, buyurish kerak edi. Soqchi qo‘ymaganligi uchun Osyandinani ogohlantirish kerak edi. U endi og‘zini ochib, qoshlarini komandirchasiga chimirgan edi, ularning jiddiy ko‘zlariga qaradi-yu, xuddi brigadaning dala shiyponida gapirgandek bo‘shashib:

– Ish chatoq, qizlar, – dedi.

Tosh ustiga o‘tirmoqchi bo‘lgan edi, birdan Gurvich to‘xtatib, o‘zining shinelini to‘shadi. Starshina unga minnatdorchilik bilan bosh

silkib o'tirdi va maxorka xaltachasini oldi. Qizlar uning yoniga o'tirib, maxorka o'rashini indamay kuzatib turishardi.

Vaskov Chetvertakka qaradi:

– Xo'sh, qalaysan?

– Tuzuk, – jilmaymoqchi bo'lgan edi, lablari bo'ysunmadi. – Yaxshi uxladim.

– Demak, ular o'n olti kishi. – Starshina xotirjam so'zlashga urinar, shu sababli har bir so'zni o'ylab gapirardi. – O'n oltita avtomat – bu hazilakam kuch emas. Bunaqa kuchni ochiq olishuvda to'xtatib bo'lmaydi. To'xtatmaslik ham mumkin emas, uch soatlardan keyin bu yerga yetib kelishadi, taxminan shunaqa.

Osyana bilan Komelkova bir-biriga qarab olishdi. Gurvich egnidagi yubkasini silab tekislardi, Chetvertak esa, unga kiprik qoqmay, baqrayib qarab turardi. Komendant maxorkasiga tikilib, chekib o'tirgan bo'lsa ham, hozir hamma narsani sezar, hammasini ko'rib, eshitib turardi.

– Brichkinani bo'linmamizga yubordim, – dedi u birozdan keyin. – Yordam kechasi yetib kelishi mumkin, undan oldin kelmaydi. Agar jang boshlasak, tungacha dosh berolmaymiz. Hech qanday pozitsiyada dosh berolmaymiz, chunki ularda o'n oltita avtomat bor.

– Nima, yonimizdan o'tib ketishlariga qarab turaveramizmi? – sekin so'radi Osyanina.

– Ularni bu tepalikdan o'tkazib bo'lmaydi, – dedi Fedot Yevgrafich. – Yo'lidan chalg'itish kerak. Adashtirib, Legont ko'lini aylanib o'tadigan qilish kerak. Qanday qilib? Jang qilsak –dosh berolmaymiz. Xullas, fikrlaringizni aytinglar.

Starshina hammadan ham o'zining sarosimaga tushib qolgani qizlar sezib qolishlaridan qo'rqardi. Sezib qolishsa, qalblari bilan sezib qolishsa ish tamom. Uning jangchilardan ustunligi barham topadi, komandirlik irodasi tugaydi, iroda bilan birga unga ishonch ham yo'qoladi. Shu sababli u ataylab shunchaki, sekin, xotirjam gapirar, qo'shnisidikiga kirib supaga o'tirganday chekib o'tirardi. O'zi esa o'ylar, bosh qotirar, hamma imkoniyatlarni hisobga olardi.

Jangchilarga u avval nonushta qilishni buyurdi. Qizlarning jahli chiqqan edi, u o'shqirib berdi va safar xaltasidan yog' chiqardi. Kim biladi, ularga qaysi biri ko'proq ta'sir qildiyykin – o'shqirishmi yoki yog'mi, har holda dadil yog' chaynashga tushib ketishdi. Fedot Yevg-

rafich esa shoshib qolib, Liza Brichkinani nonushtasiz uzoq joyga yuborganidan afsuslandi.

Nonushtadan so'ng komendant soqolini sovuq suvda ivitib, qir-tishlab oldi. Ustara otasidan qolgan, o'tkir – havas qilsa arzigudek bo'lsa ham, ikki joyini kesib oldi. Kesgan joylariga gazeta yopishtirib qo'ydi, Komelkova esa xaltasidan atir olib, kesilgan joylarga o'zi surtib kuydirdi.

Starshina ishlarini shoshilmay, xotirjam qilardi, lekin vaqt o'tib borar, ammo o'ylari hamon tarqoq edi. Fikrlarini bir joyga yig'olmasdi va hozir bolta bilan o'tin yora olmasligidan afsuslanardi. O'tin yorsami, fikrlari bir tartibga solinib, saralanib, bu ahvoldan qutulish yo'lini topgan bo'lardi.

Albatta, nemislar bu yerga jang qilish uchun kelishmagan – buni u yaxshi tushunardi. Ular pastqam joylardan, uzoqlarga dozor yuborib, ohista kelishyapti. Nima uchun shunday qilishyapti? Dushman bilib qolmasligi uchun, o'q uzishga majbur bo'lmaslik uchun bo'lishi mumkin, zaslolar orasidan asosiy maqsad tomon o'tib olish uchun shunday qilishyapti. Demak, shunday qilish kerakki, nemislar uni ko'rishsin, u esa o'zini nemislarni ko'rmaganga olsin. Ana shunda, balki orqaga chekinib, boshqa joydan o'tishga urinib ko'rishar. Boshqa joy esa – Legont ko'lini aylanib o'tish: bir kunlik yo'l bu.

Ammo ularga kimni ko'rsatishi mumkin? To'rt qiz bilan shaxsan o'zinimi? Shu yerda to'xtashdi ham deylik, keyin razvedka yuborishar, ularni o'rganishar, bu zaslolar roppa-rosa besh kishidan iboratligini bilib olishar. Keyin nima bo'ladi?.. Keyin, o'rtoq starshina Vaskov, ular hech qayerga chekinib o'tirishmaydi. Qurshab olishadida, o'q chiqarmay, butun otryadingni beshta pichoq bilan bir yoqlik qilib qo'ya qolishadi. Axir ular ham ahmoq emaski, to'rtta qiz-u, to'pponcha ushlagan starshinadan qo'rqib, o'rmonga qochib qolishsa...

Ana shu mulohazalarni Fedot Yevgrafich jangchilarga – Osyani-na, Komelkova va Gurvichga aytdi: uxlab olgan Chetvertak o'zi soqchilik qilishga talabgor bo'lgan edi. Hammasini yashirmay aytib, ilova qildi:

– Bir-bir yarim soat ichida boshqa biror narsa o'ylab topmasak, men aytgandek bo'ladi. Tayyorlanaveringlar. Tayyorlaninglar... – Qanaqa tayyorgarlik ko'rishsin? Narigi dunyogami? U yoqqa jo'nashga tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt qancha oz bo'lsa, shuncha yaxshi...

Biroq o'zi tayyorlanardi. Granatalarga zapal soldi (bor-yo'g'i ikitagina granata), to'pponchasini tozaladi, finkasini toshga qayradi. Hamma tayyorgarligi shu: qizlarda esa bu ham yo'q. Bir chetda nimalaridir shivirlashishar, bahslashishardi. Keyin uning yoniga kelishdi:

–O'rtoq starshina, agar ular daraxt kesuvchilarga duch kelib qolishsa-chi?

Vaskov tushunmadi: qanaqa daraxt kesuvchilar? Qayerda? Axir urush ketyapti, o'rmonda hech kim yo'q, o'zlari ko'rishdi-ku. Qizlar tushuntira boshlashgan ediki, komendant gap nimadaligini fahmlab qoldi. Vaskov shuni tushundiki, har qanday qismning ham o'zi egallab turgan joyi, chegarasi bo'ladi. Bu chegara aniq: qo'shnilar ham, hamma joydagi postlari ham ma'lum. Daraxt kesuvchilar esa o'rmonda bo'lishadi. Brigada-brigada bo'lib o'rmonga tarqab ketishlari mumkin: qidirib topish ham qiyin. Nemislar ularni qidirib o'tiradimi? Hech-da, ularni qidirish xavfli. Sal xato qildingmi – tamom: qayerda ekanligingni bilib olishadi, tegishli joyga xabar qilishadi, Chunki necha kishi daraxt kesayotganini, ular qayerdaligini, ularda aloqa qandayligini bilib bo'lmaydi,

– Eh, qizlar, lochinlarim, yashanglar!

Zapas pozitsiya orqasida kichik soy bor edi – sayoz, lekin shovillab oqadigan soy. Soy ortida suv bo'yidanoq o'rmon boshlanadi – qalin terakzor, qulab tushgan daraxtlar, o'tib bo'lmas archazorlar. Bu yerda, ikki qadam narida, qalin o'tlar orasidagi biror narsani ko'rib bo'lmaydi, hech qanday durbin bilan ham, o'rmonning qandayligini, uning qayergacha cho'zilishini aniqlab bo'lmaydi. Qizlarning rejalari ni amalga oshirmoqchi bo'lganda Fedot Yevgrafich ana shuni nazarda tutgan edi.

Nemislarning darrov ko'zi tushishi uchun o'rtaga Chetvertak bilan Gurvichni qo'ydi. Ularga tutatib gulxan yoqishni, baqirib-chaqirib, o'rmonni boshlariga ko'tarishni buyurdi. Butalar orasidan hadeb bosh chiqaravermanglar, ko'zga chalinsanglar bo'lgani, deb tayinladi. Etik, pilotka, kamar – harbiy formani yechib qo'yishni buyurdi.

Joyga qaraganda, nemislar bu gulxanlarni faqat chap tomondan aylanib o'tishga urinib ko'rishadi: o'ng tomonda qoyalar soygacha cho'zilgan bo'lib, o'tishga qulayroq joy yo'q, lekin har ehtimolga qarshi u yerga Osyaninani qo'ydi. Unga ham avvalgidek, ko'zga tashlanish, shovqin ko'tarish va gulxan yoqishni buyurdi. O'tish mumkin bo'lgan chap tomonni o'zi bilan Komelkovaga tanladi. Boshqa pana

joy yo'q edi. Buning ustiga u yerdan soyning qayilish joyi ko'rinib turardi: nemislar soydan kechib o'tmoqchi bo'lishsa, qizlarning qochib ulgurishlari uchun shu yerdan turib ikki-uchtasini qulatishi mumkin edi.

Vaqt oz qolgan edi, shuning uchun Vaskov soqchilarni yana bir kishi bilan kuchaytirib, Osyanina va Komelkova bilan birgalikda tay-yorgarlik ko'ra boshladi. Ular gulxan yoqish uchun shox-shabbalarni tashishayotganda starshina endi ochiqchasiga (Mayli, eshitaversinlar, mayli, tayyor bo'laversinlar!) bolta bilan daraxt kesdi. Balandrog'ini, shovqin bilan qulaydiganini tanlab, bir itarganda yiqiladigan darajada kesar va navbatdaxisiga yugurardi. Ko'zlarini ter achitar, chivin talar, lekin starshina hansirab, to'xtovsiz daraxt kesardi. Oldingi marradan Gurvich yugurib kelguncha kesaverdi. Gurvich narigi tomonda turib qo'l siltadi:

– Kelishyapti, o'rtoq starshina!..

– Hamma joy-joyiga, – dedi Fedot Yevgrafich. – Qizlar, joy-joylaringga boringlar, faqat iltimos: ehtiyot bo'linglar. Butalar orqasida emas, daraxtlar orqasida ko'rininglar. Qattiqroq qichqiringlar..

Uning jangchilari har tomonga tarqab ketishdi. Faqat Gurvich bilan Chetvertak hamon narigi qirg'oqda uymalanishardi: Chetvertak shippak bog'langan bintni yecholmay ovora edi. Starshina ularning yoniga bordi:

– To'xta, ko'tarib o'tkazib qo'yaman.

– Qo'ysangiz-chi, o'rtoq..

– To'xta dedim. Suv muzdek, sen esa hali tuzalganing yo'q.

Mo'ljallab turib shartta qizil askarni ko'tardi (yengil, uch pudcha keladi, ko'p emas). Chetvertak uning bo'ynidan quchoqladi va birdan negadir qizara boshladi. Quloqlarigacha qizarib ketdi:

– Meni xuddi yosh boladek...

Starshina unga hazil qilmoqchi bo'ldi, axir u to'nka ko'tarib ketayotgani yo'q – ammo butunlay boshqa narsa haqida gapirdi:

– Nam joyda ko'p yugurma...

Muzdek suv tizzagacha kelardi. Oldinda Gurvich yubkasini ko'tarib, suv kechib borardi. Uning ozg'in boldiri ko'rinib turar, muvozanatni saqlash uchun etigini silkitardi. U orqasiga qaradi:

– Sovuqligini qarang... Br-r!..

Shunday dedi-yu, yubkasini tushirdi. Endi etagi suvga tegib borardi. Komendant jahl bilan baqirdi:

– Etagingni ko‘tar! – Gurchich to‘xtab, jilmaydi:

– Ustavda bunaqa buyruq yo‘q, Fedot Yevgrafich. – Yaxshi, hali tushkunlikka tushganlaricha yo‘q, hazillashishyapti! Bu Vaskovga yoqdi va u joyiga, Komelkova gulxanlarga o‘t qo‘yayotgan joyga kayfiyati ko‘tarilib keldi. Ovozining boricha baqirdi:

– Qani, qizlar, dadilroq ishlanglar!.. – Uzoqdan Osyana javob qildi:

– Eh-hey!.. Ivan Ivanich, aravani keltir!..

Ular baqirishar, kesib qo‘yilgan daraxtlarni itarib qulatishar, gulxan yoqishardi. Erkak kishining ham ovozi eshinishi uchun starshina ham ba‘zan baqirib qo‘yar, lekin ko‘proq tolzorda yashirib o‘tirib, narigi tomondagi butalarni sergak kuzatardi.

Anchagacha u yerda hech narsani ilg‘ab bo‘lmadi. Uning jangchilari baqiraverib charchashdi, qirqib qo‘yilgan daraxtlarni Osyana bilan Komelkova qulatib bo‘lishdi, quyosh o‘rmon ustiga ko‘tarilib, soyni yoritdi-yu, lekin narigi tomondagi butalar qimirlamas, jim turardi.

– Balki qaytib ketishgandir, – qulog‘i ostida Komelkova shivirladi.

Xudo biladi, ehtimol qaytib ketishgandir. Vaskov, balki nemislar surgalib soy bo‘yiga yaqinlashganlarini sezmagani bo‘lishi ham mumkin. Ular ham anoyi emas, axir: bunaqa ishga duch kelgan odamni yuborishavermaydi...

Starshina shunday deb o‘yladi-yu, qisqa javob qildi:

– Sabr qil.

Yana so‘nggi shoxlarigacha ko‘zdan kechirib chiqqan butalarga tikildi. Shunday tikildiki, ko‘zlaridan yosh chiqib ketdi. Ko‘zini pirpiratib, kafti bilan artdi va seskanib ketdi: deyarli ro‘parasida, soyni narigi tomonida olxazor silkinib, orasi ochildi va oraliqda yosh yigitning soqoli o‘sgan yuzi aniq ko‘rindi.

Fedot Yevgrafich qo‘lini orqaga uzatib, Komelkovaning dumaloq tizzasini topib qisdi, Komelkovaning labi uning qulog‘iga tegdi:

– Ko‘ryapman...

Pastroqda yana bittasi ko‘zga chalindi. Ikkitasi yengil, yuksiz qirg‘oqqa chiqdi va avtomatlarni o‘qtalib, narigi sershovqin qirg‘oqni kuzata boshlashdi.

Vaskovning yuragi orqasiga tortib ketdi: razvedka! Demak, o‘rmonni tekshirib, daraxt kesuvchilarni sanab, ularning orasidan yo‘l topmoqchi bo‘lishibdi-da. Hamma narsa, butun reja, hamma baqiriqlar,

tutun, kesilgan daraxtlar behuda bo'ldi: nemislar qo'rqishmadi. Ular hozir soydan o'tishadi, butalar orasiga sho'ng'ib, qizlar ovozi kelayotgan, gulxanlar va shovqin tomon ilondek o'rmalab borishadi. Barmoq bilan sanab, tahlil qilishadi va... o'zlarini sezdirib qo'yganlarini ang-lashadi.

Fedot Yevgrafich shoxni qimirlatib yuborishdan qo'rqib, ohista to'pponchasini oldi. Bu ikkalasini-ku suvdan chiqmayoq tinchitadi. Albatta, shundan keyin unga qarata otishadi, qolgan o'n to'rt avtomatdan baravar o'q uzishadi, lekin qizlar chekinib, yashirinib olishga ulgurishlari turgan gap. Komelkovani bu yerdan jo'natsa bo'lgani.

Starshina orqasiga qaradi. Yevgeniya uning orqasida cho'kkalab o'tirgancha gimnastyorkasini jahl bilan boshidan tortib yechardi. Gimnastyorkani yerga uloqtirib, yashirinmay, o'rnidan turdi.

– To'xta!.. – shivirladi starshina.

– Raya, Vera, kelinglar, cho'milamiz! – jarangdor ovozda qich-qirdi Jenka va butalarni sindirib, to'g'ri suv tomon yurdi.

Fedot Yevgrafich uning gimnastyorkasini olib, nimagadir ko'ksiga bosdi. Do'ndiqqina Komelkova esa quyosh nur sochib turgan toshloq qirg'oqqa chiqdi.

Ro'parada shoxlar qimirlab, kulrang-yashil sharpalarni yashirdi. Yevgeniya tizzalari qaltirab, yubkasini, ichko'ylagini yechdi va qo'llari bilan qora trusigini silab turib, birdan baland, jarangdor ovozda kuylay boshladi:

Gulladi bog'da olma va noklar,

Daryo uzra suzmoqda tuman...

Oh, naqadar. go'zal edi u hozir, naqadar go'zal! Novcha, badani oppoq, momiqdek – avtomatlardan o'n metrcha masofada turibdi. Qo'shiqni to'xtatib, suvga qadam qo'ydi, qiyqirib, shovqin ko'tarib cho'mila boshladi. Suv tomchilari uning tarang tanasidan oqib tushayotib quyosh nurida tovlanar, komendant esa nafasini ichiga yutib, dahshat bilan avtomatlardan o't ochilishini kutardi. Mana hozir, hozir shu tarang siynaga o'q kelib tegadi-yu, Jenka bukchayib, qo'llarini yozadi va...

Butalardan sado chiqmasdi.

– Qizlar, kelinglar, cho'milamiz! – Komelkova suv ichida tipir-chilab, jarangdor ovozi bilan quvnoq qichqirardi. – Ivanni chaqiring-lar! Hey, Vanyusha, qayerdasan?..

Fedot Yevgrafich uning gimnastyorkasini uloqtirdi, to'pponchani g'ilofiga soldi, emaklab, o'rmon ichkarisiga tashlandi. Boltani olib, nariroq yugurib bordi-da, g'azab bilan qarag'ayga urdi.

– Ho-hoy, ketyapman!.. – baqirdi u va yana daraxtga bolta urdi. – Hozir boramiz, shoshma!.. Ha-ho-hoy!..

Umrida hech qachon bunchalik tez daraxt qulatmagan, bu kuch qayoqdan kelganiga o'zi ham hayron edi. yelkasi bilan itarib, shovqin ko'proq chiqishi uchun quruq archalar ustiga qulatdi. Hansirab, orqa-ga, kuzatib turgan joyiga yugurib keldi va narigi tomonga mo'raladi.

Jenka qirg'oqda unga va nemislarga yoni bilan turardi. Ichko'ylagini xotirjam kiyarkan, shoyi mato badaniga yopishib, ho'l bo'lib, o'rmon ortidan tushayotgan quyosh nurida shaffofdek ko'rinardi. Jenka buni bilardi, albatta va shu tufayli shoshilmay, sochlarini yelkasiga yoyardi. Yana Vaskov, hozir butalar orasidan o'q otiladi-yu, bu navqiron gavdani tilka-pora qilib yuboradi, deb kutib turardi. Bu kutish Vaskovning yurak-bag'rini ezib yubordi.

Jenka marmardek oq joyini ko'rsatib, ko'ylagi ostidan ho'l lozimini yechdi, uni siqib, tosh ustiga yoyib qo'ydi, keyin o'zi ham oyoqlarini cho'zib o'tirdi va to'zgi sochlarini quyoshga tutdi.

Narigi qirg'oq esa jim edi. Qirg'oqdan sado chiqmas, butalar ham qimirlamasdi. Vaskov qancha tikilmasin, nemislar hali ham o'sha yerdami yoki qaytib ketishdimi – aniqlay olmadi. Taxmin qilib o'tirishga vaqt yo'q edi, shu sababli komendant gimnastyorkasini darrov yechib, to'pponchani shimi cho'ntagiga soldi va shoxlarni qasir-qusur sindirib, qirg'oqqa qarab yurdi.

– Qayerdasan?

Dadil baqirmoqchi bo'ldi-yu, eplay olmadi, tomog'iga bir narsa tiqilib qoldi. Butalar orasidan yalanglikka chiqdi – qo'rquvdan oyoqlari uchigacha muzlab ketdi. Komelkovaning yoniga bordi:

– Rayondan telefon qilishdi, hozir mashina keladi. Xullas, kiyin, o'tobda toblanganing yetar.

Narigi tomondagilar eshitsin deb qattiq gapirdi, lekin Komelkova nima javob qilganini eshitmadi. Uning butun e'tibori nemislarga, butalarga qaratilgan edi. Vujudi shunday quloqqa aylangan ediki, nazarida o'sha tomonda bir yaproq qimirlasa ham eshitadigandek, sezadigandek va shu zahoti anavi tosh orqasiga cho'zilib, to'pponchasini ham chiqarishga ulguradigandek edi. Ammo hozircha u yerda hech narsa qimirlamagandek edi.

Jenka uning qo'lidan tortdi, komendant yoniga o'tirdi va birdan qizning kulib turganini, katta ochilgan ko'zlari esa dahshatga to'laligini ko'rdi. Bu dahshat jonli, simobdek og'ir edi.

– Jo'na bu yerdan, Komelkova, – o'zini zo'rlab kulib dedi Vaskov.

Jenka yana nimalarnidir gapirdi, hatto kuldi, biroq Fedot Yevgrafich hech narsa eshitmasdi. Uni olib ketish, butalar orasiga olib ketish kerak edi, chunki qachon otisharkin, deb daqiqalarni sanashga ortiqcha majoli qolmagandi. Lekin la'nati fritslar iskanjaga olmasliklari, nemislarni laqillatayotgan bu o'yin yengil ko'chishi uchun nimanidir o'ylab topish kerak edi.

– Yaxshilikcha jo'namasang, seni odamlarga ko'z-ko'z qilaman! – starshina birdan baqirdi va tosh ustidan qizning kiyimini oldi.–Qani, yetib ol!

Jenka shunday paytda qichqirish tabiiy bo'lgani uchun chiyillab starshinaning orqasidan yugurdi. Vaskov avvaliga unga tutqich bermay qirg'oq bo'ylab yugurdi, keyin esa butalar orasiga tashlandi va o'rmon ichkarisiga kirgandan keyingina to'xtadi.

– Kiyinib ol. O't bilan o'ynashganing yetar. Bo'ldi endi!..

Teskari o'girilib, yubkani uzatdi, Jenka esa olmadi, starshinaning qo'li cho'zilganicha qolaverdi. Urishmoqchi bo'lib o'girilib qaradi – jangchi Komelkova yuzini qo'llari bilan berkitib, bukchayib o'tirar, ichko'ylagining ingichka tasmasi ostida dumaloq yelkalari silkinib, titrab-qaqshab, achchiq yig'lardi...

Ular keyin, nemislar qaytib ketganini bilishganidan so'ng xaxolab kulishdi. Osyaninaning xirillab qolganidan, Gurvich yubkasini kuydirib ko'yganidan, Chetvertakning afti qorakuya bo'lganidan, Jenka fritslarni boplab aldaganidan, starshina Vaskov ustidan kulishdi. Kulganda ham ko'zlaridan yosh chiqquncha, hollari qolmaguncha kulishdi. Vaskovning o'zi ham birdan starshina ekanligini unutib, nemislarni aldashganini, ularni boplab aldashganini, endi ular qo'rquv va vahima bilan Legont ko'lini aylanib o'tish uchun bir kecha-kunduz yo'l bosishlarini o'ylab, kulardi.

– Etar. Bo'ldi endi!.. – derdi Fedot Yevgrafich ular xaxolab kulishayotganda. – Bo'ldi, qizlar, Brichkina vaqtida yetib kelsa, ular hech qayerga qochib qutulisholmaydi.

– Brichkina tez qaytadi, – dedi ovozi xirillab Osyanina va yana xaxolay boshladi, chunki ovozi juda g'alati chiqdi, – u chaqqon qiz.

– Shu ishimiz uchun, kelinglar, qittay-qittay ichamiz: – dedi komendant va flyagani chiqardi. – Brichkinaning chaqqonligi va sizlarning fahm-farosatingiz uchun ichamiz, qizlar!..

Shunday deyishi bilan qizlar harakatga tushib qolishdi. Tosh ustiga sochiq yozishdi, non, suryog' kesib, baliq tozalay boshlashdi. Ular xotinlar yumushi bilan shug'ullanishayotganda starshina odatga ko'ra bir chetda chekib o'tirar, dasturxonga taklif qilishlarini kutar va eng dahshatlisi o'tib ketdi, deb horg'in o'y surardi...

7

Liza Brichkina o'n to'qqiz yil ertangi kun orzusi bilan yashadi. Har tongda uni baxt tuyg'usi qamrab olar, shu zahoti onasining holdan toydiruvchi yo'tali bu bayram bilan uchrashuvni ertangi kunga uloqtirib tashlardi. Bu uchrashuv orzusini so'ndirmas, yo'qqa chiqarmas, faqat orqaga surardi.

– Onamizning ahvoli yomon, sanoqli kunlari qoldi, – ogohlantirardi otasi.

Besh yilgacha otasi har kuni uni shu so'zlar bilan kutib olardi. Liza cho'chqa bolasiga, qo'ylarga, ularning boqimidagi qirchang'i otga yem solish uchun hovliga chiqardi. Onasini yuvintirib, kiyintirib, qoshiqda ovqat yedirardi. Ovqat pishirib, uyni yig'ishtirar, otasi qo'riqlaydigan o'rmonni aylanib chiqar, so'ng non olib kelgani eng yaqin selpoga yugurardi. Dugonalari maktabni allaqachon tugatib, ba'zilari o'qigani jo'nab ketishgan, ba'zilari erga tekkan, Liza esa uy yig'ishtirar, kir yuvar, qo'yxonani tozalar, yana ovqat pishirardi. Shu tariqa kelgusi kunni kutardi.

O'sha kelgusi kun uning xayolida hech qachon oyisining o'limi bilan bog'liq bo'lmasdi. U onasining sog' yurgan paytlarini zo'rg'aa eslardi, ammo Lizaning o'zi hayotni shu qadar sevardiki, bu tuyg'u orasida o'lim haqidagi tasavvurga o'rin ham yo'q edi.

Otasining qaysarlik bilan eslatuvchi o'lim haqidagi xabari bilan hayotning farqi uning tushunarli, real va sezilarli ekanligida edi. Bu hayot qayerdadir yorqin kelgusi kunga yashirinib olganday, o'rmon orasidagi kordonga berkinib olganday edi, lekin Liza hayot mavjudligini va bu hayot o'zi uchun atalganligini va ertangi kun albatta kelganidek, bu hayotni ham to'xtatib bo'lmasligini yaxshi bilardi. Liza esa kutishga o'rganib qolgandi.

Liza o'n to'rt yoshidayoq ayollarning bu buyuk san'atini o'rgana boshladi. Onasining betoblighi sababli maktabni tashlab ketib, avvaliga sinfga qaytishini kutdi, keyin dugonalari bilan uchrashuvni kutdi, so'ng klub oldidagi maydonchada o'tadigan, kamdan-kam bo'ladigan oqshomlarni kutdi, keyin...

Keyin esa to'satdan kutadigan hech narsasi qolmadi. Dugonalari-ning ba'zilari o'qishar, ba'zilari ishlashar va undan uzoqda yashashar, endi ularning qiziqishlari boshqacha edi, Liza esa asta-sekin ularni tushunmaydigan bo'lib qoldi. Bir vaqtlar klub oldida seansdan oldin bemalol suhbatlashib, kulishib yurgan yigitlar endi begonadek, yengil-takdek ko'rinishardi. Liza o'zini tortadigan, indamay o'tib ketadigan, quvnoq kompaniyalardan uzoqroq yuradigan bo'ldi, keyin esa klubga butunlay bormay qo'ydi.

U bolaligidan va eski do'stlaridan shu tariqa ajrala boshladi. Yangi do'stlari esa yo'q edi, chunki uy derazasidan ko'rinadigan kerosin chiroqning lipillagan yorug'i kekxa o'rmonchilardan boshqa hech kimni jalb qilmasdi. Liza iztirob va dahshatda edi. Chunki bolaligi o'rnini nima egallashini bilmasdi. Qahraton qish sarosima va nimanidir kutish bilan o'tdi, bahorda asa otasi aravasida bir ovchini olib keldi.

– Biznikida turmoqchi, – dedi u qiziga. – Ammo qayerga joy so-lib beramiz. Oying o'lim to'shagida yotgan bo'lsa.

– Pichanxona bordir balki?

– Hali sovuq, – botinmay dedi Liza. – Po'stin berasizmi?..

Otasi mehmon bilan oshxonada anchagacha aroq ichishib o'tirishdi. Taxta devor ortida onasi qattiq yo'talardi. Liza karam olib kelish uchun yerto'laga yugurar, quymoq pishirar va gapga quloq solardi.

Ko'proq otasi gapirardi. Aroqni stakanlab ichar, barmoqlari bilan idishdan karam olib, mo'ylovi o'sib ketganidan ko'rinmay qolgan og'ziga tiqar, chaynalib, to'xtovsiz gapirardi.

– Sen gapimni eshit, eshitib tur azizim, Hayotni ham o'rmon kabi siyraklatib, tozalab turish kerak, shunaqami? To'xta. Qurigan, kasal daraxtlardan, butalardan tozalash kerak. Shundaymi?

– Tozalash kerak, – tasdiqladi mehmon. – Siyraklatish emas, tozalash kerak. Begona o'tni yulib tashlamoq lozim.

– Xo'sh, – dedi otasi. – Xo'sh. Sabr qil. Agar o'rmon bo'lsa, biz o'rmonchilar yaxshi tushunamiz. Gap o'rmon haqida bo'lsa, biz

tushunamiz. Gap hayot to'g'risida borganda-chi? Agar jonli narsa bo'lsa, chiyillab chopib yursa-chi?

– Masalan, bo'ri...

– Bo'ri!.. – otasining jahli chiqa boshladi. – Bo'ri senga xalaqit beryaptimi? Nima uchun xalaqit beryapti. Nima uchun?

– Shuning uchunki, uning tishlari bor, – ovchi jilmaydi.

– Nima, u bo'ri bo'lib tug'ilgani uchun gunohkormi? Yo'q, azizim, uni biz o'zimiz gunohkorga chiqarib qo'ydik, o'zidan so'ramay, biz gunohkor qilib qo'ydik. Shu vijdondanmi axir?

– Bilasanmi, Petrovich, bo'ri bilan vijdonni taqqoslab bo'lmaydi.

– Taqqoslab bo'lmaydi? Xo'sh, bo'ri bilan quyonni taqqoslab bo'ladimi? Hiringlamay tur, azizim!.. Mayli, bo'rilarni aholining dushmani deb qaraladi. Mayli. Biz bu ishga umumxalq ishi deb qarab, butun Rossiyada hamma bo'rilarni umumxalq yo'li bilan qirib tashladik, deylik. Hammasini!.. Keyin nima bo'ladi?

– Nima bo'ladi deganingiz nimasi? – ovchi kulib turardi. – Par-randa ko'p bo'ladi...

– Kam bo'ladi!.. – baqirdi otasi va serjun qo'lini musht qilib, bor kuchi bilan stolga urdi.

– Kam bo'ladi, tushundingmi? Hayvon degani omon bo'lishi uchun chopishi kerak. Chopishi, azizim, tushunarlimi? Chopishi uchun qo'rquv darkor, yem bo'lishdan qo'rqish darkor. Ana shunaqa. Albatta, hayotni bir qolipga solish mumkin. Ha mumkin. Lekin nima uchun? Xotirjamlik uchunmi? Bo'ri bo'lmasa, axir quyonlar semirib ketadi, yalqov bo'lib qoladi. Unda nima qilamiz? Bo'rilarni o'zimiz ko'paytira boshlaymiz yoki quyonlarni qo'rqitish uchun chet ellardan sotib olamiz.

– Seni quloq qilishgani yo'qmi, Ivan Petrovich? – mehmon to'satdan sekin so'radi.

– Meni nimamga quloq qilishadi? – o'rmonchi xo'rsindi. – Butun boyligim – ikki mushtumim, xotinim-u, qizim. Meni quloq qilishlaridan foyda. yo'q ularga.

– Ulari kim?

– Ularga emas, bizga! – Otasi stakanga quyib, urishtirdi. – Men bo'ri emasman, azizim, men quyonman. – Stakanda qolganini ko'tarib ichdi, ayiqdek jun bosgan bu odam o'rnidan turayotib, stolni itarib yubordi. Eshik oldida to'xtadi. – Borib uxlayman. Seni qizim kuzatib qo'yadi. Yotadigan joyingni ko'rsatadi.

Liza burchakda jim o'tirardi. Ovchi shaharlik bo'lib, yosh, tishlari oppoq edi, bundan Liza uyalardi. Unga ko'zini uzmay tikilib, ko'zi ko'ziga tushishidan qo'rqib, vaqtida nigohini olib qochar, u gapga solsa, javob bera olmasligidan yoki poyma-poy javob qilishidan qo'rqardi.

– Otangiz ehtiyotkor emas ekan.

– U qizil partizan bo'lgan, – shoshilib javob qildi. Liza.

– Bunisini bilamiz, – mehmon jilmayib, o'rnidan turdi. – Qani, menga yo'l ko'rsating, Liza.

Pichanxona yerto'ladek qorong'i edi. Liza eshik oldida to'xtadi, o'ylanib turdida, mehmonning qo'lidan og'ir po'stin va ichidagi paxtasi dumaloq-dumaloq bo'lib qolgan yostiqlikni oldi.

– Shu yerda kutib turing.

Liqillab turgan narvondan yuqoriga chiqib, pichanni paypaslab tiddi, bosh tomonga yostiqlikni tashladi. Endi pastga tushish, mehmonni chaqirish mumkin edi, lekin u hushyorlik bilan quloq solib, hamon o'tgan yilgi mayin pichan ustida g'imirlar, uni yozib, qulayroq qilib to'shardi. Ovchining oyog'i ostida zina qirsillashini kutganini, qorong'ida shoshilinch va bema'ni uchrashuvni xohlaganini, uning nafasini, shivirlashini, hatto qo'pollik qilishini istaganini umrida hech tan olmagan bo'lardi. Yo'q, xayoliga hech qanday yomon o'y kelmagan, faqat yuragi birdan tez dukillab urishini, qandaydir xira, otashli narsa paydo bo'lib, so'ng g'oyib bo'lishini istagandi.

Lekin zinani hech kim qisirlatmadi, Liza pastga tushdi. Mehmon eshik oldida papiros chekayotgan edi. Liza, pichanxonada cheka ko'rmang, dedi jahl bilan.

– Bilaman, – dedi u papiros qoldig'ini toptab o'chirarkan. – Yaxshi tush ko'ring.

Shunday dedi-yu, uxlagani ketdi. Liza esa idishlarni yig'ishtirish uchun uyga shoshildi. Har bir taqsimchani odatdagidan sekinroq artib, idishlarni yig'ishtirar ekan, yana deraza taqillashini qo'rquv va umid bilan kutardi. Biroq hech kim taqillatmadi. Liza chiroqni o'chirib, oyi-sining kundalik yo'tali va mast otasining qattiq xurragiga quloq solib, joyiga yotdi.

Mehmon har kuni ertalab uydan chiqib ketar, kechqurun ochiqib, charchab qaytib kelardi. Liza unga ovqat berardi, u shoshilib, lekin ochko'zlik qilmay yer, bu esa Lizaga yoqar edi. Ovqatlanib bo'lib, darrov pichanxonaga jo'nardi, Liza esa uyda qolardi, chunki joy tayyorlashga hojat yo'q edi.

– Nega siz ovdan hech narsa olib kelmaysiz? – dedi Liza bir kuni yurak yutib.

– Omadim kelmayapti, – u jilmaydi.

– Ozib ketdingiz, – davom etdi Liza unga qaramay. – Shu ham dam olish bo‘ldimi?

– Bu ajoyib dam olish, Liza, – mehmon xo‘rsindi. – Afsuski, vaqtim tamom bo‘lib qoldi, ertaga qaytib ketaman.

– Ertaga?.. – qayta so‘radi Liza zo‘rg‘a.

– Ha, ertalab. Xullas, hech narsa otolmadim. Kulgili, to‘g‘rimi?

– Kulgili, – dedi u g‘amgin ohangda.

Ular boshqa gapirishmadi, lekin ovchi chiqib ketishi bilan Liza oshxonani naridan-beri yig‘ishtirib, hovliga shoshildi. Saroy atrofida anchagacha aylanib yurdi, mehmon xo‘rsinib, yo‘talganiga quloq soldi, barmoqlarini tishladi, keyin eshikni sekin ochdi va niyatidan qaytishdan qo‘rqib, tezda pichan ustiga chiqdi.

– Kim?.. – sekin so‘radi ovchi.

– Men, – dedi Liza. – Balki o‘rningizni to‘g‘rilab...

– Kerakmas, – u Lizaning gapini bo‘ldi. – Bor, uxla.

Liza pichanxonaning dim sukunatida qayerdadir uning yonida jim o‘tirardi. Ovchi Liza bor kuchi bilan nafasini tutib turganini sezdi.

– Nima, zerikdingmi?

– Zerikdim, – dedi Liza eshitilar-eshitilmas.

– Hatto zerikkanda ham nodonlik qilmaslik kerak.

Lizaga u kulayotgandek tuyuldi. Qiz undan ham, o‘zidan ham nafratlanib o‘tirardi. Bu yerga nimaga kelganini bilmaganidek, hozir nega o‘tirganini ham bilmasdi. Liza hech hachon yig‘lamagan, chunki doim o‘zi yolg‘iz bo‘lib, yolg‘izlikka ko‘nikib qolgan edi, hozir esa dunyoda hamma narsadan ko‘ra o‘ziga shafqat ko‘rsatishlarini istardi. Muloyim so‘zlar aytib, boshini silashlarini, ovutishlarini va bunisini ham tan olmadi – hatto o‘pishlarini istardi. Ammo oyisi uni so‘nggi marta bundan besh yil oldin o‘pganini va bu bo‘sa hozir unga orzu qilib yashayotgan go‘zal ertangi kun garovi sifatida zarurligini ayta olarmidi.

– Bor, uxla, – dedi u. – Men charchadim. Ertaga barvaqt jo‘nashim kerak.

Shunday deb, esnadi. Uzoq esnadi. Liza labini tishlab, o‘zini pastga tashladi, tizzasini qayergadir qattiq urib oldi va eshikni taraqlatib yopib, hovliga otilib chiqdi.

Ertalab u otasi oti Dimkani aravaga qo'shganini, mehmon onasi bilan xayrlashganini, darvoza g'ichirlaganini eshitdi. U o'zini uxlayotganga solib yotar, kipriklari orasidan yosh sizib chiqardi.

Tushda otasi mast bo'lib qaytdi. Shapkasidan stol ustiga kallaqandning ko'kimtir, qirrali bo'laklarini taraqlatib to'kdi va ajablanib dedi:

– Mehmonimiz amaldor chiqib qoldi! Bizga shuncha qand berishni buyurdi. Biz esa selpomizda bir yildan beri qand ko'rmaymiz. Uch kilo qand!..

Keyin jimib qoldi, cho'ntaklarini uzoq titkiladi va tamaki xaltachasidan ezilgan qog'oz parchasini chiqardi:

– Ushla.

«Sen o'qishing kerak, Liza. O'rmonda butunlay yovvoyi bo'lib qolasan. Avgustda kel: yotoqxonasi bor texnikumga kiritib qo'yaman».

Imzo va adres. Boshqa hech gap, hatto salom ham yo'q.

Bir oydan keyin oyisi vafot etdi. Hamisha qovog'ini solib yuradigan otasi vahshiy bo'ldi-qoldi. U yashirincha ichar, Liza esa kechasi otasining do'stlaridan bekinib, eshikni mahkam yopib olar va hamon ertangi kunni kutardi. Endi bu ertangi kun avgust bilan qat'iy bog'liq edi, Liza devor ortidagi mast-alast baqiriqlarni eshitib o'tirib, g'ijimlanib yirtilib ketgan o'sha xatni minginchi marta o'qirdi.

Urush boshlanib qoldi va Liza shaharga borish o'rniga mudofaa ishlariga tushib qoldi. Yoz bo'yi nemislar osongina aylanib o'tayotgan xandaq va tankka qarshi istehkomlarni qazidi, qurshovga tushdi, qurshovdan yorib chiqib yana xandaq qazidi. Shu tariqa borgan sari sharqqa surilaverdi. Kech kuzda Valday ortiga kelib qoldi, zenit qismiga qo'shildi, shu sababli hozir 171-razyezdga yugarib ketmoqda...

Vaskov Lizaga darrov, ularning safi oldida hali uyqu qochmagan ko'zlarini pirliratib, hayron bo'lib turgandayoq yoqib qolgan edi. Uning kamsuqumligi, dehqoncha bosiqqligi va hamma ayollar oila mustahkamligining garovi deb biladigan erkaklarga xos qat'iyiligi ma'qul bo'lgan edi. Shunday bo'ldiki, hamma komendant ustidan kulib, hazil qila boshladi: bu yaxshi qiliq edi. Liza bunaqa gaplarga qo'shilmasdi, lekin hamma narsadan xabardor Kiryanova kulib turib, uy bekasining parivashligiga starshina tob bera olmabdi, deb xabar qilganda, birdan Lizaning jahli chiqib ketdi.

– Yolg'on bu!..

– Sevib qolibdi! – tantanavor oh urdi Kiryanova. – Qizlar, Brichkinamiz sevib qolibdi! Harbiy kishiga ishqi tushibdi!

– Bechora Liza! – Gurchich qattiq xo‘rsindi. – Shundan keyin hamma baravariga gapira boshladi.

Xaxolab kulishdi, Liza esa ho‘ngrab yig‘lab, o‘rmonga qochib ketdi.

Rita Osyanina uni to‘nka ustida yig‘lab o‘tirgan joyida qidirib topdi.

– Qo‘ysang-chi, nodon qiz, soddaroq yashash kerak. Soddaroq, tushundingmi?

Ammo Liza uyatchanligidan, starshina esa xizmatdan bo‘g‘ilib yashardi, agar shu hodisa bo‘lmaganda ularning ko‘zlari hech qachon to‘qnashmagan bo‘lardi. Shu sababli Liza o‘rmondan qanot paydo qilgandek, uchib borardi.

– Sen bilan keyin birga qo‘shiq aytamiz, Lizaveta, – dedi starshina. – Oldin jangovar buyruqni bajaraylik, keyin...»

Liza uning gaplarini o‘ylar va tarang yuzlarida aks etib, qalbida uyg‘onayotgan notanish qudratli tuyg‘udan uyalib, jilmayardi. Starshina haqida xayol surib, tanish qarag‘ay oldidan o‘tib ketib qoldi, botqoqqa yetib borgach tayoq yodiga tushdi, lekin orqaga qaytgisi kelmadi. Bu yerda singan daraxtlar yetarli edi, Liza bitta yog‘ochni tanlab oldi.

Loyqa suvga tushishdan oldin diqqat bilan quloq soldi, keyin kir qilmaslik uchun yubkasini yechdi.

Yubkani tayoq uchiga bog‘lab, loy bo‘lmasin deb, gimnastyorkasi etagini qayirib, kamariga qistirdi, havorang reyuzini ko‘tarib, botqoqqa qadam qo‘ydi.

Bu safar hech kim loyni yorib, oldinda yo‘l ko‘rsatib bormasdi.

Suyuq balchiq beliga yopishar, orqasidan ergashar, Liza esa qiyinchilik bilan, hansirab, tebranib, olg‘a bosardi. Sovuq suvdan qaltirab, oroldagi ikki tup qarag‘aydan ko‘zini uzmay odimlardi.

Ammo na loy, na sovuq, na oyog‘i ostidagi jonsiz, lekin nafas olayotgan zamin uning uchun xavfli emasdi. Yolg‘izlik, qo‘ng‘ir tusli botqoq ustida hukm surayotgan sukunat dahshatli edi. Liza beixtiyor dahshatni sezar, bu dahshat yo‘qolmas, balki qadam sayin kuchayar va u atrofga nazar tashlashdan, ortiqcha harakat qilishdan yoki hech bo‘lmasa chuqur nafas olishdan ham qo‘rqib, majolsiz, nochor holga tushib qaltirardi.

Liza orolchaga qanday chiqib olganini yaxshi eslolmasdi. Tizzalab emaklab chiqdi, chirigan o‘tlar ustiga muk tushdi-yu, yig‘lab yubordi. U sovuqdan, yolg‘izlikdan va jirkanch qo‘rquvdan qaltirab piqillab yig‘lar, ko‘z yoshlarini yumaloq yuziga surib artardi.

Oʻrnidan turdi – koʻz yoshlari hamon tinmasdi. Burnini torta-torta orolni kesib oʻtib, bu yogʻiga qanday ketishni moʻljalladi, dam olmay, kuch toʻplamay turib botqoqqa qadam qoʻydi.

Oldi uncha chuqur emasdi. Liza oʻzini tutib oldi, ancha koʻngli yorishdi. Botqoqning soʻnggi bir qismi qoldi, bu qolgan yoʻl naqadar qiyin boʻlmasin, u yogʻi quruqlik, qattiq, oʻtlar va daraxtlar oʻsgan qadrdon yer. Liza qayerda yuvinishni oʻylab, hamma koʻlmaklarni xotirladi va kiyimni yuvsammi yoki razyezdgacha sabr qilsammi deb moʻljallay boshladi. Botqoqdan oʻtsa, u yogʻi yaqin, yoʻlni, hamma muyulishlarni yodida yaxshi saqlab qolgan, bir-bir yarim soatda oʻzimiznikilar oldiga yetib olishi aniq.

Yurish qiyinlashdi, botqoq tizzaga chiqqa boshladi, lekin qadam sayin narigi qirgʻoq yaqinlashardi, starshina oʻshanda ustidan botqoqqa sakragan toʻnkani Liza aniq, yorigʻlarigacha koʻrib turardi. Starshina ayiqqa oʻxshab qoʻpol, kulgili sakragan, yiqilishiga sal qolgan edi.

Liza yana Vaskov haqida oʻylay boshladi va hatto yuzida tabassum paydo boʻldi. Ular birgalashib qoʻshiq aytishadi, komendant jangovar buyruqni bajarib, yana razyezdga qaytib kelgach, albatta birgalashib qoʻshiq aytishadi. Faqat ayyorlik qilib uni aldab, kechqurun oʻrmonga boshlab borish kerak boʻladi. U yerda esa... U yerda koʻramiz, kim kuchliligini, u zoʻr keladimi yoki starshina bilan birga bir xonada yashayotganidan boshqa fazilati boʻlmagan uy bekasimi...

Oldinda ulkan qoʻngʻir pufak koʻtarildi. Bu shu qadar kutilmagan-da, tez va yaqinginasida yuz berdiki, Liza beixtiyor oʻzini chetga oldi. Faqat bir qadam chetga oldi, oyogʻi esa darrov tayanchni yoʻqotib qoʻydi, yopishqoq boʻshliq ustida osilib qoldi va oʻpqon yumshoq ombir bilan belini qisdi. Allaqachondan buyon toʻplanib turgan dahshat yuragida qattiq, dahshatli ogʻriq qoldirib birdan tashqariga sapchidi. Liza nima qilib boʻlsa ham oʻzini tutib qolish, soʻqmoqqa bir amallab chiqib olishga urinib, butun ogʻirligi bilan tayoqqa tayandi. Quruq yogʻoch qirsillab sindi va Liza suyuq balchiq ustiga yuztuban yiqildi. Zamin yoʻq edi. Oyogʻini ohista, dahshatli ravishda sekin pastga tortib borar, qoʻllari balchiqni bekorga surar, Liza balchiq ichida boʻgʻilib tpirchilardi. Soʻqmoq esa yonginasida, bir qadam, yarim qadam narida edi, lekin shu yarim qadamni qoʻyishning iloji yoʻq edi.

– Yordam beringlar!.. Yordam!.. Yordam beringlar!..

Qoʻngʻir tusli beparvo botqoq ustida dahshatli qichqiriq anchagacha jaranglab turdi. Bu qichqiriq qaragʻaylar uchiga koʻtarilar, olxa-



zorda barglar orasida o'ralashar, xirillab sekinlashar va yana yangi kuch bilan bulutsiz may osmoniga ko'tarilardi.

Liza bu moviy go'zal osmonni anchagacha ko'rib turdi. Xirillab, og'ziga kirgan loyni tuflab tashlar va osmonga intilar, intilar va umidvor edi. Daraxtlar ortidan quyosh ohista suzib chiqdi, uning nurlari botqoqqa tushdi va Liza quyoshning issiq, ertangi kunni va'da qilayotgan chidab bo'lmaydigan darajada yorug' nurini so'nggi marta ko'rdi. U ana shu ertangi kun o'ziga ham ato etilishiga so'nggi daqiqagacha ishonardi...

8

Xaxolashib ovqatlanishayotganda (issiq ovqat emasligi ravshan) dushman ancha olislab ketdi. Sodda qilib aytganda, sershovqin qirg'oqdan, shang'i xotinlar-u, ko'zga ko'rinmas erkaklardan qochib, juftakni rostladi, o'rmon ichiga yashirindi.

Bu Vaskovga yoqmasdi. Uning jangovar tajribasigina emas, ovchilik tajribasi ham bor edi, shuning uchun dushman bilan ayiqni ko'zdan qochirib bo'lmasligini tushunardi. U yerda nimalar qilishini, qayoqqa ketishini, qayerga pistirma qo'yishini Xudo biladi. Ana unda yomon ovga o'xshab qoladi: sen ayiqni quvlayapsanmi, ayiq seni quvlayaptimi, – tushunolmay qolasan. Bunday hol yuz bermasligi uchun starshina qizlarni qirg'oqda qoldirib, o'zi Osyanina bilan qidiruv boshladi.

– Orqamdan yur, Margarita. Men to'xtasam – sen ham to'xta, men yotsam – sen ham yot. Nemis bilan bekinmachoq o'ynash deyarli o'lim bilan o'ynashishdek gap, xullas, butun vujudingni quloqqa aylantir, qulog'-u ko'zga aylan.

Uning o'zi oldinda borardi. Butadan butaga, qoyadan qoyaga o'tardi. Ko'zlaridan yosh chiqib ketgudek bo'lib oldinga tikilar, yerga qulog'ini tutib tinglar, havoni hidlar – hozir portlab ketadigan granatadek. Har narsaga tayyor edi. Atrofga tikilib qarab, quloq solib, qo'lini sal qimirlatar, – shu zahoti Osyanina unga yetib olardi. Ikkalasi – biror joyda shox qirsillamadimi, nodon zag'izg'on chag'illamadimi deb quloq solib turishar, keyin starshina yana engashib, oldinga, navbatdagi pana joyga soyadek siljir, Rita esa joyida qolar, ikki kishi uchun sergaklik bilan quloq solib turardi.

Ular shu tariqa tepalikdan o'tib, asosiy pozitsiyaga, keyin ertalab Brichkina nemislarni aylanib o'tib, o'rmonga chiqqan yosh

qarag'ayzorga yetib kelishdi. Hozircha hech qanday diversiyachi bo'lmagandek, hammayoq tinch, xotirjam edi. Lekin Fedot Yevgrafich bu haqda o'ylamas, kichik serjantning ham bu haqda o'ylashiga yo'l qo'ymasdi.

Yosh qarag'ayzor ortida Legont ko'lining mox bosgan, sertosh qirg'og'i boshlanardi. O'rmon esa qirg'oqdan ancha naridan, tepalikdan boshlanardi, o'rmonga qiyshiq o'sgan oq qayinzor va onda-sonda duch keladigan pakana archalar safi orqali borilardi.

Shu yerda starshina to'xtab qoldi: durbin bilan butalar orasini ko'zdan kechirdi, quloq soldi, keyin sal ko'tarilib, tepalikdan ko'lining sathi tomon bilinar-bilinmas esayotgan shabadani hidlab ko'rdi. Rita mox ustida kiyimi asta-sekin nam bo'layotganini sezib, alam qilib, indamay yotardi.

– Sezyapsanmi? – sekin so'radi Vaskov va ichida kulgandek bo'ldi: – Nemisni madaniyati fosh qilib qo'ydi: ko'ngillari kofe tilab qolibdi.

– Nega unday deyapsiz?

– Tutun isi kelyapti, demak, nonushta qilishmoqchi. Faqat o'n olti nemisning hammasi shu yerdamikin?..

O'ylab turib, miltig'ini yosh qarag'ayga avaylab suyab qo'ydi, kamarini qattiq tortib bog'ladi va o'tirdi;

– Birortasi qolib ketmadimikin, Margarita, ularni sanab chiqishga to'g'ri keladi. Gapimga quloq sol. Agar otishma boshlansa, o'sha zahoti bu yerdan ket. Qizlarni olib, to'g'ri sharqqa jo'nanglar, kanal-gacha. U yerda nemislar haqida ma'lumot berasan, menimcha, o'zlari ham bilishsa kerak, chunki Lizaveta Brichkina halizamon razyezdga yetib borishi kerak. Tushunding-mi?

– Yo'q, – dedi Rita. – Siz o'zingiz-chi?

– Sen, Osyanina, bunaqa gapni qo'y, – qat'iy dedi starshina. – Biz bu yerda qo'ziqorin terib yurganimiz yo'q. Agar meni ko'rib qolishsa, tirik qo'ldan chiqarishmaydi, bunga shubha yo'q. Shuning uchun darrov jo'na. Buyruq tushunarlimi?

Rita javob bermadi.

– Nima deb javob berishing kerak, Osyanina?

– Tushunarli, deb javob qilishim kerak.

Starshina jilmaydi va engashib yaqin joydagi qo'ytosh tomon yugurdi.

Rita undan ko'z uzmay turdi-yu, shunga qaramay qachon g'oyib bo'lganini sezmay qoldi. U mox bosgan kulrang qo'ytoshlar orasida

erib ketgandek ko'zdan yo'qoldi. Yubkasi va ko'ylagining yenglari ivib ketdi: orqaga qarab emaklab borib, tosh ustiga o'tirdi va o'rmonning sokin shitirlashiga quloq sola boshladi.

Hech narsa yuz bermasligiga qattiq ishongan holda deyarli xotirjam kutib o'tirardi. Uni hamma narsaning yaxshilik bilan tugashini kutadigan qilib tarbiyalashgan edi: muvaffaqiyatga shubha bilan qarash uning avlodi nazdida deyarli xoinlik bilan baravar edi. Albatta, u qo'rqish va ikkilanish nimaligini boshidan kechirgan, lekin qalbidagi yaxshilik bilan tugashiga ishonch hamisha real sharoitdan kuchliroq edi.

Lekin Rita qanchalik quloq solmasin, qancha kutmasin, Fedot Yevgrafich to'satdan, ovoz chiqarmay paydo bo'ldi, qarag'ay shoxlari sal qimirladi, xolos. Indamay miltiqni olib, Ritaga ishora qildi-da, bu talar orasiga sho'ng'idi. Qoyalarga yetgachgina to'xtadi.

– Sen yomon jangchi ekansan, o'rtoq Osyanina. Yomon jangchisan.

U jahl bilan emas, tashvishlanib gapirardi. Rita kuldi:

– Nima uchun?

– Jo'jalari bor tustovuqdek yalpayib o'tiribsan. Senga esa qimirlamay yotish buyurilgan edi.

– U yer juda ho'l ekan, Fedot Yevgrafich.

– Ho'l emish... – starshina norozi bo'lib gapirdi. – Baxting bor ekan, ular kofe bilan ovora bo'lib ketishdi, bo'lmasa darrov tugatib qo'ya qolishardi.

– Demak, to'g'ri topibsiz-da?..

– Men folbin emasman, Osyanina. O'n kishi ovqatlanyapti – ularni ko'rdim. Ikkitasi pistirmada: ularni ham ko'rdim. Qolganlari boshqa joyda xizmatda bo'lsa kerak. Ancha o'tirishadigan ko'rinadi: gulxanda paypoqlarini quritishyapti. Xullas, joyimizni o'zgartirishning ayni payti. Men bu yerda, toshlar orasida qarab turaman, sen esa Margarita, jangchilar oldiga borib, ularni boshlab kel. Bu yerga ehtiyot bo'lib kelinglar. Kulgi degan narsa bo'lmasin.

– Tushunaman.

– Ha, aytmoqchi, o'sha yerda qurisin deb tamakimni yoyib qo'ygandim. Xudo xayringni bersin, olib kel. Yuklarni ham.

– Olib kelaman, Fedot Yevgrafich.

Osyanina jangchilarni chaqirib kelgani ketar ekan, Vaskov yonveridagi va uzoqdagi toshlarni ham oralab emaklab tekshirib chiqdi. Ku-

zatti, quloq soldi, hammayoqni sinchiklab qaradi, lekin hech qayerda nemislarning o'zi ham, isi ham sezilmadi, starshining ko'ngli biroz yorishdi. Axir mo'ljaliga ko'ra, Liza Brichkina razyezdga yetib qoldi, tezda u ahvolni xabar qiladi. Ana shunda diversiyachilar atrofiga ularni qo'lga tushirish uchun ko'zga ko'rinmas go'r tortiladi. Kechqurun, – uzog'i bilan ertalab! – yordam yetib keladi, yordamga kelganlarni nemislar iziga solib yuboradi-yu, keyin...

Keyin o'z qizlarini qoyalar orqasiga yashiradi. So'kinishlar eshitilmasligi uchun uzoqroq joyga yashiradi, nega deganda, bu yerda qo'l jangi bo'lmay iloji yo'q.

Yana u jangchilari kelayotganini uzoqdan bildi. Ular shovqin solmay, taraqlatmay shivirlashmay kelayotgandek edi. Shunga qaramay komendant ularning kelishayotganini bir chaqirim naridan bilib oldi. Ular zo'r berishganidan pishillasharmidi yoki atir isi yetib keldimi, faqat Fedot Yevgrafich diversiyachilar orasida haqiqiy ovchi yo'qligidan quvondi.

Juda ham chekkisi kelar, chekib qo'ymaslik uchun tamaki xaltachasini qizlar oldida qoldirib, mana uch soatchadan beri toshlar, daraxtlar oralab yurardi. Ularni kutib olib, ovoz chiqarmanglar, deb ogohlantirdi va tamaki xaltasini so'radi.

– Unutibman! Fedot Yevgrafich, azizim, unutibman!..

Starshina, eh, esi yo'q ayollar, degandek tomoq qirib qo'ydi. Erkak kishi bo'lganda boshqa gap edi: Vaskov boloxonador qilib bir so'kardi-yu, ovsarni tamaki xaltachani olib kelgani qaytarib yuborardi. Hozir esa jilmayishga to'g'ri keldi:

– Mayli, Hechqisi yo'q. Tamakim bor... Safar xaltamni esdan chiqarganlaring yo'qmi?

Safar xaltani olib kelishgandi, komendant tamaki uchun emas, xaltachasi uchun achinardi, chunki xaltacha sovg'a edi va unga «Aziz Vatan himoyachisiga», deb tikilgandi. U xafa bo'lganini yashirishga ulgurmay turib, Gurvich orqaga qarab yugurdi:

– Men olib kelaman. Qayerdaligini bilaman!..

– Jangchi Gurvich, qayoqqa?.. O'rtoq tarjimon!..

Qayoqda deysiz: etigining to'qillaganigina eshitildi, xolos.

Etik shuning uchun to'qillardiki, Sonya Gurvich shu vaqtgacha hech qachon etik kiymagan va tajribasizlik qilib, ombordan ancha kat-tasini olgan edi. Etik oyoqqa to'g'ri kelsa, to'qillamaydi, balki taraqlaydi: buni armiyada xizmat qilgan har bir kishi biladi. Ammo Sonya-

ning oilasi harbiy emasdi. Bu oilada umuman etik kiyilmasdi, hatto Sonyaning dadasi ham umrida etik kiyimagan edi...

Nemiga ortidagi ularning kichkina uyi eshigiga mis taxtacha osig'liq bo'lib, unga «MEDITSINA DOKTORI SOLOMON ARO-NOVICH GURVICH» deb yozilgan edi. Otasi meditsina doktori emas, oddiy uchastka vrachi bo'lsa ham taxtachani olib tashlashmasdi, chunki uni bobosi sovg'a qilgan va hatto o'z qo'li bilan mix qoqib, mahkamlab qo'ygan edi. Shuning uchun mahkamlab qo'yganki, o'g'li ma'lumotli kishi bo'lib yetishgan va uni butun Minsk bilishi kerak edi.

Yana eshik yonida qo'ng'iroq dastasi osig'liq turardi, qo'ng'iroq jiringlashi uchun uni silkitish zarur edi. Bu qo'ng'iroqning kecha-yu kunduz, yoz-u qish tashvishli jiringlashi Sonyaning yoshligi bilan bog'liq. Dadasi kichkina jomadonni ko'tarib olib, har qanday ob-havoda ham piyoda yurardi, chunki izvoshda yurish qimmatga tushardi. Qaytib kelgach esa, sil, tomoq og'rig'i, bezgak haqida sekin gapirib berar, buvisi unga olchadan qilingan vino quyib berardi.

Ularning oilasi juda ahil va katta edi – bolalar, jiyalar, buvisi, turmushga chiqmagan xolasi, yana qandaydir uzoq qarindoshi ular bilan birga turishardi. Uyda hech qachon bitta karavotda bir kishi uxlamasdi, har bir karavotda uch kishidan yotishardi.

Sonya universitetda o'qiganida ham opalarining eski ko'ylagidan tikilgan ko'rimsiz, sovutdek dag'al ko'ylak kiyib yurardi. Uzoq vaqt-gacha bu ko'ylaklarning og'irligini sezmedi, chunki raqsga qatnash o'rniga qiroatxonaga, agar ikkinchi qavatga bilet ololsa, MXATga yugurardi. Leksiya vaqtida yonida o'tiradigan ko'zoynakli yigit u bilan birga qiroatxonada o'tirishi bejiz emasligini fahmlaganidan keyin-gina ko'ylaklarining o'ziga yarashmasligini sezdi. Bu bir yil o'tgach, yoz vaqtida sodir bo'ldi. Gorkiy nomli madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan yagona va unutilmas oqshomdan keyin uch kun o'tgach qo'shnisi unga Blokning yuqqagina kitobini sovg'a qildi va ko'ngilli bo'lib frontga ketdi.

Ha, Sonya universitetda ham opalarining eskilaridan tikilgan ko'ylak kiyib yurardi. Uzun va sovut kabi og'ir ko'ylaklar...

Rost, ko'p kiyimadi: bor-yo'g'i bir yil. Keyin esa forma kiydi. Yana ikki razmer katta etik. Qismda uni deyarli bilishmasdi: u ko'zga tashlanmas va buyurilgan ishni so'zsiz bajarardi. Zenitchilikka ham tasodifan tushib qolgandi. O'sha davrda mudofaa janglari borardi, tarjimonlar yetarli bo'lib, zenitchilar esa yetishmasdi. O'sha «messer»lar

bilan bo'lgan jangdan keyin uni Jenka Komelkova bilan birga yuborishdi. Shuning uchunmi, uning ovozi yolg'iz starshina eshitdi:

– Gurvich baqirganday bo'ldimi?

Quloq solishdi, qoyalari sukunatga cho'mgan. Faqat shamol hush-tak chalardi.

– Yo'q, – dedi Rita. – Sizga shunday tuyulgandir. Uzoqdan kelgan xo'rsinishdek ovoz boshqa eshitilmadi, lekin Vaskov yuzi borgan sari tundlashib, hamon quloq solardi. Bu g'alati baqiriq uning qulog'iga o'rnashib qolgan, hamon baqirish eshitilayotgandek edi. Bu baqiriq nimani bildirishini Fedot Yevgrafich dahshat ichida tushuna boshlagandi.

Rangi oqarib, boshqacha ovoz bilan:

– Komelkova, orqamdan. Qolganlar shu yerda kutsin, – dedi.

Vaskov oldinda soyadek borardi, Jenka esa, hansirab, unga zo'rg'aya yetib yurardi. Rost, Fedot Yevgrafichning yuki yo'q, Jenka esa miltiq ko'tarib olgan, buning ustiga yubkada, yubka esa yugurganda hamisha torlik qiladi. Lekin, eng muhimi, Jenka butun kuchini shovqin chiqar-maslikka sarflar, qolganiga madori qolmasdi.

Starshina esa butun vujudi diqqatga aylangan, haligi baqiriqqa qaratilgan edi. Yagona, deyarli unsiz baqiriqni u birdan eshitdi, bu ovoz kimniki ekanligini bildi va nima bo'lganini tushundi. U bunday baqiriqni oldin ham eshitgan, bunday baqiriq bilan hamma olamdan o'tadi, hamma g'oyib bo'ladi, shuning uchun ham bunday baqiriq qulog'ingda jaranglayveradi. Qalbingda, jismingda jaranglaydi va bu jarangni hech qachon unutilmaysan. U go'yo muzlagandek vujudingni titratadi, ezib, yuragingni uvishtiradi, shu sababli hozir komendant shoshilardi.

Xuddi shu sababli u to'satdan devorga duch kelib qolgandek, birdan to'xtadi, Jenka esa o'zini to'xtatolmay, kelib unga urildi. Starshina esa qayrilib qaramadi ham, faqat cho'qqayib o'tirib, qo'lini yerga – iz yoniga qo'ydi.

Bu iz yapaloq, tishli edi.

– Nemislarmi?.. – ovoz chiqarmay so'radi Jenka.

Starshina javob bermadi. U tikilar, quloq solar, hidlab ko'rardi. Mushtini shunchalik qisdiki, barmoqlari oqarib ketdi. Jenka oldinga engashib qaradi, toshda tomchilar qorayib ko'rinardi. Vaskov toshni ohista oldi, unda qora tomchi quyulib, jonli narsadek bujmayib qolgan edi. Jenka boshini silkitib, baqirmoqchi bo'ldi-yu, bo'g'ilib qoldi.

– Palapartish, – ohista gapirdi starshina va yana takrorladi: – Palapartish...

Haligi toshni ohista yerga qo'ydi, kim qayoqqa qarab yurganini, kim qayerda turganini chamalab, atrofga qaradi. So'ng qoya orqasiga qarab yurdi.

Qoya orqasida Gurvich g'ujanak bo'lib yotardi, kuygan yubkasi orasidan qo'pol kirza etigi chiqib turibdi. Vaskov uni kamaridan tortib, qo'ltig'idan ushlab uchun biroz ko'tardi va chetga sudrab borib, chalqancha yotqizdi.

Sonya yarim yumuq ko'zlari bilan osmonga qarab yotardi, gimnastyorkasining yuqori qismi qonga bo'yalgan edi. Fedot Yevgrafich gimnastyorka tugmalarini yechib, Sonyaning ko'kragiga quloq tutdi. Uzoq quloq solib turdi, Jenka esa orqada mushtini tishlab, ovoz chiqarmay piqillardi. So'ng starshina qaddini rostlab, qiz ko'kragidagi qondan yopishqoq bo'lib qolgan ko'ylakni avaylab tekisladi: unda ikkita tor teshik ko'rindi. Birinchisi ko'krak, chap ko'krak to'g'risida, ikkinchisi sal pastroqda, yurak to'g'risida edi.

– Mana nima uchun baqirgan ekansan, – starshina xo'rsindi. – U seni erkak kishi deb o'ylagan va hamla ham o'shanga mo'ljallangan, shuning uchun baqirishga ulgurgansan. Birinchi zarbada yuragingga yetkaza olmagan: ko'kraging xalaqit bergan...

Yoqasini to'g'rilab, tugmalarini qadadi, hammasini, bitta ham qoldirmay qadadi. Qo'llarini qovushtirib qo'ydi, ko'zlarini bekitmoqchi bo'ldi, ammo yumilmadi, faqat qovog'ini qonga bo'yab yubordi. O'rmidan turdi:

– Hozircha shu yerda yotatur, Sonechka.

Orqada Jenka piqillab yig'ladi. Starshina qovog'ini uyib:

– Yig'lab o'tirishga vaqt yo'q, Komelkova, – dedi unga.

Shunday dedi-yu, engashib, bilinar-bilinmas tishli izni sezgisi bilan aniqlab, oldinga tez yurib ketdi...

9

Nemislar Sonyani kutib turishganmikin yoki Sonya ularga tasodifan duch kelib qoldimikan? Starshina Vaskovga o'sha la'nati tamakini olib kelishga shoshilib, o'zi ikki marta o'tgan va yaxshi bilgan yo'lidan qo'rqmay yugurgan. Quvonib yugurgan va nozik yelkalariga terlagan og'irlik qayerdan tushganini, nima uchun yuragi birdan

qattiq og'riqdan tipirchilaganini anglashga ham ulgurmagan. Yo'q, ulgurgan. Anglab, baqirishga ulgurdi, chunki birinchi zarbdayoq pichoq yurakka borib yetmagan: siynasi xalaqit bergan. Siynasi baland, qattiq edi.

Balki voqea bunday bo'lmagandir? Balki ular Sonyani kutib tushirgandir! Balki qo'poruvchilar tajribasiz qizlarni ham, ularning razvedka uchun orden olgan, muddatdan tashqari xizmat qiluvchi starshinalarini ham aldashgandir. Balki u fritslarni emas, fritslar uning izidan poylab yurishgandir. Balki hammalarini ko'rib, hisoblab, qachon kimni tugatishni belgilab ham qo'yishgandir?

Lekin hozir Vaskovni qo'rquv emas, g'azab olg'a surib borardi. U g'azabdan tishlarini g'ichirlatar va faqat bir narsani – ularga yetib olishni xohlardi. U yetib olsa bo'lgani, u yog'ini o'zi biladi...

– Sen baqirishga ham ulgurmaysan... Yo'q, baqirolmaysan...

Toshlar ustida ba'zi joylarda bilinar-bilinmas iz qolgandi, ularga qarab, Fedot Yevgrafich nemislar ikki kishi ekanligini aniq bildi. U o'zini kechira olmas, nemislarning qayerdaligini aniq bilmaganidan, ular bu yerda emas, gulxanning narigi tomonida tentirab yuribdi deb umid qilganidan, kechagina bir kotelokdan ovqat yegan tarjimonning halok bo'lishiga yo'l qo'rganidan qiynalar edi. Bu azob uning butun a'zosini iskanjaga olgan edi. Endi u faqat bir narsa – quvlash bilan tinchlanishi mumkin. Boshqa hech narsa haqida o'ylashni istamas, Komelkovaga ham o'girilib qaramasdi.

Jenka qayoqqa va nima uchun yugurib ketayotganlarini bilardi. Starshina hech narsa aytmagan bo'lsa ham bilardi, ammo qalbida qo'rquv yo'q edi. Birdan butun vujudi junbisha kelgandi, shu bois uni hech narsa iztirobga solmas edi. Jenka o'zini qattiq idora qilar, shu sababli uni hech narsa chalg'itmasdi. Ilgari ham, eston ayol uni yashirib qo'yganda shunday bo'lgan edi. Qirq birinchi yil yozida, deyarli bir yil avval...

Vaskov qo'lini ko'tardi va u jonholatda nafasini ichiga yutdi.

– Damingni ol, – dedi Fedot Yevgrafich zo'rg'a eshitiladigan qilib. – Ular shu o'rtada. Yaqin orada.

Jenka miltiqqa suyandi, yoqasini tortib ochdi. Ko'kragini to'ldirib chuqur nafas olgisi kelardi. Ammo dushman eshitmasligi uchun ohista nafas olardi va bundan yurak tinchlangisi kelmasdi.

– Ana ular, – dedi starshina.

U toshlar orasidagi tor yoriqdan qarab turardi. Jenka ham qaradi: ularning oldidan o'rmon tomon boshlangan siyrak oq qayinzorda daraxtlarning egiluvchan uchi sal qimirlardi.

– Yonimizdan o'tishadi, – Vaskov o'girilmay gapini davom ettirdi. – Shu yerda tur. O'rdak bo'lib g'aqqillashim bilanoq tosh yoki qo'ndiq bilan yerga ur, ular sen tomonga qarasin. Keyin qotib jim tur. Tushundingmi?

– Tushundim, – dedi Jenka.

– Demak, o'rdak bo'lib g'aqqillaganimda. Undan oldin emas.

U o'pkasini to'ldirib chuqur nafas oldi-da, tosh ustidan to'g'ri oq qayinzorga sakradi.

Eng muhimi ularning ko'zi qamashishi uchun quyosh botayotgan tomondan bosish. Ikkinchi muhim ish – yelkasiga sakrash. Zarb bilan yiqitish, pichoq urish, baqirtirmaslik, toki suvga cho'kkandek, bo'lsin.

U yaxshi joyni tanladi. Nemislar bu yerdan aylanib o'tisha olmas, uni ham ko'rishmas edi. O'zlari esa ochiq joyga chiqishadi, chunki u yashiringan joy oldida – oq qayinzorda kichik yalanglik boshlanadi. Albatta shu yerdan xotirjam, bexato otishi mumkin, ammo o'q ovozi asosiy guruhga eshitilmasligiga ishonch kamroq, eldan burun shovqin ko'tarish esa o'ziga ziyon. Shu sababli u to'pponchani darrov g'ilofiga tiqib, to'polonda tushib qolmasin deb tasmasini soldi. O'lja olingan fin pichog'i qinidan yengil chiqishini tekshirib ko'rdi.

Shu payt bahorda mayin barglar bilan yasangan siyrak, oq qayinzorda nemislar birinchi marta ochiq ko'rindi. Fedot Yevgrafich kutganidek, ular ikki kishi edi, o'ng yelkasiga avtomat osib olgan norg'uli oldinda kelardi. To'pponchadan otib tugatishning eng qulay payti, juda qulay payti edi, lekin starshina bu fikrdan qaytdi. Ammo bunga sabab o'q ovozi chiqishidan qo'rqish emasdi. Sonya esiga tushib ketdi. Endi ularning osongina o'lishiga yo'l qo'ymaydi. Jonga jon, pichoq bilan o'ldirgani uchun pichoqdan o'lim topishadi. Hozir shunday, faqat shunday bo'lishi kerak. Nemislar hech narsadan hayiqmay, bemalol kelishardi, orqadagisi hatto lablarini yalab, qotgan non chaynab borardi. Starshina ularning qadami kattaligini aniqladi, qachon to'g'risiga yetib kelishlarini mo'ljalladi, finkani qinidan sug'urdi va birinchisi bir sakrashlik joyga yetib kelganda ikki marta kalta va tez g'aqqilladi. Nemislar darrov boshlarini ko'tardi. Lekin shu payt ularning orqasida

Komelkova qo'ndiq bilan qoyaga urdi, ular shovqin eshitilgan tomonga shart burilishdi, shu zahoti Vaskov sakradi.

U sakrashni aniq mo'ljallagan edi: vaqt ham to'g'ri tanlangan, masofa ham to'g'ri o'lgangan edi. Nemisning ustiga tushib, tizzalari bilan tirsagini qisdi. Frits nafas olishga ham, seskanishga ham ulgur-mayoq starshina chap qo'li bilan peshonasidan tortib, boshini orqaga qayirdi-yu, tarang bo'yniga o'tkir pichoqni tortdi.

Xuddi shunday mo'ljallangan edi. Qo'ydek so'yib tashlash kerak edi ularni. Baqirishga ulgurmasin, qoniga belanib xirillasin. Frits qulay boshlaganda komendant uning ustidan sakrab tushib, ikkinchisiga tashlandi.

Bor-yo'g'i bir soniyagina o'tdi, bir soniya: ikkinchi nemis orqasini qilib turardi, endi o'girilayotgan edi. Lekin ikkinchi marta sakrashga Vaskovning kuchi yetmadimi yoki imillab qoldimi – pichoq sancholmay qoldi. Avtomatni urib tushirdi, lekin qo'lidagi finkani ham tushirib yubordi, qonga belangan, sovun kabi sirg'anchiq edi pichoq.

Bema'ni ish bo'ldi: jang o'rniga olishuv, mushtlashish. Nemis o'rta bo'y bo'lsa ham tirishqoq, chayir chiqib qoldi: Vaskov shuncha urinsa ham uni egib, bosib ololmasdi. Toshlar va oq qayinlar orasida shox ustida olishardilar, lekin nemis starshinani yengishga ishongandanmi yoki kuchini ketkazgisi kelmaganidanmi, hozircha baqirmasdi. Fedot Yevgrafich yana xato qilib qo'ydi: nemisni mahkamroq tutmoqchi bo'lgan edi, Vaskov changalidan sirg'anib chiqib, pichog'ini qinidan sug'urishga ulgurdi, Vaskov bu pichoqdan qo'rqqanidan ko'p kuchi va e'tibori pichoqqa qaratildi-yu, natijada nemis uning ustiga chiqib, oyoqlari bilan gavdasini qisib oldi va endi xanjarning xira tig'i bilan uning tomog'iga intildi. Hozircha starshina uning qo'lini ushlab turar, hozircha o'zini himoya qilardi, lekin frits butun og'irligi bilan ustidan bosar, bu vaziyat uzoq davom etolmasdi. Buni komendant bilardi, nemis ham bilardi – ko'zlari qisilib, lablari qiyshayayotgani bejiz emasdi.

Birdan frits bo'shashib qoldi, bo'sh qopdek bo'shashdi, Fedot Yevgrafich oldin tushunmadi, birinchi zarbani eshitmagan edi. Ikkinchisini esa eshitdi: chirigan yog'ochga urilgandek bo'g'iq tovush eshitildi. Yuziga issiq qon sachradi va nemis qiyshaygan og'zi bilan havoyutib, orqasiga ag'darila boshladi. Starshina uni uloqtirib tashladi, pichoqni tortib olib, yuragiga mo'ljallab sanchdi.

Shundan keyingina atrofga qaradi: jangchi Komelkova tayog ushlagandek, miltiqning stvolidan tutib, uning oldida turardi. Miltiq qo'ndog'i qon edi.

– Yasha, Komelkova... – starshina bo'lib-bo'lib gapirdi. – Senga minnatdorchilik... e'lon qilaman...

O'rnidan turmoqchi bo'ldi-yu, turolmadi. Og'zini baliqdek kapa-kappa ochib, yerda o'tirib qoldi. Faqat haligi, birinchisiga qaradi: baquvvat nemis ekan, ho'kizdek baquvvat. Hali ham tipirchilar, xirillar, hali ham qon sachrab turardi. Ikkinchisi esa qimirlamas edi, o'lim oldidan g'ujanak bo'lgancha qotib qolgandi. Ish tugagan edi.

– Mana, Jenya, – dedi sekin Vaskov. – Ular, demak, yana ikki kishiga kamaydi...

Jenka birdan miltiqni tashlab, engashgancha, mast odamdek tebratib buta orqasiga o'tdi. U yerda cho'kkalab qoldi: ko'ngli aynir, qayt qilar va yig'lar, onasinimi, kimnidir chaqirardi...

Starshina o'rnidan turdi. Hamon tizzasi qaltirar, ko'kragi og'rirdi, lekin endi vaqtni boy berish xavfli edi. U Komelkovani o'z holiga qo'yib berdi, birinchi qo'l jangida odam hayot kabi tabiiy bo'lgan «o'ldirma» degan qonunni bosib o'tganidan larzaga kelishini o'z boshidan o'tkazgani uchun uni chaqirmadi ham. Bunaqaga o'rganish, bag'ritoshga aylanishi kerak, Yevgeniyagina emas, boshqa jangchilar, baquvvat erkaklar ham diydalari qotmaguncha qattiq azob chekishgan. Bu yerda esa ayol jonli odamning boshiga qo'ndoq bilan urdi, xotin kishi, tabiatan, qotillikni nafrat bilan qoralovchi bo'lajak ona. Buni ham Fedot Yevgrafich nemislar jinoyatiga tirkab qo'ydi, chunki ular insoniyat qonunlarini poymol etishdi va oqibatda o'zlari qonundan tashqarida bo'lib qolishdi. Shuning uchun ham Vaskov hali sovimagan murdalarni tintiyotganda faqat ijirg'anardi, o'limtikni aylantirib ko'rayotgandek jirkanardi, xolos...

U qidirayotganini topdi, – hozirgina xirillashdan to'xtab, joni jaqannamga ketgan novchasining cho'ntagidan tamaki xaltachasini topdi. Uning, starshina Vaskovning, ustiga «Aziz Vatan himoyachisiga» deb tikilib yozilgan shaxsiy tamaki xaltachasini topdi. Qo'lga olib, qisdi: Sonya keltirib berolmadi... Yo'lini to'sib turgan serjun qo'lni etigi bilan tepib uloqtirdi-da, Jenkaning yoniga keldi. U hamon butalar orasida bo'g'ilib, piqillab, cho'kkalab turardi.

– Keting... – dedi.

Vaskov qisilgan mushtumini Jenyaning yuziga yaqin keltirib, barmoqlarini yozib, tamaki xaltachasini ko'rsatdi. Jenka tanib, darrov boshini ko'tardi.

– Tur, Jenya.

Turishiga yordamlashdi. Orqaga, yalanglikka boshladi, Jenka esa bir qadam qo'ydi-yu, to'xtadi, boshini sarak-sarak qildi. .

– Qo'y, – dedi Vaskov. – Qiynalganing yetar. Bir narsani tushunmoq kerak: bular odam emas. Odam emas, o'rtoq jangchi, inson emas, hatto hayvon ham emas – fashistlar ular. Demak, ularga fashist deb qara.

Lekin Jenka qaray olmasdi. Fedot Yevgrafich ham qattiq turmadi. Avtomatlarni, zapas oboymalarni oldi, flyagalarni ham olmoqchi bo'ldi-yu, Komelkovaga ko'z qirini tashlab, fikridan qaytdi. Jin ursin, katta o'lja emas. Jenkaga esa yengilroq bo'ladi, kamroq eslaydi.

Vaskov o'ldirilganlarni yashirib o'tirmadi: baribir butun yalanglikdagi qonni qirib tashlolmaysan. Bunday qilishning foydasi ham yo'q: kech kirib boryapti, tez orada madad yetib kelishi kerak edi. Nemislarning vaqti oz qolgandi, starshina bu vaqtni ular xavf-xatar ostida o'tkazishlarini istardi. Mayli, qiynalishaversin, dozorni kim o'ldirganini taxmin qilishaversin, har bir shitirlashdan, har bir soyadan cho'chishaversin.

Birinchi ko'lmakka duch kelishgandayoq (yaxshiyamki bu yerda ko'lmaklar malla qiz yuzidagi sepkildek ko'p) starshina yuzini yuvdi, amal-taqal qilib uzilgan yoqasini gimnastyorkasiga yopishtirdi.

– Balki yuvinib olarsan?

Jenka bosh chayqadi, yo'q, uni hozir gapga sololmaysan, chalg'itilmaysan... Starshina xo'rsindi:

– Odamlarimizni o'zing topib borolasanmi yoki kuzatib qo'yaymi!

– Topib boraman.

– Ketaver. Sonyaning oldiga. boringlar. Demak, o'sha joyga... Balki yolg'iz qo'rqarsan?

– Yo'q.

– Har holda ehtiyot bo'l. Tushunishing kerak.

– Tushunaman.

– Mayli, ketaver. U yerda o'ralashib o'tirmanglar, keyin motam tutamiz.

Ajralishdi. Fedot. Yevgrafich Jenka ko'zdan yo'qolguncha orqasidan qarab turdi: u zo'rg'a yurib borardi. Dushmanga emas, o'z tuyg'ulariga quloq solardi. Eh, siz, jangchilar...

Sonya yarim yumuq, xira ko'zlarini osmonga tikib yotardi. Starshina uning ko'zlarini yana yumib qo'ymoqchi bo'ldi, ammo yumolmadi. Shundan keyin Sonyaning gimnastyorkasi cho'ntagini yechib, u yerdan komsomol bileti, tarjimonlar kursini bitirgani haqidagi spravka, ikkita xat va fotosuratni oldi.

Bu fotografiyada grajdan kiyimidagi kishilar ham ko'p edi. O'rtadagi kim ekanligini Vaskov aniqlay olmadi: pichoq qoq o'rtasini teshib o'tgan edi. Sonyani esa topdi: yon tomonda uzun yengli, keng yoqali ko'ylakda turibdi: ingichka bo'yni ko'ylak yoqasidan turtib chiqib turibdi. U kechagi gaplarni, Sonyaning xomushligini esladi va alam bilan, oddiy askar Sofya Solomonovna Gurvichning qahramonlarcha halokati to'g'risida yozib yuboradigan qarindoshi ham yo'q, deb o'yladi. So'ng uning ro'molini tupugi bilan ho'llab, qovoqlarida qotib qolgan qonni artdi-da, shu ro'mol bilan yuzini yopib qo'ydi.

Hujjatlarni esa o'z cho'ntagiga soldi. Chap cho'ntagiga, o'zining partbileti turgan cho'ntagiga solib qo'ydi. Yoniga o'tirib, hech esdan chiqmaydigan xaltachadan tamaki olib chekdi. Uning g'azabi bosildi, og'riq ham so'ngan edi: faqat qayg'uga to'la, halqumigacha qayg'uga to'la, hatto tomog'i bu qayg'udan qichishardi. Endi o'ylab ko'rsa, chamlasa, har voqeani o'z joyiga qo'yib, bundan keyin qanday harakat qilishni puxtalab olsa bo'lardi.

U dozorlarni o'ldirib, o'zini fosh qilib qo'yganidan afsuslanmasdi. Hozir vaqt uning foydasiga ishlardi, hozir hamma liniyalardan ular va diversiyachilar haqida doklad qilinyapti va jangchilar ehtimol fritslarni qanday qilib osonroq tugatish to'g'risida instruktaj olishayotgandir. O'n olti kishiga qarshi to'rtovlon uch soat, boringki, besh soat olishishiga to'g'ri kelar, bunga bardosh berish mumkin. Buning ustiga ular nemislarni to'g'ri yo'ldan chalg'itib, Legont ko'liga yo'naltirib yuborishdi. Ko'lni aylanib o'tish uchun esa bir kechakunduz yurish kerak.

Uning otryadi hamma yuklari bilan keladi. Ikki kishi, rost, ikki tomonga qarab ketdi, ularning yuki esa qoldi va ehtiyotkor oiladagidek otryad buyumlari ko'paya boshladi. Galya Chetvertak Sonyani ko'rib qichqirib, qaltiray boshlagan edi, Osyanina jerkib berdi:

– Yig'i-pig'i bo'lmasin!..

Shundan keyin Galya jim bo'lib qoldi. Sonyaning bosh tomoniga cho'kkalab, sekin yig'lay boshladi. Rita esa og'ir nafas olar, ko'zlari quruq edi.

– Qani, dafnga hozirlanglar, – dedi starshina. Boltachani olib (bunaqa ishga belkurak olmagan ekan-a!), qabr uchun joy izlab toshlarni oralab ketdi. Qidirdi, nuqul qoyalarga duch kelardi, qazib bo'lmaydi. To'g'ri, chuqur topdi. Shox-shabballarni kesib, ostiga soldi, keyin qaytib keldi.

– A'lochi edi, – dedi Osyanina. – Doim beshga o'qigan, maktabda ham, universitetda ham.

– Ha, – dedi starshina. – She'r o'qirdi.

O'zicha esa, muhimi bu emas, deb o'yladi. Eng muhimi – Sonya bola ko'rishi, bolalaridan nevara, chevare ko'rishi mumkin edi. Endi esa ana shu rishta uzildi. Insoniyatning bepoyon kalavasidan pichoq bilan qirqilgan bitta rishta...

– Ko'taringlar, – dedi u. Komelkova bilan Osyanina yelkasidan, Chetvertak oyog'idan ko'tardi. Qoqilib, chayqalib, ko'tarib ketishdi, Chetvertak yangi yasalgan shippak kiygan qo'pol oyog'ini sudrab borsardi. Fedot Yevgrafich esa Sonyaning shinelini ko'tarib, orqada borsardi.

– To'xtanglar, – dedi u chuqur yoniga kelishgach. – Hozircha shu yerga qo'yinglar.

Chuqur chetiga yotqizib qo'yishdi: boshi o'rnmashmay, hadeb qiyshayib ketaverdi, buni ko'rib, Komelkova pilotkani chakkasiga tirab qo'ydi. Fedot Yevgrafich esa o'ylanib, qovog'ini solib (xohlamagandi bunaqa qilishni, sirayam xohlamagandi), qaramasdan Osyaninaga bu-yurdi:

– Oyog'idan ushlab tur.

– Nimaga?

– Buyurgandan keyin ushlayver-da! U yerdan emas – tizzasidan! Sonyaning oyog'idan etigini yechib oldi.

– Nega?.. – qichqirdi Osyanina. – Unday qila ko'rmang!..

– Negaki, jangchimiz oyoqyalang, mana nima uchun.

– Yo'q, yo'q, yo'q! – Chetvertak titrab ketdi.

– Bekinmashoq o'ynayotganimiz yo'q, qizlar, – starshina xo'r-sindi. – Tiriklar haqida o'ylash kerak. Urushda faqat shu qonun bor. Ushla, Osyanina. Buyuraman, Galya, ushla.

Ikkinchi poyini yechib, Galya Chetvertakka tashladi:

– Kiy. Hiqillamay kiy: nemislar bizni kutib o‘tirishmaydi.

Chuqurga tushib, Sonyani shinelga o‘rab, qabrga qo‘ydi. Ustiga qizlar uzatib turgan toshlarni taxlay boshladi. Tepalik hosil bo‘ldi: starshina tepalikka pilotka qo‘yib, tosh bilan bostirdi. Komelkova esa qabr ustiga yashil shox qo‘ydi.

– Xaritada belgilab qo‘yamiz, – dedi starshina, – urushdan keyin yodgorlik o‘rnatamiz.

Xaritadan joyni topib, belgi qo‘ydi. Qarasa, Chetvertak hamon shippakda turibdi.

– Jangchi Chetvertak, nima gap? Nega oyog‘ingga kiymading?

Chetvertak titrab ketdi:

– Yo‘q!.. Yo‘q, yo‘q, yo‘q! Bunday qilish yaxshi emas. Zararli! Mening oyim meditsina xodimi...

– Yetar aldaganing! – Osyanina birdan qichqirib yubordi. – Yetar! Oying yo‘q! Bo‘lgan ham emas! Tashlandiqsan, yolg‘onni to‘qishga hojat yo‘q!..

Galya yig‘lab yubordi. O‘yinchog‘i sinib qolgan yosh boladek xafa bo‘lib, achchiq yig‘ladi...

10

– Nima keragi bor bunday gapni, nima keragi bor? – ta‘naomuz dedi Jenka va Chetvertakni quchoqladi. – Biz badjahl bo‘lmasligimiz kerak, bo‘lmasa toshbag‘ir bo‘lib qolamiz, nemislardek toshbag‘ir bo‘lib qolamiz...

Osyanina indamadi...

Galya chindan ham tashlandiq edi, hatto Chetvertak degan familiyani ham bolalar uyida berishgan. Chunki hammadan pakana, boshqalardan nimchorak kam edi.

Bolalar uyi sobiq monastirda joylashgan bo‘lib, baland shiftlardan semiz, kulrang shilliqqurtlar to‘kildardi. Ko‘p cherkovlar shoshilinch ravishda turarjoyga moslangan bo‘lib, devorlaridan yaxshi bo‘yalmagan sersoqol shaxslar ko‘rinib turardi, rohiblarning hujralari yerto‘laga o‘xshab sovuq edi.

O‘n yoshida Galya shovqin ko‘tarib, nom chiqardi. Monastir qurilgandan buyon bu yerda bunday shovqin bo‘lmagan edi. Tunda zarurat bilan borib, ovozing boricha baqirib, uyni boshiga ko‘tardi. Issiq o‘rinlaridan turishga majbur bo‘lgan tarbiyachilar uni nimqorong‘i

koridorda yotgan joyidan topishdi va Galya, soqolli chol yer ostiga sudrab ketmoqchi bo'ldi, deb sodda qilib tushuntirdi.

«Hujum haqida ish» yuzaga keldi, bu ish butun okrugda bitta ham soqolli odam bo'lmagani uchun chigallashib ketdi. Bu yerga kelgan tergovchilar va o'z oralaridan chiqqan Sherlok Xolmslar Galyadan sabr-toqat bilan so'rab-surishtirishdi va bu voqea borgan sari yangi yangi tafsilotlar bilan to'ldirilaverdi. Faqat kekxa zavxoz – jarangdor familiya topib bergani uchun Galya u bilan do'stlashib qolgan edi – voqeaning tagiga yetdi: bularning hammasi uydirma edi.

Galyani anchagacha kalaka qilib, nafratlanib yurishdi, u esa mana senlarga, degandek, ertak to'qidi. Rost, ertak «mittivoy» ertagiga juda o'xshab ketardi, lekin, birinchidan, Galyaning ertagida o'g'il bola o'rmi qiz bola edi, ikkinchidan, ertakda soqolli qariyalar va qorong'i yer qa'ri ham bor edi.

Ertak hammaning joniga tegishi bilanoq shon-shuhrat o'tib ketdi. Galya yangi ertak to'qib o'tirmadi. Buning o'rniga bolalar uyida rohiblar ko'mib qo'yan xazina haqida mishmishlar tarqaldi. Xazina izlash dardi tarbiyalanuvchilar orasida yuqumli kasaldek tarqaldi va qisqa vaqt ichida monastir hovlisi o'ydim-chuqur bo'lib ketdi. Rahbarlar bu dardni tugatmay turib, yerto'lalardan keng oq kiyimli sharpalar chiqqa boshladi. Sharpalarni ko'plar o'z ko'zi bilan ko'rди va yosh bolalar kechasi tashqariga chiqishdan butunlay bosh tortishdi, buning oqibati esa ayon. Ish falokat darajasiga borib yetdi, tarbiyachilar alvastilarni qo'lga tushirish uchun yashirin ravishda ov qilishga majbur bo'lishdi.

Birinchi bo'lib qo'lga tushgan oq choyshabga o'ralgan alvasti Galya Chetvertak bo'lib chiqdi.

Shundan keyin Galya tinchib qoldi. Yaxshi o'qir, oktyabryatlar bilan o'ynar, hatto yakkaxon ashulachi bo'lishni, uzun ko'ylakni va hammaning havas qilishini orzu qilib yursa ham, xorda ashula aytishga rozi bo'ldi. Shu davrda u birinchi muhabbat nimaligini bildi, u hamma narsani sirli qilib ko'rsatishga o'rganib qolganligi uchun, ko'p o'tmay butun uyni yozishmalar, maktublar, ko'z yoshi-yu, uchrashuvlar bosib ketdi. Aybdorga yana tanbeh berishib, darhol undan qutulish chorasini ko'rishdi. Yuqori stipendiya tayinlab, kutubxonachilar tayyorlash texnikumiga yuborishdi.

Urush boshlanganda Galya uchinchi kursda edi, birinchi dushanbadayoq ularning guruhi yoppasiga harbiy komissariatga keldi. Guruhni olishdi-yu, Galyani qaytarishdi, chunki uning bo'yi ham, yoshi

ham armiya standartiga to'g'ri kelmasdi. Lekin Galya bo'sh kelmay, qaysarlik bilan harbiy komissar huzuriga qatnayverdi. Uyalmay-netmay shunaqayam yolg'on gapira'diki, uyqusizlikdan garang bo'lib qolgan podpolkovnik nima qilishini bilmay, istisno, tarzida Galyani zenitchiliqqa yubordi.

Orzu amalga ohsa, romantika qolmaydi. Haqiqiy hayot esa achchiq va shafqatsiz bo'lib, harbiy ustavlarni so'zsiz bajarishni talab qilardi. Sabrsizlik bilan kutilgan yangilik tez o'tib ketdi, kundalik hayot esa Galyaning front to'g'risidagi tasavvuriga sira o'xshamasdi. Galya o'zini yo'qotib qo'ydi, bo'shshib qoldi va kechasi yashirincha yig'laydigan bo'ldi. Lekin shu orada Jenka paydo bo'ldi va hayot yana quvonchli bo'lib, tez o'ta boshladi.

Galya yolg'on gapirmay tura olmasdi. Aniqrog'i bu yolg'on emas, haqiqat deb ko'rsatilgan orzu edi. Shu tariqa meditsina xodimi bo'lgan ona vujudga keldi, bunday oyisining borligiga Galyaning o'zi ham deyarli ishonardi...

Ko'p vaqt behuda o'tganidan Vaskov asabiylasha boshladi. Bu yerdan tezroq ketish, nemislarning qayerda ekanligini aniqlash, ularning iziga tushish, muhim edi, keyin, mayli, o'ldirilgan dozorni topishaversin. Ana o'shanda ular emas, starshina qulay vaziyatda bo'ladi. Izma-iz borib, ularni turtkilaydi, zarur tomonga yo'naltiradi va... kutadi. O'zimiznikilar yetib kelishini, oblava boshlanishini kutadi.

Lekin... ushlanib qolishdi; Sonyani dafn etishdi. Chetvertakni etikni kiyishga ko'ndirishdi, vaqt esa o'tib borardi. Ungacha Fedot Yevgrafich avtomatlarni tekshirdi, ortiqcha miltiqlarni – Brichkina bilan Gurvichnikini pana joyga yashirib qo'ydi, patronlarni teng bo'lashib berdi.

– Hech avtomatdan otganmisan? – so'radi Osyaninadan.

– O'zimizni avtomatdan otganman.

– Ma, fritslarnikini ushla. Menimcha, o'rganib olasan, – qanday otishni ko'rsatib, ogohlantirdi:– surunkasiga otma: uchi ko'tarilib ketadi. Qisqa-qisqa ot.

Xudoga shukur, qo'zg'alishdi... U oldinda, Chetvertak bilan Komelkova o'rtada eng orqada esa Osyanina borardi. Ohista, tovush chiqarmay borishardi, lekin yana har kim o'z xayoli bilan bo'lib ketganga o'xshaydi, chunki nemislarga duch kelishlariga sal qoldi. Xuddi ertakdidek mo'jiza bo'ldi-yu, omon qolishdi.

Yaxshiyamki, starshina ularni birinchi bo‘lib ko‘rib qoldi. Tosh orasidan chiqdi-yu, ko‘rib qoldi: ikkitasi ro‘parada, qolganlari orqada turishardi. Fedot Yevgrafich yetti qadam kechikkandami – ularning xizmati shu bilan tamom bo‘lardi. Ikki sidra otishdayoq tamom bo‘lishardi.

Ammo starshina shu yetti qadamni qo‘yib ulgurgan edi va shu sababli aksincha bo‘lib chiqdi. O‘zini orqaga olishga ham, qizlarga tarqalinger deb ishora qilishga ham, cho‘ntagidan granatani chiqarishga ham ulgurdi. Yaxshiki, granata zapali bilan edi: tosh orqasidan itqitdi-da, portlashi bilanoq avtomatdan o‘t ochdi.

Ustavda bunaqa jang muqobil jang deb ataladi. Bunday jangning muhim tomoni shundaki, dushman sening kuchlaring qanchaligini bilmaydi: sen razvedkamisan yoki bosh dozormisan, – buni angalay olmaydi. Shuning uchun bunaqa jangda eng muhimi – dushmanning o‘zini o‘nglab olishga yo‘l qo‘ymaslik.

Lekin, o‘z-o‘zidan ma‘lumki, Fedot Yevgrafich bu haqda o‘ylamasdi. Bu unga singib ketgan, bir umrga singib ketgan, u faqat otish haqida o‘ylardi. Yana, jangchilarim qayerdaykin, yotib olishdimi yoki qochib ketishdimi, deb o‘ylardi.

Quloqni qomatga keltiruvchi shovqin ko‘tarildi, chunki fritslar u yashiringan xarsangni mo‘ljallab, hamma avtomatlardan otishardi. Uning yuzini tosh zarralari tilib yubordi, ko‘ziga chang to‘ldi, u deyarli hech narsani ko‘rmasdi: ko‘zlaridan duv-duv yosh oqardi. Artishga ham vaqt yo‘q edi.

Avtomati zatvori orqaga urilib, sharaqladi: patron tugagan edi. Vaskov shu daqiqadan qo‘rqardi: qayta o‘qlash uchun vaqt kerak, hozir esa har sekundning qimmati hayot bilan o‘lchanardi. Avtomat jim bo‘lishi bilan nemislar oldinga tashlanib, oradagi o‘n-o‘n besh metrni bosib o‘tishsami – ish tamom-vassalom.

Lekin diversantlar hujumga o‘tishmadi. Boshlarini ham ko‘tarishmadi, chunki ikkinchi avtomat – Osyanina avtomati ularni bosh ko‘tarishga qo‘ymasdi.

Nishonga olib, ro‘paradan qisqa-qisqa o‘t ochib, starshinaga bir sekund imkoniyat berdi. Shu sekund uchun bir umr minnatdor bo‘lmoq kerak.

O‘sha jang qancha davom etganini hech kim eslolmaydi. Odatdagi vaqt bilan o‘lchansa, jang qisqa bo‘ldi, ustavda aytilganidek, muqobil jang shunaqa qisqa bo‘ladi. Agar boshdan kechirganlari sarflangan

kuch, shiddat va xavf bilan o'lgan bo'lsa, hayotning ancha-munchasiga, ba'zilar uchun esa bir umrga tatiydi.

Galya Chetvertak shunaqa qo'rqdiki, bir marta otishga ham ulguradi. Yuzini tosh orqasiga yashirib, qo'llari bilan qulog'ini berkitib yotar, miltiq bir chetga uloqtirilgan edi. Jenka esa darrov o'zini tutib oldi, sharpani mo'ljalga olib otdi. Tekkazdimi, yo'qmi, unisi bilan ishi yo'q, bu merganlik maydoni emas, nishonga olishga vaqt yo'q.

Ikki avtomat va bir miltiq – bor-yo'g'i shu, nemislar esa bardosh berisholmadi. Qo'rqanlari uchun emas – noaniqlikdan. Biroz otishib, chekinishdi. O't ochib pana qilib turmay, orqaga soqchi qo'ymay chekinishdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, ular o'rmon ichkarisiga kirib ketishgan ekan. Otishma birdan to'xtadi, faqat Komelkova hamon otishda davom etar, miltiq zarbidan yelkasi titardi. Oboymani otib tugatib, to'xtadi. Yer ostidan Vaskovga qaradi. – Tamom, – Vaskov xo'rsindi. Chuqur sukunat cho'kdi, hatto quloqlar shang'illardi. Porox hidi, chang, kuyindi isi anqirdi. Starshina yuzini artgan edi, kafti qon bo'lib qoldi, yuzini tosh zarralari tilib yuborgan edi.

– Yarador bo'ldingizmi? – shivirlab so'radi Osyanina.

– Yo'q, – dedi starshina. – Sen u yoqda qarab tur, Osyanina.

Tosh orqasidan boshini chiqargan edi, hech kim otmadi. Atrofga tikilib qaradi: uzoqda – o'rmonga tutashib tetgan oq qayinzorda daraxtlarning uchi qimirladi. To'pponchani ushlagancha ohista oldinga sirg'anib tushdi. Yugurib o'tib, boshqa qo'ytosh orqasiga yashirindida yana qaradi: portlashdan har tomonga sochilib ketgan shoxda qon qorayib ko'rindi. Qon ko'p, lekin jasad yo'q: olib ketishibdi.

Toshlar va butalar oralab yurib, diversiyachilar hech qanday zaslondan qoldirmaganiga ishonch hosil qilgach, Fedot Yevgrafich xotirjam, tik yurib, sheriklari yoniga qaytib keldi. Yuzi achishar, horg'inlikdan esa ikki yelkasiga tegirmon toshi osib qo'ygandek edi. Hatto chekkisi ham kelmasdi. Qani endi cho'zilib yotib dam olsa, hech bo'lmasa o'n minut yotib dam olsa, lekin sheriklari yoniga yetib kelmayoq Osyanina savol berdi:

– O'rtoq starshina, siz kommunistmisiz?

– Bolsheviklar partiyasi a'zosiman...

– Sizdan komsomol yig'ilishiga raislik qilishni so'raymiz.

Vaskov hayron bo'lib qoldi:

– Yig‘ilishga?.. – Qarasa, Chetvertak ko‘z yoshini oqizib o‘tiribdi. Komelkova esa porox tutunidan qorayib ketgan, xuddi lo‘li qizning o‘zi bo‘lib qolgan, g‘azab bilan qarayapti.

– Qo‘rqoqlik!..

Mana gap nimada ekan...

– Yig‘ilish o‘tkazish – juda yaxshi, – jahli chiqib gap boshladi Fedot Yevgrafich. – Yig‘ilish – juda soz narsa! Demak, majlis o‘tkazamiz, o‘zini yo‘qotib qo‘yganligi uchun o‘rtoq Chetvertakni qoralaymiz, protokolga yozib qo‘yamiz. Shundaymi?..

Qizlar indashmadi. Hatto Galya yig‘idan to‘xtab, burnini tortib eshitib turardi.

– Fritslar esa protokolimizga rezolyutsiya qo‘yib berishadi. Ma‘qulmi shu? Ma‘qul emas. Shu sababli starshina sifatida ham kommunist sifatida hozirgi vaqtda har qanday majlisni bekor qilaman. Buning o‘rniga sharoitni ma‘lum qilaman: nemislar o‘rmonga kirib ketishdi. Granata portlagan joyda qon ko‘p: demak, kimningdir kuni bitirdik. Demak, hisobimcha, ular o‘n uch kishi qoldi. Bu birinchi masala. Ikkinchi masala shuki, mening avtomatimda otilmagan bitta oboyma qoldi. Senda-chi, Osyanina?

– Bir yarimta.

– Shunday degin. Qo‘rqoqlikka kelganda esa, hech qanday qo‘rqoqlik bo‘lmagan. Qo‘rqoqlik qizlar, faqat ikkinchi jangda bilinadi. Bunisi esa o‘zini yo‘qotib qo‘yish, xolos. Bu tajribasizlikdan bo‘lgan. To‘g‘rimi, jangchi Chetvertak?

– To‘g‘ri...

– Unday bo‘lsa, ko‘z yoshingni va burningni artib olishni buyuraman. Osyanina oldinga o‘tib, o‘rmonni kuzatsin. Qolgan jangchilar ovqatlanib, iloji boricha dam olishsin. Savollar yo‘qmi? Buyruqni bajaranglar.

Jim ovqatlanishdi. Fedot Yevgrafichning ishtahasi yo‘q edi, faqat oyog‘ini cho‘zib o‘tirgisi kelar, lekin zo‘r berib kavshanardi, chunki kuch to‘plash kerak edi. Uning jangchilari bir-birlariga qaramay, yoshlarga xos ishtaha bilan ovqatlanishardi. Shunisi ham yaxshi: shalpayib, tushkunlikka tushib qolishmabdi, hozircha o‘zlarini tutishyapti.

Quyosh pastga og‘ib, o‘rmon cheti qoraya boshlaganda starshinashvishga tushdi. Nima uchundir yordam kechikyapti, nemislar esa shu nimqorong‘ilikdan foydalanib, yo yana unga to‘qnash kelishlari, yo chetdan aylanib, ikki ko‘l oralig‘iga o‘tib olishlari, yoki o‘rmonda

g'oyib bo'lishlari mumkin. Ana unda qidirib topolmaysan. Binobarin, ahvoldan xabardor bo'lish uchun yana qidiruvni boshlash, yana ularning iziga tushish lozim. Shunday qilish darkor, lekin bunga hol qolmagan edi.

Ha, hozircha ish o'ngidan kelmayapti, chappasiga ketyapti. Jangchini ham halok qildi, o'zi qayerdaligini bildirib qo'ydi, buning ustiga dam olish zarur. Yordamdan esa hamon darak yo'q...

Ammo Vaskov Osyanina ovqat yeb bo'lguncha dam oldi. Keyin o'rimdan turib, kamarini tortib bog'ladi va qovog'ini solib dedi:

– Jangchi Chetvertak men bilan birga qidirishga jo'naydi. Bu yerda Osyanina boshliq bo'lib qoladi. Vazifa: orqamizdan uzoq masofa saqlab yurish. O'q ovozini eshitsanglar, yashirinib olishni buyuraman. Biz yetib kelguncha yashirinib, kutib turilsin. Biz qaytib kelmasak, orqaga chekininglar. Oldingi pozitsiyamiz orqali yashirin ravishda g'arbga chekininglar. Odamlarga duch kelishlaring bilanoq hammasini ma'lum qilinglar.

Albatta, miyasiga bunday ishga Chetvertak bilan bormaslik kerak edi, degan fikr keldi. Bunaqa ishga Komelkova bilan borish ishonchliroq: u sinovdan o'tgan, bir kunda ikki marta sinovdan o'tdi. Bunday sinovdan o'tish ko'pchilik erkakning qo'lidan kelmaydi.

Lekin u komandir – oddiy harbiy boshliqqina emas, o'z qo'li ostidagilar uchun u tarbiyachi ham bo'lishi kerak. Ustavda shunday deb yozib qo'yilgan.

Ustavni esa starshina Vaskov hurmat qilardi. Hurmat qilar, yod bilal va so'zsiz amal qilardi. Shu sababli Galyaga dedi:

– Yo'lxalta bilan shinelni shu yerda qoldirasan. Orqamdan izma-iz yur va nima qilayotganimni kuzatib bor. Nimaiki yuz bersa ham ovozingni chiqarma. Jim yur, ko'z yoshini tiy.

Chetvertak uning gaplarini tinglar ekan, shoshilib va qo'rqib boshirg'ardi.

11

Nemislar nega jang qilishdan bosh tortishdi? Tajriba orttirgan kishilar raqibining o't ochish qudratiga (aniqroq aytganda, o'zligiga) baho berib, o'zlarini tortishdimi?

Bular shunchaki savollar bo'lmay, Vaskov ular ustida sinchkovligi uchungina bosh qotirmayotgan edi. Dushmanni tushunmoq darkor.

Uning har qanday harakati, joyini o'zgartirishi sen uchun ochiq ravshan bo'lishi kerak. Ana shundagina xuddi dushman o'ylayotgandek, uning uchun o'ylay boshlaysan. Urush axir kim-kimni otib o'ldiradi, degan gap emas. Urush – bu kim-kimning fikrini bilib olish. Ustav ham sening kallangni boshqa fikrlardan ozod qilib qo'yish uchun, sen uzoqroqni o'ylay olishing uchun, narigi tomon – dushman uchun ham o'ylab ish qilishing uchun yozib qo'yilgan.

Lekin Fedot Yevgrafich voqealarni qancha aylantirmasin, qay tomonidan qaramasin, bir narsa aniq edi: nemislar ular haqida hech narsa bilishmasdi. Bilishmasdi: demak u yer tishlatgan haligi ikkitasi dozor emas, balki razvedka edi, fritslar esa ularning taqdiridan be-xabar, orqasidan xotirjam kelishayotgandi. Voqea shunday bo'lgan, lekin bundan u o'ziga qanday naf chiqara olishi hozircha noaniq edi.

Starshina o'ylar, bosh qotirar, faktlarni kartadek chiylab ko'rar, ishini esa unutmadi. Hushyorlik bilan, ovoz chiqarmay borardi. Ammo shabada na biror tovushni, na biror narsa hidini keltirar, shu sababli Vaskov hozircha to'xtamay yo'l bosardi. Haligi dardisar qiz orqada sudralib kelardi. Fedot Yevgrafich unga dam-badam qarab qo'yardi, lekin tanbeh berishga loyiq biror nojo'ya harakat qilmasdi. Xuddi buyurilganidek yurib kelardi. Faqat yengil, chaqqon emas, bo'shashib yo'l bosardi. Bu boshi ustidan vizillab o'tgan o'qning asari edi.

Galya esa o'q haqida o'ylamasdi. Uning ko'z oldida boshqa narsa turardi: Sonyaning cho'zilib qolgan kulrang yuzi, yarim ochiq jonsiz ko'zlari va qondan qotib qolgan gimnastyorkasi. Yana... ko'krigidagi ikkita teshik. Pichoq tig'idek ingichka teshik. Galya Sonya to'g'risida ham, o'lim to'g'risida ham o'ylamas – u pichoqning badanga botishini ko'ngil aynigudek aniq sezar, tananing qisirlashini eshitar, qonning og'ir hidini sezardi. U haqiqiy hayotdan ko'ra ko'proq o'zi tasavvur qilgan dunyoda yashagan edi va hozir buni unutishni, unga xotima berishni istar, lekin unuta olmasdi. Ana shundan qattiq vahimaga tushar, ana shu vahima asoratida hech narsaning farqiga bormay yurib borardi.

Fedot Yevgrafich buni bilmasdi, albatta. U hozir mening boshimga tushadigan ish buning ham boshiga tushadi, deb o'ylayotgan jangchisi allaqachon o'ldirilganligini bilmasdi. Nemislarga yaqinroq yetib bormay turib, dushmanga qarata bir marta ham o'q otmay turib – u o'ldirilgan edi...

Vaskov qo'lini ko'tardi: shu yerdan o'ng tomonga iz ketgan edi. Tosh zarralari ustida zo'rg'a bilinadigan yengil iz bu yerda, mox orasida chuqurroq botib, suv silqib, qorayib ko'rinardi. Fritslar og'ir yuk ko'tarib ketayotib, birdan qoqilib ketib, yalpoq oyoqlarining izini qoldirgandek edi.

– Kutib tur, – shivirladi starshina.

Izni bosmay, o'ng tomonga yurdi. Butalarni egib qaradi: chuqurlikda shoshib-pishib palapartish tashlangan shoxlar tagida inson tanasi sal bilinib turardi. Vaskov shoxni ohista surdi: chuqurda ikki murda to'nkarilib yotardi. Fedot Yevgrafich cho'kkalab o'tirib, ularga tikildi: tepadagisining ensasida deyarli qonsiz teshik qorayib ko'rindi, kalta qirqilgan sochi olovdan jingalak bo'lib qolgandi.

«Otib tashlashibdi, – aniqladi starshina – o'zlarining odamlarini orqasidan otishibdi. Yaradorni o'ldirishibdi, demak, qonunlari shunday ekan...»

Vaskov tufladi. Bu eng katta gunoh bo'lishiga qaramay, o'liklarga tufladi. Lekin ularga nafratdan boshqa tuyg'u sezmedi: uning uchun ular ham qonundan tashqari edi. Insonni inson qiladigan fazilatlar chegarasining narigi tomonida turishardi ular.

Insonni hayvondan o'zining inson ekanligini tushunish hissi ajratib turadi. Ana shu tushuncha yo'q ekanmi, – demak, u hayvon; eng dahshatli hayvon. Bunday hayvonga nisbatan hech qanday insoniy tuyg'u bo'lishi mumkin emas: na insoniylik, na achinish va na shafqat bor. Savalash kerak bundaylarni. Iniga qochib ketguncha savalash kerak. Inida ham bir vaqt inson bo'lganligi esiga tushgunga qadar, buni tushunib yetgunga qadar savalash kerak.

Kunduzi, bundan bir necha soat avval oldinga g'azab yetaklab borgan edi. Qonga-qon degan tashnalik kabi oddiy g'azab yetaklab borgan edi. Endi esa birdaniga hammasi chekindi, so'ndi, tinchlandi va hatto... yetildi. Nafrat, ongli o'ch olishga asoslangan nafrat pishib yetildi. Endi bu nafratda jahl yo'q edi.

– Demak, qonunlari shunday ekan-da?.. Hisobga olamiz.

Xotirjamlik bilan yana ikkitasini chiqarib tashladi: o'n ikkita qoldi. Bir dyujina.

Chetvertak kutib turgan joyga qaytib keldi. Uning ko'ziga ko'zi tushdi-yu, qo'rqayotganini ko'rib, ichida nimadir uzilib ketgandek bo'ldi. Ich-ichidan, yomon qo'rqayapti. Bir umrga shunday bo'lib

qolmasa-ku, yaxshi-ya. Shu sababli starshina bir daqiqada o'zini tutib olib, unga aziz sevgilisiga qaraganday jilmaydi va ko'z qisib qo'ydi:

– U yerda ikkitasini tinchitdik, Galya! Ikkitasini, demak, o'n ikkitasi qoldi. Bu yog'i bizga qo'rqinchli emas, o'rtoq jangchi. Biz uchun arzimagan gap!..

Bunga javoban Galya hech narsa demadi, hatto jilmayib ham qo'ymadi. Bunaqa vaqtda erkaklarning jahlini chiqarish – boloxondor qilib so'kish yoki qulog'i tagiga solish kerak – buni Fedot Yevgrafich o'z tajribasidan bilardi. Qiz bolani esa nima qilish kerak – buni bilmasdi. Tajribasi yo'q, ustavda ham bunday sharoitda nima qilish kerakligi haqida hech gap yo'q.

– Pavel Korchagin haqida hech narsa o'qiganmisan?

Chetvertak unga telbaga qaragandek qarash qildi-yu, lekin bosh irg'adi. Buni ko'rib Fedot Yevgrafich dadillashdi.

– Demak, o'qigan ekansan. Men esa uni xuddi seni ko'rib turganimdek ko'rganman. Ha. Bizni, jangovar va siyosiy tayyorgarlik a'lochilarini Moskvaga olib borishgan. U yerda esa mavzoleyni, har xil saroylarni, muzeylarni ko'rdik, u bilan ham uchrashdik. U katta lavozimiga qaramay, sodda odam ekan. Samimiy. Bizni o'tqazib, choy bilan mehmon qildi, xo'sh, yigitlar, qanday xizmat qilyapsizlar, deb so'radi...

– Nega meni aldayapsiz, nega? – dedi sekin Galya– Korchagin falaj bo'lib qolgan. U asli Korchagin emas, Ostrovskiy. U hech narsa ko'rmaydi, qimirlay olmaydi, biz ham unga, butun texnikum nomidan xat yozganmiz.

– Balki boshqa Korchagindir?..

Vaskov uyalib, terga botib ketdi. Buning ustiga chivinlar qo'yamayapti, kechki chivin ayniqsa xira bo'ladi.

– Ehtimol, men adashgandirman. Bilmadim. Faqat bizga...

Oldinda shox qisirladi. Oyoq ostida aniq qisirladi, starshina esa sevinib ketdi. U hech qachon o'z tashabbusi bilan yolg'onchilar qatoriga qo'shilib qolmagan edi, o'z qo'l ostidagilar oldida sharmanda bo'lmagandi va shu sababli ona suti og'zidan ketmagan qizdan ta'na eshitgandan ko'ra bir dyujina dushman bilan olishishga tayyor edi.

– Buta orasiga!.. – shivirladi u. – Miq etma!..

Galyani buta orasiga tiqib, shoxlarni to'g'rilab qo'yishga ulgurdi, o'zi yonidagi qo'ytosh orqasiga cho'zildi, vaqtida yashirinib ulgurdi. Qarasa, yana ikkitasi kelyapti, lekin zada bo'lganday, ehtiyotkorlik bi-

lai avtomatni to'g'rilab kelyapti. Starshina, nemislar buncha juft-juft bo'lib yurishavermasa, deb o'ylab ulgurmagan ham ediki, haligi iktitasining orqasida va chaproqda butalar shitirladi. U ikki tomonda dozorlar kelayotganini va nemislar kutilmagan uchrashuvdan, hamda razvedkasining g'oyib bo'lganidan tashvishlanib qolganini tushundi. Starshina ularni ko'rib turar, ammo nemislar uni ko'rishmas edi, binobarin, hozir tuz har holda starshina qo'lida edi. To'g'ri, bu yagona ustunlik, ammo u kuchli zarba berishi mumkin. Faqat bu yerda shoshilish mumkin emasdi, shu boisdan Fedot Yevgrafich butun tanasi bilan moxga qapishib yotar, hatto ter bosgan peshonasidan chivinni haydashga qo'rqardi. Mayli, pusib kelishaversin, mayli, orqalarini tutib berishsin, qidiruv qayoqqa ketayotganini ko'rsatishsin, ana shunda starshina o'yin boshlaydi, o'zi yuradi. Hozir tuzni yuradi... Inson boshiga xavf tushganda yo hech narsaga aqli yetmay qoladi, yo ikki kishidan ko'proq o'ylaydi. Biri, undan keyin nima qilsam ekan deb reja tuzayotganda, boshqasi shu daqiqa tashvishini qiladi: hamma narsani ko'rib, bilib turadi. Vaskov ham kozir tuz haqida o'ylayotib, diversiyachilarni bir daqiqa ham unutmadi. Yo'q. U yaxshi bekingan, nemislar ham undan chetroqdan o'tayotgandek, xullas, bu joyda xavf kutilmasdi. Fritslar joyni bo'laklarga kesib o'tib borishardi, starshina esa jangchisi bilan shu bo'laklarning naq o'rtasida, rost, boshqa-boshqa bo'laklar o'rtasida qolishgandi. Demak, nafas olmay kutish, moxlar va butalar orasiga singib ketish, keyin esa harakat qilish kerak edi. Keyin birlashib, nishonni taqsimlab olib, qadrdon to'pponchasi-yu, nemis avtomatidan o't ochish kerak.

Aftidan, fritslar yana o'sha yo'lni tekshirishyapti va ertami-kech Osyantina bilan Komelkovaga duch kelib qolishlari mumkin. Bu starshinani so'zsiz tashvishlantirardi-yu, lekin unchalik emasdi; qizlar urush ko'rgan, nima qilishga aqlari yetadi va bemalol yo yashirib olishlari, yo orqaga chekinishlari mumkin. Buning ustiga u o'z yurishini nemislar oldidan o'tib, ikki o't orasiga kirib qolgan daqiqaga mo'ljallab qo'ygan edi.

Diversiyachilar Chetvertak yashiringan butani yigirma metrcha so'l tomonda qoldirib, ro'paraga kelishdi. Ikkala yon tomonda kelayotgan dozorlar ko'rinmadi, lekin Fedot Yevgrafich ularning qayerdan o'tishini bilib ulgurgan edi. Hech kim ularga duch kelmaydigandek edi, shunga qaramay starshina avtomatni ohista predoxraniteldan tushirdi.

Nemislar engashib, avtomatlarini o'q talib kelishardi. Dozorlar hi-moyasida bo'lganlari uchun atrofga deyarli qarashmas, har dahshatga ro'paradan o'q otilishini kutib, oldinga tikilib kelishardi. Yana bir necha qadamdan so'ng ular Chetvertak bilan Vaskov oralig'ida bo'lishlari lozim, xuddi shu daqiqadan boshlab, starshina ovchidek ko'zini qisib, ularning yelkasini nishonga olgan bo'lardi.

Butalar shitirlab, orasidan birdan Galya otilib chiqdi. Engashib, qo'llari bilan boshini bekitgancha, hech narsani ko'rmay va hech narsaning farqiga bormay, yalanglikdan nemislar tomon yugurdi.

– A-a-a...

Avtomat qisqa tirilladi. O'n qadamcha naridan nozik, yugurishdan taranglashgan yelkasiga o'q sanchildi. Galya dahshatdan boshini changallagan qo'llarini yozishga ulgurmay, yuztuban yiqildi. Uning so'nggi qichqirig'i g'ilqildoq xirillashga aylandi, oyoqlari esa, etik uchini shoxga sanchib hali ham yugurar, tipirchilar edi.

Yalanglikda hamma narsa tindi. Bir necha daqiqagagina tindi, hatto, Galyaning oyoqlari tipirchilashi ham tushdagidek sekinlashdi. Vaskov esa hamma rejalari barbod bo'lganini, qo'lida kozir tuz o'rmiga oltilik qolganini sezmay hali ham tosh ortida yotardi. Kim biladi, shu tarzda qancha yotardi-yu, bundan keyin qanday harakat qilardi. Lekin orqada qirsillash va gursillash eshitildi-yu Vaskov o'ng tomondagi dozor bu yerga yugurib kelayotganini tushundi.

O'ylab o'tirishga fursat yo'q. Endi vaqt o'tgan edi, shu sababli Fedot Yevgrafich eng muhimini hal qildi: nemislarni chalg'itib, bu yerdan olib ketmoqchi bo'ldi. Ularni ergashtirib, chalg'itib, qolgan jangchilaridan uzoqlashtirmoqchi bo'ldi. Shu qarorga kelgach, endi yashirinmay, sakrab turdi, Galya ustida engashib turgan ikkitasiga qarata o'q uzdi, dukillash eshitalayotgan butalar tomon avtomatdan su-runkasiga o'q uzdi-da, engashib, Sinyuxin tepaligidan o'rmon tomon chopib ketdi.

Birortasiga tegizoldimi-yo'qmi, buni ko'rmadi: bunga vaqti ham yo'q edi. Hozir nemislar orasidan yorib o'tib, o'rmonga eson-omon yetib olishi va qizlarni asrab qolishi shart edi. Ularni, qolganlarini so'zsiz asrab qolish lozim edi, o'zining erkaklik va komandirlik vij-doni oldida asrab qolishga majbur edi. Shunchasining halok bo'lgani yetar. Shuning o'zi ham bir umrga yetarli.

Starshina anchadan buyon o'sha kechdagi kabi yugurmagan edi. Butalar orasidan g'izillab o'tar, toshlar orasidan sakrar, yiqilar, o'rnidan

turib yana yugurar va boshi ustida yaproqlarni uzayotgan o'qlardan qochib yana yiqilardi. Har tomonda ko'zga chalinayotgan nemislarga qarata qisqa-qisqa o't ochar va shovqin ko'tarardi. Butalarni sindirar, toptar, ovozi xirillab baqirar edi, chunki fritslarni o'z orqasidan er-gashtirmay chekinishga haqqi yo'q edi. O't bilan o'ynashishga, frits-larni chalg'itishga to'g'ri kelardi.

Bir narsadan deyarli xotirjam edi: nemislar uni qurshab olishol-masdi. Chunki bu joylarni bilishmas, buning ustiga qurshab olish uchun oz qolishgan, eng muhimi, ular haligi to'qnashuvni, o'sha mu-qobil jangni unutishmagan: atrofga alanglab chopishardi. Shu sababli hozircha osongina qochib qutular, fritslarni ataylab ermak qilar, ular ta'qibni to'xtatmasliklari uchun, o'zlarini o'nqlab olib, bu yerda uning yolg'iz ekanligini, aslini olganda yakka o'zi ekanligini tushunib qol-masliklari uchun to'xtovsiz jahlini chiqarardi. Yakka o'zi.

Buning ustiga tuman ham yordam berardi: o'sha bahor sertuman kelgandi. Quyosh ufqqa og'ishi bilan pastliklarni tutun qoplagan-dek bo'lar, tuman quyuqlashib, har butaga yopishib olar, sutday op-poq bu tumanda bir kishi emas, butun polk bermalol yashirib olsa bo'lardi. Vaskov har daqiqa shu bulut orasiga sho'ng'ib ketishi mum-kin edi – keyin qidiraverishsin!

Biroq noqulayligi shundaki, bu tuman ko'l tomonga cho'zilib ket-gandi. Vaskov esa, aksincha, fritslarni o'rmonga olib borishga intilardi, shu sababli butunlay holdan toygandagina tuman ichiga sho'ng'irdi. Keyin esa, salom fritslar, men tirikman... deganday, yana tuman ora-sidan chiqardi.

Umuman starshinaning omadi keldi. Kichikroq otishmada odamlar ilma-teshik bo'lgan hollar uchragan, bu yerda esa omadi keldi. O'lim bilan bearmon bekinmashoq o'ynadi, lekin o'rmonga chopib borgan yolg'iz uning o'zi emasdi: butun kompaniya orqasidan ta'qib qilib bordi, shu yerga kelganda uning avtomati so'nggi marta shiqilladi-yu, jim bo'lib qoldi. Patronlar tugagan, qayta o'qlashga patron qolmagan edi, uningsiz ham avtomat starshinaning qo'lini shunday charchatgan ediki, Fedot Yevgrafich uni tosh ostiga yashirib, yengillashib, qurolsiz chekina boshladi.

Bu yerda tuman yo'q edi, o'qlar esa daraxtlarga kelib sanchilar, pay-rahalar otilib ketar edi. Endi uzoqroqqa ketish mumkin, endi o'zi haqi-da o'ylaydigan payt keldi, lekin g'azabi qaynagan nemislar uni yarim doira shaklida qurshab olib, botqoqqa qisib qo'yish va tirik qo'lga tushi-

rish umidida dam bermay ta'qib qilib kelishardi. Ular shunday ahvolga tushib qolishgan ediki, starshina ularning komandiri o'rni bo'lganda «til» uchun ordenni ayamagan, hovuchlab bergan bo'lardi.

Endi shunday deb o'ylagan, mo'ljallab otishmasa kerak, deb endi o'ziga taskin berganda qo'liga o'q tegdi. Tirsagidan pastroqqa, yumshoq joyiga tegdi, Fedot Yevgrafich esa shoshilishda o'q tekkanini tushunmadi, farqiga bormadi, qo'lidan issiq qon oqishi bilan butaga urilib shilib oldim, deb o'yladi. Qon ko'p ketmas, lekin quyuq edi. O'q venaga tekkan edi. Vaskovni sovuq ter bosdi: yarador bo'lgach uzoq jang qilolmaydi. Endi u yoq-bu yog'iga qarash, yarani bog'lash, dam olish kerak. Lekin bu yerda dushman orasidan bildirmay o'tib ketishning, ulardan uzoqlashib ketishning iloji yo'q. Faqat bir yo'l qoldi – botqoqqa chekinish, bor kuchi bilan yugurishi kerak.

Butun kuchini shu yugurishga sarfladi. Tanish qarag'ay oldiga yetib kelganda yuragi tipirchilab, nafasi bo'g'ziga tiqilib qolgan edi. Tayoqni oldi va beshta tayoq qolganini ko'rdi, o'ylashga vaqt yo'q edi. Nemislar oyog'i ostida o'rmon shatirlar, nemislar ovozi jaranglar, nemislar o'qi vizillardirdi. Botqoqdan orolga qanday o'tganini bilmaydi. Qiyshiq qarag'aylar ostida o'ziga keldi. Sovuqdan o'ziga keldi: qaltirar, tishi-tishiga tegib takillardi. Qo'li ham og'rirdi. Nima, sovuqdan zirqirayaptimikin...

Bu yerda qancha yotganini Fedot Yevgrafich eslay olmadi. Ko'p vaqt yotgan bo'lsa kerak, chunki atrof sukunatga cho'mgan, nemislar qaytib ketishgan edi. Tongga yaqin tuman quyuqlashib, cho'ka boshladi va bu namlik Vaskovning suyak-suyagigacha o'tib ketdi. Ammo endi yaradan qon oqmasdi. Qo'li yelkasigacha botqoq loyiga belanib, o'q o'tgan teshikni loy berkitib qo'yganga o'xshaydi. Starshina loyni ko'chirib o'tirmadi. Baxtiga cho'ntagida qolgan bintni olib, ustidan o'rab, atrofqa qaradi.

O'rmon ortida tong yorisha boshlagan, botqoq ustida esa osmon tumanni yerga qapishtirib, balandda yog'du bilan o'ynashardi. Lekin bu yerda, pastlikda esa sovuq va tuman sut kabi quyuq edi, Fedot Yevgrafich sovuqdan qaltirab, flyagani orzu qilib, ma'yus o'yoldi. Bu sovuqdan qutulishning bir yo'li bor, u ham bo'lsa sakrash, shuning uchun ter chiqquncha sakradi. Bungacha tuman ham siyraklasha boshladi. Endi atrofqa ko'z yugurtirsa bo'ladi.

Vaskov qancha tikilmasin, nemislar tomondan hech qanday xavf sezmad. Albatta, fritslar uning orqaga qaytishini kutib, yashirinib ol-

gan bo'lishlari mumkin. Lekin bunday bo'lmasligi ham mumkin, nega deganda, ularning nazarida botqoqdan o'tib bo'lmaydi, demak, starshina Vaskovni ular allaqachon cho'kib ketgan deb o'ylashadi.

Biz tomonga, razyezdga, to'ppa-to'g'ri Mariya Nikiforovna huzuriga olib boradigan tomonga Fedot Yevgrafich qaramadi. Bu tomonda hech qanday xavf yo'q edi, aksincha, bu tomonda hayot bor: yarim krujka spirt, tuxum va mehribon beka kutadi uni. Starshina bu tomonga qaramasa bo'lardi, qarashga undayotgan tuyg'udan yuz o'g'irsa bo'lardi, lekin bu tomondan madad kelmayapti, hamon kelgani yo'q, shu sababli starshina bu tomonga ham nazar tashlab qo'yardi.

U yerda nimadir qorayib ko'rinardi. Nima qorayib ko'rinayotganini starshina aniqlay olmadi. Bir daqiqa shu qorani borib ko'rgisi ham keldi, lekin sakrayverib charchaganidan oldin nafasini rostlab olmoqchi bo'ldi. Nafasini rostlab bo'lganda tong ancha yorishib qolgandi va u botqoqda nima qorayib ko'rinayotganini tushundi. Tushundi-yu, darrov o'zi kesgan tayoqdan tanish qarag'ay oldida beshtasi qolganini esladi. Beshta – demak, jangchi Brichkina bu la'nati botqoqqa tayoqsiz tushibdi...

Undan askarcha yubkagina qoldi. Boshqa hech narsa – hatto madad yetib kelishga umid ham qolmadi...

12

...Vaskov birdan o'rmondan chiqib kelgan diversantlarni sanagan tongni esladi. Chap tomonida Sonyaning shivirlaganini, Liza Brichkinaning katta ochilgan ko'zlarini, shippak kiygan Chetvertakni esladi. Esladi-yu ovozi baralla qo'yib:

– Demak, Brichkina yetib borolmapti... – dedi. Uning shamolashdan xirillab qolgan ovozi botqoq ustida bo'g'i q parvoz qildi-yu, yana hammasi jim bo'lib qoldi. Bu falokat joyda hatto chivinlar ham g'ing'illamay kelib chaqardi, starshina xo'rsinib, botqoq tomon dadil yurdi. Tayoqqa tayanib, qirg'oq tomon yurar ekan, shu botqoq o'z bag'riga abadiy olgan Brichkina haqida, bekordan-bekorga halok bo'lgan Chetvertak haqida, Komelkova bilan Osyanina to'g'risida o'ylar, ularning tirik ekanligiga umid qilardi. U yana yakka-yu yagona quroli – yonidagi to'pponcha ekani haqida ham o'yarladi.

Diversiyachilar bu yerda bitta odam qoldirgandami, starshina Vaskov o't-o'lanlarga mukkasidan ketgancha shu yerda chirib ketgan

bo'lardi. Uni ikki qadam naridan otib tashlashlari mumkin edi, chunki qirg'oq tomonga qarab borar, bu yerda hatto yashirinish uchun yotib ham bo'lmasdi. Ammo nemislar odam qoldirishmagan edi, shu sababli Fedot Yevgrafich eson-omon tanish soyga yetib oldi, naridan-beriyuvinib, to'yib suv ichdi. Keyin cho'ntagidan qog'oz topib, qurigan moxdan tamaki o'radi, «katyusha»ni yondirib, chekdi. Endi o'ylab olsa bo'lardi.

Kecha dushmanning roppa-rosa yigirma besh protsentini safdan chiqargan bo'lsa ham, urushni boy berib qo'yibdi-da. Boy berib qo'ydi, chunki nemislarni tutib tura olmadi, shaxsiy sostavining naq yarmidan ajradi, bor o'q-dorini sarflab, bitta to'pponcha bilan qoldi. Qanday vaj-karson ko'rsatma, qanchalik o'zingni oqlama, rasvo bo'ldi. Eng yomoni, diversiyachilarni qayerdan qidirishni bilmasdi.

Vaskov o'z yog'ida o'zi qovurilardi. Ochlikdanmi, sassiq tamakidanmi, yolg'izlik va miyasida aridek g'ujg'on urayotgan o'ylardanmi – iztirob chekardi.

Sheriklari yoniga borishi kerak albatta. Uning qo'l ostida ikki nafar qiz qoldi, lekin aql-idrokli qizlar qoldi. Uchovlon katta kuch, ammo bu kuchning qo'lida qurol yo'q. Demak, u komandir sifatida nima qilish kerak va nima bilan jang qilish kerak, degan ikki savolga javob tayyorlab qo'yishi kerak. Buning uchun bitta yo'l bor: avval o'zi sharoitni aniqlashi, nemislarni topib, ularning qurolini qo'lga kiritishi kerak.

Kecha yugur-yugurda nemislar o'z uylaridagidek bemalol chopishgan, shu sababli o'rmonda izlar ko'p edi. Fedot Yevgrafich xaritagaga qaragandek, shu izlarga qarab borar, mulohaza qilar va sanar edi. Uning hisobicha, orqasidan quvlagan nemislar o'ntadan ortiq emas: birortasi yuklar oldida qolgan yoki starshina otishma vaqtida yana birortasini gumdon qilib ulgurgan. Ammo kecha nishonga olishga vaqti bo'lmagani uchun hozircha nemislarni o'n ikki kishi deb hisoblash va shunga qarab ish tutish kerak edi.

Shu tariqa, izma-iz yurib, o'rmon chetiga chiqdi, u yerdan yana Vop-ko'l ham, Sinyuxin tepaligi ham, o'ng tomonga cho'zilgan kichik qarag'ayli butazor ham namoyon bo'ldi. Fedot Yevgrafich atrofini ko'zdan kechirish uchun biroz to'xtadi, lekin na o'z sheriklarini, na begonalarni – hech kimni sezmedi. Uning oldida jimlik, sukunat, tonggi farog'at yotardi va shu farog'at ichida qayerdadir nemis avtomatchilari va miltiqni quchoqlab olgan ikki rus qizi yashiringan edi.

Haligi toshlar orasidan qizlarni qanchalik qidirib topgisi kelmasin, starshina o'rmondan chiqmadi. U o'z hayotini xavf ostida qoldirib, tavakkal qilishi mumkin emasdi, sira ham mumkin emasdi, chunki hamma alamlarga va nochorlikka qaramay, u hatto xayolida ham o'zini mag'lub hisoblamasdi. Shu sababli starshina uchun urush hali-beri tugashi mumkin emasdi. Fedot Yevgrafich atrofdagi xotirjamlikka nazar tashlab, yana o'rmon ichiga sho'ng'idi va qoyalarni aylanib, Legont ko'li tomon yurdi.

Uning rejasi jo'ngina edi. Nemislar kecha uning orqasidan kechgacha yugurishdi, tun yorug' bo'lsa ham ular tasmollab hujum qilisholmasdi. Binobarin, ular ertalabgacha kutishlari kerak, tongni kutish uchun esa, biror hodisa yuz bersa, botqoqqa chekinmaslik uchun Legont ko'li yonidagi o'rmondan qulay joy yo'q. Shu sababli Fedot Yevgrafich tanish toshlardan notanish joylarga jo'nadi.

Bu yerda u ehtiyotlik bilan, bir daraxt panasidan ikkinchisiga o'tib borardi. Chunki izlar birdan yo'q bo'lib qoldi. Lekin o'rmon jimjit, faqat qushlar sakrab o'ynashardi, ularning chug'ur-chug'uridan Fedot Yevgrafich yaqin orada odam yo'qligini his etardi.

Shu tariqa u uzoq yurdi, bekorga ovora bo'layotganday, hisobda adashib, endi diversiyachilarni ular yo'q joydan qidirayotgandek tuyula boshladi. Ammo hozir uning, sezgidan boshqa belgisi yo'q edi, ko'ngli esa yo'l to'g'ri tanlanganini sezib turardi. Endi o'zining ovchilik sezgisiga shubhalana boshlagan, endi hammasini qayta boshdan o'ylab, mezonga solib ko'rmoqchi bo'lgan ham ediki, oldidan quyon sakrab chiqdi. Yalanglikka yugurib chiqdi-yu, Vaskovni sezmay, orqasiga qarab orqa oyoqlariga turdi. Odamlardan qo'rqib ketgan quyon avvallari odamlarni ko'rmagani uchun qiziqib orqasiga qarardi. Starshina ham quyondek quloqlarini ding qilib, o'sha tomonni kuzata boshladi. Biroq u qancha kuzatmasin, qanchalik diqqat bilan quloq solmasin, u yerda hech qanday favqulodda narsa sezmedi. Quyon terakzorga qochib qoldi. Fedot Yevgrafichning ko'zlari tinib, yosh chiqib ketdi, lekin u hamon qimirlamay turar, chunki o'z quloqlaridan ko'ra haligi quyonga ko'proq ishonardi. Shu tufayli quyon qarab turgan tomonga sekin, soyadek siljiy boshladi.

Oldin u hech narsa sezmedi, keyin butalar orasidan qandaydir qo'ng'ir narsa ko'rindi. Bu ba'zi joylarini zamburug' bosgan g'alati narsa edi. Vaskov nafasini ichiga yutib, oldinga yurdi va qo'li bilan

butalar orasini yordi-yu, cho'kib ketgan eski kulbaning mog'orlagan devoriga duch keldi.

«Legont kulbasi», – tushundi starshina.

Burchakka o'tib, quduqning chirib ketgan yog'och og'zini, o't bosgan so'qmoqni va bitta oshiq-moshiqqa ilinib, qiyshayib qolgan eshikni ko'rdi. To'pponchasini chiqarib quloqlari zing'illab ketguday diqqat bilan quloq solib, eshikka yaqinlashdi. Kesakiga qaradi, zang bosgan dorpech va ezilgan o't-o'lanlarga qaradi, zinadagi hali qurimagan izni ko'rib eshikni ko'pi bilan bir soatcha oldin buzishganini tushundi.

Nega eshikni buzishdi, degan savol tug'ilardi. Nemislar tashlandiq kulba eshigini shunchaki qiziqib buzishmagandir: demak, shunday qilish zarur bo'lgan. Demak ular boshpana izlashgan: balki oralarida yarador bordir, uni yashirib qo'yish lozim bo'lgandir. Starshina boshqa sabab topolmadi va shu sababli iz qoldirmaslikka harakat qilib, ehtiyotkorlik bilan orqaga – butalar orasiga chekindi. Butalar qalin joyga emaklab kelib, qotib kuta boshladi.

Faqat chivinlar unga hujum qilardi, qayerdadir zag'izg'on chag'illadi. Keyin shox qirsillab sindi, nimadir jiringlab ketdi va o'rmon ichidan Legont kulbasiga qarab birin-ketin o'n ikki nemisning hammasi chiqib keldi. O'n bittasi yuk ko'tarib kelar (portlovchi modda, deb aniqladi starshina), o'n ikkinchisi tayoqqa tayanib, qattiq oqsar edi. Kulba oldiga kelishgach, yuklarni bir joyga qo'yishdi, yarador darrov zinaga o'tirdi. Biri portlovchi moddani kulbaga tashiy boshladi, qolganlari chekishib, navbati bilan xaritaga qarab, nima haqdadir gaplasha boshladilar.

Vaskovni chivin talab, qonini so'rar, u esa kiprik qoqishga ham qo'rqardi. U nemislardan ikki qadam narida to'pponchasini mahkam ushlab o'tirar, ularning hamma gaplarini eshitar, lekin nima deyishayotganiga tushunmasdi. U lug'atdan bor-yo'g'i sakkizta so'zni bilib olgan, uni ham ruslar cho'zib gapirsagina tushunardi.

Lekin tasmollab o'tirishga to'g'ri kelmadi: o'rtada turgan (boshqalar uning planshetiga qarashayotgandi) boshliq qo'l siltadi-yu o'n kishi avtomatlarini yelkasiga osib, o'rmonga yo'l oldi. Ular o'rmonga kirib ketayotganda haligi yuk tashigani yaradorning turishiga yordamlashdi va uni kulbaga sudrab olib kirdi.

Ana endi Vaskov nafasini rostdab, chivinlarni quvdi. Endi hamma narsa ravshanlashdi. Nemislar Sinyuxin tepaligi tomon meva terгани

ketishayotgani yo‘q. Ular Legont ko‘lini lo‘killab aylanishni istamay, qaysarlik bilan shu yerga yopishib olishdi. Hozir yuklarini qoldirib, u yerga o‘tish joyini tekshirib ko‘rish uchun ketishayotgan edi.

Ulardan o‘zib ketish starshina uchun hech gap emasdi, qizlarni topib, hamma ishni yana boshidan boshlasa bo‘lardi. Faqat bir narsa – qurol masalasi uni tutib turardi. Qurolsiz fritslarning yo‘lini to‘shishni o‘ylamasa ham bo‘ladi.

Hozir bu kulbada, qiyshaygan eshik ortida ikkita avtomat bor. Ikkita, bu katta boylik, lekin bu boylikni qanday qilib qo‘lga kiritishni Vaskov hozircha bilmasdi. Uyqusiz tundan keyin, yarador qo‘l bilan bostirib kirish foydasiz. Shu sababli Fedot Yevgrafich shamol qayoqdan esayotganini aniqlab, nemisning kulbadan chiqishini kutdi.

Mana, chivin chaqaverganidan yuzlari shishib ketgan diversiyachi kulbadan o‘z o‘limiga peshvoz chiqdi: suv ichgilari kelganga o‘xshaydi. Avtomatini ushlab, beliga ikkita flyaga osib, ehtiyot bo‘lib chiqdi. Anchagacha atrofga tikilib, quloq solib turdi va nihoyat devorga yopishib turgan joyidan quduq tomon yurdi. Ana shunda Vaskov to‘pponchani ko‘tardi, musobaqa vaqtidagidek nafas olmay, tepkini ohista bosdi. O‘q ovozi eshitildi, nemisni kuch bilan oldinga uloqtirib yubordi. Starshina har ehtimolga qarshi yana bir o‘q uzdi, endi yashiringan joyidan chiqmoqchi bo‘lgan edi-ki, to‘satdan, qiyshaygan eshik yonida devor tirqishidan uchi chiqib, yaltirab turgan avtomatni ko‘rib qoldi-yu, joyida qotdi. Ikkinchisi, yaradori do‘stini qo‘riqlab turgan, hammasini ko‘rgan, demak, quduq oldiga yugurish o‘limga ro‘baro‘ bo‘lish bilan baravar.

Vaskovni sovuq ter bosdi: hozir anavi yarador surunkasiga o‘q uzadi. Shunchaki, osmonga qarab, bo‘g‘iq, tashvishli o‘q uzadi. Nemislar darrov qaytib kelib, o‘rmonni titkilab chiqishadi va shu bilan starshinaning bu dunyodagi xizmati tugaydi. Ikkinchi marta qochib qutulolmaysan...

Lekin nemis nima uchundir otmayapti. U nimanidir kutar, avtomat stvolini sergaklik bilan qimirlatar, sheriklariga signal bermas edi. Do‘sti quduq og‘ziga qulaganini ko‘rdi, hali ham tipirchilayotganini ko‘rib turibdi, lekin yordamga chaqirmayapti. Kutuyapti... Nimani kutuyapti?..

Vaskov tushundi. Hammasini tushundi; fashist o‘z jonini asrayapti. O‘layotgan do‘sti, buyruq, ko‘lga ketgan do‘stlari uning uchun ikki

pul: u hozir ko‘rinmas raqib e‘tiborini o‘ziga qaratmaslikni o‘ylayapti. Ko‘zga ko‘rinmas dushmandan o‘lgudek qo‘rqadi, u yo‘g‘onligi bir quchoq keladigan xodalar orqasida jon saqlash haqida o‘ylayapti.

Ha, ajal ko‘ziga tikilib qaraganda frits qo‘rqoqligini bildirib qo‘ydi. Qo‘rqoq ekan, starshina buni tushunib, yengil nafas oldi.

Fedot Yevgrafich to‘pponchasini g‘ilofiga solib, ehtiyotkorlik bilan emaklab orqasiga qaytdi, kulbani tez aylanib o‘tib, quduqqa boshqa tomondan yaqinlashdi. Taxmin qilganidek, yarador frits o‘ldirilgan sherigiga qaramasdi, starshina uning yoniga xotirjam emaklab kelib, avtomatni, belidan zapas oboymalar saqlanadigan xaltani olib, sezdir-may o‘rmonga qaytdi.

Endi hamma narsa tezlikka bog‘liq, chunki u aylanma yo‘lni tanla-di. Bu o‘rinda tavakkal qilishga to‘g‘ri kelardi, shu sababli u tavakkal qildi va bu to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Qoyalargacha boradigan qarag‘ayzor-ga sho‘ng‘idi va shundan keyingina biroz dam oldi.

Bu yer o‘zlari emaklab o‘tishgan tanish joylar. Shu yerning qa-yeridadir qizlar yashirinib olishgan. Biror hodisa yuz bersa, qizlarga chekinishni buyurgan bo‘lsa ham, hozir Fedot Yevgrafich qizlar bu buyruqni bajarganlariga ishongisi kelmasdi. Ishongisi kelmas, isho-nishni xohlamas edi.

Shu yerda dam olib, nemislarning ovozi eshitilmayaptimikin, deb quloq soldi. Keyin bir kun oldin Osyantina bilan birga kelgan yo‘lidan Sinyuxin qoyalari tomon ohista yurdi. Unda hammasi tirik edi, Liza Brichkinadan boshqa hammasi...

Ular har holda chekinishdi. To‘g‘ri, uzoqqa emas, kecha ertalab fritslarga tomosha ko‘rsatishgan soyning narigi tomoniga chekinish-di. Fedot Yevgrafich esa bu haqda o‘ylamay, qizlarni eski pozitsiya-da, toshlar orasidan topolmay, ularni qidirish uchun emas, o‘zini yo‘qotib qo‘yganidan soy bo‘yiga chiqdi. To‘satdan yolg‘iz qolgani-ni, yarador ahvolda yolg‘iz o‘zi qolganini tushundi va uni shunday g‘am bosdiki, hammasi miyasida qorishib ketib, bu joyga parishon holda keldi. U suv ichmoqchi bo‘lib endi cho‘kkalagan ham ediki, shivirlash eshitildi:

– Fedot Yevgrafich...

Orqasidan qichqiriq eshitildi.

– Fedot Yevgrafich!.. O‘rtoq strashina!..

Boshini ko‘tardi, ular esa suv kechib, yugurib kelishyapti. Yubka-larini ko‘tarmay, suvdan yugurib kelishyapti. Ularga peshvoz yugur-

di, shu yerda, suv ichida quchoqlashib ketishdi. Ikkalasi baravariga bo‘yniga osilib, loy, ter bosgan, soqoli olinmagan yuzidan o‘pishardi...

– Qo‘ysalaring-chi, qizlar, nima qilyapsizlar?! – O‘zi esa ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tutib turardi. Asablari bo‘shashib qolganga o‘xshaydi, ko‘z yoshlari kiprigida osilib turibdi. Qizlarni yelkasidan quchoqladi, uchovlon shu tarzda narigi tomonga yurishdi. Komelkova esa uning pinjiga suqilib, soqol bosgan yuzini silamoqchi bo‘lardi.

– Eh, qizaloqlarim, qizaloqlarim! Biror narsa yedilaringmi, biroz bo‘lsayam uxladilaringmi?

– Uyqu kelmadi, o‘rtoq starshina...

– Endi sizlarga qanaqasiga starshina bo‘lay, singillarim? Endi sizlarga akadekman. Fedot deb chaqiraveringlar endi. Yoki bo‘lmasa, oyimga o‘xshab Fedya deb...

Butalar orasida qoplar, shinellar, miltiqlar taxlab qo‘yilgan edi. Vaskov darrov o‘z xaltasiga yopishdi. Endi tizimchasini yechayotganda Jenya so‘rab qoldi:

– Galka qani?..

Sekin, jur‘atsizlik bilan so‘radi: ular allaqachon hammasini tushunishgan edi. Faqat uning og‘zidan eshitib, aniqlab olishmoqchi edi.

Starshina javob bermadi. Indamay xaltani yechdi, undan qotgan non, suryog‘ va flyagani oldi. Uchta krujkaga quydi, nonni ushatdi. Suryog‘ni kesdi. Jangchilarga taqsimlab, krujkani ko‘tardi.

– O‘rtoqlarimiz mardlarcha halok bo‘lishdi. Chetvertak otishma vaqtida halok bo‘ldi, Liza Brichkina esa botqoqqa cho‘kib ketdi. Xullas, Sonya bilan birga uchta o‘rtog‘imizdan judo bo‘ldik. Xuddi shunday. Ammo buning evaziga bir kecha-kunduzdan beri dushmani shu yerda, ko‘llar orasida chalg‘itib turibmiz. Bir kecha-kunduz!.. Endi yana bir kecha-kunduz vaqtdan yutish – bizning navbatimiz. Bizga yordam kelmaydi, nemislar esa kelishyapti. Xullas, kelinglar, singillarimizni xotirlaylik, keyin jangga kirishga to‘g‘ri keladi. Menimcha, so‘nggi jang...

13

Musibat bo‘ladiki, yelkangdan tog‘dek bosadi, ezadi, dunyo ko‘zingga qorong‘i bo‘lib ketadi. Qulagandan keyin qarabsanki, yashasa, nafas olsa bo‘ladi.

Ammo arzimagan xatoliklar ham bo'ladi. O'zi arzimagan narsa-yu, oqibati shunaqa bo'ladi, Xudo ko'rsatmasin. Vaskov nonush-tadan so'ng jangga tayyorlanayotib shunaqa azrimas xatoni aniqladi. Xaltasini ag'darib, titkilab chiqdi, har bir buyumni uch martadan ushlab ko'rdi, lekin topolmadi. Zapal arzimagan narsa. Lekin zapalsiz granata – bir bo'lak temir, kesakdek jonsiz temir bo'lib qoladi.

– Endi artilleriyamiz yo'q, qizlar.

Qizlar xafa bo'lishmasin deb kulib gapirdi. Ular esa, nodonlar, bu gapni eshitib, jilmayishdi.

– Hechqisi yo'q, Fedot, hujumni qaytaramiz!

Bu gapni sal tutilib, Komelkova aytdi. Qizarib ketdi. O'z-o'zidan ravshan, to'satdan, komandirning ismini aytish qiyin.

Otishish uchun uchta miltiq, ikkita avtomat-u to'pponcha bor. Lekin o'nta avtomatdan tirillatib turgan-da, unchalik o'zingni bexavotir sezmayсан. Ehtimol, jonajon o'rmonimiz yordam qilar. O'rmon bilan soyning foydasi tegib qolar.

–Ushla, Rita, avtomatga zapas o'qdon, faqat uzoqdan otma. Soyning narigi tomonida turishganda, miltiqdan ot, avtomatni asrab tur. Soydan o'tisha boshlaganda juda asqatadi. Judayam. Tushundingmi?

– Tushundim, Fedot...

Bunisi ham tutilib qoldi. Vaskov jilmayib qo'ydi.

– Fedya desalaringiz osonroq bo'ladi. Mening ismim chiroyli emas, albatta, lekin boriga baraka...

Har holda bir kecha-kunduz nemislar uchun saboq bo'ldi. Ular juda ehtiyotkor bo'lib qolishdi. Shu sababli har bir qo'ytoş orqasiga qarab, ohista harakat qilishardi. Qo'llaridan kelgancha hammayoqni titkilab tekshirib, quyosh ancha ko'tarilib qolganda qirg'oqda paydo bo'lishdi. Hammasi xuddi oldingidek takrorlandi: faqat bu gal nemislar ro'parasidagi o'rmondan qizlar ovozi eshitilmas, o'rmon nimanidir kutib, taqdid qilib sukut saqlardi. Diversiyachilar bu taqdidni sezib, narigi tomonda, butalar orasida qoralari ko'rinsa ham anchagacha suv bo'yiga chiqishmadi.

Fedot Yevgrafich soyning keng burilishida qizlarni qoldirdi, shaxsan o'zi ularga pozitsiya tanlab, orientirlarni ko'rsatdi. O'ziga esa bir kun oldin Jenka Komelkova o'z tanasi bilan fritslarni to'xtatgan o'sha soydagi burunchani tanladi. Bu yerda qirg'oqlar deyarli tutashib ketgan bo'lib, har ikki tomonda suv bo'yidanoq o'rmon boshlanar, suvni

kechib o'tish uchun bu yerdan qulayroq joy yo'q edi. Biror asabi tarang dushman o'zini tutolmay o'q uzishini kutib, nemislar xuddi shu yerda tez-tez paydo bo'lishardi. Ammo asabiylar hozircha topilgani yo'q, chunki Vaskov o'z jangchilariga fritslar suvga tushgandan keyingina otishni qattiq tayinlab qo'ygan, ungacha qushlarni ham cho'chitmaslik uchun nafaslarini ichlariga utib o'tirishni buyurgan.

Hamma narsa yonida, hammasi taxt qilib qo'yilgan: avtomatlar bilan miltiqlar shay. Starshina narigi qirg'oqni deyarli xotirjam kuzatardi, faqat la'nati qo'li sovuq tekkan tishdek zirqirardi.

U yerda, narigi tomonda buning aksi edi: qushlar jimib qolgan, zag'izg'on tinmay chag'illardi. Bekinmashoq o'ynash qachon fritslarning joniga tegishini aniq bilib olish uchun Fedot Yevgrafich hammasini sanab, baholab, xulosa chiqarardi.

Ammo birinchi o'qni uzish unga nasib qilmadi, o'q ovozi kutib turgan bo'lsa ham, starshina cho'chib ketdi: o'q hamisha kutilmagan-da, birdaniga otiladi. Chap tomonda, oqimning quyirog'ida otildi, undan keyin birin-ketin o'q ozozi yangradi. Vaskov o'sha tomonga qaradi: qayilishda nemis suvdan qirg'oqqa tirmashib chiqyapti, orqaga, sheriklari turgan tomonga chiqyapti, yonlarida o'q vizillar, lekin unga tegmasdi. Frits toshloqda oyog'ini sudrab, emaklab qochardi.

Shu payt yaradorni himoya qilib, avtomatlar tirilladi. Starshina joyidan chiqib, sheriklari yoniga yugurmoqchi bo'ldi-yu, o'zini tutib qoldi. Yaxshi qilgan ekan: narigi tomonda butalar orasidan qirg'oqqa birdaniga to'rttasi sirg'anib tushdi, avtomatlar sayrab turganda, uning himoyasida soydan chopib o'tib, o'rmonga yashirinmoqchi bo'lishsa kerak. Bu payt miltiq ish bermasdi, chunki har otgandan keyin miltiq zatvorini tortib, qayta o'qlash kerak, bunday qilishga esa vaqt yo'q. Shuning uchun Fedot Yevgrafich avtomatni qo'lga oldi. Tepkini boshisi bilanoq ro'parasidagi butalar orasidan ikki olov otilib, boshi uzra havoni o'qlar kesib o'tdi.

Vaskov bir narsani – bu jangda chekinib bo'lmasligini bilardi. Bu qirg'oqdan nemisga bir qarich yerni ham bermasligi kerak. Qanchalik og'ir bo'lmasin, qarshilik ko'rsatish qanchalik befoyda bo'lmasin – shu yerdan chekinmaslik, shu yerda o'rtnashib turish kerak. Shu pozitsiyani ushlab turish zarur, aks holda majaqlab tashlashadi, – unda hammasi barbod bo'ladi. Fedot Yevgrafichda shunday tuyg'u paydo bo'ldiki, go'yo butun Rossiya uning orqasida, xuddi u, Fedot Yevgrafich Vaskov Vatanning yolg'iz farzandi, himoyachisi edi.

Hozir uning nazarida boshqa hech kim yo'q: faqat uning o'zi, dushman hamda Rossiya bor.

U o'zi sezmaganda holda miltiq otishyaptimi, yo'qmi deb quloq ham solardi. Otishyaptimi – demak, ular tirik. Demak o'z frontlarini o'z Rossiyasini himoya qilishyapti. Tutib turishibdi!..

U yerda hatto granatalar portlay boshlaganda ham Vaskov qo'rqmadi. U yaqin orada jimlik cho'kishini sezib turardi, chunki nemislar dushman kuchini aniq bilmay turib, surunkali jang qila olmas edilar. Ular ham vaziyatni e'tiborga olishlari va shunga qarab ish ko'rishlari kerak edi. Ro'parasidan bostirib kela boshlagan to'rtovi darhol chekindi, chekinganda ham shunday epchillik qilishdiki, starshina birortasini yarador qildimi-yo'qmi, sezmay qoldi. Butalar orasiga kirib, dag'dag'a qilib, biroz otib turishdi-yu, yana jim bo'lib qolishdi, faqat suv yuzida tutun suzib yurardi.

Bir necha minut vaqtdan yutishdi. Rost, bugun hisob minutlar bilan o'lchanmasligi kerak, nega deganda hech yerdan yordam kutib bo'lmaydi, shunga qaramay, ular dushmanni bir uzib olishdi, ularga tish-tirnoqli ekanlarini ko'rsatib qo'yishdi, endi u ikkinchi marta bu yerga ehtiyot bo'lib bosh suqadi. Dushman yana biror joydan, aniqrog'i, oqim bo'ylab yuqoridan o'tishga joy qidirib ko'radi, chunki qayilishdan quyida qoyatoshlar soyga tik tushgan, o'tish qiyin. Demak, darhol o'ng tomonga yugurish, bu yerda o'z o'rniga har ehtimolga qarshi qizlardan birortasini qoldirish kerak...

Vaskov o'z dispozitsiyasini o'ylab chiqishga ulguradi; orqasidan eshitilgan oyoq tovushi halal berdi, o'girilib qaradi: Komelkova to'g'ri butalar orasini yorib kelardi.

– Engash!..

– Tezroq!.. Rita!..

Ritaga nima bo'lganini Fedot Yevgrafich so'rab o'tirmadi: ko'zlaridan tushunib oldi. Qurolini olib, Komelkovadan oldin yetib bordi. Osyanina daraxtga suyanib, qarag'ay ostida bukchayib o'tirardi. Tez-tez lablarini yalab, kulishga urindi, qornini ushlab turgan qo'llaridan qon oqardi.

– Nima tegdi? – so'radi Vaskov.

– Granata...

Ritani chalqancha yotqizib, qo'lini ushladi – uning qo'lini qo'yib yuborgisi kelmas, og'riqning zo'rayishidan qo'rqardi. Ritaning qo'lini ohista chetga surdi-yu, qizning kuni bitganini tushundi... Unga nima

bo'lganini ajratib olish ham qiyin edi: hamma narsa – qon ham, yirtilgan gimnastyorka ham, qorniga botib ketgan askar kamari ham bir-biriga qorishib ketibdi.

– Mato ber! – qichqirdi u. – Ich kiyimidan ber!

Jenka qo'llari qaltirab, xaltasini yirtib, undan yengil, silliq narsa olib tutqazdi...

– Shoyi emas, ip gazlamadan tikilganini ber!..

– Yo'q!..

– Ha, jin urgur!.. – o'z safar xaltasiga tashlanib, yecha boshladi. Aksiga, mahkam bog'lab qo'ygan ekan...

– Nemislar... – Ritaning lablari shivirladi. – Nemislar qayerda?

Jenka bir daqiqa unga tikilib turdi, keyin avtomatini olib, orqasiga qaramay qirg'oq tomon yugurdi.

Starshina ko'ylak, kalson va ikkita zapas bint olib qaytib keldi. Rita nimadir dedi, ammo Vaskov eshitmadi. Gimnastyorka, yubka va qonga belangan ichko'ylakni pichoq bilan kesib, tishlarini g'ijirlatdi. Granata parchasi qornini chavaqlab, teshib o'tib ketgan: qop-qora qon orasida ko'kimtir ichaklari titrab turardi. Ustiga ko'ylakni bosib, bint bilan o'rab bog'lay boshladi.

– Hechqisi yo'q, Rita, hechqisi... Yalab o'tibdi: ichaklar butun. Tuzalib ketadi...

Qirg'oqda avtomat tirilladi. Yana atrofda o'qlar vizillab, barglar uzilib tusha boshladi, Vaskov esa hamon bint ustidan bint bog'lar, latta darrov qondan xo'l bo'lib ketardi.

– Bor... o'sha yerga bor... – dedi zo'rg'a Rita. – Jenka o'sha yerda...

Yonginasidan o'qlar vizillab o'tdi. Yuqoridan emas, yonginasidan, demak, mo'ljallab otilgan, faqat tegmadi. Starshina o'girilib, to'pponchasini chiqardi, lipillab ko'ringan qoraga qarata ikkita o'q uzdi: nemislar soydan o'tishgan edi. Jenkaning avtomati esa hamon qayerdadir tirillar, o't sochar, tobora o'rmon ichkarisiga kirib borardi. Vaskov Komelkova otishmani davom ettirib nemislarni o'z orqasidan ergashtirib ketayotganini tushundi. Ergashtirib ketyapti-yu, lekin hammasini emas, yana qayerdadir diversiyachining qorasi ko'rindi, starshina unga qarata o'q uzdi. Bu yerdan ketish, Osyaninani olib ketish zarur edi, chunki nemislar shu yerda aylanib yurishardi, har daqiqa starshina hayotidagi so'nggi on bo'lib qolishi mumkin edi.

U, Rita, ko'kargan, azobga chidolmay tishlab qonatib yuborgan titroq lablari bilan nimani shivirlyotganiga quloq solmay,

uni ko'tardi. Miltiqni ham olmoqchi bo'ldi-yu, uddalay olmadi. Har qadam qo'yganida yarador bo'lgan va tish og'rig'idek zirqi-rayotgan chap qo'lida kuch qolmayotganini sezib, butalar orasiga yugurdi.

Yuk xaltalar, miltiqlar, skatkalar hamda Jenkaning starshina otib yuborgan ich kiyimlari qarag'ay ostida qoldi. Yap-yangi, nafis va chiroyli ichko'ylak...

Jenka chiroyli kiyim kiyishni yaxshi ko'rardi. U tabiatan quvnoq bo'lgani uchun ko'p narsadan bemalol voz kechaolardi, lekin urush oldidan onasi sovg'a qilgan ichki kiyimlarni qaysarlik bilan armiya yuk xaltasida olib yurardi. Buning uchun hamisha hayfsan, navbatdan tashqari naryad va boshqa harbiy ko'ngilsizliklarga duch kelsa ham, ajralgisi kelmasdi.

Ayniqsa, bitta ichko'ylagi bor edi – juda ham antiqa edi. Hatto Jenkaning otasi ham o'zini tuta olmay:

– Ey, Jenka, bunisi endi haddan tashqari. Qayoqqa kiyib bormoqchisan? – degandi jahl bilan.

– Kechaga! – mag'rur javob bergandi Jenka, otasi butunlay boshqa narsani ko'zda tutayotganini tushunib turib.

Ular bir-birlarini yaxshi tushunishardi.

– Men bilan to'ng'iz oviga borasanmi?

– Yubormayman! – onasi qo'rqib ketdi. – Jinni bo'ldingizmi, hech vaqtda qiz bolani ham ovga olib boradilarmi?

– Mayli, o'rgansin! – otasi kuldi. – Qizil komandirning qizi hech narsadan qo'rqmasligi kerak.

Jenka esa hech narsadan qo'rqmasdi. Ot minib choptirib yurar, tir-da merganlik qilar, otasi bilan to'ng'iz ovida pistirmada o'tirar, otasining mototsiklini harbiy shaharchada haydardi. Yana kechalarda «Siganochka» bilan «Matchish»ga raqs tushar, gitara jo'rligida qo'shiq aytar, oldida g'oz turadigan leytenantlarning boshini aylantirardi. Sevmasdan, ermak uchun ularning boshini aylantirardi.

– Jenka, sen leytenant Sergeychukning es-hushini olib qo'yibsan. Bilasanmi, bugun u menga qanday doklad qildi: «O'rtoq Yevg... general...»

– Yolg'on gapiryapsiz, dada!..

Baxtli, quvnoq damlar edi, onasi esa qovog'ini solib, xo'rsinardi: kap-katta qiz. Eskicha aytganda, bo'yi yetib qoldi-yu, o'zini tutishi... Goh tir, goh ot bilan mototsikl, goh tong otguncha raqsbozlik, quchoq-

quchoq gul ko'targan leytenantlar, deraza ostida serenadalar, she'riy maktublar, – bularning bariga tushunish qiyin.

– Jenechka, bu ishing yaxshimas. Bilasanmi, shaharda sen to'g'ringda nima deyishyapti?

– Mayli, vaysashaversin, oyijon!

– Aytishlaricha, seni polkovnik Lujin bilan bir necha marta ko'rishganmish. Uning oilasi bor, Jenechka. Shu ishing yaxshimi, axir?

– Lujinni boshimga uramanmi! – Jenka yelkasini qisar va qochib ketardi.

Lujin esa chiroyli, sirli va qahramon edi. Xalxin-gol jangida Qizil Bayroq ordeni, fin urushida Qizil Yulduz olgan edi. Jenka bu haqdagi gapdan o'zini olib qochishi bejiz emasligini onasi sezardi. Sezardi-yu, qo'rqardi...

Ota-onasi halok bo'lgach, yolg'iz o'zi frontdan o'tganda Jenkani o'sha Lujin topib oldi. Topib olib, unga suyanchiq bo'ldi, qizning yolg'iz qolganligidan foydalandimi, ishqilib o'ziga rom qilib oldi. U vaqtda Jenkaga ana shu tayanch zarur edi, boshini qo'yib yig'lab olishi, nolishi, erkalanishi va dahshatli harbiy olamda yana o'zini tutib olishi uchun zarur edi. Hammasi kutganidagidek bo'lib, Jenka noli-masdi. U hech qachon xafa bo'lmasdi. U o'ziga ishonardi. Hozir nemislarni Osyandinadan uzoqlashtirib ketayotganda ham hammasi yaxshi tugashiga ishonar va bunga bir daqiqa ham shubha qilmasdi.

Hatto biqiniga birinchi o'q tekkanda ajablandi, xolos. Axir o'n to'qqiz yoshda o'lib ketish. ahmoqona, aql bovar qilmaydigan nohaq ish emasmi.

Nemislar uni ko'rmay yarador qilishdi, yaproqlar orasidan o'tgan o'q kelib tegdi. Jenka pusib, o'tib ketishlarini kutishi va balki qutulib qolishi mumkin edi. Ammo u o'qi tamom bo'lgunga qadar ota-verdi. Endi qochishga harakat qilmay, yotib otardi, chunki oqayotgan qon bilan birga tanasidan quvvat ham ketayotgan edi. Nemislar uni ro'paradan otib o'ldirishdi keyin esa o'limdan so'ng ham mag'rur va go'zal siymosiga uzoq qarab turishdi...

Rita yarasi og'irligini, uzoq qiynalib o'lishini bilardi. Hozircha og'riq deyarli sezilmas, faqat qorni kuyib ketayotganga o'xshar, nu-

qul suv ichgisi kelardi. Lekin suv ichish mumkin emas, Rita lattani ko'lmakka botirib, labiga bosardi.

Vaskov uni qulagan archa ostiga yashirib, ustiga shoxlarni tashlab ketdi. Ungacha otishma davom etardi, lekin ko'p o'tmay birdan su-kunat cho'kdi. Rita yig'lab yubordi. U ovoz chiqarmay, xo'rsinmay yig'lar, yuzlaridan yosh oqib tushardi: u endi Jenkaning yo'qligiga tushungan edi...

Keyin esa ko'z yoshlari ham qolmadi. Ulkan va uchrashish uchun tayyorgarlik ko'rish zarur bo'lgan narsa oldida ko'z yoshi ham chekin-di. Oyog'i ostida sovuq, qop-qora o'pqqon ochilardi, Rita unga qat'iyat bilan mardona boqardi.

U o'ziga, o'z hayotiga va yoshligiga achinmasdi, chunki hamisha o'zidan muhimroq narsa to'g'risida o'ylardi. O'g'li yetim qolyapti, kasalmand onasi qo'lida yolg'iz qolyapti. Rita hozir o'g'lim urushdan qanday chiqarkin, keyin uning taqdiri qanday bo'larkin, deb o'ylardi.

Vaskov tezda qaytib keldi. Shoxlarni chetga uloqtirib, yarador yoniga indamay cho'kdi-da, uning qo'lini ushlab, tebranib o'tirdi.

– Jenya halok bo'ldimi? – bosh irg'adi.

– Xaltalarimiz yo'q, – dedi keyin u. – Xaltalar ham, miltiqlar ham yo'q. Yo olib ketishgan, yo bo'lmasa berkitib qo'yishgan.

– Jenya darrov... o'ldimi?

– Darrov, – dedi Vaskov, lekin Rita u yolg'on gapirayotganini sezdi. – Ular qaytib ketishdi. Portlovchi moddalarni olib kelishsa ke-rak.... – u Ritaning xira, hamma narsani tushunuvchi nazariga ko'zi tushib, birdan qichqirishga o'tdi: – Ular bizni yenga olishmadi, tu-shundingmi? Men hali tirikman, hali meni qulatish kerak!..

U tishlarini g'ijirlatib jim bo'lib qoldi, qo'lini avaylab ushlab teb-rana boshladi.

– Og'riyaptimi?

– Mana bu yerim og'riyapti! – u ko'kragiga qo'lini bigiz qil-di: – Shu yerimni tatalayapti, Rita. Shunday tatalayaptiki!... Axir hammalaringizdan ajradim, beshalangizdan ham ajradim, nima uchun? O'nta frits uchunmi?

– Nega bunday deysan.... Hammasi tushunarli, urush...

– Hozircha urush ketayotgan ekan, sizlarning nima uchun ha-lok bo'lganlarning tushunarli. Urushdan keyin-chi? Nega halok bo'lganlarningni tushuntirib bo'larmikin? Bu fritslarni nega o'tkazib yubormadim, nega shunday qarorga keldim? Siz, erkaklar, onalari-

mizni o'qdan saqlab qololmadingizmi, deb so'rashsa, nima deb javob beraman? Nega onalarimizni o'lim changaliga tashlab, o'zlaring tirik qoldilaring, deyishsa-chi? Kirov temir yo'li bilan o'rtoq Stalin nomi-dagi Velomor kanalini himoya qildikmi? Axir u yerda ham soqchilar bordir, beshta qiz-u, to'pponchali starshinadan ko'proq odam bordir u yerda!

– Qo'y, – dedi Rita sekin. – Axir Vatan kanaldan boshlanmaydi. Butunlay boshqa joydan boshlanadi. Biz esa uni himoya qildik. Oldin Vatanni, so'ng esa kanalni.

– Ha... – Vaskov og'ir xo'rsinib, jim bo'ldi. – Men atrofni bir qarab kelay. Sen yotatur, bo'lmasa, duch kelib qolishsa – kuni-miz bitadi. – U to'pponchasini chiqarib, nima uchundir yengi bilan yaxshilab artdi. – Ushla, Rita, ikkita o'qi qoldi, shunday bo'lsa ham to'pponcha bilan o'zingni xotirjamroq sezasan.

– To'xta! – Ritaning yuzi osha uzoqlarga, shoxlar to'sib turgan osmonga qarab yotardi. – Razyezdda nemislarga duch kelib qol-ganim esingdami? O'shanda shaharga, oyimni oldiga borgandim. U yerda o'g'lim bor, uch yashar. Oti Alik – Albert. Oyim qattiq betob, uzoq yashamaydi, otam esa bedarak ketdi.

– Tashvishlanma, Rita, hammasiga tushundim.

– Rahmat senga. – U ko'm-ko'k lablari bilan jilmaydi. – So'nggi iltimosimni bajarasanmi?

– Yo'q, – dedi u.

– Befoyda bu, axir baribir o'laman. Ortiqcha azob chekaman, xolos.

– Men razvedka qilib, qaytib kelaman. Tungacha o'zimiznikilar oldiga yetib boramiz.

– Meni o'p, – dedi u to'satdan.

Starshina beso'naqay engashib, lablarini uyatchanlik bilan Ritaning peshonasiga tegizdi.

– Soqoling o'sib ketibdi... – dedi u ko'zini yumib, eshitilar-eshitilmas qilib. – Bor. Ustimga shoxlarni tashlagin-u ketaver.

Uning ko'kimtir, ichiga botib ketgan yonoqlaridan ko'z yoshi oqib tushardi. Fedot Yevgrafich ohista o'rnidan turib, Ritani shoxlar bilan avaylab bekitdi va nemislar qarshisiga, soy tomonga tez yurib ketdi.

Cho'ntagida foydasiz granata og'ir silkinib borardi. Bu uning yagona quroli edi...

U shoxlar orasida pasayib, sekin chiqqan o'q tovushini eshitgandan ko'ra ko'proq his etdi. O'rmon sukunatiga quloq solib, qimirla-

may turdi, so'ng ishonishga qo'rqib, orqaga, ildizi bilan qulab tushgan katta archa tomonga yugurdi.

Rita chakkasidan otgan, deyarli qon chiqmagan edi. O'q o'tgan teshik atrofida kulrang kukunlar qalin hoshiya hosil qilgandi, Vaskov nima uchundir shu hoshiyaga uzoq tikildi. Keyin Ritani bir chetga olib borib qo'yib, avval yotgan joyidan go'r qaziy boshladi.

Bu yerda tuproq yumshoq, qazish oson edi. Yog'och bilan yumshatib, tashqariga qo'li bilan olib tashlar, ildizlarni pichoq bilan ke-sardi.

Tezda chuqur qazidi, undan ham tezroq dafn etdi va o'ziga dam bermay Jenya yotgan tomonga jo'nadi. Qo'li to'xtovsiz zirqirar, ba'zan-ba'zan qattiq og'rirdi.

Shu sababli Komelkovani tuzukroq dafn qilolmadi.

Bu haqda to'xtovsiz o'ylar, afsuslanar va qovjiragan lablari bilan:

– Kechir meni, Jenechka, kechir... – deb shivirlardi.

U chayqalib va qoqilib Sinyuxin tepaligi orqali nemislar tomon borardi. Bittagina o'qi qolgan to'pponchani mahkam ushlab olgan, u hozir faqat nemislar tezroq duch kelishini, yana bittasini qulatib ulgurishni istardi. Chunki holi qolmagandi. Butunlay holdan toygan – faqat og'riqni sezardi. Butun vujudida og'riq...

Qizigan toshlar ustida oppoq oqshom suzib yuribdi. Pastliklarda tuman to'planyapti, shamol tinib qoldi – chivinlar starshina ustida bulutdek uchardi. Unga esa bu oqish tuman ichida qizlarning beshalasi ko'ringandek bo'ldi. U hamon nimanidir shivirlab, alam bilan bosh chayqardi.

Nemislar esa ko'rinmadi. Starshina zo'rg'a qadam qo'yib, yashirinmay borar, nemislar bilan duch kelishni istardi. Shunga qaramay, nemislar unga duch kelishmadi, otishmadi. Bu jangni tugatish payti keldi, Unga nuqta qo'yish payti keldi va shu so'nggi nuqta to'pponchasining ko'rish o'qdonida turibdi.

To'g'ri, portlatgichi yo'q granatasi ham bor. Bir parcha temir. Uni nega ko'tarib yurganini so'rasang, javob berolmagan bo'lardi. Harbiy buyumlarni asrash odatiga ko'ra olib yurardi.

Hozir uning maqsadi yo'q, faqat istagi bor edi. U aylanib iz qidirmas, murvati burab qo'yilgan o'yinchoqdek to'g'ri ketardi. Nemislar esa hamon ko'rinmasdi.

U yosh qarag'ayzordan o'tib, endi o'rmon ichidan borar, har daqiqa sayin Legont kulbasiga yaqinlashardi. Bu yerda u ertalab osongina

qurolni qo'lg'a kiritgan edi. U nega u yerga ketayotganini o'ylamasdi, lekin ovchilik tuyg'usi uni xuddi shu yo'ldan boshlar va u bu tuyg'uga bo'ysunib borardi. Shu tuyg'uga bo'ysunib, birdan yurishini sekinlatdi, quloq soldi va butalar orasiga yashirindi.

Yuz metrcha naridan qopqog'i chirigan quduq va cho'kib ketgan kulba turgan yalanglik boshlanardi. Shu yuz metrcha masofani Vaskov ovoz chiqarmay, sharpa kabi bosib o'tdi. U kulbada dushman borligini bilardi, buning sababini o'zi ham tushuntirib berolmas, lekin bo'ri qayerdan qyon chiqib qolishini bilgandek aniq bilardi.

Yalanglikdagi buta orasida to'xtab, ko'zlari bilan. Quduqni, qiyshaygan kulbani, qorayib turgan butalarni kuzatib uzoq turib qoldi. Quduq yonida o'ldirilgan nemis jasadi endi yo'q edi. U yerda ko'zga tashlanadigan hech narsa yo'q edi, hech narsa sezilmasdi, ammo starshina sabr bilan kutardi. Shuning uchun ham kulba burchagidan xira dog' biroz ajralganda ham ajablanmadi. U xuddi o'sha yerda soqchi turganini bilib olgan edi...

U soqchi oldiga uzoq, juda uzoq yurdi. Oyog'ini xuddi uxlayotgan odamdek sekin ko'tarar, uni vaznsizdek yerga qo'yar va birorta shox qisirlamasligi uchun oyog'ini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bosar edi. Shu tariqa g'alati, qush yurish qilib yalanglikni aylanib o'tib qimirlamay turgan soqchining orqasida paydo bo'ldi. Shu qora yelka tomon tag'in ham sekinroq, yanada ohista kela boshladi. U yurmas, balki suzib kelardi.

Bir qadam narida to'xtadi. U anchagacha nafasini ichiga yutib, yuragi tinchlanishini kutdi. To'pponchani allaqachon cho'ntagiga solib qo'ygan, hozir o'ng qo'lida pichoq ushlab, begona odamning qo'lansa hidini sezib turar va yagona, hal qiluvchi zarbani berish uchun finkani ohista, millimetrlab ko'tarardi.

U yana kuch to'plardi. Kuchi esa kam. Juda kam, chap qo'li yordam berolmaydi. U butun kuchini, so'nggi tomchisigacha shu zarbaga sarfladi. Nemis deyarli ovoz chiqarmadi, faqat g'alati hiqilladi-yu, cho'kkalab qoldi. Starshina uning avtomatini tortdi. Lekin nemis yiqilayotib, avtomat qayishiga o'ralashib qoldi, bu paytda esa har bir daqiqa hisobda edi. Bu hiqillash va yiqilish tovushini eshitib, uydan chiqib qolishlari mumkin edi. Shu sababli Vaskov o'zining quroli – to'pponcha bilan eshikka tashlandi. Faqat cho'ntagidan granatani chiqarib, chap qo'lga olishga ulgurdi. Otilmaydigan befoyda granata ota olmaydigan yarador qo'lida edi. Starshina qiyshaygan eshikni lang ochib, sakrab kulbaga kirdi:

– Xende xox!..

Ular esa uxlab yotishgandi. Temir yo‘lga borish uchun so‘nggi safar oldidan to‘yib uxlashardi. Faqat bittasi uyg‘oq ekan, burchakka, qurolini olgani tashlandi, ammo Vaskov paytni qo‘ldan bermay, nemisni otib tashladi. Gumburlash yangrab, o‘q nemisni devorga uloqtirdi, starshina esa birdan hamma nemischa so‘zlarni unutib qo‘ydi va bo‘g‘iq ovoz bilan baqirdi:

– Yot!.. Yot!.. Yot!..

U boloxonador qilib so‘kinardi. Ostin-ustin qilib so‘kinardi...

Yo‘q, ular baqirishdan ham, starshina o‘dag‘aylab ushlab turgan granatadan ham qo‘rqishmadi. Uning yolg‘izligini, necha chaqirim yerda uning o‘zi yakka-yu, yolg‘iz ekanligini xayollariga keltira olmas, tasavvur qila olmas edslar. Bu tushuncha ularning fashist miyasiga sig‘masdi, shu sababli yerga cho‘zilishdi. Buyurilganidek, yerga qarab yotishdi. To‘rttalasi yotdi, beshinchisi, eng chaqqoni narigi dunyoga ravona bo‘lgan edi.

Bir-birlarini kamar bilan bog‘lashdi, mahkam bog‘lashdi, so‘nggisini esa Fedot Yevgrafichning o‘zi bog‘ladi-yu, yig‘lab yubordi. Iflos, soqoli qirilmagan yuzidan ko‘z yoshlari oqardi, u sovuqdan qaltirar, ana shu ko‘z yoshlari orasidan kular va baqirardi:

– Nima qilolding?.. Qo‘llaringdan nima keldi?.. Beshta qiz, bor-yo‘g‘i, hammasi bo‘lib beshta qizaloq edi!.. Baribir o‘ta olmadinglar, hech qayoqqa o‘ta olmadinglar, endi shu yerda chirib ketasanlar, hammang shu yerda chirib ketasan!.. O‘z qo‘lim bilan hammangni o‘ldiraman, boshliqlar jazolasa ham shaxsan o‘zim o‘ldiraman! Mayli, keyin meni sud qilaverishsin! Mayli, sud qilaverishsin!..

Qo‘li esa og‘rir, shu qadar og‘rirdiki, butun badani lovillar, fikrlari chalkashib ketardi. Shu sababli u hushidan ketib qolishidan juda qo‘rqar va butun kuchi bilan o‘zini tutishga tirishardi...

O‘sha so‘nggi yo‘lni u keyin ham hech eslolmadi. Oldinda nemislar borishar, ular goh u tomonga, goh bu tomonga chayqalishar, chunki Vaskovning o‘zi mast odamdek tebranib borardi. U ana shu to‘rtta gavdadan boshqa hech narsani ko‘rmas, faqat bir narsa haqida – hushidan ketgudek bo‘lsa; o‘q uzishga ulgurish to‘g‘risida o‘ylardi. Hushini esa so‘nggi rishta tutib turardi, buning ustiga badani shu qadar og‘rirdiki, bu og‘riqdan u ingrab yuborardi. Ingrar va yig‘lar edi: nihoyat, holdan toygan edi.

Ularni chaqirishganda, ro‘paradan o‘zimiznikilar, ruslar kelayotganini tushungandan keyingina hushini tutib turgan so‘nggi rishtaning uzilishiga yo‘l qo‘ydi...

XOTIMA

Salom, qariya!

Sen ishlab charchab yuribsan, biz esa chang degan narsadan asar ham yo‘q bir burchakda baliq ovlab yuribmiz. To‘g‘ri, la‘nati chivinlar tinchlik bermaydi, lekin bu yer xuddi jannatning o‘zi! Kel, qariya, ta‘til olgin-u, biz tomonga uch. Bu yerda mashinadan asar ham yo‘q. odamlar ham yo‘q. Oldimizga haftada bir marta motorli qayiqda non keladi, boshqa vaqtda kuni bilan yalang‘och yuraversang ham bo‘ladi. Ikkita ajoyib ko‘l, zog‘ora baliqlar, xonbaliq ko‘p, soy turistlar xizmatida. Qo‘ziqorinlarni aytmaysanmi!..

Aytmoqchi, bugun motorli qayiqda sochlari oppoq, yag‘rindor, bir qo‘li yo‘q qandaydir chol, u bilan birga raketachi kapitan keldi. Kapitanni Albert Fedotich deb atashadi (tasavvur qilyapsanmi?), u esa cholni sodda, xonakichasiga ota deydi. Ular bu yerda nimanidir qidirishyapti, nimaligini surishtirmadim...

...Kecha yozib tugatolmadim ertalab yozyapman.

Bu yerlarda ham jang bo‘lgan ekan... Sen bilan biz dunyoga kelmasimizdan ilgari jang qilishgan ekan.

Albert Fedotich bilan otasi marmar taxta olib kelishibdi. Biz qabrni qidirib topdik – soyning narigi tomonida, o‘rmonda ekan. Kapitanning otasi qabrni o‘zi biladigan qandaydir belgilarga qarab topdi. Men marmar taxtani ko‘tarishib bormoqchi bo‘ldim-u – botinolmadim.

Bu yerda esa tonglar sokin, juda sokin, faqat bugun e‘tibor berdim.





Roman





BIRINCHI QISM

1

Kolya Plujnikovning umri bino bo'lib, keyingi uch hafta ichidagidek omadi yurishmagan edi. U o'ziga, ya'ni Nikolay Petrovich Plujnikovga leytenant unvoni berilishi haqidagi buyruqni ko'pdan beri kutardi. Ammo buyruq o'qilgandan keyin kutilmagan dilxushliklar ketma-ket yog'ila boshladi. Kolya shunday xursand ediki, hatto kechalari o'z kulgisidan uyg'onib ketardi.

Ertalabki saflanish paytida buyruq e'lon qilingandan so'ng ularni to'g'ri omborxonaga olib borishdi. Bu – kursantlarning umumiy omborxonasi bo'lmay, ular ko'pdan buyon orzu qilib yurgan, chiroyli xrom etiklar, yaltiroq qayishlar, bukilmaydigan to'pponcha g'iloflari, iyagiga silliq va mayin planshet solingan komandirlar sumkasi, chiroyli tugmachali shinellar va ajoyib diagonaldan tikilgan gimnastyorkalar beriladigan omborxona edi. Kursantlar omborxonadan chiqiboq olgan formalarini bo'y-bastlariga moslatish uchun bilim yurtining tikuvchilari yoniga yugurishdi. Kursantlar sho'xlik bilan bir-birlarini urib-turtishar, shunday xandon otib kulishardiki, shipdagi sirlangan abajur chayqalib turardi.

Kechqurun bilim yurti boshlig'ining shaxsan o'zi har bir kishini o'qishni tugatgani bilan tabriklab RKKA komandiri degan guvoynoma va zalvorligina «TT» to'pponchasi topshirdi. Hali murtlari chiqmagan leytenantlar ovozlarning boricha baqirib, to'pponcha nomerini aytishar va generalning qo'lini qattiq qisishardi.

Ziyofat paytida o'quv vzvodining komandirlarini tantanali ravishda ko'tar-ko'tar qilib osmonga otishdi, qattiqqo'l starshina bilan esa, «hisob-kitob» qilib qo'yishmoqchi edi, lekin hammasi xursandchilik bilan o'tdi, hayotlarida eng go'zal bo'lgan bu oqshomning boshlanishi ham, tugashi ham chiroyli bo'ldi.

Nima uchundir xuddi mana shu ziyofat bo'lgan kechadan so'ng leytenant Plujnikov o'zining oxori ketmagan forma va yaltiroq etigi

qayish singari g'archillayotganini his etdi. G'archillaganda ham xuddi, o'sha yillar bolalarining ta'biricha, yangi bir so'mlikka o'xshab g'archillardi.

Umuman, bu narsalarning hammasi ancha avvalroq boshlangan edi. Ziyofatdan keyin bo'ladigan balga kechagi kursantlar yuradigan qizlarini ham olib kelishdi. Kolyaning esa, yuradigan qizi yo'q edi, shuning uchun ham u tortinibroq kutubxonachi Zoyani taklif qildi. Zoya tashvishlangandek, labini tishladi, o'ylab turib: «Bilmadim, qanday bo'larkin, bilmadim...» dedi-yu, lekin keldi. Ular raqs tushishdi, Kolya uyalganidan nima haqda gapirishni bilmay, Zoyaning kutubxonachi ekanini nazarda tutib yalang rus adabiyoti haqida gapirardi. Zoya avvaliga uning gaplarini ma'qullab turdi, keyin esa xafa bo'lgandek, o'rinlatib bo'yay olmagan labini burib gapirdi:

– G'ashga tegadigan darajada g'archillayapsiz, o'rtoq leytenant, – o'quv yurtidagilar ta'biricha bu – leytenant Plujnikov oliftagarchilik qilyapti degan ma'noni anglatardi. Kolya ham xuddi shunday tushungandi o'shanda. Zoyani kuzatib kazarmaga qaytib kelgach, haqiqatan ham butun bo'y-basti bilan yoqimli g'archillayotganini sezdi o'zi.

– Sezyapsanmi, men g'archillayapman, – dedi u yonma-yon yotadigan hamxona do'stiga. Ular ikkinchi qavat koridorining deraza tokchasida o'tirishardi.

Iyun oyining boshlari, harbiy bilim yurti hovlisidan yoqimli siren hidi atrofga taralardi, ochilgan sirenni sindirishga hech kimga ruxsat etilmasdi.

– Istaganingcha g'archillayver, – javob berdi do'sti. – Faqat Zoykani oldida bunday qilma, ovsar, o'taketgan ovsar Kolka. Undan keyin Zoyka o'q-dori vzvodining starshinasiga turmushga chiqqan.

Kolya uning gaplarini yaxshi eshitmas, kiyimlarining qanday g'archillashini kuzatardi. Chiqayotgan g'arch unga yoqardi.

Ertasi kun yigitlar tarqala boshlashdi: hozir ularda ta'til payti edi. Do'stlar bir-birlariga xat yozib turishni va'da qilib adres almashdilar, shovqin-suron bilan xayrlashib, harbiy bilim yurtining panjarali darvozasidan birin-ketin chiqib ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Kolyaga bo'lsa, nima sababdandir jo'nash hujjatlarini berishmadi (uning boradigan joyi uncha uzoq emas, Moskvagacha edi). Kolya ikki kun kutdi. Nima gapligidan endi xabar olaman deb turgan paytda, to'satdan navbatchi chaqirib qoldi:

– Leytenant Plujnikov, sizni komissar chaqiryapti!..

Qarib qolgan artist Chirkovga o'xshab ketadigan komissar uning dokladini tinglab, qo'lini qisdi-da, o'tirishga joy ko'rsatib, indamay papiros tutdi.

– Men chekmayman, – dedi Kolya qizaribroq, umuman hozir u qizaribgina qolmay, butun a'zoyi badani qizib ketayotgan edi.

– Barakalla! – dedi komissar. – Men bo'lsam, bilasanmi, sira tashlay olmayapman, irodasiz bo'lsam kerak.

Komissar cheka boshladi. Kolya qanday qilib irodani chiniqtirish haqida komissarga endi maslahat bermoqchi bo'lib turganda u yana gap boshladi:

– Leytenant, biz sizni o'ta sof vijdonli, halol, ishchan yigit sifatida taniymiz. Moskvada onangiz va singlingiz turishini, ularni ikki yildan buyon ko'rmaganingizni, sog'inganingizni ham bilamiz. Qoida bo'yicha sizga ta'til berilishi kerak. – U indamay o'rnidan turib yura boshladi, so'ng oyog'i ostiga tikilganча gapini davom ettirdi.

– Hammasini bilamiz, lekin. shunday bo'lsa ham, faqat sizga murojaat qilmoqchimiz... bu buyruq emas, iltimos, buni nazarda tuting, Plujnikov. Bundan buyon sizga buyruq berishga haqqimiz yo'q.

– Eshitaman, o'rtoq polk komissari, – Kolya, hozir menga razvedkada ishlashni taklif etadi deb o'ylab baland ovoz bilan «tayyorman» deyishga shay bo'lib turardi;

– Bilim yurtimiz kengayyapti, – dedi komissar, – Sharoit murakkab hozir, Yevropada urush ketyapti, shunday bo'lgach, iloji boricha ko'proq umumqo'shin komandirlariga ega bo'lishimiz kerak. Shu munosabat bilan biz yana ikkita o'quv rotasi ochmoqchimiz. Zarur narsalarni hozirdan ola boshladik, lekin hali shtatda hech kim yo'q. O'quv yurtiga kelayotgan narsalarni qabul qilib, tartibga solishni sizdan iltimos qilamiz, o'rtoq Plujnikov...

Shunday qilib, Kolya Plujnikov harbiy bilim yurtida – g'aroyib lavozimda qoldi. Uning kursdoshlari allaqachon jo'nab ketishgan, hozir esa qizlarga sevgi izhor qilib, raqs tushib, cho'milib, oftobda qorayib yurishardi. Kolya esa, ko'rpa-yostiqlar to'plamini, paytavalар uzunligi-yu, etiklar sonini hafsala bilan hisoblardi. Turli-tuman doklad xatlari ham yozardi.

Ikki hafta shu zaylda o'tdi. Ikki hafta davomida Kolya podyomdan otboygacha, dam olmasdan sabr-toqat bilan narsalarni qabul qilib olar,

hisoblar, hatto bilim yurti darvozasidan tashqariga chiqmas, xuddi kursantlik paytlaridagidek serjahl starshinadan ruxsat kutardi.

Iyun oyida harbiy bilim yurtida juda kam odam qoldi: deyarli hamma yozgi lagerga chiqib ketgan edi. Cheki yo‘q hisoblashlar, aktlar va vedomostlar tufayli ishga ko‘milib ketgan Kolya deyarli hech kim bilan uchrashmasdi. Bir kun kutilmaganda Kolya o‘ziga chest berishayotganini payqab hayron bo‘ldi hatto. Chest berganda ham harbiy qonun-qoida bo‘yicha kaftlarini chakkalariga keltirib, dahanlarini biroz oldinga cho‘zib kursantlarcha shaxdam chest berishdi. Kolya loqaydgina alik olmoqchi bo‘ldi-yu, qalbining qayeridadir paydo bo‘lgan yoshlik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymadi.

Shundan so‘ng u oqshomlari. sayr qila boshladi. Uxlash oldidan kazarma eshigi yoniga chekishga chiqqan bir guruh kursantlar yoniga qo‘lini orqasiga qilib asta kelar ekan, o‘zini ishlab charchagan-day ko‘rsatsa ham, ularning asta gaplashayotgan gaplarini eshitishga qulog‘i ding edi.

– Komandir.

Kolya kursantlarning chest berishlarini sezib, o‘zini tashvishli qi-yofada ko‘rsatmoqchi bo‘ldi va qoshlarini chimirib, kulchadek duma-loq yuziga jiddiylik berdi...

– Salom, o‘rtoq leytenant!

Uchinchi oqshom Zoya bilan yuzma-yuz kelib qoldi. Uning op-poq tishlari qorong‘ida yiltillar, burma ko‘ylagi shamol bo‘lmasa ham, o‘zidan-o‘zi tebranardi. Bu hol Kolyani tashvishga solardi.

– Sira ko‘rinmaysiz, o‘rtoq leytenant, kutubxonaga ham kelmay qo‘ydingiz...

– Ish ko‘p.

– O‘quv yurtida qoldirishdimi sizni?

– Menga alohida vazifa topshirilgan, – noaniq javob qildi Kolya. Ular nima uchundir yonma-yon yurib mutlaqo boshqa tomonga ketishardi. Zoya kula-kula to‘xtovsiz gapirardi, Kolya bo‘lsa, nima uchun unga bo‘ysunib u yetaklagan tomonga ketayotganiga o‘zi ham tushunmasdi. Ustimdagi harbiy formam dastlabki paytdagi ohorini yo‘qotmaganmikin, deb tashvishlandi Kolya va qilich osib yuradigan qayishni qimirlatib qo‘ydi, ko‘ngildagidek ovoz chiqqach, ko‘ngli xotirjam bo‘ldi...

– Juda kulgili, a! Biz xandon tashlab shunday kulibmiz, shunday kulibmizki... O‘rtoq leytenant, gapimni eshitmayapsiz-ku.

– Nega unday deysiz, eshityapman. Rosa kulibsizlar. – Zoya to‘xtadi, qorong‘ida uning tishlari yana yiltillay boshladi. Kolyaning ko‘ziga endi uning tabassumidan boshqa hech narsa ko‘rinmas edi.

– Men sizga yoqaman, shundaymi?.. Ayting Kolya, men sizga yoqamanmi?.. Avvallari deysizmi? Hozir-chi?! Bironta odam meni sizga yomonlaganmi deyman, shundaymi?

– Yo‘q... bilmadim... umuman bilmayman. Axir siz turmushga chiqqansiz-ku, Zoya, – o‘zini bosib asta gapirdi Kolya.

– Turmushga chiqqansiz... – sharaqlab kulib yubordi u. – Erga tekkan ekanmanmi? Shunday deb aytishdimi sizga? Xo‘sh, nima qipti erga tekkan bo‘lsam? Men u bilan tasodifan turmush qurgandim, xato bo‘lgan albatta...

Qizning ikki yelkasidan qanday qilib ushlab olganini o‘zi ham sezmay qoldi. Qizning o‘zi uning qo‘lini ustalik bilan sekin olib kelmaganida yigit bunday qilmagan bo‘lardi.

– Men sizga aytsam, u ketdi bugun, – maqsadini aniq bayon qila boshladi qiz. – Agar mana shu xiyobondan devorgacha to‘g‘ri yurib borib, so‘ng devor yonidagi yo‘ldan ketilsa, hech kim ko‘rmaydi ham, bilmaydi ham. Sizni choy ichingiz kelyapti, to‘g‘rimi Kolya?

Unda choy ichish istagi paydo bo‘lgan edi, ammo xuddi shu payt g‘ira-shira xiyobondan bir qora sharpa ular tomon keldi-yu, dedi:

– Kechirasiz.

– O‘rtoq polk komissari! – ketayotgan figura tomon tashlanib jonholatda qichqirdi Kolya. – O‘rtoq polk komissari, men...

– O‘rtoq Plujnikov? Nima uchun qiz bolani yolg‘iz qoldirdingiz?

– Ha, to‘g‘ri, albatta, – Kolya zudlik bilan orqaga qaytib shoshgancha dedi: – Zoya, kechiring meni. Xizmatchilik. Ish yuzasidan...

Kolya sirenlar ochilib yotgan xiyobondan o‘quv yurtining sokin va keng mashg‘o‘lot maydoniga chiqayotib komissarga nimalar deb g‘o‘ldiraganini bir soatdan keyin mutlaqo unutdi. Paytava uchun mo‘ljallangan surpning eni nostandart dedimi yoki standart kenglikda dedimi... xullas, komissar uning gaplarini tinglab bo‘lgach, so‘radi:

– U qiz kim, qaylig‘ingizmi?

– Yo‘q, yo‘q, nimalar deyapsiz? – qo‘rqib ketdi Kolya. – O‘rtoq polk komissari, u axir kutubxonachi Zoya-ku. Men unga kitob topshirgan edim, shundan keyin...

Kolya yuzlari qizarib ketayotganini sezib indamay qoldi. Chunki u ancha yoshga borib qolgan ochiqko'ngil komissarga yolg'on gapirishni o'ziga ep ko'rmasdi. Komissar mutlaqo boshqa narsa haqida gap boshlagandagina Kolya biroz o'ziga keldi.

– Narsalarni hujjatlashtirishga jiddiy e'tibor berishingiz juda yaxshi: mayda-chuyda narsalar bizning harbiy hayotimizda, har bir kishining intizomli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, aytaylik, harbiy bo'lmagan odam ba'zida o'zi xohlagan, ko'ngliga kelgan ishni qilishi mumkin, lekin biz, Qizil Armiyaning kadr qo'mondonlari bunday qila olmaymiz. Aytaylik, bizning turmushga chiqqan ayol bilan xiyobonda sayr qilishimiz mutlaqo mumkin emas, chunki hammaning ko'zi bizda bo'ladi, biz esa har soat, har soniya o'zimizdan kichiklarga tartib, intizom borasida namuna bo'lishimiz kerak. Bularni tushunishingiz juda yaxshi, albatta... Ertaga, o'rtoq Plujnikov, o'n bir-u o'ttizda mening huzurimga kelishingizni iltimos qilaman. Kelgusidagi ishlaringiz, xizmatingiz haqida gaplashib olamiz, general huzuriga ham kirarmiz balki.

– Yest...

– Xo'p, ertaga ko'rishguncha, bo'lmasam. – Komissar xayrlashgani qo'l cho'zdi va uing qo'lini ushlab turib asta dedi: – kitobni, Kolya, kutubxonaga topshirish kerak. Albatta topshirish kerak!..

Polk komissariga yolg'on gapirgani yaxshi bo'lmadi, albatta, lekin nima uchundir Kolya bu qilgan ishi uchun qattiq qayg'urmadi. Ertaga o'quv yurti boshlig'i bilan uchrashish imkoniyati tug'ilgandi. Kechagina o'quv yurtini tugatgan kursant bu uchrashuvni bamisoli ilk muhabbati bilan uchrashayotgani kabi hayajon va qo'rquv bilan orziqib kutardi. U podyomdan ancha ilgari o'rnidan turib etigini hafsala bilan yaraqlatdi, ko'yilagiga yangi oq yoqa tikdi, tugmalarini yahshilab tozaladi. Kolya komandirlar oshxonasida ovqatlanib, iste'mol qilingan taom uchun o'zi hisob-kitob qilayotganidan nihoyatda mag'rurlanib yurardi. Bugun esa oshxonaga kirib ishtahasi bo'lmay, hech narsa yeya olmadi, quruq mevdan tayyorlangan kompotdan uchtasini ichdi va rosa o'n birda komissar huzuriga keldi.

– A, Plujnikov, salomatmisan?! – Komissar kabinetining eshigi ro'parasida Kolya shug'ullangan o'quv vsvodining sobiq komandiri leytenant Gorobsov o'tirardi. U ham Kolya singari kiyingan edi. – Ishlar qalay? Paytavalarning hisob-kitobini to'g'riladingmi?

Plujnikov har bir ishni o'ylab qiladigan mulohazali yigit bo'lgani uchun hech kimdan hech narsani yashirmasdi. Uning bu yerga kelganiga leytenant Gorobsov nima sababdan qiziqmayotganiga o'zicha taajjublandi. So'ng kinoyali dedi:

– Kecha o'rtoq polk komissari mening ishlarim haqida so'radi. Aytdeki...

– Menga qara, Plujnikov, – uning nozik kinoyasiga e'tibor qilmay to'satdan gapini bo'ldi Gorobsov, – agar seni Velichkoga jo'natishadigan bo'lishsa, rozi bo'lma. Menga yuborishlarini iltimos qil, xo'p-mi? Ko'pdan buyon bir joyda xizmat qilamiz, bir-birimizni yaxshi tushunamiz desang...

Ikkinchi o'quv vuzodining komandiri leytenant Velichko qanday masala bo'lmasin leytenant Gorobsov bilan doimo bahslashardi. Gorobsovning hozirgi aytgan gapidan Kolya garchand hech narsa tushunmasada, muloyimlik bilan boshini qimirlatib qo'yardi. Og'zini juftlab endi so'zlamochi bo'lib turganda komissar xonasining eshigi ochilib bashang kiyingan leytenant Velichko ichkaridan xursand holda chiqib keldi. – Rota berishdi; – dedi u Gorobsovgaga. – Senga ham istagim shu.

Gorobsov o'rmidan turib, odatdagicha gimnastyorkasining g'ijimlarini bir harakat bilan orqa tomonga surdi-yu, xonaga kirib ketdi.

– Salom, Plujnikov, – dedi Velichko va Kolyaning yoniga o'tirdi. – Xo'sh, ishlar qalay xullasi kalom? Olish-u topshirishlardan qutuldingmi?

– Qutuldim hisob. – Kolya ishlari to'g'risida batafsil so'zlab berdi. Faqat komissar bilan bo'lgan suhbat haqida hech narsa ayta olmasdi, besabr Velichko, uning gapini bo'lib qo'ydi:

– Kolya, ish taklif qilishganda, menga yuborishlarini iltimos qil. Men ham bir-ikki og'iz gapirdim u yerda, lekin sen o'zing, xullasi kalom, iltimos qilgin.

– Nimani iltimos qilaman?

Shu payt yo'lakka polk komissari va leytenant Gorobsovlar chiqib qolishdi. Velichko va Kolya o'rinlaridan sakrab turishdi. Kolya «buyrug'ingizga binoan...» deb endi gap boshlashi bilan komissar uning gapini bo'ldi:

– Yuring, o'rtoq Plujnikov, general kutyapti. Sizlar bo'shsizlar, o'rtoq komandirlar.

Ular o'quv yurti boshlig'ining yoniga navbatchi o'tirgan xona orqali kirmay, boshqa bo'sh xona orqali kirishdi. Xona etagida yana bir

eshik bo'lib, qiyin ahvolda qolgan Kolyani yolg'iz tashlab, komissar ana shu eshikdan ichkariga kirib ketdi. Kolya general bilan guvohnoma va yon tomonga osganda kishiga xush yoqadigan shaxsiy qurol topshirish paytidagina uchrashgan edi. Undan boshqa yana uchrashuv bo'lgandi, lekin Kolya bu haqda eslashga uyalandi, general bo'lsa, u uchrashuvni mutlaqo unutgan edi.

Bu uchrashuv ikki yil avval, Kolya hali harbiy forma kiymagan, ko'plar qatori sochini oldirib vokzaldan bilim yurtiga endigina kelgan paytda sodir bo'lgan edi. Ular mashq maydoniga chamadonlarini tushirishlari bilanoq, mo'ylovli starshina, (o'sha ziyofatda hisob-kitob qilishmoqchi bo'lishgan starshina) hamma hammomga borsin, deb buyruq berdi. Saflanmay to'da-to'da bo'lib, o'yin-kulgi, g'ala-g'ovur bilan hamma hammom tomon yura boshladi. Kolya bo'lsa, hayallab qoldi, botinka urib oyog'ini chaqa qilgani uchun yalang oyoq o'tirardi. U to botinkasini bir amallab kiygunga qadar boshqalar muyulishdan o'tib ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Kolya o'rnidan turib ular ketidan endigina yugurmoqchi edi, kimdir chaqirib qoldi:

– Qayoqqa ketyapsiz, yigitcha?

Qotma, past bo'yli general jahl bilan qarab turardi unga.

– Bu yerni armiya deydilar, har qalay buyruq so'zsiz bajarilishi shart. Narsalarga qarab turishga sizga buyruq berilganmi, demak, to smena kelguncha yoki buyruq bekor qilinguncha qarab turishingiz kerak.

Kolyaga hech kim buyruq bermagandi, ammo shunday buyruq o'zo'zidan mavjudligiga shubha qilmasdi u. Shuning uchun ham o'zini bir amallab tartibga solgan bo'ldi-yu, bosiq ovoz bilan: «Yest, o'rtoq general!» dedi va chamadonlar yonidan jilmadi.

Yigitlar bo'lsa aksiga olib qayoqqadir yo'qolishdi. Keyin ma'lum bo'lishicha ular, hammomdan chiqqandan keyin kursantlar kiyadigan ust-bosh – formalı kiyim-kechak olishibdi. Ust-boshni har bir kursant o'z qomatiga moslashtirish uchun starshina ularni kiyim tikadigan ustaxonaga boshlab olib borgan ekan. Mana shuncha vaqt davomida Kolya hech kimga keraksiz bo'lgan narsalar yonidan itoatkorona jilmay turdi. U shu turishida go'yo o'q-dori saqlanadigan omborni qo'riqlayotgandek mag'rur edi. Kecha so'roqsiz ketib qolganlari uchun navbatdan tashqari naryad olgan ikki kursant qovoqlarini osiltirib narsalarni olib ketishga kelganlarida hech kim Kolyaga e'tibor ham bermadi.

– Yo‘l qo‘ymayman! – baqirdi Kolya. – Yaqinlashmanglar!..

– Nima? – qo‘pollik bilan so‘radi jazolanganlardan biri. – Ho-zir gardaningga tushiramiz...

– Qayt orqangga! – dadilroq qichqirdi Plujnikov. – Men soqchi-man!.. Bugfaman!..

Tabiiyki, unda hech qanday qurol yo‘q edi, lekin u shunday qich-qirdiki, kursantlar har ehtimolga qarshi adi-badi aytishishni lozim ko‘rishmadi. Ular naryad boshlig‘ini boshlab kelishgan edi, Kolya unga ham bo‘ysunmadi, yo smena kelsin, yo buyruq bekor qilinsin, deb turib oldi. Hech qanday smena yo‘q va bo‘lishi ham mumkin bo‘lmaganligi uchun uni bu postga kim tayinlaganini aniqlashga kiritishdi. Lekin Kolya o‘quv yurti bo‘yicha navbatchi kelmaguncha hech kim bilan gaplashishni ham istamadi. Navbatchining yengidagi qizil bog‘ich unga ta‘sir qilgan edi. Lekin Kolya postni topshirgach, qayerga borishini, nima qilishini bilmay boshi qotdi. Nima qilish kerakligini navbatchi ham bilmadi, masala oydinlashganda esa, hammom bekilib qolgan edi. Shunday qilib, Kolya yana bir sutka eski grajdanlik kiyimida qoldi, shu bahona starshinaning g‘azabnok diqqatini o‘ziga qaratdi...

Mana bugun general bilan uchinchi uchrashuvi. Kolya bu uch-rashuvni istardi-yu, ammo Ispaniyadagi voqealarda general ham qatnashgan degan sirli mishmishlarga ishongani uchunmi, har qalay cho‘chirdi. Sirli mishmishlarga ishongandan keyin haqiqiy jang, haqi-qiy fashistlarni ko‘rgan ko‘zlardan cho‘chimay bo‘ladimi?

Nihoyat eshik qiya ochilib komissar uni barmog‘i bilan imlab cha-qirdi.

Kolya gimnastyorkasini shoshilinch tekislab, qurib qolgan lablari-ni namladi va qalin parda bilan to‘silgan eshik tomon yurdi.

Bu eshik odatdagi rasmiy eshikka qarama-qarshi tomonda bo‘lgani uchun Kolya generalning biroz bukchaygan yelkasi ro‘parasida turib qoldi. Bu holat unga ancha noqulay bo‘lgani uchun dokladni ham mo‘ljaldagidan past va noaniqroq topshirdi. Eshitib bo‘lgach, general unga qarshisidagi stol yonidan joy ko‘rsatdi. Kolya qo‘llarini tizzasi-ga qo‘yib, qaddini notabiiy g‘oz tutib o‘tirardi. General unga diqqat bilan tikilgach, ko‘zoynagini taqib (ko‘zoynakni ko‘rgan Kolyaning ta‘bi nihoyatda xira bo‘ldi) qizil papkaga tikilgan qandaydir varaqlar-ni o‘qiy boshladi. Kolya o‘zining – leytenant Plujnikovning «shaxsiy delosi» xuddi shundayligini bilmasdi shu paytgacha.

– Hammasi besh, bitta uchi bor, – taajjublandi general. – Nima-dan uch olgansiz?

– Material ta’minotidan uch olganman, – dedi Kolya lo’nda qilib va xuddi qiz boladay yuzlari qizarib ketdi. – Qayta topshiraman, o’rtoq general.

– Yo’q, o’rtoq leytenant, endl kech bo’ldi. – Kulib qo’ydi general.

– Komsomol komiteti va o’rtoqlari tomonidan a’lo xarakteristika berilgan, – past ovoz bilan dedi komissar.

– O’h-ho’, – yana o’qishga kirishar ekan, tasdiqladi general. Komissar ochiq deraza yoniga borib chekdi va eski tanishlardek, Kolyaga qarab kulib qo’ydi. Kolya labini asta qimirlatib unga javob qilgan bo’ldi va yana jiddiy qiyofada generalning qanshariga tikildi.

– Otishni juda qoyillatarkansiz-a? – so’radi general. – A’lochi otuvchi desa ham bo’ladi.

– O’quv yurti sharafini himoya qilgan, – tasdiqladi komissar.

– Juda soz. – General qizil papkani yopib nari surib qo’ydi va ko’zoynagini oldi. – Bizning sizga taklifimiz bor, o’rtoq leytenant.

Kolya bir og’iz ham so’z demay, har qanday vazifaga tayyorligini bildirish ma’nosida biroz olg’a siljidi. Hozirgi lavozimi bo’lgan xo’jalik ishidan keyin, razvedkachi bo’lishni xayoliga ham keltirmasdi u.

– Biz sizga o’quv vzvodining komandiri bo’lib maktabimizda qo-lishingizni taklif qilamiz, – dedi general. – Juda mas’uliyatli vazifa. – Nechanchi yilda tug’ilgansiz?

– Men 1922 yil 12 aprelda tug’ilganman! – tez javob berdi Kolya.

O’zini qanday tutishni jonsarak holatda o’ylab o’tirgani uchun Kolya bexosdan shunday tez javob bergan edi. Taklif qilingan lavozim kechagi kursant uchun o’ta faxrli bo’lsa-da, Kolya birdan o’rmidan turib: «Taklifingizni mamnuniyat bilan qabul qilaman, o’rtoq general!» deya olmasdi. Shuning uchun deya olmasdiki, harbiy qismda xizmat qilmay, jangchilar bilan bir qozondan ovqat yemay, ularga buyruq berishni o’rganmay turib haqiqiy komandir bo’la olmasligiga qattiq ishonardi. Kolya, haqiqiy komandir bo’lishni istardi, shuning uchun ham boshqalar uchuvchilik yoki tank haydashni orzu qilib yurganda u umumqo’shin harbiy bilim yurtini tanladi.

– Uch yildan keyin harbiy akademiyaga kirib o’qishingiz mumkin, – gapida davom etdi general. – Menimcha siz, xuddi shunday qilishingiz kerak.

– Biz sizga qaysi rotani tanlashingizga ham imkon beramiz, – miyig‘ida kuldi komissar. – Xo‘sh, Gorobsov rotasinimi yoki Velichko rotasinimi, qaysi birini tanlaysiz? .

– Gorobsov, balki uning joniga tekkandir, – kulimsiradi general.

Kolya Gorobsov mutlaqo joniga tegmaganini, u juda yaxshi komandir ekanligini aytmqochi edi, ammo o‘quv yurtida qolish niyati yo‘qligi sababli indamadi. Unga harbiy qism, jangchilar, vzvod bajaradigan og‘ir ishlar – lo‘nda qilib aytganda haqiqiy harbiy xizmat kerak edi. Shunday deb aytmqochi edi-yu, boshidagi so‘zlar chugalashib, kalavaning uchini yo‘qotib qo‘ydi va yana yuzlari qizara boshladi.

– Chekishingiz mumkin, o‘rtoq leytenant, – dedi general kulgisini yashirib. – Cheking-da, bizning taklifimizni yaxshilab o‘ylab ko‘ring...

– Iloji yo‘q, – xo‘rsindi polk komissari. – Chekmaydi u, hamma gap shunda-da.

– Chekmayman, – gapni tasdiqlash ma‘nosida asta yo‘talib qo‘ydi Kolya.

– Ruxsat eting, o‘rtoq general?

– Eshitaman, eshitaman.

– O‘rtoq general, menga bo‘lgan ishonchingiz va taklifingizdan behad minnatdorman. Bu taklifni o‘zim uchun yuksak sharaf deb bilaman. Lekin shunga qaramay, bu taklifni rad qilishga ruxsat eting, o‘rtoq general.

– Nima uchun? – qovog‘ini uydi polk komissari deraza yonida turar ekan. – Bu qanday yangilik bo‘ldi, Plujnikov?

General unga qandaydir taajjub va qiziqish bilan indamay qarab turardi. Bu holat Kolyaga biroz dalda berdi:

– O‘rtoq general, menimcha har bir komandir, avvalo harbiy qismlarda xizmat qilishi kerak. O‘rtoq polk komissari bu haqda bizga leksiya o‘qigan paytlarida ham, tantanali yig‘ilishda so‘zlagan nutqlarida ham, faqat harbiy qismda xizmat qilgandagina haqiqiy komandir bo‘lib yetishishi mumkin, deb bir necha bor ta‘kidlagan edilar.

Komissar noqulaylikdan o‘zini zo‘rlab yo‘taldi va yana deraza yoniga bordi. General bo‘lsa, Kolyaga hamon indamay tikilib turardi. – Shuning uchun, o‘rtoq general, sizga katta rahmat albatta, sizdan o‘tinib so‘rayman, iloji bo‘lsa meni harbiy qismga yuboring. Qanday qism, qanday vazifaga bo‘lsa ham mayli.

Kolya gapidan to‘xtagach, kabinetda jimlik hukm surdi. Lekin bu jimlikni na general sezdi, na komissar. Kolya esa bu davomli jimlikdan o‘zini noqulay his qilardi.

– Tushunib turibman, o‘rtoq general, men biroz...

– Bu yigit juda azamat-ku, a, komissar, – xursand bo‘lib gapirdi general. – Obbo leytenant-ey, Xudo haqi azamat ekansan! – Komissar to‘satdan xoxolab Kolyaning yelkasiga qattiq urib qo‘ydi.

– Esda saqlab qolganing uchun rahmat, Plujnikov!

Xuddi noqulay vaziyatdan to‘g‘ri yo‘l topganday, uchovlari ham xursand jilmayishdi.

– Demak, harbiy qismga?

– Xuddi shunday, o‘rtoq general.

– Keyin aynib qolmaysanmi? – general to‘satdan sensirashga o‘tgan bo‘lsa-da, uning Kolyaga qilayotgan muomalasi o‘zgartmagan edi.

– Yo‘q.

– Qayoqqa yuborishsa ham ketaverasanmi? – so‘radi komissar, – onang bilan singlingni nima qilasan?.. Uning otasi yo‘q, o‘rtoq general.

– Bilaman. – General kulgisini yashirib, jiddiylashdi, qizil papkani bir-ikki marta chertib qo‘ydi. – G‘arbiy chegaradagi alohida qismga yuborsak nima deysan, leytenant? – Kolya qizarib ketdi: G‘arbiy chegaradagi alohida qismda xizmat qilishni katta omad deb bilardi ko‘pchilik.

– Vzvod komandirligiga rozimisan?

– O‘rtoq general! – intizom esiga keldi-yu, birdan turib o‘tirdi Kolya. – Sizga katta, katta rahmat, o‘rtoq general!..

– Lekin bilib qo‘y, bir shart bilan. – o‘ta jiddiy gapirdi general. – Harbiy qismda bir yil tajriba olganingdan keyin, seni o‘zim o‘quv yurtiga chaqirib olaman, o‘quv vzvodi komandirligiga. Ma‘qulmi?

– Ma‘qul, o‘rtoq general. Agar buyursangiz...

– Buyuramiz, albatta buyuramiz! – kuldi komissar. – O‘quv yurtimizga senga o‘xshagan chekmaydiganlar juda kerak.

– Faqat bir narsa noqulay bo‘lyapti, leytenant: bu yil ta‘til ololmaydiganga o‘xshaysan. Uzog‘i bilan mana shu kelayotgan yakshanba kuni qismda bo‘lishing kerak.

– Uch-to‘rt kun onangning mehmoni bo‘lishingga ham imkon bo‘lmadi, – kulimsiradi komissar. – Onanglar Moskvaning qayerida turishadi?

- Ostajenkoda... Hozir u yerni Metrostroevskaya deyishadi.
- Ostajenkoda degin?.. – xo‘rsindi general va o‘rnidan turib Kolyaga qo‘l uzatdi. – Senga baxt va omad tilayman, leytenant. Esingda bo‘lsin, yana bir yildan keyin kutaman seni!
- Rahmat, o‘rtoq general. Xayr! – dedi Kolya va harbiychasiga yurib xonadan chiqib ketdi.

Poezdga bilet olish u paytlari nihoyatda qiyin edi. Maxfiy xona orqali Kolyani kuzatar ekan, komissar unga bilet olib berishga va‘da qildi. Kolya kun bo‘yi yelib-yugurib ishlarni topshirdi, aylanma varaq to‘latdi, saf bo‘limidan hujjatlarini oldi. Bu yerda uni kutilmagan xursandchilik kutardi: alohida topshiriqni bajargani uchun o‘quv yurtining boshlig‘i buyruq bilan unga tashakkurnoma e‘lon qilgan edi. Kechki payt navbatchi unga poezd biletini keltirib berdi. Kolya Plujnikov hamma bilan birma-bir xayrlashib, Moskva shahri orqali yangi xizmat joyiga jo‘nab ketdi. Yakshanbagacha uning ixtiyorida yana uch kun bor edi.

2

Poezd Moskvaga erta bilan yetib keldi. Kropotkinskiy stansiya-sigacha Kolya, dunyoda eng go‘zal metroda bordi. Har safar metroga tushar ekan, Kolyani faxr hissi qamrab olardi. U «Sovetlar saroyi» stansiyasida tushib yuqoriga ko‘tarildi: ro‘parada baland devor bo‘lib, devor ortidan taqir-tuqur, pishillagan ovoz baralla eshilib turardi. Bu devorga ham Kolya faxrlanib qarar edi, chunki mana shu devor ortida dunyoda eng baland: tepasiga dohiy Leninning ulkan haykali o‘rnatiladigan «Sovetlar saroyi» binosining poydevoriga asos solinardi.

Kolya, bundan ikki yil avval harbiy bilim yurtiga ketgan uyi yonida to‘xtadi. Moskvaning qubba darvozali, ko‘p xonadonli, mushuklari ko‘p xilvat hovlilili oddiy uylaridan biri bo‘lgan bu uy uning uchun nihoyatda aziz va muqaddas edi. Bu yerda u har bir eshik, har bir zina, har bir burchak, har bir g‘ishtni juda yaxshi bilardi. Bu – uning uyi, agar «Vatan» tushunchasi ulkan, ulug‘vorlikni anglatadigan bo‘lsa, bu uy yer yuzidagi eng qadrdon joy sanalardi unga.

Uy yonida to‘xtagan Kolya, o‘zicha iljayib: hovlining quyosh tushadigan tomonida o‘tirib olgan Matveyevna paypoq to‘qib o‘tirgancha o‘tgan-ketganlarni gapga tutayotgan bo‘lsa kerak deb o‘yladi. Matve-

yevna albatta, uni to'xtatib: «Kimsan? Qayerdansen? Nega kelding?» deb so'raydi. Kolya nima uchundir, Matveyevna meni tanimaydi deb ishonardi va bundan o'zi xursand edi.

Shu payt darvozadan ikkita qiz chiqib keldi. Qizlarning bo'yi balandrog'i yengi kalta ko'ylak kiyib olgan bo'lib, ular o'rtasidagi farq faqat shundan iborat edi, boshqa tomondan ular ikkovlari bir xil edi: kiygan ko'ylaklari, sochlarini turmaklashi, past poshna tuffilari, hatto oq paypoqlarigacha farq qilmasdi. Qizlarning kichigi kattasi ortidan ketar ekan, kiyimlari tarang tortilgan, qo'lida chamadon ushlagan leytenantga zimdan bir qarab qo'ydi, so'ng qadamini sekinlatib yana va yana qaradi.

– Veramisan? – shivirlab so'rardi Kolya. – Verka, shayton-ey, rostdan ham o'zingmisan?..

Majen tomondan kelayotgan shovqin-suron eshilib turardi. Singlisi yosh bolalardek tizzalarini bukib akasining bo'yniga osildi. U katta bo'lib anchagina og'irlashib qolgani uchun Kolya zo'rg'a oyog'ida turardi.

– Kolya! Kolechka! Kolka!

– Qanday katta qiz bo'lib ketibsan-a, Vera.

– O'n oltiga to'ldim! – mag'rurlanib dedi u. – Nima, sen faqat men o'syapman deb o'ylaganmiding?.. Voy, aytganday, sen leytenant bo'lgansan-a! Valyushka o'rtoq leytenantni tabriklamaysanmi?

Bo'yi tikroq qiz iljayib u tomon kela boshladi.

– Salom, Kolya.

Kolya chit ko'ylak tarang sirib turgan ko'krakka tikildi: ikki yil avval u qiz bu yerda yo'q edi. Oyoqlari chigirtka oyog'iga o'xshash tizzasining ko'zi dumaloq bu ikki ozg'in qizni juda yaxshi eslaydi u. Shoshib ko'zini olar ekan, dedi:

– Sizlarni tanib bo'lmaydi-ya, qizlar...

– Biz maktabga borishimiz kerak, – xo'rsindi Vera. – Bugun oxirgi komsomol majlisi, bormasak bo'lmaydi.

– Kechqurun uchrashamiz, – dedi Valya.

Kolyaga hayosizlarcha tikildi. Bu holdan Kolya noqulay sezdi o'zini va achchig'i keldi, odatda yigit kishining qarshisida qiz bola uchun noqulay ahvolga tushish kerak, buning ustiga uning yoshi ham katta ulardan.

– Kechqurun men jo'nab ketaman.

– Qayoqqa? – taajjublandi Vera.

– Yangi xizmat joyimga, – soddagina qilib gapirdi u. – Yo‘l-yo‘lakay tushdim Moskvaga.

– Demak, peshinda uchrashamiz, – ko‘z-ko‘zga tushdi-yu, Valya yana jilmaydi. – Men patefon olib kelaman.

– Bilasanmi, Valyushaning qanday plastinkalari bor? Polyakcha, eshitsang rohatlanasan!.. Vshistko mne yedno, vshistko mne yedno... – polyak tilida kuyladi Vera. – Biz ketdik bo‘lmasam.

– Oyim uydamlar?

– Uydalar!..

Ular chapga, maktab tomonga yugurib ketishdi: u ham mana shu yo‘ldan o‘n yil chopqillab yurgan edi. Kolya ularning orqasidan selkillab ketayotgan sochlariga, oftobda qoraygan boldirlarini silab hilpi-rayotgan ko‘ylaklariga qarab qoldi. Shu palla u, qizlarning orqalariga o‘girilib unga qarashlarini juda-juda istardi. U o‘ylardi:

– Bordi-yu, ular orqalariga qarashsa... – U holda nima bo‘lishini o‘ylab bo‘lguncha, uzun bo‘yli qiz to‘satdan orqasiga o‘girildi. Unga javoban Kolya qo‘l silkidi va o‘z-o‘zidan qizarib ketayotganini sezib chamadonini ko‘tarish uchun engashdi.

«Obbo, – huzur qilib o‘yladi u, – muncha sholg‘omday qizar-masam?..»

Kolya darvozaning qorong‘i yo‘lagidan o‘tib, hovlining quyosh ko‘p tushadigan chap tomoniga qaradi. Matveyevna yo‘q edi u yerda. Bu holdan noxush taajjublandi Kolya va o‘z podyezdi yoniga kelib qolganini sezib, bir zumda beshinchi qavatga ko‘tarildi.

Onasi sira ham o‘zgartmabdi, hatto egnidagi kiyimi ham o‘sha, no‘xat gullik xalat edi. Onasi Kolyani ko‘rib, birdan yig‘lab yubordi:

– Voy Xudoyim-yey, namuncha dadangga o‘xshamasang!..

Kolya otasini es-es bilardi: otasi yigirma oltinchi yilda O‘rta Osiyoga ketib shu bo‘yicha qaytib kelmagan. Onasini bosh siyosiy boshqarmaga chaqirib komissar Plujnikov Ko‘z Quduq qishlog‘i yonidagi bosmachilar bilan bo‘lgan janglarda halok bo‘lganini aytishgan edi.

Onasi Kolyaga nonushta tayyorlab ovqatlantirar ekan, to‘xtovsiz gapirardi. Kolya boshini qimirlatgan holda onasining gapini ma‘qullab tursa ham, xayoli boshqa yoqda edi: u qirq to‘qqizinchi kvartirada yashovchi bo‘yi to‘satdan cho‘zilib qolgan Valya haqida to‘xtovsiz o‘ylardi va onasining ham o‘sha qiz to‘g‘risida so‘z ochishini istardi. Lekin onani ko‘proq boshqa masalalar qiziqtirardi:

– ...Men bo‘lsam ularga: «Xudoyo tavba qildim, nahotki bolalar kun bo‘yi o‘sha shang‘illagan radioni eshitishga majbur bo‘lishsa? Ularning quloqlari hali nozik, umuman bu narsa tarbiyaga to‘g‘ri kelmaydi», deyman. Mening taklifimni rad etishdi, albatta, chunki naryadga allaqachon qo‘l qo‘yilgan edi. Shundan keyin radiokar-nayni olib kelib o‘rnatishdi. Men raykomga borib hammasini batafsil tushuntirdim...

Kolyaning onasi bolalar bog‘chasining boshlig‘i bo‘lgani uchun, doimo qandaydir tashvish bilan yurardi. Ikki yil davomida Kolya bun-day gaplardan chiqib qolgan bo‘lishiga qaramay onasining gaplarini eshitgisi kelardi, ammo uning butun fikr-zikrini o‘sha Valya – Valen-tina qamrab olgan edi.

– Ha, oyi, Verochkani men darvoza yonida uchratdim, – ona-sining gapini eng hayajonli yerida cho‘rt kesib bemavrid gapirdi u. – Haligi... anovi qiz bilan... oti nima edi?.. Valya bilan birga ekan...

– Ha, ular maktabga ketishdi. Kofe ichasanmi?

– Yo‘q, rahmat, oyi, ichmayman. – Kolya rohatlanib xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurdi. Onasi bolalar bog‘chasidan yana nimanidir eslab gap boshlagan edi, Kolya uning gapini bo‘ldi: – Nima, Valya hali ham o‘qiyaptimi?

– Kolyushkya, nahotki Valyani eslamayotgan bo‘l-sang? Biznikidan nari ketmasdi-ku. – Ona to‘satdan kulib yubordi. – Verochka-ning aytishicha, Valyusha seni sevar ekan.

– Tentaklik-ku bu! – jahl bilan gapirdi Kolya. – Tentaklik!..

– Albatta tentaklik-da, – kutilmaganda darrov rozi bo‘ldi ona. – U paytda kichkina qizaloq edi, hozir esa haqiqiy soqibjamol. Bizning Ve-rochkamiz ham chiroyli, lekin Valya – go‘zalarning go‘zali.

– Sohibjamolmish-a, – to‘satdan vujudini qamrab olgan qu-vonchni zo‘rg‘a yashirib g‘o‘ldiradi Kolya. – Mamlakatimizdagi ming-minglab qizlarga o‘xshagan oddiy bir qiz-da... Matveyevna xola o‘zini qanday his qilyapti? Siz menga yaxshisi ana shuni ayting. Men hozir hovliga chiqaman...

– Matveyevna xola olamdan o‘tdi, – xo‘rsindi ona.

– Nega? Qanday qilib? – tushunmadi Kolya.

– Odamlar shunday, qazo qiladi, Kolya, – deb yana xo‘rsindi ona. – Sen baxtlisan, sen hali bu haqda o‘ylamasang ham bo‘ladi.

Kolya o‘zida yo‘q xursand, modomiki darvoza yonida shunday go‘zal qizni uchratgan ekan, buning ustiga ma‘lum bo‘ldiki, u Kolyani sevadi, rostdan ham u baxtli edi...

Nonushtadan so‘ng Kolya Belarus vokzali tomon yo‘l oldi. Unga kerakli poezd kechqurun yettida jo‘nar ekan. Bu mutlaqo to‘g‘ri kelmasdi Kolyaga. U vokzalda bo‘lib, biroz aylanib yurdi, xo‘rsindi va harbiy komendantning yordamchi navbatchisi tuynugini dadil taqillatdi.

– Kechroq jo‘naydigani kerakmi? – yordamchi navbatchi ham yosh yigit edi. U bachkanalik bilan Kolyaga ko‘z qisdi. – Ha, leytenant, birontasi yurakdan urganmi deyman?

– Yo‘q, – boshini egib gapirdi Kolya. – Onam kasal ekanlar. Ancha og‘ir... – Sovuq nafas qilayotganidan o‘zi qo‘rqib ketib, shoshgancha gapini to‘g‘riladi: – Yo‘q, unchalik og‘ir emas...

– Tushunarli, – yana ko‘z qisdi navbatchi. – Onang betob bo‘lsa, qarab ko‘ramiz hozir...

U avval kitob varaqlab, so‘ng telefon qila boshladi. Xuddi boshqa narsalar haqida gaplashayotgandek bo‘ldi u. Kolya devordagi poezdlarning yurish grafigi va plakatlarini ko‘zdan kechirib qanoat bilan kutib turdi. Navbatchi trubkani joyiga qo‘ydi:

– Peresadka bilan rozimisan? Moskva – Minsk poezdi, o‘n ikkidan uch minut o‘tganda jo‘naydi. Minskda peresadka qilasan.

– Roziman, – dedi Kolya. – Katta rahmat sizga, o‘rtoq katta leytenant.

Biletni ola solib u, Gorkiy ko‘chasidagi «Gastronom»ga kirdi va qovog‘ini osiltirib vinolarga uzoq tikildi. Nihoyat, Kolya shampan vinosi xarid qildi, chunki bitiruv kechasidagi ziyofatda shampan vinosi ichgan edi, yana olcha nalivkasi oldi, chunki bunday nalivkani oyisi ham tayyorlardi, so‘ng Madera vinosini ham oldi, chunki bu vino to‘g‘risida aslzodalar haqidagi romanda o‘qigan edi.

– Sen bola aqldan ozibsan! – dedi oyisi achchig‘lanib. – Bu nima degan gap: kishi boshiga bir shishadan?..

– A!.. – beparvo qo‘l siltadi Kolya. – To‘y to‘ydek bo‘lsin-da!

Uchrashuv kutilgandan ham yaxshi bo‘ldi. Ona qo‘shninikidan yana bitta kerosinka olib chiqib totli taom tayyorladi. Oilaviy tantana ana shu taom bilan boshlandi. Vera oshxonada girdikapalak bo‘lsa ham, dam-badam savol berishni qo‘ymasdi:

– O‘qsochardan otdingmi?

– Otdim.

– Maksimdan-chi?

– Maksimdan ham, boshqa turlaridan ham otganman.

– Juda zo‘rsan-ku – quvonib hayratlandi Vera, Kolya xona ichida parishonxotir yurardi. U gimnastyorkasiga yangi oq yoqa tikdi, etigini tozalab yiltillatdi, kamarlari esa g‘archillardi. Hayajonlanganidan uning ishtahasi bo‘g‘ilgan, Valyadan esa hamon darak yo‘q edi.

– Xona berishadimi senga?

– Berishadi, berishadi.

– Alohida xonami?

– Albatta-da. – Veraga u muloyimlik bilan qaradi. – Axir men komandirman-ku.

– Biz sening yoningga boramiz, – sirli shivirladi Vera. – Oyimni bolalar bog‘chasi bilan dachaga kuzatamiz-da, o‘zimiz sening yoningga jo‘naymiz.

– Biz deganing kim? – gap kim haqida ketayotganini tushundi-yu yuragi shirin orziqib tushdi. Lekin tushunish boshqa, quloq bilan eshitish boshqa: – Xo‘sh, ayt-chi, qani, «biz» deganing kimlar?

– Nahotki tushunmasang? Biz – bu biz: men bilan Valyushka.

Kolya yo‘talib noo‘rin kulgisini yashirdi va vazminlik bilan dedi:

– Borish uchun ruxsatnoma kerak bo‘ladi, xat yozib ogohlantir-sang, qo‘mondonlik bilan gaplashib, kelishib qo‘yaman.

– Voy, kartoshka ezilib ketgan bo‘lmasin yana!.. – Vera tovonida chir aylandi-yu, gumbaz yasagan ko‘ylagi hilpiragan holda, taraqlatib eshikni yopdi: Kolya muloyimgina kulib qo‘ydi, xolos. Eshik yopil-gach, xayol birdan uni allaqayoqlarga yetakladi va xursand bo‘lib tas-malarini g‘ichirlatib qo‘ydi: demak, bugun ular uning yoniga borish haqida gaplashishgan, demak, reja qilishgan, demak, u bilan uchra-shish istaklari bor, demak... Ammo bu «demak»dan keyin nima de-moqchi ekanini hali Kolya xayoliga ham keltirmagan edi.

Keyin Valya keldi. Aksiga olib Vera va onasi hali oshxonadagi ishlardan qutulishmagan, shuning uchun gap boshlaydigan odam yo‘q edi. Kolyaning xayoliga, bunday muomaladan keyin mening yonimga borishdan voz kechish uchun Valyada hamma asos bor, degan sovuq fikr keldi.

– Moskvada bir-ikki kun qolishning sira iloji yo‘qmi?

Kolya boshini qimirlatib «yo‘q» ishorasini qildi.

– Nahotki shunchalik zarur bo‘lsa?

Kolya «bilmadim», deganday yelkasini qisdi.

– Chegarada notinchlikmi, a? – ovozini pasaytirib so‘radi Valya. (Avvaliga bu gapni haqiqatan ham maxfiy deb o‘ylab, astagina boshi-

ni qimirlatdi Kolya.) – Dadam, Gitler bizning chegaramiz yaqiniga qo‘shin to‘playapti deb aytdilar.

– Germaniya bilan bizning mamlakatimiz o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik haqida shartnoma bor, – bo‘g‘iq ovoz bilan gapirdi Kolya, chunki endi bosh qimirlatishga ham, yelka qisishga ham o‘rin qolmagan edi.

– Nemis qo‘shinlari bizning chegaramiz yaqinida to‘planyapti degan gaplarning hammasi uydirma, asossiz gaplar, bu uydirma gaplarni anglo-fransuz imperialistlari tarqatishgan.

– Sen aytganlaringni men gazetada o‘qiganman, – xafa bo‘lganday gapirdi Valya. – Ahvol juda og‘ir, juda jiddiy deyaptilar dadam. – Valyaning dadasi ma’sul xodim edi, shunday bo‘lsa ham, Kolya uni biroz vahimachiroq bo‘lsa kerak deb o‘yladi va dedi:

– Ig‘vodan ehtiyot bo‘lish kerak.

– Fashizm, axir – dahshat-ku! Sen «Professor Mamlok» degan filmni ko‘rdingmi?

– Ko‘rdim: Oleg Jakov o‘ynaydi. Fashizm dahshat, albatta, imperializmchi, seningcha u yaxshimi?

– Sen nima deb o‘ylaysan, urush bo‘ladimi, yo‘qmi?

– Bo‘ladi, – ishonch bilan gapirdi u. – Tezlashtirilgan programma bo‘yicha o‘qitiladigan harbiy bilim yurtlarini bekorga ochishmaganidir, axir. Lekin bu, juda tez tugaydigan urush bo‘ladi.

– Seni shunga ishonching komilmi?

– Komil, albatta. Birinchidan, fashizm va imperializm xonavayron qilgan mamlakatlar proletariatini nazarda tutish kerak. Ikkinchidan Gitler tomonidan ezilgan Germaniya proletariatini, uchinchidan butun dunyo mehnatkashlarining o‘zaro hamkorligini nazarda tutish kerak. Lekin eng asosiysi – bizning Qizil Armiyaning hal qiluvchi qudrati. Dushmanning o‘z maydonida unga qaqshatqich zarba beramiz.

– Finlyandiya-chi? – nogoh asta so‘radi Valya.

– Nima Finlyandiya? – Noroziligini arang yashirdi u: vahimachi dadasi shunday kayfiyat uyg‘otgan unda. – Finlyandiya bir necha eshelondan iborat himoya liniyasi qurgan edi. Bizning qo‘shinlarimiz uni bir zarb bilan yorib o‘tishdi. Aqlim yetmayapti, bu yerda qanday shubha bo‘lishi mumkin.

– Agar sen, hech qanday shubhaga o‘rin yo‘q deb ta’kidlaydigan bo‘lsang, demak, yo‘q ekan-da, – iljaydi Valya. – Dadam menga Belostokdan qanday plastinkalar olib kelganlar, ko‘rasanmi?

Valyaning ajoyib plastinkalari: polyak fokstrotlari, «Qora ko‘zlar», «Ko‘zlari qora», hatto «Peter» operasidan Francheska Gaal ijro etgan tango ham bor edi.

– Aytishlaricha, u ko‘r bo‘lib qolgan emish! – dumaloq ko‘zlarini katta ochib gapirdi Verochka. – Kinoga olish paytida tasodifan juda ham yorug‘ nur taratadigan projektorga qaragan ekan, birdan ko‘rmaydigan bo‘lib qolibdi.

Valya xuddi yoshi ulug‘ ayoldek shubhaomuz kuldi. Kolya ham bu voqeaning rostligiga shubhalangan bo‘lsa-da, lekin nima uchundir bunga juda ishongisi keldi.

Bu payt ular shampanskoe va nalivkani ichib bo‘lishgandi, madera vinosini esa ozgina sinab ko‘rishdi-yu, yaroqsizga chiqarishdi: shirinligi kam, nordon bu vinoni vikont de-Pressi qanday qilib biskvitga shimdirib nonushta qilgani tushunarsiz edi.

– Kinoartist bo‘lish juda, juda xavfli! – gapida davom etardi Vera. – Asov otlarga minib choptirish, yurib ketayotgan poezdlardan sakrash yetmaganday, nur ham ularga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Juda ham zararli.

Verochka kinoartistlarning rasmlarini to‘plashga ishqiboz edi. Kolya uning gaplariga yana shubhalangan bo‘lsa-da, yana ishongisi keldi. Uning biroz boshi aylanardi, yonida o‘tirgan Valyani tentakroq bo‘lsa kerak deb shubhalansa ham, kulgidan lab-lunjini yig‘ishtirib ololmasdi. Valya bo‘lsa, o‘zini kattalardek tutib takabburona kulardi. Garchi u Veradan bor-yo‘g‘i yarim yosh katta bo‘lsa-da, kechagi qizaloqlar bo‘y yetgandan keyin kamgap bo‘lib qoladigan sirli davrni allaqachon bosib o‘tgan edi.

– Verochka kinoartist bo‘lmoqchi, – dedi ona.

– Xo‘sh, nima qipti? – onasining gapiga ochiqdan-ochiq qarshi bo‘lib shang‘illadi Vera, do‘mboq mushtumchasi bilan hatto stolni ham urib qo‘ydi. – Nima, man etilganmi? Yaxshi-ku, aksincha, qishloq xo‘jalik vistavkasi yonida ana shunday maxsus institut bor...

– Xo‘p, yaxshi, juda soz, – murosaga kela qoldi ona. – O‘ninchi sinfni besh baho bilan tamomlasang, xohlagan yeringga kiraver. Xohishing bo‘lsa, bas.

– Talant ham bo‘lishi kerak, – dedi Valya. – U yerning imtihonlari qanday bo‘lishini bilasanmi? O‘qishga kirayotgan bironta o‘ninchi sinf o‘quvchisini tanlaydi-da, o‘sha bilan o‘pishishga majbur qilishadi seni.

– Mayli! Majbur qilisha qolishsin! – vinodan va bahslashishdan yuzlari qizarib ketgan Vera ovozini baralla qo‘yib gapirardi. – Majbur qilishsin! Men o‘z rolimni shunday bajaray, shunday bajarayki, o‘tirganlar o‘sha yigitni haqiqatan ham sevib qolganimga ishonishsin. Ana!

– Men bo‘lsam, sevmadan turib sirayam o‘pisholmasdim. – Valya past ovoz bilan, ammo hamma eshitadigan qilib gapirardi. – Sevgisiz o‘pishish, menimcha, o‘z-o‘zini yerga urish bilan barobar.

– Chernishevskiyning «Nima qilmoq kerak?» degan kitobi-da... – Kolya endi gap boshlamoqchi edi.

– Farq qilish kerak! – qichqirdi birdan Verochka. – San‘at qayerda-yu, hayot qayerda, farq qila bilish kerak buni!

– Men san‘at haqida emas, imtihon haqida gapirmoqchi edim. Qanday san‘at bo‘lsin u yerda?

– Jur‘at, jasorat-chi? – jizzakilik bilan tashlandi Verochka. – Nima, artist uchun jur‘at va jasorat kerak emasmi?

– Voy Xudoyim-yey, jasorat nima qilsin u yerda! – ona uf tortib stol ustini yig‘ishtira boshladi. – Qizlar, menga qarashib yuboringlar, keyin raqs qilaverasizlar.

Hamma shosha-pisha stol ustini yig‘ishtirishga tushib ketib, Kolyaning bir o‘zi qoldi. U deraza yoniga borib divanga o‘tirdi: o‘sha, butun o‘quvchilik yillari yotib uxlagan, g‘ichirlaydigan divan edi bu. Uning ham boshqalar kabi turtinib, xaxolab stol ustini yig‘ishtirgisi keldiyu, ammo o‘z xohishini jilovlab oldi, chunki divanda vazminlik bilan o‘tirish muhimroq ko‘rindi. Buning ustiga chetdan turib hech kimga sezdirmay Valyani kuzatishi, tabassumini astagina ilg‘ashi, kipriklarining chiroyli qimirlashini tomosha kilishi, ba‘zan hatto ko‘z urishtirib olishi ham mumkin edi. Kolya xuddi o‘ylagani kabi kuzatar ekan, metroning «Sovetlar saroyi» stansiyasi yonida bug‘ bilan ishlayotgan bolg‘a kabi yuragi dukillab ura boshladi.

O‘n to‘qqiz yoshga kirib Kolya shu paytgacha qiz bilan o‘pishmagan edi. U uvolneniega chiqqanda teatrlarda bo‘lardi, kino-ga tushardi, ortiqcha puli qoladigan bo‘lsa morojenoe yerdi. Raqsni yaxshi bilmagani uchun raqs maydoniga bormasdi, shu boisdan ikki yillik o‘qish davomida kutubxonachi Zoyadan boshqa hech kim bilan tanishmadi. Shu paytgacha hech kim bilan tanishmaganidan Kolya bugun xursand. Uning ich-ichidan iztirob chekishlariga sabab bo‘lgan narsa bugun aksincha, xursandchilik keltirdi. Yorug‘ jahonda Valya

degan qiz borligi uchun ham boshqalar bilan tanishmaganman, deb o'ylardi divanda o'tirib xayol surarkan Kolya. Shunday qiz uchun iztirob cheksa arzirdi, chunki shu iztirob tufayli u qizning tabassumla mayin boqishlariga tik va mag'rur qarardi. Shu boisdan Kolya o'zidan xursand edi.

Keyin yana patefon qo'yishdi. Bu galgisi qo'shiq tinglash uchun emas, raqs tushish uchun edi. Kolya sholg'omday qizargan holda qo'qilib-suqulib dam Valya bilan, dam Verochka bilan galma-gal raqsga tushardi.

– Vshistki mne yedno, vshistko mne yedno... – stulni quchoqlab raqs tushar ekan, qo'shiq aytardi Verochka.

Kolya gaplashishga mos mavzu topa olmaganidan gap-so'zsiz, indamay raqsga tushardi.

Valya bo'lsa, subbattalabmasdi, buni tushunmagan Kolya biroz iztirob chekdi.

– Umuman menga alohida xona berishlari kerak, – gapi ishonchli bo'lishi uchun yo'talib gapirdi u. – Bordi-yu, berishmasa, ijaraga bo'lsa ham olaman.

Valya indamasdi. Kolya oralarida sharm-u hayo ko'proq bo'lishiga harakat qilardi. Valyaning tabassumi yarim qorong'i xiyobonda uni rom qilgan Zoyaning tabassumiga mutlaqo o'xshamasligini sezardi u. Shuning uchun ham yuzlari qizargan holda astagina qo'shib qo'ydi:

– Men ruxsatnoma buyurib qo'yaman. Faqat oldindan xat yozib meni ogoh qilib qo'yinglar.

Valya yana indamadi, lekin buning uchun xafa bo'lish Kolyaning xayoliga ham kelgani yo'q. Hammasini eshitib, tushunib turganini va bu sukut baxtiyorlik alomati ekanini yaxshi anglardi u. Shu paytgacha kitoblarda o'qigan, ammo hayotda uchrata olmagan muhabbat xuddi mana shu ekanini endi yaxshi tushunardi Kolya. Zoya... u birdan Zoyani esladi, eslaganda ham dahshat bilan esladi, bordi-yu, agar, uning hislarini so'zsiz angelayotgan Valya ham qandaydir mo'jiza yuz berib Zoya haqida eslasa bormi, unda Kolya uchun o'zini-o'zi otishdan boshqa iloj holmaydi. Shuning uchun ham Zoya haqidagi har qanday fikrni o'zidan quva boshladi, Zoya bo'lsa burma ko'ylagini behayo silkitib ko'z o'ngidan yo'q bo'lishni istamasdi. Kolya shu damgacha o'ziga noma'lum bo'lgan uyatdan o'zini noqulay his qildi.

Valya bo'lsa iljayib, boshqalar ko'ra olmaydigan narsani go'yo ko'rayotganday nigohini Kolyadan boshqa tomonga tikardi. Quvonganidan Kolya yanada beso'naqay ko'rinar edi.

So'ng ular deraza yonida uzoq turishdi, oyisi ham, Verochka ham birdan qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Aslida esa ular oshxonada idish-tovoqlarni yuvishayotgan bo'lib, hozirgi holat boshqa bir planetaga ko'chgandek gap edi.

– Dadam, u tomonlarda laylak ko'p bo'ladi degan edilar. Kolya, sen qachon bo'lmasin laylaklarni ko'rganmisan?

– Yo'q, ko'rmaganman.

– U tomonlarda laylaklar tomlarning ustida yashayverishadi, ularga hech kim ozor bermaydi, chunki ular baxt keltirishadi... oh, oppoq laylaklar... Sen ularni albatta ko'rishing kerak.

– Ko'raman, – va'da qildi u.

– Keyin ularning qandayligini menga yozib yubor, xo'pmi?

– Yozib yuboraman, albatta.

– Oh laylaklar, oppoq-oppoq laylaklar...

Valyaning bilagidan ushladi, o'zining bu beadabchiligidan cho'chib darrov qo'yib yubormoqchi bo'ldi-yu, lekin ilojini topa olmay ushlab turaverdi. Qo'limni siltab tashlaydi yoki biron so'z aytadi, degan xavfda edi Kolya. Valya lom-mim demasdi. Gapinganda ham uning qo'lini siltab tashlamadi:

– Agar sen janubga yoki shimolga, loaqal sharqqa ketayotganingda edi...

– Baxtim bor ekan. Alohida okrug tushdi menga. Bilasanmi, omadim kelgani shu.

Valya hech narsa demay xo'rsinib qo'ydi.

– Kutaman, – astagina gapirdi Kolya. – Juda ham orziqib kutaman.

Valyaning qo'lini muloyimgina silardi, so'ng birdan yuzlarini ushlab oldi-yu, yana qo'yib yubordi: kaftlari sovuqdek tuyuldi unga. Valyadan, meni sog'inasanmi, deb so'ragisi kelgan bo'lsa ham, yuragi dov berib so'ray olmadi. Shu payt birdan Verochka otilib kirdi va ostonada turgancha Zoya Fyodorovna haqida nimalarnidir bidirlab gapira boshladi, Kolya bo'lsa Valyaning qo'lini astagina sezdirmay qo'yib yubordi.

Soat o'n bir bo'lganda onasi uni vokzalga haydab jo'natgudek bo'ldi. Qizlar uning chamadonini allaqachon pastga olib tushib ket-

ganlari sababli, u onasi bilan shoshib, palapartish xayrlashdi. Ona kulib turib nima uchundir astagina yig'ladi, uning ko'z yoshlarini sezmagani Kolya tezroq ketishga shoshilardi.

- Xat yozib tur, o'g'lim. Xatingni sira kanda qilmagin.
- Xo'p, oyijon. yetib bordim deguncha xat yozaman.
- Bizlarni unutma...

Kolya onasining oppoq oqargan chekkasiga so'nggi bor lablarini tekkazib o'pdi va eshikdan chiqqan solib uch zinani bitta qilib hatlaganicha pastga otildi...

Poezd o'n ikki yarimda jo'naydigan bo'lgani uchun, qizlar metrodan kech qolishadi deb xavfsirardi, ayni vaqtda ularning ketib qolishlarini ham istamasdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, nuqul bir gapni takrorlardi:

- Keta qolinglar endi. Kechikasizlar.

Ular esa, ketishni xayollariga ham keltirishmasdi. Konduktor hushtagini chalib, poezd o'rnidan jilganda, Valya birinchi bo'lib birdan u tomon qadam tashladi. Kolya butun vujudi bilan aynan shuni kutib turgani sababli qizning istiqboliga shunday otildi-ki, hatto ikkovining burni bir-biriga to'qnashib ketdi va ular uyalgan holda orqaga tislaniydi. Verochka bo'lsa, pirojki solingan tugunchani uning qo'lga zo'rlab tutqazib: «Kolka, kech qolasan!..» – deb qichqirdi. U singlisini yuzidan o'pdi-da, qo'lidan tugunchani olib poezd zinasiga ildam chiqdi va harir gulli ko'ylak kiygan ikki qizning qaddi-basti kichrayib to'kzdan yo'qolguncha ularga qarab turdi...

3

Kolya uzoq o'lkalarga birinchi marta ketayotgandi. Shu paytgacha uning qilgan sayohati harbiy bilim yurti joylashgan shahardan nari o'tmagan, hatto uyiga kelishdagi o'n ikki soatlik yo'lni ham jazirama iyun oyining mana shu shanbasidagi safarga taqqoslab bo'lmasdi. Uning bugungi safari shu qadar muhim, shu qadar qiziq ediki, u deraza yonidan beri kelmadi. Oxiri charchab endi o'tiraman deganda kimdir qichqirib qoldi:

- Laylaklar! Qaranglar, laylaklarni qaranglar!..

Hamma derazalarga tirmashib tomosha qila boshladi, Kolya bo'lsa odamlarga turtinib-surtinib hayallab qoldi va laylaklarni ko'ra olmadi. Lekin u buning uchun aslo achingani yo'q, chunki laylaklar shu to-

monlarga uchib kelgan ekan, ertami, kechmi, ularni albatta ko'radi va oq, oppoq laylaklarni ta'riflab, Moskvaga yozib yuboradi...

Poezd eski chegaraning narigi tomonidagi Negoreliy degan joyga kelib qolgandi: ular G'arbiy Belorussiya yerlaridan o'tib borishardi. Doimo odamlar bilan gavjum bo'ladigan kichik-kichik stansiyalarda ham to'xtardi poezd. Turli-tuman kiyimlar, poxol shlyapalargacha ola bayroq bo'lib bir-biriga aralashib ketgandi. Kolya bekatlarda pastga tushsa ham, vagon yonidan nari ketmas, belorus, rus, ukrain, polyak, litva, yahudiy va yana qandaydir tillarning aralash-quralash bo'lib ketgan shovqinidan karaxt bo'lib qolgandi.

– Shovqin-suronni qara! – Hayron bo'lardi qo'shni polkada ketayotgan quvnoq katta leytenant. – Bu yerdan, Kolya, soat sotib olish kerak. Achib yotganmish bu yerda, suvtekin deyishgandi menga yigitlar.

Shunday degani bilan katta leytenant uzoq ketmasdi, to'da ichiga o'zini urib allanarsalarni surishtirar va qo'lini siltab orqasiga tez qaytardi:

– Bu yer, og'ayni, shunday bir Yevropani, hash-pash deyishga ham ulgurmay qolasan.

– Agentura degin, – uning gapini ma'qullaganday bo'ldi Kolya.

– Kim biladi deysan u la'natilarni, – po'ng'illab so'kindi katta leytenant va biroz nafasini rostlagach o'zini yana to'daga urdi. – Soat! Soatlar! Chiq-chiq! Mozer!..

Oyisi pishirgan pirojkani katta leytenant bilan baham ko'rishdi; bunga javoban u ham Kolyani qo'lbola ukrain kolbasasi bilan mehmon qildi. Lekin ularning gaplari uncha qovushmasdi, chunki katta leytenant faqat bir narsa haqida gapirishni yaxshi ko'rardi:

– Kolya, anovini qara, belini xipchaligini, xuddi ryumkaga o'xshaydi-ya!..

Kolya betoqat bo'la boshladi. Katta leytenant ko'zlarini o'ynatib, xayol og'ushiga berilgandi. Haytovur, Baranovich stansiyasida tushar ekan, xayrlashayotib, Kolyaga qichqirdi:

– Soat olishni esingdan chiqarma, leytenant! Soat bu mulk degan so'z!..

Katta leytenant ketishi bilan qo'lbola ukrain qolbasasi ham yo'q bo'ldi, oyisi pishirgan pirojkini esa allaqachon paqqos tushirishgandi. Poezd xuddi atayin qilganday, Baranovichida uzoq to'xtab qoldi, Kolya laylaklardan ko'ra ko'proq yaxshi taom haqida o'ylay boshladi.

Nihoyat ustiga yuk ortilgan va keti ko‘rinmaydigan tovar poezdi sharaqa-shuruq qilib o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘aldi.

– Germaniyaga, – dedi yoshi keksayib qolgan kapitan. – Nemislarga g‘alla yuboryapmiz. Buni qanday tushunsa bo‘ladi?

– Bilmadim, – dovdirab qoldi Kolya. – Germaniya bilan shartnomamiz bor-ku, axir.

– Juda to‘g‘ri, – tezgina rozi bo‘la qoldi kapitan. – Siz mutlaqo to‘g‘ri gapirdingiz, o‘rtoq leytenant.

Tovar poezdidan so‘ng ular o‘tirgan sostav ham yo‘lga tushib ildam yurib ketdi. To‘xtash joylari ham qisqardi, provodniklar yo‘lovchilarga vagonlardan chiqishni maslahat berishmasdi, shuning uchun ham butun yo‘l davomida faqat birgina stansiya – Jabinka Kolyaning esida qoldi. Navbatdagi stansiya Brest edi. Brest vokzalidagi binolar yog‘ochdan ishlangan ekan. Odam ko‘pligidan Kolyaning boshi gangib qoldi. Bironota odamdan boradigan qismini so‘rab ketaversa ham bo‘lardi, lekin Kolya bu narsani maxfiy tutish kerak, degan mulohazaga borib, rasmiy kishilardan so‘ramoqchi bo‘ldi va komendant yordamchisi huzuriga kirish uchun uzoq muddat navbat kutdi.

– Qal‘aga borasan, – komandirovka hujjatlarini ko‘zdan kechirar ekan, gapirdi komendant yordamchisi. – Kashtan ko‘chasidan to‘g‘ri borsang, ro‘parangdan chiqadi.

Kolyaning nihoyatda qorni ochgan edi. Shuning uchun ham u Kashtan ko‘chasini qidirish o‘rniga oshxona qidira boshladi. Oshxona topa olmagach, u yoq-bu yoqqa qarab biroz depsinib turdi-da, vokzal restorani tomon yurdi. Restoranga endi kirmoqchi bo‘lib turgan ham ediki, eshik ochilib ichkaridan chorpahildan kelgan leytenant chiqdi:

– Jin ursin sen semizni, hamma joyga tumshug‘ini suqadi bu jandarm, butun boshli stolni bir o‘zi band qilib o‘tiribdi-ya. Turg‘izib yubora olmaysan u rasvoni, chunki chet ellik bo‘ladilar bu kishi.

– Kim?

– Kim bo‘lardi, nemis jandarmi-da! Ayollar yosh bolalari bilan yerda o‘tirishibdi-yu, u kishi bir o‘zlari stol yonida o‘tirib olib pivo ho‘playaptilar. Zodagon-ey!

– Haqiqiy jandarmmi? – taajjublandi Kolya. – Ko‘rsa bo‘ladimi? Leytenant bilmadim deganday yelkasini qisib qo‘ydi.

– Qarab ko‘r-chi. To‘xta, chamadon bilan qayoqqa ketyapsan?

Kolya chamadonini yerga qo‘yib, general huzuriga kirish paytidagidek, gimnastyorkasini to‘g‘riladi va ulkan eshikni ochib, asta ichkariga kirdi.

Kirgan zahotiy oq mundir kiygan, oyog'ida xuddi tunukadan tikilgandek, g'ayritabiiy etigi bor haqiqiy, tirik nemisga ko'zi tushdi. U stulga yastanib, xotirjam oyog'ini qimirlatib o'tirardi. Stol usti pivo shishasiga to'lib ketgan, jandarm pivoni stakanda emas, bir shishasini katta krujkaga quyib o'shandan simirardi. Qip-chizil basharasidagi dikkeygan soqollariga pivo ko'pigi yopishib qolgan.

Kolya ko'z qirini tashlagancha to'rt marta nemis yonidan o'tdi. Bu – sira aql bovar qilmaydigan voqea edi: undan bir qadam narida u tomonning, Gitler asoratga solgan Germaniyaning odami o'tirardi. Uning nemis imperiyasidan sotsializm mamlakatiga kelib nimalar haqida o'ylab o'tirganini bilishni istardi Kolya. Lekin ezilgan insoniyat vakilining yuzida xotirjam befahmlikdan bo'lak hech narsa sezilmasdi.

– Yaxshilab qarab oldingmi? – so'radi Kolyaning chamadonini qo'riqlab turgan leytenant.

– Oyog'ini likillatib o'tiribdi, – nima uchundir gapirdi Kolya. – Ko'kragida belgisi ham bor ekan.

– Fashist u, – dedi leytenant. – Menga qara, og'ayni, qorin qalay, ovqatlanmaysanmi? Shu yaqin orada «Belorus» restorani bor deyishayotgandi hali yigitlar, odamga o'xshab durustroq ovqatlanaylik. Isming nima o'zi?

– Kolya.

– Demak, adash ekanmiz. Qani, chamadonni topshir, bir maishat qilaylik. Restoranning ajoyib skripkachisi «Qora ko'zlar»ni zo'r chalar emish...

– Chamadon topshiradigan joyda ham odam ko'p ekan, restoran chiqib to'g'ri qal'aga ketaman degan maqsadda Kolya chamadonni olvoldi.

Leytenant Nikolay bu yerda faqat peresadka qilgani uchun qal'a haqida hech narsa bilmadi. Shunday bo'lsa ham Kolyaga dalda berib qo'ydi:

– Restoranda o'zimiznikilardan birontasini albatta uchratamiz-u o'shandan so'raymiz. Bugun shanba-ku, axir.

Ular torgina yolg'izoyoq ko'prikdan yurib, temir yo'lni bosib o'tishlari bilanoq shaharga kirib kelishdi. Ko'prik pillapoyasidan uch tomonga qarab yo'l ketardi, leytenantlar qaysi biriga yurishni bilmay biroq turib qolishdi.

– «Belorus» restoranini bilmayman, – alohida urg‘u va asabiy-lashgan holda javob berdi yo‘lovchi.

Kolya so‘rashga botina olmagan uchun savol-javobni Nikolay olib bordi:

– Bilsangiz kerak, qandaydir mashhur skripkachisi ham bor deyishadi.

– Ha, pan Svitskiy! – yo‘lovchining yuzida nimtabassum paydo bo‘ldi. – O, Ruvim Svitskiy buyuk skripkachi! Sizning albatta, o‘z fikr-mulohazangiz bor, lekin u xato, rost. Restoran to‘g‘ridagi Stitskevich ko‘chasida.

Stitskevich emas, Komsomolsk ko‘chasi ekan. Ko‘cha chetidagi kichik uylar ko‘m-ko‘k daraxtlar ichida ko‘milib ketgandi.

– Men Sumek zenit – artilleriya o‘quv yurtini tamomladim, – dedi Nikolay Kolya unga o‘zi to‘g‘risida gapirib bergandan keyin. – To‘g‘ri kelib qolganini qara: ikkovimiz ham o‘qishni bu yil tugatganmiz, ikkovimizning ismimiz ham Nikolay...

U nogoh jimib qoldi: uzoqdan skripka ovozi eshitilardi. Leytenantlar to‘xtashdi.

– O‘sha mashhur skripkachi chalyapti! Demak, to‘g‘ri ketyapmiz, Kolya.

Skripka ovozi peshtoqiga «Restoran Belorus» deb yozilgan ikki qavatli binoning ochiq derazasidan eshitilayotgandi.

Ular ikkinchi qavatga ko‘tarilishib, katalakday kiyim yechadigan joyga bosh kiyimlari va chamadonni topshirishgach, choqqina zalga kirishdi. Ro‘parada bufet peshtaxtasi, chap burchakda kichikroq orkestr joylashgan edi. Qo‘llari uzun, ko‘zlarini g‘alati pirqiratuvchi skripkachi kuy chalishni hozirgina to‘xtatgan, haddan ziyod gavjum bo‘lgan zal qarsak chalib olqishlardi uni. – Biznikilar juda kam ko‘rinadi-ku bu yerda, – astagina gapirdi Nikolay.

Qarsak va qiyiqiriqlardan quloqlari bitib, ular ostonada to‘xtab qolishdi. Yaltiroq qora kostyum kiygan kishi zalning etak tomonidan ular yoniga tezgina yetib keldi:

– Marhamat, pan ofitserlar, marhamat. Mana bu tomonga marhamat qilinglar.

U zich qo‘yilgan stollar va o‘tirganlar orasidan ularni chaqqonlik bilan olib o‘tdi. Koshindan yasalgan pechka orqasida bo‘sh stol bor ekan, leytenantlar o‘sha yerga o‘tirishdi va o‘zlariga begona bo‘lgan bu manzarani qiziqib kuzata boshlashdi.

– Nima uchun bizni ofitserlar deyapti? – norozi ohangda shivirladi Kolya.

– Ofitser, yana buning ustiga pan emish! Burjuyning o‘zi-ku bu!

– Menga desa xurmacha demaydimi, ishqilib pechkaga tiqib yubormasa bo‘lgani, – muloyimgina kuldi leytenant Nikolay. – Bu yerning odamlari, Kolya, juda omi.

Yiltiroq qora kostyum kiygan kishi ulardan buyurtma olguncha, Kolya hech bo‘lmasa biron iborani anglashga harakat qilib zaldagi gap-so‘zlarga taajjublanib quloq soldi. Lekin bu yerdagilar qandaydir tushunib bo‘lmaydigan tilda so‘zlashishardi. Bu holat Kolyaning g‘ashini keltirdi. Bu gapni do‘sti bilan endi o‘rtoqlashaman deb turgan edi, orqa tomondan rus tilida aytilayotgan g‘alati gap eshitilib qoldi:

– Kechirasizlar meni, minba’d kechirasizlar, ammo men mana shunday shim kiyib ko‘chada yurishni aslo tasavvur eta olmayman.

– U mana shunday shim tikishni yuz ellik foiz bajargani uchun hurmat bayrog‘ini olgan.

Kolya o‘girildi: qo‘shni stolda uchta mo‘ysafid o‘tirardi. Ulardan biri Kolyanipg qaraganini sezib, miyig‘ida kuldi:

– Salom, o‘rtoq komandir! Biz ishlab chiqarish planini muhokama qilyapmiz.

– Salom! – dedi Kolya xijolat chekib.

– Rossiyalikmisiz? – so‘radi sermulozamat qo‘shni va kutmasdan yana davom etdi: – Tushunaman, tushunaman, albatta: moda shunday. Moda bu – musibat, rasvogarchilir, dahshatli zilzila, lekin baribir tabiiy bir hol, shunday emasmi? Ammo ellikta sifatli shim tikish o‘rniga yuztasini sifatsiz tikib, mana shuning evaziga hurmat bayrog‘ini olishni, meni yuz karra, ming karra kechirasizlar-u, nima deb atashni ham bilmayman. O‘rtoq yosh komandir, mening fikrimga qo‘shilasizmi?

– Ha, – dedi Kolya. – Ya’ni demoqchimanki, faqat...

– Marhamat qilib, ayting-chi, – so‘radi ikkinchi mo‘ysafid, – germanlar haqida nimalar gapirishyapti sizlarda?

– Germanlar haqidami? Hech narsa. Germaniya bilan bizning mamlakatimiz o‘rtasida tinchlik bitimi tuzilgan...

– Ha, – deyishdi qo‘shni stoldagilar. – Germanlarning Varshavaga kelishi es-hushini yo‘qotmagan har bir kishiga ayon edi. Lekin ular Moskvaga borishmaydi.

– Nima deyapsiz o‘zi, nimalar deyapsiz!

Qo‘shni stoldagilar birdan notanish tilda o‘zaro gaplashib ketishdi. Kolya ularning gapini muloyimlik bilan biroz eshitib turdi va hech narsa tushunmagach, o‘g‘irilib oldi.

– Ruschani tushunishar ekan, – shivirlab dedi u.

– Men aroq buyurtirdim, – dedi leytenant Nikolay. – Bugungi uchrashuvimiz sharafiga qittak otamizmi, Kolya?

Kolya ichmayman deb aytmohchi edi-yu, boshqa bir uchrashuv esiga tushib, aytishga tili bormadi.

Valya va Verochka haqida, albatta, ko‘proq Valya haqida leytenant Nikolayga hikoya qilib berdi.

– Aytganingdek, kelib qolsa ham ajab emas, – dedi Nikolay. – Faqat bu yoqqa kelishga ruxsatnoma kerak.

– Ruxsatnoma so‘rayman.

– Davrangizga qo‘shilishga ruxsat eting?

Stol yonida bo‘ychan tankchi – leytenant turardi. U qo‘l berib so‘rashib, o‘zini tanishtirdi:

– Andrey. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni olib ketgani voyenkomatga ketayotgan edim, yo‘lda aylanishib qolib kechikdim. Endi dushanbagacha kutishga to‘g‘ri keladi...

U yana nimalarnidir gapirayotgan edi, qo‘llari uzun kishi skripkani ko‘tarib engagiga keltirishi bilan kichkina zal jimjit bo‘lib qoldi.

Qo‘llari uzun, beo‘xshov, g‘alati imo qilayotgan bu kishining qanday musiqa chalayotganini bilmasdi Kolya. U musiqaning yaxshi yoki yomon ekanligi haqida o‘ylamasdi, tomog‘iga biron narsa tiqilib qolayotgandek bo‘lib butun vujudi bilan tinglardi. U hozir ko‘zlaridan yosh chiqib ketsa ham uyalmasdi, ammo o‘sha ko‘z yoshlari endigina chiqay-chiqay deganda skripkachi chalishdan to‘xtadi. Kolya asta xo‘rsinib, miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Sizga yoqdimi? – qo‘shni stolda o‘tirgan mo‘ysafid astagina so‘radi. – Bu bizning Ruvim Svitskiy. Brestda bundan zo‘r skripkachi yo‘q va hech qachon bo‘lmagan. Agar qaysi to‘yda Ruvim skripka chalsa, o‘sha kelin baxtli bo‘ladi. Bordi-yu, azada chalsa bormi...

Agar azada chalsa nima bo‘lishini Kolya bila olmay qoldi, chunki ularga qarab: «Jim o‘tiringlar» deb shivirlashdi. Mo‘ysafid bir necha bor boshini qimirlatib qo‘ydi, jim o‘tirib tingladi va Kolyaning qu-log‘iga asta shivirladi:

– Ruvim Svitskiy degan nomni yodingizda tuting. Oltin barmoqli, oltin quloqli va oltin qalbli, o‘zi o‘qib o‘rgangan skripkachi Ruvim Svitskiy...

Kolya to‘xtovsiz qarsak chalardi. Stolga yengil taom keltirishdi, leytenant Nikolay qadahlarini to‘latib, past ovoz bilan dedi:

– Musiqa – bu yaxshi narsa. Lekin sen gapga quloq sol.

Kolya ular yoniga kelib o‘tirgan tankchiga savol alomati bilan qaradi.

– Kecha uchuvchilarga ta‘tilni bekor qilishdi, – astagina gapirdi Andrey. – Chegarachilar Bug daryosining narigi qirg‘og‘idan har kuni kechasi motorlarning guvillagan ovozi kelayotganini aytishibdi. Tanklar, tyagachlarning ovozi emish.

– Juda g‘alati gaplar-ku. – Nikolay qo‘liga qadahni oldi. – Bugungi uchrashuv uchun.

Hammalari ichishdi. Kolya shosha-pisha o‘zini ovqatga urdi va og‘zida ovqati bilan so‘radi.

– Provakatsiya emasmikin?

– Bundan bir oy avval biz tomonga bir arxiyepiskop o‘tibdi, – asta gapida davom etdi Andrey, – uning aytishicha, nemislar urushga tayyorlik ko‘rayotgan emish.

– Axir, TASS e‘lon qilgan rasmiy bayonotda...

– Sekin, Kolya, sekinroq, – iljaydi Nikolay.

– TASS – Moskvada. Bu yer esa Brest.

Iссиq ovqat keltirilishi bilan ular nemislarni ham, TASSni ham, chegara va undan o‘tib kelgan arxiyepiskopni ham unutib, ovqatlanishga tushib ketishdi. Kolyaning arxiyepiskop haqidagi gapga mutlaqo ishongisi kelmasdi, shu boisdanki, harqalay arxiyepiskop nima bo‘lganda ham ruhoniyy edi.

So‘ng skripkachi yana musiqa chala boshladi. Kolya ovqatni bir chekkaga surib qo‘yib musiqa tingladi.

U o‘qtin-o‘qtin qattiq qarsak chalib qo‘yardi. Hamrohlari ham musiqa tinglashardi, ammo ular ko‘proq kechalari eshitilayotgan g‘alati ovozlari, nemis uchuvchilarining chegarani tez-tez buzib turishlari haqida bir-birlariga shivirlab gapirishardi.

– Urub tushirish mumkin emas: buyruq shunday. Qarab turaveramiz...

– Chalishni boplayaptimi?! – zavqlanib dedi Kolya.

– Chalishni-ku, boplayapti-ya... Nazarimda nimadir bo‘ladigandek. Lekin nima? Bu savol hozircha javobsiz.

– Parvo qilma, javob bo‘ladi, – kulib dedi Nikolay va qadahni qo‘liga oldi. – O‘rtoq leytenantlar, shu qadahni har qanday savolga javob berish uchun ko‘taramiz!

Qorong‘i tushib zalning chiroqlari yoqildi. Elektr quvvati notekis kelayotganidan bo‘lsa kerak, lampochkalar lipillab devorda turli soya-lar hosil qilardi.

Leytenantlar qanday taom buyurtma qilishgan bo‘lsa, hammasini paqqos tushirishdi. Nikolay yiltiroq kostyum kiygan kishi bilan hisob-kitob qila boshladi.

– Yigitlar, cho‘ntak kovlamanglar, bugun sizlarni men mehmon qildim.

– Sen qal‘aga ketmoqchisan nazarimda? – so‘radi Andrey. – Hozir u yoqqa borishni maslahat bermayman, Kolya: birinchidan – qorong‘i, ikkinchidan – ancha uzoq. Yaxshisi men bilan voyenkomatga yur, o‘sha yerda tunaysan.

– Harbiy komissariatda nima bor? – dedi leytenant Nikolay. – Yaxshisi vokzalda yurib chiqamiz, Kolya.

– Yo‘q, unisi ham, bunisi ham menga to‘g‘ri kelmaydi. Bugungi kun hisobi bilan qismda bo‘lishim kerak.

– Bekor qilyapsan, leytenant, – uf tortdi Andrey. – Qorong‘i tushdi, qo‘lda chamadon bilan shaharning bu boshidan u boshiga...

– Yonimda qurolim bor, – dedi Kolya.

Ular ehtimol Kolyani qolishga ko‘ndirishardi ham: Kolyaning o‘zi ham yonida quroli bo‘lishiga qaramay ikkilana boshlagan edi. Agar ko‘ndirishganda Kolya yo voyenkomatda, yoki bo‘lmasam vokzalda tunagan bo‘lardi. Ammo xuddi shu payt qo‘shni stoldagi mo‘ysafid ular yoniga keldi:

– Minba‘d uzr, o‘rtoq qizil komandirlar, minba‘d uzr. Mana bu yigitchaga bizning Ruvim Svitskiy juda yoqib qolipti. Ruvim hozir ovqatlangani, shunday bo‘lsa ham men u bilan gaplashdim, u siz uchun maxsus ko‘y chalib berishini aytdi...

Shunday qilib, Kolya hech qayoqqa ketmadi. Skripkachi uning uchun maxsus kuy chalib berishini kutib o‘tirdi. Tunaydigan joy masalasini hal qilish zarurligi tufayli leytenantlar ketadigan bo‘lishdi. Ular Kolyaning qo‘lini qattiq qisib xayrlashar ekan, unga qarab kulib qo‘yishdi va qorong‘i tun qo‘yniga odimlashdi: Andrey Dzerjinskiy ko‘chasidagi voyenkomatga, leytenant Nikolay bo‘lsa, odamlar bilan gavjum bo‘lgan Brest vokzali tomon yurib ketdi. Ular mana shu qisqa

yoʻz tuni qoʻyniga, goʻyo abadiylik sari ketganday gʻoyib boʻlishgan edi.

Restoranda odam siyraklasha boshladi, lang ochilgan derazalar ortida shabadasiz timqorongʻi tun sūzib yurardi: Brest shahri uyquga keta boshlagan edi. Toʻgʻri va ravon koʻchalar kimsasiz boʻlib qoldi, siren va yasmin gullaridan hosil boʻlgan jonli devor ortidagi porlab turgan chiroqlar ham oʻchdi, faqat onda-sonda uchraydigan foytunlarining tosh yoʻldan jaranglab chiqayotgan ovozi eshitilardi. Sokin shahar asta-sekin eng qisqa va osoyishta tun qoʻyniga choʻmib borardi...

Kolyaning biroz boshi aylandi, hozir uning koʻziga: restorandagi asta-sekin pasayib borayotgan gʻala-gʻovur ham, deraza yonigacha suzib kelgan dim havoli qorongʻilik ham, shaxsan unga – leytenant Plujnikovga kuy chalib bermoqchi boʻlgan beoʻxshov skripkachingi kuyi ham, hammasi goʻzal koʻrinardi. U faqat bir narsa haqida oʻylardi: musiqachi unga maxsus kuy chalgani uchun haq toʻlashi kerakmi yoki yoʻqmi? Kolya oʻzicha fikrlab shunday xulosaga keldiki, xayrli ish, ezgulik uchun haq toʻlanmaydi.

– Salom oʻrtoq komandir, – skripkachi astagina kelgani uchun Kolya oʻrnidan sapchib turdi va nimalardir deb gʻudurladi. – Sizning Rossiyadan kelganingizni, mening skripkam sizga yoqib qolganini Isaak aytdi menga.

Ruvim qoʻliga skripka va kamonni ushlagan holda koʻzini pirpiratardi. Kolya buning boisini unga tikilib turib angladi. Svitskiyning chap koʻzini oqimtir parda qoplagan ekan.

– Rus komandirlariga nima yoqishini men juda yaxshi bilaman. – Skripkachi keskin harakat bilan skripkani engagiga qisib kamonni koʻtardi.

Ruvimning uzun-uzun barmoqlari harakatga kelib, kamon skripka simlari ustidan mayin yura boshladi. Zal yana suv quygandek jimib qoldi, nooʻrin ovoz chiqarib koʻziga oq tushgan beoʻxshov skripkachingini hech kim ranjitgisi kelmasdi. Skripka goʻyo nola qilardi. Musiqa ohanglari Nikolayning qalb torlarini chertgandek boʻldi, uning yana yigʻlagisi keldi, lekin bu safar ham Svitskiy uning koʻzida yosh paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymadi. Kolya faqat astagina xoʻrsinib, mayin jilmayardi, xolos.

Svitskiy «Qora koʻzlar», «Koʻzlari qora» degan kuylarni va yana Kolya birinchi bor tinglayotgan ikkita yangi kuy chaldi. Soʻnggi kuy, ayniqsa salobatli va tantanavor edi.

– Musiqa avtori Mendelson, – dedi Svitskiy. – Musiqani juda yaxshi tinglar ekansiz. Rahmat.

– Biron so‘z aytishga o‘jizman...

– Siz qal‘aga borasizmi?

– Ha, – duduqlanib to‘g‘risini aytdi Kolya. – Kashtan ko‘chasi...

– Drojkach yollash kerak – kulib dedi Svitskiy. – Sizlar uni izvoschi deysizlar. Istanangiz kuzatib qo‘yaman, mening jiyanim ham qal‘aga boradi.

Svitskiy skripkasini g‘ilofga joyladi, bo‘shab qolgan garderdan Kolya chamadonini oldi va ular ko‘chaga chiqishdi. Ko‘cha jimjit, hech kim yo‘q edi.

– Chap tomonga yuring, – dedi Svitskiy bino burchagiga yetishganda. – Mirrochka mening jiyanim. Bir yildan buyon komandirlar ovqatlanadigan oshxonada oshpaz bo‘lib ishlaydi. Mirrochkani haqiqiy talant desa bo‘ladi, u tayyorlagan taomlardan tatib ko‘rmabsiz, olamga kelmabsiz. Turmushga chiqsa ham ro‘zg‘orni yolchitadi-da bizning Mirrochka...

– Mehmonni zeriktirma. U-bu narsalarni ko‘rsatib ket, deb aytildi-yu, senga. Meni kechirasiz-u, bizning shahrimiz Brest-Litovskda mehmonga nimani ham ko‘rsatish mumkin? Qal‘animi? Mehmonning o‘zi o‘sha yerga ketyapti. Kanalnimi? Uni ertaga kunduz kuni ko‘radi. Brest-Litovskda bulardan boshqa yana nima bor o‘zi, pan ofitser?

Kolya, birinchidan, hech qanday pan emasligini, ikkinchidan, ofitser emas, Qizil Armiyaning oddiy bir komandiri ekanini endi aytmoqchi bo‘lganda, foytun to‘satdan to‘xtadi.

– Agar shaharda mehmonga ko‘rsatadigan hech vaqo bo‘lmasa, unda nimani ko‘rsatish kerak? – o‘rindiqdan tushar ekan, so‘radi foytunchi. – U holda maqtovini keltirib bironta stolbani ko‘rsatiladi. Sen ham, Mirrochka, mehmonga bironta simyog‘ochni ko‘rsata qol.

– Voy! – burchakdan zo‘rg‘a xo‘rsingan ovoz eshitildi. – Men-a?.. Balki o‘zingiz ko‘rsatarsiz Mixas amaki?

– Mening boshqa ishlarim bor. – Foytunchi ot yoniga o‘tdi. – Bu tun sen bilan yugurib-yelamiz, qariya, so‘ng ertaga dam olamiz...

Qiz o‘rnidan turib, zinapoya tomon beo‘xshov qadam tashladi; foytun qimirlab Mirrochka yiqilib ketay deganda Kolya uning qo‘lidan tutib qoldi.

– Rahmat, – Mirra boshini pastga yana ko‘proq engashtirdi. – Yuring, ketdik.

Kolya hech narsaga tushunmay uning ketidan pastga tushdi. Chor-
raha bo‘m-bo‘sh edi. U har ehtimolga qarshi to‘pponcha g‘ilofini
ushlab qo‘ydi va qizga qaradi: u sezilarli darajada oqsoqlanib yo‘lka
bo‘ylab tiklangan boshqa bir to‘siq tomon ketardi.

– Mana, – dedi qiz. Kolya uning yoniga keldi: pastak tosh: to‘siq
yonida ustun turardi.

– Nima bu?

– Bilmadim. – U alohida urg‘u bilan gapirgani uchun uyalar-
di. – Bu yerga qal‘a chegarasi to‘g‘risida yozilgan. Lekin hozir
qorong‘i.

– Ha, hozir qorong‘i.

Bir-birlaridan uyalishganidan ular oddiygina toshni haddan ziyod
diqqat bilan kuzatishdi. Toshni ushlab ko‘rar ekan, hurmat bilan ga-
pirdi Kolya;

– Qadimiy tosh.

Ular yana jim bo‘lib qolishdi. Foytunchi chaqirgandagina ikkovla-
ri dam yengil nafas olishdi.

– Pan ofitser, marhamat qiling!

Qiz oqsoqlanib foytun tomon yurdi. Kolya uning ketidan bo-
rardi, zinapoya yoniga borganda darrov idrok qildi va foytunga
dastlab o‘zi chiqib qizga qo‘lini cho‘zdi. Foytunchi o‘z o‘rniga
o‘tirib olgan edi.

– Endi qal‘aga ketdikmi, pan ofitser?

– Men pan emasman deb aytdim-ku sizga! – cho‘kkan prujina-
larga tap etib o‘tirar ekan, jahl bilan gapirdi Kolya. – Menga o‘rtoq
deb murojaat eting, o‘rtoq leytenant deng, tushudingizmi?!

– Pan emasman deysizmi? – Foytunchi tizginni siltab, labini
cho‘pillatgan edi, ot astagina yurib ketdi.

– Hamonki, siz mening orqamda o‘tiribsizmi, demak pansiz,
chunki xohlagan paytingizda orqamdan tushirib qolishingiz mumkin.
Mana men, otning orqasida o‘tirib ketyapman, uni xohlagan paytim-
da qo‘limdagi qamchin bilan tushirishim mumkin, demak, men otga
nisbatan panman. Dunyo o‘zi shunday yaratilgan: pandan keyin pan
turadi...

Foytun endi yirik toshlar terilgan tosh yo‘ldan ketayotgani uchun
o‘rindiq u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi, shu boisdan bahsni davom

ettirishning iloji bo'lmadi. Kolya chamadonini oyoqlari orasiga qisib, o'zi o'tirgan burchagidan sal jilmaslikka harakat qilar, cho'kib ketgan o'rindiqda to'xtovsiz chayqalardi.

– Kashtan ko'chasi, – dedi qiz. Foytun uni ham to'xtovsiz chayqaltirardi. Temir yo'lni kesib o'tgandan keyin uylar siyraklashib, ko'cha bora-bora kengayardi, osma chiroqlar esa mutlaqo yo'q edi. Ammo tun ancha yorug' bo'lgani uchun ot o'ziga tanish, yura-verib, o'rganib qolgan yo'ldan tezgina yo'rtib ketdi.

Kolya qal'aga yaqinlashganda o'zicha Kreml devorlariga o'xshagan joyni ko'raman deb o'ylagan edi. Unday bo'lib chiqmadi. Foytun ko'rimsizgina bir joyga kelib to'xtadi.

– Yetib keldik, pan ofitser.

Qiz foytundan tushguncha, Kolya shosha-pisha foytunchiga besh so'm uzatdi.

– Juda badavlatmisiz deyman, pan ofitser? Yo katta bog'ingiz bor-u, pulni oshxonangizda yasaysizmi?

– Nega unday deysiz?

– Kunduz kuni shu yoqqa odam olib kelsam qirq tiyin olaman. Tun bo'lgani uchun mayli sizdan bir so'm ola qolay. Mana besh so'mingizni oling-da, menga bir so'm bering, men qayta qolay tez-roq.

Mirrochka chetga o'tib Kolyaning foytunchi bilan hisob-kitob qilishini kutib turdi.

Kolya xijolat bo'lib besh so'mlikni cho'ntagiga tiqdi va o'zicha g'o'ldirab uzoq vaqt bir so'mlik qidirdi:

– Ha, albatta, albatta... Kechirasiz... hozir...

Nihoyat bir so'mlik topildi. Kolya foytunchiga yana bir bor minnatdorchilik bildirdi va chamadonini olib qizning yoniga keldi.

– Bu yerdan qayoqqa boriladi?

– Bu yer kontrol-tekshiruv punkti, ya'ni KPP. – Yo'l yoqasidagi budkani ko'rsatdi u. – Hujjatlarni ko'rsatish kerak.

– Qal'aga keldikmi darrov?

– Ha, keldik. Aylanma kanal ko'prigidan o'tsak, shundaygina shimoliy darvoza yonidan chiqamiz.

– Qal'a! – Kolya miyig'ida kulib qo'ydi, – men qal'ani nihoyatda baland minorali bo'ladi deb tasavvur qilardim. Brest qal'asi shu ekan-da!..

Kontrol-tekshiruv punktida Kolyani to'xtatishdi. Soqchi komandirovka qog'ozi bilan o'tkazib yuborishni istamadi. Qizni esa o'tkazib yuborishdi, shuning uchun ham Kolya o'jarlik qila boshladi:

- Razvodyashiyini chaqiring.
- O'rtoq leytenant, hozir u uxlayapti.
- Razvodyashiyini chaqiringlar deyapman!

Nihoyat ular yoniga uyqudan qovoqlari salqigan serjant keldi. U og'zini kappa-kappa ochib, Kolyaning hujjatlarini uzoq tekshirdi:

- Juda kech kelibsiz-ku, o'rtoq leytenant.
- Ishlar ko'payib ketdi, – noaniq tushuntirdi Kolya.
- Siz qal'adagi orolga borishingiz kerak ekan-ku...
- Men kuzatib qo'yaman, – astagina gapirdi qiz.
- Sen kimsan? – serjant oliftagarchilik uchun fonarini yoqdi. –

Senmisan, Mirrochka, navbatchilikka kelyapsanmi?

– Ha.

– Mayli, sen o'zimizning odamsan. O'rtoq leytenantni 333-polk kazarmasiga boshlab borgin: u yerda komandirovkaga kelganlar uchun dam olish xonasi bor.

– Men o'z polkimga borishim kerak, – vazminlik bilan dedi Kolya.

– Hammasini ertalab aniqlaymiz, – homuza tortdi serjant. – Kechning shovlasidan ertaning nasibasi yaxshi...

Tepasi qubbali, pastakkina darvozani bosib o'tib ular qal'aga kirishdi: qal'aning dastlabki aylanma chegarasi – chirmovuq o'tlar yopishib o'sgan devor va uning yonidan oqib o'tadigan kanal ortda qoldi.

Hammayoq jimjit bo'lib, faqat allaqayerdan qandaydir bo'g'iq ovoz va otlarning beozorgina kishnagani eshitilardi. Aravalar, palatkalar, mashinalar va pichan g'aramlari g'ira-shirada arang ko'rinib turardi. O'ng tomondagi polk minomyotlari batareyasining taxminiy shaklini zo'rg'a anglab olish mumkin edi.

– Jimjitlik, – shivirlab dedi Kolya. – Bironota ham odam ko'rinmaydi.

– Tun yarim bo'ldi-da. – Qiz kulib qo'ygan bo'lsa kerak. – Undan keyin hozir deyarli hamma lagerga ko'chgan. – Chiroqlarni ko'ryapsizmi? Bular – komandirlar turadigan uylar. O'sha uylardan

menga bitta xona va'da qilishgan, bo'lmasam shahardan qatnashga uzoqlik qilyapti.

Qiz garchi oyog'ini sudrab bosayotgan bo'lsa ham, yengil yurib orqada qolmaslikka harakat qilardi. Kolya, tun uyqusiga cho'mgan qal'ani kuzatar ekan, beixtiyor ilgarilab ketar, qiz esa unga yetib yuraman deb qiynalardi. Kolya birdan sekin yura boshladi va noxush suhbat mavzuini almashtirish maqsadida vazminlik bilan so'radi:

– Bu yerda umuman turarjoy masalasi qanday? Siz bilmaysizmi, komandirlarga uy berisharmikin?

– Ko'plarga berishadi.

– Olish qiyin emasmikin?

– Yo'q, qiyin emas. – U Kolyaga yon tomondan qaradi. – Oilangiz bormi?

– Yo'q, oilam yo'q, – Kolya bir zum indamay qoldi. – Xizmat uchun qulay bo'ladimi deyapman-da...

– Shahardan sizga bir xona topib berishim mumkin.

– Rahmat, minnatdorman. Bu shoshadigan masala emas, keyinroq hal etsak ham bo'ladi...

Qiz birdan to'xtab, daraxt shoxini egdi.

– Siren. Gullab bo'lgan bo'lsa ham hid taratyapti.

Kolya chamadonini yerga qo'ydi va dimog'ini daraxt shoxiga rasmana olib borib hidladi. Ammo daraxt bargida yoqimli hid yo'q edi, Kolya ustalik bilan gapirdi:

– Daraxt ko'p ekan bu yerda.

– Juda ko'p, siren deysizmi, qarag'ay deysizmi, akatsiya deysizmi – hammasidan bor.

Qizning shoshmayotganligi ochiqdan-ochiq ko'rinib turardi. U yurishga qiynalyapti, charchagan, bahona bilan dam olyapti, deb o'yladi Kolya. Nihoyatda sokin va iliq tun edi, bosh bilinar-bilinmas aylanardi. Hozircha uning ismi ro'yxatlarda yo'qligidan, shuning uchun ham hech yerga shoshmayotganidan Kolya mamnun edi.

– Urush haqida Moskvada nima gap bor? – ovozini pasaytirib so'radi qiz.

– Urush? Qanday urush haqida?

– Yaqinda urush boshlanadi deb hamma gapirib yuribdi bizda. Juda yaqinda deyishyapti, – nihoyatda jiddiy gapira boshladi qiz. – Odamlar magazinlardan ko'zlariga nima ko'rinsa sotib olishyapti. Tuz deysizmi, gugurt deysizmi, hech narsa qolmayap-

ti, rastalar bo'shab qolgan. Nemislardan qochib g'arbdan bizga o'tganlar o'ttiz to'qqizinchi yilda ham shunday voqealar bo'lganini aytishyapti.

– Shunday voqealar deb nimani nazarda tutishyapti?

– O'shanda ham magazinlarda tuz, gugurt, mayda-chuydalar qolmagan ekan.

– Mana bu bema'nilikni qarang-a! – asablanib gapirdi Kolya. – Tuz bilan gugurtning nima aloqasi bor bu yerda? Xo'sh?

– Bilmasam, nima aloqasi bor. Lekin har qalay tuzsiz sho'rva pi-shirib bo'lmaydi.

– Sho'rva! – pisand qilmay gapirdi Kolya. – O'z sho'rvalari uchun nemislar g'amlashaversin tuzni. Biz... biz dushmanni o'z yerida adabini berib qo'yamiz.

– Dushmanlar bu haqda bilishadimi?

– Bilib olishadi! – qizning pichingi Kolyaga yoqmadi: bu yerda-gi odamlar shubhali tuyulardi unga. – Sizga nima deb tushuntirsam ekan? Bular hammasi ig'vogarlik maqsadida qilinayotgan uydirma gaplar.

– Tavba! – xo'rsindi qiz. – Ig'vogarlik deyishadimi, boshqa narsa deyishadimi, nima deyishsa deyishaversin, faqat urush bo'lmasa bo'lgani.

– Siz aslo tashvishlanmang. Birinchidan, Germaniya bilan bizning mamlakatimiz o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik haqida shartnoma bor. Ikkinchidan – siz bizning kuch-qudratimizga yetarli baho bera bil-mayapsiz. Harbiy texnikamiz qandayligidan xabaringiz bormi? Men, albatta, harbiy sirni oshkor qilmoqchi emasman, lekin bilishimcha, siz ham maxfiy idorada ishlaysiz-ku.

– Maxfiy oshxonada ishlayman men.

– Buning ahamiyati yo'q, – keskin gapirdi u, – chunki oshxo-nangiz harbiy qismda joylashgan. Tanklarimiz qandayligiga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak...

– Bu yerda hech qanday tank yo'q, bir nechta mayda bronevik mashinalar bor, xolos.

– Nima uchun siz menga bularni gapiryapsiz? – Kolyaning peshonasi tirishdi. – Hali meni yaxshi tanimaysiz-ku, qurol-aslaha to'g'risidagi maxfiy gaplarni gapiryapsiz.

– Bu «maxfiy» gaplarni shahardagilarning hammasi biladi.

– Ming afsus, agar shunday bo'lsa!

– Nemislar ham bilishadi buni.
– Nima uchun siz, ularni ham biladi deb o‘ylaysiz?
– Shuning uchunki... – qo‘l siltadi qiz – Nima, siz ularni ahmoq deb o‘ylaysizmi?! Ta‘bingiz, o‘ylasangiz, o‘ylayvering. Bordi-yu, qal‘adan tashqaridagilarni kaltafahm deb hisoblasangiz, hoziroq yugurib boring-da, bor pulingizga gugurt olib qo‘ying.

– Bu deyman, juda...

Kolya bu noxush suhbatni davom ettirgisi kelmadi, parishonlik bilan atrofga nazar tashladi, atayin homuza tortdi, so‘ng befarqgina so‘radi:

– Mana bu qanday uy ekan?

– Sanchast. Agar dam olib bo‘lgan bo‘lsangiz...

– Menmi?! – tutaqib ketdi u.

– Narsalaringizni arang ko‘tarib kelayotganingizni ko‘rib turibman-ku.

– Bu deyman, juda.. – Kolya hayajon bilan yana o‘sha gapini qaytardi va chamadonini ko‘tardi. – Qaysi tomonga yuramiz.

– Hujjatlarni tayyorlang: ko‘prik yonida yana bitta kontrol-tekshiruv punkti bor.

Ular old tomonga indamay yurib ketishdi. Daraxtlar borgan sari quyuqlashardi: g‘isht yo‘lkaning bo‘yalgan oq chizig‘i qorong‘ida yaqqol ko‘rinib turardi. Orombaxsh sovuq havo esa boshladi: Kolya anhor yoniga yaqinlashayotganini sezib hushyor tortdi, chunki u bundan sal oldin butunlay boshqa xayollar bilan band edi.

Yonidagi oqsoq qizning ko‘p narsadan xabardorligi Kolyaga mutlaqo yoqmasdi. U juda kuzatuvchan, farosatli va tili burro edi. Bu xususiyatlari yaxshi, deb o‘ylardi Kolya. Lekin qal‘ada qancha bronetank kuchlari bor, harbiy qismlar qayerga joylashgan, hatto gugurt va tuz haqidagi ma‘lumotlarni bilishi tasodifiy emasdi, albatta. Kolya mana shu haqida qancha ko‘p o‘ylagani sari, u bilan qanday uchrashgani, shahar bo‘ylab sayr etgani, odamni chalg‘ituvchi uzundan-uzoq suhbatlar – bular bari tasodifan bo‘lmagan deb ishonch hosil qila boshladi. U o‘zining restoranga kirishi va qo‘shni stoldagilarning shim haqidagi g‘alati gaplarini, shaxsan uning uchun musiqa chalib bergan Svitskiyni, uchta leytenantdan faqat uni atayin kuzatishganini birma-bir esladi va vahimaga tushdi. Demak, uch kishi ichidan Kolyani ajratib, kelishib olishgan, musiqa chalib g‘aflatda qoldirishgan uni, so‘ng qandaydir bir qizga qo‘shib qo‘yishgan, mana endi ...

Endi u qizning orqasidan xuddi qo‘yga o‘xshab ergashib ketyapti. Atrof jimjit va qorong‘i, hammayoq daraxt, balki bu yer mutlaqo Brest qal‘asi ham emasdir, hech qanday deyor yoki minora ham ko‘zga tashlanmaydi.

Bu fikrga kelgach, Kolya kiftini bir qimirlatgan edi, qayish tasma unga javob qaytarganday g‘ichirladi. Faqat Kolyaning o‘zigina eshitgan bu g‘ichirlash uni biroz xotirjam qildi. Lekin har ehtimolga qarshi chamadonini chap qo‘liga olib, o‘ng qo‘li bilan to‘pponcha g‘ilofining og‘zini ochib qo‘ydi.

«Mayli, boshlab boraversin-chi, – ham o‘kinch, ham g‘urur bilan o‘yladi u. – Mening hayotim qimmatga tushadi ularga, lekin faqat...»

– To‘xta! Ruxsatnoma!

«Ana, hozir...» – chamadon qo‘lidan taraqlab yerga tushar ekan, o‘yladi Kolya.

– Salom! Bu men, Mirraman. Leytenant men bilan kelyapti. Bizga yangi kelgan: narigi kontrol-tekshiruv punktidan sizga telefon qilishmadimi?

– Hujjatlarni ko‘rsating, o‘rtoq leytenant.

Kolyaga fonarning xira nuri yo‘naltirildi. U biroz engashib chap qo‘li bilan ko‘zini nurdan pana qildi, o‘ng qo‘li esa beixtiyor to‘pponcha g‘ilofi tomon sirg‘aldi.

– To‘xta! Yot yerga! – Kontrol-tekshiruv punktidan qichqirishdi. – Yot deyapman senga, otib tashlayman bo‘lmasam! Razvodyashiy! Bu yoqqa kel! Serjant! Trevoga!

Kontrol-tekshiruv punktidagi soqchi baqirib-chaqirib, hushtak chalib, miltiq zatvorlarini shaqirlatib vahima ko‘tardi, kimdir ko‘prik ustidan hovliqqancha yugurib o‘tdi, Kolya har ehtimolga qarshi yerga muk tushib yotdi.

– O‘zimizning odam bu! O‘zimizniki! – jon-jahdi bilan qichqirardi Mirrochka.

– Qarab tursam to‘pponchasini olmoqchi bo‘ldi, o‘rtoq serjant! Ogohlantirsam ham olmoqchi bo‘lyapti.

– Qani, yuzini yorit-chi! – yerga muk tushib yotgan Kolyaning boshidan-oyoq nur taraldi va serjantning buyruq ohangidagi ovozi eshitildi: – Turing o‘rningizdan, qurolni topshiring!..

– Begona emasman! – yotgan yeridan turar ekan, o‘dag‘ayladi Kolya. – Leytenantman, tushunyapsizmi? Xizmat joyimga kelyapman, mana hujjatlarim, man komandirovkam.

– Begona bo‘lmasang, nima uchun to‘pponchangni olmoqchi bo‘lding?

– To‘pponcha emish-a, orqa cho‘ntagimdan hujjatlarimni olmoqchi bo‘ldim u bo‘lsa «yerga yot», «otib tashlayman», deb do‘q uradi.

– U to‘g‘ri qilgan, o‘rtoq leytenant, – Kolyaning hujjatlarini ko‘zdan kechirar ekan, gapirdi serjant. – Bundan bir hafta oldin qabriston yonida soqchini o‘ldirib ketishdi. Ehtiyot bo‘lgan yaxshi-da.

– Hammasini tushunaman. Lekin shunchalik shov-shuv, vahima qilishning nima keragi bor edi.

Mirrochka o‘zini tutib tura olmadi, chapak chalib piqillab kulib yubordi. U shunday kuldiki, ko‘zlaridan yosh chiqib ketdi. Yo‘g‘on ovozli serjant, vahima ko‘targan soqchi, Kolyaning o‘zi ham, hammalari kutilmagan noo‘rin shov-shuvdan xoxolab kulib yuborishdi.

– Hujjatimni olmoqchi edim-da! Aytdim-ku hali!

Hafsala bilan tozalangan etik, tarang tortilib turgan shim, dazmolangan gimnastyorka – hammasi tuproqqa qorilgan edi. Yerga muk tushib yotgani uchun Kolyaning yuz va burunlari ham changdan oqarib qolgandi.

– Tegmang, tegmang! – Kolya obdan kulib bo‘lib gimnastyorkasining changini qoqa boshlagan edi, qiz uni ogohlantirdi. – Qo‘lda baribir ketmaydi, yopishib qoladi, cho‘tka bilan tozalash kerak.

– Yarim kechada cho‘tkani qayerdan topaman?

– Topamiz! – quvonib gapirdi Mirrochka. – Biz endi ketaveraylikmi?

– Ketaveringlar, – dedi serjant. – Sen, Mirrochka, leytenantni yaxshilab tozalab qo‘y, yana kazarmadagi yigitlar kulib yurishmasin.

– Tozalab qo‘yaman, – dedi u. – Bugun qanday kinofilm ko‘rsatishdi?

– Chegarachilarga «So‘nggi kecha»ni, polkda esa «Valeriy Chkalov»ni qo‘yib berishdi.

– Juda ajoyib film-da!.. – gapga qo‘shildi soqchi. – Chkalov samolyoti bilan ko‘prik ostidan «viz» etib o‘tib ketadi-ya, azamat!

– Esizgina, ko‘rmay qolibman. Mayli, xayr, navbatchilik yaxshi o‘tsin.

Kolya sho‘x soqchilarga bir imo qilib qo‘ydi-yu, chamadonini ko‘tarib Mirrochkaning ortidan ko‘prik tomon yurdi.

– Bu nima, Bug daryosimi?

– Yo‘q, Muxovets daryosi.

– Ha-a...

Ular ko‘prikni va ko‘prik yonidagi peshtoqli darvozani bosib o‘tib, ikki qavatli pastak bino yonidan o‘ng tomonga qayrilishdi.

– Bu yer aylanma kazarma, – dedi Mirra.

Lang ochiq derazalardan uxlayotgan yuzlab odamlarning nafasi sezilib turardi. Kazarmaning g‘ishtdan ishlangan qalin devorlari ortida navbatchining chirog‘i xira shu‘la taratyapti. Jangchilar uxlayotgan ikki qavatli karavotni ham ko‘rdi Kolya. Ularning kiyimi qoidali taxlanib, qo‘polroq tikilgan botinkalari qator qilib terib qo‘yilgandi.

«Mening vzvodim ham qayerdadir, mana shu yerda uxlayotgan bo‘lsa kerak o‘yladi u. – Hademay kechalariyam kelib tekshiradigan bo‘laman...»

Ba‘zi joylarda muk tushib kitob o‘qib o‘tirgan navbatchilarning sochsiz boshlari, bir-birlariga tik suyab qo‘yilgan multiqlar, shuningdek, tong saqargacha «VKP(b) tarixidan qisqacha kurs» kitobining to‘rtinchi bobini mutolaa qilayotgan yoshgina leytenant ko‘rinib qoldi. «Men ham o‘shanga o‘xshab o‘tirsam kerak hali, – o‘yladi Kolya. – Mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish kerak, xat yozish kerak...»

– Bu yerda qanday polk joylashgan? – so‘radi Kolya.

– Voy tavba, men sizni qayoqqa boshlab ketyapman o‘zi? – to‘satdan sekingina kuldi qiz. – Krugom! Mening orqamdan shagom marsh, o‘rtoq leytenant.

Kolya uning hazillashayotganiga ham, jiddiy buyruq berayotganiga ham tushunmay joyida turib qoldi.

– Nega?

– Axir, avval ust-boshingizni tozalashimiz kerak-ku.

Mirra, ko‘prik yonidagi kontrol-tekshiruv punktida bo‘lgan voqeadan keyin tortinchoqlikni ham unutib bemalol gapira boshlagandi, Kolya uning gaplarini aslo qattiq olmas, lozim bo‘lganda hatto unga qo‘shilishib kulardi ham.

– Shunday qilib qayerda savalamoqchisiz meni?

– Orqamdan yuravering, o‘rtoq leytenant.

Ular aylanma kazarma bo‘ylab ketgan so‘qmoq yo‘ldan orqaga qaytishdi.

O‘ng tomonda cherkov va uning orqasida yana qandaydir bir bino ko‘rinib turardi; qayerdandir jangchilarning asta gaplashgani va shu yaqin o‘rtada otlarning pishqirgani eshitilardi. Kolyaning burniga ben-

zin va beda hidi kelib urilishi bilan nihoyat u o'zini haqiqiy harbiy qismdagidek his qildi.

– Nima, oshxonaga ketyapsizmi? – qizning pazandaligini eslab iloji boricha beparvolik bilan so'radi Kolya.

– Shu ahvolda sizni oshxonaga qo'yisharmidi? – quvnoqlik bilan gapirdi qiz. – Biz avval omborxonaga boramiz, Xristya xola ustingizdagi changni yaxshilab tozalaydilar, undan keyin oldimizga non-choy qo'ysalar ham ajab emas.

– G'amxo'rligingiz uchun rahmat, – vazminlik bilan dedi Kolya. – Tezroq polk navbatchisi huzuriga borib, bugungi kun hisobidan kelganimni aytishim shart.

– Haliyam bugungi chislo bilan kelgan hisoblanasiz, chunki shanba tugab, yakshanba boshlanganiga ikki soat bo'ldi.

– Buning ahamiyati yo'q. Asosiy maqsad ertalabgacha ro'yxatdan o'tish, chunki har bir yangi kun tong pallasidan boshlanadi.

– Menda ko'pincha unday bo'lmaydi. Ehtiyot bo'ling, zinapoya bor... boshingizni biroz pastroq egib yuring.

Kolya Mirraning ketidan aylanma, tor zinapoyadan pastga tusha boshladi. Mirra katta bir eshikni ochgan edi, zinapoyaga chiroqning xira shu'lasini tushdi. Shipi ham, devor, zinasi ham tosh va g'ishtdan ishlangan pastakkina gumbaz shaklidagi xona ichini taajjub bilan kuzatib boshladi Kolya.

– Yer osti yo'limi deyman?

– Sklad. – Mirra yana bir eshikni ochib baland ovoz bilan kimgadir murojaat etdi: – Salom, Xristya xola! Men sizga mehmon bo'lib keldim!

Shunday dedi-yu, o'zi chetlanib Kolyani oldinga o'tkazib yubordi. Kolya bo'lsa turgan yerida deysinib, jur'atsizlik bilan so'radi:

– Demak, shu yoqqa, shundaymi?

– Shu yoqqa, shu yoqqa. Yuravering, nimadan qo'rqasiz!

– Qo'rqayotganim yo'q, – jiddiy gapirdi Kolya.

U xira yoritilgan, yarim qorong'i, shipi gumbaz shaklida ishlangan kichkina binoga kirdi. Kuchsizgina yonib turgan uchta lampochka yerto'ladagi qorong'ilikni arang yoritardi. Kolya bino devori va undagi ingichka shinakni, shippa ishlangan maxsus tuynuklarini ko'ra oldi, xolos. Bu yer osti daxmasi salqin bo'lsa ham, lekin nam emasdi. G'ishtdan yasalgan polning ba'zi joylariga qum sepib qo'yishi.

– Xristya xola, mana keldik biz! – eshikni yopar ekan, baland ovoz bilan gapirdi qiz. – Salom, Anna Petrovna! Salom, Stepan Matveyevich! Salom, odamlar!

Uning ovozi yerto‘la gumbazi ostida jaranglab eshitildi va birdan tinib qolmay, yerto‘la devorlariga asta singib ketganday bo‘ldi.

– Salom! – dedi Kolya.

Ko‘z biroz qorong‘ilikka o‘rgangach, Kolya bu yerdagi biri semiz, ikkinchisi uncha semiz bo‘lmagan ikki ayol va temir pechka oldida o‘tirgan mo‘ylovli starshinani payqab oldi.

– Ha, keldingmi, bijildoq, – dedi mo‘ylov kulib. Qoplar, paketlar, konserva bankalari va choy qutilari bilan to‘lib-toshib ketgan katta stol yonida ayollar o‘tirishardi. Ayollar qog‘ozga qarab nimalarnidir tekshirayotganligi tufayli ularning kelganiga uncha e‘tibor berishmadi. Starshina bo‘lsa, o‘zidan yuqori unvondagi ofitser qarshisida odat bo‘yicha tik turish o‘rniga, ustida katta tunuka choynak turgan pechkani xotirjam kovlab ichiga payraha tiqardi.

– Yaxshimisizlar, salomatmisizlar! – Mirra ayollarning yelkasi-dan quchib, yuzlaridan o‘pdi. – Narsalarning hammasini oldinglarmi deyman?

– Men senga qachon kelgin deb aytgan edim? – jiddiy so‘radi semiz ayol.

– Sakkizdan kechikmay kelishing kerak edi. Tong otab deyaptiya, mana endi bugun mijja qoqmaysan.

– Koyimang meni, Xristya xola, birozgina mizg‘ib olsam bo‘l-di.

– Qayerdandir komandirni ergashtiribsan, – qandaydir tushunib bo‘lmaydigan mamnunlik bilan gapirdi ayollarning yoshrog‘i – Anna Petrovna. – O‘rtoq leytenant qaysi polkdan?

– Men hali ro‘yxatda yo‘qman, – vazminlik bilan dedi Kolya. – Hozirgina keldim...

– Kelmay turib, tuproqqa belanganini qarang, – sho‘xlik bilan uning gapini bo‘ldi qiz. – Tep-tekis joyda yiqilib o‘tiribdi.

– Hechqisi yo‘q, bo‘ladi, – dedi starshina xushfe‘llik bilan, u gu-gurt chertgan edi, pechkadagi olov lovillab yonib ketdi.

– Cho‘tka bo‘lganda, – dedi Kolya xo‘rsinib.

– Yerga rosa ag‘anaganga o‘xshaysan-ku, – jahl aralash shang‘illadi Xristya xola. – Bu yerning changi ham qandaydir boshqacha, yopishqoq.

– Yordam berib yubor, Mirrochka, – kuldi Anna Petrovna. – Leytenant seni deb tekis joyda ag‘ananganga o‘xshaydi.

Bu yerdagi odamlar bir-birlariga yaqin tanish bo‘lganlari uchun tortinmay, bemalol gaplashishardi. Kolya buni sezgan bo‘lsa ham, tortinchoqligi tufayli gapga aralashmasdi. Mirra cho‘tkani izlab topdi va burchakda osilib turgan qo‘l yuvgichda suvga yaxshilab chaygach, kattalarga xos ohangda dedi:

– Yuring endi, tozalab qo‘yay siz sho‘ring qurg‘urni...

– O‘zim! – shoshib gapirdi Kolya. – Eshityapsizmi, o‘zim tozalayman!

Lekin qiz pinagini buzmay chap oyog‘i bilan oqsoqlanib eshik tomon yurgan edi, Kolya ham noiloj uning ketidan asta imillab tashqariga chiqdi.

– Bo‘sh kelmaysan, bijildoq! – mamnun bo‘lib gapirdi starshina Stepan Matveyevich. – Juda to‘g‘ri qilasan.

Kolyaning qarshilik qilishiga qaramay, Mirra hafsala bilan tozalardi uni: «Qo‘lingizni ko‘taring!», «O‘giriling!», «Qimirlamay turing!»... deb xitob qilardi qiz. Kolya avvaliga e‘tiroz bildirsa ham, keyin taqdirga tan berib indamay qo‘ya qoldi. Itoatkorlik bilan qo‘lini ko‘tarar, o‘girilar yoki aksincha, jahlini arang bosib joyida indamay qotib turardi. Yo‘q, u hozir o‘zini xohlagan ko‘yga solayotgan qizdan xafa emasdi aslo. Faqat uning ovozdagi buyruq oqangi g‘ashini keltirardi, xolos. Buning ustiga kam deganda bu qizdan uch yosh katta bo‘lsa, komandir, butun boshliq vzvodning taqdiri uning qo‘lida. Hozirgi holatda u emas, go‘yo qiz komandirlik qilayotgandek edi. Mana shunga xafa edi Kolya.

– Nega xo‘rsinasiz, xo‘rsinmang! Men ustingizdagi changni qoq-yapman, siz bo‘lsa xo‘rsinasiz, zararli-ku bu axir!

– Zararli, – boshqa ma‘noda ta‘kidladi u, – shunday zararli-ki!..

Ular o‘sha avvalgi aylanma zinadan skladga qaytib tushishayotganda tong asta yorisha boshlagan edi. Stol ustida faqat non, shakar va krujkalar turar, uning atrofida doira qurib o‘tirganlar katta tunuka choynakning qaynashini kutib bemalol gaplashishardi. Mo‘ylovli starshina va ayollardan boshqa yana ikki kishi bor ekan bu yerda; qovog‘i soliq serjant va mashinkada g‘alati qilib sochi olingan yoshgina qizil askar. Qizil askar to‘xtovsiz homuza tortar, katta serjant bo‘lsa jahl aralash hikoya qilardi:

– Yigitlar bilan kinoga ketayotgan edim, birdan boshliq ushlab olib, Fedorchuk, senda ish bor, deb qoldi. Nima ish ekan, deb hayron bo‘ldim. Keyin aytdiki, avtomatlarni razbor qilgin-da, hamma diskalarini bu yoqqa sug‘urib ol, ichidagi o‘qlarini urib tushir, yaxshilab artib, tozala, yog‘ surt, so‘ng yana yig‘ishtirib qo‘y, dedi. O‘ylab qarasam, bu ishni butun bir rota uch kun dam olmay qilsa ham bajara olmaydi. Men bo‘lsa, bir o‘zimman. Yordamchi bering dedim. Yordamchi desam mana bu jo‘jaxo‘roz Vasya Volkovni berib o‘tiribdi, o‘zi armiya xizmatiga yaqinda kelgan. Hozircha u xomuza tortib uxlashdan boshqa narsani bilmaydi. Gapim to‘g‘rimi, Volkov?

Jangchi Vasya Volkov javob berish o‘rniga hafsala bilan homuza tortdi va kutilmaganda kulib gapirdi:

– Juda uyqu bosyapti.

– Uyqu emish-a! – norozi oqangda gapirdi Fedorchuk. – Uyinga borganda uxlaysan. Bugun, Vasyatka, tonggacha o‘qsochar lentasidan o‘q sug‘urasan. – Tushundingmi? Hozir ozgina choy ichamiz-u, yana ishga kirishamiz. Xristina Yanovna, iltimos, bugun bizdan quruq choyni ayamaysan.

– Zahar qilib damlayman, – qaynab turgan choynakka bir hovuch choy solar ekan, gapirdi Xristya xola. – Picha dam yesin, ana unda choy emas, qaymoq ichamiz. O‘rtoq leytenant, siz qayoqqa ketyapsiz?

– Rahmat, men ichmayman, – dedi Kolya. – Polk navbatchisi yoniga borishim kerak.

– Borasizda, – dedi Anna Petrovna. – Xizmat bo‘lsa qochmaydi.

– Yo‘q, borishim kerak. – Kolya qaysarlik bilan bosh chayqadi. – Hali ham ancha kechikdim: shanba kuni polkda bo‘lishim kerak edi, mana, shanba o‘tib yakshanba ham keldi.

– Hozir shanba ham, yakshanba ham emas, sokin tun, – dedi Stepan Matveyevich. – Tunda navbatchilar ham ozgina mizg‘ib olishlari kerak.

– Keling, yaxshisi stolga yaqinroq o‘tiring, o‘rtoq leytenant, – kuldi Anna Petrovna. – Choy ichamiz, tanishib ham olamiz. Siz qayerdan bo‘lasiz?

– Moskvadan. – Kolya biroz talmovsirab turdi-da, so‘ng stulga o‘tirdi.

– Moskvadanman degin. – Fedorchuk hurmat bilan qo‘lini cho‘zdi unga. – Xo‘sh, u yer qalay?

– Nima?

– Umuman-da.

– Kundan-kun go‘zal bo‘lyapti, – jiddiy gapirdi Kolya.

– Sanoat mollari qanday u tomonda? – qiziqib so‘radi Anna Petrovna. – Bizda juda bemalol, siz buni nazarga olib qo‘ying, o‘rtoq leytenant.

– Sanoat mollarining unga nima keragi bor? – kuldi Mirra stol yoniga o‘tirar ekan. – Bizning mollarimiz umuman kerak emas unga.

– Sen qayerdan bilasan, – boshini chayqadi Stepan Matveyevich. – Bitta quling o‘rgilsin baston kostyum olsa yomonmi?

– Grajdancha kiyimni yoqtirmayman, – dedi Kolya. – Uning ustiga, meni kiyim bilan davlat ta‘minlaydi.

– Ta‘minlaydi, – nima uchundir xo‘rsinib gapirdi Xristya xola. – Otlarni ayil bilan ta‘minlagandek, sizlarni ham qayish kamar bilan ta‘minlaydi. Hammalaring ham xuddi ayili tortilgan otdek yurasizlar.

Ko‘zini uyqu bosgan qizil askar Vasya pechka yonidan stolga – Kolyaning qarshisiga kelib o‘tirdi. U Kolyaga tik qarab o‘qtin-o‘qtin imo qilib qo‘yardi. Kolya uning nigohini xo‘mrayib qarshilar va ko‘zini olib qochardi. Yosh qizil askar esa hech narsadan tap tortmay unga xuddi yosh bolaga tikilgandek tikilardi.

Bamaylixotir otayotgan tong tor tuynuklardan yerto‘laga istamaygina kirib kelar, gumbaz ship ostida biroz to‘plangach, qorong‘ilikni burchak-burchakka astagina haydardi. Sariq lampochkalardan chiqayotgan nur go‘yo qorong‘ilikka singib ketayotgandek. Buning ustiga starshina ularni ham o‘chirib qo‘ygan edi, hammayoqni noxush qorong‘ilik bosdi, bu holdan norozi bo‘lishdi ayollar:

– Zimiston bo‘ldi-ku hammayoq!

– Energiyani tejash kerak, – Stepan Matveyevich vaysay-vaysay chiroqni yana yoqdi.

– Bugun shaharda chiroq o‘chib qoldi, – dedi Kolya. – Avariya bo‘lgan bo‘lsa kerak.

– Bo‘lishi mumkin, – erinibgina ma‘qulladi starshina uning gapini. – Bizniki alohida podstansiya, o‘zimizniki.

– Men qorong‘ilikni yaxshi ko‘raman, – rostini aytdi Mirra. – Qorong‘i bo‘lsa odam qo‘rqmaydi ham.

– Aksincha! – dedi Kolya va xato gapirganini darrov fahmladi. – Ya‘ni men haligi... Qo‘rqish haqida gapirayotganim yo‘q, qorong‘ini har kim o‘zicha ta‘rif-tavsif etadi.

Vasya Volkov yana qattiq ovoz chiqarib homuza tortgan edi, Fedorchuk aftini burishtirib norozi ohangda dedi:

– Qorong‘ilik – muttaham, o‘g‘rilar uchun qulay. Tunni o‘g‘rilik va bosqinchilik uchun yaratgan.

– Yana boshqa narsalar uchun ham, – kuldi Anna Petrovna.

– Ha! – Mirraga imo qilib kulgisini arang bosdi Fedorchuk. – Juda to‘g‘ri gapirding, Anna Petrovna. Bu degan so‘z, o‘g‘irlaymiz deganimi? Shunday deb tushunamiz-da, a?

– O‘g‘irlamaymiz, – dedi starshina. – Yashiramiz.

– Yaxshi ishni yashirmaydilar, – murosasizlik bilan vaysadi Fedorchuk.

– Ko‘z tegishdan, – choynakka qarar ekan, keskin gapirdi Xristya xola. – Yaxshi ishni ko‘z tegishdan yashirishadi, menimcha juda to‘g‘ri qilishadi. Choy tayyor bo‘ldi, olinglar qand bilan.

Anna Petrovna hammaga chaqmoqlangan qand ulashdi. Kolya qandni butunligicha krujkaga soldi, boshqalar esa uni yana mayda bo‘laklarga bo‘lib choy ichishga tayyorlab qo‘yishdi. Stepan Matveyevich choynakni olib hammaning krujkasiga qaynoq suv quydi.

– Nondan olinglar, – dedi Xristya xola. – Bugungi non xamirturishi achimagan, chuchukkina bo‘libdi.

– Gorbushkasi menga! – shoshib dedi Mirra. Gorbushkaga ega bo‘lgan Mirra Kolyaga g‘olibona qaradi. Bolalarga xos bu qiliqqa Kolya uncha e‘tibor bermadi va shuning uchun ham asta kulib qo‘ya qoldi. Anna Petrovna ular ikkoviga shama qilganday o‘zicha kulib qo‘ydi. Uning bu kulgisi Kolyaga yoqmadi.

«Go‘yo men uning orqasidan ergashib yurganday, – Mirra haqida xafa bo‘lib o‘yladi u. – Nimalarni o‘ylab chiqarishmaydi-ya?»

– Margarín yog‘ ham yo‘qmi? – so‘radi Fedorchuk. – Quruq non-choy bilan odamning tinkasi qurib ketadi-ku...

– Qarab ko‘raylik-chi, balki bordir.

Xristya xola yog‘ olib chiqqani yerto‘laga tushib, to qaytib chiqqunga qadar hech kim choyga qo‘l uzatmadi.

Jangchi Vasya Volkov krujkani qo‘liga olar ekan, oxirgi marta homuza tortdi. Endi uning uyqusi qochib ketdi.

– Sizlar choyni sovutmay ichaveringlar – yerto‘lada turib dedi Xristya xola. – Uni topgunimcha...

Tuynuk tashqarisidagi tor teshiklardan havorang alanga yorib kirdi xonaga.

– Nima bu, chaqmoq chaqyaptimi deyman? – taajjublandi Anna Petrovna.

Dahshatli gumburlashdan yer larzaga keldi. Chiroq birdan o'chdi, yorug'lik nuri chaqmoq singari shipdagi tuynuklardan yerto'laga o'qtin-o'qtin kira boshladi.

Devorlar larzaga kelib, shipdagi shuvoqlar ko'chib tusha boshladi, quloqni qomatga keltiruvchi gumbur-gumbur ovozlar orasidan bora-bora og'ir snaryadlarning qattiq portlagani aniq bilina boshladi.

Hamma jim edi. Har kim o'z joyida o'tirganicha boshini shipdan tushgan tuproqdan arang tozalardi. Yerto'laga shiddat bilan otilib kiyayotgan zangori nurdan o'tirganlarning yuzi nihoyatda sarosimali va tashvishli ko'rinardi. Go'yo hamma, to'xtovsiz otilayotgan bo'g'iq to'p ovozini diqqat bilan eshitib o'tirgandek.

– Ombor! – o'rnidan birdan sapchib turib baqirdi Fedorchuk. – O'q-dori ombori portladi! To'g'risini aytyapman! Men u yerda lampani, lampani qoldirgan edim.

Yaqin joyda juda qattiq portlash yuz berdi. Hatto bahaybat eshik ham qimirlab ag'anay dedi, stol o'zidan-o'zi surilib ketdi, shiftdan, devordan tuproq va kesaklar otilib tushdi. Xonaga nafasni bo'g'adigan quyuq tutun kira boshladi.

– Urush! – qichqirdi Stepan Matveyevich. – Bu urush, o'rtoqlar!

Kolya krujkani uloqtirib o'rnidan turdi. Hafsala bilan tozalangan shimga choy to'kildi, lekin u buni sezmad.

– To'xta, leytenant! – starshina uning qo'lidan ushlab qoldi. – Qayoqqa ketyapsan?

– Qo'yvoring! – yulqinib baqirdi Kolya. – Qo'yvoring meni! Polkka! Polkka borishim kerak! Ro'yxatda yo'qman hali... Tushunyapsizmi, mening nomim hali ro'yxatga yozilmagan!

Kolya starshinani itarib yubordi-da, siniq g'isht parchalari bilan to'lib ketgan eshik tomon o'zini otdi. Zinapoyadan yonboshlab o'tib yuqoriga qarab chopdi. Oyoq tagida shuvoq shitirlardi.

Tashqi eshikni portlash to'liqini yulib ketganligidan, to'q sariq bo'lib shu'la taratayotgan yong'inni bemalol ko'rish mumkin edi. Tor koridor allaqachon tutunga, changga va portlovchi moddaning achchiq hidiga to'lgan edi. Yerto'la larzaga kelib, butun atrof ingrayotgan tong – 1941-yilning 22-iyun tongi edi: soat Moskva vaqti bilan to'rtidan o'n besh minut o'tgandi.



IKKINCHI QISM

1

Plujnikov yuqoriga – gurillab yonayotgan notanish qal'aning markaziga yugurib chiqqanida, artilleriyadan hamon o'q yog'ilib turardi, ammo endi o'q otish avvalgidek palapartish emas, ancha mo'tadil bo'lib qolgan, nafas olganda noxush taxirlik sezardi og'zida, orqa tomoniga kimdir ag'darilib tushganini sezgan bo'lsa ham eshitmadi. Uning bo'yni qayrilmasdi, shuning uchun butun gavdasi bilan o'girilishga to'g'ri keldi.

Chuqurlikning yonbag'rida havorang mayka va qora trusik kiygan, boshida pilotkasi bor bir yosh yigit o'tirardi. Uning yuzidan qon oqmoqda edi; u qo'li bilan dam-badam yuzini artib, qon bo'lgan kaftiga taajjublanib qarar va yana artardi.

– Klubda nemislar bor, – dedi u.

Plujnikov uning gapirgan gapining yarmini lab qimirlashidan anglab oldi, yarmini esa eshitdi.

– Nemislar?

– Shundoq, – xotirjam gapirdi jangchi: u ko'proq yuzidan oqib tushayotgan qon bilan ovora edi. – Menga qarab otishdi. Avtomatdan.

– Ko'pmi ular?

– Kim sanabdi deysiz? Menga qarab bir marta otishgan edi, yuzimni jarohatlab oldim.

– O'q tegdimi?

– Yo'q. Yiqilib tushdim.

Bu narsalar haqida bamisoli bolalar cho'zmadan otib o'ynagandek, xotirjam gaplashishardi ular. Plujnikov o'z ahvoli qandayligini bilishga, qo'l-oyoqlarining bor-yo'qligini sezishga harakat qilardi, nimanidir so'rardi-da, ammo o'zi mutlaqo boshqa narsalar haqida o'ylardi, savolga berilgan javobni eshityaptimi yoki yuzi shilingan bu yigitchaning gapini shunchaki anglab olyaptimi, farqiga bormasdi.

– Kondakovni o‘ldirishdi. U chap tomonda yugurib ketayotgan edi, birdan yiqildi. Tutqanog‘i tutgan odamga o‘xshab qaltiradi, oyoqlarini tipirchilatdi. Kecha navbatchilik qilgan qirg‘izni ham o‘ldirishdi.

Jangchi yana nimalarnidir gapirayotgan edi, Plujnikov to‘satdan eshitmay qo‘ydi uni. Yo‘q, u hozir deyarli hamma narsani – otxona yonida mayib-majruh bo‘lgan otlarning alamli kishnashini ham, portlashlarni ham, guvillayotgan yong‘inni ham: uzoqdan kelayotgan otishma ovozlarni ham eshitayotganligi sababli uning gapini eshitmay qo‘ydi. Qizil askar unga nimalarni aytib ulgurgan bo‘lsa, ana shularni o‘zicha mulohaza qilardi u: nemislar qal‘aga bostirib kirishgan, bu esa, haqiqatan ham urush boshlanganini anglatardi.

– ... Ichaklari osilib yotibdi-yu, xuddi nafas olayotganga o‘xshaydi. Xudo haqqi, o‘zidan-o‘zi nafas olayotganga o‘xshaydi!..

Sergap yigitchaning ovozi uning qulog‘iga o‘qdek otilib kirgandek bo‘ldi, o‘zini ancha tutib olgan Plujnikov yigitchaning g‘uldirashiga bir zumda chek ko‘ydi. Yuborilgan polkning nomini aytib o‘zini tanishtirdi va u yerga qanday borish mumkinligini so‘radi.

– O‘qqa tutishadi, – dedi jangchi. – Klubda – sobiq cherkovda o‘rnashib olgandan keyin, avtomatdan otishadi, chunki u joydan ham-mayoq bamisoli kaftdek ko‘rinadi.

– Siz qayoqqa chopib ketayotgan edingiz?

– O‘q-dori keltirgani. Kondakov ikkovimizni o‘q-dori skladiga yuborishgan edi, uni bo‘lsa otib o‘ldirishdi.

– Kim yubordi?

– Qandaydir komandir. Hamma narsa aralash-quralash bo‘lib ketdi, komandir o‘zingnikimi, boshqanikimi, bilmaysan kishi. Avvaliga juda ko‘pchilik bo‘lib yugurgan edik.

– O‘q-dorini qayerga olib borishni buyurishgan edi?

– Klubda nemislar bor, klubda, – shoshmasdan, bolalarga xos soddalik bilan tushuntirardi jangchi. – Qayerga buyurishmasan, bari-bir borib bo‘lmaydi. Tars etib qo‘yib qolishadi...

«Tars etib» degan so‘zni alohida urg‘u bilan aytardi u. Plujnikovni hammadan ham o‘q-dori skladining qayerdaligi ko‘proq qiziqtirardi. Skladni topib avtomat, hech bo‘lmasa uch liniyali oddiy vintovka va kerakli miqdorda o‘q-dori olishni o‘ylardi. Qurol bo‘lsa qal‘aning o‘rtasida joylashib olgan dushmanga qarata otish mumkin, shaxsiy er-

kinlik va ozodlikni ta'minlaydi u, harakat qilish imkonini yaratadi, shu tufayli ham u iloji boricha tezroq qurol topishga shoshilardi.

– O'q-dori skladi qayerda?

– Kondakov bilardi, – dedi istamaygina jangchi. Qotib qolgan bo'lsa kerak, uning yuzidan oqayotgan qon to'xtagan edi, ammo u yuzining tilingan joyini kir barmoqlari bilan dam-badam ushlab qo'yardi.

– Jin ursin! – achchig'landi Plujnikov. – Qayerda bo'lishi mumkin u sklad? Chap tomonimizdamikin yoki o'ng tomonimizdamikin? Qayerda? Axir nemislar qal'aga kirishgan bo'lsa, bizga ro'para kelib qolishlari mumkin, o'ylayapsizmi siz bu tomonini? Pistolet bilan ish bitmaydi.

Uning so'nggi gaplari yigitchani o'ylantirib qo'ydi; u yanog'ida-gi qoraqo'tir bo'lgan yarani yulishdan to'xtab, tashvishli qiyofada bir narsani fahmlagandek, leytenantga tikildi.

– Chap tomonda edi nazarimda. Yugurayotgan paytimizda u o'ng tomonda edi. Yo'q, Kondakov chap tomonga yugurdi. Shoshmay turing-chi, men uning yotgan joyini qarayman.

U qornini yerga berib yotib oldi-da, yuqoriga qarab chaqqonlik bilan emakladi. Yuqoriga chiqib olgach, atrofga bir qaradi-yu, to'satdan jiddiy qiyofaga kirdi, pilotkasini yechib, mashinkada sochi oldirilgan boshini asta tashqariga chiqardi.

– Ana Kondakov, – pastga qaramasdan bo'g'iq ovoz bilan dedi u. – Tamom, endi mutlaqo qimirlamaydi. Yugurgan paytimizda skladga yetishimizga juda oz qolgan edi; ha, ana, ko'ryapman. Skladga bomba tushmaganga o'xshaydi.

Plujnikov yosh qizil askar yonida turtinib-surtinib emaklashni istamasdi, shuning uchun ham u tepalikka qiyalab chiqib bordi va jangchining yoniga yotib atrofga nazar tashladi; haqiqatan ham sal nariroqda halok bo'lgan jangchi cho'zilib yotardi. Uning egnida gimnastyorkasi va galife shimi bo'lib, oyoqyalang, boshida pilotkasi yo'q edi. Uning oq qum ustida yotgan boshi aniq ko'rinib turardi. Bu – Plujnikov o'z ko'zi bilan ko'rgan, halok bo'lgan birinchi jangchi edi. Bu dahshatli hol beixtiyor uning diqqatini o'ziga tortayotgani uchun bo'lsa kerak, uzoq vaqt indamay turib qoldi.

– Kondakov yo'q endi, – xo'rsindi jangchi. – Iriska degan konfetni juda yaxshi ko'rardi. Ammo juda qizg'anchiq edi: bir burda non so'rasang ham bermasdi.

– Xo‘sh, sklad qayerda? – qachonlardir qizg‘anchiq bo‘lgan va iris degan konfetni yaxshi ko‘rgan Kondakov jasadidan arang ko‘zini uzar ekan, so‘radi Plujnikov.

– Huv anovi tepalikka o‘xshagan joyni ko‘ryapsizmi? Faqat uning ichiga qayerdan kirishni bilmayman.

Snaryadlar o‘yib, payhonlab tashlagan ko‘kalamzorning narigi tomonida, sklad yaqinida ulkan bir bino ko‘rinib turardi. Jangchining gapi bo‘yicha, nemislar joylashib olgan klub mana shu bino ekanini darrov tushundi Plujnikov. O‘sha tomondan bo‘lib-bo‘lib otilgan avtomat ovozi eshitildi, ammo o‘q qaysi tomonga otilayotganini tushunib bo‘lmasdi.

– Oq saroyga qarab otishyapti, – dedi jangchi. – Chaproqqa qarang, Injenerlik boshqarmasi bor.

Pastak devor ortida, snaryad hamma tomonini o‘yib tashlagan bino yonida yer bag‘irlab yotgan odamlar va ularning tartibsiz otayotgan o‘q uchqunlarini aniq ko‘rdi Plujnikov.

– Mening buyrug‘im bilan... – duduqlanib qoldi u va yana davom etdi: – ...Kondakov yotgan joygacha yugurib boramiz, boramiz-u, o‘zimizni yerga tashlaymiz, hatto nemislar bizga qarab o‘t ochmasa ham. Tushundingizmi? Diqqat. Tayyorlaning. Olg‘a!

Plujnikov hamon boshi aylanayotgani uchun emas, qo‘rqqanidan ko‘zlari jovdiragan havorang maykadagi mana shu yosh yigitcha ko‘z o‘ngida qo‘rqoq bo‘lib ko‘rinmaslik uchun ham engashmay tik turgan holda yugura boshladi. G‘izillagancha bir nafasda o‘lib yotgan jangchi yoniga yetib bordi, ammo o‘z buyrug‘iga binoan u yerda to‘xtamasdan, o‘q-dori skladi tomon yugurib ketdi. Faqat o‘sha joyga yetib borganda, miyasiga birdan, hozir meni ham otib o‘ldirishadi degan fikr keldi. Orqasidan halloslagancha yosh jangchi yetib kelishi bilan, bir zumda o‘zidan ko‘rquvni haydab, sochini g‘alati qilib oldirgan qizil askarga hatto kulib ham qo‘ydi.

– Namuncha halloslaysan?

Jangchi hech narsa demasdan kulib qo‘ydi. Ikkalovining kulgisi xuddi suvning ikki tomchisidek bir-biriga o‘xshab ketardi.

Ular tepalikni uch marta aylanib chiqishsa ham, uning ichiga kiradigan joyni topisha olmadi. Hammayoq o‘yilib, o‘ydim-chuqur bo‘lib ketgan yo otishma paytida snaryad portlashidan eshik ko‘milib qolgan, yo jangchi yanglishyapti, yoki halok bo‘lgan Kondakov mutlaqo boshqa tomonga qarab yugurgan, xullas, pana joydan chiqib, cherkov qar-

shisidagi shir yalanglikda yana o'sha birgina pistoleti bilan qolganini tushundi Plujnikov. U pastak devor ortidagi Oq saroyga, palapartish otishmalarga havas bilan qaradi: u yerdagilar o'zimiznikilar bo'lgan uchun, zudlik bilan ular yoniga borishni istardi Plujnikov.

– «Uch» deyishim bilan, – qaramasdan gapirdi u. – O'zimiznikilar tomon yuguramiz. Tayyormisan?

– Tayyorman, – xo'rsindi jangchi. – Ular aynan shu tomonni mo'ljallab turishibdi, chiqdik deguncha tars etib qo'yib qolishadi.

– Bizga qarab otishmaydi, – u qadar ishonch bilan gapirmadi Plujnikov.

– Biz qizillarmiz-ku, o'zimiznikilar.

Xuddi bolalik paytidagidek sodda qilib «qizillarmiz» dedi u. Bolalikda oqmi-qizil o'ynashganda, doimo u Chapayev bo'lishga harakat qilardi, ammo hech kim uni Chapayev deb tan olmas, eskadron komandiri Jixaryev rolini o'ynash bilan kifoyalanardi.

Ular yana uning buyrug'i bo'yicha, snaryad portlashidan hosil bo'lgan chuqurliklar, halok bo'lganlar ustidan sakrab, gavdalarini g'oz tutganча yugurib ketishdi.

Olov yiltillagan tomon yugurishar ekan, Plujnikov dam-badam, «o'zimiznikilar», deb qichqirardi. Lekin qarshi tomondan to'xtovsiz otishar, u hatto qulog'i ostidan o'qning vizillab o'tganini bir necha marta aniq eshitdi.

Ularning yana omadi keldi: to'siqqacha yugurib kelib uning ustidan sakrab o'tishdi va yerga muk tushib yiqilishdi. Harqalay endi ular xavf-xatarsiz joyda – o'z odamlari orasida edilar. Gimnastyorkasi iflos bo'lsa ham, tugmalarini hafsala bilan puxta o'tkazgan badjahl katta leytenant achchig'lanib do'q qildi ularga:

– To'xtab-to'xtab, qisqa yugurish bilan yugurish kerak, tushunarlimi? Qisqa yugurish bilan!

Nafasini rostlagach, Plujnikov ma'lumot bermoqchi bo'lgan edi, lekin katta leytenant eshitishni istamadi va uni chap qanotdagi ancha siyrak bo'lgan himoya chizig'iga yubordi. Katta leytenant Terespol darvozasi tomonni alohida diqqat bilan kuzatishni topshirdi unga. Chunki u nemislar shu tomondan yorib o'tgan deb qattiq ishonardi. Plujnikovni vaziyat bilan qisqacha tanishtirgach, uning birona ham savoliga javob bermay, qovog'ini osiltirib qo'shib qo'ydi:

– Serjantning miltig'ini olib, darvozani kuzatasan, tushundingmi? O'zimiznikilar yetib kelguncha chidab tursak bo'lgani ishqilib.

Katta leytenant «o‘zimiznikilar» deb kimlarni nazarda tutayotgani, ular qaysi tomondan kelishi haqida so‘rab o‘tirmadi Plujnikov. Hade-may o‘zimiznikilar kelib, hamma ish ko‘ngildagidek bo‘lishiga uning o‘zi ham ishonardi. Faqat o‘zlarini himoya qilish uchun o‘t ochib chidab turilsa bas.

Chap qanotga kelgan Plujnikov, hech qanday serjantni topa olma-di: qora tutun orasidan goho-goho olovli tilini chiqarib bino burchagi asta-sekin yonmoqda edi. Panjara yonida chala-chulpa kiyingan jang-chilar va Degtyarev qo‘l o‘qsocharini ushlagan ikki jangchi yotardi.

– O‘tni nima uchun o‘chirmayapsizlar? – jahl bilan so‘radi Pluj-nikov.

Hech kim javob qaytarmadi unga: hamma baland suv minorasi to-mondagi darvozaga jiddiy qiyofada diqqat bilan tikilib turardi. Tanbe-hi noo‘rin ekanligini payqagan Plujnikov, o‘qsocharchilardan serjant haqida so‘radi. O‘qsocharchilar boshlig‘i qisqa imo qildi:

– Anovi yerda.

Past bo‘yli kishi to‘zigan etik kiygan oyoqlarini kerib yuztuban tushib yotardi. Uning boshi peshonasi bilan miltiqning mo‘ljalga ola-digan ramkasiga qadalgan bo‘lib, Plujnikov yelkasiga turtgandagina vazmin qimirlardi.

– O‘rtoq serjant...

– U halok bo‘lgan, – dedi chegarachi.

Plujnikov qo‘lini darrov tortib oldi va atrofga nochor alangladi, unga hech kim e‘tibor qilmadi. Murdaga yana qo‘l tekkizishga jur‘at eta olmay, miltiqning stvolidan ushlab torta boshladi, lekin halok bo‘lgan kishi miltiqni qattiq ushlagani bo‘yicha qo‘yib yubormasdi, Plujnikov bo‘lsa miltiqni hamon siltab tortar, har tortganda murdaning peshonasi mo‘ljalga olish ramkasiga do‘qillab tegardi.

– Yana yugurib ketishyapti, – dedi kimdir. – Sakson to‘rtinchi-ning yigitlari.

– Bular musiqachilar, – dedi yana kimdir. – Ularning kazarmasi o‘sha yerda, darvoza yuqorisida...

Klub tomondan bir necha marta bo‘lib-bo‘lib otilgan o‘q ovozlari eshitildi. Plujnikov o‘q qaysi tomonga otilayotganini bilmasa ham, halok bo‘lgan serjant yoniga darrov yotib oldi va jonsiz qo‘ldan uch liniyali miltiqni zo‘r berib torta boshladi. Murda ma‘lum paytgacha qaysi tomonga tortsa o‘sha yoqqa qarab sudraldi, so‘ng jonsiz panjalar birdan bo‘shashib ochilib ketdi va Plujnikov miltiqni olgancha, orqa-

sigga qarashga ham yuragi dov bermay, panjaraning burchagi tomon emaklab ketdi.

Terespol darvozasi yonida bir necha jangchi u yoqdan-bu yoqqa yugurardi: ulardan biri yaraqlatib tozalangan mis karnay ko'tarib olgan, mis karnaydan o'qtin-o'qtin shu'la taralardi.

Nemislar o'qni ayab otishar, musiqachilar dam yiqilib, dam o'rinlaridan turib har tomonga tartibsiz yugurishardi. Plujnikov qoziklarga bog'langan otlarning tipirchilab betoqat kishnashlariga qaradi, so'ng yana darvoza tomonga ko'z tashlaganda, musiqachilar g'oyib bo'lgan edi.

– Ana u, 84-dan! – qichqirdi o'qsocharchining birinchi nomeri bo'lgan chegarachi. – Biz tomonga kelyaptimi deyman?

Aylanma kazarma tomondan qoidali perebejka bilan qizil askarlar yugurib kelishardi. Jangchilar va nemis avtomatchilari otishmani birdan kuchaytirdilar. Yon tomondan degtyar o'qsocharining tarillagan ovozi eshitila boshladi, chegarachilar o'rtoqlarini himoya qilgan holda qisqa navbat bilan kostyol tomon o'q uzishardi.

– O't och! – qichqirdi Plujnikov.

O'zi uchun qichqirgan edi u, chunki buyruq berish nihoyatda zarur edi unga. O't ochishga buyruq berdi-yu, ammo o'zi bir marta ham o'q uza olmadi: serjantning miltig'ida o'q tugagan, Plujnikov jonholatda zatvorni bekordan-bekorga shaqirlatayotgan edi.

– Leytenant, tezroq ayt, diskaga o'q joylashtirishsin! – qichqirdi o'qsochar yonidagi ikkinchi nomer. U qorachadan kelgan, baland bo'yli, gimnastyorkasiga Voroshilovchi mergan znachogini osib olgan edi. – Diskalar tugayapti!

Plujnikov siyrak joylashgan jangchilar yonidan uy tomon yugurib ketdi, katta leytenant hech yerda ko'rinmasdi va u yonayotgan bino yonida miltiqni sudragancha ancha vaqt behuda aylanib yurdi.

– Patronlar! Patronlar qayerda?

– Yerto'ladagilardan so'ra, – dedi yarim yalang'och, boshini bog'lab olgan serjant. – Yigitlar o'sha yerdan qo'rg'oshin tashishgan edi.

Quyuc va achchiq tutun asta-sekin yerto'laga o'rmalab kirayotgandi. Plujnikov ko'zlarini artib va to'xtovsiz yo'talib, paypaslangan holda silliqqlanib ketgan aylanma zinadan yerto'laga tushdi va g'irashira qorong'ilikda yaradorlarni arang ko'rib so'radi:

– Patronlar qayerda?
– Tamom bo‘ldi, – dedi qorong‘ilikdan chiqqan ayol. – Yuqorida nima gap?

Plujnikov bu ovoz egasini nihoyatda ko‘rgisi keldi, ammo u qorong‘ilikka qancha tikilmasin hech narsani aniq ko‘ra olmadi.

– Biz tomonga kazarma tomondan yorib o‘tishmoqchi bo‘lishyapti, – dedi u. – 84-joylashgan tomondan. Katta leytenantni ko‘rmadinglarmi?

– Bu yoqqa keling. yerda odamlar yotishibdi, ehtiyot bo‘ling.

Katta leytenant devor yonida yotardi. Uning ifloslangan gimnast-yorkasi beligacha yirtilib dabdala bo‘lib ketgan. Bint bilan bir amallab bog‘langan ko‘kragidan ozgina bug‘, nafas olganda esa, lablari orasidan qizil ko‘pik chiqardi. Plujnikov tizzalari yerga tirab u tomon engashdi va chaqira boshladi:

– O‘rtoq katta leytenant. O‘rtoq...

– Bo‘ldi, chaqirganingiz bilan foydasi yo‘q endi, – dedi yana avval gapirgan kishi. – Shahardan biznikilar kelib qolisharmikin, hech narsa eshitmadingizmi bu haqda?

– Kelishadi, – o‘rnidan turayotib gapirdi Plujnikov. – Albatta kelishadi, – u yana bir marta u tomon qarab qora figurani xiyol aniqlagach, asta qo‘shib qo‘ydi: – yuqorida yong‘in bo‘lyapti, bu yerdan ketish kerak.

– Qayoqqa? Bu yerda yaradorlar bor-ku.

– Bu yerda qolish xavfli.

Ayol indamay qoldi. O‘q-dori yo‘qligidan, ham komandirning halok bo‘lganiga ko‘proq xafa bo‘lgan Plujnikov tutun bosayotgan yerto‘ladan tashqariga chiqdi. Xona ichiga kiraverishdagi zinapoyalarda turish mumkin bo‘lmay qolgan edi. Hamon zinapoyada o‘tirgan serjant shoshmasdan hafsala bilan qog‘ozga tamaki o‘rardi.

– Yerto‘ladan yaradorlarni olib chiqish kerak, – dedi Plujnikov. – Olov yo‘lni to‘sib qo‘yyapti. U yerda bir ayol ham bor.

– Olib chiqish kerak, – xotirjamlik bilan rozi bo‘ldi serjant. – Lekin qayoqqa? Chor-atrof yonayotgan bo‘lsa.

– Bilmadim. Biron joy topilib qolar...

– Qimirlayverma ko‘p, – uning gapini cho‘rt kesdi serjant. – Katta leytenantni xuddi sen turgan joyda yer tishlatishgan edi.

Plujnikov shoshgancha tashqariga chiqdi. Hovli tomonda otishma to‘xtab, qandaydir ovozlar eshitalardi. Plujnikov o‘q-dori haqida

o'ylab yana serjant yoniga bormoqchi bo'ldi, ammo bu fikrdan tezda qaytib, miltig'ini sudragancha odamlar tomon yugurib ketdi.

Ular muyulishning narigi tomonida sochlari tim qora siyosiy o'rinbosar atrofini o'rab olishgandi. Sochlari tim qora kishi qat'iy ohangda g'azab bilan gapirar, atrofdagilar esa uning so'zlarini qandaydir najot hislari bilan tinglashardi.

– ... Mening buyrug'im bo'yicha, hech yerda to'xtamasdan, hech narsaga chalg'imasdan, faqat olg'a! Klubga bostirib kirib dushman avtomatchilarini yo'q qilish kerak. Vazifa tushunarlimi?

– Tushunarli! – odatdagi sergaklik bilan javob qaytarishdi jangchilar.

– Nima bilan yo'q qilinadi? – ko'rinishdan bularga hozirgina qo'shilganlardan bo'lsa kerak, yoshi xiyla joyga borib qolgan ko'k maykali jangchi qovog'ini osiltirib so'radi. – Miltiqlar nayzasiz bo'lsa, menda hatto o'sha ham yo'q.

– Tishing bilan g'ajib tashla! – ovozini balandlatib dedi siyosiy o'rinbosar. – Ana, g'isht yotibdi, ol qo'linga: bema'ni savolning nima keragi bor hozir?! Asosiy vazifa – hammamiz birgalikda «Ura» deb qichqirib, hech yerda to'xtamay yugurgancha to'g'ri klubga bostirib kirishdan iborat.

– Xuddi kinoga kirgandek, a?! – dedi boshi xuddi bolalarniki singari dumaloq jangchi.

Hamma kulib yubordi, Plujnikov ham kuldi. Kulgi faqat yumaloq boshning gapi uchun emas, hozir hammaning asabi tarang tortilgan, qattiq hayajonlanayotgan bir payt, vazifa aniqlangan, qarshilarida hamma uchun eng qiyin ishni o'z zimmasiga olgan odam turgani uchun ham kulgi ko'tarildi.

– Agar kimda miltiq bo'lmasa, belkurakmi, toshmi, tayoqmi, nima duch kelsa qurollanib olaversin, fashistlarning boshiga qarsillatib so'lishga yarasa bas.

– Boshida kaskasi bor-da! – yana qichqirdi dumaloq bosh: rota qiziqchisi edi u.

– Demak, qattiqroq urish kerak! – kuldi siyosiy o'rinbosar. – O'g'rini ushlab olgan uy egasi uni qanday savalasa, sen ham xuddi ana shunday savalagin. Qurol to'plashga besh minut vaqt beriladi. Hujumga hamma tashlanadi! Kimda-kim chetda qolsa – dezertir sanaladi... – Plujnikovni ko'rib gapidan to'xtadi u : – O'rtoq leytenant, siz qaysi polkdansiz?

– Ro‘yxatda yo‘qman men. Mana komandirovka hujjatim...
– Hujjatlarni keyin tekshiramiz. Polk komissari hujumga rahbarlik qilishni shaxsan menga topshirdi.

– Albatta, albatta! – shoshib uning gapini ma‘qulladi Plujnikov. – Men yuz foyiz sizning ixtiyoringizdaman...

– Siz deraza tomondan hujum qilasiz, – o‘ylab turib dedi siyosiy o‘rinbosar. – Leytenantning ixtiyoriga o‘n kishi o‘tsin.

To‘daning turli joyidan o‘n kishi ajralib chiqdi: ikkala chegarachi, qovog‘i osilgan kishi, rota qiziqchisi, boshi bog‘langan, serjant, mayka, trusikli, yuzlari shilingan yosh jangchi va yana Plujnikov hali tanib ulgurmagan jangchilar. Ular yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatma kutib uning qarshisida tik turishardi. Plujnikov esa nima deyishni bilmasdi ularga. Katta chegarachi degtyar o‘qsocharni bamisoli to‘nkadek ushlab olgandi: o‘qsochar stvoli hali sovumagani uchun, o‘qsocharchining barmoqlari surnay ustida yurgandek yo‘rg‘alardi. Qovog‘i osilgan kishi tamaki chekayotgan serjantga asta shivirladi:

– Jindek qoldirgin, o‘rtoq serjant. Bir tortay.

– Demak, derazadan hujum boshlaymiz, – dedi Plujnikov. – Derazaning oynasi bormi?

– Oynasi yo‘q, chil-chil bo‘lgan, – dedi serjant va qovog‘i soliq kishiga o‘girilib chekayotgan tamakisini uzatdi. – Isming nima seni?

– Familiyam – Prijnyuk, – dedi u tutunni hafsala bilan ichiga tortar ekan.

– Granat bo‘lganda bormi hozir! – xo‘rsinib qo‘ydi qorachadan kelgan chegarachi.

– Duch kelgan narsalar bilan qurollanaveringlar, – dedi Plujnikov. – Kim nima topsa topaversin, faqat tezroq.

Jangchilar har tomonga tarqab ketishdi. Bu yerda faqat ikkita chegarachi qoldi, birining qo‘l o‘qsochari bor, ikkinchisi esa qayerdandir otliq askarlar xanjarini topib olgandi. – yetti uxlab tushga kirmagan ishlar-a, – muloyimgina kuldi birinchi o‘qsocharchi. – Lenka kut-yapti bugun meni. Soat yettida, tasavvur qilasanmi shuni?

– Lenkang hech qayoqqa qochib ketmaydi, – dedi ikkinchi o‘qsocharchi. – Bag‘ringga bosib issiq-issiq o‘pishga ulgurasan hali.

– Qachon? Mana shunisi jumboq...

Kimdir qilich, kimdir belkurak, kimdir temir bilan qurollangan holda jangchilar asta-sekin to‘plana boshladilar. Egasi halok bo‘lgach, Plujnikovga tekkan miltiqning ham nayzasi yo‘q edi.

Ammo u, pistoleti borligi esiga tushib, miltiqni yuzi shilingan jangchiga berdi.

– Keragi yo‘q, – dedi jangchi, sapyorlar belkuragini ko‘rsatib. – Toshda yaxshilab charxladim: balki, avtomat o‘lja olarman.

– Tuya hammomni havas qilganday, ishtoning yo‘g‘-u, avtomat o‘lja olaman deganing qiziq bo‘ldi seni, – dedi chegarachilarning kattasi. – Boshni ehtiyot qil, qolgani bir gap bo‘lar.

Miltiqni Prijnyuk oldi. So‘yilni qo‘lida aylantirgandek u yoq-bu yog‘ini aylantirib ko‘rdi va o‘zicha po‘ng‘illab qo‘ydi:

– Ishlatsa bo‘ladi.

– Derazalarni qanday taqsimlaymiz? – so‘radi o‘qsochar yonida turgan chegarachi. – Birinchisi menikimi yoki siznikimi?

– Birinchisi meniki, – dedi shoshgancha Plujnikov, chunki birinchi raqam baxtli bo‘ladi deb qandaydir ishonch hosil qilgandi o‘zida. – Meniki birinchi deraza...

– Tayyormisizlar? – qichqirdi siyosiy o‘rinbosar. – Biznikilar o‘t ochishi bilan, men sizlarga komanda beraman.

Bamisoli soatlarday bo‘lib tuyulgan bir necha minut o‘tdi yana. Plujnikov tutun achchig‘idan dam-badam yo‘talib, yonayotgan uyning muyulishida turardi. Kafti terlayotgani uchun to‘pponchani u qo‘lidan bu qo‘liga olar va terlayotgan qo‘lini gimnastyorkasiga artib qo‘yardi. Orqa tomonda – o‘qsochar yonida turgan chegarachining nafas harorati va betoqatlanayotgani sezilib turardi.

– O‘tiraveramizmi kutib?

– Sekin, – dedi Plujnikov. – Oddiy hujum bu...

Oddiy emas, haqiqiy hujum bo‘ldi, shu boisdan Plujnikov bolalarcha aytgan gapidan noqulay his qildi o‘zini. Ammo hozir hech kim bu notanish leytenantga ham, uning aytgan gapiga ham e‘tibor bermadi. Faqat jangchilarning tez-tez olayotgan nafasi, temirlarning onda-sonda jaranglashi, g‘isht devor ortidagi alanganing lovullashi va aylanma kazarmaning hamma tomonini mo‘ljallab otilayotgan o‘q ovozlari eshitilardi. Shuningdek, Brestda ketayotgan jangning gumburlagan ovozlari ham kelib yetayotgandi. Bu gumburlashlarni quvonch bilan eshitardi Plujnikov: u yerda bizning odamlar nemislarning adabini berishyapti, o‘sha tomondan hademay yordam kelib qolishi kerak.

Plujnikov yaqindan otilayotgan joyni mo‘ljalga olmoqchi bo‘lardiyu, ammo har safar g‘aflatda qolardi.

U bino muyulishidan beixtiyor otilib olg'a ketayotganda chegarachi yelkasidan tortib to'xtatib qoldi, chunki hali hujumga buyruq berilmagandi. Plujnikov burchak yonidan boshini chiqarib qaragan edi, kazarma derazalaridan bot-bot otilayotgan va kostel' binosi tomondan doira bo'lib taralayotgan o'q uchqunlarini ko'rdi. Xuddi shu daqiqada siyosiy o'rinbosar ovozi boricha qichqirdi:

– Vatan uchun! Olg'a!..

– Olg'a! – to'siqdan sakrab o'tar ekan, qichqirdi Plujnikov.

U ovozinig boricha «Ura!» deb qichqirib, oyoqlari ostiga qaramasdan yugurib borardi. «Ura!» qisqaroq bo'lib qoldi, ammo u og'zini katta ochib nafas oldi-da, yana ovozinig boricha qichqirdi. O'qlar bosh tepasida hushtak chalar, oyoqlar tagida chang chiqarar, omon qolgan daraxt shoxlarini cho'rt-cho'rt uzib tushardi, ammo u kostel devori yoniga birinchilardan bo'lib yetib keldi va unga yopishib oldi, chunki derazadan to'xtovsiz otishmoqda edi. Qayerdandir yaqin joydan uzuq-yuluq, keskin sadolar eshitilar, nimalardir taraqlar, biri olib biri qo'yayotgan avtomatlarning ovozi havo bo'shlig'iga singib ketardi.

– Deraza! – qichqirdi chegarachi. – Deraza deyapman, onangni seni!..

Plujnikovni itarib yuborib, u o'zini ochiq deraza tomon tashladi va zum o'tmay xuddi yosh bolalar singari chinqirib ko'kragi bilan deraza tagiga yiqildi. Plujnikov qorong'i kostelning chaqmoqday yorishgan joyiga ikki marta o'q uzdi va chegarachining namlangan, titrayotgan yelkasiga o'zini tashladi, uning ustidan umbaloq oshib, g'ishtli yerga yiqildi. Ketma-ket otilgan o'q sochlarini kuydirib o'tdi, u to'pponcha tepkisini yana bir-ikki marta bosib, emaklagancha devorga yetib oldi. Yonginasiga jangchilardan kimdir yiqildi, u ham halok bo'lgan chegarachi ustidan o'tib kelgan edi, kimdir Plujnikovning boshiga etigi bilan qattiq tepdi, ammo u o'rnidan sakrab turib orqasi bilan g'isht devorga suyanib olishga ulgurdi.

Tashqaridan qaraganda kostelning ichi qorong'idek tuyulardi. Chang, to'zon ko'tarilgan qorong'ilikda bo'g'ilib, g'azab-la so'kinib mushtlashishar, bir-birlarining bellarini sindirishar, bo'g'ishar, tishlashar, ko'zlarini o'yib olishar, og'izlarini yirtishar, pichoq sanchishar, belkurak bormi, g'isht bormi, miltiqning qo'ndog'i bormi, duch kelgan narsa bilan urishardi. Kimdir yig'lar, kimdir qichqirar, kimdir ing-

¹ Kostyel – polyak katolik cherkovi (tarj)

rar, kimdir so'kinar, hech narsani anglab bo'lmaydigan mudhish bir manzara edi; Plujnikov faqat irjaygan og'izlarni ko'rib, vahshiyarlarcha bo'kirishni eshitardi, xolos.

Bu holat uning ko'z o'ngidan xuddi zumda olingan rasm singari tez o'tdi va dam o'tmay turgan joyidan o'q taralayotgan tomonga – ichkariga otildi. U uzoqdan turib otishni istamasdi, chunki o'q otilyotgan joy bilan uning o'rtasida sharpalar dam yo'qolib, dam paydo bo'lardi. U kimnidir, o'zining odami bo'lsa kerak, turtib yubordi va eng yaqin turgan begona basharaga qarab o'q uzdi, qoqilib ketdi, yerda uyilib yotgan murdalar ustiga yiqildi, zalvorli «TT» to'pponchasi bilan sochi olingan boshning orqa miyasiga tushira boshladi, urgan sari bosh qimirlashi sekinlashar, nochorlashardi, qimirlashdan mutlaqo to'xtaganda esa, Plujnikovning o'zini kimdir shunday qattiq tushirdiki, boshiga tushgan zarbadan ma'lum muddat uning esi og'ib qoldi va mukkasini bilan hozir o'zi tinchitgan nemisning ustiga yiqildi.

U ko'zini ochib, to'pponchasini paypaslab topa olmadi, o'rnidan turay degan edi, tura olmadi, yuzlariga begona qon surkalgan holda yana devor tomon emaklab ketdi. Kalla tik tutib turishga bo'ysunmas, har tomonga og'ib ketayotgandi, u qanday bo'lmasin hushini yo'qotmaslikka, agar hushdan ketgudek bo'lsa kunpayakun bo'lib ketishini zo'rg'a-zo'rg'a fahmlardi. U endi devor yoniga yetay deganda, kimdir uning etigidan ushlab orqaga – qattiq xirillab yotgan askarlar oyog'i ostiga torta boshladi. Bir ilojini qilib orqaga qaragan edi, hammayog'i qonga belanib ketgan basharaga ko'zi tushdi. Uning dabdala bo'lib ketgan jag'ida sog' qolgan tishlari irjayib turar, og'zidan so'lak aralash qon oqar, shishib ketgan tili esa pastga osilib turardi. Bu mudhish holni ko'rgan Plujnikov chinqirib yubordi, nemis bo'lsa yuzida ajal kulgisi bilan uni hamon o'ziga tortardi. Buning o'lim ekanini ajib bir aniqlik bilan his qilgan edi, birdan ter bosdi uni. U hamon chinqirar, nemis bo'lsa qat'iylik bilan xuddi tushdagi singari asta-asta o'ziga tortardi. Ha, darhaqiqat xuddi tushdagidek, unda aslo mador yo'q, kishini aqldan ozdiruvchi qo'rqinchli dahshat yopishib olgandi unga.

Kimdir Plujnikovning ustiga yiqilib tushdi va yalang'och oyog'ini uning engagiga tiragan holda boshidan oyog'i tomonga, nemis tomonga emaklay boshladi. Shu payt nemis uning oyog'ini qo'yib yuborganini va jussasi kichik yarim yalang'och jangchi qorni ustida g'ayritabiiy sakrayotganini sezdi. Bu sakrash qattiq og'riq berardi-yu, ammo endi qo'rqinchli emasdi. Plujnikov jangchining oyog'i

ostidan bir amallab chiqib olib qarasa, bu o'sha – yuzi shilingan jangchi ekan, – u ikki tizzasini yerga tiragancha qo'lidagi kichik belkurak bilan nemisning bo'yniga to'xtovsiz tushirar, tushirgan sari bo'ynini chuqurroq o'yib kirardi. Talvasaga tushgan nemis tirishib yerga yotib qolgan edi.

Jang tugab, ayanchli ingrashlar, qichqiriq va so'kinishlar ham asta pasaya boshladi: hujumga bardosh bera olmagan nemislar kosteldan chiqib qocha boshladilar, qocha olmaganlari esa, qonga belanib ketgan pol ustida so'nggi nafaslarini olishardi.

– Tirikmisiz, o'rtiq leytenant? Men uni belkurak bilan bo'rsiqning bolasidek savaladim!

Plujnikov devor yonida o'tirib olgan, arang o'ziga kelmoqda edi. Boshi qattiq lo'qillar, tomog'i qaqrab ketgan, yutinay desa og'zida nam yo'q, qovjirab qolgan tomoq muskullari hiqildoqni bo'g'ardi. Jang tugab, omon qolganini sezardi u, hatto yarador ham bo'lmagan ko'rinadi, lekin hozir qattiq tashnalig-u charchoqdan boshqa narsani sezmasdi. Kichik jangchi bo'lsa, entika-entika allanarsalarni quvonch bilan gapirardi.

– Men uning tomoqlarini xuddi bo'g'izlagandek qilib chopib tashladim. Mana, mana bu yerini, bo'ynini, juda ham nozik joy...

– To'pponcha, – zo'rg'a gapirdi Plujnikov: bu quvonchli guring hozir yoqmasdi unga. – Mening to'pponcham...

– Topamiz! Meni hech kim ushlab ololmadi, men juda abjirman-da. Bilasanmi, men...

– Mening to'pponcham, – qaysarlik bilan takrorladi Plujnikov. – U mening guvohnomamga yozilgan. Shaxsiy qurol.

– Men avtomat o'lja oldim! Chegarachi bo'lsa, ishtoning yo'q deb ustimdan kulgan edi. Mana endi o'zi halok bo'ldi, meni avtomatim bor, tirikman.

– Leytenant! – chang bilan to'lgan kostelning ichkarisidan chiqirdi kimdir. – Leytenant tirikmi, hech kim ko'rmadimi?

– Tirikman men, – Plujnikov o'rnidan turib bir-ikki qadam tashladi-yu, yana yerga o'tirib qoldi. – Faqat boshim biroz... o'tib ketadi hozir.

U tayanish uchun biron narsa izlagan edi, qo'liga nemis avtomati ilinib qoldi. Avtomatni arang ko'tarib, zatvorini tortgan edi, yaltirog'i xiralashib qolgan patron otilib tushdi. Plujnikov avtomatni predoxranitelga qo'ydi va unga tiralib asta o'rnidan turdi.

Sochlari tim qora siyosiy o'rinbosar u tomon kelardi. Uning eg-nida gimnastyorkasi yo'q, hammayog'i qon bo'lib ketgan, yangi bint bilan bog'langan tanasiga oq ko'ylak kiyib olgan edi.

– Yarador bo'ldingizmi? – so'radi Plujnikov.

– Nemis orqamdan kelib xanjar sanchdi, – dedi u. – Siz ham quruq qolmabsiz-ku?

– Qo'ndiq bilan boshimga urishdimi yoki bo'lmasam bo'g'ishdimi, esimda yo'q.

– Bir-ikki ho'plang, – siyosiy o'rinbosar flyaga tutdi unga. – Jangchilar o'ldirilgan nemisdan olishibdi.

Plujnikov o'ziga bo'ysunmayotgan barmoqlari bilan flyaga qop-qog'ini zo'rg'a ochib bir-ikki yutindi. Ilib qolgan isi o'tkir aroq nafa-sini qaytardi va u shu zahotiyiq flyagani qaytarib berdi.

– Aroq ekan.

– Urushqoqlar durust-ku, a, – dedi flyagani kamariga osib bog'lar ekan siyosiy o'rinbosar. – Polk komissariga ko'rsataman. Darvoqe, siz haqingizda nima deb axborot beray?

Plujnikov hujjatlarini ko'rsatdi. Siyosiy o'rinbosar hujjatlarni diq-qat bilan ko'zdan kechirgach, yana o'ziga qaytarib berdi.

– Siz shu yerda qolishingizga to'g'ri keladi. Kostel – mudofaa qal'asining kaliti, – dedi polk komissari. – Men stanokli o'qsochar yuboraman bu yerga.

– Suv, iloji bo'lsa suv ham yuboring.

– Va'da qila olmayman: o'qsocharlarga suv kerak, sohilga borib bo'lmaydi hozir. – Siyosiy o'rinbosar o'girilib qaragan edi, yuzlari shilingan kichik jangchini ko'rdi. – O'rtoq jangchi, hamma flyagalarni yig'ib, shaxsan o'zingiz leytenantga topshiring.

– Yest, yig'aman flyagalarni!

– To'xtang. Kiyinib oling, trusikda jang qilish unchalik qulay bo'lmasa kerak.

Buyruqni bajarish uchun yugurib ketdi jangchi: unda kuch ko'p edi shekilli. Siyosiy o'rinbosar Plujnikovga murojaat etdi:

– Suvni ehtiyot qilinglar. Ayting, hamma kaska kiyib olsin: nemis-larnikimi, o'zimiznikimi – qaysi birini topishsa ham kiyib olishaversin.

– Juda to'g'ri gap, snaryad parchasidan saqlaydi.

– G'isht undan dahshatliroq bo'lsa kerak, – kuldi siyosiy o'rinbosar. – Xo'p, omon bo'ling, o'rtoq leytenant. Biz yaradorlarni olib ketamiz.

Siyosiy o‘rinbosar qo‘l siqib xayrlashdi va jo‘nab ketdi, Plujnikov bo‘lsa shu zahotiy oq yerga o‘tirib oldi, chunki, hamma bo‘lib o‘tgan voqea yana qaytadan boshida aylana boshladi: kostel, orqasidan pichoq yegan siyosiy o‘rinbosar, yerda cho‘zilib yotgan o‘liklar – hammasi aralash-quralash bo‘lib ketdi. U bir silkinib yonboshiga asta qiyshaydi va yalpoq bashara, sindirilgan tishlarning irjayib turishi, majaqlangan jag‘dan qon va so‘lakning aralashib oqishini nogoh aniq-tiniq ko‘z oldiga keltirdi.

«Jin urgur-ey!» o‘rnidan turib o‘tirishga va yana ko‘zini ochishga majbur qildi o‘zini. Butun borliq hamon titrab va suzib yurgandek edi, ammo u mana shu g‘ayritabiiy mavjlar orasidan o‘ziga tanish bo‘lgan jangchini ajrata oldi: jangchi flyagalarni sharaqlatib u tomon kelardi.

«Harqalay, men, dovyurak ekanman, – o‘yladi birdan Plujnikov. – Haqiqiy hujumga qatnashdim, bittasini yer tishlatdim nazarimda. Valyaga so‘zlab berishga arziydigan ishlar bo‘ldi...»

– Ikkitasida suv bor shekilli. – Flyagalarni uzatdi jangchi. Plujnikov suvni ho‘plagan sari lazzatlanar, shoshmasdan, xotirjam ichardi. Siyosiy o‘rinbosarning suvni ehtiyot qilish haqidagi gaplari garchand esida bo‘lsa ham, flyagani qo‘yib yuborgisi kelmasdi, tagida ozgina qolganda flyagani qaytarib berdi.

– Siz ikki marta mening hayotimni saqlab qoldingiz. Familiyangiz nima?

– Salnikovman men, – uyalib gapirdi kichkina jangchi. – Salnikov Pyotr. Qishlog‘imizdagilarning hammasi Salnikov.

– Siz haqingizda qo‘mondonlikka xabar beraman, o‘rtoq Salnikov.

Salnikov begona kishi egnidagi gimnastyorkani, ikki yoni keng galife shim va qo‘nji kalta nemis, etigini kiyib olgandi. Garchand bu kiyimlar unga katta kelib, qopdek osilib tursa ham aslo nolimadi u.

– Ombordan olganim yo‘q-ku, axir.

– Halok bo‘lganlardan oldingizmi? – jirkanib so‘radi Plujnikov.

– Ular xafa bo‘lishmaydi!

Bosh aylanishi deyarli to‘xtagan edi: faqat tashnalik va tinkani quritadigan zaiflik qolgandi unda. Plujnikov o‘rnidan turdi va gimnastyorkasi qonga belanganini, yoqalari esa yirtilib ketganini sezib biroz xafa bo‘ldi. U bir amallab u yoq-bu yog‘ini tartibga keltirdi, qayishlarini tortib qo‘ydi va o‘lja olingan avtomatni bo‘yniga osib eshik tomon yurdi.

Bu yerga jangchilar to'planishgan bo'lib, jang tafsilotlarini muhokama qilishardi. Yumaloq boshli qiziqchi va qovog'ini solib yuradigan jangchi ham yengil yaralanishgandi. Xarobaga o'tirib olgan serjant gapga aralashmay iljaygancha tamaki chekar, ustidagi ko'ylagi qotib qolgan qon ta'sirida to'q sariq tusga kirgandi.

– Sizga ham qiyin bo'ldi, yaralandingizmi, o'rtoq leytenant?

– Shuning uchun ham jang deydilar-da buni, – jiddiy gapirdi Plujnikov.

– G'alaba uchun jang qilinadi, – kulimsirar edi serjant. – Be-maqсад yugurganlar yarador bo'ladi. Men fin urushida ishtirok etganman, bilaman. Qo'l jangida duch kelgan dushman bilan olishib ketaverish yaramaydi. Bunday paytda dushmanga yaqinlashishdan avval, kimnidir, albatta, mo'ljalga olish kerak, jismoniy jihatdan o'zingizga mosini, albatta. Mo'ljalga oldingmi, u yoq-bu yoqqa qaramay o'shanga qarab o'qdek otilishing kerak. Ana o'shanda g'urra kamroq bo'ladi.

– Bo'lmag'ur gaplar, – jahli chiqib dedi Plujnikov: serjant hozir unga o'quv yurtidagi starshinani eslatgani uchun ham yoqmadi. – Qurol yig'ish kerak...

– Yig'ib qo'yganmiz allaqachon, – yana kulimsiradi serjant. – Kamroq dam olish kerak...

– Havo hujumi! – qichqirdi yumaloq bosh jangchi. – Bombardimonchi samolyotlar, yigirmatacha.

– Qochinglar, yigitlar, – tamakini ezib o'chirar ekan, gapirdi serjant. – Bo'lmasam hozir onamizni ko'rsatadi.

– Kuzatuvchi qolsin shu yerda! – berkinadigan joyni mo'ljallar ekan, qichqirdi Plujnikov. – Ular yana...

– O'qsocharlarni bu yoqqa sudrab kelinglar! – qichqirdi yana jangchi.

– Kaska! – eslab qoldi Plujnikov. – Hamma kaska kiysin!..

Dastlabki tashlangan bombalarning tobora kuchayib borayotgan ovozi gap-so'zlarni bosib ketdi. Qayerdadir juda yaqin joyda ro'y bergan portlashdan shift suvoqlari ko'chib tushdi, issiq to'lqin kelib chang, to'zon ko'tardi. Plujnikov kimningdir kaskasini olib devor tomon otildi va o'tirib oldi. Jangchilar kostelning ichkarisiga qarab yugurishdi, Salnikov bo'lsa o'ralashib qolib Plujnikov yonidagi kichik tuynukka suqildi, nemisning tor kaskasini jonholatda boshiga kiyardi u. Atrof gumburlab larzaga kelmoqda edi.

– Pana joyga boring! – hamon tuynukda yotgan serjantga qichqirdi Plujnikov. – Pana joyga boring, eshityapsizmi?

Nafasni qaytaruvchi to‘lqin kelib Plujnikovning og‘ziga urildi, qattiq yo‘talib, chang to‘lgan ko‘zini ishqalardi u. Kostelning qalin devorlari ketma-ket portlashlar natijasida borib-kelib turardi.

– Serjant!.. Pana joyga boring, serjant!..

– O‘qsochar!.. – qattiq qichqirdi serjant. – Pulemyotni tashlab ketishibdi! Ahmoqlar!..

U engashgan holda kosteldan chiqib bombalar tushayotgan joyga qarab yugurdi. Plujnikov qichqirib uni to‘xtatmoqchi bo‘lgan edi, zarb bilan kelgan to‘lqin nafasini yana bo‘g‘ib qo‘ydi. Dimiqib arang nafas olar ekan, serjantning ortidan astagina mo‘raladi u.

Serjant yer bag‘irlab engashgan holda ketma-ket portlashlar va chang-to‘zon ichida yugurib ketardi. Portlashdan hosil bo‘lgan chuqurliklarga bir zum ko‘krak berib yotardi-yu, yana o‘rnidan turib olg‘a yugurardi. Serjantning ag‘anab yotgan o‘qsochar yoniga yetib borgani va sudrab chuqurlikka olib tushganini Plujnikov ko‘rib turgan edi. Xuddi shu payt qayerdadir juda yaqin joyda yana bomba portladi. Plujnikov shoshib o‘zini panaga oldi, portlash ovozi tingach yana qaragan edi, ko‘tarilgan chang-to‘zon orasidan hech narsa ko‘ra olmadi.

– Ko‘mib tashladi! – qichqirdi Salnikov, Plujnikov uning gapini eshitmasa ham, nima bo‘lganini fahmlagan edi. – Ustiga tushdi! Tugmasidan boshqa narsasi qolmagan bo‘lsa kerak!..

Ketma-ket tashlangan bombalar hushtak chalib uchib o‘ta boshladi, kostelning qalin, bahaybat devorlari portlash zarbidan larzaga keldi. Plujnikov ikki qo‘li bilan quloqlarini berkitganicha tomiri tortishib qolgan odamdek tirishib yerga yiqildi. To‘xtovsiz gumbur-gumburlar go‘yo uning yelkasidan bosayotgandek edi, yonida esa Salnikov sovuq qotgan odamga o‘xshab titrab yotardi.

Birdan hammayoq jimib qoldi, faqat yoqimsiz ovozlargina quloqda hamon jaranglab turardi. Past uchayotgan bombardimonchi samolyotlar motori salmoqli guvillayotgan bo‘lsa ham, portlashlar-u yurakka xanjardek sanchiladigan chiyillashlar eshitilmasdi endi. Plujnikov peshonasiga tushib ketgan kaskani to‘g‘rilab kiyib oldida atrofga asta bo‘y cho‘zib qaradi.

Tutun va to‘zon orasidan tushayotgan quyosh nuri bamisoli qon dog‘iga o‘xshab ketardi. Plujnikov endi hech narsani, hatto yaqin

o'rtadagi binolarning shaklini ham ko'rmay qoldi. Salnikov urinib-turtinib uning yoniga joylashib olmoqda edi.

– Hammasini portlatib bo'lishdimi deyman?

– Hammasini bo'lmasa kerak, – qulog'idagi shang'illashni ketkazish uchun Plujnikov boshini sarak-sarak qilardi. – Bildingmi, sen, juda ko'p bombardimon qilishdimi?

– Juda ko'p, – dedi Salnikov. – Juda ko'p bombardimon qilishdi. Qarang: serjant kelyapti!

Qalin chang va tutun parda orasidan o'qsochar sudrab kelardi serjant

O'qsochar lentasi joylashgan qutichani ko'targan askar uning ortidan yugurardi.

– Tirikmisizlar? – o'pkasi to'lib harsillayotgan serjant o'qsocharni kostelga sudrab kirar ekan, so'radi Plujnikov.

– Biz-ku tirikmiz-a, – dedi serjant. – Bir kaltafahm halok bo'ldi. Bomba portlab turgan paytda shunday qilish mumkinmi axir...

– Yaxshi o'qsocharchi edi, – lenta ko'targan jangchi xo'rsinib qo'ydi.

– O'rtoq leytenant! – ichkari tomondan baralla chaqirilgan ovoz eshitildi. – Mana bu yerda grajdan aholidan ham bor ekan!

Ular tomon kelayotgan jangchilar orasida uch ayol ham bor edi. Plujnikov ayollardan oq kiyingan yoshrog'ining ko'kragida g'isht changi tegib kir bo'lgan siynabandni ko'rdi-yu, qovog'ini solib darrov ko'zini olib qochdi.

– Kimsizlar? Qayerdan bo'lasizlar?

– Shu yerlikmiz biz, shu yerlik, – shoshib boshini qimirlatdi ayollarning kattasi. – Otishuv boshlanishi bilan shu yoqqa yugurib kelaverdik.

– Bularning aytishicha yerto'lada nemislar bor emish, – dedi qorachadan kelgan chegarachi. Bu o'sha – qo'l o'qsocharining ikkinchi nomeri edi. – Ularning yonidan yugurib o'tishibdi. yerto'lalarni ko'zdan kechirib chiqsakmikin, a?

– Juda to'g'ri, – uning fikrini ma'qulladi Plujnikov va stanokli o'qsochar yonida cho'kka tushib turgan serjantga qaradi.

– Ketaveringlar, – dedi serjant boshini ko'tarmay. – Men o'qsocharni tozalashim kerak.

– Yaxshi, – taysallandi Plujnikov va biroz ikkilanib qo'shib qo'ydi: – Siz bu yerda mening o'rnimga qolasiz.

– Judayam ichkariga kirmanglar, – dedi serjant. – Granata uloqtiringlar.

– Granatalar olinsin! – Plujnikov devor yonida yotgan bandi uzun qo‘l granatasini oldi. – Olti kishi mening orqamdan yursin!

Jangchilar hech narsa demay devor yonida taxlanib yotgan granatalarni olishdi. Plujnikov kir siynabandli ayolga yana ko‘z qirini tashladi va yana ko‘zini olib qochar ekan, gapirdi:

– Biron narsa yopinib olsangiz bo‘larmidi. Juda shabada bu yer.

Ayollar hech narsa demay ko‘zlarini javdiratib turishgan edi, yumaloq boshli qiziqchi gapirdi:

– Anovi yerda stol ustida qizil dasturxon bor, olib kelib beraymi? Shunday dedi-yu, buyruqni kutmasdanoq yugurib ketdi.

– Boshlang yerto‘laga, – dedi Plujnikov chegarachiga.

Zinapoya tor, qorong‘i, buning ustiga shu qadar aylana ediki, Plujnikov dam-damba qoqilar, har safar qoqilganda oldida ketayotgan chegarachining yelkasidan tutib qolardi. Chegarachi uning bu harakatidan norozi bo‘lgandek, yelkasini uchirib qo‘yardi-yu, ammo indamasdi.

Nemis bombardimonchi samolyotlarining gumburlagan ovozi ham, Terespol darvozasi atrofini bombardimon qilgandan so‘ng boshlangan otishmalar ovozi ham qadam-baqadam pastga tushgan sari pasayib borardi. Bu ovozlari pasaygan sari, ularning poyqadamlaridan chiqayotgan ovoz aniq jaranglab eshitilardi.

– Qattiq shovqin chiqaryapmiz, – asta gapirdi Salnikov. – Shovqin chiqarayotgan tomonni mo‘ljallab, qarsillatib qo‘yib qolishmasin yana...

– Haligi ayollar mana shu yerda o‘tirishgan edi, – to‘xtagan joyini ko‘rsatdi chegarachi... – Men shu yerdan u yog‘iga borganim yo‘q.

– Jiminglar, – dedi Plujnikov. – Quloq solaylik-chi.

Hamma bir zum nafas ham olmay jimib qoldi. Qayerdandir uzoq-uzoqlardan o‘q ovozlari arang eshitilar, bu ovozlari xuddi kinodagi kabi aslo qo‘rqinchli emasdi. Ko‘zlar bora-bora qorong‘ilikka ko‘nika boshladi: qoramtir qubbalar, qayoqqadir olib chiqadigan qorong‘i yo‘laklar, shiftdagi tuynukdan tushayotgan laxtak yorug‘lik asta-sekin ko‘zga tashlana boshladi.

– Bu yerda nechta yo‘lak bor o‘zi? – shivirlab so‘radi Plujnikov.

– Uchta bo‘lsa kerak.

– Sizlar ikkovingiz to‘g‘riga qarab yuringlar. Yana ikki kishi chap tomondagi yo‘lakka, men o‘ng tomonga yuraman. Bir jangchi chiqadigan joyda qoladi. Salnikov, mening‘ orqamdan yuring.

Plujnikov jangchi bilan gumbazsimon cheksiz yerto‘lada uzoq vaqt sanqib yurdi. Ba‘zan to‘xtab, biron ovoz eshitish niyatida quloq tutishardi, ammo o‘zlarining tezlashgan nafas ovozlariidan boshqa hech narsa eshitilmasdi.

– Qiziq, kalamush bo‘lmasmikin bu yerlarda? – yonidagi jangchi, kalamushdan qo‘rqar ekan, degan xayolga bormasin deb iloji boricha xotirjam gapirishga harakat qildi Plujnikov.

– Bo‘lishi turgan gap, – shivirlab gapirdi Salnikov. – Men qorong‘ilikdan qo‘rqaman, o‘rtoq leytenant.

Plujnikov ham qorong‘ilikdan qo‘rqardi, ammo bu haqda hatto o‘ziga tan berishni ham istamasdi. Bu qandaydir tushunib bo‘lmaydigan qo‘rquv edi: panaga yashiringan dushman bilan to‘satdan yuzma-yuz uchrashib qolgandagi qo‘rquvga ham, qorong‘ilikdan turib birdan o‘q uzgandagi qo‘rquvga ham o‘xshamasdi bu qo‘rquv. Faqat unga qorong‘ilikdan doimo kalamush, bahaybat o‘rgimchak va suyaklari sharaq-shuruq osilib turgan skelet qiyofasidagi dahshatli narsalar ko‘ringandek tuyulardi. U qorong‘ilikda yuragini hovuchlab yurgan edi, shuning uchun ham birozdan keyin, garchand o‘zi norozi bo‘lsa ham orqaga qaytishga qaror qildi:

– Qaytamiz orqaga. Ayollarga shunday tuyulgan bo‘lsa kerak.

Zinapoya yonida turgan boshi dumaloq jangchi, bir guruh hech narsa topa olmay yuqoriga ko‘tarilgan, chegarachining esa hamon qaytib kelmagani to‘g‘risida axborot berdi.

Plujnikov yuqoriga ko‘tarilgan sari portlashlar aniq eshitila boshladi. Tashqariga chiqadigan joyda ayollar turishardi: yuqori yana bombardimon qilinmoqda edi. Plujnikov bombardimon tugashini kutib turdi. Portlashlar kamaya boshlaganda jangchilar pastdan yuqoriga ko‘tarila boshladilar.

– Anovi yerda qandaydir yo‘l bor edi, – gapirardi chegarachi. – Xuddi zimistonning o‘zi.

– Nemislarni ko‘rminglarmi?

– Aytdim-ku, zimiston deb. Granata irg‘iltgan edim, hech kimning baqirgan ovozi eshitilmadi.

– Qo‘rqanlaridan zaifalarga shunday ko‘ringan bo‘lsa kerak, – dedi yumaloq boshli jangchi.

– Ayollarga deng, – qat'iy gapirdi Plujnikov. – Zaifa degan gapni unuting!

Kiraverishdagi stanokli o'qsochar birdan tarillab qoldi. Plujnikov olga tomon tashlandi.

Yarim yalang'och serjant o'qsochardan to'xtovsiz o'q uzar, uning yonida yotib olgan jangchi, o'q tizilgan lentani to'g'rilab berib turardi. O'q tekkan g'isht parchalari mayda-mayda bo'lib uchib tushar, temir to'siq jaranglar, o'qsochar qarshisidan chang-to'zon ko'tarilardi. Plujnikov unga yaqin joyda yerga muk tushdi-da, yoniga emaklab bordi:

– Nemislarmi?

– Deraza! – qichqirdi serjant. – Derazadan xabardor bo'!!..

Plujnikov orqaga qaytdi. Jangchilar derazalar qarshisiga joylashib olishgandi, kostelning ichiga u sakrab o'tgan deraza esa uning o'ziga qolgandi

Halok bo'lgan chegarachi deraza tagida ko'ndalang bo'lib osilib yotardi. Plujnikov derazadan qaramoqchi bo'lganda uning boshi qorniga tiralib qolardi.

Och-ko'krang kiyim kiyib olgan odamlar avtomatlarini qornilariga tiragan holda o'q otib, kostel tomon yugurishardi. Plujnikov shoshgancha predoxranitelni tushirdi va tepkini bosdi: avtomat uning qo'lida xuddi jonlangandek, yuqoriga intilib tipirchiladi. «Ko'tarilib ketyapti, – fahmladi u. – Qisqaroq. Qisqaroq otish kerak».

U to'xtovsiz yugurayotgan odamlarni mo'ljalga olib otar va yana otardi. Odamlar go'yo xuddi uning ustiga bostirib kelayotgandek tuyulardi unga. O'qlar devor g'ishtlariga tegib uni parchalar, halok bo'lgan chegarachiga tekkanda esa, uning quyuqlashib qotayotgan qonlari Plujnikovning yuziga sachrardi. Ammo yuzni artishga vaqt yo'q edi: faqat avtomatga o'q joylash uchun devor panasiga o'tgandagina sachragan qonni tozalayman deb yuziga surib tashladi.

Birozdan keyin hammayoq jimib qoldi, nemislar ham yugurishdan to'xtashgandi. U hali orqasiga o'girilib, kiraverishda o'q-doridan bormi, qoldimi deb so'rashga ulgurgani ham yo'q edi, birdan yana osmon gumburlab, chang-to'zonga to'lib ketgan havoni xanjardek tilib bomba tushib kela boshladi.

Kun shu alpozda o'tdi. Bombardimon paytida Plujnikov avvaligidek yugurmas, gumbazsimon deraza yoniga muk tushib yota qoladi. Halok bo'lgan chegarachining boshi uning shunday yonginasida osilib turar, har safar bomba tushganda portlash zarbidan nari-beri borib kelardi.

Bombardimon tugagach, Plujnikov o'rnidan turib u tomon yugurib kelayotgan odamlarga qarata o'q uza boshladi. U endi qo'rqishni ham, qancha vaqt o'tganini ham sezmasdi: quloqlari tinimsiz shang'illar, qurib, qovjirab qolgan tomog'iga nimadir qadalgandek qichishar, nemis avtomatiga hali uncha o'rganmagani uchun, otish paytidagi aks sado turtkidan qo'lini tortib-tortib olardi.

Kech kirib qorong'i tushgandagina, hammayoq jimjit bo'lib qoldi. «Yunkerslar» tutab yonayotgan xaroba ustidan so'nggi bor aylanib bombardimon qildi va tarillaganicha qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Kostel tomonga hech kim yugurmasdi endi. Hovlidagi portlashdan hosil bo'lgan chuqurlikda och-ko'k rangli jasadlar ag'anab yotardi: ulardan ikkitasi hamon qimirlar, tuproqqa belanib qayoqqadir emaklamoqchi bo'lishardi, Plujnikov ularga qarata o'q otishni ep ko'rmadi o'ziga. Bular yarador jangchilar bo'lgani uchun harbiy burch ularni o'ldirishga yo'l qo'ymasdi. Plujnikov ularning emaklashiga, qo'llarining qayrilib ketishiga qarab turar ekan, o'zida achinish ham, qiziqish ham yo'qligidan taajjublandi biroz. Dahshatli charchoqdan bo'lak hech narsani sezmasdi. Bir daqiqa bo'lsa ham yerga yotib ko'zini yumishni juda-juda istardi. Ammo o'sha daqiqani ham ravo ko'rmasdi o'ziga: chunki necha kishining tirik qolganini bilishi, qayerdandir o'q-dori topishi zarur va shart edi. U avtomatni predoxranitelga qo'ydi-da, gandraklaganicha zo'rg'a qadam bosib ostonaga chiqdi.

– Tirikmisiz? – so'radi serjant: u devor tagida oyog'ini cho'zib o'tirardi.

– Nechta odam bor? – uning yoniga horg'inlik bilan o'tirar ekan, so'radi Plujnikov.

– Sog'lar – beshta, yaradorlar – ikkita. Bittasi ko'krigidan yaralangan nazarimda.

– Chegarachi qayerda?

– O'rtogimni dafn qilib kelaman, deyayotgan edi.

Ko'zlari ich-ichiga tushib, qorayib ketgan jangchilar asta-sekin to'plana boshladilar. Salnikov hech narsaga qaramay to'g'ri flyagaga yopishdi:

– Hammayog'im yonib ketayotganga o'xshaydi.

– Tegma, – dedi serjant. – O'qsocharga kerak. – O'q yo'q-ku.

– Topamiz.

Salnikov Plujnikovning yoniga o'tirar ekan, qurib, qaqrab ketgan lablarini yaladi:

– Bug daryosiga yugurib borib kelsam bo‘lmasmikin?
– Bo‘lmaydi, – dedi serjant, – Terespol darvozasi yoniga nemislar joylashib olishgan.

Chegarachi keldi-da, indamay devor yoniga o‘tirdi va serjant uzatgan tamakini ham indamay oldi.

– Ko‘mib keldingmi?

– Ko‘mib keldim, – xo‘rsindi chegarachi. – Mening go‘rimni ham qayerdaligini hech kim bilmasa kerak.

Hech kim lom-mim demasdi, o‘rtaga cho‘kkan bu jimlik go‘yo cho‘yan singari zil-zambil edi. Plujnikov o‘q-dori, suv, qal‘a qo‘mondoni bilan aloqa bog‘lash haqida parishonxotir, esga olib qo‘yish uchungina o‘ylardi, lekin ularga mutlaqo boshqa narsa haqida gapirdi:

– Biznikilar nima uchundir kechikishyapti.

– Kimni aytyapsiz? – so‘radi chegarachi.

– Armiyani-da. Bu yerda bizning armiyamiz bor-ku axir? – hech kim javob bermadi unga. Birozdan so‘ng serjant gapirdi:

– Balki, tunda yoki bo‘lmasam tongga yaqin yorib o‘tishsa ajab emas.

Armiya qismlarimiz ularni qutqarish uchun tongga yaqin yorib o‘tadi degan gapga indamasdan hamma ishongandek bo‘ldi. Har qalay bu kun va tun o‘rtasidagi vaqt chegarasi bo‘lib, sabrsizlik bilan kutishardi uni.

– O‘q kerak... – o‘zini majbur qilib gapirdi Plujnikov. – O‘qni qayerdan topsa bo‘ladi? Sklad qaerdaligini kim biladi?

– Men bilaman, kazarmada, – javob berdi serjant. – Baribir o‘sha yoqqa borishga to‘g‘ri keladi, – aytilishlaricha, 84-polkada komissar bor emish.

– Yo‘l-yo‘riq so‘raysizlar undan, – umid bilan gapirdi Plujnikov. – O‘q-dori haqida ham gapirasizlar, albatta.

– Bu o‘z-o‘zidan ma‘lum, – o‘rmidan vazmin turar ekan, gapirdi serjant. – Prijnyuk, yur men bilan.

Qayerdandir portlagan ovoz va avtomatning tarillagani eshitildi. Serjant va Prijnyuk chang-to‘zon aralashgan qorong‘ilikda asta-sekin g‘oyib bo‘lishdi.

– Suv, suv kerak, – qaqrab ketgan labini azoblanib yalar ekan, zo‘rg‘a nafas olardi Salmikov. – O‘rtoq leytenant, Bug daryosiga borib kelishga ruxsat eta qoling. Yoki Muxovets sohiliga borib kelsam ham bo‘ladi.

– Uzoq emasmi?

– To‘g‘ridan borsa – judayam yaqin, – kulib qo‘ydi chegarachi. – Lekin hozir to‘g‘riga qarab yugurib bo‘lmaydi. Suv esa nihoyatda zarur.

– Qani, bir urinib ko‘ring-chi. – Shu payt birdan o‘ylab qoldi Plujnikov, uning uchun hamma masalani serjant, yoki bo‘lmasam qorachadan kelgan chegarachi hal etyapti, xo‘sh, shunday ekan, uning komandirligi qaerda qoldi, ammo hozir xafa bo‘lish yoki o‘pkalanishning o‘rni emas, xafa bo‘lish ortiqcha kuch sarf qilish degan so‘z edi. – Iltimos, faqat ehtiyot bo‘ling.

– Yes! – jonlanib dedi Salnikov. – Nemislarning suvini to‘kib tashlab ularning idishida olib kelsam nima deysiz?

– Olib kela olmasang-chi? – yelkasidan yengil yaralangan yumaloq bosh qiziqchi so‘radi undan...

– Bo‘sh flyagalarni oling! Aroqni to‘kib tashlang.

– Hammasini to‘kma, – dedi chegarachi. – Yaralarni artib bog‘lashga bittasi qolsin. Taraqa-turuq qilmay astagina borib kel.

– Taraqlatmayman, – flyagalarni belbog‘iga bog‘lar ekan, ishon-tirdi uni Salnikov.

U portlashdan hosil bo‘lgan chuqurliklar ichiga tushib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Ora-chora eshitilayotgan gumburlashdan nemislarning erinib otayotgani sezilib turardi.

– Nemis choy ichayotganga o‘xshaydi, – dedi yumaloq boshli jangchi. – Kecha kino ko‘rsatishgan edi.

Bema‘nilikni qarang.

U kecha mana shu kostelda ko‘rgan kinokartina haqida gapirayotibdimi yoki bo‘lmasam hozir o‘zi aytganidek, choy ichib o‘tirgan nemislar haqida gapirayotibdimi bilib bo‘lmasdi. Biroq hamma kechagi kun o‘tib ketganini, ertaga esa yana urush boshlanishini o‘ylab iztirob chekdi. Plujnikovni ham shu holat qamrab olgan bo‘lishiga qaramay, boshida o‘ralashib yurgan turli xayollarni haydab o‘rnidan turishga majbur qildi o‘zini.

– Halok bo‘lganlarni u yoq-bu yoqqa... burchakka dafn qilsakmi-kin.

– Nemislarni bir tekshirib ko‘rish kerak, – dedi chegarachi. – Bu gapga nima deysiz, o‘rtoq leytenant?

Garchi Plujnikov kosteldan chiqish mumkin emasligini yaxshi bilsa ham, unda yana bolalarga xos qiziqish paydo bo‘lgan

edi. Uning o'qsochardan otgan o'qiga kimlar yugurib kelganini va hozir kostel oldida tuproqqa qorishib yotganini o'z ko'zi bilan, yaqindan ko'rmoqchi bo'ldi. Ko'rganlarini esa Valyaga, Verochka va onasiga so'zlab berish uchun xotirasida saqlab qolishi kerak.

– Birgalashib boramiz.

U avtomatini yangidan o'qladi va yuragi gupillab urib turgan holda chegarachining ketidan qal'aning o'yilib ketgan hovlisiga sirg'alib chiqdi. Chang hali cho'kib ulgurmagandi, mayda kukunlar ko'z qovoqlari, burun teshiklariga, kirib qichitar, g'ashni keltirar, ko'rishga halal berardi. Plujnikov yoshlangan ko'zini to'xtovsiz pirpiratib, qo'li bilan dam-badam artib qo'yardi.

– Avtomatni olmang, – shivirladi chegarachi. – Belkurak va granatalarni olsangiz bo'ladi.

O'lganlar juda ko'p edi. Avvaliga Plujnikov ularga tegib ketmaslikka harakat qilsa ham, ko'p o'tmay o'rganib qoldi va qo'yni-qo'njini birpasda avtomat oboymasi, granatalarga to'latib oldi. Orqaga qaytish kerak bo'lsa ham, u xuddi navbatdagi o'likdan juda muhim narsa topadigandek, biridan ikkinchisiga o'tardi. Portlovchi moddaning ko'ngilni aynitadigan hidiga ham o'rganib qolgandi. Ag'dar-to'ntar bo'lib yotgan sertuproq yer bearmon to'kilgan begona qonga belanib ketgandi.

– Ofitser ekan, – asta gapirdi chegarachi. – Hujjatlarini olaymi?

– Oling...

Juda yaqin joydan, nihoyatda azob bilan cho'zib ingragan ovoz eshitildi. Ovoz yana takrorlandi. Plujnikov bo'ynini cho'zib u yoq-bu yoqqa qaradi.

– Qayoqqa?

– Yaradorga o'xshaydi. – U endi oldinga qarab yurgan ham ediki, yalt etgan chaqmoq birdan ko'ziga urildi va kaskaga taraqlab o'q tegdi. Plujnikov dahshat ichra ko'zlarini paypaslab yerga mukkasidan yiqildi:

U hech narsani ko'rmayotgani uchun ko'zlari oqib tushgandek tuyuldi unga.

– Ha, gazanda!

Chegarachi Plujnikovni chetga itarib tashlab, o'zini chuqurlikka otdi. Chuqurlikdan tirik odam tanasiga ketma-ket tushayotgan og'ir zarba va qandaydir g'ayritabiiy chinqiriq eshitilardi.

– Bas qiling! – yosh to‘lgan ko‘zlarini zo‘rma-zo‘raki ochib qichqirdi Plujnikov.

Uning xiralashgan ko‘z o‘ngida ter bosib qaltirayotgan bashara paydo bo‘ldi.

– Bas qiling?.. Do‘stimni o‘ldirishgani uchun bas qilaymi? Yoki senga qarab o‘q uzgani uchun bas qilaymi? Go‘daksan hali, leytenant, fashistlar kun bo‘yi abjag‘imizni chiqaryapti-yu, biz bo‘lsak bas qilaylik deb o‘tirsak...

Plujnikovning yoniga beo‘xshov ag‘darilib, og‘ir nafas olgan holda o‘tib keldi u.

– Men uni asfalosifilinga jo‘natdim. Yarador bo‘lmadingmi?

– Kaskamga tegib o‘tib ketdi. Haligacha jaranglab turibdi.

– Yura olasanmi?

– Ko‘z oldim aylanyapti.

Yaqin joyda snaryad portladi. Ikkovlari shu zahotiy oq yerga yotib olishdi, ustlariga portlash zarbidan sachragan qum aralash tuproq kelib tushdi.

– Ovoz kelgan tomonga qarab otishyaptimi deyman? – Yana portlash yuz berdi, yana muk tushib yotib olishdi yerga, so‘ng o‘rinlaridan sapchib turib kostel tomon yugurib ketishdi. Chegarachi oldinda, Plujnikov ko‘zi yoshlanib uning yelkasini arang ko‘rar, uning orqasidan yugurar, ko‘zining lovillayotganiga arang chidardi.

Serjant va Prijnyuk barvaqt qaytishib, olib kelishgan to‘rt yashik o‘qni lentalarga terishmoqda edi.

Tunda qurollarni to‘plash, aloqa o‘rnatish, ayollar va bolalarni chuqur yerto‘lalarga joylashtirish haqida buyruq bo‘ldi.

– Bizning xotinlar 333-polk kazarmasiga qochib o‘tishdi, – dedi serjant.

Bizning xotinlar deb gapirgani uchun Plujnikov unga tanbeh bermoqchi bo‘ldi-yu, ammo o‘zini tiydi.

– Bizga qanday aniq buyruq berilgan? – deb so‘radi faqat.

– Bizning ishimiz aniq: kostel. Yo‘qlamadan so‘ng odam yuborishga va‘da qilishgan.

– Shahardan hech qanday xabar yo‘qmi? – so‘radi yumaloq bosh jangchi. – Yordam kelarmikin?

– Kutishyapti, – lo‘nda qilib javob berdi serjant.

Uning bu gapidan 84-polk komissari hech qanday yordamga umid bog‘lamayotganini tushundi Plujnikov. Uning birdan tizzala-

ri bo'shshib, qorni mijg'ib og'riy boshladi va u o'sha turgan yeriga – serjantning yoniga o'tira qoldi.

– Mana bu nondan tishlagin. – Bir burda non oldi serjant. – Non fikrni kengaytiradi, o'rtoq leytenant.

Non yeyishga Plujnikovning ishtahasi yo'q edi, shunday bo'lsa ham u uzatilgan nonni beixtiyor olib, chaynay boshladi. So'nggi bor u restoranda ovqatlanagan edi... Yo'q, dahshatli ur-to'polon boshlanishi oldidan qandaydir omborxonada oqsoq qiz bilan choy ichgani esida. Omborxona ham, u yerdagi ikki ayol va oqsoq qiz ham, jangchilar ham, – hammasi dastlabki portlash va otishma paytida ko'milib ketdi. Qayerdadir, kosteldan uncha uzoq emasdi u joy. Uning omadi bor ekan, sakrab chiqib oldi. Omadi bor ekan...

Yangi yil archasi singari hamma tomoniga flyagalar osib olgan Salnikov xursand bo'lib qaytar ekan, gapirdi:

– To'ygunimcha rosa simirdim! Qani, sizlar ham bir simiringlar-chi!

– Avval o'qsocharga quyish kerak, – dedi serjant. Suvning har tomchisini ehtiyot qilib, o'qsochar qoplamasiga quyar ekan, to'yguncha suv ichishni man qilish kerakligini aytdi Plujnikovga, Plujnikov uning gapiga beparvogina rozi bo'ldi. Serjant hammaga uch qultumdan suv ajratib, flyagalarni ehtiyotlab berkitib qo'ydi.

– Qarsillatib otishyapti u yoqda, dahshatning o'zi! – hikoya qilardi Salnikov. – Raketa otishadi-yu, qars etib qo'yib qolishadi. Ko'plarni yer tishlatishdi.

Qo'l jangi va daryodan suv olib kelganidan so'ng qo'rquvni mutlaqo unutgan edi u. Undagi jonlanish, hattoki quvonch alomatlari Plujnikovning g'ashiga tegar, jahlini chiqarardi.

– Qo'shnilar yoniga o'tib, – dedi u, – kostelni biz himoya qilishimizni ayting. Balki o'q-dori ham berishar.

– Granata ham olib kel, – dedi chegarachi. – Nemislarniki rasvo ekan.

– Albatta, granata ham olib kelish kerak.

Birozdan so'ng o'nta jangchi keldi. Plujnikov ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib, derazalar yoniga joylashtirmoqchi, beriladigan signallar haqida kelishib olmoqchi edi-yu, ammo ko'zidan to'xtovsiz oqayotgan yosh bunga imkon bermadi va u jangchilarni qabul qilishni chegarachidan iltimos qildi. O'zi esa shu zahotiyoyq yerga yotdi-yu, dong qotib uxlab qoldi.

Shunday qilib, urushning birinchi kuni o'tdi. Kostelning ifloslangan polida g'ujanak bo'lib yotar ekan, hali oldinda yana qancha shunday kun borligini bilmasdi u, bilishi mumkin ham emasdi. Uning yonida ayqash-uyqash bo'lib yotgan jangchilar, navbatchilik qilayotganlar qancha umrlari qolganini bilishmasdi. Ular bir jon-bir tan bo'lib hayot kechirishar, ammo har kim o'ziga xos o'lim topardi.

2

Har kim o'ziga xos o'lim topishini keyingi kuni birinchi bo'lib qo'lidan yengil yaralangan yumaloq bosh rota qiziqchisi boshidan kechirdi. U ko'p qon yo'qotgani tufayli to'xtovsiz uyqu bosardi, boshqalar uxlashga halaqit bermasin deb xoliroq joy – yerto'laga tushaverishda uxlagan edi.

Tong pallasi to'plarning yana gumbur-gumburi boshlandi. Yer yana ingragandek bo'ldi, kostelning devorlari titrab, parchalangan g'ishtlar va suvoqlari ko'chib tusha boshladi. Serjant o'qsocharni ravoq ostiga sudrab keldi, hamma burchak-burchakka suqilib olgan edi.

Qal'a ustida bombardimonchi samolyotlar paydo bo'lganda, otishma davom etardi hali. Portlashlar kostelni titratib yubordi. Ikki qo'li bilan quloqlarini berkitganicha deraza tokchasida yotardi Plujnikov. Uning katta ochilgan og'ziga issiq chang kelib urilardi. U garchi eshitmasa ham, ola-tasir to'polon aralash qandaydir insonga xos bo'lmagan qichqiriq kelayotganini sezdi va o'girilib qaradi: g'ira-shirada yumaloq bosh yugurib kelardi:

– Nemisla-a-a-r!..

Uning yurak-yurakni teshib o'tayotgan ovozi, avtomatdan otilib ravoq ostida jaranglagan o'qdan uzilib qoldi. Yugurib kelayotgan yumaloq bosh toshga mukkasidan yiqilganini ko'rdi Plujnikov...

Plujnikov turgan joyida bir daqiqa qotib qoldi-da, so'ng qichqirdi:

– Nemisla-a-a-r!..

Chang ortida ko'zga ko'rinmayotgan avtomatchilar yotib olgan jangchilarga qarata ro'paradan otishardi. Kimdir qichqirdi, kimdir binodan chiqaverishda bomba portlayotgan joyga qarab o'zini otdi, kimdir aqlini yig'ishtirib kostel ichkarisiga qarata o'q uzardi. Avtomatlaridan otilayotgan o'q g'ishtlarni kukunga aylantirar, polni teshib, bosh ustidan hushtak chalib o'tardi. O'z avtomatini oyog'iga bosganicha quloqlarini berkitib, devor tagida yotardi hamon Plujnikov.

– Qochamiz!..

Kimdir, Salnikov bo‘lsa kerak, yelkasidan tortdi.

– Qochamiz, o‘rtoq leytenant!..

Plujnikov Salnikov bilan ketma-ket derazadan sakrab o‘tayotib yiqilib tushdi, so‘ng katta ochilgan og‘zidan chang yuta-yuta chuqurlikka qarab emaklab ketdi. Samolyotlar qal‘a ustidan nihoyatda past uchib, yerdagi jonli mavjudotni o‘qsochardan o‘qqa tutardi. Kostel ichidan avtomatlarning tarillagani, odamlarning qichqirig‘i, granatalarning portlagani eshitalardi.

– Yerto‘laga tushish kerak! – qichqirdi Salnikov. – Yerto‘laga!..

O‘q yog‘ilib turgan paytda yugurish mumkin emasligini Plujnikov sal-pal fahmlasa ham, tutunga to‘lgan kostel ichida jangchilarni qirib tashlayotgan avtomatchilar qarshisidagi dahshat va qo‘rquv uni abjir Salnikov orqasidan yugurishga majbur qildi. Qoqilib yiqilar, qum ustidan emaklar, chang va chuqurlikda o‘rnashib qolgan achchiq tutunni ho‘plab yana yugurardi.

Qop-qora tuynuk yoniga qanday yugurib kelib, uning ichkarisiga qanday kirib qolganini bilmasdi u. Gimnastyorkalari yirtilib ketgan ikki jangchi yelkasiga turtgandagina o‘ziga keldi:

– Komandir keldi, eshityapsizmi? Komandir!

Qarshisida chorpahildan kelgan, sochlari qora, ter va changdan dog‘ bo‘lib ketgan gimnastyorkasiga orden taqqan katta leytenant turardi. Plujnikov qiynalib o‘rnidan turib kimligi, qanday qilib bu yerga kelib qolganligi haqida axborot berdi.

– Demak, nemislar klubni ishg‘ol qilishgan?

– Orqa tomondan, o‘rtoq katta leytenant. Yerto‘laga yashirib olishgan ekanmi, bilmadim. Mana bu yerda bo‘lsa bombardimon paytida...

– Nima uchun kecha yerto‘lalarni tekshirib chiqmadinglar? Aloqachingiz, – katta leytenant devor yonida qotib turgan Salnikovga ishora qildi, – sizlarni kostelda mustahkam o‘rnashib olgan deb axborot berdi- ku.

Plujnikov lom-mim demasdi. Mudhish qo‘rquv uni hozir tark etgan, qanday bo‘lmasin ushlab turilishi lozim bo‘lgan marrani, jangchilarni vahimaga tushgan holda qo‘rqoqlarcha tashlab qochganini, burchiga xilof ish qilganini aniq tushunib yetgan edi u. Uning butun a‘zoyi badanini harorat qoplab, birdan katta leytenantning gaplarini eshitmay qoldi.

– Aybdorman.

– Ayb emas bu, jinoyat, – beshafqat gapirdi katta leytenant. – Men sizni otib tashlashim kerak edi, afsuski o‘q-dori juda kam qolgan hozir.

– Gunohimni yuvaman. – Plujnikov ovozinig boricha gapirmoqchi edi, ammo nafasi hiqildog‘iga tiqilib ovozi zo‘rg‘a shivirlab chiqdi:

– Gunohimni yuvaman.

Bomba va snaryadlarning ketma-ket portlashi, tinimsiz tarillayotgan o‘qsochar hamma-hammasi birdan to‘xtab qoldi. Qayerdandir onda-sonda otilgan miltiq ovozi eshitilar, uynig yuqorigi qavatida o‘t ketgan joylar chirsillab yonar, ammo jang to‘xtagan, qandaydir tushunib bo‘lmaydigan, yurakka g‘ulg‘ula soluvchi osoyishtalik edi.

– Biznikilar kelishayotganmikin? – ishonqiramay so‘radi jangchi. – Balki, hammasi tugagandir endi?..

– Mug‘ambirlik qilishyapti, ablahlar, – dedi katta leytenant. – Diqqat bilan yaxshilab kuzatib turish kerak.

Jangchi yugurib ketdi. Hamma jim, shu jimlik ichra qayerdandir chuqur yerto‘ladan ayollarning mayin ovozi va go‘dak yig‘isini aniq eshitdi Plujnikov.

– Men o‘z gunohimni yuvaman, o‘rtoq katta leytenant, – shoshih yana gapini takrorladi u. – Men hoziroq...

Radiokarnay orqali kuchaytirilgan bo‘g‘iq ovoz unig so‘zlarini bosib ketdi. So‘zlarni buzib, arang talaffuz etilayotganidan bu ovoz – rus kishisining ovozi emasligi bilinib turardi. Tutun bosgan xaroba uzra uzoq-uzoqlarga taralayotgan bu ovozni hamma yerto‘la va mudofaa istehkomidagilar eshitayotgandi hozir.

– Nemis qo‘mondonligi foydasiz qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatishni buyuradi. Qal‘a o‘rab olingan, Qizil Armiya tor-mor keltirildi, shonli nemis qo‘shinlari Belorussiya poytaxti Minskka hujum qilishyapti. Sizlarning qarshilik ko‘rsatishingiz o‘zining taktik mazmunini yo‘qotgan. O‘ylab ko‘rish uchun bir soat muhlat beramiz. Bordi-yu, rad javobini oladigan bo‘lsak, hammangizni qirib tashlaymiz, qal‘a esa yer yuzidan mutlaqo supurib tashlanadi.

Bo‘g‘iq ovoz bu murojaatni ikki marta qaytardi. Ikki martasida ham shoshmasdan, so‘zlarni aniq talaffuz etib gapirdi. Yerto‘ladagilarning hammasi go‘yo qotib qolgandek jim bo‘lib eshitishdi bu ovozni, gapirib bo‘lgandan keyin esa hamma baravariga uf tortib yubordi. Shundan so‘ng radiokarnaydan vaqt o‘lchovini anglatuvchi bir me‘yorda taqillagan ovoz eshitila boshladi.

– Suvga yugur, – dedi katta leytenant ko‘pdan buyon yonida indamay turgan, ba‘zan-ba‘zan Plujnikovga tikilib qo‘yayotgan, ko‘rinishi go‘dakni eslatuvchi yosh jangchiga. – Faqat ehtiyot bo‘l, Petya.

– Ehtiyot bo‘laman.

– Menga ruxsat eting, – yalinib so‘radi Plujnikov. – Ruxsat eting, o‘rtoq katta leytenant. Qancha suv kerak bo‘lsa men olib kelaman.

– Sizning vazifangiz – klubni jang bilan qaytarib olish, – betakalluf gapirdi katta leytenant. – Ko‘rinishdan yana bir soatdan keyin nemislar otishmani boshlashlari aniq: otishma paytida klubga yorib kirib qanday bo‘lmasin u yerdan nemislarni urib chiqarasiz. Qanday bo‘lmasin quvib chiqarasiz!

So‘nggi iborani aniq, chertib-chertib gapirdi-da, poyma-poy aytilgan so‘zlarga quloq solmay chiqib ketdi katta leytenant. Plujnikov aybdorlarcha uf tortdi va atrofga alangladi: yerto‘laning gumbazsimon hujrasidagi deraza orqasida Salnikov va yengil yaralangan novcha jangchi o‘tirardi. Plujnikov uning familiyasini arang esladi: Prijnyuk.

– Odamlarni to‘planglar, – dedi va tizzalari bo‘shashib ketayotganini sezib o‘tirib oldi.

Salnikov va Prijnyuk yerto‘ladan yana to‘rt kishini topishdi. Ular bari asta shivirlab gaplashib bir hujraga joylashishdi. Qayerdandir yerto‘laning chuqur bir yeridan asta yig‘layotgan go‘dak yig‘isi hamon eshitar va bu qo‘rquv yig‘isi Plujnikov uchun har qanday azobdan ham dahshatliroq edi.

U yerda qimirlamay o‘tirgancha qilib qo‘ygan ishi haqida ma‘yuslanib o‘ylardi: do‘stlarimga xiyonat qildim. O‘zini oqlaydigan sabab izlamas, rahm-shafqat qilmasdi o‘ziga: nima uchun shunday voqea sodir bo‘lganini tushunishga harakat qilardi.

«Yo‘q, men hozir qo‘rqoqlik qilganim yo‘q, – o‘ylardi u. – Men kechagi hujumda qo‘rqoqlik qildim. O‘sha hujumdan keyin o‘zimni yo‘qotib, komandirlikni ham qo‘ldan boy berib qo‘ydim. Nimalarni hikoya qilib berish haqida o‘yladim. Qanday jang qilish haqida emas, nimalarni hikoya qilish haqida...»

Qo‘l o‘qsochari bor ikki chegarachi uning yoniga keldi:

– O‘t ochib sizni to‘sib turishni buyurishdi bizga. – Plujnikov tushunarli degandek bosh qimirlatdi.

Chegarachilar o‘qsocharning u yoq-bu yog‘iga qarab o‘q terilgan diskalarni tekshirib ko‘rishardi, u bo‘lsa olti jangchi bilan nemis-

larni kosteldan qanday qilib quvib chiqarish haqida o'ylar, yordam so'rashga yuragi dov bermasdi. «O'lganim afzal, – o'zicha sekin takrorlardir u. – O'lganim afzal». Nimfa uchundir u «otib o'ldirishadi» degan gapni atayin cheklab o'tib, go'yo shamolashdan o'lishiga ishongan odam singari «o'lmayman» deb gapirardi.

– Hammasi bo'lib ikkita granatamiz bor, – hech kimga qaramay o'zicha gapirdi Prijnyuk.

– Olib kelishadi, – dedi chegarachi. – O'zimizning yigitlar-ku, tashlab qo'yishmas.

Keyin yana o'n beshta odam keldi. To'pchilar belgisini taqib olgan mallarang katta serjant odamlar yordamga yuborilgani haqida ma'lumot berdi. Plujnikov katta serjant bilan jangchilarni hujralarga taqsimlab ularni deraza tirqishlari yoniga joylashtirdi.

Hamma narsa tayyor bo'lgan, nemislarning vaqt o'lchash asbobi esa, hamon shoshmasdan bir me'yorda daqiqalarni o'lchardi. Plujnikov bu taqillashni tinimsiz eshitar, o'zini chalg'itib fikran hujumga hozirlik ko'rmoqchi bo'lsa ham, bir me'yorda taqillayotgan ovoz xira pashsha singari qulog'iga kelib urilaverardi.

Oradan ko'p o'tmay ular yoniga katta leytenant keldi. Tayyorgarlikni tekshirib, shaxsan o'zi jangchilarni muhim maralarga joylashtirib chiqdi. Uning yonida uymalashib yursa ham Plujnikovni sezmedi.

So'ng birdan gapirib qoldi u:

– Kunduz kuni hujum qilish mumkin emas. Fikrimga qo'shilasizmi, leytenant? – Plujnikov o'zini yo'qotib qo'ydi va bir og'iz ham so'z ayta olmay ishonchsizlik bilan bosh qimirlatib qo'ya qoldi. – Ammo nemislar ham buning mumkin emasligini bilib, hujumni tunda kutishadi. Kunduz kuni hujum qilishimizning boisi ana shunda. Eng asosiy masala qanchalik qattiq o't ochilmasin yerga yotib olmaslik. Avtomatlardan otganda o'q har tarafga tarqalib, sochilib chiqadi, mana shu holatni hisobga oldingizmi?

– Hisobga oldim.

– Gunohingizni yuvish uchun sizga imkoniyat yaratib beryapman. – Plujnikov o'lsam ham gunohimni yuvaman, deb horg'in katta leytenantni ishontirmoqchi bo'ldi-yu, gapirishga so'z topa olmay bosh qimirlatib qo'ya qoldi.

– Nima demoqchi bo'lganingizni bilaman, ishonaman sizga. – Katta leytenantning o'ta jiddiy yuzida birinchi marta iljayishga o'xshagan narsa ko'rindi. – Yuring, jangchilar yoniga boramiz.

Katta leytenant hujumga tayyorlanib turgan hamma hujralarni aylanib chiqdi. Har bir hujra yoniga borganda Plujnikovga aytgan gaplarini ularga ham takrorladi: avtomatlardan otilgan o'q sochilib chiqadi, nemislar hujum bo'lishini kutishmayapti, eng asosiy masala – yerga yotib olmasdan kostel tomonga, uning devori panasiga yugurish, faqat yugurish kerak.

– O'ylab ko'rish uchun besh minut vaqt qoldi! – diktorning bo'g'iq ovozi eshitildi yana.

– Demak, sizlar yana to'rt minutdan keyin boshlaysizlar, – yonsoatini olar ekan, gapirdi katta leytenant. – Hujumni hech qanday otishmasiz mening buyrug'im bilan boshlaysizlar. Bizning asosiy qurulumiz – sezdirmay to'satdan hujum boshlashda.

Plujnikovga qaragan edi, Plujnikov uni shu zahotiy oq anglab yerto'la derazasi yoniga bordi. Deraza baland bo'lib uning tokchasi olib tashlangan, o'tish ancha mushkul edi. Shuning uchun ham qizil askarlar g'ishtdan zinapoya yasab qo'yishgandi. Plujnikov zinapoyaga chiqib avtomatini jangovar holatga keltirdi va tayyor bo'lib turdi. Kimdir unga ikkita granata uzatgan edi, darrov olib kamariga qistirib qo'ydi.

– Olg'a! – baland ovoz bilan qichqirdi katta leytenant.

Plujnikov joyidan irg'ishi bilan oyoq ostidagi g'ishtlar sochilib ketdi, shunday bo'lsa ham u derazadan sakrab o'tib, shu damda nihoyatda uzoq tuyulgan kostel devori tomon orqasiga qaramay borardi, u indamas, nazarida faqat bir o'zi yugurib borayotgandek, yuragi shu qadar qattiq dukilladiki, orqasidan yugurib kelayotgan oyoq ovozlarni mutlaqo eshitmasdi. O'girilib qarashga esa imkon yo'q edi.

«Otmanglar. Otmanglar. Otmanglar!..» o'zicha shunday qichqirayotgandek tuyulardi unga.

Nemislarning vaqt o'lchaydigan metronomi hamon taqillab turibdimi yoki ular to'plarga shoshgancha snaryad joylashyaptimi, buni bilmasdi Plujnikov, ammo hozircha hech kim unga qarab o'q otayotgani yo'q. Porox, tutun va qon hidi aralashib ketgan issiq shamol yuzga urilardi, xolos.

Snaryad hosil qilgan chuqurlikdan bir kishi otilib chiqqan edi, oz bo'lmasa yiqilib tushay dedi Plujnikov, ammo tezda uning chegarachi ekanini bilib oldi: bu o'sha, nemis avtomatchisining adabini berib uni o'limdan saqlab qolgan chegarachi edi. Ko'rinishidan chegarachi ham kosteldan qochgan-u, ammo yerto'lagacha yeta olmay chuqur-

likda biqinib yotgan, hozir u hujumga o'tgan jangchilarning eng oldida ketayotgandi. Chegarachining tirik ekaniga Plujnikov endi suyuna boshlagan ham ediki, o'nlaracha qurqlardan otilgan o'q ovozlari osoyishtalikni buzib bosh ustidan uchib o'tdi: nemislar ularga qarata o't ochishgandi.

Orqa tomonda kimdir qichqirdi. Plujnikov yiqilmoqchi bo'ldi, yiqilardi ham, ammo chegarachi hamon qadamini katta-katta tashlab shiddat bilan oldinga chopar, hozircha tirik edi u. Bu uchib o'tayotgan o'qlar meniki emas, deb o'ylardi Plujnikov va shu boisdan ham yiqilmadi, aksincha boshini yelkasi ichiga tortib qichqirdi:

– Ura-a!.. «A-a!..» degancha bir nafasdayoq devor yoniga yetib bordi va ikki eshik o'rtasiga biqinib orqasiga qaradi.

Faqat uch kishi yiqilgandi: biri indamay yotar, ikkitasi jon talvasasida g'ujanak bo'lib tuproqqa ag'anardi. Qolganlar esa o'qdan bexavotir joyga o'tib olishgan, devorga biqinib olgan chegarachi jon-jahdi bilan qichqirardi.

– Granatalar! Ot granatalarni!..

Plujnikov belbog'idan bitta granata olib derazaga – to'xtovsiz olov purkayotgan avtomat tomon uloqtirdi. Portlagan ovoz eshitilishi bilan granata portlashidan tutunga to'lib ketgan klub tomon yugurdi u. O'q va snaryad parchasidan ilma-teshik bo'lib ketgan tokchaga to'pig'ini qattiq urib oldi Plujnikov va polga yiqilib tushdi, ammo tezda o'zini panaga olishga ulgurdi, shu payt uning yoniga chegarachi ham gursillab yiqildi. Portlash va gumburlash hamma yoqni bosib ketgan, otilayotgan o'qlar tutun va chang ichidan yiltillab uchar, bino devorlarini kukunga aylantirardi. Plujnikov polda o'tirgan bo'yicha qisqa navbat bilan yiltillab o't chiqayotgan joyga o'q uzardi.

– Bolxonaga joylashib olishmoqchi! Bolxonaga! Yuqoriroq ot! Yuqoriroq! – qichqirdi chegarachi.

Nemislar yuqoriga – boloxonaga chekinishdi: avtomat o'qlari o'sha tomondan yaltirardi endi. Plujnikov avtomatini ko'tarib ketmaket o'q uzgan edi, avtomatga bir narsa tiqilgandek qalqib ketdi, zatvori bir silkindi-yu, orqaga qaytdi.

– Ot! Otsang-chi, leytenant! Ot!

Plujnikov jonsarak bo'lib cho'ntaklarini kavlay boshladi: o'q joylangan disk tugagan edi. U so'nggi granatasini qo'lga olib qalin tutun ichidan to'xtovsiz o'q otilayotgan tomon yugurdi. O'qlar oyoq yoni-

dan uchib o'tar, parchalangan g'ishtlar garchi oyoqda etik bo'lsa ham kelib tekkanda qattiq og'ritardi.

Plujnikov xuddi mashq paytidagi singari granatani qulochkashlab turib otdi-yu, o'zini yerga tashladi. Qattiq portlagan ovoz eshiltildi.

– Bor ekansan-ku, leytenant, – o'rnidan turishiga yordamlashar ekan, gapirdi chegarachi. – Yigitlar boloxonaga yorib o'tishdi. Qolganlarini bizsiz ham o'zlari tinchitishadi: nemislar qochib qutulib bo'pti endi. Yuqoridan baqiriq-chaqiriqlar, bo'g'ilib so'kishlar, temirlar jarang-jurungi va gursillab tushayotgan zarbalarning eshilib turishi qo'l jangi ketayotganidan dalolat berardi. Plujnikov o'girilib qaragan edi, chang-to'zon ichida yugurib ketayotgan qizil askarlarni, yerda yotgan murdalarni, sochilib yotgan qurollarni ko'rdi.

– Yerto'lalarni tekshirib, chiqish joylariga soqchi qo'ygin, – dedi Plujnikov, kecha loaqal oddiy gaplashishni uddalay olmay, bugun esa hatto buyruqni sodda qilib tushuntirayotganiga uning o'zi ham hayron bo'ldi.

Chegarachi buyruqni bajargani ketdi. Plujnikov yerda yotgan avtomatni va o'sha joydagi nemisni chalqancha o'girib belidagi disk solingan sumkani olgach, eshik tomon yurdi. Ammo eshikka yetmay to'xtab qoldi: chiqaverishda hamon ularning o'qsochari turar, o'qsochar ustida uning qalqonini quchoqlagancha serjant yotardi. Uning olti yeridan o'q teshib o'tib, qonlari qotib qolgan edi.

– Keta olmapti-da, – dedi bu yerga kelgan Salnikov.

– Dushmanni yo'latmagan, – xo'rsindi Plujnikov. – Yuribmizda biz ham.

– Bilasizmi, agar men to'satdan qo'rqsam bormi, tamom o'zimni yo'qotib qo'yaman. To'satdan bo'lmasa, u holda hech gapmas, o'nglab olaman o'zimni.

– Uni dafn etish kerak, Salnikov.

– Qayerga? Bu yer kamida uch metr chuqurlikda tosh bo'lsa kerak.

– Hovliga olib chiqib, chuqurlikka dafn etish kerak.

Yo'g'on, bo'g'iq ovoz borgan sari kuchayib ular tomon yaqinlashardi. Bir-birlariga hech narsa demay ikkovlari ham deraza taxmoni tomon sakrashgan edi, ikkovlari ham yiqilib tushishdi. Xuddi shu palla kelgan dahshatli to'lqin chang-to'zon ko'tarib, bino devorlarini silkitdi, snaryadlar qal'a hovlisiga tushib portlayotgan edi.

– Bombardimon qilib bo'lgandan keyin hujumga o'tishadi! – qanchalik qichqirmasin o'z ovozin eshitmasdi Plujnikov. – Men kiradigan joyni himoya qilaman, sen derazani! Deraza, eshityapsanmi, Salnikov, deraza-a!

Yaqin joyda quloqni kar qiladigan darajada portlash ro'y berdi, devorlar qimirlab, g'ishtlar ko'chib tushdi. Portlash to'liqini o'qsocharni ag'darib, halok bo'lgan leytenantni uloqtirib tashladi. Bir zumda hammayoqni tutun va kuyundi isi bosib, nafas olish mumkin bo'lmay qoldi. Yo'talib, nafasi bo'g'ilgan holda Plujnikov o'qsocharga tashlandi va emaklagancha devor yoniga sudrab keldi uni.

– Derazaga ehtiyot bo'l, Salnikov!..

Salnikov quloqlarini berkitgancha yerga muk tushib yotardi. Plujnikov turtdi uni, qo'li bilan qimirlatdi, tepib ham ko'rdi, ammo u boran sari g'ishtga yopishib ketayotgandek edi.

– Deraza deyapman!..

Yana portlash ro'y berdi uning yonida, eshikning kesakilari uchib tushdi, so'ng yana portladi, yana va yana portladi, g'ishtlarga ko'milib borayotgan Plujnikov portlashlarni sanamay ham qo'ydi: hammasi bir-biriga qo'shilib, quloqni kar qiluvchi yagona gumburlashga aylanib ketgan edi.

Shu holatda necha soat o'q yog'ilib turganini hech kim bilmasdi. Portlashlar biroz tinchishi hamono ular asta-sekin vayronalikdan emaklab chiqib kelishdi. Asta g'o'ng'illangan ovoz havoda biroz muallaq bo'lib turgach, bombardimonchi samolyotlar yurakni orziqtirib larzaga soladigan darajada gurillab, qal'a tomon sho'ng'iy boshladilar. Ular yana devorga biqinib olishdi, yer ingradi, yana g'ishtlar uchib tushdi, devorlar tebrandi, bundan yuz yil ilgari qurilgan kostelning bosib qolish xavfi tug'ildi. Chang, to'zon, kuyundi isidan mutlaqo nafas olib bo'lmas, mador qurigan edi. Aql, idrok garchi xiralashib qolgan bo'lsa ham, portlash va zarbalarni karaxt bo'lgan tana og'riqsiz qabul qilardi.

«Tirikman, – sap-pal o'ylardi quloqlari tom bitgan Plujnikov. – Tirikman men».

Garchand u ustiga tushgan g'ishtlarning og'irligini sezsa ham, qimirlashni istamasdi. Boshi qattiq og'rir, butun a'zoyi badani qaqshab, suyaklari sirqirardi. Til qurib, kattalashib ketgan, og'izda yaxshi aylanmas, bamisoli tanglayni kuydirayotgandek edi.

– Nemislar!..

Bu ovoz ancha uzoqdan, uni tinchgina o'z bag'riga olib yotgan yer ostidan kelayotgandek tuyulardi. U darrov gapga tushunib, o'rnidan turishga intilgan edi, ustiga uyulib ketgan g'ishtlar sharaqa-shuruq qilib pastga tusha boshladi, ular ostidan arang chiqib, chang va tuproqqa to'lgan ko'zlarini ochdi.

Qoplamasi uchib, mo'ljalga olish plankasi qiyshayib ketgan o'qsocharni shosha-pisha o'rmashtirdi chegarachi. Notanish jangchi uning yonginasida g'ishtlarni titkilab o'q joylangan o'qsochar lentasini olardi. Plujnikov o'rnidan turgan edi, gandiraklab ketdi, shunday bo'lsa ham u bir necha qadam tashladi-da, o'qsochar yoniga cho'kkalab qoldi.

– Qo'yib yubor. O'zim turaman o'qsocharda.

– Nemislar!

Chegarachining allambalo bo'lib ketgan basharasidan qon oqardi. Plujnikov uni astagina nari turtar ekan, yana qaytardi gapini:

– O'zim turaman bu yerda. Sen derazani qo'riqla.

Majolsizlangan barmoqlari bilan o'qsochar dastasiga yopishib, uning ustiga yotib oldi. Chegarachi ketib qolgan, jangchi uning yoniga yotganicha lentaga o'q joylardi. Plujnikov o'qsochar qopqog'ini ochib lentani to'g'rilayotgan edi, nemislarni ko'rib qoldi: ular qalin chang va tutun oralab to'g'ri unga qarab bostirib kelishardi.

– Ot! – qichqirdi jangchi. – Ot, deyapman!

– Hozir, – o'qsochar qalqoni orasidan nemislarni kuzatar ekan, g'o'ldiradi Plujnikov. – Hozir majol yo'q...

Barmoqlari qaltirab, qayilib ketayotganidan pulemyot tepkisini bosolmaymanmi deb qo'rqardi u. Yana bir kuchanib tepkini bosgan edi, o'qsochar shu zahotiyog tilga kirdi va kostel oldini keng doira bo'ylab o'qqa tutdi. Plujnikov stvolni biroz ko'tarib u tomon yugurib kelayotgan qora sharpalarni mo'ljalga oldi.

Vaqt qolmagandi endi. Tutunlar orasidan qora sharpalar chiqib kela boshlashdi. Plujnikov o'qsochar tepkisini shunday bosdiki, toki ular yo'q bo'lmaganlaricha to'xtatmay otaverdi. O'rtadagi tanaffus paytlarida vayrona ichini titkilab o'q topar va uni qonab ketgan barmoqlari bilan jonsarak holatda joylardi lentaga. So'ng u tomon kelayotgan avtomatchilarga qarata yana o'q uzardi.

Nemislar kun bo'yi nafas olishga ham imkon berishmadi. Hujumga o'tishar, o'qqa tutishar, bomba tashlashar, yana hujum qilishardi. Plujnikov o'qsocharni devor yoniga sudrab kelar, hujum to'xtashi

bilan yana joyiga olib borib otishni davom ettirardi. Uning quloqlari bitib, ko'zlari xiralashib, idrok eta olmay qolgandi. Unga lenta uzatib turgan jangchi gumbazdan uzilib tushgan g'isht parchalari ostida qolib halok bo'ldi. U allamahalgacha ingrab, chinqirib yotdi, avji hujum payti bo'lgani uchun Plujnikov o'qsocharni tashlab uning yoniga kelishga imkon topa olmadi. Pulemyot qoplamasi erib ketdimi yoki bo'lmasam o'q parchasi teshib yubordimi, harqalay undan xuddi samovardan chiqqandek bug' chiqardi. Plujnikov issiqdan kuyishiga qaramay o'qsocharni dam devor yoniga sudrab kelar, yana joyiga olib borar, otar va yana otar edi. Hozir uning fikr-zikri faqat bir narsada: o'q tugab qolmasin ishqilib. Kostelda qancha jangchi qolganini bilmasdi u, otishdan esa o'qi mutlaqo tamom bo'lgach to'xtadi. Avtomat borligi shu payt uning esiga tushdi va uni qo'liga olib nemislarga qarata o't ochdi, so'ng oyoq ostiga to'lib ketgan tosh va g'isht siniqlariga, cho'zilib yotgan murdalarga qoqila-suqula qorong'ilikka – kostel ichkarisiga qarab yugurdi.

U hali yerto'laga yetib ham bormagan edi, tashqaridan tartibsiz otilgan o'q ovozlari va «Ura!» sadosini eshitib qoldi. O'zimiznikilar yetib keldi deb tushundi Plujnikov va avtomatni sudraganicha gindiraklab eshik tomon yura boshladi. Kimdir unga tashlanib, nimandir gapirdi, ammo u qaqrab ketgan tomog'idan «suv...» degan so'zni arang gapirdi-yu, yiqildi, endi u hech narsani ko'rmasdi ham, eshitmasdi ham.

Plujnikov yuziga sepilgan suvdan seskanib o'ziga keldi. Ko'zini ochib flyagani ko'rdi va unga qarab intildi, suvni qult-qult yutar ekan, suv bergan odam Salnikov ekanini fahmladi: boshiga bog'langan doka qorong'ida oqarib turardi.

– Tirikmisan, Salnikov?

– Tirikman, – jiddiy javob qaytardi jangchi. – Anovi yigitni g'isht bosib qalayotganda men sizga o'q joylangan lenta olib kelayotgan edim. Siz bo'lsangiz meni derazani qo'riqlashga yuboringiz.

Chang ichidan chiqib kelayotgan sharpa – nemislar, g'isht parchalari ostida qolgan askarning chinqirishi, qo'lni kuydiradigan darajada qizib ketgan pulemyot – bular Plujnikovning esida bor. U bulardan boshqa hech narsani eslay olmagach, so'radi:

– Kosteldan daf qildinglarmi?

– Yigitlarga rahmat, qo'llab yuborishdi. Chap tomondan zarba berishdi nemislarga.

– Suv-chi? Suv qayerdan keldi?

– Siz suv so‘ragan edingiz, men borib olib keldim. Xuddi kunduzdek yop-yorug‘ hammayoq, qanday dahshat. O‘shanda biroz yalab o‘tgan edi, shunga qaramay, yetti flyaga suv olib keldim.

– Endi ichish kerak emas, – Plujnikov o‘ziga-o‘zi buyruq berar ekan, flyaga qopqog‘ini burab berkitdi. – Necha kishimiz o‘zi?

– Prijnyuk yerto‘la yonida turibdi, men, siz va chegarachi.

– Chegarachi omonmi? – Plujnikov noxos xirillab kuldi. – Omon degin? Eson-omon?

– G‘isht parchasi qoshini tilib yuborganini hisobga olmaganda, yarador ham bo‘lgani yo‘q: omadi bor ekan. Ayagan ko‘zga cho‘p tushadi odatda, u o‘zini sira ayagani yo‘q. Nemislarga keladigan bo‘lsak, ulardan juda ko‘p hovlida.

Plujnikov gandraklay-gandraklay dabdala bo‘lib ketgan o‘q-sochari yonidagi eshik tomon yura boshladi. Tashqari qop-qorong‘i bo‘lishiga qaramay, yonayotgan binolar, dam-badam otilayotgan rake-talar jim-jit bo‘lib qolgan qal‘ani befayz nur bilan yoritardi. Nemislarning goh-gohida otgan minalari jaranglab qattiq portlardi.

– Serjantni dafn etdinglarmi?

– Ko‘mdik. Bitta tovoni ko‘rinib turibdi.

To‘dalangan g‘isht parchalari ichidan kiyilaverib eskirib ketgan askar etigi ko‘rinib turardi. Plujnikov etik kiyib yurgan serjantni esladi, demak, bu o‘sha – gumbazdan o‘pirlilib tushgan g‘isht bo‘laklarining ostida qolgan jangchi. Plujnikov indamadi. Vayronaning bir chetiga o‘tirdida, ikki sutka davomida tuz ham totimaganini esladi va bu haqda gapirdi. Salnikov nemislarning qotgan nonidan topib kelgan edi, ikkovlari yorishib ketgan qal‘aga tikilgan cha shoshilmasdan qotgan nonni kusurlatdilar.

– Harqalay bugun bo‘sh kelmadik, – dedi Plujnikov. – Demak, bo‘sh kelmaslik qo‘limizdan kelar ekan, nima deding, Salnikov?

– Albatta, bo‘sh kelmaymiz, – ta‘kidladi Salnikov.

Chegarachi gimnastyorkasini avtomat diskasi bilan to‘latib qaytib keldi.

– Adresimni yodingda tut, leytenant: Gomel, Karl Marks ko‘chasi, bir yuz o‘n ikkinchi uy, to‘qqizinchi kvartira... Denishchik Vladimir, – dedi u to‘satdan.

– Men smolensklikman, – dedi Salnikov. – Duxovshchina yaqinidan.

– Bu yerdan ketishimiz kerak, – adreslarini bir-birlariga aytib bo‘lgach gapirdi chegarachi. – To‘rt kishi qaytara olmaymiz hujumni.

– Men ketmayman, – dedi Plujnikov.

– Tentaklik bu, leytenant.

– Ketmayman, – takrorladi Plujnikov va xo‘rsinib qo‘ydi. – Buyruq olmagunimcha hech qayerga ketmayman.

U, bugun ertalab bajara olmagan burch haqida, o‘qsocharini bermagan serjant haqida, ularni qutqarish chorasini ko‘rayotgan vatan haqida gapirmoqchi bo‘ldi-yu, ammo indamadi. Hozir, urushning ikkinchi tuni ketayotgan pallada hamma so‘zlar uning uchun juda mayda va ahamiyatsizdek bo‘lib tuyulardi.

– Nemislarning Minsk haqidagi gaplari uydirma bo‘lsa kerak, shunday emasmi? – so‘radi Salnikov. – Ularni shunchalik ichkariga qo‘yib yuborgan bo‘lishlari mumkin emas. Adabini berishayotgan bo‘lsa kerak.

– Adabini berishga berishadi-ya, – uning fikrini quvvatladi chegarachi. – Lekin nima uchundir frontdan – harbiy kuchlarimizdan darak yo‘q.

Ular beixtiyor jim bo‘lib atrofga quloq sola boshlashdi, ammo ahyonda portlagan mina ovozi-yu, o‘qsocharning o‘qtin-o‘qtin tarilaganidan bo‘lak hech narsa eshitilmasdi: dahshatli front nafasi ancha uzoqqa – Sharqqa tomon ketib qolgandi.

– Demak, biz tanhomiz bu yerda, – astagina gapirdi chegarachi. – Sen bo‘lsang, ketmayman deysan. Bu yerda qoladigan bo‘lsak, o‘qsochar kerak.

Navbatdagi hujumni o‘qsocharsiz qaytarib bo‘lmasligini Plujnikovning o‘zi ham yaxshi tushunardi. Ammo unda o‘qsochar yo‘q edi, bu yerdan ketishni esa xayoliga ham keltirmasdi. Ko‘kragiga orden taqqan qorasoch katta leytenantning o‘tkir ko‘zlari, yosh go‘dakning qo‘rquv aralash ayanchli yig‘isi, yerto‘ladagi ayollar uning esida turibdi, shu boisdan u yerga buyruq olmasdan qaytib borishi mumkin emas, boshqalarga ham ruxsat eta olmasdi. Shuning uchun ham u:

– Hamma uxlasin. Men navbatchilik qilaman, – dedi.

Salnikov shu zahotiyoq kulala bo‘lib yotib oldi, chegarachi bo‘lsa, chuqurchada uxlab olganman deb uning taklifini rad etdi va kostelning ichkarisiga kirib anchagacha yo‘q bo‘lib ketdi. Plujnikov endi xavotir ola boshlagan ham ediki, Prijnyuk uch kishini boshlab keldi. Yoqasida to‘pchilar belgisi bor mallarang katta leytenant boshidan yarador

bo'lgan edi. U titrab-qaqshab nimagadir quloq qo'yib tinglayotganga o'xshardi.

– Qulog'imga suv kirdimi deyman.

– Qo'shnilarimiz sasiyapti nazarimda, – dedi chegarachi.

Chegarachi kostel ichida shu paytgacha cho'zilib yotgan murdalar haqida gapirayotganini tushundi Plujnikov. Murdalar yig'ib olinsin, deb buyruq berdi u. Hamma jangchilar ketib, birgina to'pchi qoldi. To'pchi kontuziya bo'lgan boshini sarak-sarak qilib devor yonida bir nuqtaga tikilganча o'tirardi.

– Xotinim bor. Avgust oyida tug'ishi kerak, – dedi u.

– Xotining shu yerdami? – yerto'ladagi ayollarni eslab so'radi Plujnikov.

– Yo'q, Volgada onamning yonida. – Jim bo'lib qoldi u. – Sen nima deysan, biznikilar kelisharmikin?

– Kelishadi. Kelmasliklari mumkin emas. Bizni esdan chiqarishmaydi, xotiring jam bo'lsin.

– Kuch ko'p ularda, – xo'rsindi to'pchi. – Bugungi hujumlarini ko'rib vahima bosdi odamni.

– Bizda ham kuch ko'p.

Katta serjant indamadi. Boshini sarak-sarak qilib xo'rsinib qo'ydi.

– Yerto'laga tushib chiqsammikin?

– O'qsocharimiz yo'q deb aytgin, balki berishar.

– Ularning ham ahvoli nochor bo'lsa kerak, – dedi to'pchi ketar ekan.

Nemislar hamon raketa otishardi. Jimib qolgan qal'ani raketa bilan yoritib sekin-asta parashyutda tushishardi. Goh-gohida mina tushib portlar, daryo sohilidan o'qsocharning tarillagani kelib turardi. Plujnikov uyquni ne azoblar bilan haydab, o'pirilgan teshik yonida tumshayib o'tirar, Salnikov esa uning yonida tinchgina uxlab yotardi.

«Harqalay men baxtli ekanman, – Plujnikov xayoliga birdan shu fikr keldi. – O'q tegmadi shu paytgacha».

Shunday deb o'yladi-yu, sovuq nafas qilib baloni o'zimga chaqir-yapman, deb qo'rqib ketdi va shosha-pisha omadim yurishmadi deb o'zini-o'zi ishontira boshladi. Ammo uning, leytenant Plujnikovning ichki tuyg'usi, ichki ishonchini hech narsa bilan yo'qotib bo'lmasdi, u har qanday afsun va sehlardan ustun turardi. Uning yoshi endigina o'n to'qqizdan oshgan edi. O'zining o'lmasligiga – umri boqiyiligiga qattiq ishonardi u.

Yonida jangchilar bilan qaytib kelgan chegarachi halok bo'lganlarni kosteldan tashqariga olib chiqishgani haqida axborot berdi. Plujnikov indamay boshini qimirlatib qo'ya qoldi: gapirishga majol yo'q edi unda.

– Biroz cho'zilsang-chi, leytenant.

Plujnikov rad etmoqchi bo'lib, boshini chayqadi, devordagi singan g'ishtlarga sirg'anib asta qiyshaydi, go'daklarnikiga o'xshab ketadigan yuziga mushtini qo'ydi-yu, shu zahotiyoyq uyquga ketdi.

...U qayiqqa o'tirib qayoqqadir suzib ketmoqda, to'lqinlar qayiqqa urilib yonidan oshib tushyapti, ajoyib, muzdek suvni to'yib-to'yib ichyapti u. Qayiqning narigi boshida oppoq ko'ylak kiygan Valya kulib o'tiribdi. U ham kulardi tushida...

– Leytenant!

Plujnikov ko'zini ochdi, Denishchik, Prijnyuk, Salnikov, yana al-laqanday jangchilarni ko'rdi va o'rnidan turib o'tirdi.

– Yerto'laga tushilsin deb buyruq berilgan bizga.

– Nima uchun yerto'laga?

– Almashtirishyapti. Bu endi kigizni bigizga almashtirishdek gap.

Ichkariga kiradigan teshik yonida qandaydir yosh notanish leytenant bajarilayotgan ishlarga bosh-qoshlik qilardi. Jangchilar stanokli o'qsocharni qulay joyga o'rnatib, uning tepa tomoniga g'isht terishardi. Leytenant o'zini tanishtirib, buyruqni topshirdi:

– Potapovning ixtiyoriga borasizlar. Kostel ostidagi yerto'la tekshirilganmi?

– Tekshirishga vaqt bo'lmadi. Har ehtimolga qarshi qo'liga grana-ta berib soqchi qo'yish kerak: pillapoya juda ham tor. Derazadan ham xabardor bo'lib tur.

– Xo'p bo'ladi. Bo'пти, omon bo'linglar.

– Omon bo'linglar. Men o'z jangchilarimni olib ketaman, bor-yo'g'i uchta o'zi, juda do'stlashib qolishgan.

– U yerda oson bo'ladi deb o'ylaysanmi? Bilasanmi, hozir qanday taktika qo'llashyapti ular? Deraza yoniga asta emaklab kelib, granata uloqtirishyati. Shuni nazarda tutginki, ularning granatasi uch sekund kechikib portlaydi. Agar yoningga tushib qolsa, qaytarib o'zlariga uloqtirishga bemalol ulgurasan. Biznikilar shunday qilishadi.

– Rahmat. Hisobga olaman buni.

– Aytganday, suv bormi sizlarda?

– Suvimiz bormi, Salnikov?

– Beshta flyagada, – norozilik bilal javob berdi Salnikov. – Suv ichishga vaqtlaring bo‘lmasa kerak.

– Ichishga emas, o‘qsocharlarga kerak.

– Ola qolinglar, – dedi Plujnikov. – Salnikov, flyagalarni bergin ularga, keyin ketamiz.

Ular to‘rtovlon kosteldan asta, sezdirmay chiqib ketishdi. Oldinda Denishchik borardi. Tun biroz yorisha boshlagandi, minalar hamon har joy-har joyga tartibsiz tushib portlardi.

– Yana bir soat, bir yarim soatdan keyin tekislashni boshlashadi, – shirin homuza tortib gapirdi Salnikov. – Yaxshiyamki nemis biroz nafas olishga imkon beryapti.

– Tundan qo‘rqadi ular, – iljaydi Plujnikov,

– Hech narsadan qo‘rqmaydi, – zaharxandalik bilan o‘girilmay gapirdi chegarachi. – Qoidasini keltirib jang qiladi gazandalar: xuddi ish kuni singari sakkiz soat.

– Ish kuni nemislarda sakkiz soatmi? – shubhalandi Plujnikov. – Ularda fashizm-ku.

– Fashizmligi aniq.

– Nima uchun men askarlikka keldim-a? – to‘satdan gapirib qoldi Prijnyuk. – Harbiy boshliq menga: xohlasang hozir ketaver, bo‘lmasa kuzda ketsang ham bo‘ladi deb aytgan edi, men hozir ketaman, dedim...

Qisqa navbat bilan otilgan o‘qsochar ichki osoyishtalikni buzib yubordi. Hamma chuqurlikka sirg‘alib tushib biqinib oldi. Boshqa otishma bo‘lmadi.

– Balki biziikilardir? – shivirlab so‘radi Prijnyuk. – Emaklab kelishayotgan bo‘lishmasin yana?

– Ovoz kelayotgan tomonga qarab otdim, – eshitar-eshitilmas qilib javob kaytardi Denishchik. – Jin ursin ularni, qanday qilib o‘zimizniki bo‘lsin...

U jim bo‘lib qoldi, hamma sergaklik bilan quloq sola boshladi. Qayerdadir, juda yaqin joyda temir asta jaranglagandek tuyuldi Plujnikovga. Chegarachining tirsagiga turtib qo‘ydi u:

– Eshityapsanmi?

Denishchik avtomatining uchiga kaskasini kiydirib chuqurlikdan asta ko‘tardi... Hech kim unga qarata o‘q otmagach, kaskani pastga tushirdi:

– Qarab ko‘raman. Yota turinglar hozircha.

U ovoz chiqarmay, chuqurlikdan astagina emaklab chiqdi va tepalik orqasiga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Salnikov ular yoniga yaqin kelib quloqlariga astagina shivirladi:

– Mana senga sakkiz soat ish kuni. Suvni bekorga qoldirib keldik-da, o'rtoq leytenant. O'zlari harakat qilib...

– U yurganlar o'zimizning odamlar, – o'jarlik bilan takrorladi Prijnyuk. – Qurol terib yurishganga o'xshaydi.

Chuqurlikning labiga nimadir kelib urildida kaskaga tegib, qum ustidan sirg'alib pastga tushdi. Plujnikov boshini o'girib qaragan edi, uzun sopli qo'l granatasiga ko'zi tushdi.

Bir soniya u, granataning vishillayotganini eshitayotgandek bo'ldi. Mana shu lahzada, hammasi tamom bo'ldi endi deb o'ylashga ham ulgurdi, yuragining qattiq sanchganini ham sezdi, o'zi uchun eng aziz kishilarini – onasini va Verochkani esladi, bular bari qandaydir bir on ichida bo'lib o'tdi. O'sha lahza, o'sha on hali o'tib ulgurgan ham yo'q ediki, granataning issiq dastasidan ushladi-yu, qorong'ilikka qarab uloqtirdi u. Gumburlab portlagan ovoz eshitildi va ularning ustiga qum yog'ildi, xuddi shu payt Denishchikning jon-jahdi bilan qichqirgan ovozn eshitildi:

– Nemislar! Qochinglar, yigitlar! Qochinglar!

Tong oldidagi osoyishtalikni avtomatlardan otilgan o'q ovozlari buzib yubordi. Ular turli tomondan o'qqa tutishardi: kostelga va 333-polik yerto'lasiga boriladigan yo'llar kesib qo'yilgandi.

– Bu yoqqa! – qichqirdi chegarachi.

Plujnikov ovozning qaysi tomondan kelayotganini anglab oldi va engashgan bo'yicha Denishchik yoniga yugurdi. Avtomatlardan otilgan o'q borgan sari halqani qisib kelardi. Plujnikov chuqurchaga ag'anab tushdi, chegarachi o'sha yerdan dam-badam o'q uzib ularni himoya qilib turgan edi. Uning ketidan Salnikov ham ag'darildi chuqurlikka.

– Prijnyuk qani?

– Halok bo'ldi! – o'q uzar ekan, qichqirdi Salnikov. – Halok bo'ldi.

Nemislar to'xtovsiz o't ochib, halqani toraytirishar, bosh ko'tarishga imkon berishmasdi.

– Narigi chuqurlikka yuguringlar! – qichqirdi Denishchik. – Keyin o't ochib meni pana qilib turinglar! Tezroq, leytenant! Tezroq!..

Otishma zo'raygandan zo'raydi: kosteldan turib o'q chiqayotgan joyini mo'ljallab o'qsochardan otishar, 333-polik yerto'lasidan, xaro-

baning chap tomonidan ham to'xtovsiz otishardi. Plujnikov narigi chuqurlikka yugurib o'tdi, yiqilib tushdi, Denishchikning u tomon yugurib kelayotgan qora sharpasiga tegib ketmaslikka harakat qilib shoshgancha o't ochdi. Salnikovning avtomati ishlamay qoldi.

Bir-birlarini navbatma-navbat pana qilib, qandaydir bo'm-bo'sh xarobaga yetib keldilar, nemislar orqada qolib, biroz otishdi, so'ng tong qorong'isiga singib ketgandek jim bo'lib qolishdi, nafasni rostlab olsa ham bo'lardi endi.

– Xo'p yo'liqdik-da, – xarobaning bir chekkasiga o'tirar ekan, og'ir nafas olib gapirdi Denishchik.

– Yuz metrlik masofani bugun jahon chempionidan ham tez bosib o'tgan bo'lsam kerak.

– Omading keldi! – birdan xaxolab kuldi Salnikov. – Omading kelgani aniq!

– Jim bo'li! – cho'rt kesdi Plujnikov. – Undan ko'ra avtomatinga qara, ishlamay qolmasin yana.

Salnikov ranjigan qiyofada indamay avtomatini, ochib tuzata boshladi. Baqirib gapirgani uchun o'zini noqulay sezdi Plujnikov, ammo bu bemavrid dilxushlik va maqtanchoqlik dilsiyohlik keltirmasin deb qo'rqardi u. Buning ustiga, boshqalardan ajrab, uzilib qolishgani tashvishga solayotgandi uni.

– Binoni ko'zdan kechiringlar, – dedi u. – Men atrofni kuzatib turaman.

Otishma tugadi, faqat daryo bo'yidan o'qtin-o'qtin o'q ovozlari eshitilardi. Notanish xarobadan kuyundi, benzin hidi va Plujnikov aniqlay olmagan yana qandaydir ko'ngilni aynituvchi sassiqlik hid tarqalardi. yengil esgan tong shabadasi endi buzila boshlagan murda hidini olib kelar va ko'ngilni behuzur kilardi.

«Ketish kerak bu yerdan, – o'yladi u. – Lekin qayoqqa?»

– Garajlar bor ekan, – dedi qaytib kelib Denishchik. – Yonidagi xonada yigitlar yonib ketishibdi: qarab bo'lmaydi, dahshat. Yerto'la degan narsa yo'q.

– Yerto'la ham, suv ham yo'q, – xo'rsindi Salnikov. – Sen bo'lsang sakkiz soat deb gapirib o'tiribsan. Vatan soqchisi bo'lgan seni qara-yu!

– Nemislar yaqin joydamikin?

– Muxovets daryosining narigi betida bo'lishsa kerak. O'ng tomonda qandaydir kazarmalar bor. Hozircha jimlik, paytdan foydalanib yugurib o'tib olsak qanday bo'larkin?

Ular xarobaning narigi tomoniga o'tib olishganda tong yorisha boshlagan edi. Bu yerdagi binolar snaryad tegib tep-tekis bo'lib ketgan, parchalangan g'ishtlar uyulib yotar, ular orqasidan daryo oqib o'tishi sezilib turardi. Daryoning narigi betidagi butalar qorayib ko'zga tashlanardi.

– U yerda nemislar bor, – dedi Denishchik. – Turgan halqamiz nihoyatda tor, leytenant. Ertaga tunda, bu yerdan jo'nab ketarmiz balki?

– Buyruq-chi? Qal'ani tashlab ketilsin, degan buyruq bormi?

– Buni endi qal'a emas, xalta desa ham bo'ladi. Xaltaning og'zini qattiqroq berkitadigan bo'lsa, tamom, chiqa olmaymiz undan.

– Qal'ani ushlab turishlik, taslim bo'lmaslik haqida buyruq berilgan menga. Qochish haqida hech kim buyruq bergani yo'q menga. Senga ham.

– Kontuziyadan so'ng esing kirarli-chiqarli bo'lib qolgan ko'ri-nasan.

– Armiyada uzoqroqqa qochish yo'li qidirilmaydi, buyruq bajari-ladi.

– Sen o'sha buyruqni tushuntirib ber menga! Landavur emas-man, qanday strategik maqsadda g'ishtma-g'isht sudralib yurgan-imni tushunib olishim kerak. Kimga keragi bor buni? Bir sutka bo'ldi – qo'shinlarimizdan darak yo'q. Biznikilar hozir qayerdaligini bilasanmi?

– Bilaman, – dedi Plujnikov. – Qayerda kerak bo'lishsa, o'sha yerda.

– Eh, landavurlar! Mana shuning uchun ham bizni boplab savalashyapti, leytenant. Yana savalashadi, toki...

– Biz savalaymiz! – to'satdan qichqirdi Plujnikov. – Biz savalaya-pmiz ularni, tushunarlimi? G'ishtma-g'isht ular sudralib yurishibdi, tushunarlimi? Biz... biz... Bu g'ishtlar bizniki, tushunyapsizmi, bizni-ki! Ular ostida sovet kishilari yotishibdi. O'rtoqlarimiz yotishibdi, sen bo'lsa... Vahimachisan sen!

– Og'zingga qarab gapir, leytenant! Bunday gaplaring uchun un-vo'ningga qarab o'tirmayman: qoq peshonangdan...

– Biznikilar! – quvonchdan taajjublandi Salnikov. – Sapyorlari-miz, qaranglar!

Kazarmaning omon qolgan devori yonida sakkiztacha odam uy-malanishardi. Plujnikov o'rnidan sapchib turmoqchi edi, chegarachi ushlab qoldi uni:

– Ularning oyog‘ida etigi bor.
– Nima qipti etigi bo‘lsa?
– Nemislarning etigi: qo‘nji kalta, ko‘ryapsanmi?
– Mening oyog‘imdagi ham nemislarning etigi, – dedi Salnikov. – Ularnikini shoni noqulay bo‘ladi.

– Bizning sapyorlarimiz obmotka o‘rab yurishardi, – dedi Denishchik. – Ularning hammasi etik kiyishgan. Shunday bo‘lgach, shoshilmay kutamiz biroz.

– Nimadan qo‘rqasan? – achchig‘landi Salnikov. – Forma o‘zimizniki bo‘lsa...

– Forma kiyish – uch minutlik ish. Shu yerda kutib turinglar meni.

Denishchik engashgan bo‘yicha yugurib qulagan devor yoniga bordi va epchillik bilan sakrab yuqoriga, deraza o‘rniga chiqib oldi.

– Bizning yigitlarimiz ekanligi shundoqqina ko‘rinib turibdi-ku, – norozi ohangda po‘ng‘illadi Salnikov. – Ularda suv bo‘lishi aniq: Muxovets daryosi naq yonlarida.

Chegarachi astagina hushtak chaldi. Besabr Salnikov indamay yotish haqida buyruq berib, o‘zi chegarachi yoniga o‘tdi.

– Ana, qaragin, – Denishchik nari surilib joy bo‘shatdi unga.

Muxovets daryosining narigi qirg‘og‘i, qo‘rg‘ondagi pozitsiyalar, sohildagi butalar orasida g‘imirlayotgan nemis askarlari yuqoridan juda yaxshi ko‘rinib turadi.

– Ular sapyorlarga qarata otishmaydi, men senga aytsam, – astagina gapirdi chegarachi. – Nima sababdankin, a?

– Xm, – xo‘rsindi Plujnikov. – Pastga tushamiz, bu yerda sezib qolishlari mumkin.

Ular Salnikov yoniga qaytishdi. U qanday buyruq berilgan bo‘lsa, shunday yotar, bo‘ynini cho‘zib biroz nariroqni ko‘rishga intilardi.

– Xo‘sh? Nimani ko‘rdinglar?

– Nemislar ular.

– Qo‘ysang-chi! – ishonmadi Salnikov. – Formasi nega unaqa bo‘lmasam?

– Formaga emas, mazmunga ishongin sen, – kulimsiradi chegarachi. – Gazandalar, devor tagiga portlovchi modda ko‘mishyapti. Cho‘chitmaymizmi ularni, leytenant? Devor orqasidagilar bizning yigitlar-ku.

– Cho‘chitishimiz kerak edi-ya, – o‘ylanib javob berdi Plujnikov. – Lekin keyin qayoqqa chekinamiz.

– Ikkovimizdan qaysi birimiz qo‘chish haqida o‘ylayapmiz: senmi yoki menmi?

– Tentaksan sen! – achchiqlandi Plujnikov. – Ular bu yerga mina tashlab bizni yo‘q qilib yuborishlari mumkin: tepamiz ochiq bo‘lsa.

– Fahming yetar ekan, – ma‘qulladi chegarachi. Plujnikov atrofga nazar tashladi. Maydalangan g‘ishtlar orasida minadan yashirinish mumkin emas, har yer-har yerda saqlanib qolgan devorlar esa, birinchi bombardimondayoq ag‘anab ketishi ko‘rinib turardi. Chekinishga qulay joy bo‘lmagan holda jangga kirish o‘z joniga qasd qilish bilan barobar edi: qarshilik ko‘rsatilgan joyda nemislar shiddatli o‘q yog‘dirishlari turgan gap. O‘z shaxsiy tajribasidan buni yaxshi bilardi Plujnikov.

– Bordi-yu, olg‘a qarab yursak-chi? – taklif qildi Salnikov. – O‘sha kazarmada o‘zimizning odamlar bor. To‘g‘ri o‘shalar yoniga borsak nima deysizlar?

– Olg‘a degin! – istehzoli kuldi chegarachi. – O‘rgildim sendek strategdan.

– Bordi-yu, chindan ham olg‘a yursak-chi? – dedi Plujnikov. – Sekin-asta emaklab borib, granata uloqtirsak, so‘ng bir sakrash bilan kazarmaga kirib olamiz, u yerdan yerto‘laga tushish mumkin.

Chegarachi istar-istamas rozi bo‘ldi: dushmanning ko‘zi o‘ngida hujumga o‘tish cho‘chitayotgandi uni. Bu yerda alohida ehtiyotlik zarur bo‘lgani uchun ular uzoq vaqt emaklashdi. Ular navbatma-navbat olg‘a siljishardi: bir kishi xarobalar orasidan ilon izi qilib sudralar ekan, ikki kishi zarur bo‘lib qolganda o‘t ochib uni to‘sh uchur nemislarni kuzatib turardi.

Kazarmaning butun qolgan devorlari ostiga fugas bombasini ko‘mayotgan nemis sapyorlari atrofga qarashmasdi. Ular bu yerda o‘zlaridan boshqa hech kim yo‘qligiga shubha qilishmas yoki bo‘lmasam, Muxovets daryosining narigi betidagi soqchilariga qattiq ishonishardi. Yaqindagi chuqurlikdan bir yo‘la uchta granata uloqtirilganda, ular portlovchi moddani joylashtirib bo‘lib, endi sim tortishayotgan edi.

Tirik qolganlarni avtomatdan otib yer tishlatishdi. Bu ishlar bari to‘satdan, bir zumda bo‘lib o‘tdi: Muxovets daryosining narigi betidan bironta ham o‘q ovozi eshitilmadi.

– Portlovchi moddani ol! – shosha-pisha simlarni uzar ekan, qichqirdi Plujnikov. – Ol deyapman portlovchi moddani!

Denishchik va Salnikov joylashtirilgan paketlarni olib ulgurishgan ham ediki, nemislar es-hushlarini yig'ishtirib dahshatli o't ochishdi. Yomg'irdek yog'ilayotgan o'q go'yo g'ishtlarni chakichlardi. Ular burchakning narigi tomoniga o'tishlari bilan bu yerda ham minalar portlay boshladi. Quloqlari bitgan, ko'zlari xiralashgan holda yerto'laning qorayib turgan teshigidan sirg'alib tushishdi pastga.

– Tirikmiz yana! – hayajon bilan kulardi Salnikov. – Meni aytganim bo'ldimi! Meni aytganim bo'ldimi!..

– Oyog'im, – Plujnikov dabdala bo'lgan qo'njini ushlab ko'rgan edi, qo'li qon bo'ldi. – Bint bormi?

– Juda qattiq yaralandingmi? – tashvishlanib so'radi Denishchik.

– Unchalik qattiq bo'lmasa kerak. O'q ustki qismidan o'tgan. – Chegarachi ter shimgan ichki ko'yلاغidan bir parcha yirtib berdi:

– Qisibroq boylagin.

Plujnikov etigini yechib, shimining pochasini himarib qo'ydi. Yaralangan joydan laxta-laxta qon oqardi. Laxtak ostiga kir bo'lgan dastro'molini qo'yib qattiq bog'ladi, bog'langan joy birdan shishib chiqqan bo'lsa ham, qon oqishi to'xtagan edi endi.

– Itlarnikiga o'xshab tezda tuzalib ketadi, – dedi Denishchik.

Salnikov keldi. Uning boshi qotgandi:

– Chiqadigan joy yo'q bu yerda. Faqat mana shu hujraning o'zi, xolos.

– Bunday bo'lishi mumkin emas.

– To'g'ri gap shu. Devorlarning hammasini tekshirib chiqdim.

– Bitta fugas tashlasa bormi, xo'p ish bo'ladi-da, – zo'rma-zo'raki jilmaydi Denishchik. – Uch kishining qardoshlik mozori degan so'z.

Ular yana qaytadan yerto'laning har bir metrini ko'rib, tekshirib chiqishdi. Qarshi tomondagi devor yonida ravoqdan o'pirilib tushgan g'ishtlar uyulib yotardi. Ular shosha-pisha g'ishtlarni bir chekkaga ola boshlashdi. Yuqoridan sho'ng'ib uchayotgan bombardimonchi samolyotlarning gumburlagan ovozi eshitila boshladi: nemislar ertalabki bombardimonni boshlashgan edi.

Gumbur-gumburlar shundoqqina bosh tepasida bo'lib, devorlar titrar, lekin shunga qaramay ular g'ishtlarni to'xtovsiz tashi-

shardi: toshdan yasalgan qop ichida bundan boshqa iloj yo‘q edi. Bu – cho‘kayotgan xasga yopishadi qabilidagi ish bo‘lib chiqdi: yerdan oxirgi g‘isht bo‘laklarini olishgandan so‘ng, hujraning poli g‘ishtdan zich qilib ishlanganligi ma‘lum bo‘ldi – yerto‘laning bu qismida boshqa chiqadigan joy yo‘q edi. Bu yerda qolish mumkin emasdi: nemislar juda yaqinlashib qolishgan, agar bordi-yu ularning bu yerdaligini sezishadigan bo‘lishsa, teshikdan ikkitagina granata tashlab yuborishsa, vassalom, ana shuning o‘zi yetarli bo‘lardi. Vaqtni o‘tkazmay tezroq ketish kerak.

– Bombardimon paytidan foydalanish kerak! – qichqirdi chegarachi. – Avtomatchilar bo‘lmaydi bombardimon paytida!

Ketma-ket portlashlar gapni bosib ketar, derazadan chang-to‘zon, qizigan havo, achchiq dud va sasiy boshlagan murdalar hidini olib kirardi. Chiqayotgan ter ko‘zni achishtirar butun a‘zoyi badandan suv bo‘lib oqardi. Nihoyatda tashna bo‘lishgandi ular.

Bombardimon tugadi, bombardimonchi samolyotlar va dambadam otilayotgan o‘q ovozlari aniq eshitila boshladi. Bomba tashlab bo‘lgan samolyotlar pushka va o‘qsocharlardan o‘q yog‘dirib qal‘a ustida hamon aylanishardi.

– Ketdik! – o‘pirilgan joyda turib qichqirdi Denishchik. – Ular bir chekkada uymalashishyapti. Yo‘limizni to‘sib qo‘ymasliklaridan keta qolaylik, yigitlar!

U raxnadan boshini chiqarib qaradi va shu zahotiy oq o‘zini orqaga tashlagan edi, sal bo‘lmasa Plujnikovni turtib yuboray dedi:

– Nemislar!

Ular devorga biqinib olishdi. Samolyotlar guvillashi sekinlashib, otilayotgan o‘q ovozlari aniq eshitila boshladi. Ular mana shu ovozlار orasidan begona kishilarning oyoq tovushlari-yu, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘irlarini ilg‘ab olishdi: quloqni qomatga keltiradigan gumburlashlar orasidan bevosita o‘zlariga tahdid soladiganini ajratib olishga o‘rganib qolishgandi.

Qora sharpa teshik og‘zini bir zum to‘sib turdi. Kimdir teshikdan ehtiyotlik bilan asta qaradi-da, darrov o‘zini chetga oldi. Plujnikov ovoz chiqarmasdan avtomatini predoxraniteldan bo‘shatib qo‘ydi. Yurak shu qadar qattiq urardiki, dukillashini nemislar eshitib qoladimi deb xavfsirardi u.

Yana juda yaqin joydan ovoz eshitildi. Teshikdan granata otilib kirib narigi chekkadagi devorga borib urildi va portladi. Granata port-

lamasdanoq ular yerga yotib olishga ulgurishgandi. Bu tor yerto'lada portlash ovozi juda shiddatli va yoqimsiz edi. Granata parchalari devorlarni jaranglatib yubordi, portlash juda yaqin joyda bo'lgani uchun undan tarqalgan achchiq tutun yuz-ko'zlarni jizg'anak qildi.

Granata parchalari yuqori tomondan o'tib ketgani uchun Plujnikov qo'rqishga ham, suyunishga ham ulgura olmay qoldi. Nemislar boryo'g'i ikki qadam narida turganlari sababli, o'rtoqlaridan o'q tekkan-tegmaganligi haqida so'rashga imkon bo'lmadi. Faqat navbatdagi granata tushishini jimgina kutib qimirlamay yotish va yana yotish kerak edi.

Xaytovur boshqa granata tashlashmadi. Gaplashib turishdi-da, yerto'laning keyingi hujrasi tomon ketishdi. Qadam tovushlari uzoqlashib, portlagan granataning bo'g'iq ovozi eshitildi: nemislar boshqa binolarni tekshirishardi.

– Omonmisizlar? – eshitar-eshitilmas so'radi Plujnikov.

– Omonmiz, – javob berdi Denishchik, – Damingni chiqarma, leytenant.

Nemislar shu atrofda aylanib yurishgani tufayli ular kun bo'yi, to qorong'i tushguncha mana shu yerto'lada qimirlashga, hatto nafas olishga ham qo'rqib yotishdi. Quloqlarini ding qilib tushunib bo'lmaydigan g'o'ng'ir-g'o'ng'irni darrov ilg'ab olishardi. Muskullarning uzoq muddat tarang tortilib turishi tanada og'riq paydo qilardi.

Yuqorida nima bo'layotganini bilishmasdi ular. Otishmalar aniq eshitalardi, qurolni tashlab taslim bo'lish haqida bir soat-bir soat vaqt berib ikki marta murojaat qildi dushman. Ularning bundan ham foydalanishga imkoniyatlari yo'q, chunki nemislar kazarmalarning xuddi ular turgan joyini band qilib turishardi.

Bu tun o'tgan tunga qaraganda notinchroq bo'lsa ham, shu kechasi tavakkal qilib emaklab chiqishmoqchi bo'lishdi. Nemislar daryo sohiliga mustahkam o'rnashib olib, qal'ani raketalar bilan yoritishar va mina otishni to'xtatishmasdi. Ba'zan bo'g'iq portlagan ovoz ham eshitalardi: nemis sapyorlari devor, shift va to'siqlarni fugas snaryad bilan bir chetdan portlatib, o'zlarining shturmchi guruhlariga yo'l ochishardi.

Denishchik razvedka qilgani ketib, hadeganda qaytavermedi: Salnikov bir iloj qilib uni chaqirish kerak deb ming'iray boshladi. Ammo yaqin joydan otishma eshitilmasdi, Plujnikov chegarachining jangsiz taslim bo'lishiga aslo ishonmas, shuning uchun ham sabr qilib kutardi.

Nihoyat sharpa eshilib, teshikda kalla paydo bo'ldi:

– Sudralinglar. Sekinroq, nemis eshitib qoladi.

Tashqari dim bo'lib, chuchmal murda hidi ro'yirost kelar, qaq-rab qolgan tomoqlarning muskullari tortishib o'qchitardi. Shu tufayli og'izdan nafas olishga harakat qilardi Plujnikov.

Hammayoqdan nemislarning ovozi, lom va cho'kichning taqillagani eshitarildi: sapyorlar devorlarni teshib yo'l ochishar va fugas bombasini olib kirishardi. Osmonga har bir raketa uchgan paytda qimirlamay yotib, xarobalar orasidan uzoq vaqt emaklashga to'g'ri keldi.

Nihoyat ular kelib tushgan chuqurlikdan chidab bo'lmaydigan sassiq hid tarqalardi: portlash paytida ayqash-uyqash bo'lib ketgan murdalar uch kunlik issiqdan shishib ketgan edi. Shunday bo'lsa ham bu yerda biroz nafasni rostdash, u yoq-bu yoqni kuzatish va bundan keyin nima qilishi kerakligini hal qilib olsa bo'lardi.

– Kostelga qaytib borish kerak, – qizg'in ta'kidladi Salnikov. – U yerning devorini bilasanmi!!! Suvni bo'lsa, o'zim olib kelaman. Tumshug'i tagidan emaklab o'tsam ham olib kelaman.

– Kostel – qopqon degan so'z, – o'jarlik bilan gapirdi chegarachi. – Nemislar tuni bo'yi devor yoniga yetib borishadi va o'rab olishadi, qarabsizki, ish tamom, vassalom. yerto'laga tushishimiz kerak, u yerda odamlar ko'p.

– Suv esa oz! Sen chuqurlikda kuni bo'yi o'tirganingda men o'sha joyda edim: yarador bo'lganlarga suvni doriga o'xshatib, ovqat yeydigan qoshiqda tarqatishar ekan. Sog'lar bo'lsa, barmoqlarini so'rib o'tirishadi. Men bo'lsam suvsiz...

Plujnikov ularning gaplarini eshitayotgandek bo'lsa ham o'zi mutlaqo boshqa narsalar haqida o'ylardi.

Ular kun bo'yi nemislardan ikki qadam berida yashirib yotishdi, shunda u dushman haqiqatan ham taktikasini o'zgartirganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Sapyorlar devorlarni zo'r berib teshib fugas qo'yishar, to'siqlarni portlatishardi. Nemislar mudofaa liniyasini bamisoli kalamushdek kemirishardi. Bu haqda axborot berish kerak edi darhol. O'z mulohazalarini aytib jangchilar bilan fikr almashdi u. Salnikov loqayd gapirdi:

– Men bunday ishlarga aralasha olmayman.

– O'zimiznikilar otib qo'yishmasa bo'ldi ishqilib, – tashvishlanib gapirdi Denishchik. – Qorong'ida to'qnashib qolishimiz mumkin. Ovozimizni qattiqroq chiqaradigan bo'lsak, nemislar mina ulotirishadi.

– Kazarma orqali ketish kerak, – dedi Plujnikov. – yerto‘lalar-ning hammasi bir-biridan alohida bo‘lmasa kerak.

– O‘zi zo‘rg‘a emaklab kelgan bo‘lsak, endi yana orqaga qaytamizmi, – norozi bo‘lib ming‘irladi Salnikov. – Yaxshisi kostelga bora qo- laylik, o‘rtoq leytenant.

– Kostelga ertaga boramiz, – dedi Plujnikov. – Avval sapyorlar- ni cho‘chitib qo‘yishimiz kerak.

– Mana bu boshqa gap, leytenant, – uning fikrini quvvatladi che- garachi. – Nemislarni boplab bir adabini beramiz-u, o‘zimiznikilar to- mon ketaveramiz.

Ammo sapyorlarning adabini berish imkoniyati bo‘lmadi. Pluj- nikov irg‘ib turmoqchi bo‘lgan edi, oyog‘i ostidagi g‘ishtlar sochilib ketdi: o‘q parchasi tekkan oyog‘i pand berdi unga. U yiqilib tushdi va shu zahotiy oq nishonga olib otilgan o‘q zarbidan uvalangan g‘isht parchalari boshi ustidan uchib o‘tdi.

Shunday qilib ular o‘z qo‘shinlari tomon yorib o‘ta olmadilar, ammo shunday bo‘lsa ham Muxovets daryosi bo‘yidagi aylanma ka- zarmaga yugurib o‘tib olishdi. Bu joy huvillab qolgan, deraza o‘rnidan na o‘zimiznikilar, na begonalar ko‘rinardi. Ammo vaqt yo‘q edi o‘ylab o‘tirishga, shuning uchun ham ular yerto‘laning yaqinroq joydagi teshigiga sakrab tushdilar. Sakrab tushishdi-yu, devorga biqinib olish- di nemislarning etigi ustlarida do‘qillar edi.

– Uzoq maslahatlashishgan ko‘rinadi, – dedi Denishchik ham- mayoq jimjit bo‘lib qolganda.

Hali hech kim unga javob qaytarishga ulgurmagan ham ediki, qo- rong‘ilikdan zatvorning sharaqlagani va bo‘g‘iq ovoz eshitildi:

– Kim kelyapti? Otib tashlayman!

– O‘zimiznikilar! – baland ovoz bilai gapirdi Plujnikov. – Kim bor bu yerda?

– O‘zimiznikilar? – zo‘rg‘a gapirishardi qorong‘idagilar, o‘rtada- gi jimlik paytida ularning og‘ir nafas olayotgani baralla eshilib turar- di. – Qayerdانسizlar?

– Ko‘chadan, – cho‘rt kesib gapirdi Denishchik. – So‘roq qi- ladigan paytmi hozir: yuqorida nemislar izg‘ib yuribdi. Qayerdasan o‘zing?

– Yaqinlashma, otib tashlayman! Necha kishisizlar?

– Voy, o‘limtig-ey! – achchig‘landi Salnikov. – Biz uch kishi- miz. O‘zlaring-chi?

– Bittang mening yonimga kel, qolganlar joyidan qimirlamasin.

– Bir o‘zim boraman, – dedi Plujnikov. – Otmanglar.

Qorong‘ida urilib ketmaslik uchun ikki qo‘lini oldinga cho‘zib yerto‘la ichkarisiga yurib ketdi u.

– Qorin ochdi, – shivirlab dedi Salnikov.

– Sho‘rva bo‘lganda bormi hozir.

Denishchik bir plitka shokolad oldi-da, uni to‘rtga bo‘lib bir bo‘lagini uzatdi:

– Ushla.

– Qayerdan olding?

– Qarzgga oldim, – kulimsiradi chegarachi.

– Shuning uchun ta‘mining mazasi yo‘q ekan-da.

Plujnikov qaytib kelib, astagina gapirdi:

– 455-polkdan, politruk. Oyog‘i majaqlangan, ikki sutkadan buyon shu yerda ekan.

– Bir o‘zimi?

– Hamrohini kecha o‘ldirishibdi. Aytishiga qaraganda, yotgan joyining yuqorisida birinchi qavatga chiqadigan teshik bor ekan. U yerdan o‘zimiznikilarga yetib olish mumkin, deydi. Faqat tong yorishi-shini kutish kerak, hozir juda qorong‘i.

– Kutamiz. Mana buni ermak qil, leytenant.

– Shokoladmi deyman? Politrukka-chi?

– Politrukka ham bor.

– Ketdik. Sen kuzatuvchi bo‘lib qolasan, Salnikov.

U odam qarshi tomondagi devor yonida yotardi: kalta-kalta olayotgan nafas va burunga kelib urilgan qon isidan uning qayerdaligini aniqlashdi va yoniga o‘tirishdi. Kostelda qanday jang qilishgani, qanday qilib u yerdan ketishgani, nemislarga duch kelib qolgach, tosh hujrada biroz dam olib yotishgani haqida gapirib berdi Plujnikov.

– Dam olib yotdik degin? Barakalla sizlarga, yigitlar, kimlardir jang qilaversin, biz esa dam olib yotaveraylik.

Nihoyatda qiynalib gapirardi politruk. Nafas olishi qisqa-qisqa bo‘lib, ko‘kragini to‘latib nafas olishga mador yo‘q edi unda.

– Bo‘lmasam qirib tashlashardi-da bizni, – dedi Plujnikov. – Ikita granata tashlasa, tamom.

– Granatadan qo‘rqdingmi?

– Bekordan-bekorga o‘lib ketaverish alam qiladida.
– Bekordan-bekorga? Agar bitta dushmani o‘ldirgan bo‘lsang ham, demak bekorga emas. Ikki yuz million kishimiz biz. Ikki yuz million! Agar hech kimni o‘ldira olmay o‘zing o‘lib ketsang, ana unda ahmoqona o‘lim desa bo‘ladi.

– Juda noqulay pozitsiya edi-da, turgan joyimiz.

– Pozitsiya... Bizning yagona pozitsiyamiz: ularga tinchlik bermaslik. Har bir tosh, har bir g‘isht o‘q bo‘lib otilishi kerak ularga. Radiodan bizlarga nimalar deb baqirayotganini bilasanmi?

– Eshitdik.

– Eshitibsizlar-u, mulohaza qilib ko‘rmabsizlar. Avvaliga ular taslim bo‘lishni taklif etishdi, yer yuzidan supurib tashlaymiz, deb do‘q-po‘pisa qilishdi. Keyin esa: «Komissar va kommunistlarni otib tashlanglar, biz tomonga o‘tinglar», deb gapira boshlashdi. Kecha kechqurun yana yangi nag‘ma paydo bo‘ldi: «Qal‘aning jasur himoyachilari», emish. Kim qurolini tashlab ular tomoniga o‘tadigan bo‘lsa, rohat-farog‘atga to‘la hayot va‘da qilishyapti, hattoki komissar va kommunistlarga ham. Xo‘sh, nima uchun ularning agitatsiyasi birdaniga bunchalik o‘zgarib ketdi? Chunki biz otayapmiz. Dam olib yotganimiz yo‘q, otayapmiz.

– Biz ham asir tushmoqchi emasmiz, – dedi Denishchik.

– Ishonaman. Ishonganimdan gapiryapman. Yagona vazifa: dushmanning jonli kuchini qirish. Juda oddiy vazifa.

Politruk yana nimalarnidir gapirdi, Plujnikov bo‘lsa, yana xayolan qayiqda suzar, yana suv chayqalar, yana u to‘xtovsiz suv ichar, ammo tashnaligi qonmasdi.

Qayiqning quyrug‘ida o‘tirgan Valyaning oq harir ko‘ylagi aksidan Plujnikovning ko‘zlari yoshlanar, shu boisdan bo‘lsa kerak, tushida kulmadi u...

Tong ota boshlaganda turtib uyg‘otishdi uni, uyg‘ondi-yu, politrukka ko‘zi tushdi: u nihoyatda oriqlab ketgan, tikandek o‘sgan soqollari orasidan qontalashgan yupqa lablari ko‘rinib turardi. Holdan toygan, qurum bosgan yuzida unga tikilib turgan o‘tkir ko‘zlari javdirardi, xolos.

– Uyquga to‘ydingmi?

Politrukning yoshi nechadaligini aniqlash mumkin bo‘lmay qolgandi.

Tashlandiq kazarmaning birinchi qavatiga o‘tadigan teshikdan komissarni asta olib o‘tishdi uchovlari. Ustiga taxta terilgan ikki qavatli

karavotlar turardi bu yerda: poxol to'shak va ko'rpa-yostiqlarni himoyachilar o'zlari bilan olib ketishgandi. Polda otilgan gilzalar, g'isht siniqlari, qon shimib qotib, g'adir-budir bo'lib ketgan harbiy kiyimlarning parchalari sochilib yotardi. Mo'ljalga olib otilgan snaryadlar devorlarni ilma-teshik qilib yuborgandi.

Politrukni karavotga yotqizib, yarasini qaytadan bog'lashmoqchi bo'lishdi-yu, ammo yara ustida qotib qolgan bintni ko'chirishga jur'at etisha olmadi. Yaradan sassiq hid chiqayotgandi.

– Ketinglar, – dedi politruk. – Bitta granata qoldiringlar-da, ketaveringlar.

– Siz-chi? – so'radi chegarachi.

– Men nemislarni kutaman. Bitta granata, pistoletda yana oltita o'q bor: kutib olsa bo'ladi.

Zambaraklar gumburlashi birdan uzildi: go'yo to'satdan hamma tovushlar birdaniga o'chgandek edi. Birdan yana o'sha dinamik bilan kuchaytirilgan tanish ovoz eshitila boshladi:

– Qal'aning jasur himoyachilari! Nemis qo'mondonligi sizlarni foydasiz qarshilik ko'rsatishni to'xtatishga chaqiradi. Qizil Armiya tor-mor bo'ldi...

– Aldayapsan, ablah! – qichqirdi Denishchik. – Bekorga vaqil-layapsan gazanda fashist!

– Qancha qichqirganing bilan befoyd, – miyig'ida kuldi politruk. – Urush seni ovozingni eshitmaydi, o'q ovozi eshitadi. Qizishma ko'p.

Hammayoqni qovjiratadigan issiq suzardi qal'a ustida, jaziramada shishib ketgan murdalar o'zidan-o'zi qimirlab qo'yardi. Dimoqqa urilib ko'ngilni ozdiradigan, chang va porox hidiga aralashib ketgan sassiq hid yerto'laga oqib kirardi. Go'daklar ham yig'lamay qo'yishgandi endi, chunki ularning qurib qolgan ko'zlaridagi yosh allaqachon tugagan edi.

– Nemis qo'mondonligi yarim soat ichida yerto'lalardan qurolsiz chiqqanlarning hammasiga hayot in'om etadi, urush tamom bo'lgandan keyin esa, ularga ozodlik beradi. Oilalaringiz, onalaringiz, xotin, bola-chaqangiz haqida o'ylang! Askarlar, ular sizlarni kutishyapti!

Ovoz tinishi bilan qal'a ham jimjit bo'lib qoldi. Bu jimjitlik kecha-kunduz bo'lib o'tgan janglardan, bombalar portlashidan, ochlik va tashnalikdan toliqqan og'ir va dahshatli jimlik edi. Bu jimlik, dushman qo'ygan ultimatumga yagona javob edi.

– Onalar haqida eslab qolishdi, – dedi politruk. – Demak, nemis masalaning bunday tus olishini kutmagan.

*Atrof shipshiydam dala
Manzil olis, yo'l uzoq...*

Issiqda toblangan havoda aniq va ravshan jaranglardi qo'shiq. Be-poyon kengliklar va ulkan sog'inch haqidagi jonajon rus qo'shig'i edi bu. Kutilmagan bu holdan Plujnikovning o'pkasi to'lib, bosib kelgan ko'z yoshlarini tishini tishiga qo'yib arang ushlab turardi. Jarangli ovoz esa, qo'shiqni erkin kuylar, qurum bosgan ambrazuralar yonida ussiz yig'lab butun qal'a tinglardi uni.

– Chidolmayman!.. – Salnikov polga yotib, titrab-qaqshagancha g'ishtlarni mushtlay boshladi. – Chiday olmayman! Onam, onam aytadigan qo'shiq bu...

– O'chir ovozingni! – qichqirdi politruk. – U ablahlarga xud-di mana shu narsa kerak! Mana shuni – ko'z yoshlarimizni mo'l-jallayapti ular!

Salnikov jim bo'ldi. Musiqa yana jaranglab tarala boshladi, Plujnikov birdan mana shu musiqa aralash g'alati bir gulduragan ovoz eshitib qoldi. Diqqat bilan quloq solsa ham so'zlarni aniq eshita olmadi, ammo tushundi: qayerdadir, xarobalar orasida qurib, qaqrab ketgan ovoz bilan «Internatsional»ni notekis aytishardi. Buni tushundi-yu, o'rnidan turdi u.

*Bu bizning eng oxirgi,
Eng keskin, zo'r kurash...*

Politruk so'nggi kuchlarini to'plab aytardi. Bo'g'iq ovozlari bilan gimnning so'zlarini qichqirib aytar ekan, ozib ketgan, qurum va chang bosgan yuzidan ko'z yoshlari yumalab tushardi. Shundan so'ng Plujnikov, keyin chegarachi ham qo'shilib ayta boshlashdi. Salnikov ham o'rnidan turib ular yoniga kelib saflandi va yelkama-yelka turib «Internatsional»ga jo'r bo'ldi.

*Bizga hech kim ozodlik bermas,
Na shoh, na boshqa, na botir...*

Ular shunday baland ovoz bilan kuylashardiki, umrlari bino bo'lib bunday baralla kuylashmagandi. Ular o'z gimnlarini aytishar, bu gimn nemislarning takliflariga bir yo'la javob ham edi.

Kir bo'lib ketgan yuzlaridan yosh oqib tushar, bu ko'z yoshlaridan uyalishmasdi ular, chunki bu boshqacha ko'z yoshi edi. Nemis qo'mondonligi kutgan va mo'ljallagan ko'z yoshlari emasdi bu ko'z yoshlar.

3

Plujnikov parchalangan g'isht bo'laklariga to'lib ketgan, oxiri ko'rinmaydigan yerto'lada urinib-surinib asta gandraklab yurardi. U tez-tez to'xtab, ko'z ilg'amaydigan qorong'ilikka tikilar, qaqragan tili bilan yaralanib, qotib ketgan labini uzoq yalardi. Uchinchi burilishdan keyin kichkina nur ko'rinishi kerak edi: oshxona xarobasidan topib olgan o'ntacha shamni qosh-kipriklarigacha o'sib, qiltiriq bo'lib qolgan feldsherga o'zi olib kelgandi. Ba'zan yiqilib tushardi u, har safar yiqilayotganda flyagani mahkam tutardi, chunki unda bir amallab topilgan eng aziz narsa – yarim stakan sassiq, loyqa suv bor. Har qadam tashlaganda suv qulqullar, qulqullagan sari suv to'kilyaptimi deb xavfsirar, shunday ichgisi kelardiki, ammo bu suvni ichishga mutlaqo haqqi yo'qligini bilardi.

Yonida qulqullab ketayotgan suvni unutish, o'zini chalg'itish uchun kunlarni sanay boshladi. Mudofaaning dastlabki uch kunini aniq eslardi u, undan keyingi kunlar va tunlar, nogahon hujum va bombardimon, o'qqa tutishlar, yer ostidagi adashishlar, dushman bilan bo'lgan olishuvlar va hushdan ketgandagiga o'xshagan qisqa unutishlardan iborat bo'lgan yagona zanjirga birlashib ketgan edi. Hatto uxlaganda ham esdan chiqmayotgan doimiy suv ichish istagi – tashnalik holdan toydirardi uni.

Qaysi tomondandir nemislar kelib qolishdi, ular hamon politrukni qulayroq joylashtirish bilan ovora edilar. Ular qochib ulgursin deb politruk qattiq qichqirdi, darhaqiqat ular snaryad vayron qilgan, derazalar o'rni hosil bo'lgan teshiklardan o'tib yugurib ketishdi. Orqadan bir necha marta otilgan o'q ovozi va granataning portlagani eshitildi: politruk so'nggi bor jangga kirib, ular uchun nihoyatda zarur bo'lgan sekundlarni yutdi. Ular yana qochishga ulgurishdi va o'sha kuniyoq chordoq to'siqlari orqali o'zlariniki yoniga yetib olishdi.

Omadimiz keldi deb yana xursand bo'ldi Salnikov. Ular o'zlariniki yoniga kelishganda na suv bor edi, na o'q-dori: portlatgichi bo'lmagan besh yashik granata bor edi, xolos. Bu yerdagilar tunda nemislar yoniga

borib, toshdan ishlangan tor yo'laklarda bo'g'ilib, so'kinib dushman-ga nayza va xanjar sanchishar, miltiq qo'ndog'i va portlamaydigan granatalar bilan urishar, kunduz kunlari esa, duch kelgan qurol bilan o'zlarini himoya qilishardi. Iriy boshlagan murdalarni nari-beri surib raketaning binafsharang nurida suvga emaklab borishar, so'ng, kimda-kim tirik qolsa, kotelokning bandidan tishlab, boshini pastga egmasdan orqaga emaklab qaytardi. Kimning omadi yurishmagan bo'lsa kotelokka yuztuban yiqilar va o'lim oldidan bir-ikki ho'plam suv ichish-ga ulgurardi. Ularning esa, omadi yurishgani uchun, bir qultum suv ichishga ham haqlari yo'q edi.

Kunduz kunlari erta tongdan to shomgacha ketma-ket bomba tashlashar, to'xtovsiz o'qqa tutishar edi. Agar bordi-yu taraqa-turuq biroz to'xtagudek bo'lsa, yana o'sha begona yasama ovoz qarshi-lik ko'rsatishni to'xtatish haqida gapirib, yana yarim soat yoki bir soat muddat berar, yana o'sha dilga yaqin qo'shiqlar bilan qalblari-ni tilka-pora qilardi. Taralayotgan qo'shiq va tashnalikdan o'layotgan go'daklarning unsiz yig'ilarini indamay tinglashardi ular.

Keyin ularga yorib o'tish haqida buyruq keldi, shu munosabat bilan o'q-dori va hatto granatalar uchun portlatkich ham berishdi. Ular uchovlari ko'prikkaj hujum qilib uning qoq beliga borishganda yigirma metrcha naridan, bir yo'la oltita o'qsochardan o'qqa tutdi nemislar. Uning bu safar ham omadi keldi, chunki ko'prik to'sig'idan Muxovets tomon sakrashga ulgurdi va taqdir taqozosi bilan daryodan to'yib-to'yib suv ichib, o'z odamlari yoniga chiqib oldi. So'ng ko'prikkaj yana bordi, chunki Volodka Denishchik, Gomel shahri, Karl Marks ko'chasi, bir yuz o'n ikkinchi uy, to'qqizinchi kvartirada turuvchi chegarachi ham o'sha yerda qolishgan edi. Salnikov esa, yana omon qoldi, u keyin kazematga qaytib kelgach xursand bo'lib qichqirdi:

– Ko'rdinglarmi, yana omadim keldi! Men uchun kimdir Xudoga toat-ibodat qilyapti, yigitlar! Buvijonim cherkovga tez-tez qatnayotgan bo'lsalar kerak.

Bular bari qachon bo'lib o'tdi? Ayollar va bolalarni asirlikka jo'natish haqida qaror qabul qilingandan oldinmi yoki keyinmi? Quyosh nuri taralib turgan hovliga teshiklardan emaklab chiqishdi ular: ozib-to'zib ketgan, ustilaridagi kiyimlarni yara bog'lash uchun yirtib tugatgan yarim yalang'och odamlar. Bolalarda yurishga mador bo'lmagani uchun ayollar ko'tarib olishgandi. Ular ham yig'ib olinmagan murdalarning har biriga tikilib, ehtiyotlik bilan qadam tash-

lashar, balki xuddi mana shu yerda yotgan, o'lgandan keyin ham o'q parchalari tegib tilka-pora qilgan, tanib bo'lmaz darajada shishib, o'zgarib ketgan murda ularning eri, dadasi yoki akasi bo'lishi mumkin edi. Qal'a shinaklari jimjit bo'lib qoldi, ko'z yoshlariga parvo qilma-gan nemislar, birinchi marta xotirjam va ochiq-oydin turishardi daryo bo'yida.

Qachon bo'lgan edi bu – qamalni yorib chiqish uchun qilingan behuda urinishdan oldinmi yoki keyinmi? Plujnikov oldinmi yoki ke-yinmi ekanligini eslashga ko'p harakat qildi – eslay olmadi. Mutlaqo eslay olmadi.

Plujnikov shamning miltillagan nurini ko'raman deb mo'ljal qil-gan edi, ammo nurni ham ko'rishga ulgurmay, muyulishga yetmas-danoq ingrangan ovoz eshitdi. Quloqni kar qiluvchi bombardimon va quloqning uzluksiz shang'illashiga qaramay, hozircha yaxshi eshitardi u, cho'ziq va xirillagan ingrash, ingrashgina emas, bo'kirish uning qu-log'iga juda aniq yetib kelayotgandi. Bir kun avval nemislar samolyot-dan benzin solingan bochka tashlashdi, lovillab yonayotgan suyuqlik qizil askarga kelib urildi, ingrab qichqirayotgan ana shu jangchi edi. O'sha payt Plujnikov uning yonida bo'lgani uchun, u ham biroz kuy-di, shunday bo'lsa ham jangchini yerto'laga o'zi olib tushdi. Jangchi qichqirishni o'sha paytda boshlagan edi, ko'rinishdan hamon qichqirib yotardi.

Ammo bu qichqiriq yolg'iz emasdi. Ahvoli og'ir bo'lganlarni el-tib qo'yishgan yerto'la ichkarisiga yaqinlashgan sari Plujnikov boshqa ingrangan ovozlarni ham eshita boshladi. Bu yerda, qorniga o'q tegib ichak-chavoqlari osilib qolganlar, qo'ldan yoki oyoqdan ayrilgan-lar, boshiga o'q tekkanlar – yorug' dunyo bilan vidolashayotganlar yotishardi. Ularga davo nemis arog'i-yu, tashnalik va ochlikdan a'zoyi badani xalta bo'lib osilib va bujmayib ketgan mo'min-qobil feld-sherning qo'llari, xolos. Bu yerdan hech kim chiqmasdi endi, tinchib qolganlarni olib chiqib ketishardi, so'nggi kunlarda esa, olib chiqish-may ham qo'yishdi, chunki bu ishni bajaradigan odamlar ham, kuch ham, vaqt ham yo'q edi.

– Suv olib keldingmi?

Feldsher suvni o'zi uchun so'ramadi: bu yerda ketma-ket o'layotganlar va murdalar bilan to'lib ketgan yerto'lada bir tomchi suv-ni isrof qilish jinoyat hisoblanardi. Tashnalik tufayli hayoti azob bilan tugab borayotgan feldsher o'ziga bir qultum suvni ham ravo ko'rmasdi.

– Yo‘q, – yolg‘on gapirdi Plujnikov. – Aroq bu.

Ertalabki bombardimon paytida suvni o‘zi topgan edi. Portlashlar va jaranglab kaskaga tekkan o‘q parchalaridan qulog‘i tom bitib sohilga emaklab bordi va qaramasdan flyagani suvga botirib iloji boricha oldi, ammo o‘zi bir qultum ham ichmadi: bu yagona va bebaho narsani Denishchikka olib borayotgani uchun ham aldagan edi.

– U tirik, – dedi feldsher.

Ustida sham yonib turgan yashik yonida o‘tirganicha ifloslanib qatirmachiq bo‘lib ketgan ust-boshlarni uzun-uzun yirtib tirik qolganlarning yarasini bog‘lash uchun latta tayyorlardi u.

Plujnikov unga uchta nemis sigareti berdi. Feldsher tamakilarni ishtiyoq bilan olib chekmoqchi bo‘ldi, ammo qo‘llari qaltirab, o‘zi esa gandraklab anchagacha tamakini tutolmay ovora bo‘ldi.

Chirigan hidga va azob-u sitamlarga to‘la bo‘g‘iq havoda sham zo‘rg‘a miltillab yonardi. Miltillayotgan olov sham piligini yalang‘ochlab dam o‘chmoqchi bo‘lar, dam yana jonlangandek bo‘lardi. So‘nishni istamasdi, yana yonishga, yashashga intilardi. Shamga qarab turar ekan, Plujnikov nima uchundir qal‘a haqida o‘yladi va dedi:

– Bu yerdan ketishga buyruq berildi, har kim o‘z bilganicha yo‘l topib ketsin.

– Xayrlashgani kirdingmi? – sal qimirladi deguncha a‘zoyi badani qaqshayotgan feldsher asta o‘girildi va so‘nib borayotgan ko‘zlarini unga tikdi. – Ularga aytma. Keragi yo‘q.

– Tushunaman.

– Tushunaman? – boshini qimirlatdi feldsher. – Hech narsaga tushunmaysan. Hech narsaga. Tushunganingda menga aytmagan bo‘larding.

– Buyruq senga ham taalluqli.

– Ulargachi? – qorong‘i yerto‘lada ingrab yotganlarga imo qildi feldsher. – Ularni nima qilamiz, g‘ishtga ko‘mib ketamizmi? Hatto otib tashlashning iloji yo‘q? Tushunyapsanmi, otib tashlashning iloji yo‘q! Ana o‘shalar taalluqli menga. Buyruq... Buyruqning aloqasi yo‘q menga: o‘zimga o‘zim dahshatliroq buyruq berdim. – U jim bo‘lib qoldi, ko‘zlari bir zum, bir lahzagina juda g‘alati bo‘lib yiltilladi. – Agar har bir askar, tushunyapsanmi, har bir askar, o‘ziga buyruq berib ana shu buyruqni bajarsa – nemis yer tishlaydi. O‘ladi! Urushning ham kuni bitadi. Tugaydi urush. Ana o‘shanda urushga xotima beriladi.

Qaqrab ketgan lablari-yu, o'yilib ketgan og'zi bilan tirishgan holda tamaki tortar ekan, jim bo'lib qoldi u. Biroz indamay turgach, Plujnikov cho'ntagidan yarmi kemirilgan qattiq nonni olib yonib turgan shamning yoniga qo'ydi va hayot bilan abadiy vidolashganlar, ingrab yotganlarni asta oralab yerto'la ichkarisiga yurib ketdi.

Denishchik ko'zini yumib yotardi, uning qon shimgan iflos lat-ta bilan bog'langan ko'kragi har nafas olganda talvasalanib yuqoriga sapchirdi. Plujnikov uning yoniga o'tirmoqchi edi, ammo yelkama-yelka bo'lib boshqa yaradorlar ham yotgani uchun faqat cho'qqayishga to'g'ri keldi. Bunday turish unga juda qiyin edi, chunki g'isht tegib lat yegan beli qattiq og'rirdi.

– Yoningdagini nariroq surib qo'y, – ko'zini ochmay gapirdi Denishchik. – Uning joni kecha uzilgan edi.

Plujnikov qotib qolgan murdani arang yoniga ag'dargan edi, uning yog'ochdek cho'zilgan qo'llari toshdan ishlangan polga taraqlab tegdi. So'ng uning yoniga o'tirib, boshqalarning e'tiborini o'ziga tortmaslik uchun belbog'iga bog'langan flyagani astagina yechdi. Denishchik flyaga tomon intildi-yu, yana birdan o'zini tortdi:

– O'zing-chi?

– Meni qo'yaver, men yarador emasman. Flyagadan qulqullab chiqqan ovoz, zimiston yerto'ladagilarni harakatga keltirdi. Kimdir o'lganlar va yaradorlarni bosib u tomon emaklab kelar, kimdir allaqachon Plujnikovning yelkasidan ushlab tortqilar, yulqir edi. Engashgan holda tanasi bilan chegarachini to'sib turgan Plujnikov shoshgancha shivirlardi unga:

– Ich. Ich, Volodya. Ich.

Yerto'ladagilar bo'lsa to'lg'amar, g'ayritabiiy ingrab uvlashar, majolsizlangan, ozg'in, nimjon qo'llarini cho'zib u tomon emaklab kelishar va dahshatli bo'g'iq ovoz bilan baravariga:

– Suv-v!.. – deyishardi.

– Suv yo'q! – qattiq qichqirdi Plujnikov. – Suv yo'q birodarlar, o'rtoqlar, suv yo'q.

– Suv-v! – xirilladi qaqrab ketgan tomoqlar, kimdir yig'lar, kimdir so'kinar va kimningdir hamon cho'zilib turgan qo'li Plujnikovning yelkasidan, harbiy forma ustidan taqiladigan tasmaidan, badaniga yopishib ketgan gimnastyorkasidan tortqilardi.

– Tunda olib kelaman, o'rtoqlar! – qichqirdi Plujnikov. – Hozir boshni ko'tardig deguncha otishadi. Icha qolsang-chi endi, Volodka, ich!..

Yerto'la bir daqiqa jim bo'lib qoldi. Chegarachining qanday qiyalib yutinayotgani hammaga eshilib turardi. Bo'shagan flyaga yerga taraqlab tushishi bilan yana kimdir o'zini urib qichqirib yig'lab yubordi.

– Demak, endi ertaga o'laman, – dedi birdan Denishchik, u majolsizgina iljaygan edi, tishlari yiltirab ko'rindi. – Bugun kunim bitdi deb o'ylagan edim, yo'q – ertaga ekan. Urushgacha men Osvodda ishlardim. Kuni bo'yi suvda bo'lardim. Tezoqar daryo uzoq-uzoqlarga olib ketardi. Suv yutgan paytlar ham bo'lib turardi... – Jim bo'lib qoldi u. – Demak, ertaga... Hozir nima, tunmi yoki kunduzmi?

– Kunduz, – dedi Plujnikov. – Nemislar yana avrashga tushdi.

– Avrash? – bo'g'iq ovoz bilan kuldi Denishchik. – Avrashyapti degin? Yuz marta o'ldirsalar ham yana avrayaptilarmi? O'liklarni-ya? Demak, biz bu yerda bekorga o'tirganimiz yo'q ekan-da?.. – u tirsagiga tiralib o'rnidan turdi va qorong'ilikka qarab qichqirdi: – Bir qultum suv uchun yalinib-yolvormanglar, yigitlar! Bir qultumgina edi, xolos, baham ko'rishning iloji bo'lmadi. Eshityapsizlarmi, avrashyapti bizni. Yana yalinishyapti...

U zo'riqib yo'talgan edi, og'zidan ko'pirib qon chiqqa boshladi. Yerto'ladagilar jim bo'lib qolishdi, faqat badani kuygan jangchi cho'zib-cho'zib ingrardi. Qorong'ilikdan kimdir dedi:

– Bizni kechirasan, birodar. UZR. Yuqorida nima gaplar bor?

– Yuqoridami? – nima javob qaytarishni o'ylab olish uchun qaytadan so'radi Plujnikov. – Bo'sh kelayotganimiz yo'q, o'q-dori topdik. Ha, aytganday, ertalab bizning lochinlarimiz uchib kelishdi. To'qqizta ekan! Tepamizdan uch marta aylanib uchib o'tishdi. Demak, biz haqimizda bilishadi, ha, bilishadi. Balki, qurshovni yorib o'tish uchun razvedka qilishayotgandir...

Hech qanday samolyotdan darak ham yo'q, hech kim qurshovni yorib o'tishga tayyorgarlik ham ko'rayotgani yo'q edi. Shuningdek, hech kim mamlakatimizning eng g'arbiy chegarasida, nemislarning orqa tomonida joylashgan eski qal'a jon olib jon berayotganini bilmasdi. Lekin Plujnikov, kimlardir bizlarning bu yerda ekanimizni biladi, qachon bo'lmasin yordamga keladi degan gapga o'zi qat'iy ishongan holda boshqalarni aldagan edi.

– Kelishadi biznikilar, – dedi u o'pkasi to'lib. Ayni choqda u bu holatini yerto'ladagi odamlar sezib qolishlaridan qo'rqardi.

– Biznikilar, albatta, kelishadi. Kelishadigina emas, Berlingacha borishadi, Gitlerni esa, eng baland simyog‘ochga osib qo‘yishadi.

– Osish kamlik qiladi, – sekingina gapirdi kimdir. – Ikki hafta davomida bir qultum ham suv bermaslik kerak.

– Qaynoq suvga solish kerak uni...

– Kerak, kerakni bas qilinglar, – dedi bundan sal oldin kechirim so‘ragan odam. – Odamlarimiz kelguncha chidab turgin, birodar. Albatta, chidab turgin. Omon qolgin. Ana shunda ularga: yigitlar, bu yerda... – U jim bo‘lib qoldi, hayot bilan vidolashayotganda tiriklarga aytadigan yagona so‘zni axtarayotgan edi u.

– O‘ldilar, ammo nomusni qo‘ldan bermadilar, – dedi yoshgina yigit past ovoz bilan aniq va tushunarli qilib.

Hamma sukunatda edi. Mana shu sukunatda dahshatli o‘limga ham bo‘yin egmagan kishilarning o‘tkir g‘ururi sezilib turardi.

Hamma singari Plujnikov ham sukut saqlar, soqoli o‘sib, kir bosgan yuzidan astagina oqib tushayotgan ko‘z yoshlarini sezmasdi u.

– Kolya, – uning yengidan tortqiladi Denishchik. – Hech narsa iltimos qilmayman sendan: o‘q-dorini asrash kerak. Meni faqat shu yerdan chiqarib qo‘ysang bo‘ldi, Kolya. Men o‘zim yetib olaman, sen xavotir olma, yetib olishimga ko‘zim yetyapti. O‘lsam ham ertaga o‘laman, quvvatim bor hali. Kel, menga biroz qarashib yubor! Qu-yoshni ko‘rgim kelyapti, Kolya.

– Yo‘q, u yerga tinimsiz bomba tashlashyapti! Undan keyin yetib borishing ham amri mahol.

– Yetib olaman, – asta gapirdi chegarachi. – Mendan qarzdor-san sen, Kolya. Gapirmoqchi emasdin-u, lekin gapiraman endi. O‘q to‘g‘ri sen tomonga uchib kelayot-gandi, leytenant, qo‘rg‘oshin parchasi senda bo‘lishi kerak edi, Kolya! Shunday bo‘lgach, yorug‘likka olib chiq meni. Vassalom. Hatto bir qultum suv ham so‘ramayman sendan. Quvvatim bor hali, sen tashvish tortma, yetib olaman men. Hayotimning so‘nggi kuni yorug‘likni ko‘rmoqchiman, tushunyapsan-mi?

Plujnikov chegarachini bir amallab o‘rnidan turg‘azdi. Denishchik qattiq qisilgan tishlari orasidan qiynalib og‘ir nafas olar va ing-rashdan o‘zini arang tutib qo‘llari bilan Plujnikovga osilib olgan edi. Oyoqda turib olgach, eshik tomon o‘zi yura boshladi: yerda yotgan jangchilar ustidan hatlab o‘tish paytidagina Plujnikov unga biroz yordamlashdi.

Feldsher o'sha o'tirgan holati bo'yicha halok bo'lganlarning kiyimlarini tartib bilan bo'y-bo'y qilib yirtardi. O'lim va chirishdan hosil bo'lgan sassiq havodan diqqinafas bo'lgani kabi hamon dud chiqarib yonardi sham. Uning yonidagi bir burda sap-sariq qotgan nonga hech kim tegmagandi hali.

Ular dam-badam to'xtab, anchagacha sudralib borishdi: Denishchik ovozi xirillab tez-tez nafas olar, o'q tekkan ko'kragida nimadir bilqillar va u majolsizlangan qaltiroq qo'li bilan labidagi qon ko'piklarini artib qo'yardi. To'xtashgan paytida Plujnikov yerga o'tqazib qo'yardi uni. Denishchik bor kuch-uvvatini ham yo'qotmaslik uchun devorga suyangan bo'yicha ko'zlarini yumib indamay o'tirardi. Faqat bir marta so'radi:

– Salnikov tirikmi?

– Tirik.

– Uning omadi bor. – Beg'araz gapirdi chegarachi. – Hali ham suvga qatnayaptimi?

– Qatnayapti. – Plujnikov aytsammi, aytmasammi degan ma'nodan biroz indamay qoldi. – Menga qara, Volodya, hammamizga buyruq berilgan: har kim har tomonga ketishi kerak.

– Qanday qilib?

– Mayda guruhlarga bo'linib qal'adan chiqib ketish va o'rmonzorga yashirinish kerak.

– Tushunarli, – Denishchik asta xo'rsinib qo'ydi. – Demak, jon saqlash kerak ekan-da. To'g'ri-da, bu yerda xuddi qopga tushgandek o'tira beradimi?

– Sen to'g'ri deb o'ylaysanmi?

Denishchik anchagacha indamay qoldi. Kipriklari ostidan yumalab chiqqan bir tomchi ko'z yoshi qalin o'sgan soqollari orasida yo'q bo'lib ketdi.

– Sen Salnikov bilan ketgin, Kolya.

Plujnikov xo'p degandek boshini qimirlatib qo'ydi. Agar ko'prik ustidagi o'qsocharlar bo'lmaganda faqat u – Volodya Denishchik bilan ketish niyati borligini aytmqochi bo'ldi-yu, ammo aytmadi.

Denishchikni u bo'sh yotgan kazematga olib kirdi va bulut hamda tutun qoplagan osmon ko'rinib turgan kichik tuynukka yuzini to'g'rilab g'isht polga yotqizib qo'ydi.

– Shinel ola kelmabmiz-da. Feldsherning yonida yotganini ko'rgan edim men.

- Keragi yo‘q.
- Yuqoridan olib kelaman. Hozircha tinch-ku.
- Mayli, olib kela qol.

Plujnikov chegarachining tobora nursizlanib hayotni tark etayotgan ko‘zlariga so‘nggi bor qarab kazematdan chiqib ketdi. Muyulishdan qayrilib, xarobaga aylangan zinapoyadan yursa birinchi qavatga ko‘tariladi. Plujnikovga notanish bo‘lgan artilleriyachi-kapitan tunggi hujumdan so‘ng to‘plagan, qo‘lida qurol tuta oladigan odamlar u yerda hali ham jang qilishardi.

Shundoqqina boshining tepasida gumburlab bomba portlaganda u hali muyulishga yetmagandi. Uning kaskasi va yelkalariga shuvoq parchalari uchib tushdi. Portlashdan hosil bo‘lgan to‘lqin muyulish yonidagi devorga tuproq aralash chang va nemis tolining achchiq dudini olib kelib urdi.

G‘ishtlar sochilib, to‘siq devorlar hamon ag‘anayotgan bo‘lsa ham, Plujnikov sassiq, chang bilan aralashib ketgan tutunga o‘zini urdi va xarobaning narigi tomoniga o‘tib oldi. Qayerdadir avtomatlar «til»ga kirdi, portlashlar tufayli hosil bo‘lgan pag‘a-pag‘a tutunlar orasidan ko‘rinayotgan otishma alangasi ko‘zni qamashtirardi. Qorong‘ilikdan chiqib kelgan kimningdir qo‘li uning tasmaidan tortib deraza tuynugiga yaqinlashtirdi. Ana shundagina Plujnikov Salnikovning chang bosgan va g‘azabdan o‘zgarib ketgan basharasini ko‘rdi.

- Portlatishdi, ablahlar! Devorni portlatishdi!
- Kapitan qayerda! Plujnikov, kapitanni ko‘rmadingmi?

Salnikov qattiq qichqirib, ochilib yotgan deraza tomon ketmaket o‘q uzdi. O‘sha tomonda, chang-to‘zon ichida noaniq sharpalar, otishma alangalari ko‘zga tashlanardi. Plujnikov tutun bilan liq to‘lgan birinchi qavatga yugurarkan, majaqlangan oyog‘i va chiyirilib qonga belangan paytavasini hamon sudrab, hamon nafas olayotgan jussaga qoqilib ketdi, oyog‘iga paytava o‘ralashib yiqildi, o‘rnidan turgan edi, kapitanni ko‘rdi. Kapitan devorga biqinib o‘tirar, uning kuyib, qontalashib, qizg‘ish tusga kirgan yuzidan yosh marjondek tizilib oqardi.

– Ko‘rmayapman! – ham jiddiy, ham xafa bo‘lib qichqirdi u. – Nima uchun ko‘rmayman? Nima uchun? Leytenant qayerda?

– Shu yerdaman, – soqollari jizg‘anak bo‘lib, yuzlari shishgan va ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan komandir qarshisida tiz cho‘kib gapirdi Plujnikov. – Qarshingizda turibman men, o‘rtoq kapitan.

– Patron top, leytenant! Qayerdan bo‘lmasin, patron topish kerak! Ko‘rmayapman men, hech narsani ko‘rmayapman!..

– Topaman, – dedi Plujnikov.

– To‘xta!.. O‘qsochar yoniga o‘tqazib qo‘y meni. O‘tqaz, o‘qsochar yoniga...

Plujnikovni qidirib, atrofni paypaslay boshladi u. Plujnikov uning qaltiroq qo‘llarini ushlab, nima uchundir ko‘kragiga bosdi.

– Mana shu yerdaman.

– Tamom, – uni paypaslab ushlar ekan, astagina gapirdi kapitan. – Ko‘zdan ayrildim endi. Patron, qayerdan bo‘lmasin patron topish kerak. Buyuraman senga.

U qo‘lini tortib olar ekan, ko‘z yoshidan nam bo‘lib ketgan yuzini barmoqlari bilan ushlab qo‘ydi. So‘ng, o‘ng qo‘li odatdagidek to‘pponcha g‘ilofi tomon sirg‘aldi.

– Sen hali ham shu yerdamisan, leytenant?

– Shu yerdaman.

– Mening hujjatlarimni ko‘mib qo‘yasan, – kapitan to‘pponchasini oldi va paypaslab predoxraniteldan bo‘shatdi. Endi uning qo‘llari titramasdi. – To‘pponchani olib ketgin, yettita o‘q qoladi ichida.

U to‘pponchani qiya ko‘targancha boshining duch kelgan joyini tismollab mo‘ljalga ola boshladi.

– O‘rtoq kapitan! – qichqirdi Plujnikov.

– Jim bo‘!!

Kapitan to‘pponcha stvolini og‘ziga tiqib tepkini bosib yubordi. O‘q ovozi bo‘g‘iq chiqqandek tuyuldi Plujnikovga. O‘q teshib o‘tgan kalla devorga do‘qillab urildi va azobdan ikki bukilgan kapitan yer tirmab emaklay boshladi.

– Tamom bo‘ldi.

Plujnikov o‘girilib qaradi: yonida serjant turardi.

– Dushman hujumini qaytardik, – dedi serjant. – Axborot berishga ulgura olmadim. Afsus. Otishma to‘xtaganini serjant gapirgandan keyingina payqadi Plujnikov. To‘zon asta-sekin tarqalib, dabdala bo‘lib ketgan deraza romlari va xarobalar yonida turgan jangchilar ko‘zga tashlanardi.

– Uchtagina disk qoldi, – dedi serjant. – Yana bir marta ketma-ket otilsa – tamom-vassalom.

– Patron topaman men.

Plujnikov kapitaning hali sovib ulgurmagan qo‘lidan TT pistoletini tortib olib, cho‘ntagiga solib qo‘ydi. O‘rmidan turar ekan, gapirdi unga:

– Uning hujjatlarini yerga ko‘mib qo‘yasan. O‘zi shunday qilinglar degan edi. Men patron olib kelaman. Shu bugunoq olib kelaman.

U omadli Salnikov bilan ajralishgan joydagi deraza tokchasi tomon yurdi.

Tokchada hech kim yo‘q edi, uyulib yotgan g‘ishtlarga horg‘in o‘tirdi Plujnikov. Garchi u dushman hujumini qaytarishda qatnashmagan, portlashdan zarar ko‘rmagan bo‘lsa ham, tinka-madori qurigandek his qilardi o‘zini. Darvoqe, bu holat anchadan buyon tark etmasdi uni: portlash zarbidan bir necha bor karaxt bo‘ldi, tuproq ostiga ko‘milib qoldi, porox va tutundan zaharlandi, hatto oyog‘idagi o‘z holiga tashlab qo‘yilgan arzimasa yara ham tizzani o‘qtin-o‘qtin og‘ritib azob berardi. G‘isht parchalaridek zarb yegan buyraklar zirqirar, ochlik, tashnalik, uyqusizlik va kiyimlarining har bir qatiga singib ketgan sasigan murda hidi uning ko‘nglini behuzur qilardi. Faqat xavf-xatar haqida qanday qilib bo‘lsa ham dushman hujumini qaytarish haqida, o‘q-dori, suv, oziq-ovqat topish haqida o‘ylash unda odat tusiga kirgan va ayni zamonda biron narsani eslash, xotiraga olishni unutib qo‘ygandi. Hatto mana shu qisqa daqiqalik jimjitlik paytida ham na o‘zi haqida, na o‘zini-o‘zi otib tashlagan kapitan haqida va na zimiston yerto‘lada hayotdan ko‘z yumgan Denishchik haqida o‘yladi, u faqat qamalidan qutulishning yagona omili hisoblangan o‘q-dori haqida o‘ylardi.

Nemislar tomondan qaytgan Salnikov derazadan kirib keldi. Yerga uchta avtomat oboymasini tashlar ekan, gapirdi u:

– Voy ablah nemislar-ey: hujumga flyagasiz kirishibdi-ya.

– Menga qara, Salnikov, o‘sha, birinchi kun sening esingda bormi? O‘shanda sen o‘q-dori olib kelaman deb yugurib ketayotgan eding. Qandaydir o‘q-dori ombori deganmiding...

– U omborni Kandakov bilardi. Biz ikkovimiz qidirib topa olmadik-ku.

– Ahmoq ekanmiz o‘shanda.

– Endi aqlimiz kirdimi? – xo‘rsindi Salnikov. – Qidirishga boramizmi?

– Boramiz, – dedi Plujnikov. – Serjantda uchtagina o‘qsochar lentasi qoldi, xolos.

– Kuppa-kunduzi boramizmi?

– Tunda borsak topa olmaymiz-da.

– Xatingizni kutib qolaman, – miyig‘ida kuldi Salnikov. – Sizga salom bilan...

Plujnikov indamadi. Salnikov choʻntagini kavlab bir hovuch kir boʻlib ketgan qattiq non boʻlaklarini oldi. Ikkovlari ham xuddi kemshik chollarga oʻxshab qattiq non boʻlaklarini anchagacha kemirib oʻtirishdi: suvsizlikdan qaqragan ogʻizlarda dagʻallangan tillar zoʻrgʻa aylanardi.

– Suv boʻlganda bormi... – odatdagidek xoʻrsindi Salnikov.

– Shinel topib kelsang boʻlardi, – dedi Plujnikov. – Volodka shipshiydam yerda yotibdi. Uning yoniga kirib chiqamiz-da, soʻng jilamiz. Oftobga chiqaylik.

– Baloning ogʻzi-yu, boʻrining changaliga degin, – ketar ekan, toʻngʻilladi Salnikov. Oradan koʻp oʻtmay u, qon tegib yelkalari dogʻ boʻlgan, baʼzi joylari kuygan bir shinel topib keldi. Soʻng bir-birlariga lom-mim demay avtomat oboymasini boʻlashib olishdi va gʻishtlar sochilib yotgan tuynukdan yertoʻlaning pastki qismiga tushib ketishdi.

Denishchik hali tirik edi: tobora nursizlanib borayotgan koʻzlari bilan derazadan koʻrinib turgan bir parcha osmonga indamay qarab yotardi. U hayot bilan vidolashayotgan odam qiyofasida ularga bir nigoh tashladi-da, soʻng yana deraza tuynugi tomon oʻgʻirilib oldi.

– Tanimayapti, – dedi Salnikov.

– Omadli odamsan, – arang gapirdi chegarachi. – Sen omadli-san. Qanday yaxshi.

– Hozir hammomda boʻlsang yaxshi, – iljaydy Salnikov. – Ham issiq ham sovuq suv bor.

– Olib kelma. Suv olib kelma. Foydasi yoʻq. Saharga borib jonim uziladi.

U bu gaplarni soddagina qilib shunday xotirjam aytdiki, unga tassalli berishlariga hojat ham qolmadi. Rostdan ham u hayotdan koʻz yumayotganini aniq tushunar, buning uchun oʻkinmas, faqat osmonga qarashni istardi, xolos. Denishchik uchun mana shu daqiqada qilindigan eng oliy shafqat – uni oʻz-oʻzi bilan, osmon bilan yolgʻiz qoldirish. Ular buni yaxshi tushunishardi. Shinelni uning ostiga astagina toʻshab, shalviragan va sovib qolgan qoʻlini qisib vidolashdi. Soʻng, tiriklar uchun oʻq-dori olib kelgani ketishdi.

Nemislar himoya liniyasini bir-biridan ajralgan mayda boʻlaklarga boʻlib tashlab, qoʻrgʻonga yorib kirishgan edi, Kunduzi ular yurgan yoʻllarini xarobaga aylantirib, kazarmaning chalkash labirinti boʻylab shiddat bilan olgʻa intilishar, tunda esa, xuddi mana shu sapyorlar portlatgan, bombalar zarbidan tep-tekis boʻlib ketgan, ognemyotlar kul

qilib kuydirgan xarobaga yana jon kirardi. A'zoyi badani qiyma bo'lib ketgan, tashnalikdan va jangdan tinkasi qurib arvohga o'xshab qolgan odamlar yerto'ladan, g'ishtlar ostidan ko'tarilib nayzabozlik jangiga kirishar va kechasi bu yerda qolgan dushmanlarni yakson qilishardi. Shuning uchun ham nemislar tundan o'larday qo'rqishardi.

Plujnikov bilan Salnikov esa o'q-dori olib kelgani kuppakunduzi ketishyapti. Chang yutib, yuzlarini g'isht timdalab, sasigan murda hididan nafasleri qaytib, har daqiqa dushman avtomatdan o'qqa tutishi mumkin ekanligini his etib emaklab borishardi ular. Hozirgi damlarning har biri eng so'nggi dam bo'lib qolishi mumkin, noto'g'ri qilingan har bir harakat, har bir qadam o'sha so'nggi damni yaqinlashtirishi hech gap emas. Shuning uchun ham ular oz-ozdan, navbatma-navbat, qadam-baqadam emaklab borishdi. Har safar emaklashdan oldin atrofni diqqat bilan uzoq kuzatishardi. Bombalarning portlashi, avtomatlarning tinimsiz tirillashi, yonayotgan alanga shatir-shuturi qal'ani larzaga solayotgan bo'lsa ham, ular emaklab ketayotgan joy hozircha tinch edi.

Bomba portlashidan hosil bo'lgan chuqurliklar jonga ora kirardi: chuqurlik tagiga o'tirib nafasni rostlash, har bir millimetrini sezgan holda olg'a tomon qilinadigan navbatdagi qadamlar uchun kuch to'plab olish mumkin edi.

Portlovchi moddaning zaharli hidi o'rmashib qolgan chuqurlikka Salnikov ikkinchi bo'lib emaklab tushdi. Plujnikov esa, quyoshda qizib ketgan kaskasini bir chetga uloqtirib, qum ustiga o'tirib olgandi.

– Uylanaman, – uning yoniga o'tirayotib do'rilladi Salnikov. – Agar tirik bo'lsam bormi, albatta uylanaman. Uylanmay o'tiribman-a, o'shanda g'irt ahmoq ekanman. Bilasanmi, unashtirib qo'yishgan edi hatto...

Plujnikovning yuziga to'satdan qandaydir soya tushdi-yu, u bu soyaning qayerdan paydo bo'lganini tushunmay endi taajjublana boshlagan edi.

– Xalt! – degan ovoz yangradi.

Avtomat o'qlari boshlar ustidan chiyillab uchib o'tdi: chuqurlik yonbagrida nemis turardi. Oradagi masofa bor-yo'g'i ikki qadam. Plujnikov astagina boshini ko'tarib, yenglari tirsagigacha shimarilgan qo'lni, tomoq tagidagi ikkita tugmasi yechilgan, g'isht changlari o'tirgan och-yashil rangli mundirni va qoq yurakni mo'ljalga olib turgan avtomat stvolining og'zini aniq-taniq ko'rdi. Avtomatlarni oyoq os-

tida – chuqurlik tagida qoldirib ikkovlari ham sekingina o‘rinlaridan turishdi. Xuddi shuningdek, bamisoli tushdagi kabi, qo‘llarini ham yuqori ko‘tarishdi.

Nemis bo‘lsa, ularga avtomatini to‘g‘rilagancha yuqorida kutib turardi: o‘zi yosh, qorni to‘q, soqollari olingan. Hozir u o‘sha qo‘lida ushlab turgan avtomatning tepkisini bosib yuborsa bormi, ular mana shu chuqurlik ostida abadiy qolib ketishlari mumkin. Shuning uchun‘ham Plujnikov, o‘sha avtomat stvolidan otilib chiqadigan olovni, o‘q qay tarzda suyaklarni parchalab, qonlarni sachratib tanaga san-chilishini his qila boshladi. Yurak nihoyatda qattiq urib ketdi, tomoqqa qandaydir yumaloq quruq narsa tiqilib qoldi, kallasi beo‘xshov qimir-lab, qattiq hiqichoq tutdi uni.

Nemis kulib yubordi. Uning kulgisi nihoyatda qattiq va xotirjam – g‘olib kishi kulgisi edi. U chap qo‘lini avtomatdan olib ko‘rsatkich barmog‘i bilan ularni o‘ziga imladi. Ular avtomat og‘ziga jon talvasasida qoqilib-turtinib bir-birlariga halal berib yuqoriga itoatkorona chiqa boshlashdi. Nemis bo‘lsa hamon xaxolab kular, ko‘rsatkich barmog‘i bilan chuqurlikdan o‘zi tomon imlardi.

– Hozir, – entikib g‘o‘ldiradi Salnikov. – Hozir, hozir.

Plujnikovdan oldinga o‘tib oldi va chuqurlikdan yarim belini chiqarib, to‘satdan o‘zini yerga tashladi, ayni shu paytda nemisning oyog‘idan ushlab, uni jon-jahdi bilan o‘ziga tortdi. Avtomatdan qator-lashib chiqqan o‘qlar bu tomonga qarab ketdi, nemis bilan Salnikov pastga sirg‘alib tusha boshlashdi, Plujnikov esa uning jon-jahdi bilan qichqirganini eshitib qoldi:

– Qoch, leytenant! Yugur, qoch! Qoch!

Shu payt yana dukur-dukur bo‘lib qoldi. Plujnikov chuqurlik qirg‘og‘iga sakrab chiqdi-yu, baqiriqni eshitib yordamga shoshilayot-gan nemislarni ko‘rdi va qocha boshladi. To‘xtovsiz otilyotgan o‘q yerga yotishga majbur etar, oyoq ostidagi g‘isht parchalarini kukunga aylantirar, u bo‘lsa hamon yugurar, o‘zini u yoqdan-bu yoqqa tashlab, murdalarning ustidan sakragancha yugurardi. Uning hurpaygan, ikki bukilgan gavdasi va ayniqsa yelkasi nihoyatda kengayib, shishib ket-gandek, hozir u go‘yo nemislardan, o‘qdan asramay, hayotiga zomin bo‘layotgandek tuyulardi.

O‘q uning dam o‘ngiga, dam so‘liga, dam oldi tomoniga kelib tu-shar, og‘zini katta ochib issiq havo yutgancha, yerni chakichlayotgan o‘qlardan boshqa hech narsani ko‘rmay u ham o‘zini dam o‘ngga, dam

so'lg'a tashlab borardi. Uning ketidan quvish nemislarning xayolida ham yo'q, qotib-qotib kulganча doira bo'ylab avtomatdan to'xtovsiz o'q uzishardi. Hammayog'i kir, ust-boshi chuvrindiga aylangan bu odam esa, xalloslab chopar, yiqilar, emaklar, yig'lar va o'q yomg'iridan hosil bo'lgan ko'zga ko'rinmas devor sari majburan yugurardi. Ular bu ermakni to'xtatishga shoshilishmas, ko'rmaganlarga gapirib berishga arziydigan ish bo'lsin uchun ovni uzoqroq davom ettirishga va hatto otgan o'qlari Plujnikovga tegib ketmasin deb harakat qilishardi.

Boshqa ikkitasi bo'lsa, chuqurlikka tushib olib Salnikovni shoshmasdan obdan tepkilardi. U allaqachon qichqirishdan to'xtagan, faqat xirillardi, xolos. Ular bo'lsa bamisoli bolg'a uruvchilardek, miltiq qo'ndog'i bilan galma-galdan bir me'yorda urishardi uni. Salnikovning og'zi-burni va quloqlaridan qon oqar, u bo'lsa bukchayganча itoatsiz qo'llari bilan hamon boshini berkitishga urinardi.

O'q doirasi asta-sekin torayib qoldi, ammo Plujnikov hamon o'sha joyda sargardon, bir joyda aylanayotganiga ishongisi kelmas, nima-dandir umid qilar, nimagadir ishonardi. Cho'ntagiga solib qo'yan pistoleti oyog'iga taqillab tegsa-da, buni u sezmasdi, uni gilofdan sug'urib olish uchun kerak bo'lgan daqiqalar yetmay qoldi. O'sha daqiqalar bo'lmadi, nafas olishga havo bo'lmadi, quvvat bo'lmadi, najot bo'lmadi. Endi o'lishgina qoldi. Leytenant Nikolay Plujnikovning xizmati ham, hayoti ham tamom bo'ladi endi.

Xarobaga aylangan yer o'rtasida yolg'iz o'zi qo'qqayib turgan g'isht devor yoniga ularning o'zlari haydab borishdi uni. O'qdan saqlanish maqsadida devor orqasiga o'zini otdi Plujnikov. Etigidan bir santimetr narida turgan g'ishtni o'q parcha-parcha qilib tashladi. Yiqildi, berkindi, bir necha sekundlar otishma to'xtadi, xuddi mana shu sekundlar ichida u qarshisidagi tuynukni ko'rishga ulgurdi. Tuynuk devor tagidan pastga – noma'lum tomonga qarab ketgan edi. Plujnikov hech narsani o'ylab o'tirmay, nimaga qodir bo'lsa, o'sha imkoniyatini ishga solib tuynuk tomon emakladi, qo'llari, tizza va tirsaklari shiliniб qonab ketganiga ham qaramadi. Tuynuk o'ng tomonga cho'rt burilgan bo'lib, u muyulishga sirg'alib borishi bilan tayanchni yo'qotib, qo'llarini yoyganча qayoqqadir tushib keta boshladi. Mana shu ketishda yuqoridagi portlashni eshitdi. Nemislar uning orqasidan granata uloqtirishdi. Granata devorga tegib muyulishning narigi tomonida portladi va yerto'laning salqin osoyishtaligini bir silkitib qo'ydi. Plujnikov qum va kesaklar uyulib yotgan g'isht polga yiqildi-yu, ammo

yomon tushmadi, qo‘li bilan tiralib qoldi. Jarohatlanmagan bo‘lsa ham, zarb bilan tushgani o‘chun burnidan anchagina qon ketdi. Qonni yuz-ko‘zlari va kiyimlariga surganicha qimir etmay yotar va o‘rganib qolgan odati bo‘yicha xavf-xatarni sharpadan aniqlardi. U bor kuchi bilan nafas chiqarmaslikka intilar, ammo yurak qinidan chiqib ketgudek bo‘lib dukillar, shu boisdan ham qancha harakat qilmasin halloslab nafas olishga to‘g‘ri kelardi. Hali nafasini rostlab ulgurmasdan oq u yonidan pistoletini olib zax polga durustroq joylashib oldi. Xuddi shu payt qadam tovushini eshitib qoldi u. Asta-asta qadam tashlab u tomon kimdir kelayotgandi, buni faqat oyoq ostida g‘ijirayotgdn qumdan bilish mumkin edi. Qorong‘ilikga diqqat bilan tikilar ekan, asta pistoletini oldi Plujnikov; uning butun a‘zoyi badani qaltirayotgani tufayli pistoletni ikki qo‘llab ushlab turardi. Uning ko‘zlari qorong‘ilikga ko‘nikib qoldi va uzoqdagi sharpani ilg‘ay oldi: u tomon ikki kishi kelardi.

– To‘xta! – ular yaqinlashib qolishganda past ovoz bilan buyruq berdi u. – Kimsan?

Sharpalar turgan joylarida qotib qolishdi, so‘ng ulardan biri bami-soli pistoletining tebranib turgan pushkasini mo‘ljallagandek, u tomon kela boshladi.

– Otib tashlayman!

– O‘rtoqlar, biz axir, o‘zimiznikilarmiz-ku! – u tomon kelayotgan odam shoshgancha quvonch bilan gapirardi. – Fedorchuk, zing‘irpoyadan yoqib yoritsang-chi biroz!

Gugurt chertilgan ovoz eshitildi. Yondirilgan mash‘alaning dudli nuri ham qorong‘ilikdagi soqol o‘sgan basharani, harbiy ustgbosh, to‘pchilar formasining qora matodan tikilgan yoqasidagi ko‘zga yaqqol tashlanadigan qizil uchburchakni yoritib turardi.

– O‘zimiznikilarmiz, eshityapsanmi, aziz birodar, o‘zimiznikilarmiz! – qichqirdi ulardan biri. – Birinchi portlashlar paytidayoq ko‘milib qolgan edik. O‘zimiz kovlab yo‘l topib chiqik, o‘yladik, o‘yladik... o‘yladik...

Mash‘alaning qaltiroq nuri birdan qalqdi, ko‘zni qamashtirib u yoqdan-bu yoqqa o‘ynay boshladi. Pistolet majolsizlangan qo‘ldan as-tagina yerga sirg‘alib tushdi. Plujnikov hushdan ketgan edi.

Hammayoq osoyishta bo‘lgan paytda hushiga keldi u, hushiga keldi-yu, tinchlik davrini eslatuvchi osoyishtalikdan qo‘rqib ketdi. Yurak to‘satdan yana dukillab ura boshladi; hali ko‘zini ochmayoq,

mutlaqo kar bo'lib qolganman, degan dahshatli xayolga bordi u va bor kuchini ishga solib, o'zi ko'nikib qolgan gumbur-gumbur portlashlarni, o'qsochar va avtomatlarning tarillashini ilg'ab olishga, eshitishga harakat qildi. Ammo ularning o'rniga ayol kishining shivirlab so'zlayotgan mayin ovozini eshitdi.

– Ko'zini ochdi, Xristya xola.

U hushiga kelib qaragan edi, baland gumbaz ostidagi qorong'i zimistonni kesib o'tgan yorug'lik shu'lasi va qiz bolaning dumaloq yuziga ko'zi tushdi: g'ayritabiiy oq, afsonaviy musaffo durra ostidan timqora soch tutami ko'rinib turibdi. Qo'lini asta qimirlatib ko'rdi – bog'lanmagan, erkin harakat qilyapti, o'zi yotgan skameykaning bir chetini ushlab ko'rdi va birdan o'tirib oldi.

– Qayerdaman men?

Keskin harakat qilgani uchun xira yoritilgan yerto'la, soqolli kishilar va ikkita ayol qiyofasi ko'z o'ngidan suzib o'tdi: yoshrog'i shundoqqina uning yonida, keksayib, munkillabroq qolgani esa ichkarida, stol yonida turardi. Bosh aylangan, ko'z tingan, bitta qiyofa ikkita bo'lib ko'rinar, ba'zan hatto aralashib ketardi, u bo'lsa skameyka ustini, cho'ntaklarini, qopday yopishqoq bo'lib ketgan gimnastyorkasini behuda timirskilar, qurolini topa olmasdi.

– Suv iching.

Ayollarning yoshrog'i tunuka krujka uzatdi. U ishonqiramay olib, ishonqiramay icha boshladi: suv nihoyatda loyqa bo'lib, ichidagi qumlari tish orasida g'ichirlardi, ammo bu o'tgan sutkalar davomidagi birinchi suv bo'lgani uchun, qalqib, entikib, yutoqib, hammasini ichib qo'ydi.

Shundan so'ng bosh aylanishi to'xtab yerto'lani, chiroqlar va odamlarning basharasini aniq ko'ra boshladi. Qarshisida katta stol, stol ustida uchta lip-lip chiroq, choynak ustiga toza sochiq yopilgan idish-tovoqlar va yana besh kishi – uch erkak va ikki ayol turardi. Beshovlari ham unga kulib qarab turishardi. Keksa ayol piqillab yig'layotgan bo'lsa ham, ko'z yoshlarini artib, yig'i aralash jilmayardi. Qandaydir juda yaqin kishilarini tushida ko'rgandek bo'ldi u, ammo eslab o'tirmadi ularni, talabchanlik bilan quruqqina gapirdi:

– Pistolet. Mening pistoletim qayerda?

– Mana pistolet, – yoshroq ayol stol ustida yotgan pistoletni olib unga uzatdi. – Meni tanimayapsizmi, o'rtoq leytenant?

U indamay pistoletini oldi va ichida o'q bor-yo'qligini aniqlash maqsadida oboymani shaqillatib ko'rdi. Pistoletda o'q borligiga ishonch hosil qilgach, oboymani dastaga joyladi va xotirjam bo'ldi.

– Tanimayapsizmi? Esingizdami, urush boshlanish arafasida – shanba oqshomi qal'aga birgalashib kelgan edik. Siz yiqilib tushgan edingiz o'shanda. Kontrol-tekshiruv punkti yonida. Men – Miraman, esladingizmi?

– Ha, ha.

Hammasini esladi u. Oqsoq qiz va ag'dar-to'ntar bo'lib ketgan qal'a ichidan sukunatlarda nemislarga asir tushgani ketayotgan bolali ayollar, birinchi zalp, Salnikov bilan birinchi uchrashuv va Salnikovning «Qoch, leytenant, qoch!» degan so'nggi qichqirig'i – hammasi ko'z o'ngiga keldi. Ko'zi ko'r bo'lib qolgan kapitan va huvillagan yerto'lada yolg'iz o'zi qolgan Denishchikni, bir tomchi suvning qadri va hayotdan ko'z yumayotganlar bilan to'lib ketgan yerto'lani ham esladi u. Qarshisida turganlarning beshovi ham bir-biriga gal bermay shoshapisha nimanidir gapirishar, ammo u hech narsa eshitmasdi hozir.

– Qornilaring to'qmi deyman? – garchi u shivirlab gapirgan bo'lsa ham, ovoz jaranglab chiqdi va to'satdan jim bo'lib qolishdi ular. – Qornilaring to'q, ustlaring but, qayg'ularing yo'q... U yerda bo'lsa, sizlarning birodarlaringiz, o'rtoqlaringiz, ana u yerda, yuqorida, o'lib yotishibdi, ustlariga tuproq ham tortilmagan. Biz ham – o'liklarmiz! O'lik bo'lsak ham jang qilyapmiz, bir emas, yuz marta o'ldirishdi bizni, ammo quolsiz, qo'llarimiz bilan dushmani hiqildogidan bo'g'yapmiz. Suv, suvni go'daklarga berganimiz no'q – o'qsocharga quydik. Go'daklar tashnalik tufayli aqldan ozishyapti, biz esa suvni o'qsocharga quyamiz! O'qsocharga, faqat o'qsocharga! To'xtamasin, otsin dedik! Nemislarni yo'latmasin, yo'lni to'ssin dedik!.. Shunday paytda sizlar bu yerda bekinib o'tirdinglarmi?.. – U sapchib turdi o'rnidan. – Ablahlar! Qo'rzoqlik va sotqinlik qilganlaring uchun otib tashlayman! Shunday qilishga haqqim bor meni! Yuqorida halok bo'lganlar haqqi aytamanki, haqqim bor meni!..

U titrab-qaqshab ovozining boricha qichqirar, ular esa indamay turishardi. Faqat u oxirgi so'zlarini aytayotgan paytda serjant Fedorchuk qorong'iga o'tib, avtomatining zatvorini shaqirlatib qo'ydi.

– Sen bizni ablah deb, haqorat qilma. – Beo'xshovroq gavda unga tomon bir talpindi-yu, to'ladan kelgan qo'llar mehribonlik va qat'iyat bilan quchoqlab oldi. Plujnikov otilib chiqmoqchi edi, ammo yelkasi

onaning muloyim ko'kragiga tegib to'xtab qol di. Soqoli o'sgan va qon qotib qolgan yuzini ona ko'kragiga qo'yib yig'lab yubordi u. Plujnikov qattiq ho'ngrab yig'lar, mehriyon qo'llar esa uning yelkasini silar, onasinikiga o'xshab ketadigan mayin, bosiq ovoz asta shivirlardi:

– O'zingni bos, o'g'lim, o'zingni bos. Mana sen qaytib kelding, uyingga qaytib kelding, sog'-salomat qaytding. Damingni ol endi, nima qilish kerakligini keyin gaplashamnz. Damingni ol, o'g'lim.

«Mana men qaytib ham keldim, – o'yladi Plujnikov. – Qaytib keldim...»





UCHINCHI QISM

1

22-iyun tongida starshina Stepan Matveyevich, starshiy serjant Fedorchuk, qizil askar Vasya Volkov va uch ayol choy ichib o'tirgan ombor, artpodgotovkaning birinchi minutlaridayoq og'ir snaryadlar bilan ko'milib qoldi. Snaryad omborga kiraverishda portladi, to'sinlar ag'anamadi, ammo zinapoya o'pirilib tushdi, yuqoriga chiqadigan yagona yo'l bekilib qoldi. Qutulishning birdan-bir yo'li mana shu deb hisoblashardi o'shanda. O'sha snaryad Plujnikovning esida bor: portlash to'lqini yangigina hosil bo'lgan chuqurlikka irgitib yubordi uni, birozdan so'ng endi o'ziga kelgan paytda, Salnikov ham uning yoniga yiqildi. Snaryad Plujnikovning orqa tomonida, ularning esa oldi tomonida portladi, shuning uchun ham ancha vaqtgacha bir-birlari bilan uchrasha olmadi. Ular – xilvat yerto'lada tiriklay qamalib qolganlari uchun jang yuqorida davom etardi endi. Jang zarbidan qalinligi bir metr keladigan eski devorlar larsillar, parchalangan gisht va qum qatlamlari omborni to'latar, mo'rilar o'pirilib tushardi. Ular o'z odamlaridan va yorug' jahondan uzilib qolgan bo'lsalar ham, yeyishga ovqatlari bor edi. Suvni esa, ikkinchi kuniyoq quduqdan ola boshlashdi. Erkaklar pol taxtasini sindirib o'sha yerdan quduq kavlashgan edi, sutkasiga ikki kotelok suv to'planadigan bo'ldi. yeyishga ovqat, ichishga suv bor, nima ish qilinishi kerakligi ham aniq: ular yuqoriga yoki bo'lmasam qo'shni yerto'laga yo'l ochish umidida taxminan mo'ljalga olib devorning har tomonidan tesha boshlashdi. Ochilgan yo'llar navbatdagi bombardimon paytida ko'milib qolar, ular yana kavlashardi, kunlardan bir kun yer osti mudofaa istehkomining odam adashib qoladigan, boshi berk, aylanma yo'lagiga teshib chiqishdi. U yerdan bir amallab qurol-yarog' omboriga o'tishdi. Ombordan va nariroqdagi hujradan tashqariga chiqadigan tuyenuk ham bomba portlashidan bekilib qolgan ekan.

Oradan ancha kunlar o'tgach, ular birinchi marta yuqoriga ko'tarilishdi: tiriklay yerga ko'milganlar ozodlikka, yorug'likka, o'z

odamlari yoniga o'ta tashnalik bilan intslishardi. Oltovlari ketma-ket yerto'ladan emaklab chiqishdi, chiqishdi-yu, hayot va qutulishga yo'l topgan tuynuk yonidan bir qadam ham jila olmay joylarida qotib qolishdi.

Qal'a hali tirik edi. Qayerdadir, aylanma kazarma yonida, Muxovets daryosining narigi betida va kostelning orqa tomonida hamon otishma davom etar, yonar, xarobaga aylanar edi. Ammo o'tgan tun mobaynida bu yer – markazda tushunib bo'lmaydigan darajada osoyishtalik bo'ldi. Na o'zimiznikilar, na sof havo va na ozodlik bor edi.

– Tamom, – xirillardi Fedorchuk.

Xristya xola yig'lar va yumalab tushayotgan ko'z yoshlarini qishloq ayollari singari ro'molining uchiga artardi. Mirra uning pinjiga tiqilib olgan: sassiq murda hididan ko'ngli behuzur bo'lardi. Faqat Anna Petrovna, qorongida ham chaq nab turgan ko'zlarini sovuqqina tikib, indamay hovlining o'rtasidan yurib keta boshladi.

– Anya! – chaqirdi Stepan Matveyevich. – Qayoqqa ketyapsan, Anya?

– Bolalar, – bir daqiqaga o'girildi u. – Bolalar bor u yerda. Mening bolalarim.

Anna Petrovna ketdi, ular esa, nima qilishlarini bilmay dovdirab, ma'yus holda yana yerto'laga qaytishdi.

– Razvedka qilish kerak, – dedi starshina. – Qaysi tomonga borish, biznikilar qayerdaligini bilish kerak.

– Qayerni razvedka qilasan? – xo'rsindi Fedorchuk. – Hamma-yoqda nemislar bo'lsa.

Otilayotgan raketalarning zangor nuriga aqldan oza boshlagan ma'yus ko'zlarini tikib, cho'zilib yotgan murdalarga qoqila-qoqila ketib borardi ona. Uni hech kim chaqirmadi ham, to'xtatmadi ham. Chunki u biznikilar allaqachon tashlab chiqib ketgan, nemis sapyorlari tomonidan portlatilgan va bir necha kundan buyon davom etayotgan bombardimon paytida ostin-ustun bo'lib ketgan joydan ketib borardi. Ona uch arkli darvozadan o'tib, ko'prikka chiqdi. Ko'prik usti ayqash-uyqash uyulib yotgan murdalar qonidan toyg'onoq bo'lib ketgandi. Tasodifan ketma-ket otilgan o'q onaning uch joyidan teshib o'tdi va u xuddi mana shu yerga, o'z odamlari orasiga yiqildi. Qanday keta-yotgan bo'lsa shunday: qomati tik, qo'llari allaqachon halok bo'lgan bolalari tomon cho'zilganicha yiqildi.

Bu voqeadan hech kimning xabari yo‘q. Yerto‘ladagilar ham, leytenant Plujnikov ham bilmasdi buni.

Plujnikov es-hushini yigib olgach, o‘q-dori talab qildi. Urush boshlangan dastlabki soatlarda Salnikov yugurgan o‘sha o‘q-dori omboriga uni devor teshiklari, yer osti tuynuklari orqali boshlab kelishganda, hali yogi artilmagan yangi PPSH avtomatlarini, to‘la diskalarni, muhrlangan, qo‘l tekkizilmagan o‘qlarni ko‘rgan Plujnikov ko‘z yoshlarini arang to‘xtatib qoldi. Necha-necha tunlar davomida, necha-necha o‘rtoqlari o‘z hayotlarini tikib izlagan qurol ularning oyoqlari ostida yotardi. Plujnikov bundan ortiq baxtni kutmagan, istamasdi ham. U qurollarni artib, yog‘larini tozalab, jangga tayyorlash uchun hammani ishga solib yubordi. Uning darg‘azab shiddatidan ta’sirlangan boshqalar stvol va zatvorlarning yog‘larini jon-jahdlari bilan arta boshlashdi.

Kechga borib avtomatlar ham, zapas diskalar ham, o‘q-dorilar ham, hammasi tayyor bo‘ldi. Tayyorlangan narsalarning hammasini, u kunduz kunlari nafasi qaytib, dushmanning qadam tovushlarini eshitib, qutqarilishdan umidini uzib yashirib yotgan tuynuk ostidagi yo‘lakka keltirib qo‘yishdi. Erkaklarning hammasini o‘zi bilan olib ketdi u: har bir kishi o‘q-doridan tashqari Stepan Matveyevichning qudug‘idan bir flyaga-bir flyaga suv olvolishi kerak edi. Ayollarni shu yerda qoldirishdi.

– Qaytib kelamiz, – dedi Plujnikov.

U qisqa va zarda bilan so‘zlar, boshqalar unga indamay bo‘ysunishardi. Birov – hurmat qilganidan va vazifasini bajarishga tayyor turgani uchun bo‘ysunsa, boshqa birov qo‘rqanidan, yana boshqa birov norozi bo‘lib bo‘ysunar, ammo hech kim e‘tiroz bildirishga jur‘at etolmasdi. Ochlik va uyqusizlikdan qorayib ketgan, soqollari o‘sgan, ustidagi qonli gimnastyorkasi yirtilib tilka-pora bo‘lgan bu leytenant nihoyatda dahshatli edi.

Starshina past ovoz bilan faqat bir marta aralashdi gapga.

–Yig‘ishtir hammasini. Bitta qoqnon bilan bir stakan qaynoq suv bersang bo‘ladi unga.

Rahmdil Kristya xola bir kunimizga yarab qolar deb asrab yurgan narsalarining hammasini taxta stol ustiga olib qo‘ygan paytda gapirdi starshina. Ochlik Plujnikovning tomoq muskullarini siqib qo‘ygandi, qo‘lini cho‘zganicha stolga kela boshladi. Uning niyati hozir stol ustida nima ko‘rayotgan bo‘lsa, hammasini yeyish, qornini to‘ydirish,

ochlik tufayli necha martalab talvasaga tushgan bo'lsa hammasiga barham berish edi. Lekin starshina qattiq turdi, stol yoniga qo'ymadi.

– Yanovna, yig'ishtir bularni. Sizga mumkin emas, o'rtoq leytenant. O'lib qolishingiz mumkin. Siz endi oz-ozdan boshlashingnz kerak. Oshqozon o'rganmasa bo'lmaydi.

Plujnikov o'zini tutdi. Tomog'iga tiqilgan koptokdek narsani bir amallab yutdi, Mirraning yoshlangan yumaloq ko'zlariga nigohi tushib kulmoqchi bo'lgan edi, kulishni allaqachon unutib qo'ygani esiga tushib yuzini o'girib oldi.

Ko'zlari javdiragan, kamgap, yoshgina jangchi Vasya Volkovni yoniga olib tuynukdan asta emaklab chiqdi u. Ular o'z odamlari yoniga borish uchun to'satdan hujumga o'tishlari kerak. Plujnikov uzoqdan eshitalayotgan otishmaga, qadam tovushlariga, gap-so'zlarga, qurol-aslahalarning shaqir-shuquriga uzoq vaqt quloq tutib yotdi. Shu yaqin-atrof jimjit edi.

– Mening orqamdan. Shoshmasdan yur. Avval yaxshilab quloq tutgin.

Ular bomba portlashidan hosil bo'lgan chuqurlikning hammasiga tushib chiqishdi, har bir uyumni tekshirishdi, har bir murdani ushlab ko'rishdi, ammo Salnikovni topisha olmadi.

– U tirik, – o'z odamlari yoniga qaytib tushishganda biroz yengil tortib gapirdi Plujnikov. – Asir qilib olib ketishgan uni. Halok bo'lgan bizning odamlarimizni ko'mishmaydi ular.

Lekin u aqlan emas, vijdonan gunohkor his qilardi o'zini. Plujnikov birinchi kun jang qilayotgani yo'q, shuning uchun ham u urushning o'z qonuni, o'z qoidasi bo'lishini, tinchlik paytida nojoiz bo'lgan ish, urush paytida zaruratga aylanib qolishini yaxshi anglab olgan edi. Garchand uning Salnikovni qutqarishga ko'zi yetmasa ham, o'zi uchun emas, uni izlashga yuborayotganlar uchun borishi zarur va lozim edi. Shunday qildi ham. Plujnikov Salnikovni o'lik holda topamanmi deb nihoyatda qo'rqqandi. Nemislar bo'lsa uni asirga olib ketishibdi, demak hali umid uzilmagan, omadli, quvnoq Salnixov omon qolishi, yo'lini topib qochishi ham mumkin. Jang bilan o'tgan mana shu kunlar va tunlar davomida u yuzlari shilingan, har narsadan cho'chiydigan soddada yigitdan dovyurak, jasur, tadbirkor, epchil jangchiga aylandi. Plujnikov yengil nafas oldi:

– U tirik.

Ular tuynuk ostidagi yo'lakka ancha qurol va o'q-dori tashib keltirishdi: maqsad – dushman kutmagan darajadagi kuch bilan o't ochish va yorib o'tish edi. Narsalarning hammasini bir marta-da o'zimiznikilar yoniga olib o'tishning iloji bo'lmagani uchun, shu tundayoq qaytib kelishni mo'ljallab qo'ydi Plujnikov. Shu boisdan ham u, ayollarga qaytib kelamiz deb aytdi, ammo qo'qqisidan hujum qilish payti yaqinlashgan sari asabiylasha boshladi. Hech kechiktirib bo'lmaydigan yana bir masala bo'lib, u masalani qanday yechishni bilmasdi.

Dushmanni yorib o'tishga ayollarni olib borish mumkin emas: bu narsa hatto ko'pni ko'rgan jangchilar uchun ham xavfli va qiyin edi. Ammo ularni o'z holiga tashlab ketish ham mumkin emasdi. Shuning uchun ham Plujnikov bu muammoni hal etish yo'lini izlardi. Qancha izlamasin, bir yagona yo'l bor edi, xolos.

– Sizlar shu yerda qolasizlar, – dedi u qiz bilan nigohi uchrashib qolmaslikka harakat qilib.

– Ertaga kunduzi – soat o'n to'rt dan o'n oltigacha nemislar tushlik qiladi, eng osoyishta payt, – oq latta ko'tarib chiqasizlarda, asir tushasizlar.

– Asir tushasizlar? – ishonmay astagina so'radi Mirra.

– Nima baloni o'ylab topding?! – Mirraning gapiga javob qaytarishga ham qo'ymay, jahl bilan baqirib gapirdi Xristya xola. – Asir tushish – qayerdan o'ylab topding buni?! Meni, qarib qolgan kampirni asirlikda kimga keragim bor? Mana bu qizcha... – u Mirrani o'ziga tortib, quchoqlab oldi: – Shaqirlagan yog'och oyoq bilan kimga kerak?.. Ha, o'rtoq leytenant hali sen uchun ko'p narsalarni o'ylab topadi!

– Yetib bora olmayman men, – eshitilar-eshitilmas qilib gapirdi Mirra. Uning bu yerdan nemislargacha bo'lgan yo'lni emas, nemislar asirlikka haydab ketishlarini nazarda tutib gapirayotganini Plujnikov darrov tushundi.

Shuning uchun ham u e'tiroz bildirishni o'ziga ep ko'rmadi, ayollarning gapiga ko'nishni ham, ko'nmaslikni ham bilmay qovogini so'lib indamay turaverdi.

– O'ylab topgan gapini qara! – taajjulanib boshqacha ohang bilan gapira boshladi Xristya xola. – Garchi sen komandir bo'lsang ham, o'ylab topgan gaping hech narsaga yaramaydi. Mutlaqo yaramaydi.

– Sizlarning bu yerda qolishingiz mumkin emas, – ishonqiramay gapirdi u. – Qo‘mondonning buyrug‘i bor, hamma ayollar ketishgan...

– Ular jangchilarga ortiqcha yuk bo‘lishgani uchun ketishgan! Agar ortiqcha yuk bo‘lganligimni sezib qolgudek bo‘lsam, men ham ketaman. Mirrochka bilan ikkovimiz o‘z inimizda o‘tirgan bo‘lsak kimga halal beryapmiz? Hech kimga ziyonimiz tegmayapti, xohlaganlaringcha jang qilaveringlar! Bizning o‘z joyimiz, yeydigan ovqatimiz bor, hech kimga ortiqcha yuk emasmiz, o‘zimiznikilar qaytib kelishmaguncha shu yerda o‘tiraveramiz.

Plujnikov jim. Nemislarning har kuni yangi-yangi shaharlarini bosib olayotgani, Moskva, Leningrad ostonalaridagi jang, Qizil Armiyani tor-mor etilganligi haqidagi xabarni u gapirgisi kelmadi. Garchi nemislarning gapiga ishonmasa ham, ammo anchadan buyon to‘plarimizning gumbur-gumburlariniyam eshitmasdi.

– Bu o‘zi bir juhud qizi bo‘lsa, – to‘satdan gapirdi Fedorchuk. – Juhud, buning ustiga nogiron: shak-shubhasiz otib tashlashadi.

– Qanday og‘zingiz bordi bu gapni gapirishga! – qichqirdi Plujnikov. – Ana ularning gapi bu! Fashistlarning gapi!

– Gap gapirgan bilan bir narsa bo‘lm‘aydi-ku, – xo‘rsindi starshina. – To‘g‘ri, yaxshi gap emas, albatta, ammo Fedorchuk haq gapni gapiryapti, yahudiy millatini yomon ko‘rishadi ular.

– Bilaman! – uning gapini cho‘rt bo‘ldi Plujnikov. – Tushunarli. Bo‘pti. Qolasizlar. Balki ular qo‘shinlarini qal‘adan olib chiqib ketishar, ana shunda ketishinglar mumkin. Bir amallaysizlar.

Shunday qarorga keldi-yu, ammo bundan o‘zining ham ko‘ngli to‘lmadi. Bu haqda o‘ylagan sari, diqqati ortar, ammo biron boshqa chora o‘ylab topa olmasdi. Shu boisdan buyruq berganda ham, o‘q-dori olib ketgani kelimiz deb va‘da qilganda ham, razvedkaga yuborilgan yuvosh Vasya Volkov ketidan yuqoriga emaklab chiqib ketayotganda ham qovog‘ini ochmadi.

Volkov topshirilgan vazifasini sidqidildan bajaruvchi, ishchan yigit edi-yu, ammo bir kamchiligi – hamma narsadan uyquni afzal ko‘rar va buning uchun har qanday imkoniyatdan foydalanardi. Urushning dastlabki minutlarida sodir bo‘lgan tiriklay yerga ko‘milish dahshatlariga bardosh berib, o‘zida ko‘nikish hosil qilgach, u yanada ko‘zga ko‘rinmas, yanada ishchan bo‘lib qoldi. U har bir ishda katalarga suyanishga qaror qilgandi, shuning uchun ham qayerdandir

to'satdan paydo bo'lgan leytenantni ko'rganda ancha yengil tortdi. Kiyimlari juldur, ifloslangan, ozg'in, jahldor bu leytenantning nimaga achchig'lanayotganini yaxshi bilmasa ham, bundan buyon xuddi mana shu komandir uning – Volkovning hayotiga ham javob berishiga qattiq ishongandi.

Volkov yuqoriga asta chiqib olgach, atrofga quloq soldi, ko'zdan kechirdi, hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilib, qurol va o'q-dorilarni tuynukdan chaqqonlik bilan tortib ola boshladi. Qanday buyruq berilgan bo'lsa, buni bekam-u-ko'st bajarishga harakat qilardi.

Juda ham yaqin joydan nemis avtomatchilari o'tib ketdi. Volkovni sezishmadi ular, ammo Volkov ularni sezgan bo'lsa ham, qayoqqa ketishayotganini kuzatmadi, hatto bu haqda axborot bermadi ham, chunki u bunday topshiriq odmagandi. Nemislar ular yashiringan joy bilan qiziqishmadi, yo'llari ochiq, o'z ishlari bilan qayoqqadir ketishardi.

Kichkina tuynukdan avtomat va o'q-dorilarni bitta-bittalab tortib olib, boshqalar yuqoriga chiqqunlaricha, nemislar o'tib ketishdi. Plujnikov diqqat bilan qancha quloq tutmasin, biron-bir shubhali ovozni sezmedi. Qayerdandir o'q ovozi eshitilar, qayerlardadir mina portlar, raketalar yaraqlar, ammo ostin-ustun bo'lib ketgan qal'aning o'rtasi bo'm-bo'sh edi.

– Volkov men bilan, starshina va serjant orqamizdan yuradi. Qani, tezroq, olg'a!

Ular engashgan bo'ylaricha ancha olisdagi qorong'i xaroba tomon jo'nab ketdilar. Mo'ljal – o'zimiznikilar hamon qarshilik ko'rsatayotgan, Denishchik halok bo'lgan, serjantda o'qsochar uchun bor-yo'g'i uch disk o'q qolgan o'sha joyga yetib olish edi. Xuddi shu payt xaroba tomondan oq alanga ko'tarilib gumburlagan ovoz eshitildi va undan so'ng avtomat tarillay boshladi.

– Portlatishdi – qichqirdi Plujnikov. – Nemislar devorni portlatishdi!

O'qsocharning navbatdagi tarillashi uning ovozini bosib ketdi, yaltiroq o'qlar qorong'i osmonni bamisoli tilib o'tayotgandek edi.

Volkov yiqilib tushdi, olib ketayotgan o'qlari sochilib ketdi, Plujnikov bo'lsa nimalarnidir baqirib-chaqirib o'qsochardan rang-barang ipdek chuvalib chiqayotgan o'q tomon yuzma-yuz tik borardi. Starshina uning ketidan quvib yetib olgach, chalib yiqitdi va ustiga yotib oldi:

– O‘zingni bos, o‘rtoq leytenant! Esingni yig‘!

– Qo‘yib yubor! Yigitlarimiz bor u yerda, o‘qlari tugagan, yara-dorlar ham bor...

– Qayoqqa qo‘yib yuboray, qayoqqa?

– Qo‘yib yubor deyapman!..

Yo‘g‘on va baquvvat gavda ostidan chiqib ketaman deb ko‘p urindi Plujnikov. Ammo Stepan Matveyevich qimir etkazmay ushlab turardi uni. Plujnikov noiloj urinishni to‘xtatdi.

– Kechikildi endi, o‘rtoq leytenant, – xo‘rsindi u. – Kechikildi. Gappa quloq sol.

Xarobazorda bo‘layotgan jang asta-sekin tinchimoqda edi. Nemis avtomatchilari qayerdandir hali ham onda-sonda otib turishibdi. Ular yo qorong‘i hujralarga qarab o‘q uzishar, yoki bo‘lmasam yaralangan qal‘a himoyachilarini otishar, harqalay bunga javoban o‘q ovozlari eshitilmasdi. Plujnikov qancha harakat qilmasin hech narsani anglay olmadi. Uning ovozi chiqqan tomonni mo‘ljallab ota-yotgan o‘qsochar ham ko‘p o‘tmay tinchib qoldi, ana shundagina Plujnikov so‘nggi buyruqni bajara olmagani, bajarishga ulgurmagani tushundi.

U hamon yerga bag‘rini berib yotar, hamon nimagadir ishonar, onda-sonda bo‘layotgan otishmaga quloq solardi. U nima qilish kerakligini, qayoqqa borishini, o‘z odamlarini qayerdan qidirishini bilmasdi.. Uning yonida indamay yotgan starshina ham qayoqqa borish, nima qilish kerakligini bilmasdi.

– Aylanib o‘tishyapti, – starshinani turti Fedorchuk. – Oraliqni kesib qo‘yishmasin yana. Nega indamay qoldi u, – biron narsa bo‘ldimi deyman?

– Yordam ber unga!

Plujnikov qarshilik qilmadi. Indamay yerto‘laga tushib, jimgina yotib oldi. Unga nimalarnidir gapirib tinchitgan bo‘lishdi, qulayroq joylashtirib, choy ichirishdi. Nima deyishgan bo‘lsa, hammasini ito-atkorona bajardi u: turdi, o‘girildi, yana yotdi, bergan narsalarini ichdi, ammo lom-mim demadi. Qiz uning ustiga shinel yopayotib: – Bu sizning shinelingiz, o‘rtoq leytenant, sizniki, esingizdami? – deganda ham indamadi.

Ha, bu o‘sha, komandirlar taqadigan tillarang tugmachali, qomatga moslab tikilgan yap-yangi shinel. Bu shinelni olganda qancha mag‘rurlandi u, ammo bir marta ham kiyish nasib etmadi. Shinelini bir

ko'rishda tanigan bo'lsa ham, hech narsa demadi u: endi unga baribir edi.

Necha sutkadan buyon shu alpozda so'zsiz, fikrsiz va beharakat yotganini bilmas, bilishni istamasdi ham. Yerto'la tun-u kun bami-soli qabriston singari jimjit, tun-u kun jinchiroq miltillaydi, dudli jinchiroq sariq nurining narigi tomoni xuddi ajalga o'xshash qora zimiston. Plujnikov o'sha zimistonga, aybdor bo'lgan o'sha ajalga ko'z uzmay qarab turardi.

Hozir u ularni – uni himoya qilib hech ikkilanmay, hech narsani o'ylamay, qandaydir aqlga sig'maydigan bir kuch bilan olg'a tomon tashlanganlarning hammasini hayratomuz aniqlik bilan ko'rib turardi.

Nima uchun ular – uning aybi bilan halok bo'lganlar aynan shunday xatti-harakat qilganlarini anglashga harakat qilmadi. Plujnikov: buning o'rniga u, ularning hammasini xayolan ko'z o'ngidan o'tkazib, shoshmasdan, diqqat bilan, shafqatsiz kuzatdi.

O'shanda u, avtomat o'qlari yarqirab chiqayotgan paytda, kostelning qubbali derazasi yonida o'ralashib qoldi. Yo'q, o'zini yo'qotib qo'rganidan, yoki bo'lmasam kuch to'plab olish uchun bunday qilmagandi u, to'xtab, o'ralashib qolishining asosiy sababi – bu unga tegishli bo'lgan deraza edi. Hujumga o'tmasdan oldin shu derazani o'zi tanlagandi, ammo ajal urug'i ketma-ket yogilayotgan o'sha derazaga u emas, o'sha novcha chegarachi tashlandi, uning qo'lidagi o'qsochari hali sovishga ulgurmagan ham edi. Keyin esa, garchi u halok bo'lgan bo'lsa ham, Plujnikovni o'z tanasi bilan o'qdan to'sdi, uning quyuqlashib qolgan qoni, go'yo o'zini eslatgandek, Plujnikovning yuziga sachradi.

Ertasiga ertalab, o'q tekkan boshini bog'lab olgan serjantni tashlab kosteldan qochib qoldi. Serjant garchi o'pirilgan joyning yonginasida bo'lsa ham, indamay qolaverdi. Uning ketishi mumkin edi, ammo u ketmadi, chekinmadi, yashirinmadi ham, o'shanda serjant kostelda chekinmay qolgani uchun ham Plujnikov yerto'laga eson-omon yetib olgandi. Shuningdek, Volodya Denischik ham tunda ko'prikka hujum qilganda uni ko'kragi bilan to'sib qolgandi. Shuningdek, Salmikov ham, Plujnikov dahshatdan ingrab, qarshilik ko'rsatish xayoliga ham kelmay ikki qo'lini ko'tarib taslim bo'layotgan paytda nemisni urib ag'dargandi. O'q-dori olib kelaman deb odamlarga va'da qildi, ammo o'z paytida olib kelmadi. O'shalar ham uning joniga ora kirgandi.

Ustiga o'z shinelini yopingancha skameykada indamay yotardi u, ovqat berishsa yer, krujkani labiga keltirishsa suv ichardi. Savol berishsa javob bermas, indamasdi. Hafto hech narsani o'ylamasdi ham: faqat qarzlarini sanardi, xolos.

O'lmay tirik qolishining sababi shundaki, kimlardir uning uchun o'z jonini qurbon qildi. Bu narsa urush qonuni ekanini tushunmay, o'zi uchun ana shunday yangilik yaratdi u. Sen tirik qoldingmi, demak kimdir sen uchun halok bo'lgan. Bu qonunni u muayyan tarzda aql yuritib emas, o'z shaxsiy tajribasi asosida yaratdi. Bu – uning uchun vijdon masalasi emas, hayot masalasi edi.

– Leytenantchani miyasi aynib qoldi, – Plujnikovning eshitish, eshitmasligiga uncha e'tibor qilmay gapirdi Fedorchuk. – Xo'sh, nima qilamiz endi? O'zimiz biron iloj topishimiz kerak, starshina.

Starshina indamasdi, Fedorchuk esa, harakatni boshlab yubor-gandi. Dastavval, u yuqoriga olib chiqadigan yagona tuynukni g'isht bilan yaxshilab berkitdi. Jang qilishni emas, tirik qolish, yashashni istardi u. Qanday bo'lmasin yashasa bo'ldi ishqilib. Yeyishga ovqat, nemislar bilmaydigan yerto'la hozircha bor ekan – yashash kerak.

– Quvvat yo'q unda, – xo'rsindi starshina. – Leytenantda quv-vat yo'q. Yanovna, sen unga oz-ozdan ovqat berib parvarishla.

Xristya xola rahmi kelganidan ko'z yoshi qilib, ovqatlanti-ra boshladi uni, bu maslahatni bergan Stepan Matveyevich esa, o'zining maslahatiga o'zi ishonmas, leytenantning jismoniy emas, ruhan ezilganligini tushunar va nima qilish kerakligini bilmay boshi qotgandi.

Faqat Mirragina o'zining nima ish qilishi kerakligini bilardi: u mana shu odamni hayotga qaytarishi, uni gapirishga, yurishga, turish-ga, kulishga majbur qilishi kerak. Shuning uchun ham u, hech kimga aytmay bir o'zi, sabr-toqat bilan eshik gumbazidan o'pirilib tushgan g'ishtlarni birma-bir kavlab, allaqachon hammaning esidan chiqib ket-gan shinelni topib keldi.

– Nega taraqa-turuq qilyapsan? – javradi Fedorchuk. – An-chadan buyon o'pirilish bo'lmaganiga sog'inib qoldingmi? Tinchgina yashasang bo'lmaydimi?

Mirra esa, indamay kavlashni davom ettiraverdi va nihoyat uchin-chi kuni xarobalar ostidan mayishib ketgan chamadonni tantana bilan sug'urib oldi. Bu o'sha, necha kundan buyon qunt bilan qidirayotgan chamadon edi.

– Mana! – stol yoniga olib kelayotib quvonch bilan gapirdi u. – Eshikning yonida turganini bilardim, esimda bor edi.

– Shuni qidirayotganmiding, – xo‘rsnndi Xristya xola. – Eh, qizaloq, qizaloq, yurakkinang bemavrud seskanipti.

– Yurakka buyurib bo‘lmaydi deyishadi-ku, lekin bu befoyda gap, – dedi Stepan Matveyevich. – U hamma narsani unutsa durust bo‘lardi, shundog‘am ko‘p narsa xotirida holadi.

– Ortiqcha ko‘ylak xalal bermaydi, – dedi Fedorchuk. – Olib kelmaysanmi, nega qarab turibsan? Ajab emas kulsa.

Plujnikov kulmadi. Jo‘nashi oldidan onasi chamadonga joylagan narsalarning hammasiga birma-bir, shoshmasdan ko‘z yugurtirib chiqdi: ichki kiyimlar, ikkita yozlik forma, rasm bor edi. Chamadonning qiyshayib, majaqlangan qopqog‘ini yopdi.

– Bular – sizning narsalaringiz. Sizniki, – astagina gapirdi Mirra.

– Esimda.

Shunday dedi-yu, devor tomonga o‘girilib oldi.

– Tamom, – xo‘rsindi Fedorchuk. – Yigitchaning tamom bo‘lgani endi aniq bo‘ldi.

So‘ng achchiqlanib uzoq so‘kindi. Hech kim tanbeh bermadi unga.

– Nima qilamiz endi, starshina? Mana shu go‘ristonda o‘tiramizmi yoki bo‘lmasam boshqasini topamizmi, hal qilish kerak buni.

– Nimani hal qilamiz? – bo‘shashibroq gapirdi Xristya xola. – Kutishga qaror qildik-ku.

– Nima? – qichqirdi Fedorchuk. – Nimani kutamiz? Ajalnimi? Qish kelishinimi? Yoki nemislarnimi? Nimani deb so‘rayapman?

– Qizil Armiyani kutamiz, – dedi Mirra.

– Qizil Armiyani?.. – mayna qilib qaytadan so‘radi Fedorchuk. – Esi pas-ey! Ana, seni Qizil Armiyang: hushsiz bo‘lib yotibdi. Tamom! Yengildi u! Yengildi u, tushunyapsanmi?

Hamma eshitsin deb baqirib gapirdi u. Hamma eshitdi, ammo hech kim indamadi. Plujnikov ham eshitdi, u ham indamadi. Nima qilish kerakligining rejasini tuzib, hamma uxlashini sabr-toqat bilan kutayotgandi. U kutishga o‘rganib qolgan edi. Hamma tinchib, starshina xurrak torta boshlagan paytda Plujnikov asta o‘rnidan turdi. Kechasi bekorga yonmasin deb, uchta jinchiroqning ikkitasini o‘chirib qo‘yishgandi. Plujnikov o‘rnidan turdi va uxlayotganlarning nafas olishlariga qu-loq soldi, boshi aylanayotgani uchun ancha vaqtgacha o‘ziga kelyshini kutib o‘tirdi. So‘ng pistoletini cho‘ntagiga solib mash‘alalar terib

qo'yilgan tokcha yoniga keldi. Bu mash'alalarning hammasini starshina tayyorlab qo'ygandi. Bitta mash'alani qo'lga olib, yoqmasdan, asta paypaslanib yerto'la yo'lagiga olib chiqadigan tuynuk yoniga keldi. Bu joylar unga notanish, shuning uchun ham mash'alasiz yo'l topa olmasligini yaxshi bilardi.

Taraqa-turuq qilmay, jimgina, ovoz chiqarmasdan yurishni o'rniga qo'yardi u, shuning uchun ham hech kimning uyg'onmasligi va unga xalal bermasligidan ko'ngli to'q edi. U hammasini har tomonlama o'yladi, aql tarozusiga solib tortib ko'rди, so'ng hammasiga yakun yasagan edi, bajarilmagan burch, qiyomat qarz deg'an xulosa kelib chiqdi. Faqat bir holatni hisobga olmagandi u: bir necha tunlar mobaynida uxlar-uxlamas bo'lib, uning nafas olishiga quloq tutib yotgan bir odam bor edi.

Plujnikov kichkina tuynukdan yerto'la yo'lagiga o'tib olgach, mash'alani yoqdi: bu yerdan yerto'lada uxlab yotganlarga mash'alaning yorug'i tushmas edi.

Mash'alani boshi uzra baland ko'tarib, kalamushlarni haydagancha yo'lakdan asta yurib ketdi. Qaysi tomonga borishni aniq mo'ljallab olgan bo'lsa ham mash'alani o'chirmadi, chunki u nima uchundir kalamushlardan hamon cho'chirdi.

Plujnikov yo'lakning boshi berk joyiga kelib qoldi, bu yerga u nemislardan yashirinaman deb yiqilib tushgan edi; o'q qo'rg'oshinlari oyoq ostida hamon sochilib yotardi. Mash'alani baland ko'tarib gumbaz ostini ko'zdan kechirdi, tuynukka g'isht tiqib bekitib tashlangan ekan. G'ishtlarni turtib ko'rgan edi – qimirlamadi. Mash'alani uyulib yotgan g'isht parchalari orasiga o'rnatib qo'ydi va tuynukdagi g'ishtlarni ikki qo'llab qimirlata boshladi. Bir necha g'isht joyidan ko'chdi, ammo qolganlarini olishning iloji bo'lmadi: Fedorchuk tuynukni hafsala bilan yaxshilab berkitgan edi.

Chiqadigan yo'l mustahkam berkilib qolganiga ishonch hosil qilgach, befoyda urinishni to'xtatdi Plujnikov. O'ylagan rejasini bu yerda – yerto'lada amalga oshirishni aslo istamadi u, chunki ular – odamlar istiqomat qilishardi bu yerda.

Ular uning rejasini noto'g'ri tushunishlari, irodasizlik, ruhiy betoblik natijasi deb o'ylashlari mumkin. Bu narsa mutlaqo yoqmasdi unga. Indamay, sababini hech kimga aytmadan noma'lum tomonga g'oyib bo'lish – uning uchun ayni muddao edi, ammo ular uni bu imkoniytdan mahrum qilishdi. Demak, endi uning ja-

sadi ularga dardisar bo'ladi, o'limini esa rosa muhokama qilishadi. Dardisar bo'lishi aniq edi, chunki tashqariga chiqadigan tuynukning berkilib qolganligi, uning o'ziga chiqargan hukmini mutlaqo o'zgartirgani yo'q. Mana shular haqida o'ylab, yonidan pistoletni oldi, zatvorni orqaga tortib qo'yib yubordi, qayerimdan otsam ekan deb bir zum o'yladi va pistolet tumshug'ini ko'kragiga to'g'riladi: harqalay pachag'i chiqqan boshi bilan bu yerda cho'zilib yotishni istamasdi u. Chap qo'li bilan yuragini paypaslab ko'rdi: yurak tez, ammo bir maromda, deyarli xotirjam urmoqda. U yurakdan kaftini oldi va stvol uchi yurakka aniq tegib tursin uchun pistoletni balandroq ko'tardi...

– Kolya!..

Basharti boshqa har qanday so'zni mana shunday ovozda, mana shunday dahshat bilan qichqirib aytganda ham tepkini bosib yuborgan bo'lardi. Ammo ayol kishining bu qichqirig'i boshqa olamdan, tinchlik olamidanda kelayotgandek edi, chunki bu yerda, yer qa'rida uning nomini bu qadar dahshat va xitob bilan aytadigan ayolning bo'lishi mumkin emasdi. Qichqirgan odamning kimligini bilmoqchi bo'lib, qo'lini beixtiyor pastga tushirdi. Bir daqiqaga tushirgandi u qo'lini, ammo mana shu vaqt ichida qichqirgan ayol oyog'ini sudrab uning yoniga yetib kelishga ulgurdi.

– Kolya! Jonginam, Kolya, bunday qilma!

Uning oyoqlari madorsizlanib gavdasini tutib tura olmadi va u bor kuchi bilan pistolet ushlab turgan qo'lga yopishib yerga yiqildi. Ko'z yoshidan ho'l bo'lib ketgan yuzlarini uning qo'lga saykar, gimnastyorkaning porox va ajal hidi anqib turgan yengidan o'par, uyalishni ham unutib uning qo'lini o'z ko'kragiga bosar, agar shunday qilsa, qiz bola badanining nozik harorati tekkach, tepkini bosmasligini beixtiyor xayol etardi u.

– Tashla uni. Tashla. Qo'yib yubormayman. U holda avval meni ot. Ot meni.

Zig'ir moyidan hosil bo'layotgan sariq nur yoritib turardi ularni. Beo'xshov soyalar esa zimiston ravoq ichida u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. Shu payt Plujnikov uning yuragi qanday urayotganini eshitdi.

– Sen nima qilib yuribsan bu yerda? – yuragi siqilib so'radi u.

Mirra yuzini ko'targan edi, mash'ala nuri uning ko'z yoshlariga tegib mayda bo'lakchalarga parchalandi.

– Sen – Qizil Armiyasan, – dedi u. – Sen – mening qizil armiyamsan. Bunday qilishing mumkinmi seni? Nahotki meni tashlab ketsang? Nima uchun?

Qizning balandparvoz gaplari uni dovdiratib qo‘ymadi, dovdiratgan boshqa narsa edi. Ma‘lum bo‘ldiki, kimdir unga hamon muhtoj, kimgadir himoyachi, do‘st, o‘rtoq sifatida kerak ekan,

– Qo‘yib yubor qo‘limni.

– Avval pistoletni tashla.

– U jangovor holatda turibdi. Otilib ketishi mumkin.

Plujnikov Mirraning o‘midan turishiga yordamlashdi. U har bir daqiqada uning qo‘lini ushlab olishga shay bo‘lib pinjiga tiqilib olgandi. Plujnikov biroz kulimsirab pistoletni predoxranitelga qo‘ydi, tepkini qo‘yib yuborib pistoletni cho‘ntagiga soldi va mash‘alani qo‘liga oldi.

– Ketdikmi?

Mirra uni qo‘lidan ushlab yonma-yon borardi. Tuynuk yoniga kelganda to‘xtadi:

– Hech kimga aytmayman. Hatto Xristya xolaga ham.

U indamasdan, xuddi yosh bola singari, Mirraning boshini siladi va mash‘alani qumga tiqib o‘chirdi.

– Xayrli tun! – tuynukka kirar ekan, shivirladi Mirra.

Plujnikov ham uning ketidan yerto‘laga kirdi. Starshina hamon xurрак otar, jinchiroyq miltillab yonmohda edi. U o‘z skameykasiga o‘tib shinel yopinib oldi, bundan keyin nima qilish kerakligi haqida yaxshilab o‘ylamoqchi edi-yu, ammo uxlab qoldi. Tiniqib, xotirjam uxladi.

Plujnikov ertalab hamma bilan barobar uyg‘ondi. Shuncha kundan beri ilk bor skameyka ustini yig‘ishtirdi.

– Tuzalib qolay dedingizmi, o‘rtoq leytenant? – ishonqiramay, kulimsirab so‘radi starshina.

– Suv topildimi? Uch krujkagina bo‘lsa ham mayli.

– Suv, suv bor! – hovliqib qoldi Stepan Matveyevich.

– Menga quyib yuborasiz, Volkov, – Plujnikov yalang‘och badanidagi chiriy boshlagan gimnastyorkasini bir necha kunlar davomida birinchi marta yechdi. Maykasi esa, allaqachon bintga aylanib ketgan. Pachoqlangan chamadonni ochib ichkiyim, sovun va sochiq oldi. – Mirra, yozlik gimnastyorkamning yoqasiga oq hoshiya tikib bergin.

U yerto'la yo'lagiga chiqib, hafsala bilan uzoq yuvindi, bugun birinchi marta ongli ravishda suvni ayamadi. Yuvinib bo'lgach, yana indamay qaytib keldi va yangi ustara bilan dastpanjasi kelishmasa ham yaxshilab soqolini oldi. Ustarani harbiy bilim yurti magazinidan zarur bo'lgani uchun emas, kerak bo'lib qolar deb olib qo'ygan edi. Ustara tig'i tegib u yer-bu yeri kesilgan yeriga ozgina atir surtib, Mirra uzatgan gimnastyorkani kiydi va kamarni beliga mahkam tortib bog'ladi. Stolga o'tirdi. Bolalarnikiga o'xshash ozg'in bo'yni gimnastyorkasi-ning keng yoqasidan beo'xshov chiqib turardi.

– Axborot bering.

O'tirganlar bir-birlariga qarashdi. Starshina ikkilanib so'radi:

– Nima haqida?

– Hammasi haqida. – qat'iy va cho'rt kesib gapirdi Plujnikov. – Biznikilar qayerda, dushman qayerda.

– Xo'sh... – chaynaldi starshina. – Dushmanning qayerdaligi ma'lum: yuqorida. Biznikilar... biznikilarning qaerdaligi noma'lum.

– Nima uchun noma'lum?

– Biznikilarning qayerdaligi ko'rinib turibdi-ku, – qovogini solib gapirdi Fedorchuk. – Pastda. Nemislar – yuqorida, biznikilar – pastda.

Plujnikov uning gaplariga e'tibor bermadi. U starshina bilan xuddi o'zining o'rinbosaridek gaplashar va buni har tomonlama ta'kidlashga intilardi.

– Nima sababdan biznikilar qaerdaligini bilmaysiz?

Aybdorlarcha xo'rsindi Stepan Matveyevich:

– Razvedka qilganimiz yo'q.

– Bilib turibman. Nima uchun deb so'rayapman men?

– Nima desam ekan. Siz betob bo'lib qoldingiz. Biz bo'lsak, chiqadigan joyni berkitib tashladik.

– Kim berkitdi?

Starshina indamadi. Xristya xola nimanidir tushuntirmoqchi bo'lgan edi, Mirra to'xtatdi uni.

– Kim berkitdi deb so'rayapman men?

– Xo'sh, men bo'lsamchi! – baland ovoz bilan dedi Fedorchuk.

– Tushunmadim.

– Men.

– Yana tushunmadim, – avvalgi ohangda katta serjantga qaramasdan gapirdi Plujnikov.

- Katta serjant Fedorchuk.
- Gap bunday, o‘rtoq katta serjant, yana bir soatdan keyin yuqoriga yo‘l ochiqligi haqida menga axborot berasiz.
- Kunduz kuni qila olmayman bu ishni.
- Yana bir soatdan keyin vazifani bajarganingiz haqida axborot berasiz, – takrorladi Plujnikov. – «Qila olmayman», «xohlamayman», «qo‘limdan kelmaydi» degan so‘zlarni urushning oxirigacha unutishni buyuraman. Biz – Qizil Armiyaning oddiy bir bo‘linmasimiz, vassalom.

Bundan bir soat avval uyqudan turgan paytda nima deyishini bilmas, ammo albatta gapirish kerakligini tushunardi. U ataylab mana shu daqiqani orqaga surishga harakat qildi, chunki shu daqiqaga hamma narsani joy-joyiga qo‘yar yoki bo‘lmasam bu odamlarga buyruq berishdan mahrum qilardi uni. Shuning uchun ham yuvinish, kiyinish va soqol olishni o‘ylab chiqardi: gapiradigan gapini o‘yladi va unga tayyorgarlik ko‘rdi. Hech qanday shubha va ikkilanishsiz jangni davom ettirishga tayyorgarlik ko‘rayotgandi u. Taqdir taqozosi bilan ko‘rgan-kechirganlari orqada – kechagi kunda qolib ketgandi.

2

O‘sha kuni Fedorchuk Plujnikovning topshirig‘ini bajardi: yuqoriga olib chiqadigan yo‘l ochildi. Usha tun ular juft-juft bo‘lishib atrofni sinchiklab razvedka qilishdi: Plujnikov qizil askar Volkov bilan, Fedorchuk esa, starshina bilan hamroh edi. Qal’a hamon tirik, u kurashni davom ettirar, ahyon-ahyonda shiddat bilan otilgan o‘q ovozlari eshitilar, ammo bu otishmalar ulardan ancha uzoqda – Muxovets daryosining narigi qirg‘og‘ida bo‘layotgandi. Shu boisdan ham hech kim bilan aloqa bog‘lashning iloji bo‘lmadi. Ikkala guruh ham na o‘z odamlarini, na begonalarni uchrata olmay qaytib keldi.

– Hammayoqda halok bo‘lganlar, – xo‘rsindi Stepan Matveyevich. – Birodarlarimizdan juda ko‘p kishi halok bo‘libdi. Juda ko‘p!

Plujnikov kunduz kuni yana qidiruv ishini davom ettirdi. Tirik qolgan himoyachilar mayda guruhlarga bo‘linib yer ostiga – chuqur g‘orlarga chekinganlarini bilgani uchun ular bilan aloqa bog‘lashga unchalik umid qilmasdi u. Ammo u nemislarni topishi, ular turgan joyni, xarobaga aylangan qal’a ichida ularning qanday harakat qilish-

larini aniqlashi lozim zdi. Aks holda ular egallagan o'ta mustahkam, ishonchli, ajoyib pozitsiya o'z-o'zidan befoyda.

Bu razvedkaga uning o'zi bordi. Terespol darvozasi yonidagi xarobazorda bir sutkaga yaqin yashirib yotdi. Nemislar har kuni ertalab aniq belgilangan vaqtda qal'aga xuddi shu darvozadan o'tishardi. Kechqurun ham, soqchilarni ko'paytirib, aniq belgilangan paytda qaytishardi. Ko'rinishdan ularning taktikasi o'zgargan: ular endi hujum qilishga intilishmas, qarshilik ko'rsatayotgan nuqtani topib, ognemyotchilarni chaqirishardi. Bu nemislar qandaydir pakana, shu paytgacha Plujnikov ro'baro' kelgan nemislarga mutlaqo o'xshamas, avtomatlari ham kichkina edi: karabinlar odatdagi qurolga o'xshab qolgandi.

– Yo meni bo'yim .o'sgan, yoki nemislar qurushib kichkina tortib ketishgan, – hazilomuz gapirdi kechqurun Plujnikov. – Nimadir o'zgargan ularda, ammo nimaligini bila olmayapman. Stepan Matveyevich, ertaga siz bilan birgalashib boramiz. Siz ham bir ko'ring.

Qorong'i tushgach, ular starshina ikkovlari 84-polk kazarmasining yonib xarobaga aylangan hujrasiga o'tib olishdi: Stepan Matveyevich bu kazarmalarni juda yaxshi bilardi. Ertaroq qulay joy topib yaxshilab joylashib olishdi: Plujnikov Bug daryosi sohillarini, starshina Xolmsk darvozasi atrofini – qal'aning ichki tomonini kuzatdi.

Tong pallasi, havo ochiq, osoyishtalik. Faqat ahyon-ahyonda, qayerdadir, tashqari ko'tarma yonidagi Kobrinsk istehkomida birdan otishma paydo bo'lar va yana birdan to'xtardi. Nemislar yerto'lalarga qarata har ehtimolga qarshi otishyaptimi yoki qal'a himoyachilari hanuzgacha qarshilik ko'rsatishyaptimi, mana shuni bilmasdi Plujnikov.

– O'rtoq leytenant! – keskin shivirlab chaqirdi starshina.

Plujnikov uning yoniga kelib, bo'ynini cho'zib qaradi: shunday yonginasida nemis avtomatchilari saf tortgan. Ularning ko'rinishi, qurollari, o'zlarini tutishlari, qiliqlari ko'pni ko'rgan, tajribali askarlarining qiliqlariga o'xshab ketardi. Nemislar g'ujanak ham bo'lishmagan, bo'ylari ham kichraymagan, leytenant Plujnikov ularni bir umrga qanday eslab qolgan bo'lsa, xuddi ana shunday edi.

Uch ofitser saf tortgan askarlar yoniga keldi. Qisqa buyruq berilishi bilan safdagilar to'g'rilandi va komandir oldinda kelayotgan novcha, yoshi o'tibroq qolgan unvoni katta ofitserga raport berdi. Katta ofitser raportni qabul qilib oldi va saf tortib turgan soldatlar tomon yura boshladi. Boshqa ofitserlar uning ketidan borishardi: ulardan biri

qutichalar ko'tarib olgan. Katta ofitser ana shu qutichalarni safdan chiqib yana joyiga turayotgan askarlarga birma-bir ulashib beryapti.

– Orden taqyapti, – fahmladi Plujnikov. – Mukofotni jang maydonida beryapti. Sen ablah nemisga mukofotni ko'rsatib qo'yaman... hozir bir o'zi emasligini ham, jang qilish uchun chiqmaganini ham, orqa tomondagi kazarma xarobalari noqulay pozitsiya ekanini ham unutdi. Saf tortib turgan bu novcha yigitlar krestlarni nima uchun, kimlarni o'ldirg'anlari uchun olayotganlarini bir zum ko'z oldiga keltirdi. Halok bo'lganlarni, og'ir yarador bo'lib o'lganlarni, aqldan ozganlarni esladi. Esladi-yu, avtomatini ko'tardi.

O'n qadamcha masofadan qisqa navbat bilan ketma-ket otilgan o'q nishonga to'ppa-to'g'ri bordi. Mukofot berayotgan katta ofitser va uning yonidagi ikkita yordamchi ham shu zahotiy oq yer tishlashdi. Safdagi mukofot olganlardan ham kimlardir yiqildi. Ammo bu yigitlar mukofotni bekorga olishmagan ekan: biroz sarosimadan so'ng Plujnikov avtomati bir zum to'xtashi bilan, har tomonga tarqalib ketishdi va panaga o'tib olib hamma avtomatlardan xarobaga qarab o'q uza boshlashdi.

Agar starshina bo'lmaganda bu yerdan tirik ketish amrimahol edi: quturgan nemislar hech narsadan tap tortmay ular atrofini o'rab olishdi. Stepan Matveyevich bu binoni avvaldan yaxshi bilgani uchun Plujnikovni tezda olib chiqib ketdi. Ular otishma paytidagi yugur-yugur va g'ala-g'ovurdan foydalanib hovli orqali yugurib kelib o'z tuynuklariga lip etib kirib'olishdi. Kazarma xarobasining har bir burchagini nemis avtomatchilari hamon o'qqa tutishardi.

– Nemis o'zgarmapti. – Plujnikov kulmoqchi bo'ldi, ammo qaqrab ketgan tomog'i xirillagani uchun kulmay qo'ya soldi. – Starshina, agar siz bo'lmaganingizda mening ahvolim tang bo'lardi.

– Anovi eshikni polkda faqat starshinalar bilishardi, – xo'rsindi Stepan Matveyevich. – Mana, o'sha bilganimiz asqatdi hozir.

Starshina etigini arang yechdi: qon shimgan paytava ko'pchib qolgandi. Kristya xola qo'llarini silkitib javray ketdi.

– Hechqisi yo'q, Yanovna, – dedi starshina, – sezyapman, et yopishib qolibdi. Suyak butun lekin. Suyak butun bo'lsa bo'ldi, et o'sib, yamoq joylar bitib ketadi.

– Shunday qilishning nima keragi bor edi, a? – asabiylanib so'radi Fedorchuk. – Otibsizlar-u qochibsizlar, nima uchun? Nima, shu bilan tezroq tugarmidi urush? Urush emas, biz tezroq

tugaymiz. Urush bo'lsa o'z vaqt-soatiga borib tugayveradi, biz bo'lsak... – jimib qoldi, boshqalar ham lom-mim deyishmadi. Xozir hammani g'alaba nashidasi va jangovarlik zavqi chulg'ab olgandi, shu boisdan ham badqovoq katta serjant bilan adi-badi aytishib o'tirishmadi.

To'rtinchi kunga borganda Fedorchuk yo'qolib qoldi.

U yashirin post-sekretga borishni istamay sustkashlik qilganda Plujnikov qattiq koyib tashlagandi uni.

– Bo'pti, mayli, boraman, boraman, – to'ng'illadi katta serjant. – Bu kuzatishlarning kimga keragi bor ekan...

Sekretga borgan odam kuni bo'yi o'sha yerda bo'lishi kerak: erta tongdan qorong'i kechgacha. Jangovor harakatga o'tishdan avval dushman haqida iloji boricha hamma narsani bilishga intilardi Plujnikov. Fedorchuk erta tongda ketgan bo'yicha oqshomda ham, tunda ham qaytmadi. Tashvishlangan Plujnikov noma'lum tomonga yo'qolib ketgan katta serjantni qidirishga ahd qildi.

– Avtomatni qoldir, – dedi u Volkovga. – Karabinni ol. – Garchi o'zi avtomatini olgan bo'lsa ham, mana shu safargi hamlaga hamrohiga karabin olishni buyurdi.

U oldindan sezish, ko'ngilga kelish degan gaplarga ishonmasdi, ammo mana shunday buyruq bergani uchun keyinchalik afsuslanmadi, garchi karabin bilan emaklash ancha qiyin bo'lsa ham. Plujnikov itoatkor Volkovga miltiqni sharaqlatma, boshingni ko'tarma deb bora-borguncha g'idi-bidi qildi. U miltiq sharaqlagani uchun emas, katta serjant Fedorchukdan hech qanday iz topisha olmagan uchun asabiy-lashayotgandi.

Ular Terespol darvozasi ustidagi yarim xarobaga aylangan minoraga kirishganda tong yorisha boshlagandi. Avvalgi kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, nemislar minora ustiga chiqishmaydi, shuning uchun ham Plujnikov balandlikdan turib atrofni xotirjam kuzatishni va biron joydan katta serjantni topishni mo'ljal qildi. Tirikmi, yaradormi yoki o'likmi – topib xotirjam bo'lish kerak, chunki tushunarsiz g'oyib bo'lgandan yomoni yo'q.

Plujnikov Volkovga daryoning narigi sohili va Bug daryosi ustidagi ko'prikn kuzatishni buyurib, o'zi o'ydin-chuqur bo'lib ketgan gal'a hovlisiga diqqat bilan qaray boshladi. Hovlida allaqancha mardalar hamon cho'zilib yotibdi, ularning birontasi Fedorchuk emasmi-kin deb, hammasini olisdan turib birma-bir qarab chiqdi Plujnikov.

Ammo Fedorchuk ular orasida ko‘rinmadi, murdadar ham ancha eski, asta-sekin chiriy boshlagani bilinib turardi.

– Nemislar...

Bu so‘zni Volkov shu qadar sekin shivirladiki, agar Plujnikov nemislarni xayolan uzluksiz kutib turmaganda uning shivirlaganini eshitmasdi ham. U astagina boshqa tomonga o‘tib mo‘raladi. O‘ntacha nemis narigi qirg‘oqda, ko‘prik yonida turardi. Ular o‘zlarini nihoyatda erkin tutib kulishar, nimalarnidir gapirishib va-laqlashar, berigi sohilga qarab qo‘llarini silkitishardi. Plujnikov bo‘ynini chiqarib pastga, minoraning eng pastiga ko‘z qirini tashladi va shu ondayoq o‘ylab turgan, ammo ko‘rishga yuragi dov bermay turgan narsasini ko‘rdi.

Minoradan chiqqan Fedorchuk ko‘prik ustidan yurib nemislar tomon borardi. Qo‘llarini baland ko‘targan, mushti bilan qisib ushlagan oq doka lattalar salmoqli va og‘ir qadam tashlashiga monand silkinib ketyapti.

U asirlikka o‘z xohishi bilan, shunday xotirjam o‘tib borardiki, xuddi og‘ir va yoqimsiz ishdan so‘ng uyiga qaytayotgan odamga o‘xshardi. Uning butun turish-turmushi sodiq xizmatkor bo‘lishga tayyorligini ko‘rsatib turganini nemislar ham so‘zsiz tushunishdi, shu boisdan ham ko‘rib, hazillashib kutib olishdi uni. Miltiqlarini hatto yelkalaridan ham olishgani yo‘q.

– O‘rtoq Fedorchuk, – taajjublanib dedi Volkov. – O‘rtoq katta serjant...

– O‘rtoq?.. – Plujnikov unga qaramay miltiqqa qo‘lini cho‘zdi:

– Miltiqni ber.

Volkov odatdagidek imirsilab, to‘satdan qotib qoldi. Qult etib yutindi.

– Nima uchun?

– Miltiqni ber! Tez bo‘l!

Fedorchuk nemislarga yaqinlashib qolgani uchun Plujnikov shoshmoqda edi. Nishonga yaxshi otardi u, ammo hozir, bexato otish nihoyatda zarur bo‘lgan paytda tepkini haddan ziyod qattiq bosib yubordi, chunki Fedorchuk ko‘prikdan o‘tgan, nemislarga yetishiga to‘rt qadam masofa qolgan edi.

O‘q katta serjantning orqa tomonidagi yerga tegdi. Nemislar yakka otilgan o‘q ovozi eshitishmadimi yoki unchalik e‘tibor berishmadimi, harqalay, ularning xatti-harakatlarida o‘zgarish bo‘lmadi.

Bu jaranglab otilgan o‘q – Fedorchukka atalgan o‘q, uning gimnastyorka ostida bir zum nam tortib qolgan keng yelkasi kutayotgan o‘q edi. O‘q ovozi eshita solib o‘zini chetga oldi, yiqildi, to‘rt emaklab nemislar tomon bora boshladi, nemislar bo‘lsa xaxolab kulishar, yaqinlashgan sari orqalariga tisarilishar, u goh yerga yiqilar, o‘zini u yoq-bu yoqqa otar, goh latta ushlagan qo‘llarini nemislarga cho‘zardi.

Ikkinchi o‘q Fedorchuk tiz cho‘kib turgan paytda yetib bordi. U oldinga tashlanib g‘ujanak bo‘ldi, yer tirnab emakladi, tushunib bo‘lmaydigan gaplar bilan g‘ayritabiiy qichqirdi. Nemislar bo‘lsa hali ham hech narsaga tushunishmay, o‘lishni istamagan barzangi ustidan kulib, uni kalaka qilishardi. Keyingi uchta o‘qni Plujnykov o‘quv yurtidagi tez otish bo‘yicha musobaqada otgandek otgani uchun, hech kim hech narsaning farqiga bora olmay qoldi.

Nemislar palapartish o‘t ochib javob qaytarishdi.

Bu payt Plujnikov va o‘zini yo‘qotib qo‘ygan Volkov pastga – vayronaga aylangan kazematga tushib olishgandi. Qayerdadir yuqorida bir necha mina portladi. Volkov qandaydir bir teshikka biqinib olmoqchi edi. lekin Plujnikov uni u yerdan sudrab yana qayoq-qadir yugurishdi. Yiqilishdi, emaklashdi va hovlini kesib o‘tib shikastlangan bronevik orqasidagi chuqurlikka yashirinishdi.

– Ko‘rdingmi, – bo‘g‘ilib dedi Plujnikov. – Ablah ekan u. Razil. Sotqin.

Volkov javdiragan yumaloq ko‘zlarini pirpiratib nima gapligini tushunmasa ham boshini qimirlatdi. Plujnikov bo‘lsa o‘sha gapni qayta-qayta takrorlardi:

– Sotqin. Ablah. Ro‘molcha bilan ketyapti-ya, ko‘rdingmi? Dokalar top-toza. Xristya xolanikini o‘g‘irlaganga o‘xshaydi. Jirkanch hayoti uchun hamma narsani sotadi u, hamma narsani. Biz ikkovimizni ham sotib yuborishi mumkin edi. Zaharli ilon-ey, ro‘molcha bilan ketyapti-ya? Qanday ketayotganini ko‘rdingmi sen, Volkov? Xotirjam ketyapti-ya, avvaldan reja qilib qo‘ygan ekan.

Uning nihoyatda gapirgisi kelardi hozir. U dushmanlarni qiyaratgan, ammo hech qachon o‘zida bunday gapiishga, tushuntirishga ehtiyoj sezmagandi. Hozir esa, gapirmay iloji yo‘q. Bir dasturxon atrofida bir necha bor birga o‘tirgan odamni otib tashlagani uchun vijdoni mutlaqo azoblanmasdi. Aksincha u, g‘azab va quvonchdan qattiq hayajonga kelgan va shu boisdan to‘xtovsiz gapirardi.

Armiya xizmatiga qirq birinchi yilning may oyida chaqirilib, xizmatning birinchi yilini o'tkazayotgan qizil askar Vasya Volkov uning bir dona so'zini eshitmasa ham, itoatkorona bosh qimirlatardi. U bir marta ham jangda qatnashmagan, uning uchun hatto nemis askarlari ham avvalo inson, ularni otish mumkin emas, hech bo'lmaganda buyruq berilmaguncha otmaslik kerak, deb o'ylardi. U ko'rgan birinchi o'lim esa, Vasya Volkov allaqancha kun birga bo'lgan, tinch va osoyishta hayotining yaxshi, yomon kunlarini birgalashib boshidan kechirgan kishining o'limi edi. Xuddi shu odamni boshqalardan ko'ra yaqinroq bilar, chunki urush boshlangunga qadar bir polkda xizmat qilishib, bir kazarmada uxlashardi. Shu odam vaysay-vaysay qurol bilan muomala qilishga o'rgatgan, shirin choy bilan mehmon qilgan va zerikarli naryadlar paytida birozgina uxlab olishga ruxsat etgandi unga.

Hozir bo'lsa u odam daryoning narigi qirg'og'ida doka ushlagan qo'llarini oldinga cho'zganicha muk tushib yotibdi. Garchi Volkov katta serjantning nemislar yoniga nima uchun borganini tushunmasa ham, Fedorchuk haqida yomon o'yg'a borishni istamasdi. Katta serjant Fedorchukning bunday qilishiga birorta sabab bor, deb o'ylardi Volkov, shunday bo'lgandan keyin avval sababini bilib, undan keyin yelkasidan otish kerak deb hisoblardi u. Ammo bu ozg'in, gapga tushunmaydigan, dahshatli leytenant hech narsani tushunishni istamaydi. Ularning yonida paydo bo'lgan birinchi kundanoq qurolini ko'rsatib, otib tashlayman deb hammaga do'q qila boshladi.

Mana shularni o'ylar ekan, Volkov o'zini yolg'iz his eta boshladi, bu yolg'izlik gayritabiyy va alamli edi. Bu holat Volkovga o'zini inson va jangchi deb hisoblashga halal berar, uning bilan Plujnikov o'rtasidagi o'tib bo'lmas devordek tuyulardi. Endi Volkov o'z komandiridan qo'rqa boshladi. Uning gaplariga tushunmagani uchun o'ziga ham ishonmay qo'ydi.

Terespol darvozasi orqali o'tib, qal'ada nemislar paydo bo'lishdi: bir vzvodcha edi ular. Saf tortib kelishdi va birdan tarqalishib Terespol darvozasi yonidagi aylanma kazarma hujralarini titkilasha boshlashdi: oradan ko'p o'tmay u yerdan portlagan granatalar va ognemyotning bo'g'iq ovozi eshitildi. Nemislar boshqa tomonni qidirayotganlari uchun Plujnikov hali sevinishga ulgurmagan ham edi, o'sha darvozadan yana bir otryad nemis askarlari chiqib keldi. Chi-

qib keldi-yu, tezgina zanjirli halqa tashkil qilib, 333-polk kazarma xarobasi tomon yurdi. U yerdan ham portlagan ovozlari, ognemyotlarning guvillagani eshitildi.

Nemislarning xuddi mana shu otryadi ertami, kechmi, ularga qarshi chiqishi kerak edi. Zudlik bilan chekinish zarur bo'lib qoldi, chekinganda ham o'z odamlari yoniga, yerto'laga olib kiradigan tuynukka emas, kostel orqasidagi kazarma xarobalari tomon chuqur yer ostiga chekinish kerak, chunki hovlining mana shu qismi dushmanga yaqqol ko'rinib turadi.

Plujnikov qayerga, qanday qilib chekinish kerakligini jangchiga yaxshilab tushuntirdi. Volkov uning hamma gaplarini jim turib itoatkorona tingladi, hech narsani qaytarib so'ramadi, aniqlamadi ham, hatto boshini ham qimirlatgani yo'q. Uning bu qiligi Plujnikovga yoqmagan bo'lsa ham, vaqt ketkazib surishtirib o'tirmadi. Jangchi qurolsiz bo'lgani uchun (uning qurolini Plujnikov minora tepasida-yoq tashlab yuborgan edi) o'zini noqulay his qilardi, balki qo'rqardi ham. Plujnikov unga dalda berish maqsadida ko'zini qisib iljayib qo'ydi, ammo bu ko'z qisish va iljayish Volkovni emas, undan ko'ra dovyurakroq jangchini ham cho'chitib yuborishi mumkin edi.

– Bo'пти, qurol topamiz senga, – tezgina kulishdan to'xtab qovog'ini solib to'ng'illadi Plujnikov.

– Qani, olg'a! Keyingi chuqurlikkacha yugurib borasan.

Ular qisqa-qisqa yugurib ochiq joydan o'tib olishdi va xarobalar orasiga yashirinishdi. Bu yer xavf-xatardan ancha xoli bo'lib, biroz dam olish va u yoq-bu yoqni kuzatish mumkin edi.

– Qo'rqma, bu yerda topisha olmaydi.

Plujnikov yana kulishga harakat qildi, Volkov esa yana churq etmadi. U o'zi umuman kamgap bo'lgani uchun Plujnikov taajjublanmasdi, lekin hozir nima uchundir Salnikovni esladi va xo'rsindi.

Qayerdadir xarobalar ortida – orqada, nemislarning qidiruv guruhi qolgan tomonda emas, oldinda, nemislar bo'lishi mumkin bo'lmagan joyda g'ala-g'ovur, odamlarning yurgani va tushunib bo'lmaydigan ovozlari eshitildi. Eshitilayotgan ovozga qaraganda, anchagina odam borgan o'xshaydi, ularning yashirinmay yurishidan ma'lumki, bizning odamlar emas. Ko'rinishdan bu tomonga yana qandaydir nemis otryadi kelayotgan bo'lsa kerak, ularning qaysi tomonga ketayotganlarini aniqlamoq uchun Plujnikov diqqat bilan quloq tuta boshladi. Ammo hech qayerdan hech qanday odam ko'rinmadi, tushunib bo'lmaydigan

g'ala-g'ovur, ovozlari shitir-shitirlar avvalgidek davom etaverdi, na uzoqlashardi, na yaqinlashardi.

– Shu yerda o'tirib tur, – dedi Plujnikov. – Men kelguncha hech yerga jilma.

Volkov yana lom-mim demadi, g'ayritabiiy jiddiylashgan ko'z-la ko'zlarini unga tikdi.

– Kutib o'tir, – takrorladi Plujnikov.

U xarobalar oralab asta biqinib keta boshladi, singan g'isht uyumlari ustidan bironta g'ishtni nari-beri qilmay o'tdi, ochiq joy kelganda yugurdi, to'xtadi, jim turib atrofqa quloq soldi. U o'sha tushunib bo'lmaydigan g'ala-g'ovur tomon boryapti, mana, yaqinlashgan sari masala oydinlashyapti, Plujnikov ularning kimlar ekanini fahmladi ham. Fahmladi, ammo ishongnsi kelmadi.

So'nggi metrlar qolganda parchalangan g'isht va toshdek qotib qolgan shuvoq bo'laklari tizzalarini qonatiyuborsa ham emakladi. Pana joy topib o'tib oldi, avtomatini jangovar holatga keltirib atrofqa qaray boshladi.

Qal'a hovlisida odamlar ishlashardi. Ular bomba va snaryadlar portlashidan hosil bo'lgan chuqur va voronkalarga chiriy boshlagan murdalarni keltirib gisht parchalari va qum tashlab ko'mishardi. Shu qadar shoshmasdan, befarq va horg'in ishlashardiki, murdalarning kimligiga mutlaqo e'tibor berishmas, ularning na hujjatlarini va na nishonlarini olishardi. Ishlayotganlar yonida soqchilarni ko'rmadi Plujnikov, shundan ma'lum bo'ldiki, bular asirlar ekan. Buni u yugurib ketayotgan paytidayoq fahmlagan edi, ammo nima uchundir o'zi fahmlagan narsaga o'zining ishongnsi kelmadi, uch qadam narida, ko'zga tanish qadrdon formada o'z odamlari, sovet kishilari bilan yuzma-yuz ro'baro' bo'lishdan qo'rqdi shekilli. Ular sovet kishilari bo'lgani bilan o'zimiznikilar emasdi endi, Qizil Armiyaning kadr ofitseri leytenant Plujnikovdan «ASIR» degan dahshatli va xunuk so'z ajratib turardi ularni.

Plujnikov ularning qanday ishlayotganlarini anchagacha kuzatib turdi: xuddi avtomatlar kabi to'xtamasdan, tamomila befarq ishlashardi. Yurishlari xuddi bukriga o'xshaydi, oyoqlarini birdaniga uch hissa qarib ketgan odamga o'xshab sudrab bosishadi. Qayerda turganlarini aniqlash yoki chamalab ko'rish anqovga o'xshab xayollariga ham kelmaydi. Kam sonli soqchilar guruhi erinib kuzatardi ularni. Plujnikov bir narsaga tushunmasdi, nima uchun bu asirlar qochib ketishmaydi, qochib yashirinish, ozodlikka chiqish uchun harakat qilishmaydi. U

o'zining bu savoliga javob topa olmagach, nemislar asir tushganlarga qandaydir ukol qilib, ularni – kechagi aktiv kurashchilarni ozodlik va qurol haqida o'ylamaydigan itoatkor xizmatkorlarga aylantirib qo'yadi degan mulohazaga ham bordi. Uning bu mulohazasini hozir o'z ko'zi bilan ko'rayotganlari qisman tasdiqlar va bu narsa sovet kishisining sharafi va g'ururi degan uning shaxsiy tasavvuriga mutlaqo qarama-qarshi edi.

Asirlarnitg sustkashligi va itoatkorligini o'zicha mulohaza etgach, Plujnikov ularga boshqacha nazar bilan qaray boshladi. Og'ir betob kishilarga rahm qilganday, ularga ham rahmi keldi, achindi. Birdan u Salnikov haqida o'ylab, uni ishlayotganlar orasidan izladi, topa olmagan uchun xursand bo'ldi. Salnikov tirikmi yoki halok bo'lganmi – bexabar edi u, harqalay ko'rinmasdi bu yerda, demak, uni itoatkor ijrochiga aylantirishmagan. Ammo qandaydir boshqa bir tanish bor edi bu yerda. O'zi gavdali, imirsilab yuradi. Plujnikov unga razm solib, kimligini eslashga ko'p harakat qildi.

Gavdali asir esa, go'yo o'chakishganday Plujnikovdan ikki qadam narida katta belkurak bilan g'isht parchalarini to'plardi. Yaqin yurib, belkuragi bilan quloqni qomatga keltirsa ham bu tomonga yuzini mutlaqo o'girmadi...

Shunday bo'lsa ham uni tanib oldi Plujnikov. Tanidi-yu, birdan kostelda bo'lgan janglarni, tunda u yerdan chiqib ketishgani va mana shu jangchining familiyasini esladi. Bu jangchi yerli aholidan, armiya safiga oktabr oyida emas, may oyida o'z ixtiyori bilan yozilganidan afsuslangandi o'shanda. Salnikovning ta'kidlashicha bu jangchi o'sha tundagi otishma paytida halok bo'lgan. Plujnikov bularning hammasini aniq yodga tushirgach, jangchining yoniga yaqin kelishini kutib turdi va chaqirdi:

– Prijnyuk!

U cho'chib ketdi-yu, keng yelkalari yanada pastroq egildi. Qo'rquvdan turgan yerida itoatkorona qotib qoldi.

– Bu menman, Prijnyuk, leytenant Plujnikovman. Kostel esingda bormi?

Asir o'girilmadi, o'zining sobiq komandiri ovozni eshitayotgani ni bildirmaslikka urindi. Uvadasi chiqqan iflos gimnastyorkasi bilan tarang qoplangan keng, itoatkor yelkasini yerdagi belkurak tomon egib indamay turaverdi. Yelkaning bu qadar egilib, tarang tortilib qotib turishiga qaraganda hozir nimanidir kutayotganga o'xshardi.

Buni birdan angladi Plujnikov: Prijnyuk qo'rquv va dahshat bilan himoyasiz keng yelkasiga o'q kelib tegishini kutyapti, mana shuning uchun ham uning yelkasi zo'rma-zo'raki bukri bo'lib itoatkorona egilgan.

– Salnikovni ko'rdingmi? Asirlikda uchratdingmi Salnikovni? Javob ber, hech kim yo'qmi bu yerda.

– Lazaretda u.

– Qayerda?

– Lager lazaretida.

– Nima, kasalmi?

Prijnyuk indamadi.

– Nima bo'lgan unga? Nima uchun lazaretda?

– O'rtoq komandir, o'rtoq komandir.. – o'g'riga o'xshab alanglab, to'satdan shivirladi Prijnyuk. – Nobud qilmang meni, o'rtoq komandir, Xudo haqqi, yalinaman, meni nobud qilmang. Bizga, harakat qilib yaxshi ishlaganlarga yengillik berishar ekan. Shu yerliklarga uylariga javob berisharmish, albatta javob beramiz deyishdi..

– Bo'pti, obidiydangni bas qil, – dargazab bo'lib gapini cho'rt kesdi Plujnikov. – «O'shalarining xizmatini qilaver, ozodlikka erish, uyingga jo'na, baribir sen odam emassan. Ammo bitta ish qilasan, Prijnyuk. Shu ishni qilasan, yoki bo'lmasam otib tashlayman sen jin urgumi.

– Rahm qiling... – zorlanib nola qildi asir, ammo Plujnikov unga bo'lgan rahm-shafqatni yo'qotgan edi.

– Aytganimni qilasanmi deb so'rayapman? Yo buni tanla, yo uni. Men sen bilan hazil qilayotganim yo'q.

– Nima ham qila olardim men, nima? Erksiz odamman men.

– Salnikovga pistolet berasan. So'ng aytasan unga, qal'ada ishlayman deb ulardan iltimos qilsin. Tushundingmi?

Prijnyuk lom-mim demadi.

– Mabodo bermasang, bilib qo'y, Prijnyuk, yer ostidan bo'lsa ham qidirib topaman seni. Ma, ushla.

Plujnikov qulochini yozib pistoletini to'ppa-to'g'ri Prijnyukning belkuragiga uloqtirdi. Pistolet belkurakka tegib jaranglashi bilan Prijnyuk yon tomonga bir sakradi-yu, ovozi boricha baqirib qochib ketdi:

– Bu yoqqa! Bu yoqqa kelinglar, odam bor bu yerda! Janob nemis, bu yoqqa keling! Leytenant bor bu yerda, sovet leytenant!

Bu voqea shunday kutilmaganda sodir bo'ldiki, Plujnikov bir necha daqiqa o'zini yo'qotib qo'ydi. Es-hushini yig'gan paytda esa, Prijnyuk u otish mumkin bo'lgan doiradan chiqib ketgan, nag'alli etiklarini do'qillatib lager soqchilari u tomon yugurib kelishardi, bir marta oghlantiruvchi o'q ham uzishgandi ular.

Qurolsiz va haddan ziyod qo'rqqoq bo'lgan Volkov yoniga chekinish mumkin emasdi, shuning uchun Plujnikov boshqa tomonga qocha boshladi. Nemislar ko'p bo'lgani uchun u o'q otib o'zini himoya qilishga urinmadi, jon-jahdi bilan ulardan uzoqlashishga, ichkarilikdagi biron kazematga yashirinib qorong'i tushguncha poylab yotishga va tunda Volkovni topib, so'ng o'z odamlari yoniga ketishga harakat qildi.

U osongina qutulib ketdi: qorongi yerto'lalarga tushish unchalik xush kelmasdi nemislarga, undan keyin xarobazor orqali yugurishning ham o'zi bo'lmasdi. Ular hayhaylashib uning ketidan o'q uzishdi, osmonga raketa otishdi, bu raketani Plujnikov bexavotir joydan – yerto'ladan turib kuzatardi.

O'ylaydigan vaqt kelgandi endi. Ammo nima uchundir Plujnikov yerto'laning mana shu andak qorong'i joyida na otib tashlangan Fedorchuk haqida, na o'zini yo'qotib qo'ygan Volkov haqida va na qaddini itoatkorona bukkan Prijnyuk haqida o'ylay oldi. Ular haqida o'ylay olmagani, o'ylashni istamaganlikdan emasdi, albatta, u boshqa muhimroq narsalar haqida – nemislar haqida to'xtovsiz o'ylash bilan band edi.

Ular Plujnikovga yana boshqacha bo'lib ko'rindi bugun. Ulardagi kekkayish o'z kuchiga ishonch, yuzsizlik, hech narsadan tap tortmaslik, hujum paytidagi qaysarlik, taqib paytidagi tirishqoqlik va qo'l jangidagi shiddatni ko'rmadi. Yo'q, agar shu paytgacha u jang qilgan nemislar bo'lganda bormi, Prijnyuk baqirgandan keyin uni tirik qo'yib yuborishmasdi. U nemislar bo'lganda, qo'l ko'tarib kelayotgan qizil askarni kutib sohildagi yalanglikda indamay turishmas, o'q ovozini eshitib xaxolab kulishmasdi. Qochoq otib tashlangandan keyin esa, Volkov ikkovini sekingina bejazo qochib qolishlariga yo'l qo'yishmagan bo'lardi, albatta.

U nemislar va bu nemislar... Uning hech narsadan xabari bo'lmasa ham, qal'ani zabt etish paytidagi nemislar bilan hozirgi nemislar o'rtasidagi farqni o'zicha mulohaza qila boshladi. Ehtimol u, aktiv «shturmchi» nemislar qal'adan olib ketilib, ularning

o'rniga boshqa toifadagi, boshqa jangovar ruhdagi nemislar kelgan bo'lsa ajab emas. Ularda tashabbus yo'q, tavakkal qilishdan va qorong'i yerto'lalardan otilayotgan o'qdan ochiq-oydin qo'rqishadi.

Plujnikov o'zicha shunday xulosaga kelgach, faqat kayfi chog' bo'lib qolmay, biroz surbetlashdi ham. Uning yangi o'ylab topgan rejasini amalda sinab ko'rishni taqozo etardi, shuning uchun ham avval qilishi mumkin bo'lmagan ishni hozir qilishga ongli ravishda jazm qildi: yashiringan joyidan qomatini, baland ko'tarib, etiklarini ataylab taqillatgan holda tashqariga chiqa boshladi.

U yerto'ladan tashqariga shu holda chiqdi u: faqat qo'lidagi avtomatini otishga shay qilib qo'ygan edi. Tashqarida nemislar yo'q ekan, bu holat uning gumonini tasdiqlar va vazifani ancha soddalashtirardi. Endi starshina bilan maslahatlashib qarshilik ko'rsatishning yangi taktikasini – shaxsan ularning fashistlar Germaniyasi bilan jang qilish taktikasini o'ylaydigan payt kelgan edi.

Plujnikov mana shu haqida o'ylab, asirlarni ancha uzoqdan aylanib o'tdi. Xarobalar orqasidan hamon mungli ovozlari eshitilardi. U narigi tomonda Volkovni qoldirib ketgan joyga keldi. Bu joylar unga ancha tanish bo'lgani sababli xarobalar orasida mo'ljalni aniq oldi va qiyshayib qolgan g'isht devor bo'lagini tezda topdi. Volkovni u mana shu g'isht devor orqasiga yashirib ketgan edi. G'isht devor turibdi, ammo Volkov uning orqasida ham, yonida ham yo'q, qayoqqadir g'oyib bo'lgan.

Plujnikov ko'zlariga ishonmay, g'isht devorni qo'li bilan ushlab ko'rdi, yon-atrofdagi xarobalarni ham izg'ib chiqdi, har bir kazematni ko'zdan kechirdi, jang ko'rmagan, tajribasiz, g'alati ko'zli, kipriklari ni deyarli yummaydigan jangchini hatto ovoz chiqarib chaqirdi, ammo hech qayerdan topa olmadi.

Volkov tushunib bo'lmaydigan sirli holatda, o'zidan na bir kiyim, na bir tomchi qon, na nom, na nishon qoldirmay goyib bo'lgan edi.

3

– Demak, Fedorchukni yo'q qilding, – xo'rsindi Stepan Matveyevich. – Yigitchaga bo'lsa odamning rahmi keladi, bola bechoraga qiyin bo'ladigan bo'ldi, o'rtoq leytenant, yoshligidan qo'rqqoq o'sgan u.

Indamas Vasya Volkovni yana bir necha bor esga olishdi, Fedorchuk haqida esa, boshqa gapirishmadi. Bamisoli u bu yerda bo'lmagan,

mana shu stol atrofida o'tirib birga ovqatlanmagan, burchakdagi karavotda uxlamagandek edi. Faqat ikkovlari qolgandagina Mirra undan so'radi:

– Otib tashladingmi?

Bu so'zni u tutilib zo'rga gapirdi. Chunki bu so'z uning uchun begona, ular oilasida bunday gapirishga odatlanishmagan. Oilada faqat bolalar va non haqida, ish va charchashlik haqida, o'tin va kartoshka haqida gapirishardi. Undan keyin yana tez-tez bo'lib turgani uchun kasallik haqida ham gapirishardi.

– Otib tashladingmi?

Plujnikov bosh silkitib qo'ydi. Fedorchukka emas, unga rahmi kelib so'rayotganini bilardi Plujnikov. Bo'lgan voqeaning qanchalik ogirligidan Mirra dahshatga kelayotgan bo'lsa ham, uning o'zi hech qanday ogirlik sezmedi, biroz charchagan edi, xolos.

– Voy Xudoyim-yey! – xo'rsindi Mirra. – Voy Xudoyim-ey, bolalaring aqldan ozadi endi! – bu gapni xuddi keksalardek bosiq va alamli gapirdi. Shuningdek yana keksalarga o'xshab uning boshini o'ziga tortdi va peshonasidan, ikki ko'zidan uch marta o'pdi.

– Seni g'aming menga bo'lsin, seni darding menga bo'lsin, baxtsizliging ham menga bo'lsin.

Bolalardan birontasi betob bo'lib qolganda uning onasi mana shunday gapirardi. Bolalar esa, juda ko'p edi, doimo och-yalang'och edi ular, ona bechora na o'z g'amini, na betobligini o'ylardi: boshqalarning dardi-yu, boshqalarning g'ami yetib ortardi unga. Ammo ona, hamma qizlariga avvalo o'z tashvishi haqida emas, o'zgalar tashvishi haqida o'ylashni o'rgatgan edi. Shuningdek, Mirraga ham nasihat qilar ekan, doimo xo'rsinib qo'yardi:

– Sen umr bo'yi o'zgalar tashvishini tortasan: o'z tashvishing bo'lmaydi, qizim.

Mirra bolalik paytidan boshlab, mening qismatim – baxtli opa-singillarimdan birontasiga enaga bo'lish – degan fikrga ko'nikib qolgan edi. Ko'nikkani uchun ortiqcha qayg'urmasdi ham, chunki uning o'ziga xos ustunligi bor – avvalo u erkin.

Xristya xola bo'lsa yerto'lani aylanib, kalamushlar kemirib tashlagan qoqnonlarni qayta-qayta sanardi va o'zicha pichirlab qo'yardi:

– Ikki kishi yo'q. Ikki kishi yo'q. Ikki kishi yo'q.

So'nggi paytlarda Xristya xola qiynalib zo'rg'a yurardi. Yerto'la ancha salqin, zax bo'lganidan xolaning oyoqlari shishib ketdi, quyosh

ko'rmagani, ochiq havoga chiqmagani, kamharakat bo'lgani uchun o'zi ham ilvillab qoldi, uxlay olmas, nafasi qisardi. Salomatligi birdan puturdan ketganini, kundan-kunga ahvoli yomonlashayotganini bilardi xola, Shu sababdan hech kimga bildirmay ketishga qaror qildi u. O'ziga achinmasdi xola, hademay ona yordamisiz, ayol kishining maslahatisiz yolg'iz o'zi qoladigan qizga rahmi kelib tuni bo'yi yiglab chiqardi.

Xolaning o'zi ham so'qqabosh edi. Uch farzandi go'daklik paytidayoq olamdan o'tib ketgan, eri ishlab pul topaman deb ketgan bo'yicha dom-daraksiz yo'qoldi, uyni qarzar evaziga olib qo'yishdi, shundan so'ng Xristya xola ochlikdan o'lib qolmaslik uchun Brestga kelib qoldi. Birovlarning eshigida xizmatkorlik qildi, xullas, Qizil Armiya kelguncha bir amallab kun kechirdi. Mana shu quvnoq, saxiy, adolatli Qizil Armiya Xristya xolaga hayotida birinchi marta doimiy ish berdi, mo'ljilik, serobchilikni ko'rdi, tanish-bilish birodarlar ortirdi, o'zi alohida xonaga ega bo'ldi.

Ular – Xudoning askarlari, – odatdan tashqari tinch bo'lgan Brest bozorlaridagilarga g'urur bilan tushuntirardi Xristya xola, – ularga sig'ininglar, panlar.

Xolaning o'zi esa ko'pdan buyon Xudoga sig'inmasdi, buning sababi Xudoga ishonmaganidan emas, qattiq xafa bo'lganidan edi. Bolalaridan va eridan judo qilgan bu adolatsizlikdan xafa bo'lib, Xudoga qiladigan har qanday nola-yu, toat-ibodatini birdan to'xtatdi, qo'ydi. Hatto hozir, ahvoli nihoyatda mushkullashgan paytda Qizil Armiya uchun, yoshgina leytenant uchun, o'z yahudiy xudosi shafqatsizlik qilgan qiz uchun toat-ibodat qilgisi kelgan bo'lsa ham o'zini tiydi xola. Mana shunday fikr-o'ylar va ichki kurash bilan to'lib-toshgan xola bularning bari tez kunda tugashini kutardi. U hamma ishni, kazematdagi gap-so'zlarga ortiq quloq solmasdan, ko'p yillik mehnat ko'nikmasi va intizomi asosida qilardi.

– Boshqa nemis kelgan deb o'ylayapsizmi?

Yerto'la doimiy salqin bo'lgani uchun starshinaning o'q tekkan oyog'i zirqirab og'rirdi. Shishib ketgan oyoq to'xtovsiz lovillasa ham, Stepan Matveyevich bu haqda hech kimga gapirmaydi. U qaysarlik qilib o'z salomatligiga hamon qattiq ishonar, chunki uning o'ylashicha, suyak butun bo'lgandan keyin yaraning o'rniga boshqa et bitib ketishi aniq.

– Nima uchun ular mening orqamdan yugurishmadi? – fikr yuritardi Plujnikov. – Doimo yugurishardi, endi esa qo'yib yuborishdi. Nima sababdan?

– Nemislarni o‘zgartirmagan bo‘lishlari ham mumkin, – o‘ylab turib dedi starshina. – yerto‘lalarga tushmanglar deb ularga buyruq bergan bo‘lishlari mumkin.

– Bo‘lishi mumkin, – xo‘rsindi Plujnikov. – Faqat men bilishim kerak. Ular to‘g‘risida hamma narsani bilishim kerak.

Biroz nafasini rostlagach, sirli suratda g‘oyib bo‘lgan Volkovni qidirish uchun Plujnikov hech kimga bildirmay yuqoriga chiqib ketdi. Changdan va murdaning sassiq hididan nafasi qaytib, yana emakladi, atrofga quloq tutdi, chaqirdi, ammo hech qanday javob bo‘lmadi.

Kutilmagan uchrashuv sodir bo‘ldi. Butun qolgan devor orqasidan o‘zaro gaplashib chiqib kelgan ikkita nemis Plujnikovga ro‘baro‘ bo‘lib qoldi. Ularning karabinlari yelkasiga osilgandi, agar bordi-yu, qo‘llarida bo‘lganda ham, Plujnikov birinchi bo‘lib otishga ulgurardi. U o‘zida yashin tezligida harakat qilish xislatini tarbiyalagan bo‘lib, ko‘p balolardan mana shu narsa asrab kelardi uni. Ikkinchi nemis tasodif tufayli tirik qoldi, avval bunday tasodif uchun Plujnikov hayot bilan vidolashishi mumkin edi. Uning avtomati qisqa navbat bilan o‘q chiqarganda birinchi nemis g‘isht ustiga yiqildi, so‘ng esa o‘q qiyshayib zatvorga qadalib qoldi. Plujnikov talvasalanib zatvorni turtib o‘qni chiqarguncha ikkinchi nemis uni otib tashlashi yoki qochib ketishi mumkin edi, ammo buning o‘rniga u tiz cho‘kib, tiqilib qolgan o‘qni chiqarib tashlashini kutib turaverdi.

Quyosh allaqachon botgan bo‘lsa ham, hali ancha yorug‘ edi: bu nemislar bugun nima uchundir qal‘aning snaryad portlashidan shudgorga aylangan jimjit, o‘lik hovlisidan chiqib ketishga kechikishibdi. Mana endi birinchi nemis titrashni ham to‘xtatdi, ikkinchisi esa Plujnikov qarshisida tiz cho‘kkancha boshini egib indamay turibdi.

Plujnikov ham indamasdi. Tiz cho‘kkan dushmani ota olmasligini fahmlagandi u, orqasiga cho‘rt burilib xarobalar orasida g‘oyib bo‘lishi uchun esa, nimadir xalal berardi. Yo‘qolgan jangchidan ham muhimroq bo‘lgan masala halal berardi unga: nima uchun nemislar, mana bu tiz cho‘kib turgani kabi itoatkor bo‘lib qolishdi. U o‘zi uchun jang tamom bo‘ldi deb hisoblamaydi, shuning uchun ham dushman haqida hamma narsani bilishi shart. Ma‘lumot taxmin yoki gumon bo‘lishi mumkin emas, real haqiqat bo‘lishi kerak! Bu ma‘lumot uning qarshisida o‘limni kutyapti hozir.

– Komm, – dedi u avtomat bilan qaysi tomonga yurishni ko‘rsatib.

Nemis yo'lda ketar ekan, orqasiga tez-tez qayrilib nimalarnidir gapirdi, ammo Plujnikovning nemis so'zlarini eslashga vaqti yo'q edi hozir. Otishma boshlanib, orqadan hayhaylab quvib qolmasin deb asirni eng yaqin yo'ldan tuynuk tomon haydab ketyapti. Bo'ynini ichiga tortib, qaddini bukkancha oldinda lo'killab borardi nemis.

Ular shu zaylda hovlini kesib o'tib, yerto'laga yetib borishdi, xira yoritilgan kazematga birinchi bo'lib nemis kirdi. Bu yerda u sersoqol starshina, ikki ayol va uzun yog'och stolni ko'rib birdan jim bo'lib qoldi. Qaddi bukchaygan, o'larday qo'rqib ketgan, yoshi ham bir joylarga borib qolgan dushmanga taajjub bilan tikilib ular ham indamay turishardi.

– «Til» tutib keldim, – dedi Plujnikov va bolalarga xos tantanavorlik bilan Mirraga qaradi. – Mana hozir hamma jumboqni hal qilamiz, Stepan Matveyevich.

Nemis yana yutina-yutina, so'zlarni chaynab, yig'loqi ovoz bilan gapira ketdi. U qaltirayotgan qo'llarini oldinga cho'zib kaftini dam starshinaga, dam Plujnikovga ko'rsatardi.

– Hech narsa tushunmayapman, – boshi gangib dedi Plujnikov. – Valdir-valdir qiladi yalang.

– Ishchiman deyapti, – fahmladi starshina. – Qarang, qo'lini ko'rsatyapti?

– Lyangzam, – dedi Plujnikov. – Bitte, lyangzam.

U zo'r berib nemischa iboralarni eslamochi bo'ldi, lekin ayrim so'zlarnigina esladi, xolos. Nemis shoshib boshini qimirlatganicha, bir necha iborani sekin dona-dona qilib gapirdi, so'ng yana birdan entikib labi labiga tegmay vaysay ketdi.

– Qo'rqib ketibdi, – xo'rsindi Xristya xola. – Qaltirashini qarang.

– Askar emasman, deyapti u, – dedi to'satdan Mirra. – Qorovul ekan.

– Ularning tilini tushunasanmi? – taajjublandi Stepan Matveyevich.

– Ko'p emas, ozroq.

– Askar emasman degani – nima degani? – chimirildi Plujnikov. – Bo'lmasam bizning qal'ada nima qilib yuribdi?

– Nixt zoldat! – qichqirdi nemis. – Nixt zoldat, nixt vermaxt!

– Ana xolos, – boshi qotib dedi starshina. – Balki, u, bizning asirlarimizni qo'riqlar?

Mirra savolni tarjima qildi. Nemis bosh qimirlatib eshitib turdi, Mirra gapirib berishi bilan yana bidirley ketdi.

– Asirlarni boshqalar qo‘riqlar ekan, – o‘ziga unchalik ishon-qiramay tarjima qildi Mirra. – Ularga qal’adan chiqish va kirish-ni qo‘riqlash topshirilgan. Ular soqchilar komandasi. Haqiqiy nemis ekan u, qal’ani, esa, fyurerning vatandoshlari, qirq beshinchi diviziyadan bo‘lgan avstriyaliklar zabt etishibdi. U – ishchi ekan, aprel oyida armiyaga chaqirilganman deydi.

– Men aytdim-ku, ishchiman deyapti deb! – o‘zidan mamnun bo‘lib ta’kidladi starshina.

– Ishchi, proletariat bo‘lsa, qanday qilib u bizga qarshi... – Pluj-nikov indamay, qo‘l siltab qo‘ya qoldi. – Mayli, bu haqda so‘ramay qo‘ya qol. So‘rab ko‘rchi, qal’ada jangovar qismlar bormi yoki ularni olib ketishganmi?

– Jangovar qismlarni nemischasiga nima deyiladi?

– Bilmadim... askarlar bormi deb so‘ray qol. – So‘zlarni asta-se-kin topib, tarjima qila boshladi Mirra. Nemis boshini quyi egib diqqat bilan tingladi uning gapini. Nimalarnidir qayta-qayta so‘rab aniqlab oldi, so‘ng goh ko‘kragiga mushtlab, goh «tu-tu-tu!»lab avtomatchi qiyofasiga kirib gapira ketdi.

– Qal’ada haqiqiy askarlar: sapyorlar, avtomatchnlar va ognem-yotchilar qolishibdi. Qachon ruslarni sezib qolishsa, ularni chaqirisha-di, buyruq shunday ekan. Ammo u – askar emas, qorovul xizmatchi-si, odamlarga biron marta ham o‘q uzmagan.

Nemis qo‘llarini siltab yana nimalarnidir vaysadi. So‘ng birdan Xristina Yanovnaga barmoqlari bilan po‘pisa qilganday, shoshmasdan, viqor bilan g‘ijimlangan mundiri cho‘ntagidan avtomobil rezinasidan yasalgan qora paket oldi. Paketdan to‘rtta rasm olib stol ustiga qo‘ydi.

– Bolalari, – xo‘rsindi Xristya xola. – Bolalarini ko‘rsatyapti!

– Kinder! – qichqirdi nemis. – Mayn kinder! Dray!

Ko‘rimsiz ingichka ko‘kragiga barmog‘ini g‘urur bilan niqtardi u: qo‘llari qaltirashdan to‘xtagan edi.

Mirra va Xristya xola rasmlarni tomosha qilishdi, juda mu-him narsalarni so‘ragandek, bolalar, bulka non, sog‘liq, maktabda qo‘yiladigan baholar, shamollash, nonushta va hokazolar haqida ayol-larga xos tafsilot va shirin kalom bilan so‘radilar. Erkaklar esa, bu yaxshi qo‘shnichilik suhbatini tugatish payti kelganda nima bo‘lishini o‘ylab bir chetda jim turishardi.

Nihoyat starshina, qaramasdan gapirdi:

Bu ishni siz bajarishingizga to'g'ri keladi, o'rtoq leytenant: mana bu oyoq bilan menga qiyinroq bo'lsa kerak. Qo'yib yuborish xavfli: bizga keladigan yo'lni biladi.

Plujnikov boshini qimirlatdi. Uning yuragi birdan orziqib ketdi, noiloj ingraganday bo'ldi va u avtomati tuzalgan paytda nemisni otib tashlamaganiga – birinchi marta qattiq achindi. Bu fikr uni behuzur qildi: hatto hozir ham jallodlikka yaramas edi u.

– Kechirasanda meni, – aybdorlarcha dedi starshina. – Oyoq la'nati, tushunasan-ku...

– Tushunaman, tushunaman – shoshib uning gapini bo'ldi Plujnikov. – O'q tiqilib qoldi-da o'shanda...

Gapni shartta to'xtatib o'rnidan turdi va qo'lga avtomatini oldi:

– Komm!

Hatto jinchiroqning miltillagan nurida ham nemisning rangi qanchalik o'chib ketgani yaqqol ko'zga tashlandi. Rangi o'chdi, qomati yanada bukchaydi, hovliqib rasmlarni yig'ishtira boshladi. Qo'llari o'ziga bo'ysunmas, to'xtovsiz qaltirar, panjalari bukilmadan rasm sirg'alib chiqib ketardi.

– Forverts! – avtomatini gohori ko'tarib qichqirdi Plujnikov.

Yana bir daqiqa tursa, o'zida jur'at yo'qolishini sezardi Plujnikov. Egilgan gavda va qaltirayotgan qo'llarga qarashga toqat qolmagandi unda.

– Forverts!

Nemis stol yonida bir gandraklab turgach, tuynuk tomon asta yura boshladi.

– Rasmlaringni qoldirding! – bezovtalandi Xristya xola. – To'xtab tur.

Xola shishgan oyog'ini oqsatib nemisga yetib oldi va rasmlarni mundir cho'ntagiga o'zi tiqib qo'ydi. Nemis turgan joyida chayqalib, ketayotgan tomoniga ma'nosiz qarardi.

– Komm! – Plujnikov asirni avtomat uchi bilan turtdi.

Bundan keyin nima bo'lishni ikkovlari ham yaxshi bilishardi.

Nemis gandraklar, oyog'ini zo'rg'a sudrab bosar, g'ijimlangan mudiri etagini qaltiroq qo'llari bilan himarmoqchi bo'lardi. Birdan uning orqasi terlab, mundiridan qora dog' o'rmalay boshladi, terning ko'ngilni behuzur qiluvchi sassiq isi orqadan ergashardi.

Plujnikov esa uni o'ldirishi kerak. Yuqoriga olib chiqib, mana shu terlagan, uch bolani o'z himoyasida asragan bukri yelkani

mo'ljalga olib tepkini bosadi. Bu nemis urushga o'z xohishi bilan kelmagan, albatta, chang, to'zon va sasigan murda hidi anqib yotgan bu dahshatli xarobazorga ham o'z ixtiyori bilan kelmagan. Plujnikov buni yaxshi tushunar, tushunib turib beshafqat oldinga haydardi uni:

– Shnell! Shnell!

Orqasiga qaramasa ham, Mirraning kasal oyog'ini sudrab izma-iz kelayotganini bilardi u. Bajarilishi lozim bo'lgan ishni bajarayotganda bir o'ziga qiyin bo'lmasin deb kelyapti Mirra. U ishni yuqorida bajarib, orqaga qaytadi, so'ng ikkovlari shu yerda – qorong'ilikda uchrashishadi. Qorong'ida uchrashishgani ayni muddao – qizning ko'zlarini ko'rmaydi. Ko'ngilda g'ashlik bo'lmasligi uchun Mirra biron narsani gapiradi unga.

– Qani chiq, tez bo'l!

Nemis tuynukdan o'ta olmayotgandi. Uning majolsizlangan qo'l-lari g'ishtdan sirg'anib chiqar va piqillab yig'lagancha Plujnikovga kelib urilardi. Juda yomon – qo'lansa hid kelardi undan: uncha-muncha sassiq hidni pisand qilmaydigan Plujlikov ham tirik jondan taralayotgan qo'lansa murda hidiga zo'rg'a bardosh berayotgandi.

– Chiq deyaрман!..

Plujnikov bir amallab yuqoriga itarib chiqardi uni. Nemis bir qadam tashlashi bilan oyoqlari mayishib tizzalab qoldi. Plujnikov uning tumshug'iga avtomatini tiragan edi, yonboshga o'girildi-yu, g'ujanak bo'lib indamay yotaverdi.

Mirra yerto'lada turganicha, qorong'ida ko'zga ilinmaydigan tuynukka tikilib o'q ovozi dahshat bilan kutardi. Kutdi, kutdi, o'q ovo-zidan darak bo'lmadi.

Tuynukda nimadir shivirladi va Plujnikov yuqoridan pastga sakrab tushdi. Shu zahotiyoq u yonida Mirra turganini sezdi.

Bilasanmi, men odamga qarab o'q uza olmas ekanman. – Sovuq-qina qo'llar uning boshini paypaslab asta o'ziga tortdi.

Yuzi qizning ko'z yoshlaridan namlangan yuziga tegdi.

– Biz uchun nima ko'rgilik bu? Nima uchun, a, nima uchun? Nima yomonlik qildik biz? Hali biz hech narsa qila olganimiz yo'q-ku, hech narsa!

Yuzini uning ko'ksiga qo'yib yig'lardi Mirra. Plujnikov qizning ozg'in yelkalarini beo'xshovgina siladi.

– Singlim, senga nima bo'ldi? Qo'y, yig'lama!

– Qo‘rqdim men. O‘sha mo‘ysafidni otib tashlaysanmi deb qo‘rqdim. – U birdan Plujnikovni qattiq quchoqlab, shosha-pisha, bir necha marta o‘pdi. – Rahmat senga, rahmat, rahmat. Otmaganingni aytma ularga, bu narsa ikkovimizning o‘rtamizda sir bo‘lib qola qolsin. Go‘yoki bu ishni sen, men uchun qilgansan, maylimi?

Darhaqiqat, sen uchun qildim deb aytmo‘hchi bo‘ldi-yu, lekin aytmadi, chunki nemisni u harqalay o‘zi uchun, nima bo‘lganda ham pok vijdon bilan qolish uchun otmagan edi.

– Ular so‘rashmaydi.

Darhaqiqat, ular hech narsa so‘rashmadi va yana hamma narsa avvalgidek davom etaverdi. Faqat endi stol atrofi bermalolroq bo‘lib qolgan, tunash esa, ilgorigidek: Xristya xola bilan Mirra ikkovlari, starshina taxta ustida, Plujnikov esa skameykada uxlaydi.

Xristya xola bu tun ham uxlay olmadi. Starshinaning uyqusidagi oh-vohini, yosh leytenantning tishlarini dahshatli g‘ichirlatishini, kalamushlarning qorong‘ida shitir-shitir qilib yugurishlari va chiyillashlarini, Mirraning unsiz xo‘rsinishini – hammasini eshitib yotdi. Uning ko‘zlaridan shashhator bo‘lib yosh tomchilar, qo‘llari band bo‘lgani uchun ko‘z yoshlarini anchadan buyon artmasdi: chap qo‘li qattiq zir-qirab sal ko‘tarishga ham imkon bermas, o‘ng qo‘lida esa Mirra uxlab yotardi. Yuzdan yumalab kelib pastga chak-chak tomayotgan ko‘z yoshlari eski paxtalik nimchani ho‘l qilib yuborgan.

Xolaning oyoq-qo‘llari, beli, ayniqsa yuragi qattiq ogrirdi. Yaqinda o‘lsam kerak, o‘lganda ham yuqorida, quyoshni ko‘rib o‘laman, deb o‘ylardi hozir Xristya xola. Qanday bo‘lmasin, albatta, quyoshni ko‘rib o‘lish kerak, chunki quyoshda isinishni juda-juda istaydi. Buning uchun, ya‘ni quyosh nurini ko‘rish uchun esa, kuch-quvvat borligida, bironing yordamisiz, yuqoriga chiqa oladigan paytda ketish kerak. Kuch-quvvatdan bormi hali, ketishga kechikkani yo‘qmi – bularni ertaga albatta sinab ko‘radi. Mana shu o‘y-xayollar bilan xola pinakka ketdi va shuncha tunlar davomida qo‘lida uxlab chiqayotgan qizning timqora sochlaridan uyqu aralash o‘pdi. Erta tongda o‘rnidan turdi va nonushtagacha tuynukdan bir amallab sirg‘alib yerto‘la yo‘lagiga o‘tdi.

Bu yerda mash‘ala yonmoqda edi. Suv ancha bermalol bo‘lib qolgani tufayli, Plujnikov yuvinyapti, Mirra esa suv quyib turibdi unga. Mirra suvni ozgina-ozginadan u aytgan joyga emas, muglaqo boshqa yoqqa quyar, uning bu ishidan Plujnikov achchig‘lanar, qiz esa kulardi.

- Qayoqqa ketyapsiz, Xristya xola?
- Tuynukka, tuynukka ketyapman, – shosha-pisha tushuntirdi xola. – Sof havodan nafas olmoqchiman.
- Kuzatib qo‘yaymi? – so‘radi Mirrochka.
- Hojati yo‘q. Leytenantingni yuvintiraver.
- Yuviitirish qayoqda, ermak qilyapti! – achchig‘lanib dedi Plujnikov.

Ular yana kulishdi, Xristya xola esa, devorni ushlagancha, shishgan oyog‘ini asta-asta bosib, tuynuk tomon yura boshladi. Birovning yordamisiz o‘zi ketayotgani va oz bo‘lsa ham hali kuch-quvvati borligidan xursand edi u.

«Balki ketmasman bugun. Balki yana bir kun kutib turarman, balki ozgina yasharman yana».

Xristya xola tuynuk yoniga kelib qolgandi, ammo yuqoridagi shovqin-suronni birinchi bo‘lib xola emas, Plujnikov eshitdi. Tushunib bo‘lmaydigan bu shovqin-suronni eshita solib xavotirlandi va shu zahotiyog tuynukka itardi qizni:

– Tez bo‘l!

Mirra hech narsani so‘ramasdan va imirsilamasdan kazematga sho‘ng‘idi: aytgan narsani qilishga odatlanib qolgandi u. Plujnikov bu notanish shovqinni hayajon bilan eshitar ekan, bir so‘z aytishga ulgurdi, xolos:

– Xristya xola, qayting orqaga!

Tuynuk qattiq gumburlab ketdi va issiq havo to‘lqini Plujnikovning ko‘kragiga urildi. U dimiqib yerga yiqildi, og‘zini katta ochib zo‘rg‘a nafas ola boshladi, taysallab tuynukni topdi va bir amallab o‘zini ichkariga oldi. Alanga haddan tashqari yorug‘ shu‘la taratdi, gisht gumbazlarni, qochayotgan kalamushlarni, chang va qurumga to‘lib ketgan polni va Xristya xolaning qotib qolgan tanasini bir daqqa yoritdi-yu, yerto‘laga olov quyuni otilib kirdi. Keyingi daqiqada esa, inson bolasi chidamaydigan dahshatli qichqiriq eshitildi, alanga qo‘ynida qolib ketgan Xristya xola yo‘lak bo‘ylab yugura boshladi. Garchi odam etining jizg‘anak bo‘lgan hidi taralayotgan bo‘lsa ham, Xristya xola hamon yugurar, qichqirar, najot so‘rardi. Ognemyotning ming graduslik alangasida yonib tugayotgan bo‘lsa ham yugurardi u. So‘ng, bamisoli erib ketgandek, to‘satdan yiqildi va jim bo‘lib qoldi, faqat alangada erigan gisht kukunlari qonga o‘xshab har zamonda yuqoridan chak-chak tomardi.

Hatto kazematni ham kuyundi isi bosib ketdi. Stepan Matveyevich tuynukka g'isht tiqib, ustidan eski paxtalik yopib qo'ysa ham qurum hidi, odam etining kuyundi hidi kelaverdi.

Mirra qichqirib-qichqirib endi bir burchakda jimgina o'tirardi. Goh-goh qaltirab ketardi: bunday paytda u o'rnidan turib ketar, erkaklardan o'zini chetga olib kazemat ichida u yoqdan-bu yoqqa yugurardi. Hozir u erkaklarga begonasirab qarar, ko'z ilg'amas to'siqning narigi tomonida ularni, berigi tomonda o'zini his etardi. Ehtimol, bu to'siq avval ham bor edi, ammo u paytda oraliqda xojatbaror – Xristya xola bor edi. Xristya xola issiq bag'rida olib yotardi uni, Xristya xola ovqatlantirardi, Xristya xola vaysay-vaysay hech narsadan, hatto kalamushlardan ham qo'rqmaslikka o'rgatardi, tunda uning yoniga kelgan kalamushlarni haydardi, shuning uchun ham Mirra xotirjam uxlardi. Ertalab turganda kiyinishiga, protezini bog'lashga, yuvinishga va u yoq-bu yog'iga qarashiga ham Xristya xola yordam berardi. Kerak bo'lganda erkaklarni ikki og'iz nordon gap bilan chetlashtirardi, Mirra esa uning homiyligida bemalol yashayotgandi. Endi u homiy kishi yo'q. Endi Mirra yolg'iz. U bugun o'zi va erkaklar o'rtasidagi ko'z ilg'amas to'siqni birinchi marta his qildi. Endi u ojiza edi va bu jismoniy ojizlik hissi o'zining butun og'irligi bilan uning ozg'in yelkasidan bosyapti.

– Demak, bilib qolishibdi ular, – xo'rsindi Stepan Matveyevich. – Qancha ehtiyot bo'lmaylik, qancha ko'milib yotmaylik, baribir bilib qolishibdi.

– Ayb menda! – Plujnikov o'rnidan sapchib turib u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. – Men, faqat men aybdorman! Kecha men...

Mirrara ro'baro' kelib, jim bo'lib qoldi u. Mirra unga qaramayotgandi, u o'z xayoli bilan band, uning uchun mana shu xayollardan bo'lak narsa yo'q edi hozir. Plujnikov uchun esa, Mirra ham, uning kechagi tashakkuri ham, qachonlardir, hozir Xristya xolaning xoki yotgan joyda «Kolya!» deb qichqirgan ovozi ham, hammasi bor.

O'rtalarida paydo bo'lgan sir, uning shivirlashlari, yuzlariga kelib urilgan nafasi – bular bari nemisni tiriklay qo'yib yuborganman, keyin u ognemyotchilarni boshlab kelgan deb e'tirof etishiga yo'l qo'ymadi. Bu e'tirofning endi keragi yo'q va u hech narsani o'zgartira olmasdi.

– Leytenant, sen nima uchun aybdorman deyapsan?

Stepan Matveyevich shu vaqtga qadar Plujnikovga yoshi va tutgan mavqeyi taqozo etadigan soddalik bilan kamdan-kam murojaat etardi. U doimo uning komandirligini alohida ta'kidlab, ustavda yozilgan qo'ida bo'yicha gaplashardi. Bugun esa ustav yo'q, ikki yosh va oyog'i chiriyotgan horg'in mo'ysafid bor edi, xolos.

– Xo'sh, nima uchun sen aybdorsan?

– Men bu yerga kelishim bilan baxtsizlik boshlandi. Xristya xola ham, Volkov ham, hatto anovi... ablah ham, hammasi men tufayli... Men kelguncha tinchgina yashayotgan edinglar-ku.

– Kalamushlar ham tinch yashashadi. Tinch turganimiz uchun ularning ko'payib ketganini ko'rdingmi? Aybdorni boshqa tomondan qidirypasan, leytenant. Masalan men, sendan minnatdorman. Agar sen bo'lmaganingda, bironta ham nemisni o'ldira olmagan bo'lardim. Mana hozir, nazarimda o'ldirgandayman. O'ldirdim shekilli, a? Xolmsk darvozasi yonida?

Xolmsk darvozasi yonida starshina hech kimni o'ldirmagan edi: uning bir marta ketma-ket otishga ulgurgan o'qlarining hammasi osmonga ketgandi. Lekin ana shu o'qlarning birontasi dushmanga tekkan deb juda ishongisi kelardi uning, Plujnikov ham shu fikrni tasdiqladi:

– Menimcha ikkitasiga tekkan edi.

– Ikkitaligini bilmayman-u, ammo bittasining qulagani aniq. Ana shu bittasi uchun rahmat senga, leytenant. Demak, ularni o'ldirish mening ham qo'limdan keladi. Demak, bu yerda bekorga o'tirganim yo'q...

O'sha kuni ular kazematlaridan tashqariga chiqishmadi. Nemislardan qo'rqqanlari uchun emas, nemislar yerto'laga kirgani jur'at ham etisha olmasdi, ognemyotning olovli oqimi qoldirgan dahshatni ko'rishga yuraklari dov bermadi o'sha kuni.

– Ertaga boramiz, – dedi starshina. – Quvvatim ertaga ham yetadi. Eh, Yanovna, Yanovna, o'sha tuyukka biroz kechikib borsang nima qilardi, a... Demak, ular Terespol darvozasi orqali qal'aga kirishadi, shundaymi?

– Ha, Terespol darvozasi orqali. Nima edi?

– Shunday. Bilib qo'yay devdim-da.

Starshina Mirraga ko'z qirini tashladi va jim bo'lib qoldi. So'ng uning yoniga kelib qo'ltig'idan oldi va skameykaga taklif qildi.

– Mana bunday o'tirchi.

Itoatgo'ylik bilan o'tirdi Mirra. U kuni bo'yi Xristya xola va o'zining ojizligi haqida o'ylayverib charchagan edi.

– Sen mening yonimda uxlaysan.

Mirra shartta qaddini rostladi:

– Nega endi?

– Obbo sen-ey, cho‘chima, qizim, – Stepan Matveyevich zo‘rma-zo‘raki iljaydi. – Keksa odamman-ku, men. Keksamani, buning ustiga betobman. Yanovnaga o‘xshab, yoningga kelgan kalamushlarni haydab o‘tiraman.

Mirra boshini quyi egdi, o‘girildi, peshonasini unga tiradi. Starshina uni quchdi va asta gapirdi:

– Leytenant uxlaganda ikkovimiz gaplashib ham olishimiz kerak. Hademay u bilan yolg‘iz o‘zing qolasan. Javob qaytarma, nima deyotganimni bilaman. Bu tun yostiq vazifasini o‘tayotgan eski paxtalik nimchani bo‘lsa ko‘z yoshlari nam qildi. Starshina uzoq gapirdi, Mirra yig‘lay-yig‘lay toliqib uxlab qoldi. Stepan Matveyevich ham qizning yelkasidan quchganicha tongga yaqin biroz mudradi. Uzoq yotmadi u: biroz mudrab charchoqni ketkazgan bo‘ldi va andak tiniqqan bosh bilan bugun bosib o‘tishi lozim bo‘lgan yo‘lni boshidan oyog‘igacha xotirjam va puxta o‘ylab chiqdi. Hamma narsa chuqur o‘ylangan holda shubhasiz, ikkilanmay hal qilingan, hozir esa, ayrim mayda-chuyda joylarini aniqlab oldi, xolos. Starshina Mirrani uyg‘otib yubormaslik uchun asta o‘rnidan turdi va granatalarni olib bir-biriga bog‘lay boshladi.

– Nimani portlatmoqchisiz? – starshina qilayotgan ishni ko‘rib so‘radi Plujnikov.

– Topaman. – Stepan Matveyevich uxlab yotgan qizga imo qilib, asta gapirdi. – Sen xafa qilma uni, Nikolay.

Plujnikovning eti junjikardi. U shinelga o‘ralib homuza tortdi.

– Tushunmayapman.

– Xafa qilma, – saxiylik bilan takrorladi starshina. – U juda yosh hali. Buning ustiga nogiron, tushunish kerak. Bir o‘zini qoldirma: agar ketmoqchi bo‘lsang, avval u haqda o‘yla. Qal‘adan birgalashib chiqib ketinglar, bir o‘zi qolsa, xarob bo‘ladi.

– Siz-chi... Siz nima qilasiz?

– Oyog‘im zaharlangan, Nikolay. Hozircha quvvatim bor, oyoq‘imni bosa olaman, yuqoriga chiqib olay. Hamon o‘ladigan bo‘lgandan keyin, yotib qolguncha, otib qolish kerak.

– Stepan Matveyevich...

– Tamom, o‘rtoq leytenant, starshina urushib bo‘ldi. Endi se-ning buyrug‘ing o‘tmaydi, mening buyrug‘im muhimroq hozir. Senga so‘nggi buyrug‘im shunday: qizni asra, o‘zing ham omon qol. Yasha. Ularni dog‘da qoldir. Hammamiz uchun yasha.

U o‘rnidan turib bir-biriga bog‘langan granatalarni qo‘yniga tiqdi va shishgan oyog‘ini arang sudrab tuynuk tomon yurdi. Plujnikov ni-malarnidir gapirdi, ishontirmoqchi bo‘ldi, ammo starshina uning gap-larini eshitmadi: asosiy gap aytilgan edi. Tuynuk og‘zidagi g‘ishtlarni olib tashladi u.

– Demak, ular qal‘aga Terespol darvozasi orqali kirishadi, deysan-da, a? Xo‘p, alvido, o‘g‘lim. Yashang‘lar sizlar!

Shunday dedi-yu, tuynukdan chiqdi. Ochilgan tuynukdan sassiq kuyundi hidi kela boshladi.

– Salom, tong.

Mirra o‘rnidan turib o‘tiribdi. U paxtali kamzulga o‘ralib olgan. Plujnikov esa, tuynuk yonida indamay turardi.

– Nima sasiyapti, a...

Mirra tuynukdan o‘pirilgan qora joyni ko‘rdi-yu, indamay qoldi. Plujnikov birdan avtomatini qo‘liga oldi

– Men yuqoriga ketdim. Tuynukka yaqin kelma!

– Kolya!

Bu mutlaqo boshqacha: sarosimada qolgan odamning ojizlik bilan qichqirgan ovozi edi. Plujnikov to‘tadi:

– Starshina ketib qoldi. Granatalarni oldi-yu, ketdi. Ketidan quvib yetaman.

– Quvib yetamiz, – u shosha-pisha timirskilanib qoldi. – Faqat birgalashib.

– Qanday qilib, sen... – duduqlandi Plujnikov.

– Oqsoqligimni bilaman, – asta gapirdi Mirra. – Ammo bu tug‘ma, nima ham qila olardim. Bu yerda bir o‘zim qolgani qo‘rqaman. Juda ham qo‘rqaman. Bir o‘zim qola olmayman bu yerda, o‘zim bir amallab chiqib olaman.

– Ketdik.

U mash‘alani yondirdi va ikkovlari kazematdan chiqib ketish-di. Hammayoqni quyuq achchiq tutun bosib yotganidan nafas olish nihoyatda og‘ir edi. Kalamushlar kuygan suyaklar ustida g‘ujg‘on o‘ynashardi. Xristya xoladan mana shulardan boshqa narsa qolmagan edi.

– Qarama, – dedi Plujnikov. – Qaytib kelganimizdan keyin ko‘mib qo‘yaman.

Tuynukdagi gishtlar kechagi ognemyot alangasidan erib ketgan edi. Plujnikov avval o‘zi chiqdi-da, u yoq-bu yoqqa qarab, so‘ng Mirraga yordamlashdi. Mirra tuynukdan chiqishga qiynalar, qovushmas, erib silliqlangan g‘ishtlardan oyogi toyib ketardi. Plujnikov uni tuynukning og‘zigacha olib keldi-da, so‘ng har ehtimolga qarshi biroz ushlab turdi o‘sha yerda.

– To‘xtab tur biroz.

Yana atrofni ko‘zdan kechirdi: quyosh hali chiqmagan, nemislar bilan uchrashish ehtimoldan biroz uzoqroq, garchi shunday bo‘lsa ham, tavakkal qilishni istamadi Plujnikov.

– Chiqaver.

Mirra biroz hayallab qoldi. Plujnikov uni shoshirmoqchi bo‘lib orqasiga o‘girilgan edi, oppoq oqargan ozg‘in chehrani, unga qo‘rquv va hayajon bilan tikilib turgan katta-katta ikki shahlo ko‘zni ko‘rdi. Ko‘rdi-yu, lol qoldi: Mirrani u yorug‘likda birinchi marta ko‘rayotgan edi.

– Buni qara, qanday ekansan-a, sen!

Mirra ko‘zini yerga tikdi, tuynukdan chiqib g‘ishtga o‘tirdi va tizzalarini ko‘ylagi bilan berkitdi. U ham Plujnikovga miltillagan jinchiq nuqda emas, yorug‘likda birinchi marta, ko‘z qiri bilan, pardadek to‘silgan uzun kipriklarini o‘qtin-o‘qtin ko‘tarib, o‘g‘rincha nigoh tashlayotgan edi.

Tinchlik payti bo‘lganda boshqa qizlar orasida balki uni sezmagani bo‘lardi.

Umuman Mirra ko‘zga tashlanadigan qiz emasdi, faqat uning katta-katta g‘amgin ko‘zlari-yu, uzun kipriklari ko‘zga tashlanardi. Ammo bu yerda undan go‘zalroq kimsa yo‘q edi.

– Buni qara. Qanday ekansan-a, sen.

– Ha, shundayman, – achchiqlanib dedi u. – Bunday qarama menga, iltimos. Agar qarasang, tuynukka qaytib kirib ketaman.

– Xo‘p, mayli, – kuldi u. – Men qaramayman, faqat sen gapimga kirsang bo‘lgani.

Plujnikov yarim ag‘anagan devor ustiga chiqib qaradi: ostin-ustun bo‘lib ketgan zim-ziyo hovlida starshina ham, nemislar ham ko‘rinmasdi.

– Bu yoqqa kel.

Mirra g'ishtlarga qoqila-suqila uning yoniga bordi.

Mirraning yelkasidan quchoqlab, boshini pastga egdi.

– Boshingni past qil. Minorali darvozani ko'ryapsanmi? O'sha Terespol darvozasi.

– Bilaman.

– Nima uchundir starshina o'sha darvozani so'ragandi mendan.

Mirra hech narsa demadi. Atrofga boqib, tanish qal'ani dam tanir, dam tanimasdi. Komendatura binosi xarobaga aylanibdi, vayron bo'lgan kostel mudhish zimistonni eslatardi, atrofnı to'ldirib o'sayotgan kashtanlardan quruq poyalar qolibdi. Bu yorug' jahonda bironta tirik jon qolmagandek.

– Qanday dahshat, – xo'rsindi Mirra. – Yer ostida turganingda, yuqorida kimdir bor, kimdir tirikdek tuyular ekan.

– Albatta bor, – dedi u. – Omadi yurishib tirik qolganlar faqat o'zimiz bo'lmasak kerak. Qayerdadir, kimlardir bor, aks holda otishma bo'lmagan bo'lardi, kimlardir bor, men ularni topaman.

– Top, topa qol, – asta iltimos qildi u. – Topsang yaxshi bo'lardi.

– Nemislar, – dedi u. – Hovliqma, o'zingni bos. Boshingni ko'tarma.

Terespol darvozasidan patrul chiqdi, darvoza qa'ridan uch nemis chiqib keldi va biroz to'xtab turgach Xolmsk darvozasi tomon asta yurib ketdi. Qayerdandir ancha uzoqdan uzuq-yuluq qo'shiq eshitildi: bamisoli bu qo'shiq emas, bir gala odam bo'kirayotgandek edi. Qo'shiq borgan sari yaqinlashib, do'pillagan oyoq ovozlari ham eshıtıla boshladi, ma'lum bo'ldiki, qo'shiq aytib kelayotgan nemis otryadi hozir Terespol darvozasining peshtoqi ostidan o'tadi.

– Stepan Matveyevich ko'rinmaydi-ku? – tashvishlanib so'radi Mirra.

Plujnikov javob bermadi. Nemis kolonnasining uchi darvozaga kirib keldi: ular qo'shiqni baland qichqirgancha, uch qatordan bo'lib o'tishardi. Xuddi shu payt yuqoridan – shikastlangan minora ustidan qandaydir qora sharpa pastga o'zini otdi. U havoda bir zum ko'rindi-yu, to'ppa-to'g'ri ketayotgan nemislar ustiga tushdi. Ikki bog'lam granataning kuchli portlashi tonggi sokinlikni buzib yubordi.

– Ana Stepan Matveyevich! – qichqirdi Plujnikov. – Ana, ko'rdingmi, Mirra! Ana u!..



TO‘RTINCHI QISM

1

Ular kun bo‘yi kazematda bir-birlariga lom-mim demasdan o‘tirishdi. U-bu deb gaplashish u yoqda tursin, ko‘zlari bir-birlari bilan iloji boricha uchrashib qolmaslikka harakat qilishardi. Agar bittasi stol yoniga kelib qolsa, ikkinchisi, albatta, burchakka borib turardi, stol yoniga o‘tirishadigan bo‘lishsa, albatta ikkalasi bir-birlaridan uzoqroq – biri stolning u boshida, ikkinchisi bu boshida o‘tirishardi. Bir-biriga qarashga ikkovining yuragi dov bermas, ayniqsa qo‘llari qorong‘ilikda tasodifan uchrashib qolishidan qo‘rqishardi.

Starshina halok bo‘lgach, Mirra yerto‘laga tushmayman deb turib oldi, Qichqirardi, baqirardi, yig‘lardi u, portlashdan besaranjom bo‘lgan nemislar esa, xarobalarni titi-piti qilishni yana boshlab yuborishdi, yerto‘lalarga granatalar uloqtirib, ognemyotlardan olov purkashdi. Hovliga yugurib chiqqan nemislar har tomonga o‘rmalab ketishdi, ba‘zilari hademay ular yoniga kelib qolishlari mumkin, Mirra bo‘lsa qichqirar, g‘ishtlarga o‘zini urar, Plujnikov qancha urinsa ham tinchita olmasdi uni. Shu payt nemislarning shovqin-suroni, oyoq tovushlari, qurollarning sharaq-shurug‘ini eshitayotgandek bo‘ldi u va Mirrani dast ko‘tarib tuynuk yoniga olib keldi.

– Qo‘yib yubor, – u birdan tipirchilashni to‘xtatdi. – Qo‘yib yubor deya pman. Eshityapsanmi?

– Yo‘q.

Nihoyatda yengil edi qiz, garchi shunday bo‘lsa ham, bu ixcham va yengil yukdan uning yuragi benihoya qattiq ura boshladi. Qizning yuzi unga juda yaqin turganidan yuziga oqib tushgan ko‘z yoshlarini ko‘rdi, issiq nafasini sezdi va bag‘riga tortib olishdan cho‘chib, qo‘lini tik ushlagan holda ko‘tarib ketdi. Qiz esa unga tik qarab olgan, uning chuqur qora ko‘zlarida Plujnikov tushunmaydigan qandaydir qo‘rquv bor edi.

– Qo‘yib yubor, – yana bir marta astagina so‘radi u. – Iltimos qilaman.

Plujnikov tuynuk yoniga borganda qo‘ldan tushirdi uni. Haqiqatan ham nemislarning ovozi eshitilyaptimi deb so‘nggi bor yana u yoq-bu yoqqa qaradi va asta shivirladi:

– Tush.

Mirra tushishga urinib biroz hayalladi, qizning oyog‘i protez ekanligi, pastga sakrab tusha olmasligi darrov uning esiga tushdi va to‘xtatdi:

– To‘xta, avval men tushaman.

– Yo‘q – qo‘rqib ketdi qiz. – Yo‘q, yo‘q!

– Qo‘rqma, ulguramiz!

U tuynukdan sirg‘alib kirib pastga sakradi va Mirrani chaqirdi:

– Kel! Tezroq!

Mirraning oyog‘i g‘ishtdan sirg‘alib pastga tushib ketgan edi, Plujnikov ushlab qoldi va bir daqiqa bag‘riga bosib turdi. Qiz yuzini uning yelkasiga bosib itoatkorona indamay turdi, so‘ng birdan yulqinib uni o‘zidan itardi va oyog‘ini sudrab yo‘lakdan yurib ketdi.

U bo‘lsa tashqaridan kelayotgan shov-shuvni eshitmoqchi bo‘lib tuynuk yonida qoldi, ammo o‘z yuragining gupillab urishidan bo‘lak ovozni eshitmadi. Kazematga qaytib kelgandan keyin esa, gapirishga jur‘at etmadi. Gapirishni nihoyatda istardi u, ammo, taajjubki, nima uchundir gapira olmas, ko‘zlarini ham olib qochardi. Butun jahonda ikkovidan bo‘lak hech kim yo‘qdek tuyulardi unga.

Hozir uni bir-biriga qarama-qarshi g‘alati hislar qamrab olgandi. Xristya xola va Stepan Matveyevich halokatidan keyingi qayg‘u va yonidagi zilola, ojiz qiz tufayli paydo bo‘lgan nozik quvonch; nemislarga nafrat va qiz bolaning notanish, g‘alati iliq taftini sezish, dushmanni yo‘q qilishga bo‘lgan o‘jar istak va boshqa kishi hayoti uchun javobgarlik mas‘uliyati – bular bari butun – yaxlit holda uning qalbidan joy olgan edi. U hech qachon o‘zini bunday kuchli va jasoratli his etmagandi, ammo hozir faqat bir narsa uning qo‘lidan kelmasdi: qo‘lini qiz bolaga tekkizolmasdi. Garchi buni istasa ham iloji yo‘q edi.

– Ol, ye, – astagina gapirdi Mirra. Yuqorida allaqachon qu-yosh botgan bo‘lsa kerak. Ular esa kuni bo‘yi ochdan hech indamay o‘tirishdi. Nihoyat, Mirra yegulik narsalarni oldi va o‘zi birinchi so‘zni aytdi. Shunday bo‘lsa ham, ikkovlari stolning ikki chekkasida o‘tirib ovqatlanishdi.

– Sen yotib damingni ol. Men uxlamayman.
– Men ham uxlamayman, – shoshib dedi Mirra.
– Nega?
– O‘zim. Shunday.
– Kalamushlardan qo‘rqasanmi? Qo‘rqma, men ularni haydayman.

– Sen har kecha uxlamaslikka ahd qildingmi? – xo‘rsindi Mirra. – Xavotir olma, men endi o‘rganib qoldim.
– Ertaga yo‘lni razvedka qilaman-da, keyyn seni shaharga olib borib qo‘yaman.

– O‘zing-chi?
– O‘zim yana qaytib kelaman. Bu yerda qurol, o‘q-dorilar bor, jang qilish mumkin.

– Jang... – yana xo‘rsindi Mirra. – Bir o‘zing hammaga qarshi-ya? Bir o‘zing nima ham qila olasan?

– G‘alaba qilaman.

Plujnikov bu gapni to‘satdan, o‘ylamay gapirdi va xuddi shunday gapirgani uchun taajjublandi. So‘ng o‘jarlik bilan takrorladi yana:

– G‘alaba qilaman. Chunki, agar inson mag‘lub bo‘lishni istamas ekan, uni yengish mumkin emas. O‘ldirish mumkin, ammo yengish mumkin emas, fashistlar esa, inson emas, demak men ularni yengishim kerak.

– Chalkashib ketding-a! – qat‘iyatsizlik bilan kuldi Mirra va shu ondayoq jiddiylashdi: is bosgan, zimiston va mudhish kazematdagi bu kulgi noo‘rin tuyuldi unga.

– To‘g‘ri-da axir, insonni aslo yengish mumkin emas, – salmoqlanib asta gapirdi Plujnikov. – Mana, Stepan Matveyevichni yengishdimi ular? Yoki Volodka Denishchikni? Anovi, yerto‘lada uchratgan feldshernichi: esingdami, men senga u haqda gapirib bergandim? Yo‘q! Yengisha olmadi. Ular halok bo‘lishdi, xolos. Lekin mag‘lub bo‘lganlari yo‘q.

– Mana shuning o‘zi yetarli-da.

– Yo‘q, men boshqa narsa haqida gapiryapman. Mana, Prijnyukni olaylik, uni tiriklay o‘ldirishdi. Insonni esa, jismoniy o‘ldirish mumkin, ammo mag‘lub etish mumkin emas. Inson o‘limdan yuqori turadi, bildingmi, yuqori turadi.

Plujnikov jim bo‘lib qoldi, bu gaplarni uning uchun emas, o‘zi uchun mag‘rurlanib aytayotganini bilardi Mirra. Mag‘rurlanar, ayni

vaqtda cho‘chirdi ham, chunki Plujnikov o‘zi uchun olib qolgan yagona yo‘l – bu o‘lim edi. Bu narsaga o‘zini samimiyat va hayajon bilan hukm qilganiga, qiz va bu buyruqqa bo‘ysunayotganiga amin bo‘lgan. Mirra o‘rnidan turib uning yoniga keldi va yelkasidan quchoqladi. Shu daqiqalarda u bilan birga bo‘lgisi, taqdiriga sherik bo‘lgisi kelardi.

U bilan birga bo‘lish – uning sochlarini, yelkasini silash, deb tushunar edi Mirra. Ammo Plujnikov to‘satdan uni o‘zidan chetlashtirib, stolning narigi boshiga bordi va begona ovoz bilan gapirdi:

– Ertaga yo‘lni razvedka qilaman, indinga esa, sen ketasan.

Lekin Mirra bu gapni ham eshitdi, ham eshitmadi. Uning ichidan bir narsa uzilib ketgandek bo‘ldi, chunki Plujnikov o‘z gapi bilan uning mayib ekanligini, buni hamon esdan chiqarmaganligini bildirdi. Uni yana yolg‘izlik dahshati qamrab oldi va u skameykaga o‘tirib yosh bolalar singari boshini qo‘liga qo‘ygancha achchiq-achchiq yig‘ladi.

– Nima bo‘ldi senga? – taajjublanib so‘radi Plujnikov. – Nega yig‘laysan?

– Tinch qo‘y meni, – entikib qattiq gapirdi Mirra. – Meni shu yerda qoldirgin-da, o‘zing xohlagan joyingga ketaver. Rahm qilma menga. Keragi yo‘q!

U biroz istihola bilan qiz yoniga bordi va xuddi yosh bolalarni erkalagandek, uning boshini beo‘xshov siladi.

– Tegma menga! – Mirra uning qo‘lini siltab tashlab, birdan o‘rnidan turib ketdi. – Bu yerga tushib qolganim uchun aybdor emasman-ku, men! Tirik qolganim uchun, oyog‘im oqsoq bo‘lgani uchun aybdormanmi! Yo‘q, aybdor emasman. Rahm qilma menga!

Nikolayni itarib tashlab o‘z joyiga bordi va ko‘rpaga muk tushib yig‘lay boshladi. Plujnikov uning tepasiga borib qanday o‘ksib yig‘layotgani va xo‘rsinayotganini biroz eshitib turdi, so‘ng starshinaning kamzulini olib yelkasiga tashlab qo‘ydi. Mirra cho‘rt o‘girilib kamzulni uloqtirib tashladi, u yana yopib qo‘ydi, Mirra yana uloqtirib tashladi, u yana boshqatdan yopib qo‘ydi. Mirra kamzulni boshqa uloqtirmadi, mungli xo‘rsinib kamzul ostida g‘ujanak bo‘lgancha tinchlandi. Plujnikov o‘zicha kulib qo‘ydi-da, stol yoniga kelib o‘tirdi. Badaniga issiq yugurgan Mirraning qanday nafas olayotganini biroz eshitdi va charm sumkadan uning iltimosiga ko‘ra Stepan Matveyevich chizib bergan qal‘a sxemasini oldi. Sxemani yozib qo‘yib, ertaga qilinadigan razvedkaning marshrutlarini yaxshilab o‘rgandi. Shu o‘tirishda boshini stolga qo‘yib, uxlab qoldi.

- Meni kechirasan, – dedi ertalab Mirra.
- Nima uchun?
- Hammasi uchun. Ho‘ngrab yig‘laganim, maza-bemaza gaplarni gapirganim uchun. Endi bunday qilmayman.
- Qilasan, – kuldi u. – Albatta, qilasan, chunki sen hali juda kichkinasan.

Uning ovozdagi mehribonlik qizda ham unga nisbatan mehr tuyg‘usini uyg‘otdi, qizning dardli yuragi unga talpindi. Qiz uni erkalamoqchi bo‘lib qo‘lini ko‘tardi-yu, ammo yana o‘zini tutdi, yuzini o‘girib oldi. Plujnikov ham qovog‘ini solib undan o‘girildi va nari ketdi. Mirraning unga ham, o‘ziga ham rahmi keldi, yana ovoz chiqarmasdan yig‘lay boshladi.

Kechagi portlash nemislarni haddan ziyod cho‘chitib yubordimi yoki biron narsaga tayyorgarlik ko‘rishdimi, harqalay bugun boshqa kunlarga qaraganda ko‘proq ivirsib yurishdi. Terespol darvozasi yonida maydonni tozalash ishlari avj olgan, har tomonda patrullar, Plujnikov o‘rganib qolgan asirlar esa ko‘rinmas, ovozlari ham eshitilmasdi. Uch qubbali darvoza yonida ham nimadir qilishardi ular, o‘sha tomondan motor ovozlari eshilib turardi. Plujnikov qo‘rgonning shimoli-g‘arb tomoniga chiqib qarashga ahd qildi: Muxovets daryosi orqali qo‘rg‘onning tashqi tomoniga chiqib ketish yo‘lini aniqlamoqchi edi u.

Plujnikov juda ehtiyotkorlik bilan, yalanglik va ochiq joylardan o‘zini panaga olib o‘tar, chunki uning tavakkal qilishga imkoniyati ham, haqqi ham yo‘q edi. Garchi patrul ko‘rinmasa ham, ba‘zi joylardan hatto emaklab o‘tdi u. Dushman bilan otishishni va u yoqdan bu yoqqa yugurishni istamasdi u bugun, uning niyati – kechasi qal‘adan bir amallab chiqib ketadigan yo‘l topib, so‘ng birinchi uchragan o‘z odamlarimizga qizni topshirib qaytish edi.. Shu narsani unga vasiyat qilgan starshina haq ekanini juda yaxshi anglardi Plujnikov. Ana shuni anglagani uchun ham imkoniyati boricha bu ishni amalga oshirishga harakat qilar, o‘zi esa, qiz ketgach ostin-ustun bo‘lib yotgan qal‘ada yolg‘iz qolishini o‘ylab yuragi allanechuk bo‘lar, hatto qo‘rqardi. Grajdancha kiyim topib, Mirra bilan o‘zi ham ketishi mumkin, albat-ta. Qal‘adan chiqqach, bir amallab o‘rmonga yetib oladi, o‘rmonda o‘z qismlaridan ajrab qolgan jangchilar va Qizil Armiya komandirlarining bo‘lishlari turgan gap. Bu narsa qochoqlikka ham, buyruqqa xoinlik qilishga ham kirmaydi: u hech qaysi ro‘yxatda yo‘q, erkin

odam. Xuddi mana shu erkinlik ko'p masalalarni mustaqil hal etishga, harbiy nuhtayi nazardan maqsadga muvofiq yo'lni tanlashga majbur etardi uni. Harbiy nuhtayi nazardan esa, uning qal'ada qolgani ma'qul, chunki bu yerda o'q-dori ham, yeyishga ovqat ham, yashirinadigan joy ham bor. Notanish o'rmonda u yoqdan-bu yoqqa yugurib yurish o'rniga bu yerda jang qilishi mumkin.

Nihoyat u yerto'laga yetib oldi va Muxovets daryosi buriladigan joyni mo'ljallab keta boshladi. Uch qubbali darvoza yonida traktorlarini tarillatib ishlayotgan nemislar uni ko'ra olmasdilar, shuning uchun ham daryo bo'yigacha borishga, iloji bo'lsa, uning narigi betiga o'tishga ahd qilgandi. Hozir u mana shu niyat bilan tuynuk va teshiklardan tushayotgan nur to'liq yoritib turgani uchun yerto'ladan ketib boryapti.

– To'xta!

Plujnikov joyida qotib qoldi. Ovoz shunchalik shiddat bilan yangradiki, buyruq sof rus tilida aytilganini ham fahmlay olmadi. U hali nima gapligini fahmlab ulgurmagan ham ediki, ko'kragiga avtomat stvolining uchi tiraldi:

– Tashla qurolni.

– Yigitlar... – hayajondan entikib ketdi Plujnikov. – Yigitlar, o'zimiznikilar, azizlarim...

– Biz-ku azizlarmiz-a, o'zing kimsan?

– Men o'zimiznikilardanman, o'zimizniki! Leytenant Plujnikov-man...

Ular uni yorug'likdan o'tib qorong'ilikka endigina kirgan paytida to'xtatishdi, shu boisdan ham qarshisidagi sharpadan bo'lak narsani ko'rmadi u. Orqa tomonda – tuynukda yana kimdir turardi, Plujnikov uni mutlaqo ko'rmasa ham, odam borligini yaqqol sezardi.

– Leytenant deysanmi? Qani, yorug'roqqa chiqqin-chi, leytenant.

– Chiqaman, chiqaman! – xursand bo'lib gapirdi Plujnikov. – Sizlar necha kishisizlar, yigitlar?

– Hozir sanab ko'ramiz.

Ular ikki kishi edi: soch-soqollari o'sib ketgan, egnilarida uvadasi chiqqan paxtalik. O'zlarini tanishtirishdi:

– Serjant Nebogatov.

– Yefreytor Klimkov.

– Rejalar qanday, leytenant? – qisqa tanishuvdan so'ng so'radi Nebogatov. – Bizning planimiz – Belovejsk o'rmonlariga yorib

o'tish. Allaqachon ketardik-ku, o'q-dorimiz yo'q. Men seni shunday yo'lini qilib to'xtatdim.

– Har ehtimolga qarshi men uning orqasidan shay bo'lib turdim, – miyig'ida kulib qo'ydi Klimkov. – Qo'limda gitlerchilardan o'lja olingan pichoq bor edi.

Uning qayish belbog'ida qora charm qinli nemis xanjari osilib turardi.

– Birgalashib yorib o'tamiz. – O'z odamlarini uchratgandan xursand bo'lgan Plujnikov qal'ada qolib oxirigacha jang qilish haqidagi rejasini darrov unutdi. – O'q-doridan yigitlar, xotirjam bo'linglar, yetarlicha bor. Tamaddi qilgani konserva ham topiladi.

– Konserva deysanmi? – Ishonmay qayta so'radi yefreytor. – Ishing joyida-ku, leytenant.

– Avval konservaga boshla, – iljayib dedi serjant Nebogatov. – Oxirgi marta qachon ovqatlanganimiz esimda ham yo'q. Nima duch kelsa kalamushga o'xshab g'ajib yuribmiz.

Plujnikov ularni yaqin yo'l bilan o'z yerto'lasini tomon boshladi. Uncha-muncha odam sezmaydigan tuynukni ko'rsatdi, ognemyot hujumi va Xristya xolaning halok bo'lgani haqida so'zlab berdi. Ular yoniga ognemyotchilarni boshlab kelgan nemis haqida gapirib o'tirmadi: asirni nima uchun qo'yib yuborganini bu darg'azab, ochlik va horg'inlikdan qorayib ketgan kishilarga gapirish befoyda edi.

– Mirra! – yerto'lardan turib qichqirdi Plujnikov. – Mirra, bu biz, qo'rqma!

– Mirrasi kim bo'ldi yana? – hushyorlandi serjant.

U kazematga birinchi bo'lib kirdi va Plujnikov bilan yefreytor hali kirib ulgurmasdanoq taajjublanib qichqirdi:

– Mirrochka, nahotki sen bo'lsang? Ko'zlarimga ishongim kelmayпти!

– Nebogatov?.. – hayratlandi Mirra. – Tolya Nebogatov? Tirikmisan?

– O'laksaman, Mirra! – kuldi serjant. – Qurib, qoq bo'lib qolganman.

Quvonchdan ko'zlari chah nab ketgan Mirra, yashirib qo'ygani-yu, topgan-tutganlarining hammasini keltirib stol ustiga qo'ya boshladi. Plujnikov ularga hamma narsani birdan yeyishni taqiqlamo hchi bo'lgan edi, serjant, me'yorini bilamiz deb ishontirdi uni. Nebogatov juda ochilib, Mirraga hazil-mutoyiba gaplar gapira boshladi, yefrey-

tor esa indamas, yer ostidan qarardi qizga. Uning qarashlari do'stona emasligini payqadi Plujnikov.

– Men senga aytsam, sen bu yerda juda shohona yashayotgan ekansan, leytenant.

Plujnikovga bu gap yoqmadi. yefreytor biroz indamay turdi-da, Mirra stol yonidan nari ketishi bilan qovog'ini uyub so'radi:

– Nima, u ham biz bilan ketadimi?

– Albatta ketadi! – deb xitob kildi Plujnikov. – U juda jasur, yaxshi qiz. Faqat kalamushlardan qo'rqqani yomon.

Ammo Klimkov gapni hazilga burib yubormoqchi emasdi. U Nebogatov bilan ko'z urishtirib kuldi, Plujnikov tushundiki, ular o'rtasidagi munosabatda harbiy unvon rol o'ynamaydi.

– U oqsoq.

– Nima qilibdi? Juda unchalik aytadigan...

Plujnikov duduqlanib qoldi. Mirraning oqsoqligini inkor etish befoйда, agar bordi-yu, Mirra mutlaqo sog' bo'lganda ham, bu xo'mraygan yefreytor uni birga olib ketishga rozi bo'lmasdi: buni darrov fahmladi Plujnikov.

– Men o'zim uni birinchi uchragan uylardan biriga olib borib qo'ymoqchi edim.

– Birinchi o'qqa degin! – dag'allik bilan cho'rt kesdi Klimkov. – Uy qoldimi hozir, qayerda uy bo'lsa, o'sha yerda nemislar. Biz ketganimizda ham uylarni uzoqroqdan aylanyb o'tishimiz kerak, bo'lmasam harbiy forma darrov ko'zga tashlanadi.

– Juda g'alati gap bo'ldi-ku! Axir uning bir o'zini tashlab keta olmaymiz-ku, to'g'rimi?

– O'zi ketsin. Lekin faqat biz ketgandan keyin, bo'lmasam birinchi so'roq, birinchi qiynoq paytidayoq sotib qo'yadi. Nega indamay-san, serjant?

– Birga olib ketish mumkin emas, – zo'rma-zo'raki gapirdi Nebogatov.

– Tashlab ketish-chi? Tashlab ketish mumkinmi? Men sendan so'rayapman, serjant?

Bo'sh yerto'lada ovoz jaranglab uzoq-uzoqlarga ketar, shuning uchun ham Mirra ularning har bir so'zini aniq eshitib turardi. Buning ustiga ular o'zlarini tuta olmay qattiq baqirishar, go'yo hozir uning taqdiri emas, boshqa bir muhim masalani hal qilishayotgandek edi.

Ular tashlab ketgach, yolg'iz o'zi qolishini o'ylab Mirraning yuragi allanechuk bo'layotgan bo'lsa ham, ammo hozir asosiy narsa uning o'z taqdiri emasdi. Bunday dahshatli holdan qat'iy nazar, uning uchun eng asosiy narsa – ular keltirayotgan dalilga Plujnikovning nima deb javob qaytarishi edi. Mirra kazematning qorong'i burchagida g'ujanak bo'lib o'tirib olgan, uning atrofida shovqindan ham, odamlardan ham qo'rqmaydigan bo'lib qolgan kalamushlar g'ujg'on o'ynashardi. Mirra hozir faqat uning ovozi eshitar va uning so'zlariga e'tibor qilar, chunki Plujnikovni ham o'z domiga tortayotgan sotqinlik uning o'z taq-diriga nisbatan dahshatliroq edi.

– O'zing o'ylab ko'r axir, leytenant, bu ortiqcha tashvish-ku bizga? – asta gapirdi Nebogatov.. – Tashqariga chiqib olganimizdan keyin u yogi shir dala, ikki kilometrcha emaklab ketishga to'g'ri keladi. Emaklay oladimi u?

– Oqsoq oyoq bilan-a? – qo'shib qo'ydi yefreytor.

– Nima deyapsizlar-a! – g'azabini zo'rga bosib, baland ovoz bilan gapirdi Plujnikov. – O'zingiz, faqat o'zingiz haqingizda gapirasiz! Faqat o'z joningizni o'ylayapsiz! U haqda-chi? U haqda o'ylash xayolingizga keladimi, yo'qmi?

– O'ylagan, o'ylamaganda...

– Yo'q, o'ylashimiz kerak! O'ylashga majburmiz!

– Bironta uyning yaqiniga bora olmaysan, – xo'rsinib gapirdi serjant. – Yaqinlashish mumkin emas, bildingmi? Biz harakat qilib ko'rdik-ku, axir, kecha-kunduz babbaravar hamma joyga soqchi, patrol qo'yib tashlashgan. Qal'aning to'rt tomonini halqadek o'rab turishibdi, kim ko'rinsa yo tutib olishyapti, yoki o'sha joyning o'zidayoq otib tashlashyapti. Sen bo'lsa o'ylash kerak deysan.

– Biz – Qizil Armiyamiz, – asta gapirdi Plujnikov. – Tushunasizlarmi buni, Qizil Armiya!

– Qizil Armiya! – ..yefreytor zaharxandalik bilan qattiq kuldi. – Bir yo'la komsomolni ham eslay qol endi, leytenant!

– Men uni unutganim yo'q! – qichqirdi Plujnikov. – Biletim mana – qalbmida! Men uni hayotim – jonim bilan birga qo'shib beraman! Faqat jonim bilan birga!

– Sen aytgan Qizil Armiya yo'q endi! – Klimkov ovozi bori-cha baqirgan edi, stol ustida yonib to'rgan jinchiroqning nozik alangasi chayqalib ketdi. – Qizil Armiya ham yo'q, komsomol ham yo'q! Yo'q!

– O'chir ovozingni!

Birdan jimjit bo'lib qoldi. Nebogatov miyig'ida kuldi:

– Qo'mondonlik qilyapsanmi?

– Qo'mondonlik emas, unvonim sizlarnikidap katta bo'lgani uchun buyruq qilyapman, – o'zini bosib, asta gapirdi Plujnikov. – Buyuraman: atrofni razvedka qilib, shaharga ketish imkoniyati topilsin va qiz olib borib qo'yilsin. Ana undan keyin o'z jonimiz haqida o'ylayveramiz.

– Gap shunday, degin? – iljayishda davom etib so'radi Nebogatov. – Bordi-yu, buyrug'ingga bo'ysunmasak-chi?. Shikoyat qilsanmi? Ustimizdan raport yozasanmi?

– Shoshmay tur, Tolya, – uning gapini bo'ldi Klimkov. – Janjallashish – girt ahmoqlik-ku: bir-birimizga kerak bo'lamiz hali.

– Biz janjallashayotganimiz yo'q..

– Eng birinchi galdagi vazifa shu: Mirrani shaharga jo'natish. Qolgan gaplarni keyin gplashaveramiz.

– Kimlingingni sira bila olmayapman: jinnimisan yo kontuziya bo'lganmisan?

– O'zingni bos, Tolya! – Yefreytor stolning narigi tomonidan egilib gapira boshladi. – Menga qara, leytenant, bu majruh, maymoq oyoqni nima qilasan? Durustroq qiz bo'lganda ham mayli edi, olib ketsang arzirdi. Endi shu maymoqni deb...

Uning jun bosib ketgan basharasi Plujnikovnng shundaygina yonida turardi. Qulochini keng cho'zmay, uning basharasiga bir tushirdi Plujnikov. Yefreytor orqaga tislandi-yu, shu zahotiyoyq xanjar sopiga qo'l yugurtirdi. Plujnikov avtomatini ola solib, zatvorni sharaqlatdi:

– Stolga! Stolga qo'y qo'lingni!

Yefreytor xanjardan asta qo'lini bo'shatib, stolga o'tirdi va chandir qo'lini oldinga cho'zdi. Ularning avtomatida o'q yo'qligi Plujnikovga ma'lum, ammo ular ikki kishi, u bo'lsa bir o'zi.

– Ablah, – og'ir nafas olib gapirdi Klimkov. – Palid odam ekan-san, leytenant... Jononing bilan yerto'laga tushib olib urush tugashini kutyapsanmi?

– Qani, tuynukdan bitta-bitta chiqinglar-chi, – qat'iy buyurdi Plujnikov. – Ogohlantirib qo'yay: men hazilni yomon ko'raman, avtomatim o'qlangan.

Avtomat stvolini chiqish tomondagi xarobaga qaratib tepkini bosdi. O'q ovozidan kazemat ichi gumburlab ketdi. Nebogatov bilan Klimkov o'rinlaridan turishdi.

– Biz qurolsiz keta olmaymiz, – asta gapirdi Nebogatov.

– Olinglar avtomatinglarni. – Ular indamay o‘qi yo‘q PPShlarni qo‘lga olishdi. Klimkov tuynuk yoniga birinchi keldi-yu, turgan joyida biroz depsinib oldi, nimadir aytmoqchi bo‘ldi-yu, ayta olmadi va kazematdan chiqib ketdi.

– Yuqoriga chiqadigan yo‘l – o‘ng tomonda, yo‘lakning oxirida, – dedi Plujnikov serjantga.

Serjant indamay bosh chayqadi. U shundoqqina tuynuk yonida turgan bo‘lsa ham, chiqishga shoshilmasdi.

– Nega to‘xtab qolding? Gapimiz tamom bo‘lgan.

– Sen o‘q va‘da qilgan eding, leytenant. O‘q bersang, shu bugun tundayoq qal‘adan chiqib ketar edik.

Lom-mim demadi Plujnikov.

– Yo‘q dema, leytenant, – yalinib gapirdi Nebogatov. – O‘qsiz biz halok bo‘lamiz.

Plujnikov qorong‘ilikka kirdi-yu, ochilmagan o‘q yashikni oyog‘i bilan surib serjant yoniga keltirdi. G‘isht polga ishqalangan temir, kishining g‘ashiga tegadigan darajada g‘ichirladi.

– Rahmat, – yashikni ko‘tardi Nebogatov. – Senga so‘z bera-man, shu bugun tundayoq qal‘adan chiqib ketamiz. Lekin shuni aytib qo‘yay, leytenant, sen baribir ahmoqsan...

Shu gapni aytdi-yu, tuynukka sho‘ng‘idi.

Plujnikov avtomat predoxranitelini beixtiyor tushirib, odatdagi joyiga – tuynuk yoniga tirab qo‘ydi va stol yoniga kelib skameykaga horg‘in o‘tirdi. Klimkov va Nebogatov yerto‘lada avtomatlarini o‘qlab olib kazematga bostirib keladilar degan fikr xayoliga mutlaqo kelmasa ham, ammo nima uchundir ko‘ngli g‘ash edi. Kutilmagan uchra-shuv tufayli yaqindagina sodir bo‘lgan quvonch o‘rnini noxush o‘kinch egallashi Plujnikovni ancha gangitib qo‘ydi. Go‘yo o‘sha ikkovi undagi bo‘lgan ishonchning bir qismini yulib olib ketgandek va bu yo‘qotish unga ancha sezilarli ta‘sir etib, alamli darddek azob berardi. Qalbdagi g‘azab yo‘qolib, qandaydir noaniq, zirqiragan og‘riq qolgan edi yurakda.

Kimdir shiddatli xo‘rsindi. Boshini ko‘tarib qaragan edi, yonida Mirra turganini ko‘rdi u.

– Ketishdi, – xo‘rsindi u. – Men ularga o‘q berdim. Bugun tunda qal‘adan chiqib ketishmoqchi.

– Men tiz cho‘ka olmayman, – qandaydir cho‘ziq va qaltiroq ovoz bilan gapirdi to‘satdan Mirra. – Tiz cho‘ka olmayman men,

ilojim yo‘q, chunki oyog‘im protez. Lekin baribir qarshingda tiz cho‘kaman, ta‘zim qilaman senga...

Mirraning o‘pkasi to‘lib tomog‘iga tiqildi, ovoz chiqara olmay jim bo‘lib qoldi. Uning yonida indamay turar, ikki qo‘lini ko‘kragiga qattiq bosganicha titrayotgan lablarini tishlar, yuzlaridan esa yosh yumalab tushardi. Plujnikov uning ko‘z yoshlarqni artmoqchi bo‘lib qo‘l cho‘zgan edi, qo‘lni mahkam ushlaganicha, jazavaga tushib ketma-ket o‘pa boshladi Mirra. Qo‘rqib ketgan Plujnikov qo‘lini tortib olmoqchi edi, Mirra ikki qo‘li bilan ko‘kragiga qattiq qisib qo‘yib yubormadi. Bundan ancha avval ham yerto‘lada Plujnikovning pistolet tutgan qo‘lini xuddi hozirgidek qo‘yib yubormagan edi.

– Men qo‘rqib ketdim, shunday qo‘rqdimki.

– Meni ular bilan ketadi deb qo‘rqdingmi?

– Yo‘q, bu uncha dahshatli emas. Men seni – men o‘ylagan odam bo‘lib chiqmaysanmi deb qo‘rqqan edim.

– Qanday sen o‘ylagan?

– Men sevgan odam. Gapirma, iltimos qilaman, gapirmay tur! Men o‘zimning qandayligimni bilaman va uni bir zum ham unutmaman. Umr bo‘yi menga hamma – kattalar ham, kichiklar ham rahm qilib kelgan. Rahm qilganda, bilasanmi nima bo‘ladi? Go‘yo yonlaridagining yarmini menga bergandek bo‘lishadi. Sen-chi, sen meni deb qolding bu yerda, ularni haydab yubording-u, meni tashlab ketmading, ularning aytganini qilib, nemislar tomonga yubormading meni! Hammasini, har bir so‘zni eshitdim men!

Mirra uning qo‘llarini ko‘kragiga qattiq bosganicha yig‘lar, bezgak tutgan odamdek titrab gapirar va yana gapirardi. Uning uchun hamma narsa birdan chippakka chiqqandek bo‘ldi: har narsadan xavfsiraydigan qo‘rqoqlik ham, tortinchoqlik va uyatchanlik ham. Alangali minnatdorchilik hissi go‘yo kishanlarni eritib yuborgandek bo‘ldi, samimiy sevgi tuyg‘usi va nazokat esa, hamma narsani unutishga majbur qildi uni. Shuning uchun ham u, hech narsani o‘ylamay, hech narsaga umid qilmay qalbida borini to‘kib sola boshladi.

– Men umrim bino bo‘lib kimnidir sevishni orzu ham qilman edim! Chunki bolaligimdan boshlab menga doimo faqat bir narsani ta‘kidlashardi; sen – mayibsan, baxtsizsan, boshqa qizlarga o‘xshamaysan. Hatto o‘z tuqqan onam ham shuni aytgani-aytgan edi. Mana shunga ko‘niksin, ortiq azoblanmasin deb o‘ylardi balki.

Shunday bo'ldi, ana shu gaplarga ko'nikib, ortiq iztirob chekmadim men. Shuning uchun bo'lsa kerak, qizlar bilan do'stlashmadim, faqat o'g'il bolalar bilan do'stlashdim, chunki qizlar doimo sevgi-muhabbatdan gapirishadi, orzu qilishadi, qandaydir rejalar tuzishadi. Menchi, men, nimani ham gapiraman, nimani ham orzu qilaman? Balki hozir men mutlaqo bo'lmag'ur gaplarni gapirayotgandirman, lekin sen buni yaxshi tushunasan, to'g'rimi? Men gapirmasdan tura olmayman hozir, chunki, agar men gapirmasam, sen gapira boshlaysan, sevgi izhor etishga topgan vaqtini qara deb kulasan mendan. Vaqtning shunday bo'lganiga biz aybdor emasmiz-ku axir? Bilasanmi, Kolya, jim turishdan qo'rqaman men, lekin bilsang, gapirishga madorim yo'q, madorim yo'g'-u, gapiryapman, chunki jimlikdan, sen biron narsa deyishingdan qo'rqaman...

Plujnikov uni bag'riga bosib, shishib ketgan titroq lablaridan avaylab o'pdi. Qizning lablari qon edi.

– Ular seni avrashayotganda qichqirib yubormaslik uchun labimni tishlab turgan edim.

– Og'ridimi?

– Meni hech kim hech qachon o'pmagan edi. Yuqorida urush ketayпти, men bo'lsa shunday baxtli, shunday baxtlimanki, sevinchimdan yuragim yorilib ketay deyapti. – Mirra uning bag'riga boshini qo'yib, asta, deyarli ovoz chiqarmay so'zlardi. – Sen endi tuni bo'yi stol yonida o'tirib chiqma, xo'pmi? Yotib damingni ol, men yoningda o'tirib tuni bo'yi kalamushlarni haydayman, tuni bo'yi, qancha yashash nasib etgan bo'lsa butun hayotim bo'yi, Kolya...

2

Ular endi to'xtovsiz gaplashishsa ham gaplari tugamasdi. Paxtali kamzul va shinelga o'ralib yonma-yon yotishar, bir-birlarining haroratlari bilan isinishar, yuraklari ham baravariga goh gursillab, goh horg'in urardi.

– Singling senga o'xshaydimi?

– O'xshamasa kerak. Oyimga o'xshaydi, men esa dadamga o'xshayman.

– Demak, dadang juda chiroyli odam bo'lgan ekan. Ayni muddao.

– Nima uchun?

– Chunki, iqboli baland nevara bobosiga o'xshagan bo'ladi.

– O'sha iqboli baland qiz bo'lsa-chi?
– U ham bobosiga o'xshagan bo'ladi. Sen menga ayt-chi... faqat to'g'risini ayt, eshityapsanmi? To'g'risini.

– Judayam to'g'risini aytaymi?

– Judayam to'g'risini.

Uning ustini yaxshilab yopib qo'yishga ovora bo'lib, biroz jim qoldi Mirra.

– Oying meni ko'rganda xafa bo'ladimi, yo'qmi? – Bu gapni past ovoz bilan, yuragi dov bermay gapirganidan Plujnikov angladiki, savolning javobi uning uchun juda muhim adi. Qizni bag'riga mahkam bosib javob berdi u :

– Oyim seni jonidan ham yaxshi ko'radi.

– Sen rost gapiraman deb va'da bergansan.

– Rostini aytyapman. Ikkovlari ham seni juda juda yaxshi ko'rishadi. Oyim ham, singlim ham.

– Balki, Moskvada menga haqiqiy protez yasab berishar. Shunday bo'lsa raqs tushishni ham o'rganar edim.

– Moskvada seni eng zo'r vrachlarga ko'rsatamiz, balki...

– Foydasi yo'q, eng zo'ri bo'lganda ham faqat protez yasab berishi mumkin.

– Protez bo'lganda ham eng yaxshisini tayyorlatamiz; yurganingda hech kim seni oyog'i protez ekan deb o'ylamaydi.

Sen juda ozg'insan, – soqoli o'sgan yuzlaridan mayin siladi u. – Bilasanmi, Moskvaga birdan ketmaymiz, avval Brestda biroz turamiz, oyim seni parvarishlab biroz semirtiradilar. Men esa, sabziga to'ydiraman seni.

– Nima men quyonmidimki sabziga to'ydirasan.

– Sabzi – juda foydali narsa, chunki unda, oyimning aytishlariga qaraganda, temir moddasi juda ko'p bo'lar ekan. Ozgina semirganingdan keyin Moskvaga ketamiz. Qizil Maydonni, Kremlni, Mavzoleyni tomosha qilaman.

– Metroni-chi?

– Metroni ham. Undan keyin, albatta, teatrlarga ham boramiz. Men hali biron marta haqiqiy teatrni ko'rmaganman. Bizga Minskdan teatr kelib turardi, lekin baribir teatrni o'z binosida ko'rmagandan keyin u haqiqiy teatr emas-da, to'g'rimi?

– Albatta. Biz teatrlarning hammasini Moskvada ko'ramiz-da, so'ng jo'nab ketamiz.

– Brestgami?

– Qayerga yuborishsa, o'sha yerga ketamiz. Ering Qizil Armiya-ning kadr komandiri ekanini unutdingmi?

– Erim... – xursand bo'lib astagina kuldi u. – Xuddi tush ko'rayotganga o'xshayman. Quchoqla meni, erjonim, qattiq-qattiq quchoqla.

Ular uchun hozir go'yo urush ham bo'lmayotgandek, bu joy yeros-ti ham emas, kalamushlar ham, qorong'ilik ham yo'q. Faqat ikkovlari-yu, yer va osmon bor, xolos.

– Sen, qachon bo'lmasin, laylaklarni ko'rganmisan?

– Laylaklarni? Qanday laylaklarni?

– Aytishlaricha, ular oppoq bo'lar ekan.

– Bilmadim. Shaharda sira ham ko'rmaganman, o'zim esa, sha-hardan boshqa joyga bormaganman. Nega to'satdan ular haqida so'rab qolding?

– O'zim, shunday. Esimga tushib ketdi.

– Sovqotmadingmi?

– Yo'q. Sen-chi?

– Yo'q. Men ham sovqotmadim. Bilasanmi, nima uchun so'rayapman? O'sha oxirgi tunda Stepan Matveyevich seni qotib qol-gan deb aytgan edi menga.

– Qanday qilib qotib qolaman?

– Bexos boshlangan urush va qayg'u-hasratdan qoning qotib qol-gan bo'lsa kerak-da... Stepan Matveyevich aytdiki, o'shanda, ba'zi er-kaklar qattiq hayajonlanganlarida tomirlaridagi qonlari qotib qoladi, bunday paytda ularga faqat ayollar yordam bera oladilar, o'z haroratla-ri bilan ularni isitadilar degan edi. Men ham ayol bo'lib o'z haroratim bilan kimnidir isita olishim xayolimga kelmabdi o'shanda... Oz bo'lsa ham haroratim isita oldimi seni?

– Harorating taftidan erib ketamanmi deb qo'rquyapman.

– Hazillashyapsan.

– Yo'q, men to'g'risini aytyapman: yoningda turib, erib ketish-dan qo'rquyapman. Yuqorida, bizning qal'amiz ustida bo'lsa fashistlar yurishibdi. Bilasanmi, ular nimadir qilishmoqchi: Terespol darvoza-si yonidagi maydonni tozalashyapti. Hozir turganimizdan keyin, men yuqoriga chiqib qarayman.

– Kolya, keragi yo'q, azizim. Yana bir kun, faqat bir kun sendan xavotir olmay yashashga imkon ber menga.

– Yo‘q, Mirrochka, shunday qilishim kerak, bo‘lmasam ular o‘zlarini xuddi qal’aning xo‘jayinlaridek his qilishadi.

– Demak, men yana minutlar, sekundlarni sanab yuragimni hovuchlab, qaytasanmi yo...

– Qaytaman. Faraz qilki, men ishga ketyapman. Erlar ishga ketishadi-ku odatda, to‘g‘rimi? Ana shunga o‘xshab men ham ishga ketyapman. Lekin mening ishim o‘zing bilganingdek, mana shunaqa.

Plujnikov hali yuqoriga ko‘tarilmay turib dvigatelning gurillagan ovozi eshitdi va yer titrayotganini sezdi: traktorlar Terespol darvozasi yoniga yirik kalibrli qal’a to‘plarini sudrab kelishayotgan edi. Tevarak-atrofdan ivirsib aylanib yurgan nemislar ko‘p bo‘lgani uchun, tavakkal qilmay, orqasiga qaytmoqchi bo‘ldi Plujnikov. Ammo ular o‘z ishlari bilai band bo‘lganlari uchun, Plujnikov olisdagi xarobalar tomon asta yurib ketdi. O‘sha tomonlarda yolg‘iz-yarim patrulni uchratish mumkin, undan ortiqchasiga umid bog‘lamasa ham bo‘ladi hozir.

O‘tgan safar u muyulish ortidagi Muxovets daryosi sohili bilan qiziqqani uchun chaproq tomondan yurgan edi. Hozir esa Mirradan ajralish haqida o‘ylamasdi ham. Undan ayrilish haqida o‘ylashning o‘zi dahshatli edi. Shu boisdan ham u, o‘ng tomondagi, uch arkli darvoza olib chiqadigan yerto‘laga burildi. O‘sha yerda nemislar u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib turishardi, ana o‘sha joyda qal’aning haqiqiy xo‘jayini kimligini ularga ko‘rsatib qo‘yish mumkin.

Hozir u, Nebogatov avtomatini uning ko‘kragiga tiragan paytdagiga qaraganda ancha ehtiyotlik bilan ketardi. Nemislar bilan ro‘baro‘ kelib qolishdan qo‘rqmas, ammo oyoq tovushini eshitib yoki bo‘lmasam tirqishlaridan ko‘rib qolishmasin deb ohista harakat qilardi u. Ochiq joylardan yugurib o‘tar, qorong‘i tuynuklar yonida uzoq to‘xtab atrofga quloq solardi.

Mana shunday qorong‘i tuynuklarning birida u, shapillab kelayotgan tovushni eshitib qoldi. Kimdur u tomon, keksa odamdek oyog‘ini sudrab, chiqayotgan tovushga ham e‘tibor qilmay salmoqlab qadam tashlab kelardi. Plujnikov avtomat predoxranitelini ovoz chiqarmay asta tushirdi va son-sanoqsiz teshik-tirqishlardan tushayotgan nur to‘liq yoritib turgan yerto‘ladan hech narsaga parvo qilmay kelayotgan odam kimligini bilmoqchi bo‘lib kutib turdi. Oradan ko‘p o‘tmay juda yaqin joydan og‘ir xo‘rsinish va tashvishli ovoz eshitildi:

– Sovqotdim. Sovqotdim.

Sof rus tilida aytilgan bu soʻz hech qanday shubhaga oʻrin qoldirmadi. Plujnikov u tomon endi qadam tashlamoqchi boʻlgan edi, ulgur olmay qoldi. Nomaʼlum shaxs ayanchli ovoz bilan maʼnosiz, uzuq-yuluq qoʻshiq boshladi:

*Vaska – saman toy,
Shurka – burun toy,
Vanka – toʻriq toy,
Senka – qoratoʻriq...*

Plujnikov turgan joyida qotib qoldi. Qanday dahshat va umidsiz zulmat sezilardi bu qoʻshiqda. Nomaʼlum shaxs boʻlsa, ayanchli ovozi bilan qayta-qayta takrorlardi.

*Vaska – saman toy,
Shurka – burun toy,
Vanka – toʻriq toy,
Senka – qoratoʻriq...*

Qulagan gʻishtlarning sharaqa-shuruqi, xirillagan nafas eshitildi va nomaʼlum qoʻshiqchi muyulishdan oʻtib nur tushib turgan joyga – Plujnikovning yonginasiga kelib qoldi. Plujnikov darrov tanidi uni, gʻisht kukunidan qizgʻish tusga kirgan sochlari basharasini toʻsib turgan boʻlsa ham tanidi. Tanidi va u tomon qadam tashladi:

– Volkov? Vasya Volkov?

Volkov lom-mim demasdi. Maʼnosiz koʻzlarini anqovga oʻxshab tikib, turgan joyida gindiraklardi.

– Volkov, koʻzingni ochsang-chi. Bu men, Plujnikovman! Leytenant Plujnikov!

Shurka – burun toy,

– Vasya, bu menman, menman-ku, axir!

Vaska – saman toy.

– Koʻzingni ocha qolsang-chi, Volkov, och koʻzingni! – Plujnikov uning yoqasidan ushlab tebratdi. – Bu menman, men, leytenant Plujnikov, sening komandiringman!

Volkovning maʼnosiz koʻzlarida bir zum nimanidir fahmlash uchuni yiltiragandek boʻldi. Bu yerga, yertoʻlaga qanday qilib, qayerdan kelib qoldi u? Nima bilan kun kechirdi, qayerda tunadi, shu paytgacha

qanday qilib nemislarga duch kelmadi? Shu gaplar bari Plujnikovning dilidan bir o'tdi-yu, ammo u boshqa narsa haqida so'radi:

– Volkov, o'shanda sen nima uchun ketib qolganding? – so'radi-yu, jim bo'lib qoldi, chunki savoliga javob kutmayotgan edi. Volkovning ko'zlaridagi odam tushunib bo'lmaydigan dahshat savolning javobini anglatardi: ana shu dahshatdan qochmoqchi bo'lardi Volkov. Irodaga bo'ysunmaydigan bu g'ayritabiiy dahshat Volkov uchun leytenant Plujnikov qiyofasida gavdalanardi.

– Vasya, o'zingni bos. Vasya...

Volkov Plujnikovni to'satdan qattiq zarb bilan itarib yubordi va dahshatdan nafasi bo'g'ziga tiqilib chinqirgancha o'pirilgan raxna orqali Muxovets daryosining quyosh nuri charaqlab turgan sohili tomon yugurdi. Plujnikov orqasi bilan devorga urilib yiqilib tushdi va o'rnidan sakrab turganda Volkov yerto'lada yo'q edi. U allaqachon yuqoriga chiqib olgan, kenglik va quyosh nuriga o'pkasi to'lib Plujnikovni unutgan va kasallangan ongi o'zida asrab qolgan yagona qo'shiqni yana ayta boshladi.

*Vaska – saman toy,
Shurka – burun toy...*

Plujnikov o'pirilgan raxna tomon o'zini otdi va yaqindan kelayotgan begona oyoq tovushini hayvonlarga xos bo'lgan oltinchi sezgi bilan payqadi. Devorga biqinib turgan edi, oyoq tovushlari do'pir-do'pir qilib boshi ustidan o'tib ketdi.

Shurka – burun toy...

– Xalt! Suryuk!

Vanka – to'riq toy...

O'q ovozi eshitildi, Volkovning xuddi bolalarniki singari ayanchli chinqirig'i o'q ovozidan ham balandroq edi. Plujnikov yemirilgan g'ishtlar oralab o'zini olg'a otdi va tirqishdan tashqariga qaradi, hali o'lim talvasasida ingrayotgan Volkovning tepasida uchta sharpani ko'rdi va tepkini bosdi.

O'q kimga tekkan-tegmaganligini surishtirib o'tirmadi, bunga imkoniyat ham yo'q edi, tegdi deb o'ylagisi kelardi uning. U yerto'lalar bo'ylab yugurib ketdi, derazadan sakrab, yon tomondagi xarobalarga o'zini urdi. Qayerdadir, juda yaqin joyda nemislar to's-to'polon ko'tarib yugurib qolishdi, avtomatlardan yerto'laga qarab otilgan o'q

ovozlarining aks sadosi eshitildi, bir necha joyda portlash yuz berdi. Ammo Plujnikov xarobalar ichiga yashirinib, yana qutulib qoldi. Ancha naridagi chuqurlikda nafasini rostlab olgach, ochiq maydonda ilonga o'xshab o'rmlab o'tdi va o'z tuynugiga sho'ng'idi.

Volkov bilan uchrashganligi haqida Mirraga aytgisi kelmadi, busiz ham uning gam-alami ko'p edi. Shuning uchun ham u hayajonli uchrashuv va xarobalar oralab to'xtovsiz yugurishdan so'ng o'ziga kelib olish uchun tuynuk yonida yuqoridagi shovqin-suronni eshitib odatdigidan ko'ra ko'proq turdi. Volkovning so'nggi, qandaydir g'ayritabiiy dahshat bilan tikilganini esladi. Volkov undan umuman odamni uchratib qolgani uchun emas, shaxsan uni – leytenant Plujnikovni uchratib qolgani uchun dahshatga tushganini fahmlardi va buning uchun o'zini aybdor his qilmasdi. Bekordan-bekorga halok bo'lgan yoshgina yigitchaga achinardi, xolos. Urush o'z qonuniga anchagina o'rgatib qo'ygan edi uni.

Plujnikov nafasini rostlab olgach, qorong'ida yo'lni aniq mo'ljallab, raxna tomon asta yura boshladi. Paypaslab raxnani topdi va ovoz chiharmay uning ichiga kirdi, kirdi-yu, joyida qotib qoldi: g'ira-shira yoritilgan kazemat ichidan qiz bolaning mayin ovozi eshitalardi:

*Go'zal, maftunkor ko'zlar,
Mening umr tilagim.
Erkalashlar va shirin so'zlar,
To'ldirdilar baxtga yuragim.*

Yaqindagina boshqa yerto'lada aytilgan va fojiali uzilib qolgan qo'shiq bilan bu – o'ychan, mayin qiz qo'shig'i o'rtasida juda katta farq bor edi. To'satdan paydo bo'lgan qandaydir og'riq yurakni changallagandek bo'ldi va u ingrab yubormaslik uchun tishini tishiga qo'ydi.

*Dengizlarga tushayin, mayli,
Ko'kka uchish menga hech gapmas,
Ne desang sen, barin berayin,
Faqat, jonim, meni sevsang bas...*

Hozir bu qo'shiqni kuylayotgan odam, baxtli edi. Juda ham baxtli edi. Xuddi mana shu kashfiyot, mana shu fikr tushunib bo'lmaydigan alam bilan uning yuragini changallayotgan edi. Urush hamma narsani, hatto ularning ilk muhabbatlarini ham ostin-ustin qilib yubordi.

Plujnikov kazematga astagina kirdi va qo‘shiqchini cho‘chitib yubormaslik uchun avtomatini, ko‘kragiga mahkam bosib devorga asta suyandi. Portlovchi moddadan zaharlangan tomogini xirillashdan arang tutib qo‘shiq tinglardi u. Hozir ko‘ngli nimanidir istar, ammo nimaligini o‘zi ham bilmasdi. Keyin bilsa, yig‘lamoqchi ekan, kulib qo‘ya qoldi. Ko‘zda yosh qolmagan edi. Qancha harakat qilmasin avtomat sharaqlab ketdi va shu zahotiyoyoq qo‘shiq aytishdan to‘xtadi qiz. U stol yoniga keldi. Mirra butun vujudi bilan, nazokat, mehribonlik va soddalik bilan o‘zini tashladi unga.

– Hozir men seni ovqatlantiraman, – u qorong‘ilikdan stellaj yoniga bordi. – Bilasanmi, bu yaramas kalamushlar qotgan nonning hammasini yeb qo‘yishibdi. Ozigina qolibdi.

– Bu qo‘shiqni qayerdan bilasan sen?

– Ruvim amakim o‘rgatgan edilar. Birinchi May bayramida unga patefon va plastinka sovg‘a qilishgandi. U – ajoyib skripkachi... – kulib yubordi Mirra. – Nega gapirib o‘tiribman senga? Sen o‘zing taniysan-ku Ruvim amakimni.

– Taniyman?

– Taniysan, albatta, – Mirra yeydigan narsalarni olib kelib, stol ustiga hafsala bilan qo‘ymoqda edi. Dasturxon bezash odatini marosim sifatida juda qadrlardi u.

– Agar Ruvim amakim bo‘lmaganda biz bir-birimiz bilan hech qachon uchrashmagan bo‘lar edik. Tasavvur etasanmi, hech qachon, qanday dahshat! Voy, Xudoyim-yey, ba‘zan nimalarga bog‘liq bo‘lmaydi inson baxti! Agar o‘shanda senga yoqqan musiqani chalishmaganda...

– Agar o‘shanda qornim ochib restoranga kirmaganimda, – jilmaydi u.

– Agar o‘shanda to‘satdan boshqa poezdga o‘tirganingda...

– Men rostdan ham boshqa poezdga o‘tirgandim ushanda, – dedi Plujnikov va mana shu yarim qorong‘i kazematgacha bosib o‘tgan uzoq o‘tmishni birma-bir eslab biroz jimib qoldi. – Bilasanmi, men nima uchun boshqa poezdga chiqqan edim?

– Nima uchun chiqqan eding? – Mirra uning gapini eshitmoqchi bo‘lib, ikki qo‘lini iyagiga tiragancha qarshisiga o‘tirib oldi.

– Sevib qolgan edim. O‘ttiz soat davomida.

Plujnikov unga Valya haqida va tomog‘i qaqrab suv ichgisi kelgan paytdagi ko‘rgan tushlari haqida gapirib berdi. Mirra uning hikoyasini eshitib bo‘lgach, xo‘rsinib qo‘ydi.

– O’sha Valya juda yaxshi qiz bo’lsa kerak.
– Qayerdan bilasan, balki unday emasdir?
– Chunki u, seni sevib qolgan, * shu qisqa ta’rif yetarli bo’lsa kerak deb gapirdi Mirra. – Ertaga men seni nima bilan ovqatlantiraman? Agar uyda ko’knori’ urug’i bo’lmasa – bu ochlik degan so’z emas. Non bo’lmasa, ana uni ochlik desa bo’ladi.

– Non bo’lmasami? – Plujnikov starshina chizgan sxemani oldi. – Nonvoyxona qayerdaligi sening esingda bormi?

– Nonvoyxona Muxovets daryosining narigi betida. Mana bu yerda oziq-ovqat skladi va oshxona bor, – Mirra Muxovets daryosi sohilidagi aylanma kazarmani ko’rsatdi. – Men u yerga Xristya xola bilan borib turardim.

– Ovqatni qayerdan topganikin-a... – xayol surib dedi Plujnikov.

– Kim?

Volkov haqida o’ylayotganidi Plujnikov. Volkovni o’sha Mirra ko’rsatgan oshxona va sklad yonida uchratgan edi. Mirraga u haqda gapirib o’tirmadi, boshqacha tushuntirib qo’ya qoldi:

– Serjant Nebogatov esimga tushib ketdi.

Mirra surishtirib o’tirmadi.

Bu yerdagi hayot ikir-chikir shodliklardan iborat edi: Xristya xola hayotlik paytida qaytarilgan joyiga uzun qora ipli igna sanchib qo’yilgan pilotka topib olgandi Plujnikov. Ayollar shu arzimagan qora ipga rosa suyunishgandi. O’shandan buyon Plujnikov nima topsa hammasini kazematga olib kelardi: taroq va tugmachalar, chizimcha va majaqlangan kotelok, umuman foydasi tegadigan mayda-chuydalarni qidirib topishni yaxshi ko’rardi u. Non izlab topish vazifasi esa, hatto quvontirib yubordi uni.

Lekin bu yaqin orada bunday qidiruv ishlari bilan shug’ullanishning imkoniyati yo’q, chunki qal’ada sanqib yurgan nemislar haddan tashqari ko’p edi. Ular Terespol darvozasi oldidagi tozalangan maydonga istehkomlardan o’lja olgan bizning og’ir to’plarimizni sudrab kelishdi. Nemislar hamma yo’llarni qorovullashar, xarobazorlarni birmabir ognemyotdan o’qqa tutib, granata tashlab portlatishar, qorong’i kazematlar bormi, hamma joyni tit-pit qilishardi. Bir kuni Plujnikov qo’rg’onning sharq tomonidagi unga notanish bo’lgan xarobadan soqollari o’sib, ustidagi mundiri dabdala bo’lib ketgan uchta qurolsiz kishini nemislar olib chiqqanini ko’rib qoldi. Bular – o’zimizning sovet kishilari edi. Qal’aning o’sha tomoniga biron marta ham bormagani uchun qattiq afsuslandi Plujnikov.

– Non uchun hech qayerga bormaysan, – qisqa muddatli osoyishtalikdan so‘ng nemislar xarobazorlarni titishayotganini bilib gapni cho‘rt kesdi Mirra. – Bir amallab kunimiz o‘tar.

– Shunday bo‘ladiganga o‘xshaydi, – dedi Plujnikov. – Ammo lekin chiqib, asta qarayman, nima uchun ular bunchalik g‘imirlab qolishdi.

– Ehtiyot bo‘laman deb va‘da ber menga.

– Va‘da beraman.

– Yo‘q, qasam ichasan! – jahli chiqib gapirdi Mirra. – Xuddi hozirgidek tirik qaytaman deb ayt.

– Xo‘p, mayli, qasam ichaman.

– Yo‘q, men aytganimni ayt.

– Sen doimo omon bo‘lgin, – itoatkorona dedi Plujnikov va uning yuzlaridan o‘pdi. So‘ng avtomatni qo‘liga olib yuqoriga chiqib ketdi.

O‘sha kuni nemislar xiyla sarosimada bo‘lishdi. Otryadlari u yoqdan-bu yoqqa yurib to‘xtovsiz mashq qildi, hamma joyda patrullar ko‘zga tashlanar, ayniqsa, Terespol darvozasi yonida ko‘p edi ular. Plujnikov haqiqatan ham biron joyga siljishning ilojini topa olmadi, orqaga qaytmoqchi bo‘ldi-yu, so‘nggi daqiqada o‘z rejasini o‘zgartirib kostelga bir amallab kirmoqchi bo‘ldi. Agar u bu ishni uddalay olsa, u yerdan yuqoriroq ko‘tarilishi va dushmanning niyatini, nima ish boshlamoqchi bo‘layotganini kuzatishi mumkin.

Chuqurlarda sabr-toqat bilan nafasini rostlab, ehtiyot chorasini ko‘rgan holda tirsak va tizzalari shiliniib, siniq g‘isht parchalari yuzlarini tilib yuborsa ham yer bag‘irlab uzoq emakladi u. Bunday emaklash anchadan buyon to‘g‘ri kelmagandi unga. Qayerdadir juda yaqin joyda nemislar izg‘ib yurishar, ularning ovozlari, oyoqlarining dupur-dupuri va qurollarining sharaqlagani aniq eshutilib turardi. Mo‘ljaldan adashmaslik uchun u boshini astagina ko‘tarib oldinga qaradi va kostelga yetib borganda ham unga yugurib kirmay, emaklab kirdi, so‘ng yaqinroqdagi tokchaga biqinib jim bo‘lib qoldi.

Yig‘ib olinmagan murdalardan taralayotgan sassiq hid qatlam-qatlam bo‘lib kostel ichini tutib ketgandi. Plujnikov sassiqdan bo‘g‘ilib qolmaslik uchun burnini bekitib u yoq-bu yoqni ko‘zdan kechirdi. Uning ko‘zlari yorug‘likdan ko‘ra yarim qorong‘ilikka juda o‘rganib qolgandi. Kiraverishdagi stanokli o‘qsochar va uning atrofida cho‘zilib yotgan yettita murdaga razm soldi: ularning deyarli hammasi ko‘k pet-

litsali chegarachilar formasida edi. Atrofdagi sochilib yotgan bo'sh gilzalar va lenta qutichalaridan boshqa hech vaqo yo'q edi, bular – yigitlarning so'nggi patronlari qolguncha jang qilganlaridan dalolat berib turardi. Pulemyot bo'lsa, qachonlardir uning pulemyoti turgan joyning xuddi o'zida turardi, faqat o'pirilgan joy biroz kengaytirilibdi, xolos.

Plujnikov bularning hammasini bir qarashdayoq anglab oldi va bu yerda ortiq to'xtamay ichkariga qarab yurdi. O'tkir yelimshak hid uning ko'nglini behuzur qilar, tomog'ini bo'g'ar, ba'zida hushdan ketayotgandek sezardi o'zini. Vayron bo'lgan, g'isht va kesak parchalari ostida ko'milib qolgan pillapoyaga yetib kelgach, yuqoriga ko'tarildi. Yuqoridagi maydonchada yana ikkita chiriy boshlagan murda yotardi, u ularning yonida to'xtamay yuqoriga ko'tarilaverdi.

Shunday qilib u eng baland joyga chiqib oldi: bu yer shabada bo'lgani uchun biroz dam olib nafasni rostlash mumkin edi. Endi u karnizdan yurib singan derazaga o'tib olishi kerak: o'sha joydan qo'rg'onning janubiy qismi va Terespol darvozasi atrofi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Yaxshiyamki u hali joyidan jilmagan edi, pastda – kostelning qorong'i tubida gumburlagan oyoq ovozlari eshitilib qoldi. Plujnikov devorga yopishgancha qotib qoldi: vaziyat nihoyatda noqulay, yotish ham, yashirinish ham mumkin emas, agar bordi-yu, nemislar pillapoyadan yana bir aylanma ko'tarilishsa bormi, u bilan ro'paramaro'para kelib qolishadi. Bu turishda u mutlaqo qarshilik ko'rsatishi, jang qilishi mumkin emas.

Pastdan qahqaha kulgi va g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari eshildilar: quloqqa kelib urilayotgan so'zlarni anglab bo'lmasdi, Plujnikov nemislarning nima haqda gapirayotganlarini bilishga intilmadi ham. U noqulay vaziyatda nafasini ichiga yutganicha qimir etmay turar, kelayotgan oyoq tovushlariga quloq tutar, nemislar u tomon yaqinlashayptilarmi yoki hamon joylarida deysinib turishibdimi bilmasdi. Ular to'xtovsiz nimalarnidir vaysashardi. So'ng zajigalkaning «chirk» etgan ovozi eshitildi va oradan ko'p o'tmay kuygan latta hidi Plujnikovning dimog'iga urildi. Nemislar nima uchun latta tutatayotganini avvaliga tushunmadi u, buning sababini anglagach, tarang tortishgan asablar biroz bo'shshdi: nemislar sassiq murda hidini yo'qotish uchun latta tutatishayotgandi, shunday bo'lgach, yelimshak murda hidi bilan to'lib ketgan kostel ichkarisiga ularning kirishi amri mahol edi. Oyoq tapir-tupuri to'xtab, faqat g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz eshitila

boshladi: patrullar nima uchundir tirik jon zoti qolmagan, bo‘m-bo‘sh kostelni qo‘riqlamoqchi bo‘lib kiraverishga joylashib olishdi. Plujnikov esa nafasini rostlab, u yoq-bu yoqni ko‘zdan kechirdi.

U yurib o‘tmoqchi bo‘lgan karniz ensiz, usti devor shuvog‘idan ko‘chib tushgan kesaklar va g‘isht parchalari bilan to‘lib ketgandi. Plujnikovning shu joydan o‘tishdan boshqa iloji yo‘q edi. Pillapoyaning eng oxirida bundan ortiq qaqqayib turish mumkin emas, ertani, kechmi bu nemislar bo‘lmasa, ulardan boshqasi – chidamliroqlari sassiq hidga qaramay ichkariga kirsalar, ko‘rib qolishlari aniq. U yerda bo‘lsa, hayotini xavf ostida qoldirib ko‘rmoqchi bo‘lgan narsalarini deraza tokchasidan turib kuzatishi mumkin.

Plujnikov karniz ustidan o‘tishda ancha qiynaldi. Butun tanasi bilan devorga yopishgan holda teshik va yorilgan joylardan mahkam ushlab, o‘pirilgan chuqur ustidan muvozanatni saqlab o‘tardi. Ikki marta oyog‘ini tiragan shuvoq ko‘chib, taraqa-turuq bo‘lib ketdi. Nafas ham olmay jim bo‘lib qolardi u bunday paytda. Ammo pastda g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir vaysash hamon davom etardi. Nihoyat u deraza tokchasiga yetib oldi va yaxshilab joylashib olgach, tashqariga nazar tashladi.

Aylanma kazarmaning egri-bugri bo‘lib ketgan devorlarini, uning ortida ilonizi bo‘lib oqayotgan Bug daryosini va narigi sohildagi vayronaga aylangan binolarni ko‘rdi u. Terespol darvozasi yonidagi ko‘prikdan boshlangan yo‘l va darvoza oldidagi maydonga ogir to‘plar o‘rnatilgan. Yo‘l ustida va maydondagi qator terib qo‘yilgan to‘plar yonida nemislar juda ko‘p edi, ularning katta bir qismi yo‘lning ikki chetiga saf tortib, o‘rtada yo‘lak hosil qilgan, maydondagilar esa, kare – aniq to‘rtburchak shaklida safga tizilishgan, kare o‘rtasida bir nechta figura turibdi, aftidan ular ofitser bo‘lsa kerak. Hozirgi saf tortish, nemislar krest ulashayotgan va ular starshina ikkovlari tum-taraqay qilib yuborgan paytdagi saf tortishga mutlaqo o‘xshamas edi. Bugungisi ancha tartibli va tantanavor edi. Nemislar nima sababdan bunday tantanali namoyish – parad qilayotganlarini o‘ylab tagiga yeta olmasdi Plujnikov.

Qayerdandir musiqa ovozi eshitildi: u orkestrning qayerda turganini ko‘rmasa ham, marsh musiqasini chalayotganini fahmlab oldi. Askar sherengalari hosil qilgan yo‘lakda ikkita qiyofa paydo bo‘ldi: ulardan biri qora plashda, ikkinchisi – birinchisiga nisbatan gavdali va semizroq bo‘lib, ustida qandaydir harbiy formaga o‘xshash kiyimi bor edi. Ana shu ikkita qiyofadan biroz orqaroqda yana bir necha kishi ke-

lar edi. Plujnikov ularning generallar va oliy martabali amaldorlar ekanini aniqladi. Oldinda kelayotgan ikkitasi generallarga o'xshamasdi, ammo ularga qilinayotgan izzat-hurmat, ular sha'niga chalinayotgan musiqa – bular hammasi nemislar bu yerda, uning, Plujnikovning qal'asida qandaydir oliy mehmonlarni kutayotganidan dalolat berardi.

Eh, miltiq naqadar zarur edi unga shu paytda! Oddiy miltiq, optik nishoni bo'lmasa ham mayli! Otishni o'rinlatardi u, agar mana shu kelayotgan mehmonlarning birontasiga tegmagan taqdirda ham, ularni sarosimaga solar, paradni buzib yuborar, shodliklariga putur yetkazardi va ularga qal'aning kimniki ekanligi, u hali bo'ysunmagani, jang qilayotganini yana bir bor eslatib qo'ygan bo'lardi. Afsuski, miltig'i yo'q edi uning, bunday uzoq masofadan turib avtomatdan otish befoyda. O'ylab ish qilmagani uchun o'zini shivirlab koyidi, jahl bilan mushtini g'ishtga urdi va kuzatishda davom etdi.

Terespol darvozasining vayron bo'lgan minorasi orqasiga o'tgan odamlar uning ko'zidan g'oyib bo'lishdi va birozdan so'ng yana paydo bo'lishdi: endi ular to'rtburchak shaklida saf tortgan askarlar o'rtasiga kelib qolishgandi. Musiqa to'xtadi, ofitserlardan biri shaxdam qadamlar bilan kelganlar qarshisiga peshvoz chiqib raport berdi. Plujnikov raportni eshitmadi, ammo fashistcha salomlashgandagi qo'llarning yuqoriga ko'tarilishini ko'rdi. Mehmonlar raportni qabul qilgach, askarlar safini aylanib chiqishdi va qator turgan to'plar yoniga borishdi. Ular to'plarni diqqat bilan ko'zdan kechirishar ekan, raport tophirgan ofitser ehtirom bilan nimalarnidir tushuntirdi ularga.

Qirq birinchi yil yozining oxirlarida Brest qal'asiga kim kelib ketganini bilmagandi Plujnikov. Agar bilganda bormi, saf tortgan fashistlarga qarab avtomat diskasidagi o'qning hammasini otgan bo'lar edi. 22-iyun soat to'rtidan o'n besh minut o'tganda mana shu qal'aga otilgan dastlabki to'p, vahshiylarcha hujum o'sha uzoqda turgan odamning buyrug'i bilan boshlanganini bilmasdi u. Plujnikov hozir qarshisida Germaniya fyureri Adolf Gitler va Italiya fashistlarining duchesi Benito Mussolini turganini xayoliga ham keltirmasdi.

3

Plujnikov ko'p kunlardan buyon g'ishtlar bilan ovora edi. Har bir g'ishtni alohida qo'lga olib, astagina qo'yishga to'g'ri kelardi. U patrullar e'tiborini tortishdan qo'rqib emas, begona qadam sharpasi, ovoz-

lar va harbiy anjom sharaq-shurug'i eshitilmay qolishidan xavotir olib mana shunday ehtiyot chorasini ko'rayotgan edi. U o'zi guvoh bo'lgan o'sha harbiy paraddan so'ng, qal'ada nemislar ancha kamayib qolishgan. Ish davomida u, xayolni bir zum ham boshqa narsaga bo'lmay tashqariga diqqat bilan quloq tutar, ba'zida esa g'ishtni qo'lida biroz tutib turib, so'ng asta joyiga qo'yardi. Vayron bo'lgan juda ko'p joylarni kavlab tashladi u, ammo hozircha murdalar-u, ishdan chiqqan qurollardan boshqa hech narsa topa olmadi. Omborxonadan ham, oshxonadan ham darak yo'q. Ularning qotgan nonlari va konsentratlari allaqachon tamom bo'lgan, oz miqdorda qandlari qolgan, xolos, go'shtli konservani esa, Mirra qiynalib iste'mol qilardi. Shuning uchun ham u shiddat bilan, har kuni to'xtamasdan la'nati g'ishtlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yardi.

Erta tushgan kuz to'xtovsiz yoqqan yomg'irlar bilan boshlandi. Yomg'ir nihoyatda mayda bo'lib, yog'ayotgani deyarli eshitilmas, ammo kuni bo'yi paxtalik shu qadar ivib ketardiki, uni biron yerda quritishning iloji yo'q edi. U qayerdandir yana to'rtta paxtalik chopon topib oldi. Mirra uning egnidagi ho'l bo'lgan paxtalikni yechib, qurug'iga peshma-pesh almashtirib turardi. Ammo har kuni u olib kelayotgan namlik kazematga asta-sekin o'rmashib kundan-kun ko'payib bordi. Endi u sutkasiga ikki marta qurol tozalashga majbur bo'ldi.

Avvalgiga nisbatan ancha kamayib qolgandi nemislar. To'g'ri, kunduz kunlari qal'ani hali ham ilgarigidek qo'riqlashardi, ammo xarobazorga e'tibor qilishmasdi, qoidani buzgan ikki nemis esa, endi hech kimga hech narsani aytib berisha olmaydi: Plujnikov avtomat tepkisini bir bosishdayoq ikkovini ham yer tishlatgan edi. O'shanda anchagina yugurishga to'g'ri kelgandi unga, chunki nemislar sarosimaga tushib, xarobalarni ag'dar-to'ntar qilib tashlashdi. Plujnikov bir chekkadagi kazematda nemislarning tinchishini anchagacha poylab yotib, so'ng tunda Mirra yoniga qaytib keldi.

– Otma, iltimos qilaman, – qiynalib, charchab qaytgan Plujnikovni noz bilan erkalab shivirladi Mirra. – Sen uchun qanchalar qo'rqanimni bilsang edi. Shunday qo'rqamanki!

Qal'ada grajdancha kiyingan odamlar paydo bo'lishdi: ular to'da-to'da bo'lib kelishar, ot-ulovlari ham bor edi. Ular o'ydim-chuqur joylarni tekislab, murdalar va g'isht parchalarini tashiy boshladilar. Plujnikov ularning kostelni tozalaganlarini va halok bo'lganlar – yetita chegarachi murdasini aravaga solib olib ketayotganlarini o'z ko'zi

bilan ko'rdi. Plujnikov ular bilan aloqa bog'lashga urinib ko'rmoqchi bo'ldi, ammo nemislar ularni alohida sezgirlik bilan kuzatishar, yonlaridan bir zum ham jilishmasdi. Ko'rinishdan u odamlar shu atrofda qishloqdan haydab keltirilgan kolxozchilar edi. U bir paytlar hujumga o'tib jang qilgan Oq saroyning orqa tomonida bir guruh ayollarni ham ko'rdi. Soqchilar ulardan ham ko'z-quloq bo'lib turishardi. Ayollar sinmagan butun gishtlarni yig'ib, yo'l chekkasiga qator terib qo'yishardi. Kechga tomon mashinalar keldi, ayollar ularga g'isht ortishdi va mashinalar jo'nab ketdi, ayollarni esa bir to'da qilib darvoza ichkarisiga haydashdi. Ertasiga ayollar yana kelishdi va butun gishtlarni yig'ishni davom ettirishdi. Plujnikov ularni kuy bo'yi kuzatgan bo'lsa ham, faqat tushlikka yarim soat vaqt berilishini aniqladi, xolos. Na gaplashishning, na chaqirishning va na imo-ishora bilan o'zi haqida biron belgi berishning ilojini topa olmadi. Holbuki, kuni bo'yi mana shunday imkoniyatni kutib o'tirgandi.

Mirra tozayam tashvishlangandi o'shanda.

– Balki ular shahardan kelishgandir? Eh, agar onamga mening tirikligim haqida xabar berilganda juda ajoyib bo'lardi-da!

Lekin Plujnikov na ayollarga-yu, na erkaklarga biron gap aytishning ilojini topa oldi va bu befoyda harakatni yig'ishtirib qo'ydi. Avvalo non topish kerak edi.

U o'zi kavlagan chuqurning tubigacha tushib, g'ishtlarni doira shaklida baland qilib terib qo'ydi va asta ishlay boshladi. U tevarakatrofga quloq solish bilan birga, biron-bir kutilmagan noxushlikka duch kelib qolmaslik uchun yuqoriga ham dam-badam qarab qo'yardi. U endi tezda sovqotib, tezda charchab qolar, nafasi qisar, yuragi ham odatdagi ritmni o'zgartirib, qovurg'ani teshgudek darajada qattiq tepardi. Shunday paytlarda u ishni to'xtata solib yotib olar va yurakning o'z holiga kelishini qanoat bilan kutardi.

Plujnikov singan g'ishtlar orasida qandaydir yumaloq – qutichaga o'xshagan narsani sezib qoldi. Sabr qilib asta kavlagan edi, deyarli hammasi pachoq bo'lib ketgan qutichalar ekan: yerga ozgina oq poroshok to'kildi. Poroshokdan bir chimdim olib, hidlagan edi, seskanib ketdi: xushbo'y lazzatli hid to'satdan uzoq o'tmishni – onasini yodiga tushirdi.

– Upa, – butun qolgan yagona qutichani olib kelgan paytda kulib gapird Mirra. – Nahotki yorug dunyoda upa qo'yadigan, labini bo'yaydigan, sochini jingalak qiladigan ayollar hali ham

bo'lsa? Men ham hayotimda birinchi bo'lib burnimga upa surt-sammikin?

– Juda ko'p u yerda. Peshonangga, yuzlaringga ham yetadi.

– Ko'p dedingmi? – nimanidir eslab jiddiylashdi u. – To'xta, to'xta. Oshxonada voyentorgning do'konchasi bor edi. Bor, bor edi, esimda. Demak, shu atrofda ham ombor bor. Uzoq emas, juda yaqin joyda.

Plujnikov shunday jazavaga tushib kavlardiki, ba'zan hatto xavf-xatarni ham unutib qo'yardi. Nafasi qaytib, tirnoqlari sinib, barmoqlari qontalashib ketsa ham, qandaydir bosh suyaklar, singan shisha va yashik bo'laklarini atrofga uloqtirib to'xtamasdan kavlardi. Nihoyat, u, garchi ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa ham, g'isht tagida bosilib yotgan qopni paypaslab aniqladi.

Yarim tungacha u, o'sha qopni paypaslab atrofidagi tuproq va g'ishtlarni olib tashlay boshladi. Kavlagan joyga ikki marta gisht ag'anab tushib qilgan mehnatini chippakka chiqardi, ikki martasida ham u umidsizlikka tushmay, yana qaytadan g'ishtlarni birma-bir olib qo'ydi. Nihoyat u, og'zi mahkam bog'langan qopni bezarar, butunligicha tortib oldi. Xanjari bilan qop og'zidagi kanopni kesib, ichiga qo'lini tiqqan edi, harbiylar uchun maxsus tayyorlanadigan to'rtburchak shakldagi g'adir-budur qattiq non – qoqnon ekanini sezdi.

Osmondagi qora bulutlar past suzib yurgani uchun, chuqurlik ichi qorong'i bo'lib qoldi. U qoqnonni olib, yuziga yaqin keltirdi: ko'zi ko'rmay turib, o'tkir javdar non isi dimog'iga urildi. Non hidi-ni u suqlanib hidlar, sovuqdan emas, xursand bo'lganidan to'xtovsiz titrayotganini sezmasdi o'zi. Qo'lidagi qotgan nonni yalagan edi, sho'r ta'mini sezgandek bo'ldi, nima ekanini tushunmay yana yaladi va shundan so'ng fahmladi: g'adir-budur askar qoqnoni ustiga uning ko'z yoshlari tomayotgan ekan. Bu ko'z yoshlari uning esidan shu qadar chiqib ketgan ediki, yuzidan yumalab tushayotganini sezmasdi ham.

Ular ertasiga kuni bo'yi qoqnon kemirishdi. Bu kun ular hayotidagi eng baxtli kunlardan biri edi. Mirraga shunday quvonch bag'ishlagani uchun Plujnikov nihoyatda baxtiyor sezardi o'zini. So'nggi paytlarda ko'pincha Mirraning yig'lab o'tirgani ustiga kelib qolardi. Uni ko'rib Mirra shu zahotiyuq kula boshlar, hazillashmoqchi bo'lar, ammo uning qalbidagi qandaydir noxushlikni Plujnikov sezib turardi. Mir-

ra hech qachon shikoyat qilmas, doimo osoyishta, og'ir yurar, ba'zan hatto vaqtichog' bo'lardi, kechalari esa, u uxlagan paytda, ko'z yoshlaridan, muhabbatidan va dilxastalikdan entika-entika muloyimgina erkaldirdi uni. Uning bu holatini har kuni bir xil ovqat yeyishdan deb o'ylardi Plujnikov, chunki ko'ngli behuzur bo'lganini zo'rma-zo'raki yashirayotganini sezgandi u. Uning uchun konservadan boshqa biron narsa izlab topmoqchi bo'lardi-yu, ammo qayerdan, nimani topishini bilmasdi.

– Bir xayol sursak nima deysan? Faraz qilaylik men sehrgarman.

– Sen rostdan ham sehrgarsan, – dedi Mirra. – Sen baxt ato etding menga, sehrgardan boshqa kim baxtli eta olardi meni?

– Mana, sehrgar qarshingda turibdi, tila tilagingni. Nimani istar eding hozir? Mayli, amalga oshishi mumkin bo'lmasa ham aytaver.

– Qiymalangan cho'rtanbaliq va bittagina tuzlangan bodring.

Uning miyasiga bir bebosh fikr keldi, lekin u bu haqda Mirraga tushuntirib o'tirmadi. Keyingi kun, odatdagidan ertaroq, tong qorong'isida qo'lga to'rt dona qoqnon olib yuqoriga otlandi Plujnikov.

– Borma bugun, – yuragi dov bermay iltimos qildi Mirra. – Iltimos qilaman, borma bugun.

– Bo'ldi, dam olish tugadi, – hazil bilan qutulmoqchi bo'ldi Plujnikov.

– Borma, – qandaydir g'amgin ovozda takrorladi Mirra. – Iltimos qilaman, yonimda bo'lgin, shunday ham juda kam ko'raman seni.

– Bu yerda qolganim bilan baribir ko'rmaysan-ku meni.

Ular moyni ehtiyot qilib keyingi paytlarda faqat bitta lip-lip chiroqni yoqishardi, xolos. Chor atrofdan qora zimiston o'rab turar, ular anchadan buyon ko'r odamdek paypaslab kun kechirishardi.

– Yaxshiyamki ko'rmaysan meni, – xo'rsindi Mirra. – Hozir xunugim chiqib, ko'rganda qo'rqadigan bo'lib qolganman.

– Sen – go'zallarning go'zalisani, – dedi-da, Plujnikov uni bag'riga bosib o'pdi va tashqariga chiqdi.

Plujnikov yuqoriga chiqqanda endi tong ota boshlagan edi. U biroz atrofga quloq solib turdi. Bir maromda shivirlab yog'ayotgan yomg'irdan boshqa hech narsa eshitmadi, so'ng astagina Oq saroy tomon yurdi. Yo'ldan eson-omon kesib o'tib, g'isht uyumlari orqali chuqur yerto'laga yetib oldi.

Urushning dastlabki soatlarida xuddi mana shu yerlarga yaradorlarni yashirishgan edi. Katta leytenant ham shu yerda olamdan o'tgandi.

Plujnikov bir paytlar katta leytenantning halok bo'lganiga mutlaqo ishonmagandi. Murdalarni olib chiqib ketishgan bo'lsa ham, o'tkir hid saqlanib qolgan. Plujnikov bamisoli urushning dastlabki soatlarida yotgan yaradorlarga tegib ketmay degandek, qorongida ehtiyot bo'lib yurdi. Begona ko'zlardan yiroq, ammo kuzatish uchun qulay bo'lgan shinak qidirardi Plujnikov. Yerto'ladagi qora zimiston tufayli teshiklar, tuynuklar va yorug' joylar kuzatish uchun uncha qulay emasdi. U shinaklardan o'ziga yoqqanini tanlab, g'isht ustiga o'tirdi va yoniga avtomatini qo'yganicha uzoq kuzatishga hozirlik ko'rdi.

Tabiatan u o'ta harakatchan va shiddatli odam, lekin doimo xavf-xatar ichida yurish unda sabr-toqat hissini uyg'otgan edi. Toqat bilan kutardi u, kutganda ham beharakat, qimir etmasdi. Uning bu xatti-harakati o'ljasiga ko'z tikkan jonivorni eslatardi. Qachonlardir, urush boshlanmasdan avval harbiy bilim yurtining boshlig'i qabul qilmoqchi bo'lganda kutib betoqat bo'lganini, hafsala bilan tozalab yillatilgan etigini, yangi, yumshoq, ozoda gimnastyorkasini esladi. «Bir yildan keyin sizni bilim yurtiga chaqirib olamiz...» Bir yildan keyin? Shundan buyon juda uzoq vaqt – butun bir davr o'tdi, ammo yil hali tugagani yo'q... Davr yilga nisbatan qisqaroq ekan, chunki davr his etiladi, yilda esa yashamoq kerak.

Bulardan tashqari u onasi va Verochka haqida o'yladi. Nemislarni Rossiyaning ichkarisiga yorib kirganini bilardi u, ammo Moskvani bosib oldi degan fikrni o'ylash u yoqda tursin, xayoliga yaqin yo'latmasdi. Ular Minskni bosib o'tib, Smolensk atroflarigacha borishlari mumkin, lekin Moskva ostonalarida paydo bo'ldilar degan gapning o'zi bema'nilik. Qizil Armiya shiddatli janglar olib borib, fashist diviziyalarining tanobini tortib qo'yayotganini tasavvur etardi u. Nemislarning obdan adabini bergach, bahorgacha bu yerga – Brest qal'asiga Qizil Armiyaning qaytib kelishiga ishonchi komil edi. Bahorgacha hali ancha vaqt bor, garchi shunday bo'lsa ham ana shu paytgacha yashashni, Qizil Armiyani kutib olib, qal'a taslim bo'lmadi deb axborot berishni, Mirrani Moskvaga – onasi yoniga jo'natishni va o'zi jangchilarga qo'shilib g'arbga – Germaniyaga ketishni mo'ljallab qo'ygandi.

Nihoyat u oyoq ovozlari eshitdi. Oyoq ovozlari askarlarniki singari bir maromda chiqmay, tapira-tupur palapartish edi. Oq saroy tomon ayollar kolonnasi kelardi. Tapira-tupur kolonnaning oldida uchta, ortida to'rtta, har ikki yonida uchtdan oltita soqchi bor. Orqa va oldi tomondagi soqchilar avtomat, ikki yonidagilar miltiq ushlab olishgan.

Multiqlar uzoqdan uning ko'ziga nihoyatda uzun va beo'xshov ko'rindi, kolonna yaqinlashganda qarasa, uchiga to'rt qirrali nayza o'rnatilgan o'zimizning multiqlar ekan. Ma'lum bo'ldiki, ayollarni qo'riqlayotgan faqat nemislar emas, ular ichida dushman tomonga qochib o'tgan Fedorchuk singarilar ham bor.

Buyruq berilishi bilan kolonna to'xtadi. Soqchilar joy-joylariga ketishdi, ayollar bo'lsa to'g'ri Plujnykov turgan joydagi xarobalar tomon yura boshlashgan edi, u asta tislanib o'zini qorong'ilikka oldi. Ayollar o'zaro asta gaplashib, ish boshlash oldidan nafasni rostlamoqchi bo'lishdi, birov g'isht taxlab ustiga o'tirdi, birov oyoq kiyimini almashtirdi, yana boshqa birov ro'molini yechib qayta o'radi. Plujnikov juda ham yaqindan ko'rdi ularni, palto va paxtaliklaridan oqib tushayotgan suv tomchilarini, yarmigacha ro'mol bilan o'ralgan yuzlarini ham ko'rdi, ovozlarni eshitdi, ammo bu ayollarning yoshlarini va kim ekanliklarini aniqlay olmadi. Hamma ayollarning yuzi bir xilda horg'in va tashvishli ko'rindi. So'zlar ham turlicha: ayrim uzuq-yuluq rus iboralaridan tashqari beloruscha, yana qandaydir tushunish qiyin bo'lgan polyakcha hamda yahudiycha so'zlar ham eshitilardi. Plujnikov hozir ularni chaqirishi, hatto gaplashishi ham mumkin, chunki bu yaqin o'rtada soqchi yo'q, lekin u tavakkal qilishni istamasdi bugun. U bu ishni kelgusi safar, notanish yerto'lan va chekinish yo'lini yaxshilab o'rganib olgandan keyin qiladigan bo'ldi.

Qarab turgan teshik birdan qorong'ilashib qoldi. Avvaliga u nima bo'lganini tushunmay birdan orqaga tislandi va ichkariroq ketdi. Teshik yana yorishdi, lekin bu safar nur yo'nalishi boshqacharoq shaklda edi.

U bo'ynini cho'zib qaradi va teshik oldida ikki uchi bir-biriga bog'lab qo'yilgan kichkina tugunchani ko'rdi. Ayollardan kimdir u tugunchani yomg'irdan pana joyga – yerto'la derazasi yoniga qo'yan edi.

Ayollar g'isht taxlashni boshlashlari bilan, tugunchani asta oldi u, ichini ochdi, tagida oq matoga o'ralgan yana kichik tuguncha bor ekan, uni ham ochdi va ovoz chiqarmay o'zicha kuldi: uning hech qachon bunday omadi kelmagan, hech qachon. Tuguncha ichida po'stlog'i artilmay pishirilgan oltita kartoshka, piyoz va bir chimdim tuz bor ekan.

Plujnikov to'xtovsiz yog'ayotgan kuz yomg'irida ivib, qomatlari bukchaygan g'amgin ayollarga minnatdor bo'lib qaradi. Ana shu ayollardan kimdir o'zi bilmagan qolda, unga bebaho sovg'a hadya etdi. U

biroz o'ylab turgach, ro'molchaga uchta qoqnon solib xuddi avvalgi-dek tugdi va teshik yoniga qo'yib qo'ydi. Kartoshka va piyoz o'ralgan lattani esa qo'ltig'iga qisib, yerto'laning eng chetdagi qorong'i hujrasi tomon ketdi. Yarim tungacha o'sha yerda qoqnon kemirib o'tirib, bugun Mirraning qanchalik xursand bo'lishi haqida o'yladi.

– Sen rostdan ham sehgarmisan deyman?

U Oq saroydagi yerto'la, ayollar va tuguncha haqida gapirib berdi. Mirra uning gaplarini tinglab kartoshkani yer ekan zo'rma-zo'raki o'zini majbur qilayotgandek tuyulardi. Kartoshka uchun suyunishga bamosoli nimadir xalal berayotgandek, bezovtalanib boshqa narsa haqida o'ylardi Mirra.

– Xursand emasmisan deyman?

– Yo'q, nega. Rahmat olib kelganing uchun. Ol, ye o'z ulushingni.

– Bular bari senga, gapimni qaytarma. Men duch kelgan narsani yeb ketaveraman, seni esa, ko'rib yuribman, ko'ngling ayniyapti, qiy-nalyapsan.

– Soddasan, – qandaydir g'alati alam bilan darmonsizlanib gapirdi Mirra. – Voy Xudoyim-ey, namuncha sodda bo'lmasang.

Mirra u tomon egilib peshonasini uning ko'ksiga qo'ydi va asta piqillab yig'lay boshladi. Hali yeb tamomlanmagan kartoshka ustiga ko'z yoshlari tomchiladi.

– Nima bo'ldi senga, Mirrochka? Ayt, nima bo'ldi?

Mirra boshini ko'tarib uning yuziga uzoq tikildi. Plujnikov uning xira chiroq nuri yoritib turgan yuzidagi katta-katta g'amli ko'zlarini ko'rdi: ko'z yoshlarida kichik jinchiroy piligining lipillayotgani aks etardi.

– Mirrochka...

– Biz vidolashishimiz kerak, – go'yo bor quvvatini sarflab arang so'zlayotgan odamdek astagina gapirdi Mirra, – Azizim, mening yolg'izim, mehribon erim, vidolashadigan payt keldi sen bilan.

– Vidolashamiz deyapsanmi? – hech narsani tushunmasdi u. – Nima uchun vidolashamiz? Nima uchun? Nima sababdan? Nima, kasal bo'lib qoldingmi? Nega indamaysan, javob ber axir!

– Yaqinda bola ko'ramiz.

– Bola ko'ramiz? Qanday qilib?.

Bu yangilik uning uchun ustidan sovuq suv quygandek bo'ldi. U to'satdan qandaydir qo'rquv sezdi o'zida, bu – kishini aqldan ozdiruvchi yolg'izlik dahshati edi.

– Ko‘rdingmi, men ham xuddi boshqa ayollar singari ayolman, – Mirraning ovozida bemavrud aytilgan g‘alati g‘urur jaranglardi. – Men – sog‘lom ayolman, yuz berishi lozim bo‘lgan narsa yuz berdi. To‘g‘rirog‘i bu juda ulkan baxt bo‘lsa kerak, baxt uchun esa, nimadandir kechish lozim.

– Ketma, – umidsizlanib gapirdi Plujnikov. – Faqat ketmasang bo‘lgani.

Nima deyaotganini o‘zi ham bilmas, umidsizlik qamrab olgandi uni. Mirra astagina bosh chayqadi:

– Ketmasam bo‘lmaydi.

– Ha, ha, tushunaman, tushunaman.

U hozirdanoq Mirradan uzoqlashib, yolg‘izlik girdobiga g‘arq bo‘ldi. Mirra unga yaqin borib suykaldi, uning ich-ichiga kirib ketgan yuz-ko‘zlaridan siladi, o‘pdi: u esa, tosh singari qotib qolgandek, indamay o‘tirardi.

Shu ahvolda uzoq o‘tirishdi ular. Uni ham o‘zi singari ko‘niksin deb, Mirra hech narsani gapirib, tushuntirib, isbotlab o‘tirmadi. Plujnikov esa, ovozining boricha baqirgisi, yuqoriga chiqib, diskdagi o‘qlarning hammasini nemislarga otgisi va halok bo‘lgisi kelardi, chunki hozir u chekayotgan alam o‘limdan ham dahshatliroq edi. Lekin u, bular bari o‘tib ketar degan umidda, sabr-toqat bilan kutardi. Bardosh berish mumkin bo‘lgan narsaga bardosh bera olar, mumkin bo‘lmaganiga bardosh berish ham uning qo‘lidan kelardi.

Nihoyat u chuqur «uf» tortib, asta qimirlab qo‘ydi. Mirra xuddi shuni kutib turgandek, birdan past, g‘amgin ovoz bilan, abadiy vidolashayotgan odam singari gapira boshladi:

– Agar mana shu kichkintoy, o‘shaning tashvishi bo‘lmaganda, Kolya, men seni hech qachon yolg‘iz tashlab ketmas edim. Men sendan oldinroq o‘laman-u, lekin baxtli bo‘lib o‘laman deb o‘ylardim. Sen – mening hayotim, quyoshim, quvonchimsan, nimam bo‘lsa – bari sensan. Lekin bola tug‘ilishi kerak, albatta tug‘ilishi kerak, Kolenka! Uning odamlar oldida hech qanday aybi yo‘q. Sog‘lom bo‘lib tug‘ilishi kerak u, albatta, sog‘lom bo‘lishi kerak, bu yerda bo‘lsa... Bu yerda men soniya sayin uning zaiflashayotganini sezyapman. Uning quvvati endi meniki emas, Kolya, uniki! Xudo baribir ayolga ozgina baxt-u, juda ko‘p burch ato etadi. Men baxtli edim, shunday baxtli edimki, dunyoda hech bir ayol menchalik baxtli bo‘lmasa kerak, chunki bu baxtni menga sen, yolg‘iz sen berding. Ha, jang-u

jadalga qaramay, bostirib kelgan nemislarga qaramay, mening taqdirimga qaramay, dunyodagi barcha narsalarga qaramay baxtiyor eta olding meni! Bilaman, mendan ko'ra senga qiyinroq, chunki sen yolg'iz qolasan, men bo'lsam sening bir bo'lagingni, kelajagingni o'zim bilan birga olib ketaman. Bilaman, hozir hayotimizning eng dahshatli daqiqalari, lekin biz bunga chidashimiz, o'zimiz uchun bo'lmasa ham kichkintoy uchun, uning yashashi uchun chidashimiz kerak. Sen tashvishlanma, men o'zim hammasini o'ylab qo'rganman. Sen meni faqat o'sha, ishlayotgan ayollar yoniga yetib olishimga ko'maklashasan, ular esa meni qal'adan chiqib ketishimga yordam berishadi.

– Undan keyin-chi?

– Xavotir olma, u tomonda onam bor, qarindosh-urug'larim bor. Hech kimning qarindosh-urug'i yahudiylarnikidek ko'p bo'lmaydi.

– Ayollarni saf qilib olib yurishadi.

– Bitta ortiqcha ayolni kim ham sezardi deysan! Xavotir olma, azizim, hammasi yaxshi bo'ladi. O'ychi o'ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi. Mixas amakim shunday derdilar: esingdami, u kishi bir paytlar o'z foytunida bizni qal'aga olib kelgan edi? Yo'l chetidagi simyog'ochlarni tomosha qilib, birinchi marta qo'lingga urilib ketgandim o'shanda.

U o'zini zo'rlab kulgani holda gapirar, ko'zlaridan esa to'xtovsiz yosh oqardi. Ko'z yoshlari Plujnikovning qo'llariga ham tomchilardi. Plujnikov qancha urinmasin, yig'lay olmadi, chunki uning so'nggi ko'z yoshlari askar qoqnoni ustiga tomchilagan, endi mutlaqo ko'z yoshi qolmagandi unda. Shu boisdan bo'lsa kerak uning ichi yonar, yuragini lang'illab turgan cho'g' qamrab olgandek edi.

– Sen ketishing kerak, – dedi u. – Onang yoniga yetib olib, o'g'limizni katta qilishing kerak. Agar bordi-yu, tirik qolsam...

– Kolya!

– Agar tirik qolsam, sizlarni izlab topaman, – qat'iy takrorladi u. – Agar tirik qolish nasib etmasa, unda o'g'limga biz haqimizda, mana shu yerto'lada, toshlar ostida qolib ketganlarning hammasi haqida gapirib berasan.

– Mana shu toshlarga kelib sig'inadi u.

– Sig'inishning keragi yo'q. Eslasa bas.

Ular qorong'ida yo'lga chiqib, garchi Mirra uchun yurish qiyin bo'lsa ham, Oq saroy xarobasiga eson-omon yetib olishdi. Nihoyatda holsizlangan Mirra yurishni unutayozgan, yo'l ham uning yasama oyog'iga to'g'ri kelmasdi. Plujnikov ba'zi joylarda uni qo'lida ko'tarib

yursada, qiynalmadi: bu qadrdon issiq badan shu qadar ozib ketgandiki, xuddi qushdek yengil bo‘lib qolgan edi. U razvedka qilib bo‘lgach, yerto‘ladan chiqadigan joyni hamda oxirgi marta unga qaraydigan tirqishni Mirraga ko‘rsatdi, so‘ng uni tizzasiga o‘tqazib u yoq-bu yog‘ini yaxshilab o‘radi va xayrlashish paytigacha qo‘yib yubormadi. Shu yerning o‘zida so‘nggi bor xayrlashishgach Mirra astagina yerto‘ladan chiqdi.

Ishlayotgan ko‘p ayollar singari Mirra ham ustiga paxtalik kamzul kiyib, ro‘molini tomog‘ining ostidan bog‘lab olgan, shuning uchun ham unga hech kim e‘tibor qilmadi. Hamma o‘z ishi bilan band edi. U ham bir chekkaga o‘tib olib ishlay boshladi.

– Nega turtinib surtinyapsan? – po‘ng‘illab so‘radi qandaydir bir ayol. – Oyog‘ing og‘riydimi deyman?

Ikkinchi ayol esa afsuslanib xo‘rsindi:

– Voy Xudoyim-ey, oqsoqni ham olishibdi-ya, yaramaslar. Ko‘p yurma sen, anovi yerga borib g‘ishtlarni taxla.

G‘ishtni yo‘l chetida taxlashardi. Mirra u tomonga borishni istamas, chunki u yer Plujnikovdan ancha uzoq edi. Odamlar uni o‘z odamimiz deb o‘ylashayotgani uchun o‘zicha sevindi va ular bilan bahslashib o‘tirmadi. Mirra oqsoqligini bildirmaslikka harakat qilib ayollar aytgan joyga ketdi va butun g‘ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.

Plujnikov uning yo‘l tomon ketayotganini va u yerga borib g‘isht taxlayotganini ko‘rib turdi. So‘ng boshqa ayollar to‘sib qolishganda, ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi uni, yana topib oldi, yana ko‘zdan yo‘qotdi va shundan keyin uning qayerdaligini aniqlay olmadi. Lekin baribir boshqa ko‘ra olmayman deb umidsizlikka tushsa ham, ko‘z uzmay qarab turaverdi. Taqdir uni bu safar eng dahshatli, eng shafqatsiz narsadan asrab qoldi deb o‘ylar va bunga shubha qilmasdi Plujnikov.

Soqchilar kelganda, kech kirib qolgandi. Bu paytgacha Mirra ularni gulxan yoqib isinib o‘tirganlarida va ag‘darilmay qolgan devor panasiga biqinib turganlarida uzoqdan ko‘rgandi. Mana hozir paydo bo‘lishadi-yu, bekorchilikdan sovqotgan barzangi gavdalarini lo‘killatib u yoqdan-bu yoqqa yugurib qolishadi.

– Xotinlar! Saflaninglar! Tezroq, tezroq!

Soqchilar boshlig‘i nemislardan bo‘lib, ular gulxan yonida shoshmasdan, bamaylixotir o‘tirishar, ayollarni saflayotganlar esa, ochko‘krang kamzul kiyib, nayzali miltiq bilan qurollangan odamlar edi.

Ular asta-sekin saflanayotgan ayollar yonida uymalanishib, rus tilida buyruq berishardi.

– To‘rtta-to‘rttadan bo‘lib saflaninglar!

Mirra kolonnaning o‘rtasiga kirib olishga harakat qilar, to‘rttadan bo‘lib saflanayotgan ayollar esa, uni beixtiyor turtib chetga chiqarishardi, shu tariqa u kolonnaning chap tomoniga o‘tib qoldi. Mirra tap tortmay o‘zini yana to‘da ichiga urar, holdan toygan ayollar esa, sen bu to‘rtlikdan emassan deb vaysab uni yana surib chiqarishardi. Shunday qilib u kolonna oxirida bir o‘zi qoldi.

– Nega bir-birlaringni turtasanlar? – jahl bilan qichqirdi novcha soqchi: u boshqalarga qaraganda ko‘proq baqirib, ko‘proq harakat qilardi. – Har kim o‘z to‘rtligini topib olsin! Tezroq, xotinlar, tezroq!

– Biz to‘rttadan turdik, – kimningdir norozi ovozi eshitildi. – Mana bu yerda bitta odam ortiqcha bo‘lib qoldi

– Nega ortiqcha bo‘ladi? Qayerdan kelibdi? Ortiqcha bo‘lishi mumkin emas. Yaxshiroq aniqlanglar!

– Mana, mana bu yerda...

Mirraning yuragi shiddat bilan dukillab ura boshladi. Soqchi saflanganlar oldidan yurib, unga yaqinlashdi. U bor kuchini to‘plab soqchiga zo‘rma-zo‘raki iljaydi.

– Qayerdan kelib qolding sen? – uning qarshisida to‘xtab, taajjub bilan so‘radi soqchi.

– Nahotki tanimayotgan bo‘lsangiz? Shahardan kelganman.

– Shahardan?

– Ketaylik, ketaveraylik! – Plujnikov bu holni, albatta kuzatib turibdi, degan xayolda shiddat bilan qichqirdi Mirra. – Ketaveraylik, ketayotganda aniqlasa bo‘lmaydimi?

– To‘g‘ri aytyapti, ketaveraylik! – norozi bo‘lib g‘ala-g‘ovur boshlashdi ayollar. – Kuni bo‘yi ishlab sovqotdi hamma! Nega endi tiqilinch qilyapsizlar qizga: kamaymapti, ko‘payibdi-ku!

– Ko‘payibdi?.. – boshi qotib takrorladi soqchi. – Demak, ko‘paygan? Xo‘sh, sen qayerdan ko‘paygansan?

U birdan qizning paxtalik kamzulidan ushlab o‘ziga tortdi: Mirra yiqilib tushay deb o‘zini zo‘rg‘a tutib qoldi.

– Yerto‘la isi kelyaptimi deyman? Yerto‘la isi?.. Janob ober-yefreytor! Ha, yaramas! Yerto‘ladan emaklab chiqqanga o‘xshaysan? Janob ober-yefreytor!

– Ketaylik, – entikib g‘o‘ldirardi Mirra, soqchi esa baquvvat qo‘li bilan uning yoqasidan ushlab qattiq silkitar; himoyasiz bosh u yoqdan-bu yoqqa likillab borib kelardi. – Keta qolaylik. O‘tinib so‘rayman sizdan...

– Qayerdan kelding? Ayt, qayerdan?

Soqchi uni birdan qo‘yib yubordi-da, kolonnaning narigi boshidan ular tomon shoshmasdan kelayotgan qariroq nemisga peshvoz chiqdi. Mirra o‘sha joyda bir daqiqa turdida, so‘ng ketma-ket soqchi orqasidan yura boshladi, chunki saf tortgan ayollar uni Plujnikovdan to‘shayotgan edi.

– Janob ober-yefreygor, mana u, ortiqcha ayol, yerto‘ladan emaklab chiqqanga o‘xshaydi.

Uning yana nimalar haqida gapirganini Mirra eshitmasdi endi. U faqat yoshi o‘tinqiragan ober-yefreytorning bir burdagina befarishta basharasini ko‘rar, boshqalardan unchalik farq qilmaydigan bu horg‘in bashara qo‘rqinchli tanishdek tuyulardi unga. U hamon o‘ziga iqrar bo‘lishga qo‘rqar, mo‘jizaga o‘xshash biron voqea sodir bo‘lishiga ishonardi. Ammo hech qanday mo‘jiza yo‘q, nemis bor edi, xolos. Nemisning haligi sovuq urgan qizil burunligi emas, boshqasi – o‘z bolalarining rasmini ko‘rib o‘tirib qaltirab o‘takasi yorilay degani.

– Yude! – tugunli ozg‘in barmog‘ini Mirraga tirab qichqirdi nemis. – Yude! Bunker! Yude! Bunker!

– Namuncha endi qiz bolaga yopishmasalaring? – baqirib-chaqirishardi ayollar, soqchilar bo‘lsa nayzalarini o‘qtalib u yoqdan bu yoqqa yugurishardi. – Ketaylik endi, sovuqdan qotib qolyapmiz-ku! Qizni qoldiringlar, o‘zimizniki u! Yo‘q, nima deyapsiz, bizniki emas u! Bizniki... Bizniki emas...

– Yude! Bunker! Yude! Bunker! – orqasiga tislanib qichqirardi nemis, chunki Mirra endi hech narsani ko‘rmasdan va eshitmasdan to‘g‘ri u tomon borardi. Plujnikov turgan shinakdan iloji boricha nari ketishga intilardi. Aftidan, ayollarni olib ketishdi, uni olib ketishmadi, nazarida shunday bo‘lib tuyuldi unga, chunki uning shang‘illayotgan qulog‘iga «Yude!» «Bunker!» «Yude!» «Bunker!» degan ikkita dahshatli so‘zdan boshqa narsa eshitilmasdi. Uning yuragi dahshatni oldindan sezgandek dam uvishar, dam dahshatli ura boshlar, bunday paytda havo yetishmasdi unga. U og‘zini katta ochgani bo‘yicha nemisni orqasiga chekintirib olg‘a tomon ketaverdi.

Uni hatto miltiq qo'ndog'i bilan kuchlari boricha urishganda ham, mutlaqo og'riqni sezmedi. Orqasidan qattiq zarb tushganda boshi g'alati bo'lib chayqalib ketdi va og'zi zum o'tmay quyuq sho'rtang narsaga to'ldi. Lekin u shu zarbdan keyin ham yurishda davom etar, nima uchundir og'zidagi qonni tuflab tashlamas, hech qanday kuch hozir uni to'xtata olmaydiganga o'xshardi. Uning yelkasiga hamon to'xtovsiz zarba tushar, qornini bu zarbalardan beixtiyor himoya qilib borgan sari pastga egilardi. U endi o'z ichida yashayotgan bola haqida emas, orqada qolgan, bir umrga ayrilayotgan inson haqida o'ylar va kuchining boricha uni ehtiyotlashga intilardi. Nihoyat urib ag'darishdi uni, u bo'lsa hali ham protezli oyog'ini noqulay sudrab olg'a tomon emaklardi. Nayzani orqasiga ikki marta sanchib olishganda ham emaklayotgandi u. Uning u yoq-bu yog'idan o'tib ketgan bu ikki dahshatli og'riq – iliq ya nozik badan sezgan birinchi hamda oxirgi og'riq edi... Uning chirt yumilgan ko'zlari oldida yorug'lik porladi, mana shu dahshatli yorug'likda u endi hech qachon na bolasi, na eri bo'lmasligini, umri xazon bo'lganini ko'rdi. U bor kuchini to'plab qichqirmoqchi bo'lgan edi, qichqiriq o'rniga tomog'idan quyuq, yelimga o'xshagan yopishqoq qon otilib chiqdi.

Hushdan ketayotib, o'lim oldi dahshatida suzar ekan, yelkasi, orqasi, boshiga tushayotgan zarbalarni hamon eshitardi. Lekin uni urishayotgani yo'q, hali tirik bo'lsa ham, Oq saroy to'sini ortidagi chuqurlikka tashlab, ustiga g'isht irg'itishayotgan edi.

Yerning shundoqqina ustida necha kundan buyon osilib turgan bulutlar yorishib, atrofga tarqaldi va yalanglik bo'zargandek bo'ldi. Al-laqachon botgan quyoshning olis shu'lasi o'lda-jo'lda qolib tekislangan yo'l ustini, vayron bo'lgan bino burchagini, buzilgan to'siqning bir bo'lagini va shoshib to'latilgan chuqurlikni istar-istamas yoritdi. Yoritdi-yu, g'oyib bo'ldi, kuz osmoni yana qora bulutlar bilan qoplandi.





BESHINCHI QISM

1

U yana kunlar hisobini yo‘qotib qo‘ydi. Qorong‘i zulmat ichida kalamushlarning qoqnon qoldiqlarini kemirayotganlarini eshitib yotar, o‘rnidan turib o‘sha qoqnonlarni berkitib qo‘yish va bugun qaysi kun ekanini eslashga madori yo‘q edi. Shinel, paxtalik va kamzullarni to‘plab ularning ostiga kirib, ovqat yemay, suv ichmay, necha kundan buyon yotganini bilmasdi u. Hushi o‘ziga kelganida, zo‘rg‘a emaklab borib suv ichdi, g‘alati behush bo‘ldi, yana o‘ziga keldi, yana suv ichdi. So‘ng bir amallab stol yoniga keldi, hali kalamushlar yeb ulgurmagan shakar va qoqnonni topdi, shakarni hovuchlab og‘ziga soldi, hech narsa yegisi kelmayotgan bo‘lsa ham qoqnonni kursillatib yedi. Ovqat yeyishga o‘zini majbur qilardi u, chunki endi betoblikdan tuzaldi, biroz oyoqqa turishi kerak.

U kunlar hisobini yo‘qotib qo‘ygani uchun, qorni ko‘rganda taajjublanmadi... Tun yarim kechadan og‘ib qolgan, qorong‘i osmondagi yulduzlar porlaydi, qal‘a esa oppoq qor bilan qoplangan. U o‘z tuynugi yonida paxtalik kamzulga o‘ralib o‘tirib olgan, sovuq toza havodan to‘yib nafas olardi, o‘lmay tirik qolganiga oz bo‘lsada xursand. Darmonsizligi tufayli gandraklayotganini hisobga olmaganda, tashqaridan deyarli sog‘lom bo‘lib qaytdi. Qora moyli shashka yoqib bir kotelok suv isitdi, uning ichiga bir banka konserva qilingan go‘sh tashladi va birinchi marta ishtaha bilan ovqatlandi, so‘ng hamma paxtalik kamzullarni ustiga yopib yotdi. Endi yana o‘z kuchiga ishonardi u, yana tun va kunlarni sanay boshladi, lekin faqat bugun qaysi sana ekanini aniqlay olmasdi.

Ertasi kuni qurolini tozalab, diskalarga o‘q joyladi. U anchadan buyon o‘z uchastkasini aylangani yo‘q, anchadan buyon soqchilarni «ov»lamadi, endi esa, o‘ch olish ishtiyoqida hamlaga hozirlik ko‘ryapti. U tirik edi, o‘zini hamon jimgina qor ostida yotgan Brest qal‘asining xo‘jayini hisoblardi. Bu asosiy vazifadan tashqari uning yana boshqa

shaxsiy vazifasi ham bor. Mirra haqida o'ylardi u. O'ylaganda ham, xuddi o'zidan-o'zi sir tutgandek, bamisoli tantanali buyruqqa xilof ish qilayotgandek, go'yo kimdir ana shu buyruqning bajarilishini kuzatib turgandek o'ylardi. Shu bilan birga o'sha martabali nazoratchi doimo uning yonida turib nazorat qilayotgandek his etardi va shunday kun kechirardi. Shuning uchun ham nima o'ylagan bo'lsa, o'sha nazoratchini chalg'itib o'ylayotgandek bo'lardi. Bir narsani o'ylab, o'zicha reja qilar va shu rejani amalga oshirish uchun o'zidan-o'zi beruxsat jo'nab qolardi.

U birdan shahodatnomasiga nomeri yozilgan, o'zining shaxsiy pistoletini topish harakatiga tushib qoldi. U o'zining dastlabki shaxsiy qurolini harbiy bilim yurtini tamom qilgan kuni safda turganlar oldiga chiqib olgan va birinchi qo'l yangi paytidayoq yo'qotgan. Hozir u o'sha birinchi qo'l jangini juda yaxshi eslaydi, chunki o'shanda pastki jag'i majaqlangan badbashara nemis uning oldiga alahlab kelib, oyog'idan tortar, murdaga o'xshab sovuq tirjayar, Salnikovdan esa dom-darak yo'q, nazarida u endi hech qachon kelmaydi va uni bu dahshatdan hech qachon xalos etmaydi. Sovuq ter bosib uyg'onar ekan, u o'sha birinchi kunni – Salnikov va Denishchik bilan uchrashganini, hamda birinchi jangni aniq eslashga harakat qildi. Shuningdek, unga berilgan shaxsiy pistoletni sharmandalarcha yo'qotganini ham esladi.

Kostelgacha hech qanday shov-shuvsiz, tinchgina yetib oldi u. Uning ichiga kirishi oldidan odati bo'yicha atrofga bir nazar tashlagan edi, dahshatli musibatlar keltiruvchi yangilikni ko'rib, hang-u mang bo'lib qoldi. Qor garchi ko'p yog'magan va faqat g'ishtlarni bosib hatlab yurgan bo'lsa ham, uning ortidan iz qolibdi, izlarni esa, yo'qotib bo'lmaydi. Yana qor yog'sagina bu izlar bosilib, yo'q bo'lishi mumkin, havo esa, aksiga olgandek, ochiq, musaffo. Kostelga kelgandan endi xursand emasdi u, qaytish esa, yanada xavfli: iz, harqalay, izda, dushmanga yo'l ko'rsatadi. U biroz ikkilanib turgach, nima bo'lsa ham kostelda bir necha kun tunashga va o'z kazematiga qorong'i tushgach ketishga ahd qildi. Balki, ertalabgacha qor yog'ib, bosilgan izlarni ko'mib yuborsa ajab emas. Qishning sof sovuq havosi pastqam va xilvat joylarning hammasini shamollatgan: qachonlardir nemislarni eshik oldida to'xtatib, uni o'limdan asrab qolgan qo'lansa hid yo'q edi hozir. To'g'ri, o'shanda to qorong'i tushguncha – namoyish tugab, mehmonlar tarqalib, askarlarni olib ketgunlaricha yuqorida, deraza tokchasida

biqinib o'tirishga majbur bo'lgan. Tim-qorong'ida karnizdan yurib, mo'jiza tufayligina ag'anab tushmadi, eson-omon yetib oldi. O'shanda hamma ish joyida bo'lgandi, endi esa, avvaliga quvonch baxsh etgan qor dushmanga sherik edi.

Tong sukunatiga xavotirlanib quloq tutar ekan, to'xtovsiz mana shular haqida o'ylardi u. Sovuq havoda atrofda ovozlar – mashinalarning guvillashi, qor ustidan yurgandagi g'arch-g'urchlar, uch arkli darvoza yonida bir-birlariga qor otib o'ynayotgan nemis askarlarining o'yin-kulgisi aniq eshitila boshladi. Dastlab bu ovozlarga hushyorlik bilan quloq soldi u, vaqt o'tishi bilan uning diqqat-e'tibori asta-sekin bo'linib, kostel uning uchun qanday xotiralar saqlagani haqida o'ylay boshladi. Kostel ichiga qaragan sari jangda halok bo'lganlar va faqat uning xotirasida qolganlar sharpasi shafqatsizlik bilan qurshab ola boshladi uni.

U birinchi marta kostel ichiga sakrab tushgan derazani darrov topdi. Bu xuddi o'sha deraza, ikkinchi derazaga qarab ham o'tirmadi u. Dastlab hujumga o'tish paytida mana shu derazani o'zi tanlab, o'zi uning qarshisida qo'rqqoqlik qilgan, chegarachi esa, bu qo'rqqoqlik uchun jonini qurbon qildi. Bu xil voqealarni unutib bo'larmidi: u aslida qo'rqqoq bo'lmagani uchun bularning hammasi esida bor. Hatto, uning uchun mo'ljallangan o'q halok bo'lgan chegarachiga tegib, quyuqlashgan qon unga sachraganini ham unutgani yo'q.

Lekin bu narsa keyin bo'lgan edi. Bundan oldin esa, tutun bosgan kostelga ag'darilib tushib, kimnidir urdi, kimnidir otdi, qayerdadir shu atrofda pastki jag'i majaqlangan badbashara nemis uning oyog'idan ushlab oldi. Pistoletini mana shundan avval yo'qotgan... Avvalmi yoki keyinmi? Yo'q, avval uni qo'ndoq bilan urishganda bir chetga uchib ketgandi, keyin hushiga kelib qarasa, pistoleti yo'q. Demak, nima bo'lgan bo'lsa hammasi mana shu atrofda, loyshuvoq kesaklarni, maydalangan g'isht va ko'karib ketgan bo'sh gilzalar ayqash-uyqash bo'lib yotgan joyda sodir bo'lgan. G'ishtlarni oyog'i bilan u yoq-bu yoqqa turtib, kostel ichini aylandi u. Har tomonda avtomatning o'qdan bo'shagan magazinlari, o'qsochar lentasining uzilib qolgan parchalari, majaqlangan flyagalar, lojadari mayishib, qo'ndog'lari singan miltiqlar, qo'l o'qsocharining zang bosgan lentalari – urush chiqindilari sochilib yotardi. U qalbida avaylab saqlayotgan – bir paytlar dushmani larzaga solib, hozir ovozlari abadiy tingan lash-lushlarni ushlab ko'rdi.

Aslida, ularni xotirada saqlayotganini va ular hamon uning qalbida jaranglayotganini bilmasdi u. Bu sokin kimsasizlikda yolg'iz o'z zimman deb o'ylab turgandi, sukunat yo'qolib, yolg'izlik chekindi, o'tmish uning o'ziniki, boyligi va faxri ekanini birdan tushunib yetdi. Demak, u yolg'iz emas, chunki hayotning eng og'ir va jarangdor bo'lagi hisoblangan o'tmish bor.

– O'lmayman, – ovozini chiqarib gapirdi u. – Baribir o'lmayman, yigitlar.

Uning ovozi quvillagan kazematda g'alati jarangladi. Ovoz sovuq havoda suzib, devorga astagina urildi va yorilib shikastlangan gumbaz tomon baland ko'tarildi. U o'z ovozigacha quloq solib, turgan joyida qotib qolganicha ovozini kuzatar ekan, shu daqiqa tashqaridan qandaydir g'ala-g'ovur eshitilgandek bo'ldi. Hali hech narsani tushunmay, aniq-lamay turib deraza tokchasi tomon o'zini otdi va uning bir chekkasiga biqinib asta bo'ynini cho'zib qaradi. Qaradi-yu, shu onning o'zida unga hamroh bo'lgan o'tmish to'satdan g'oyib bo'ldi: nemislar kostelni asta-sekin qurshab olishayotgan edi.

Ular hali halqa uchini birlashtirishmagan, balki ataylab shunday qilishgandir, balki shoshganlaridan yagona tirqishni – yalanglik orqali va Oq saroy xarobalari tomon o'tadigan yo'lni unutishgandir. Kuppakunduz kuni, oppoq qor ustidan qora sharpaning yugurib o'tishi aqlga to'g'ri kelmaydigan ish, mutlaqo mumkin emas. Lekin u hozir bu haqda o'ylab o'tirmadi, u yashashi kerak, agar o'ladigan bo'lsa – erkin o'lishi kerak. Ko'p o'ylab o'tirmay derazadan sakradi va qomatini tik tutib, orqasiga qaramay yugurib ketdi. Hozir bir daqiqani ham qo'ldan boy berishi mumkin emas. Yarim yo'lga yetganda hayqiriq va o'q ovozlari eshitdi, lekin yiqilmadi, to'xtamay yugurib ketaverdi, oyoqlari yoniga kelib tushayotgan o'qlar qorni to'zitib yuborardi. U xarobazorga o'qdek otilib kirdi va bir zum ham to'xtamay ichkariga yugurib ketdi. Tashqaridagi oppoq qordan so'ng ichkariga kirgach, u hech narsa ko'rmay qoldi, shunday bo'lsa ham devorlarga urila-surila yugurib ketaverdi, kuchining boricha yugurdi, yana yugurdi, so'ng birdan to'xtadi-yu o'zini yerga tashladi. Yugurishga madori qolmadi, nafas olishga havo ham yetishmasdi, hozir shiddat bilan urayotgan yurakdan bo'lak hech narsa yo'qdek edi. Lekin u nafasini rostlab ulgurmadi. Qayerdandir, ancha uzoqlardan, lekin gumbaz ostidagi yer-to'ladan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gap va oyoq ovozlari eshitila boshladi. U arang o'rnidan turib, gandraklaganicha ichkariga – zimiston qa'riga

yugurib ketdi. U hozir qayoqqa ketayotgani bilan ishi yo'q, ana shu eshitilayotgan ovozlardan nari ketsa bas.

Bu yerto'lalar unga notanish. Bu joylarni keyinchalik yaxshilab o'rganmoqchi edi-yu, lekin betob bo'lib qoldi. Mirrani kuzatib qo'ygandan buyon bu joylarda biron marta ham bo'lgani yo'q. Shuning uchun hozir o'ydim-chuqurlarga, do'ngliklarga qoqila-suqila ko'r-ko'rona yugurar, orqasidan quvib kelayotganlarning to'pir-to'piri eshitilib turardi. Uning bir o'zi ekanligini bilgan nemislar, mutlaqo cho'chimasdan yerto'lalarni bir chetdan xotirjam titkilab chiqishayotgandi.

Navbatdagi muyulishdan so'ng u raxna borligini payqab qoldi va o'zini uning ichiga tashladi. Bu yerdan ketish kerak, bir amallab aylanma kazarma xarobalariga yorib o'tish kerak, chunki nemislar aylanma kazarmani o'rab olisholmaydi. Lekin kazarmaning unga tanish bo'lgan qismi kesib qo'yilgan. U raxnadan sakrab chiqdi-da, qaramasarsshi tomonga – qo'rg'onning eng chetdagi janubi-sharq tomoniga yugurib ketdi.

Uni yana bir bor ochiq yalanglikda yugurishga jur'at etishi nemislarning xayollariga ham kelmagan bo'lsa kerak. U orqasidan o'q otilmay turib, hovlining deyarli hammasini kesib o'tishga ulgurdi. U go'yo o'zi ataylab o'lim izlayotgandek, qomatini tik tutib, ilonizi qilmay, yiqilmay to'ppa-to'g'ri yugurardi. O'lim yana shafqat qildi unga: nemislar otishni birdan to'xtatishdi, kazarma bo'ylab hayhaylashib yugurib, uning oldidan kesib chiqmoqchi bo'lishdi. Uni tirik asirga olish niyatida otishni to'xtatishgandi ular.

Keng, katta raxnaga u harqalay birinchi bo'lib yetib keldi va uning ichiga yashirindi. U o'z hayotini, ozodlikni asrayotgani, himoya qilayotgani uchun ham vaqtdan qandaydir lahzani yutdi va birinchi bo'lib yetib keldi. Bu lahza orqaga bir o'girilib qaraganda, yugurish befoyda ekanini anglashga yetardi, xolos. U raxna ichida turib avtomatni yelkasiga tiradi va bir necha marta qisqa-qisqa o'q uzdi. Majolsizlangan qo'llarida sakrab o'ynardi avtomat. Uning otgan o'qi hech kimga tegmagan bo'lsa ham, nemislar darrov tarqalishib, yerga yotib olishdi. U nemislarning o't ochib javob qaytarishlarini biroz kutib turdi-da, yana bir necha bor o'q uzdi, so'ng o'qi tugayozgan avtomatni devordagi g'isht ostiga tiqib, yon tomondagi xonaga o'zini otdi. Bu joy otxona edi: kuyundi isi ham, sovuq ham ta'sir etmagan go'ng hidi anqib turardi. De-

vor tagidagi burchakka anchagina qurigan go'ng uyub qo'yilgan ekan. U o'ylab o'tirmay, go'ngning muzlagan ustki qatlamini olib tashlab, jon-jahdi bilan uni kavlay boshladi. Hamon o'q ovozlari eshitilardi tashqaridan.

U bo'lsa yumronqoziqqa o'xshab to'xtovsiz kavlar, go'ngning ichiga chuqurroq kirishga intilardi. Qo'shni xonadan gaplashgan ovoz va oyoq tovushlarni eshitgandagina jim bo'lib qoldi u. Yaqin o'rtadagi hujralarni ag'dar-to'ntar qilib uzoq qidirishdi: ovozlarni dam uzoqlashtirish, dam juda yaqindan eshitilardi. Garchi hozir nihoyatda qiyin bo'lsa ham, nafas olmasdan qimirlamay turishga intilardi u: jonsarak yurak aslo tinchiy demasdi. Darmonsizlikdan va qo'rquvdan ter bosib ketgandi uni, chunki go'ng uyumi tomon otilgan har qanday daydi o'q, uning uchun o'lim bilan barobar edi. Hatto tasodifiy qiziqish ham uning shu yerdaligini bildirib qo'yishi mumkin, lekin hozircha uning bu yerdan hech qayerga ketmaganligi, nemislarning aqliga kelgani yo'q.

Keldi, kelganda ham ularning hamma urinishlari chippakka chiqqandan so'ng, kechikib keldi. Ularning o'zaro shang'illab gaplashib shu yerda to'planib turishgani eshitildi. Shundoqqina boshi ustidan kimdir yurayotganini sezdi va go'ng uyumiga butun vujudi bilan yanada singib ketdi, o'sha og'ir va salmoqli oyoq uning butun gavadasi bo'ylab yurdi. So'ng u g'alati vishillagan ovoz eshitdi, hech narsaga tushunmadi, ammo shu damdayoq sirqiragan og'riq sezdi: o'tkir nayza qovurg'a terini shilib biqini yonidan o'tib ketgan edi. Og'riqni sezishi bilan sovuq ter chiqib ketdi undan, hozir nemis nayzani sug'urib oladi, uning uchi qon bo'lganini ko'rishadi, shu bilan hamma narsa tamom bo'ladi. Lekin nayza yuqoriga ko'tarilib yana uyumga sanchildi, bu safar yelkasidan bir santimetr naridan o'tib ketdi, yana yuqoriga ko'tarildi, yana sanchildi, so'ng ustidagi og'irlik birdan yo'q bo'lib, salmoqlab bosilgan oyoq tovushini eshitdi, nayza sanchayotgan nemis uning ustidan pastga — otxona poliga tushgan edi.

Hatto, oyoq tovushlari uzoqlashib, ovozlarni yo'qolgan paytda ham qimirlamay yotaverdi u. Biqinidagi shilingan joy qattiq achishardi, qon oqardi undan, uvishgan qo'l va oyoqlari asta-sekin qotib qolayotgan bo'lsa ham qimirlamay yotardi. Qutulib qolganiga ishonar, yana ishongisi kelmas, yana ishonar, lekin tavakkal qilgisi kelmasdi, hushdan ketayotgan bo'lsa ham, butun vujudini qamrab olayotgan jimlikka

bardosh berardi. O'qtin-o'qtin u jahannam qa'riga tushib ketgandek bo'lar, yana qaytar, yana tushib ketardi. U shu qadar qotib qolgan ediki, yarasidan qon oqayotgan yoki to'xtab qolganini ham sezmasdi, shu holatda qotib qolganicha bu uyumdan endi bir umr chiqa olmasam kerak, degan xayolga borardi ba'zida, lekin shunday bo'lsa ham qorong'i tushmaguncha chiqmay yotaverdi.

Tashqariga zo'rg'a chiqib oldi u. Jon kiritish va isitish uchun qo'llariga urdi, oyoqlarini ishqaladi. Yaradan oqayotgan qon to'xtagan, ko'ylagi qurib qolgandi. U yaram qanday ekan deb qarab ham o'tirmadi, chunki uni bog'laydigan hech kim va hech narsa yo'q edi. O'rnidan turib bir necha qadam bosdi-yu, yana birdan o'tirib qoldi: oyoqlari bo'ysunmayotgandi unga, qotib qolgan badanida shunday og'riq boshlandiki, qichqirib yubormaslik uchun yengini tishladi. Holbuki, ketish, o'z kazematiga yetib olish, uning ichiga kirib, qor yog'guncha poylab o'tirish kerak.

Garchi oyoqlari avvalgidek bo'ysunmayotgan bo'lsa ham u o'zini turishga majbur qildi, og'riq biroz pasaygan bo'lishiga qaramay hamon zirqirab turardi. U gandarab sudrala-sudrala chiqadigan joyga yetib keldi va g'isht orqasidagi avtomatini topdi, tashqariga chiqmasdan avtomat diskasini almashtirdi. U har doim yonida ortiqcha disk olib yurmasa ham, bugun nima uchundir olib chiqqan edi. Mana endi uning yana quroli bor. U hatto birinchi diskadagi o'qlarni silkib tushirdi va cho'ntagiga solib qo'ydi, sakkizta ekan, diskni esa, avtomatni berkitgan joyga – g'ishtlar orqasiga yashirib qo'ydi. Nayzaga qon yuqmagani uning baxti bo'ldi. Yo qon nayzaga yuqib ulgurmas, yoki bo'lmasam, nayzani sug'urib olayotganda o'zi tozalanib qolgan. Nima bo'lganda ham, uning omadi bor ekan, har bir qadamni hozir ming azob bilan tashlayotgan bo'lsa ham, ishi o'ngidan kelgani uchun miyig'ida kulib qo'yardi.

U uyi tomon borar, shu narsagina unga kuch berib turardi hozir. Uyiga – ovqat, suv, issiq kamzullar bor joyga ketyapti. U joydagi hamma narsa Mirrani eslatib turardi. Mirra haqida o'ylashdan to'xtamasdi, hatto alahlab yotgan paytda ham u haqda o'yladi. So'nggi bor yo'l yoqasida ko'rgandi uni: g'isht taxlayotgandi. Keyin esa, uni ko'zdan yo'qotdi. Lekin u, Mirra ayollar orasida, ular uni xuddi o'z odamlari singari qabul qilishdi deb bilardi. Ayollarni safga tizib, nima uchundir uzoq turg'izib qo'yishganini ham ko'rdi, safdagilar orasidan ham Mirrani topishga harakat qildi, lekin kech kirib, qorong'i tu-

shib qolgani uchun, ayollar bir-biriga qo‘shilib ketaverdi, shu boisdan uning qayerdaligini aniqlay olmadi va o‘zicha safning o‘rtasiga kirib olgan bo‘lsa kerak deb o‘yladi. Undan keyin kolonnani olib ketishdi, maydon huvillab bo‘shab qoldi: u yana biroz qarab turdi-da, so‘ng o‘z kulbasiga qaytdi. Yo‘lda kelar ekan, gam va shodlik kurashardi uning qalbida, Mirraning qal‘adan sog‘-omon chiqib ketish shodligi bu kurashda g‘olib chiqardi. U hozir ham quvonardi bu narsaga, chunki bundan avvalgilarni hisobga olmaganda, boshqa hech qanday quvonch bo‘lmagandi unda.

Hech narsa anglayolmay, u birdan to‘xtadi: qal‘aning unga nihoyatda tanish, har bir g‘ishtini biladigan qismini mutlaqo tanib bo‘lmasdi. Lekin portlash natijasida tartibsiz sochilib, qor tegmagan toza gishtlar unga mutlaqo notanish edi.

Kazematga olib boradigan tuynuklar ham yo‘q. Tuynuk ham, kazemat ham, qurollar ham, ovqat ham yo‘q: hammasi ostin-ustun bo‘lgan g‘isht tagida qolib ketgan. Butun o‘tgan hayoti, kelajakka bo‘lgan umidi, hamma-hammasi ko‘milib ketgan edi. Qor faqat uning o‘ziga emas, yashirinadigan joyiga ham xiyonat qildi: nemislar tuynukni topib, uni portlatib yuborishdi, u bo‘lsa bu portlashni hatto eshitgani ham yo‘q. Endi uning: diskiga o‘q to‘latilgan avtomati, cho‘ntagidagi sakkizta o‘q, yelkasidagi paxtalik kamzuli va cho‘ntagidagi ikki dona qoqnoni qoldi, xolos. Boshqa hech narsa yo‘q. Birdan u tizzalari bo‘shashib, g‘isht ustiga vazmin o‘tirdi. Yana nimam qoldi ekan, degan xayol bilan qimirlamay uzoq o‘tirdi. Unda esa, qahr-g‘azabga to‘la yashash istagi, o‘lik qal‘a va nafrat bor edi. Shuning uchun u o‘rnidan turdi-da, orqaga, aylanma kazarmaning yerto‘lalarini tomon yurdi.

2

Tunni u xilvat hujraning sovuq polida mudrab o‘tkazdi. Sovqotdi, o‘rnidan turib yurdi, yana o‘tirdi, sovuq turg‘azib yubormaguncha o‘tiraverdi. Yashirinadigan joy, ovqat, qurol va kiyim-kechak qidirish kerak. Biron narsa topishiga ishonardi u, shuning uchun ham tong g‘ira-shira yorishishi bilanoq o‘rnidan turib notanish yerto‘lalar oralab yurib ketdi.

Endi u avval e‘tibor bermaydigan narsalar – miltiq moyi solingan idish, bir yengi kuyib ketgan paxtalik kamzul, o‘qlar – hamma-

sini yig'ishtirib ola boshladi. O'qlarning qaysi biri bo'lmasin, xoh o'zimizniki, xoh nemislarniki, hammasini olib yaxshilab artar va kalibrini kalibriga to'g'rilab boshqa-boshqa cho'ntagiga sanab solardi. O'q endi hisob-kitobli bo'lib qolgani uchun, avtomatini oldindan bita-bitta otadigan qilib qo'ydi.

Qachonlardir qoqnon topganida quvongani singari bitta topgan narsasi quvontirib yubordi uni, agar qoqnon topganida hozir ham o'sha paytdagidan kam quvonmagan bo'lardi. U bir magazin o'qi bilan o'zi o'qlanadigan SVT markali Tula miltig'ini topib oldi. Uning ichini ochib moyladi, so'ng qismlarini yana joy-joyiga qo'yib, zavorini sharaqlatib ko'rdi. Boyoq xuddi yangi miltiqniki singari ishlayapti, faqat yarim avtomat holatda ishlaydimi, ishlaymaydimi, shunisi noma'lum, chunki miltiq g'ishtlar ostida uzoq muddat zang bosib yotgan. Bu miltiqning ana shunday injiq tomonlari bor, buni u harbiy bilim yurtida o'qigan paytidan biladi. Bilish uchun esa, faqat jang paytida sinab ko'rish kerak: u yana yangidan magazinni to'latdi va o'qni stvolga joylab, otishga shay qilib qo'ydi. Mana shu shodlik sharafiga so'nggi qoqnonni yedi: birinchisini esa, kechasiyoq tinchitib qo'ygan edi. Notanish yerto'lada miltiqni ushlagancha u yoqdan-bu yoqqa yurardi u. Ensiz raxnaga bulutli qish kunining g'ira-shira yorug'i tushib turibdi. So'nggi qoqnonning ushogini ham qoldirmay yeb bo'lishi bilan, uzoqdan tushunib bo'lmaydigan begona ovoz eshitildi. Raxna yoniga kelib, asta mo'raladi: uncha uzoq bo'lmagan masofada uch kishi turardi. Ulardan birining bo'yi novcha, qomati ham kelishganroq.

Nima uchundir ustiga och-ko'krang paxtalik kamzul kiygan o'sha novcha tanishdek tuyuldi unga. Yo'q, uning hech qanday tanish-panish emasligini bilardi u, lekin masala shunda ediki, o'sha novchani ko'rishi bilan, kecha quruq go'ng ichida yotganida yelkasidan bosganga o'xshagan og'irlik his qildi o'zida. Novchanning miltig'i ham boshqalarnikidan uzunroq, to'rt qirrali nayzasi ko'tarilgan edi.

Zangor rangdagi sovuq nayzani ko'rishi bilan biqinida yana og'riq sezgandek bo'ldi: lat yegan qovurg'a qattiq sirqiray boshladi. Kecha nayzaga nima uchun qon yuqmaganligi endi ma'lum bo'ldi: nayzani u sanchgan-u sug'urgan, uning qirrasiga yuqqan qonlarni esa, sug'urib olish paytida paxtalik kamzul o'ziga shimib olgan. Ma'lum bo'lishicha, kechagi uning baxti – nemis xanjarini

emas, o'zimizning to'rt qirrali nayzani sanchganlarida ekan, nayza o'zida qon saqlab qolmadi, sotqinlik qilmadi unga. Demak, nayza aybdor emas, nayza tig'ini unga sanchgan qo'llar aybdor.

Miltiqni qo'lga oldi u: uni shu bugun topgani juda yaxshi bo'ldi-da, mana, darrov asqatdi. Ishqilib pand bermasa bo'lgani, nima qilganda ham SVTning injiqligi bor. U, orqasini o'girib turgan novchani ko'z qisib nishonga oldi... Lekin ko'z oldi jimirlashib, nishonga olinayotgan gavda xiralashib, yaxshi ko'rinmay qoldi. U ko'zini ishqalab, yana nishonga oldi, gavda yana xiralashib ketdi. Avvallari sira bunday bo'lmagan, ko'zi juda o'tkir edi. Hozir esa ko'zi xiralashib borayotganini darrov anglab oldi... O'ng ko'zi ko'proq xiralashib qolgandi.

Buning uchun ko'nglini g'ash qilishni o'ziga ep ko'rmadi. U ikkinchi ko'zini ham ochdi-da, mushkani ikkala ko'zi bilan to'g'rilab nishonga olaverdi. Bunday ko'zlashga odatlanmagan bo'lsa ham, miltiq stvolini kerak tomonga to'g'riladi-da, tepkini asta bosdi. Varanglagan o'q ovozi bilan bir paytda, novchanning qo'llarini yoyib g'ishtga yuztuban yiqilganini ko'rdi u. Tepkini yana bosgan edi, avtomati yaramay, ikkinchi o'q otilmadi. Qaytadan o'qlashga esa, vaqt yo'q, tezroq bu yerdan ketish kerak, chunki u bu yerto'lalarni yaxshi bilmaydi.

Tez yurib borardi u, ba'zida to'xtab-to'xtab hujra va chiqadigan joylarga ham nazar tashlab o'tardi. Qayerdandir orqa tomondan ovozlari va avtomatning ketma-ket tarillangani eshitildi. Nemislar izma-iz quvib kelishardi, agar uning o'zi tasodifan biron ta boshi berk hujraga kirib qolmasa, yerto'la ichida ulardan uzoqlashib ketish mumkin. Hujra-pujraga kirib qolgudek bo'lsa, jang qilishga to'g'ri keladi, lekin bu jang so'nggisi bo'ladi. Bir marta ana shunday joyga kirib qolganda, fahmlab qolib tezda chiqib ketgan, endi esa, shoshmaslikka jazm qildi u, chunki nemislar hamma teshik va tuynuklarni birma-bir yoritib yoki bo'lmasam mash'ala tutib yerto'la bo'ylab asta harakat qilishyapti.

Har nima bo'lganda ham, yotib dam oladigan joy topish kerak: beto'xtov ketaverishning imkoniyati yo'q, biron joyga borganda nemislar iskanjaga olishlari mumkin. Timqorong'i yo'laklarni paypaslab, ana shunday yashirinadigan joy qidirardi u. Shunday joy topish kerakki, o'sha teshik yoki tuynuk orqali orqaga o'tish mumkin bo'lsin yoki bo'lmasam, o'sha joyda poylab yotib nemislarni o'tkazib yuborish

kerak-da, so'ng ular yoritib, o'q otib tekshirib ko'rishgan hujralarning birontasiga kirib olish lozim.

Qidirib-qidirib u shunday teshik topdiki, uncha-muncha odam sezmasdi uni. Teshik yerto'la devo'ning pog'onasi ortida yer bag'irlab joylashgandi. O'tadigan joy – yo'lak shu qadar qisqa ediki, shu yerda yo'lak borligi hech kimning xayoliga kelmasdi. Ko'ndalang raxna nihoyatda tor, yo'lakdan bir metr narida burchak hosil qilib, cho'rt burilgan: u o'sha tomonga – lahaddek timqorong'i, lahaddek jimjit joyga yonboshi bilan emaklab, sirg'alib o'tdi. O'tib olgach, hujraning katta-kichikligini aniqlamay turib darrov tuynuk tomonga o'girildi-yu avtomatni to'g'irladi. Ustalik bilan, mohirona ishlangan yo'lning u yoq-bu yog'iga qaramasdan o'q, bu joyning nihoyatda qulay ekanini fahmladi darrov. Nemislarning ovozi deyarli eshitilmasdi bu yerda, hozir u ustida yotgan qum esa, mayingina, hattoki iliq. Bular bari unga qo'l kelib, hozircha ishining yurishganidan dalolat edi.

Oyoqlarning tapir-tupuri qumga ta'sir etib, butun tanasi bilan sezib turardi uni. Oldindagilar mana hozir qorong'i yo'lakka kirib kelishyapti: qalin qum ortidan ketma-ket otilgan o'qning bo'g'iq ovozi eshitildi. Avtomatni bir tirillatishdi, endi undan nariga – navbatdagi hujra tomon yugurishadi. Yugurganicha o'tib ketishdi, qisqa yo'lakda to'xtashmadi.

Nemis etiklarining uning qulog'ida o'rtnashib qolgan dupur-dupuri borgan sari uzoqlashib, asta so'na boshladi. U yengil uf tortib, avtomat predoxranitelini tushirib qo'ydi.

– O'tib ketdilaringmi, gazandalar?

Qorong'ilikdan xirillab chiqayotgan ovozni eshitib, cho'rt burildi u. Yurak taka-puka bo'lib ketgandi:

– Kim u?

– O'zing-chi? O'zing kimsan?

– O'zimizniki!

– Men ham, hattoki sendan yaqinman o'zimiznikilarga! Necha kishisizlar?

– Bir o'zim.

– Eng oxirgisimisan?

– Sanaganim yo'q. Sen qayerdasan o'zing?

– To'xta, chiroqni yoqay. Sham juda kam qolgan, ehtiyot qilaman, mayli, bunday uchrashuv xursandchiligi uchun yoqsa bo'ladi.

Chaqilgan gugurt zimiston qo'ynidan ro'dapo yeng ichidagi ozg'in uzun qo'l va bir tutam oq oralagan qora soqolni yulib olgandek bo'ldi. Ozg'in qo'l yoqilgan gugurtni yashik ustidagi sham qoldig'iga olib keldi. Sham yoqilishi bilan paxtalik kamzul ustidan kamarni mahkam tortib bog'lab olgan arvoonga o'xshagan ozg'in gavdani ko'rdi u. Yarim oqargan soch o'sib yelkaga tushibdi, ikki qo'l u tomon cho'zilgan, faqat ko'zlarigina javdiraydi. U o'sha cho'zilgan qo'llar tomon o'zini otdi.

– To'xta, birodar! To'xta, azob berma menga. Oyoqlarim ham qat-tiq og'riydi, o'pishishni unutib qo'yganga o'xshaymiz. Qo'lingni ber, birodarim, hamyurtim, menning sovet askarim, qo'lingni ber. Bo'ldi, shunday qimirlamasdan tur, bir tikilib ko'rib olay seni. Yengisha olmadi, a, bizni, gazandalar? Na avtomat bilan, na portlagich moddalar bilan va na to'plar bilan, baribir yengisha olmadi bizni. Yengisha olmadi!..

Ozib, holdan toygan bu odam tantanavor kular, ko'z yoshlari esa, soqollari ustidan yumalab tushardi, Kular, qaltirar, gapirar va yana gapirar va yana gapirardi:

– Sen meni kechir, birodar, ko'zlarimdan yosh oqayotgani uchun kechir, azizim. Shunday qilishga haqqim bor meni. Uch haftadan buyon inson bolasini ko'rganim yo'q, zimistonda yotibman, ko'rish u yoqda tursin, ovozini ham eshitganim yo'q, endi o'zim bilan o'zim gaplasha boshlagan edim. Ha, undan keyin biroz kamquvvat bo'lib qolganman, bu bor gap. Shunday bo'lgach, avval gapirib olay, yaxshilab qaray senga, keyin tanishaveramiz. Avval to'yib qaray-chi yuzingga. Qanday qilib tirik qolding-a, azizim, ukaginam, qanday azoblarni boshingdan kechirding, qanday chidading hammasiga?

– Chidadim, – qarshisidagi mana shu soqoli oqarib ketgan odam singari shodlikdan yig'lay olmagani uchun afsuslanib gapirdi u. – Demak, bir o'zingsan, shundaymi?

– Avvaliga juda ko'pchilik edik. Mana shu uyani topib, unga yo'l qazib keldik. Keyin to'rtta qoldik. Bundan uch hafta avval – oxirgisi ham qaytib kelmadi. Mana, o'shandan buyon yolg'iz yotibman. Oyog'im xuddi yo'qqa o'xshaydi. Tizzam bilan emaklab surilishim mumkin-u, lekin yura olmayman. Yurib bo'ldim nazarimda.

– Kimsan o'zing?

– Shu haqda o‘ylab ko‘rdim. Kimman men endi? Nemislar topib olsa-yu, men o‘zimni otib tashlashga ulgurolmay qolsam, kim deyman o‘zimni. Men shunday demoqchi edim: rus askariman men. Ismim ham, unvonim ham rus askari. To‘g‘ri o‘ylagan ekanmanmi?

– Nemislarga aytmoqchi bo‘lgan bo‘lsang – to‘g‘ri. Men o‘zimz nikiman-ku, leytenant. Plujnikov.

– Qaysi polkdansan?

– Hali ro‘yxatdan o‘tmagan edim, – kulib qo‘ydi Plujnikov. – So‘zlash navbati mendanmi endi?

– Ha, endi sendan.

Plujnikov o‘zi haqida hech narsani yashirmay, tafsilotlarga berilmasdan gapirib berdi. Haligacha o‘zini tanishtirishni istamayotgan bu yarador jangchi uning qo‘lidan ushlaganicha gaplarini diqqat bilan tingladi. U juda kamquvvat bo‘lib qiltillab qolgan, bu narsa uning qo‘llari holsizlanayotganidan ham ko‘rinib turardi.

– Mana endi tanishsak ham bo‘ladi, – Plujnikov hikoyasini tugatgandan so‘ng gapirdi yarador jangchi. – Starshina Semishniy. Mogilyovdanman.

Semishniyning yaralanganiga ancha bo‘lgandi: o‘q orqa umurtqasiga tekkani sababli, oyoqlar asta-sekin ishdan chiqib, jonsiz bo‘lib qolgandi. Oyoqlarini mutlaqo qimirlata olmas, lekin hamon bir amallab sudrardi. Agar ingramoqchi bo‘lsa ham, faqat tushida ingrar, boshqa payt chidar, hatto kulardi ham. Uning jangovar o‘rtoqlari ketishardiyu, orqaga qaytishmasdi, u bo‘lsa o‘lim bilan olishar, yashashga intilardi. Suv uch kun avval tamom bo‘lgan, biroz o‘q-dori va yegulik ovqat qolgan edi, xolos. Plujnikov tunda chiqib ikki chelak suv olib keldi.

– Sen jismoniy mashq bilan shug‘ullangin, – dedi Semishnik ertasiga ertalab. – Biz endi o‘zimizga beparvo bo‘lmasligimiz kerak, chunki sanchast yo‘q, yolg‘iz o‘zimiz qolganmiz.

U o‘zi bir kunda uch marta mashq qilardi. O‘tirib egilar, qo‘llarini bukib-yozib harakat qilar, nafasi tiqilib qolguncha mashqni to‘xtatmasdi.

– Ha, ko‘rinishdan faqat ikkovimiz qolganga o‘xshaymiz, – xo‘rsindi Plujnikov. – Bilasanmi, agar har bir kishi o‘ziga-o‘zi buyruq berib, ana shu buyruqni sidqidildan bajarganda edi, urush yozda-yoq, mana shu yerning o‘zida – chegarada tugagan bo‘lardi.

– Sen, faqat o‘zimizgina dovyurak deb o‘ylayapsanmi? – kulimsiradi starshnina. – Yo‘q, og‘ayni, men bu gapingga qo‘shilmayman, qo‘shila olmayman. Shu yerdan Moskvagacha necha chaqirimligini bilasanmi? Mingdan ko‘p bo‘lsa kerak. Ana shu har bir chaqirimda sen va menga o‘xshaganlar bor, ularning dovyurakligi, dushmanga bo‘lgan g‘azabi boshqalarnikidan kam emas. Buyruq masalasida ham noto‘g‘ri gapirding, har bir kishi o‘z buyrug‘ini emas, bergan qasamyodni bajarishi kerak. Qasam nima o‘zi? Qasam bu – bayroq yonida turib ont ichish demakdir. – Birdan o‘ta jiddiylashib, darg‘azab holda gapira boshladi u: – Ont ichdingmi, bajar uni! Bironta nemisni o‘ldirmasdan orqangga qaytma. Har bir o‘ldirilgan ablah uchun ikki kun ta‘til beraman, mening qonunim ana shunday.

Plujnikov ketishga hozirlik ko‘ra boshladi. Starshina uni kuzatib turar ekan, miltillagan sham nurida uning ko‘zlari g‘ayritabiiy yarqiradi.

– So‘ramaysanmi, nima uchun men senga buyruq beryapman?

– Chunki sen – garnizon boshlig‘isan-da, – kulimsiradi Plujnikov.

– Shunday qilishga haqqim bor meni, – asta, lekin juda keskin gapirdi Semishniy.. – Sizlarni o‘limga yuborishga haqqim bor. Qani, bora qol endi.

Semishniy shamni puflab o‘chirdi.

Bu safar u starshinaning buyrug‘ini bajara olmadi: nemislar ancha uzoqda yurishgani uchun, bexato otishga ko‘zi yetmadi va otmay qo‘ya qoldi. U uzoqdagi sharpani nishonga olar ekan, tekkiza olmasligini bilar, chunki keyingi paytda uning ko‘zlari xiralashib, yaxshi ko‘rmaydigan bo‘lib qolgandi. Endi dushman bilan tasodifan ro‘baro‘ kelib qolishga umid qilardi, xolos.

Lekin u aylanma kazarmaning bu qismida hech kim bilan ro‘baro‘ kelmadi. Nemislar boshqa joyda turishar, ularning orqa tomonida esa, allaqancha qora sharpalar ko‘zga tashlanardi. Bu qora sharpalar o‘sha – Mirra bilan qal‘adan chiqib ketgan ayollar bo‘lsa kerak deb o‘ylagandi u va ularga yaqinroq bormoqchi bo‘ldi. Balki bironta ayolni asta chaqirib gaplashish, Mirra haqida bilish, o‘zining sog‘-salomatligi haqida aytib yuborishning iloji bo‘lar.

G‘isht siniqlari qalashib yotgan zinapoyadan u bir amallab yerto‘la yo‘lagiga tushib oldi. Yo‘lak ham gisht bo‘laklariga to‘lib ketganligi

tufayli, engashib yurishga to'g'ri keldi. Ko'p o'tmay yo'lakni mutlaqo berkitib qo'ygan uyumga duch keldi va nemislar izni sezib qolmasliklaridan ilgari bu yerdan chiqib ketish harakatida shosha-pisha orqaga qaytdi. Yo'lak qorong'i bo'lgani uchun devorni qo'li bilan paypaslab yura boshladi va birdan bo'sh joyga chiqib qoldi: o'ng tomonga yo'l ketgan edi. U o'sha yo'lga o'tib, muyulishdan bir necha qadam tashlashi bilan huvillab yotgan kazematga ko'zi tushdi. Yuqoridan, ingichka teshikdan tushayotgan nur yorug'ida kazematni ko'zdan kechirdi: kazemat bo'm-bo'sh, faqat shinak qarshisidagi devor yoniga yozib qo'yilgan shinel ustida kiyimlari dabdala, o'zi qovjiragan murda yotardi.

U o'rnidan turib ketmoqchi edi-yu, lekin skeletga aylangan murda tagida hali ish beradigan, tiriklarga xizmat qilishi mumkin bo'lgan shinel yotardi. Starshina Semishniy sovqotib yotibdi, uning o'zi ham bitta paxtalik kamzul tagida uxlay olmayapti. U jasadga qo'l tekkiza olmay biroz ikkilanib turdi, lekin shinelni olish kerak, chunki u murda uchun mutlaqo kerak emas.

– Kechir meni, birodar.

U askar kiyimining etagidan ushladi-da, shinelni jasad ostidan astagina sug'urib oldi.

Shinelga o'rناshib qolgan murda isini ketkazish maqsadida uni bir-ikki siltab qoqdi, so'ng yoyib u yoq-bu yog'iga qaradi va allaqachonlar qotib sarg'ish rangga kirgan qon dog'ini ko'rdi. Shinelni taxlamoqchi bo'ldi-yu, yana undagi sarg'ish dog'ga qaradi, qo'lini pastga tushirib, kazemat ichini asta ko'zdan kechira boshladi.

U birdan kazematni ham: shinelni ham, burchakda yotgan jasadni ham, uning ko'krigidagi qora soqolni ham tanib qoldi va ovozi qaltirab gapirdi:

– Salom, Volodka.

Biroz turdi-da, Volodka Denishchik jasadi ustiga shinelni yaxshilab yopdi, atrofini g'isht bilan bostirib kazematdan chiqdi.

– O'liklar sovuqni sezmaydi, – dedi Semishniy, Plujnikov ko'rganlari haqida gapirib berar ekan. – O'liklar sovuqni sezmaydi, leytenant.

O'zi esa, hamma shinel va paxtalik kamzullar ostida sovqotar, bu gapi bilan Plujnikovning qilgan ishini ma'qullayaptimi, yoki tanbeh beryaptimi, tushunib bo'lmasdi. O'linga u juda xotirjamlik bilan qarar, o'zi haqida sovqotyapman deb gapirmas, hayotdan ko'z yumyapman, o'lyapman derdi.

– O‘lim meni asta-sekin maydalab tugatmoqchi bo‘lyapti, Kolya. O‘lim sovuq narsa, shinel bilan isitib bo‘lmaydi uni.

Uning oyoqlari kundan-kun jonsizlana bordi. U endi mutlaqo emaklay olmas, qaddini tiklab zo‘rg‘a o‘tirsam ham, mashqni to‘xtatmas, o‘ta qat‘iylik va qaysarlik bilan davom ettirardi. Taslim bo‘lgisi kelmasdi uning, tanasining har bir millimetrini o‘lim panjasiga qattiq jang bilan topshirardi.

– Agar ingray boshlasam, turtib uyg‘otgin. Uyg‘onmasam otib tashlayver.

– Sen, nima deyapsan o‘zi, starshina?

– O‘lik holda ham dushman qo‘liga tushishga haqqim yo‘qligini aytyapman senga. Bu ularga haddan ziyod shodlik bo‘ladi.

– Bu shodlikni o‘zi ham yetadi ularga, – xo‘rsindi Plujnikov.

– Bu shodlikni ular hali ko‘rganlari yo‘q! – Semishniy leytenantni to‘satdan o‘ziga tortdi. – Mo‘tabar narsani dushmanga berib bo‘lmaydi, o‘lsang o‘l-u, lekin bermagin.

– Hech narsa tushunmayapman. Mo‘tabar deganing nima u?

– Vaqti keladi – aytaman. Aytgunimcha, mening gaplarimni ilohiy deb qabul et. Ishon menga, o‘z nomimdan gapirayotganim yo‘q. Biroz dam olgandirsan-a? Avtomatni qo‘lingga olgin-u – yuqoriga, yuqoriga chiq, leytenant! Qal‘a tirikligini bilib qo‘yishsin. Nafaqat tirigimiz, o‘ligimiz ham dahshat solsin ularga! Bundan keyin Rossiyaga burun tiqmaslikni nevara, evaralariga ham aytib qo‘yishsin!

Plujnikov uni aqldan ozayotgan bo‘lsa kerak deb shubhalandi. Undagi qahr, darg‘azablik borgan sari avj olar va u leytenantni shiddat bilan yuqoriga haydardi. Plujnikov bahslashib o‘tirmadi: ko‘pdan buyon unda shafqatsizlikdan bo‘lak hech narsa qolmagandi, lekin undagi shafqatsizlik sovuqqon va maqsadga yo‘naltirilgan edi.

Yangi, 1942-yilning birinchi kuni uning omadi keldi. Nemislar yangi yilda qilingan kayfdan so‘ng yo hushyorlikni yo‘qotdilar yoki bo‘lmasam jonsiz qal‘aning tubsiz, qorong‘i tuynuklaridan ehtiyot bo‘lishni bilmaydigan yangilari kelishganmi, harqalay panadan turib ikkitasini yer tishlatdi. U, nemislar ta‘qibidan qochib, yerto‘lalar ichida uzoq yurdi va ancha uzoqlashib ketdi ulardan, chunki maydalab yog‘ayotgan qor izni bir zumda tekislar, endi uni tajribali iskovich it ham topa olmasdi. Ta‘qib qiluvchilarni u o‘z g‘orlaridan ancha uzoqqa – Xolmsk darvozasi tomonga adashti-

rib bordi. Shu yerga kelganda izni mutlaqo yo‘qotgan nemislar u yoqdan-bu yoqqa yugurishib, baqirib-chaqirishdi, o‘q uzishdi va orqaga qaytib ketishdi.

Starshinani xursand qilishni chin yurakdan istardi u, chunki keyingi kunlarda starshina o‘zini ancha oldirib qo‘ygan edi. Tez-tez hushidan ketib, kuchli og‘riqdan qattiq chinqirar, o‘ziga kelgach esa, jon talvasasida qaltirar, ter tomchilari labida qotib qolardi. Allaqachon jonsiz bo‘lib qolgan badanidagi hayot uchqunlarini o‘tkir irodagina tutib turardi.

– Ko‘rinishdan men, ungacha yashay olmasam kerak, – hushidan ketib, so‘ng yana o‘ziga kelganda alam bilan gapirdi u. – Senga qoladigan ko‘rinadi.

– Nima menga qoladi?

– O‘layotgan paytimda aytaman. Nima, urush tamom bo‘ldimi?

– Tamom bo‘lganga o‘xshamayapti.

– Nega o‘tiribsan bo‘lmasam? O‘qing bormi?

– Bor, – dedi Plujnikov, qor bo‘ralib turgan yangi yil tongi yer-to‘ladan chiqib ketar ekan.

Hozir esa kech kirgan, o‘lim to‘shagida yotgan odamning vaqtini chog‘ qilish uchun shoshyapti u. Lekin hali tuynukka yetmasdanoq, ancha naridagi kiradigan joydan ingragan ovoz eshitdi. Ovozining boricha qichqirayotgan Semishniy ekanligi aniq, hatto qalin qor uyumi ham uning ovozini to‘sa olmayapti.

Plujnikov shosha-pisha tuynukka sakrab tushdi va qorong‘i zimistonda sham qoldig‘ini paypaslab topib, yoqdi. Bu endi uning tamom bo‘lgani, yana bir aziz va yaqin kishi hayot bilan vidolashyapti deb o‘yladi va Semishniyni ovoz chiqarib chaqirmadi. Latta olib starshinaning peshonasidagi terlarini artdi va yonida hayron bo‘lgancha turib qoldi. Nemislar bu ovozni eshitdilar yoki eshitmadilar hozir unga baribir edi. U odamlarni kuzataverib charchadi, jang qilaverib charchadi, yashashdan ham charchadi.

Semishniy ingrashni to‘satdan cho‘rt kesdi-yu, jim bo‘lib qoldi. Endi tamom bo‘ldi deb o‘yladi Plujnikov. Lekin u ko‘zini ochdi:

– Alahlab baqirdimmi?

– Ha, baqirding.

– Nega uyg‘otmading? – Plujnikov indamadi. Semishniy xo‘rsindi. – Tushunarli. O‘zingni avaylagansan, rahm qilgansan. Qani aytchi, o‘zingni avaylashga haqqing bormi seni? Ona yerimizni dushman oyoq osti qilsa-yu, biz o‘zimizni avaylab o‘tirsak...

Semishniy qiynalib gapirar, nafasi qisib so‘zlarni aniq ayta olmasdi. O‘lim hiqildog‘iga kelib qolgan, qo‘llari qimirlamas, jovdiragan ko‘zlarigina tirik edi, xolos.

– Biz o‘zimizni ayamadik, burchimizni vijdonan bajardik. Oxirigacha shunday, shunday bo‘lishi kerak. O‘limingdan avval o‘ldirishlariga aslo yo‘l qo‘yma, aslo yo‘l qo‘yma, askar. Faqat shunday bo‘lishi kerak. O‘limdan o‘limning farqi bor. Faqat shunday.

– Madorim qolmadi, Semishniy, – asta gapirdi Plujnikov. – Ortiq kuchim yo‘q.

– Kuchim yo‘q deyapsanmi? Hozir kuch-quvvat paydo bo‘ladi senda, hozir shunday bir kuch berayki senga! Ko‘kragimdagi tugmalarni yech. Paxtalik, gimnastyorka – hammasini yech. Yechdingmi? Qo‘lingni tiq. Xo‘sh? Sezdingmi? Kuchni sezyapsanmi?

Plujnikov hech narsaga tushunmay, ikkilangan holda uning ustidagi paxtalik va gimnastyorkasini yechib, qo‘yniga qo‘lini tiqdi. Sovuq olib, dag‘allashib ketgan barmoqlari paypaslash qiyin bo‘lgan silliq shoyi bayroqni sezdi.

– O‘sha birinchi kundan buyon o‘zim bilan olib yuribman, – starshinaning ovozi titrab ketdi, lekin u o‘pkasi to‘lib kelayotgan yig‘ini bazo‘r to‘xtatib gapirdi. – Polk bayrog‘i, bu, leytenant. Ana shu bayroq nomidan buyruq bergan edim men senga. O‘shaning nomi, quvvati tufayli o‘lim bilan olishib yashayotgan edim. Mana endi sening navbatig keldi. O‘lsang-o‘l-u, lekin nemislarga berma. Bu sening ham, mening ham sharaf-shonimiz emas, Vatanimizning sharafi, shoni! Dog‘ tushirma unga, leytenant.

– Dog‘ tushirmayman.

– Qaytar orqamdan: qasamyod qilaman...

– Qasamyod qilaman, – dedi Plujnikov,

– ... Hech qachon, na tirik na o‘lik holda ..

– Na tirik, na o‘lik holda...

– Sovet Sotsialistik respublikalari Ittifoqi bo‘lgan Vatanimning...

– Sovet Sotsialistik respublikalari Ittifoqi bo‘lgan Vatanimning...

– Jangovar bayrog‘ini dushmanga topshirmayman!

– Dushmanga topshirmayman, – Plujnikov uning gapini takrorlar ekan, tiz cho‘kib starshinaning sovuq ko‘kragidagi shoyi bayroqni o‘pdi.

– O‘lganimdan keyin, ichingdan o‘rab olasan, – dedi Semishniy. – Ungacha tegma. U bilan birga yashadim, o‘lish paytida ham men bilan birga bo‘lsin.

Ikkovlari ham jim bo‘lib qolishdi. Ham tantanavor, ham qayg‘uli edi bu jimlik. Nihoyat Plujnikov jimlikni buzdi:

– Ikkitasini o‘ldirdim bugun. Tashqarida qor bo‘ralayapti, juda qulay.

– Qal‘ani topshirmadik biz, – asta gapirdi starshina. – Topshirmadik.

– Topshirmadik, – uning gapini tasdiqladi Plujnikov. – Topshirmayman ham.

Bir soatdan so‘ng starshina Semishniyning joni uzildi. O‘limi oldidan boshqa hech narsa demadi. Hali tirik bo‘lsa kerak deb, Plujnikov uning yonida uzoq o‘tirdi, lekin u allaqachon hayotdan ko‘z yumgandi.

U starshinadan bayroqni yechib oldi-da, yarim beligacha yechindi va bayroqni beliga yaxshilab o‘radi. Sovuq shoyi tezda isidi va u hayajon bilan qandaydir iliqlik seza boshladi. Bu iliqlik Semishniyning dafn etayotgan paytda ham, undan keyin uning joyida hamma paxtalikni yopinib yotganda ham tark etmadi uni.

U endi hech narsadan na nemislardan, na o‘limdan va na sovuqdan qo‘rqmasligi haqida o‘ylab yotardi. Endi u «men» degan tushunchadan yuqoriroq turadigan narsani his etardi o‘zida. Bu – Vatanimning o‘tmishi va kelajagi o‘rtasida bog‘lovchi zveno bo‘lgan uning shaxsi edi. Darvoqe, o‘sha mo‘tabar Vatanning bir parchasi sifatida shoyi bayroq uning ko‘kragini isitib turardi hozir. Bu shaxs kim o‘zi, uning nomi nima, qayerda, qay holda yashagan, kimni sevgan, qanday halok bo‘lgani bilan hech kimning hech qachon ishi bo‘lmaganligini yaxshi anglardi u. Uning uchun bir narsa muhim edi: o‘tmish va kelajakni yagona zanjirga bog‘lovchi zveno nihoyatda mustahkam. Mana shu mustahkam abadiyatni juda aniq bilardi u.

Yuqorida bo‘lsa, to‘xtovsiz qor bo‘ralar, yerto‘la va so‘qmoqlarni oq poyonozga burkar, jimjit qishloqlar-u, kulturepalarni qorga ko‘mar, bo‘shab qolgan shahar ko‘chalari bo‘ylab izg‘ib yurardi.

Lekin endi partizan gulxanlari yona boshlagan, unga o‘xshab o‘zlarini yengilmas hisoblaganlar qor bo‘roni panasida gulxan shu‘lasi atrofiga asta to‘planishardi. Nemislar bo‘lsa, qorong‘ilikdan, qor

bo'ronidan va tushunib bo'lmaydigan bu xalqdan dahshatga tushib uylarga, yo'l chetlariga biqinibhardi.

Xatin dahshati sodir bo'lmagan, Belorussiyaning har to'rt kishisidan bittasi halok bo'lmagandi hali. O'sha to'rttaning bit-tasi dushmanga qarab o'q uzardi hozir. Bu tuproq nemis armiyasi uchun do'zaxga aylangan. Ana shu do'zaxning muqaddimasi – Brest qal'asi edi.

Brestdan to Moskvaga qadar qor bo'ralar, nemis o'liklari-yu, ish-dan chiqqan harbiy texnikasini ko'mib tashlardi. Uning tengdoshlari bo'lgan boshqa leytenantlar rotani hujumga boshlab dushmanni til-ka-pora qilar, u tomon, taslim bo'lmagan vatanning taslim bo'lmagan o'g'loni tomon kelishardi.

3

Aprel oyining erta tongida sobiq skripkachi va sobiq odam Ruvim Svitskiy boshini quyi osiltirgan holda tank va mashinalarning g'ildiragi ezib yuborgan loy yo'ldan shoshgancha ketib borardi. Qarshi tomon-dan nemis mashinalari to'xtovsiz kelar, mashina oynasiga urilayotgan quyosh nuri u yoqdan-bu yoqqa likillab o'ynardi.

Endi u boshqa minglab yahudiylar qatori gettoda – alohida aj-ratilgan joyda yashar, skripka chalmas, harbiy mahbuslar lagerida o'tin arralardi. Uning ingichka barmoqlari qo'pollashib, qo'llari qaltiraydigan bo'lib qolgan, qalbidagi musiqa allaqachon so'ngan edi. U har kuni erta bilan ishga shoshib borib, kechqurun shoshib qaytardi.

Yon tomonda mashina birdan tormoz berib to'xtadi. Uning be-so'naqay, sezgir quloqlari bu to'xtagan yengil mashina ekanini bexato aniqlagan bo'lsa ham, o'sha tomonga qaramadi. Qarash ham, quloq solish ham man etilganligi sababli, to'xtamasdan yirtiq kovushi bilan loy kechib ketaverdi.

- Yude! Ruscha gapira olasanmi?
- Xuddi shunday, janob mayor.
- O'tir mashinaga.

Svitskiy orqa o'rindiqning bir chekkasiga omonatgina o'tirdi. O'rindiqda kimdir o'tirardi: Svitskiy yerga tikilgan bo'yicha bo-shini ko'tarmadi, lekin shunday bo'lsa ham, mashinaning Kashtan ko'chasiga burilganini va uni qal'aga olib ketishayotganini sezdi.

Garchi endi bundan ortiq cho‘chish va qo‘rqishga mutlaqo o‘rin qolmagan bo‘lsa ham, nima uchundir qattiq qo‘rqdi. Qo‘rqqanidan shunday gujanak bo‘lib oldiki, hatto mashina to‘xtaganda ham qimir etmadi.

– Tush pastga!

Svitskiy shosha-pisha mashinadan tushdi. Generalning qora «xorx» markali mashinasi xaroba o‘rtasida turardi. Xarobazordagi yerto‘laga olib tushadigan tuynuk, bu tuynukni o‘rab olgan nemis askarlarini va biroz nariroqda ustiga yopinchiq yopib qo‘yilgan ikkita jasadni ko‘rishga ulgurdi u. Yopinchiq ostidan beso‘naqay nemis etiklari chiqib turardi. Undan nariroqda nemis askarlari o‘rab turgan xarobaning va ikki jasadning narigi tomonida ayollar g‘isht taxlashardi: ayollarni unutgan soqchilar bu tomonga, qora «xorx»ga qarashardi hozir.

Buyruq yangrashi bilan askarlar safga tizildilar va yosh leytenant kelib generalga raport berdi. U qattiq gapirib raport berardi, Svitskiyning tushunishicha, pastda, yerto‘lada rus askari bor ekan: bugun ertalab u ikkita nemis soqchisini otib tashlabdi, lekin uni quvib kelib, kazematga qamashibdi, kazematning chiqib ketish mumkin bo‘lgan boshqa yo‘li yo‘q ekan. Raportni qabul qilib olgan general mayorga nimanidir asta gapirdi.

– Yude!

Svitskiy tezda bosh kiyimini oldi. U endi undan nima talab qilinatganini sezgandek bo‘ldi.

– Anovi yerda, yerto‘lada qandaydir fanatik, rus askari o‘tiribdi. O‘sha yerga tushib, uni ixtiyoriy ravishda qurolini topshirishga ko‘ndirasan. Agar o‘sha yerda u bilan qoladigan bo‘lsang, ognemyotdan o‘t ochib ikkovingni ham yondirib yuboramiz, bir o‘zing qaytib chiqadigan bo‘lsang, otib tashlaymiz. Fonus beringlar unga.

Svitskiy qoqila-suqila gisht parchalari ustidan yurib qorong‘i yerto‘laga tusha boshladi. Asta-sekin so‘nib borardi yorug‘lik, lekin ko‘p o‘tmay, oyoq ostidagi g‘isht parchalari tugab, g‘isht bilan to‘latib tashlangan yo‘lakka duch keldi. Svitskiy fonusni yoqishi bilan, qorong‘ilikdan bo‘g‘iq ovoz eshitildi.

– To‘xta! Otib tashlayman!

– Otmang! – kelgan joyida to‘xtab qichqirdi Svitskiy. – Men nemis emasman! Iltimos qilaman, otmang! Ular yuborishdi meni!

– Yuzingni yoritchi.

Svitskiy fonusni itoatkorona yuziga qaratgan edi, shilpiq ko‘zlarining pirpirayotgani ko‘rindi.

– To‘g‘ri yur! Faqat oyog‘ing ostini yorit.

– Otmang, – yo‘lakdan asta yurar ekan, yolvorib gapirdi Svitskiy. – Ular sizni yuqoriga chiqsin deb aytgani yuborishdi meni. Agar siz rad etadigan bo‘lsangiz, sizni yoqib yuborisharmish, meni bo‘lsa, otib tashlashadi...

Qayerdadir, juda yaqin joyda og‘ir nafas olayotgan odam sharpasini sezib, u birdan jim bo‘lib qoldi.

– Fonusni o‘chir.

Svitskiy fonus tugmasini paypaslab topdi. Chiroq o‘chib, hamma-yoq zimistonga aylandi.

– Kimsan o‘zing?

– Kimsan deyapsizmi? Yahudiyman.

– Tilmochmisan?

– Nima ahamiyati bor buni? – og‘ir xo‘rsindi Svitskiy. – Mening kimligimning nima ahamiyati bor? Yahudiy ekanligimni ham unutib qo‘ygan edim, lekin eslatib qo‘yishdi buni menga. Endi yana yahudiyman. Faqat oddiy yahudiyman, xolos. Ular sizni yondirib, meni otib tashlashadi.

– Bilmay tuzoqqa tushib qoldim, – alamli gapirardi ovoz. – Ko‘zim yorug‘da yaxshi ko‘rmaydigan bo‘lib qolgan, ana shundan foydalannb tuzoqqa ilintirishdi.

– Juda ko‘p ular.

– Baribir o‘qim tamom bo‘lgan. Biznikilar qayerda? Hech narsa eshitmadingmi biznikilar to‘g‘risida?

– Bilasizmi, shov-shuv gaplar yuribdi, – Svitskiy ovozini pasaytirib shivirlay boshladi. – Yaxshi gaplar, germanlarni Moskva yaqinida tor-mor qilishganmish, juda qattiq savalashibdi.

– Moskva-chi? Moskva o‘zimizdami? Nemislar olishmabdimi Moskvani?

– Yo‘q, yo‘q, nima deyapsiz o‘zi! Men buni aniq bilaman. Moskva yaqinida boplab nemislarning adabini berishgan. Tushunyapsizmi, Moskva ostonalarida.

Qorong‘ilikda to‘satdan kulgi eshitildi. Xirillagan tantanavor kulgi edi bu. Kutilmagan bu kulgidan Svitskiy o‘zini yo‘qotib, dovdirab qoldi.

– Endi chiqsam bo‘lar ekan. Chiqaman-u so‘nggi marta ularning ko‘zlariga qarayman. Menga yordam berib yuborgin, o‘rtoq.

– O‘rtoq – Svitskiyning tomog‘idan g‘arg‘araga o‘xshagan g‘alati ovoz chiqdi. – O‘rtoq dedingizmi siz?.. Voy Xudoyim-ey, bu so‘zni endi mutlaqo eshitmasman deb o‘ylagan edim!

– Yordam ber menga. Oyog‘imga bir narsa bo‘lganga o‘xshaydi, negadir bosa olmayapman, yelkangni tut, suyanib olaman.

Qotib ketgan suyak qo‘llar skripkachining yelkasini qisib ushladi va kalta-kalta olinayotgan nafas Svitskiyning yuzlariga urildi.

– Ketdik. Chiroqni yoqma, men qorong‘ida ko‘raveraman.

Ular yo‘lakdan asta yurib ketishdi. Uning nafas olishidan bu notanish odam har bir qadamni qanchalik azob bilan, qiynalib bosayotganini sezardi Svitskiy.

– Biznikilarga aytasan, – sekin gapirdi notanish odam. – Biznikilar qaytib kelganda aytasan, men yashirib qo‘ygan... – birdan jim bo‘ldi u. – Yo‘q, sen aytasanki, qal‘a taslim bo‘lmadi deysan. Qidirishsin. Hamma kazematlarni qarab chiqishsin. Qal‘a taslim bo‘lmadi. Qon to‘kdi, lekin taslim bo‘lmadi. Men uning so‘nggi tomchisiman... Bugun nechanchi chislo?

– O‘n ikkinchi aprel.

– Men bir yo‘la yetti kunga adashgan ekanman...Yigirma yosh, – kuldi noma‘lum odam.

– Yigirma yosh deganingiz nima u?

Noma‘lum odam javob qaytarmadi, to yuqoriga chiqquncha indamay ketishdi ular. O‘pirilgan joydagi uyumga zo‘rg‘a ko‘tarilib, tuynukdan o‘tishdi, so‘ng xuddi shu joyda noma‘lum odam Svitskiyning yelkasidan qo‘lini olib, qaddini rostladi va qo‘llarini ko‘kragiga qovushtirdi. Skripkachi shoshganicha o‘zini chetga olib unga qaradi va xilvat kazematdan olib chiqqan odamini birinchi marta ko‘rdi.

Yerto‘laga kiraverishda aql bovar qilmaydigan darajada ozib ketgan, necha yoshdaligi noaniq odam turardi. Boshyalang, oqargan uzun sochlari yelkasiga tushgan. Belidan kamar bog‘langan ustidagi paxtalik kamzuliga g‘isht rangi singib ketgan, shimining yirtig‘idan qon qotib qolgan tizzalari, uchi uzilib tushgan etikdan esa, sovuq olib do‘mbira bo‘lib ketgan barmoqlari chiqib turibdi. Qomatini tik tutib, boshini baland ko‘tarib mag‘rur turar, ko‘r bo‘lib qolgan ko‘zlarini quyoshdan uzmasdi u. Kipriklari piri-pira-

masdan qotib turgan mana shu ko'zlardan to'xtovsiz yosh oqardi hozir.

Hamma jim. Askar va ofitserlar, generallar ham jim. Ishlarini to'xtatgan ancha naridagi ayollar ham, ularni qo'riqlayotgan askarlar ham jim. Hamma haykaldek qotib turgan mana shu qomatga tikilgan edi.

So'ng general nimanidir past ovoz bilan gapirdi.

– Familiyangiz va unvoningizni ayting, – tarjima qildi Svitskiy.

– Men – rus askariman.

Xirillagan baland ovoz unga berilgan buyruqdan ham balandroq edi. Bu odam juda ko'p vaqt hech kim bilan gaplashmay yashagani uchun o'z ovozi boshqarolmay qolgandi. Svitskiy uning javobini tarjima qildi, general yana nimanidir so'radi.

– Janob general harbiy unvoningiz va familiyangizni aytishni qat-tiq iltimos qilyaptilar.

Svitskiyning ovozi qaltiradi, entikib gapira olmay qoldi va u to'xtovsiz oqayotgan ko'z yoshlarini titroq qo'llari bilan kirtaygan yuzlariga surganicha o'zini to'xtata olmay yig'lardi.

Noma'lum odam to'satdan boshini borgan edi, uning qimirlamaydigan ko'zlari generalga ro'baro' kelib qoldi va shu payt g'alati tantavor istehzo bilan o'sib ketgan qalin soqol biroz qimirlab qo'ydi.

– Xo'sh, general, rus chaqirimida necha qadam borligini aniqlab olgandirsiz endi?

Bu uning so'nggi so'zlari edi. Svitskiy yana generalning qandaydir savollarini tarjima qildi, lekin u, ko'rmayotgan bo'lsa ham, lom-mim demay quyoshga tikilganча turaverdi.

Sanitar mashina kelib to'xtadi. Vrach va zambil ko'targan ikkita sanitar shoshgancha sakrab tushdi undan. General imo qilishi bilan vrach va sanitarlar noma'lum askar tomon yugurib kelishdi. Sanitarlar zambilni yozishdi, vrach nimalarnidir gapirdi, noma'lum askar indamay vrachni o'zidan chetlashtirdi va mashina tomon yura boshladi.

U hech narsani ko'rmasdan, ishlab turgan mashina motorining ovozi mo'ljallab qat'iy va to'g'ri yurib ketdi. Hamma o'z joyida qimirlamasdan turar, faqat u shishgan va sovuq olgan oyog'ini mashaqqat bilan bosib borardi.

Nemis leytenanti to'satdan, xuddi parad paytidagi singari, shiddat bilan baqirib buyruq berdi. Askarlar tovonlarini bir-biriga juftlab, tan-

tana bilan qo‘llaridagi qurollarni bo‘y-bastlari bo‘yicha tik tutib «soqchi» holatini oldilar. Nemis generali ham biroz kechikibroq qo‘lini bosh kiyimi tomon ko‘tardi.

U bo‘lsa, hozir unga eng oliy harbiy hurmatni bildirayotgan dushmanlar safi o‘rtasidan gandraklab asta ketib boryapti. Unga bildirilayotgan bu hurmatni ko‘rmasdi u, bordi-yu, ko‘rganda ham, buning ahamiyati yo‘q edi endi. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday hurmatdan ham, shon-shuhratdan ham, o‘limdan ham yuqori turardi u.

Xotinlar, xuddi marhumga aza ochganday, dahshatli uvillasha boshlashdi. Ular sovuq aprel tongida birin-ketin yerga tiz cho‘kib ho‘ngrashar, unga, bo‘ysunmagan qal’aning eng so‘nggi himoyachisiga qo‘l cho‘zib, boshlari yerga tekkuncha ta‘zim qilishardi.

U bo‘lsa, oyog‘ini birin-ketin sudrab bosganicha, ishlab turgan motor tomon qoqilib, turtinib zo‘rg‘a borardi. Etigining tag charmi qayrilib uzilib tushdi, uning ortidan endi qonli iz hola boshladi. U esa hamon ketar, qanday yashagan bo‘lsa ana shunday mag‘rur ketardi. Faqat mo‘ljallagan marrasiga yetgandagina yiqildi u. Mashina yonida. Orqasini yerga berib, qulochini keng yozib, ko‘rmaydigan bo‘lib qolgan ko‘zlarini quyoshga tikkanicha chalqancha yotardi u. Hayotidan so‘ng ham o‘limni pisand qilmasdi, erkin yiqildi.





XOTIMA

Vatanimizning g'arbiy chekkasida Brest qal'asi joylashgan. Moskvadan uncha uzoq emas: poezd bir sutkadan ko'proq yuradi. Faqat sayohatchilargina emas, chet elga ketayotgan yoki qaytayotganlarning hammasi qal'ada albatta to'xtab o'tadi. Bu yerda hech kim baland ovoz bilan gapirmaydi: qirq birinchi yilning o'sha kunlari dahshatli gumbur-gumbur quloqlarni qomatga keltirgan, qal'a toshlari esa, juda ko'p voqealarning guvohi bo'lgan. Sipo ekskursovodlar guruhlarni jang bo'lgan joylardan boshlab yurganda, siz ham 333-polk yerto'lasiga tushib ognemyot o'tidan erigan g'ishtlarni ushlab ko'rishingiz yoki bo'lmasam sobiq kostel gumbazi ostida xayolga cho'mib turishingiz mumkin.

Shoshmang. Eslang ularni. Ta'zim qiling. Muzeyda esa sizga, qachonlardir o'q otgan qurollarni va kimdir o'sha 22-iyun tongida oyog'ini tiqib ipini bog'lagan askar boshmog'ini ko'rsatishadi. Sizga himoyachilarning shaxsiy buyumlarini ko'rsatishadi va tashnalikdan aqldan ozsalar ham, suvni go'daklarga bermay, o'qsocharga quyganlari haqida gapirib berishadi. Siz, qal'adan topilgan, hozircha yagona, bayroq yonida, albatta to'xtaysiz. Bayroqlarni hamon qidirishyapti, chunki qal'a taslim bo'lmagan, nemislar bironta ham bayroqni qo'lga tushirisha olmagan.

Qal'a jon olib, jon berdi. Taslim bo'lmadi. Tarixchilar afsonani yoqtirishmaydi, lekin sizga urushning faqat o'ninchi oyidagina nemislar qo'lga ololgan noma'lum himoyachi haqida, albatta, gapirib berishadi. Urushning o'ninchi oyi 1942-yil aprelda.

U noma'lum inson salkam bir yil davomida dushman armiyasiga qarshi jang qildi, jang qilganda ham yakka o'zi, kunni tun-

ga, tunni kunga ulab, na o'ngidan, na so'lidan va na ortidan najot kutmasdan, hech qandan buyruqsiz, uyidan xat-xabar olmay jang qildi. Uning ismi va familiyasi ham, unvoni ham bizga yetib kelmagan. Lekin biz shu narsani aniq bilamizki, u – rus askari edi.

Muzejda juda ko'p eksponatlar saqlanadi. Bu eksponatlarning hammasini terib qo'yadigan bo'lsa, muzey zallariga sig'maydi: ularning ko'p qismi ehtiyot qilib asrab qo'yilgan. Agar o'sha asrab qo'yilgan eksponatlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsangiz, ayollar tuflisining bir bo'lagiga joylashgan kichkina yog'och protezga ko'zingiz tushadi. Uni Oq saroy panjara to'sig'i yaqinidagi chiqurlikdan topib olishgan. Qal'a himoyachilari injener boshqarmasi binosini Oq saroy deb atashardi.

Har yili 22-iyunda Brest qal'asi urush boshlangan kunni tantanavor va ma'yus nishonlaydi. Tirik qolgan himoyachilar kelib gulchambarlar qo'yishadi, faxriy qorovullar qimir etmay turadi.

Har yili 22-iyun kuni tonggi poezd bilan Brestga keksa bir ayol keladi. U ayol gavjum vokzaldan hech qayerga shoshilmaydi, qal'ada biron marta ham bo'lmagan. U vokzal maydoniga osilgan marmar tosh taxta yoniga keladi:

1941-YILNING

22-IYUNIDAN 2-IYULIGA QADAR

LEYTENANT NIKOLAY (familiyasi noma'lum)

VA STARSHINA PAVEL BASNEV RAHBARLIGIDA

HARBIY XIZMATCHILAR VA TEMIR YO'LCHILAR VOKZALNI

QAHRAMONONA HIMOYA QILGANLAR.

Keksa ayol kuni bo'yi mana shu yozuvni o'qiydi. Uning yonida xuddi faxriy qorovulda turgandek turadi. Ketadi. Gul olib keladi. Yana turadi, yana o'qiydi. yetti harfdan iborat bo'lgan bu nomni o'qiydi:

«NIKOLAY».

Gavjum vokzal o'zining odatiy hayoti bilan yashaydi. Poezdlar keladi, ketadi, diktorlar biletni esdan chiqarmanglar deb odamlarni ogohlantirishadi, musiqa yangraydi, kulgu eshitaladi. Marmar tosh taxta yonida esa kekxa ayol jim turadi.

U ayolga hech narsani tushuntirishning hojati yo'q: farzandlarimizning qayerda yotgani unchalik muhim bo'lmasa kerak. Eng muhimi – ularning nima uchun halok bo'lganlarida.





MUNDARIJA

Hur qizlar yoxud Tonglar sokin edi bu yerda... (Haydar Ibrohimov tarjimasi).....	3
Ro'yxatlarda yo'q edi nomi (Elbek Musayev tarjimasi).....	113

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

BORIS LVOVICH VASILYEV

RO'YXATLARDA YO'Q EDI NOMI

Roman va qissa

Rus tilidan **H.Ibrohimov** va **E.Musayev** tarjimai

Nashr uchun mas'ul **M. Bo'ronov**

To'plab, nashrga tayyorlovchi **Sh. Shoabdurahimova**

Muharrir *Sh. Shoabdurahimova*

Rassom *R. Zufarov*

Badiiy muharrir *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *B. Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 19-fevralda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. «Times New Roman»
garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 22,0.
Nashr tabog'i 21,92. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma №. 20-533.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz


Vasilyev, Boris

V 25 Ro'yxatlarda yo'q edi nomi. [Matn]: Qissa va roman. /
Boris Vasilyev. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. –
352 b.

ISBN 978-9943-6583-7-0

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Poc=Pyc)





24 192,55 руб.



B.L. Vasilyev

«O'ZBEKISTON»

